

SHUKUR XOLMIRZAYEV

SAYLANMA

I-JILD

Hikoyalar

NOTANISH ODAM

Ovga borayotgan edim, havo aynidi. «Bahor havosi-da, bir sevalab o'tar», deb ketaverdim. Biroq sal o'tmay yomg'ir shunday quyib berdiki, birpasda ust-boshim ho'l bo'lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog'imga urdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o'rta bo'y bir kishi eshagining ayilini bo'shatardi.

— Salomaleykum.

Notanish odam menga qaradi-da, boshimdan-oyog'imgacha ko'z yugurtirib chiqdi. U qirg'iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirg' yoshlardan oshgan, baquvvat kishi edi.

— Aaalekum.

O't boshiga cho'nqaydim. Etigimni sug'urib, tagini olovga qaratib qo'ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim. Notanish odam gulxan yoniga qaytdi, bir dasta shuvoqni tagiga qo'yib o'tirdi.

— Xo'-o'sh, yo'l bo'lsin, yigit? — dedi u. Uning ohangida allanechuk kinoya borgan o'xshab ketdi.

— Ovga, qishlokdan, — qisqa javob berdim.

— Hali ovchiman dang? — daf'atan pixillab kuldi u va gulxanga o'tin qalay boshladi.

«Ovchiman! Buning nimasi kulgili?!» deb jerkib bergim keldi-yu, «ha!» deb qo'ya qoldim.

— Nega yomg'irda qoldingiz? — so'radi u jilmayishini qo'ymay.

— Qoldim-da.

— Yomg'ir yog'ishini bilmadingizmi?

— Qaydan bilay.

— Bulutni ko'rib edingizmi?

— Ha.

— Gallamang, ko'rganingiz yo'q.

— Obbo, mendan... nima istaysiz o'zi, amaki?

Suhbatdoshim menga xotirjam ko'z tashlab oldi.

— Kerakli narsani ko'ra bilishingizni istayman xolos. Ko'rgan bo'lsangiz: bulut tog'dan emas, cho'ldan ko'tarilayotgan edi. Ko'rinib turiptiki, bu bulut to'kkan yomg'ir ancha-muncha mahalda tinmaydi. Agar bulut tog'dan pastlagan bo'lsa, uning yo'rig'i boshqa edi. Shuni ko'ra bilganingizda, ilgariroq o'zingizni panaga tortardingiz, suvga cho'milib, bunday qunishib o'tirmas

edingiz.

Men tishimni tishimga bosib, jim qoldim.

Yomg'ir quyuyapti. Kamarning «pesh buruni»dan tosh «ostonasi»ga sharillab loyqa, qizg'ish suv to'kilyapti. Nam shuvoq hidi anqiydi. Notanish odam o'rnidan turdi.

— Xafa bo'lmang, yigit.

Chaqmonning yoqasini ko'tarib, boshini qopladi, kamardan chiqdi. Sal o'tmay yarmisi ho'l bir quchoq o'tinni ko'tarib kirdi. Uni kamarning to'rrog'iga eltib tashladi-da, menga qaramay, «isina bering», deya yana chiqib ketdi.

«Isina bering? Olovini minnat qilganimi!» Pidjakni kiyib, o'rnimdan turdim. Kamardan chiqarkanman, notanish odamni ko'rdim. U pastda, soyning yoqasida yugura-ela, daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib

tashlagan shox-shabbalarni terardi. «Ha, pishiq odam. Bu o‘tinlarni uyga olib ketadi. Eshagiyam tayyor». Notanish odam o‘tin uchun kamar bilan soy orasida yana uch-to‘rt marta qatnagach, kiyimlarini siqib, joyiga kelib o‘tirdi. Menga ko‘z qirini tashlab, o‘chayotgan cho‘g‘larni dag‘al barmog‘i bilan titkiladi.

— Tomosha qiling, yomg‘irning yog‘ishida ko‘ngilga yoqadigan bir dilgiriklik bo‘ladi, — dedi u. — Ko‘p yaxshi narsalar yodga tushadi. Ayniqsa o‘t yonida o‘tirib tomosha qilsang. Keling-e, yigit, o‘tiring.

Men, o‘zim ham bilmayman, nima uchundir yumshab qoldim.

Belbog‘ini yechib o‘rtaga yoydi. Eshakdagi xurjundan bitta yog‘liq patir bilan beshta qo‘y qurtini olib belboqqa qo‘ydi:

— Dasturxonga qarang.

— Rahmat, qornim to‘q.

— Rahmatni yegandan so‘ng aytasiz.

Men bitta qurtini olib shimiy boshladim.

Ikkalamiz ham jim, tashqarida shuvillab yog‘ayotgan yomg‘irga qarab o‘tiribmiz. Soy sohiliga ko‘kchil tuman o‘rmayapti. Sohilning so‘l tomoni bug‘doyi kuyib ketgan paykalday qorayib ko‘rinadi. Uning ustiga bulutlardan yo‘l-yo‘l zangor chiziqlar osilib tushgan. Bora-bora u chiziqlar oqardi, qorayib ko‘rinayotgan yerlar ham yorishdi. Atrof oydinlashib, ufq kengayib ketdi. Quyosh chikdi. Biz ham kamardan chiqdik.

— Xayr, yigit, ovingiz baror olsun, — dedi u. — Mening gaplarimdan xafa bo‘lmang.

U eshagiga mindi. Mening xayolimga u terib kelib kamarga tashlagan o‘tinlar keldi.

— Amaki, o‘tiningizni unutdingizmi deyman?

— Yo‘q, yigit, unutganim yo‘q, — kulimsiradi u, — siz uyga olib ketadi deb o‘yladingizmi? Uyimda o‘tinim bor. Mana, seryomg‘ir kunlar boshlandi. Sizu bizga o‘xshagan biron yo‘lovchi bu kamarga kirib qolgudek bo‘lsa, sovuqqa qunishib o‘tirmasdan, tayyor o‘tinni yoqib isinadi, shular uchun terdim.

U ketdi. Men kamar og‘zida, undan ko‘z uzolmay qarab qoldim.

1960

KO'NGIL

Qor tushishi bilan bizga jon kirardi. Tong bo'zarganda qarabsizki, miltiq yelkada, hali iz tushmagan bog' ko'chadan g'izillab ketib boryapmiz toqqa qarab.

Goh o'rtoqlar bilan chiqsak, goho... yakka o'zim chiqardim. U yerda Nazrulla degan o'rtog'imning tomi — keksa tollarga ko'milgan uylari bor. U yolg'iz onasi bilan yashardi. Otasi urushda o'lgan. Qiziq bola edi u. Kim, ovga yur desa, ergashib ketaverardi. Bu yokda maktab bormi, dars bormi — o'ylab o'tirmasdi. Uning miltig'i ham yo'q edi. Lekin, u nolimas, onasiga, miltiq olib ber, demas, ovga borayotganlarga ergashib ketaverardi. Ovga borgach, kiyimlarimizni poylab, olov yoqib o'tirar, ovimiz baror olgan bo'lsa, bizdan ortiqroq quvonardi.

Bir kuni saharda ayvonga chiqsam, laylak qor yog'ib turibdi. Shunday tez yog'yaptiki, chorpoya tagida chirqillashayotgan chumчуqlarni ham ko'rib bo'lmaydi.

Shosha-pisha uyu kirib kiyindim. Yarimta nonni bo'lib, kissaga soldim-da, miltiqni olib, devor osha ketdim. Bunday vaqtda birov ko'rmasin deysan. Lekin, albatta ko'radi. Devorlarning tagi bilan pishillab ketayotsam, to'p etib yelkamga bir lo'mboz qor tushdi. Nariga o'tib qaradim. Nurmat Kachal degan odam kuragining sopini ko'kragiga suyab qo'yib, hovuchiga kuhlayapti.

— Ovlar baror olsin! — dedi u. Bosh irg'adim.

— Poylab o'tirarkanmiz-da? Iljaydim.

...Nazrulla uxlab yotgan ekan. Meni ko'rib darrov gap nimadaligini tushundi.

— Axir maktabing bor-ku? — dedi onasi.

— Maktab qochib ketmaydi, enajon, — dedi Nazrulla.

Qor bo'ralaydi. Tog' ko'rinmaydi. Lekin, oyokdarimiz adashmay olib boryapti bizni. Do'nglikka chiqib bordik. Bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog'ardi. Atrofqa quloq soldik. Kaklik sayrashi eshitilmadi. Engashib, qorni ko'zdan kechirdik. Iz ham yo'q edi.

— Shapaloqxonaga boramiz, — dedi Nazrulla.

Bordik. Kirib chikdik. Toshlarga yopishib yuradigan cho'ponaldarg'ich qushidan bo'lak hech narsa yo'q edi.

— Huk daraga boramiz.

Ketdik. U yerda ham hech narsani uchratmadik.

— Haydar buloqqa boramizmi?

Ketdik. U yerdayam kaklik zoti yo'q edi.

Hafsalamiz pir bo'ldi. Kunning qay mahal bo'lganini ham bilib bo'lmadi. Osmon ham oppoq. Bir kamarga kirib, bodomchadan olov qildik-da, nonlarimizni cho'g'ga isitib yedik.

— Men katta yo'l bilan ketaman, — dedim Nazrullaga. — Miltiq uylaringda turatursin.

Kelishdik. Biroq qishloqqa olib tushadigan, ertalabki do'nglikka chiqqan ham edik, chap tomonimizdan, «kak-kak... kakiba-kakiba...» degan ovozlarni eshitib qoldik. Negadir men jahl bilan Nazrullaga «yot!» dedim-da, cho'nqayib yugura ketdim. Do'nglikning labiga — yerdan yorib chiqqanday uyum toshlar yoniga borib, pastga mo'ralasam, bir gala kaklik turnaqator tizilib, yonbag'irni qiyalab boryapti. Qoq belini ko'zlab otdim. Kakliklar chug'urlab ko'tarildi-da, qanotlarini dumlari tomon qayirganicha do'nglikning orqasiga o'tib ketishdi. Faqat bittasigina yerga tusha boshladi. Otdim pastga o'zimni. Dumalay-dumalay, yiqila-surila kaklikka yetdim va qo'llarimni yoyib, o'zimni uning ustiga tashladim. Kaklik qo'limda! U dirillaydi, quralay ko'zlarini jovdiratib, qip-qizil oyog'ini tarang cho'zadi. Pichoq Nazrullada edi, uning kelishini ham kutmay tishim bilan kaklikning kekirdagini uzib tashladim. Shu bilan ovimiz baror olib ketdi. Yo'lda yana bitta kaklik otdik. Nazrullaning quvonchini! Nuqul yelkamga urib, «yasha, yasha, jo'rajon!» deydi yig'lamsirab. Shunday qilib, ikkita kaklikni belga osib, qishloqqa qaytdik. Men to'g'ri uyu ketmoqchi edim, Nazrulla qo'ymadi:

— Isinaylik.

Onasi darrov ko'rpacha to'shadi, pechkaga ko'mir soldi. Men pech yoniga — po'stakka o'tirib, muzlab tarashaday bo'lib qolgan shimim pochalarini o'tga toblay boshladim.

— Go'sht qovurib beraymi? — dedi Nazrullaning onasi.

Men yo'q dedim. Lekin, qovurdi. Yeb bo'lganimizda, kech tusha boshlagan edi. Etigimni kiyib, kakliklarim bog'langan belbog'imga qo'l cho'zdim-u, lekin, tomirlarim tortib qoldi: «Axir kakliklarning bittasini Nazrullaga berishim kerak-ku! Men bilan kun bo'yi yurdi... Lekin, bersam, unda bitta kaklik bilan

uyga kirib boramanmi? Nurmat Kachal ko'rsa, «Ha, arang bitta otdingmi?» demaydimi? Yoki, «Aslida, otolmabsan-u, birorta ovchidan yalinib olibsan-da», deydi. Ota-onam-chi?»

Belbog'ni unutgan bo'lib, etigimning qo'njini torta-torta eshikka chiqdim. Nazrulla ayvonda belbog'ni chiqarib berdi.

— Nima, ikkoviniyam menga bermoqchimisani?

Kulimsiradi. Yerga qaragancha belbog'ni belimga bog'lay boshladim.

— Unisi semiz ekan, — dedi Nazrulla yalanib, — bunisi oriq ekan, mazasi yo'q.

Men miq etmay belbog'ni bog'ladim. Onasi bilan xayrlashdim-da, bu yoqqa o'tib kaklikning bittasini beraman, deganday:

— Narzi, senga bir gapim bor, — dedim.

Darvozadan chiqqach:

— Xayr endi, — dedim. — Tezroq borishim kerak uyga.

— Hm... — dedi Nazrulla. — Lekin bunisi judayam og'ir ekan...

— Ha... — dedim va ketdim. Lekin, ko'chaga burilayotib, o'girilib qaradim. Nazrulla bo'ynini qashib turar, menga pastdan tikilardi.

Orqa-oldimga qarayman, sakrab-sakrab ketaman, kaklikni ko'proq qimirlataman. Lekin, Nurmat Kachalning chorbog'iga yetguncha bironta ham yo'lovchi uchramadi. Kachalning darvozasiga yetgach, to'xtadim-da, miltig'imning top-toza qo'ndog'ini qor bilan arta boshladim. Milini ham artdim... Yo'q, Kachal yo'q. Kerak bo'lmaganda ko'chalarda lapanglab yurardi. Hozir yo'q. Juda sovuq qotdim. Bor-e!

Uyga borsam, na onam bor, na otam!

— Bozorqo'm xolang chaqirib ketdi, — dedi momom.

Kakliklarni dahlizdagi tashlandiq shkaf ustiga otdim-da, shart yechinib ko'rpaga kirdim.

Kun bo'yi yurib bo'lganimcha bo'lgan ekanman. Toshdek qotib qopman. Ertalab hech kimga gap qo'shmadim. Nonushta qilayotgan edik.

— Qalay, bo'rimi, tulkimi? — dedi otam.

Churq etmay dahlizga chiqdim. Shkafning ustiga qo'l cho'zdim. Hech narsa ilinmadi. Stol qo'yib chiqib boqdim. Hech balo yo'q!

— Qani kaklik? Momo?!

— Men qanday bilay, bolajon! — dedi buvim. — Menga bergan bo'lmasang. Gapgayam javob bermading-u.

Eshikka otildim. Bog'ning adog'idan, loyxonadan topdim... patlarini... So'ng miltiqni o'qlab, kun bo'yi deraza yonida o'tirdim. Mushuk kelmadi. Ertasi bozor kuni edi. Qor tingan. Yana miltiq olib tongda yo'lga tushdim. Nazrulla hovlilari sahnidagi qorni kurayotgan ekan. Meni ko'rib, qizargan burnini bir tortdi-da, ishini qilaverdi.

— Narzi... Yur, — dedim. U bosh qimirlatdi.

— Bugun otganimning hammasi seniki, — dedim. Nazrulla boshini keskin ko'tardi.

— Nima keragi bor! Zor emasman! Gap... Gap ko'ngilda, tushundingmi? — dedi u va kurakni qorga zarb bilan sanchib uyga kirib ketdi.

1961.

BIR KO'RGAN TANISH...

Maktabda yaxshi o'qirdim. Sinfdoshlarim meni hurmat qilishar, muallimlarim: «Salom, Toshboyjon», deb so'rashishar, qo'shnilarimiz: «Yaxshi odam bo'ladi», deyishardi. Lekin faqat bir kishi — tabiiyot muallimimiz — maktabimizning direktori Zokir O'rinovich menga e'tiborsiz qarar, hech vaqt: «Salom, Toshboyjon» demas, hatto ro'paralaridan chiqib, ko'zlariga tikilib salom berganimda ham, oddiygina bosh qimirlatib, o'tib ketardilar. Men, g'ashim kelib, nima qilsam bu kishi ham menga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, nomimni aytib so'rashadilar, deb o'ylardim.

Kunlardan bir kun, erta bozor oqshomi toqqa, tog'amning ovuliga somonga ketdim: otam aravadan olako'z, ori q o'tni chiqarib, «boyloq»qa tashlagandilar (Men uni har erta o'tloqqa eltib bog'lardim, kechqurun olib kelardim). Tog'dan kelsam, yangi yerga ko'chib ketgan qo'shnimizning hovlisiga o'sha kishi — Zokir O'rinovich ko'chib kelib, joylashib olibdilar.

Men nima qilib bo'lsa ham niyatimga yetish payiga tushdim: maktabdan qaytishim bilan ko'chaga chiqaman, muylushdagi aravaning shotisiga o'tirib olib, kitob o'qishga «sho'ng'iyman». Qarshimda o'rtoq Zokir O'rinovichning darvozalari! Albatta, bunaqa o'qishda miyaga bir narsa kirmaydi. Bir ko'zing direktorning darvozasida bo'lgandan keyin ahvolding shu-da.

Ikki kun shunday qildim: bir ish chiqmadi. O'rtoq direktor xiyobondan sap-sariq barglarni qisir-qisir bosib, hafsala bilan yurib keladilar-da, shu yurishda darvozadan kirib ketadilar. Meni payqamaydilar ham. Bo'ynimni cho'zib qarayman. «Balki hovlidan qarayotgandirlar»... Yo'q, darvoza past bo'lsa ham hech kim ko'rinmaydi. Aytmoqchi, u kishining bo'ylari anchagina past, men bilan bab-baravar. Lekin boshlari juda katta, quloqlari ham shalpangroq, burunlari ham uzunroq. Kiyim masalasida, bizning farqimiz yer bilan osmoncha.

Yakshanba kuni arava yonidan jilmaslikka qasd qildim.

Tong otdi, kun botdi: o'rtoq direktorning tirnoqlari ham ko'rinmadi.

Qosh qorayganda, yig'lamoqdan beri bo'lib, uyga kirdim.

— O'tni obkeldingmi?

— E-ee... — O'tloqdan o'tni keltirishni ham unutgan ekanman. O'tloqqa yugurdim: ot yo'q! Bu qorong'ida filni ham topib bo'lmaydi. Buning ustiga, hammayoq tog', archazor, jardara... Uyga borsam, otam terimga somon tiqadi.

Bitta toshni topib, o'tirib oldim. O'tiraverdim. Ustim yupqa edi, toshdan sovuq o'tdi. Qo'zg'almoqchi edim, yirokdan kelayotgan tuyoq tovushini eshitib qoldim: tap-tap-tap... Olako'zning qadam tashlashiga o'xshaydi. Olako'z! Bitta o'zi emas, kimnidir ko'tarib kelyapti. Yerdan bir changal ho'l tuproq olib baqirdim:

— Tush otdan!

Otliq fonarini yoqib, menga tutdi.

— Oliftalik qilma!

«Olifta» yerga tushib, ipni uzatdi.

— Qochib borayotgan ekan, ushlab oldim.

Quloqlarim chippa bitdi: ro'paramda o'sha kishining o'zlari — Zokir O'rinovich turardilar.

— O'lay agar, muallimjon, men sizni boshqa kishi deb o'ylabman.

— Zarari yo'q. — Yurib ketdilar. Kiftlarida ryuk-zaksimon xalta, ustlarida uzun paxtali, boshlarida telpak. Hozir ko'rsa hech kim u kishini direktor deb o'yilmasdi. Men o'tni yetaklab, shosha-pisha ergashdim. Ichimda o'tni so'kaman: «Tentak! Borib-borib shu odamga tutqizasanmi?» O'rtoq direktor bir tekis qadam tash-lab borar, bellariga osilgan allanarsalar yonlariga shap-shap urilardi.

— Ovdan kelyapsizmi, o'rtoq muallim? -Ha.

— Uning hammasi kaklikmi? -Ha.

— Shuncha ko'p otdingizmi? -Ha.

— Otam ovga chiqsalar, hech nima otolmay keladilar.

Javob bo'lmadi.

— Muallim, meni kechiring.

— Zarari yo'q.

— O'rtoq muallim... men ham ovni yaxshi ko'raman.

— Yaxshi. Ovning o'zi yaxshi-da.

— Men ham siz bilan chiqsam-chi?

— Marhamat.

— Siz qachon chiqasiz?

— Shanba kuni. Kechqurun.

— Keyin o'sha yokda yotib, ertasi ovlaysizmi? -Ha.

— A, qaerda yotasiz?

— Ovulda.

Azonda otni minib toqqa jo'nadim. Tog'amni o'tin yorayotgan yerida topdim.

— Tog'ajon, shu kelayotgan shanbada kechqurun maktabimizning direktori bilan kelaman. U kishini bilasizmi, Zokir O'rinovich deyдилar. Juda zo'r odam. Palovni damlab turasiz-da, tog'a! Uyat qilib ketmasinlar.

— Xo'p, jiyani, otdan tush.

— Darsga kech qolaman, bu o'lgir ot ham imillab yuradi. Tog'a, jon tog'a, miltig'ingizni bering, obkelaman o'sha kuni.

— Jijanjon... bilasan-ku, irimim bor.

Otamning yiroq bir oshnasidan miltig'ini olib keldim. Bizda miltiq yo'q. Direktorimizga aytgan gaplarim yolg'on, dadam umrida ovga chiqmagan. O'zim ikki yil burun, yangi yerga ko'chib ketgan qo'shnimiz Mirzaqobil ovchiga ergashib ikki marta chiqqandim.

Shanba. Kechqurun. Men o'tlokda otdan tushib, Zokir O'rinovichni qarshi oldim.

— O'rtoq muallim, otga mining.

— Rahmat.

— Mingashaylik bo'lmasa. Siz egarga o'tiring.

— Rahmat. Jo'nadik.

O'rtoq direktor otni o'z holiga qo'yib borar, ara-vaga qo'shiladigan ot — Olako'z charchagan eshakday boshini osiltirib, elan-qaran qadam tashlardi: tap-tap-tap... Ko'nglimga o't tushdi: «Bu yurishda tog'amnikiga qachon yetamiz?»

— O'rtoq muallim, ot zo'r, qattiqroq haydayvering.

— Hojati yo'q.

— O'rtoq muallim... men kaklikning konini bilaman.

— Yaxshi. Kaklik qaerda ko'p bo'lsa, o'sha yerga boramiz.

— Lekin u yer uzoq-da. Otni tezroq haydasakmi deyman?

— Mayli. Unday bo'lsa, mayli.

Ot jadalladi. Men ham otning biqiniga niqtay boshladim.

— Soat necha bo'пти, o'rtoq muallim?

— O'n. To'g'ri ketyapmizmi?

— Ha. Huv, soydan o'tib, tepaga chiqamiz. Yana ikki tepalikdan oshib, pastga tushamiz. O'sha yer — kaklikning koni.

Mana, oxirgi tepalikka chiqib keldik. Past qop-qora archazor. Yiroqda o't miltillaydi. Itlarning cho'ziq-cho'ziq hurishlari eshitiladi.

— Soat necha bo'пти?

— Bir. Ohho, tez yetib kelibmiz-u. Shu yermi aytgan joying?

— Shu yer. Pastga tushaylik.

— Hojati yo'q.

— O'rtoq muallim, hov ovulga borsak-chi? Yaqingina.

— Anchadan beri mana shunaqa, yalang yerda — archa-zorda yotmagandim. Mana, ikki kishimiz. Yotamiz. Tush... Juda gashtli bo'ladi. Har gal bir o'zim chiqardim. Ovulda tunardim.

— Men ancha kundan beri ovulda tunaganim yo'q.

— Keyingi kelishda tunaymiz. Qani, tush endi. Bunday kechalarni qadrlash kerak. Hademay sovuq tushib qoladi.

Betma-bet o'tiribmiz. O'rtamizda ovchilarning, yo'lovchilarning doimiy hamrohi — gulxan. Gulxanning ikki chetida ikki baland tosh. Ular ustida yashil kastyulka. Hali zamon choy qaynaydi. Etakda buloq bor edi, o'rtoq direktor buyurdilar, kastyulkada suv olib keldim.

— Ovda kastyul yaxshi, nima deding, ovqat pishirish ham mumkin, choy qaynatish ham.

— Ha, o'rtoq muallim.

— Xafa ko‘rinasan?

— O‘zim... yo‘q...

— Xursand bo‘lish kerak. Zavqlanish kerak. Zavqlana bilish ham yaxshi narsa. Qara, mayin shabada esyapti. Ko‘klamnikidek yumshoq emas, ozgina dag‘al. Kuzniki-da, kuzniki. Xususan, mana shu kunlarniki. Bundan rohatlanish kerak. Zavq olish kerak.

Iljayaman — o‘zimni rohatlanayotganday ko‘rsatmoqchi bo‘laman.

Zokir aka davom etadilar:

— Biz ko‘p xato qilamiz. Ko‘p zavqli manzaralar qarshisidan beparvo o‘tib ketamiz. Ko‘p zavqlardan bebahra qolamiz. To‘g‘ri, turmush tashvishlari bor. Ammo ulardan ustun kelish kerak. Aks holda tashvishlarga ko‘milib ketasan. Turmush tatimaydi... Sen nimadandir xafasan?

— Nega, o‘rtoq muallim?

— Gapim zeriktirgan bo‘lsa, bas qilaman, — kastyulkaning qopqog‘ini ochdilar. Oppoq bug‘ ko‘tarildi. Suv sutga o‘xshab ko‘rindi. — Hozir qaynaydi. — Ryukzaksimon xaltalaridan quruq choy va krujka oldilar. So‘ng allanechuk alahsib, xaltani avaylab titkiladilar-da bir shisha chiqardilar: qornida «Vodka» deb yozilgandi. Araq! Sal kamaygan. Tiqini ham ochilgan. Demak, oz-moz ichilgan. «Hozir yana ichadilar. Maktab direktori o‘z o‘quvchisining oldida ichadi! Undan keyin... undan keyin...» Ot kishnab yubordi. Zokir aka beixtiyor miltiqqa qo‘l cho‘zdi. Shitir-shitir yurib kimdir kelardi. «Tog‘am olovimizni ko‘rib kelayotgan bo‘lsa-ya?»

Umrimda ko‘rmagan bir odam keldi. Habashday qop-qora, boshida juni to‘kilib ketgan yarg‘oq telpak, oyog‘ida choriq. Qo‘shqo‘llab ko‘rishdi:

— Yov bismillo, yov bismillo.

Qo‘llari juda dag‘al edi. Yelkasidan miltig‘ini olib cho‘kkaladi, boshini egib:

— So‘rang, aka, — dedi direktorimizga.

— Siz so‘rang, — dedi direktorimiz.

— Yoshingiz ulug‘, siz so‘rang.

Eski qadrdonlarday so‘rashdilar. Kelgan odam faqat: «Shukur, shukur» dedi, direktorimiz, «rahmat, rahmat», dedi.

— Ovga chiqibsizda?

-Ha.

— Biz ham ovga chikdik. — Menga o‘girildi. — Siz, inim, Salim mo‘ylovning jiyanimasmi?

Men yerga qaradim.

— Yo‘q.

— Attang, attang.

— Nima edi? — deb qoldilar Zokir aka.

— Salim mo‘ylov degan odam bor-da anavi ovulda. Shunikidan kelyapman. Rayondan jiyani direktorini olib kelmoqchi ekan. Bechora bir qo‘y so‘yib, osh damlab o‘tirdi. Kelishmadi. Ko‘p xafa bo‘ldi-da mo‘ylov.

Endi direktorlar katta odam-da, a, aka? Miltig‘in-gizni bir ko‘ray. — Miltiqni oldi, nilining uzun-ligini ko‘zi bilan chamaladi. — Soz miltiq, soz. — So‘ng menikini oldi. — O‘ho‘, ichini kir bosib ke-tipti-ku? Moylamapsiz-da, inim-ey.

Men Zokir O‘rinovichga qaramaslik uchun bu odamdan ko‘z uzmasdim. U archadan novda kesib keldi. Tilini chiqarib tishlab, dudama pichog‘i bilan novdani bu-talay boshladi.

— Kaklik qalay? — bir ozdan so‘ng so‘radi Zokir O‘rinovich.

— Bor, tovushqon ham bor. Bultur xiyla ko‘p edi, burnog‘i yil undan ham ko‘p edi. Shu shahardan keladigan o‘g‘ri ovchilar kamaytirib tashladi. Saratonda ovga keladi-ya. Bo‘g‘oz tovushqonni ham otadi, tuxum bosib yotgan kaklikni ham. No-marddar. Endi, aka, qasd qildim, boshqa odamlarimiz ham qasd qilgan. Shunday nomard keldimi, g‘ippa ushlab hukumatga top-shiramiz. Mana, hozir ovlasin, qishda ovlasin, haloli bo‘lsin. Kaklik ham bor, tovushqon ham. Qoplon ham uchrab qoladi. Ha. Bultur yozda birini o‘zim ko‘rdim. Qurg‘ur qo‘limda miltiq yo‘q edi. Shu novdaday xivchi-nim bor edi. Buzog‘imni axtarib borayotsam, oldimdan chiqib qoldi. Muni qarang, uni urmoqchi bo‘lib, shu xivchinni ko‘taribman. Taqqa to‘xtadi u ham.

Men oldinga surildim. Tizzam tegib, araq ag‘anab ketdi. Darrov ko‘tardim. Hikoyachi bo‘lsa, bir menga, bir direktorimga o‘grayib qaradi-da, miltig‘ini olib sekin o‘rnidan turdi:

— Aka, biz endi ketsak ham bo‘ladi. — Javobni kutmay qorong‘ilikka kirdi-ketdi. Zokir aka: «Birodar!»

deb chaqirganlaricha qoldilar. Men hayron. Ammo Zokir O'rinovichga qarolmayman.

Ancha vaqt jim qoldik.

Zokir O'rinovich ustma-ust uch krujka choy ichdilar. «Nimaga araqni ichmayaptilar? Mendan uyalyaptilarmi? Nega bo'lsam uni menga ko'rsatdilar? Mana, hali ham oldimizda turibdi. Yashirmaydilar».

— Yot, mizg'ib ol.

— Uyqum kelmayapti, o'rtoq muallim.

— Undoq bo'lsa, men uxlayman. Mana, soat hozir bir. To'rtda meni uyg'otasan.

Uyg'otgim kelmadi. Lekin o'zlari cho'chib uyg'ondilar.

— Yot, endi sen uxlab ol.

— Uyqum kelmayapti.

— Gapni ko'p qilma.

Uyqudan turganimda Zokir aka miltiqlariga o'q joylar, soatlarining mili yettining ustida edi. Tong yorishib qolgan, kakliklarning sho'x-sho'x sayrashi eshitildi. Turayotib araqqa ko'zim tushdi. Kechagidan qittay ham kamaymagan edi: ichmabdilar.

Choshgohgacha archazorni kezdik. Oldimizdan sela-sela kakliklar uchdi, quyonlar qochdi. Biroq hech narsa otolmadik. Nishonga olgan kakligimizni ham, ustidan chiqib qolgan quyonimizni ham kechagi odam otib oldi: allaqaerdan yetib kelib, bizga soyaday erga-shib yurdi, lekin biz bilan na so'rashdi, na gaplashdi.

Kakliklarning sayrashi kamaydi, quyonlar ~ g'oyib bo'ldi. Ov «muddati» tugadi. Qo'shxonamizga qaytdik. Endi o'tirgan edik, tepamizdan bir gala ko'k qarg'alar uchib o'tdi. Zokir O'rinovich o'q bo'shatdilar. Bittasi yiqildi. Olib keldim. Zokir O'rinovich bir qo'llariga qarg'ani, bir qo'llariga «araq»ni olib, buloq to-mon ketdilar. Ergashdim. Haligi odam mukka tushib, bulokdan suv ichayotgan ekan. Nariroq bo'ledi-da, Zokir O'rinovichga qarab to'xtab qoldi. Zokir O'rinovich qar-g'ani yorib tozaladilar. «Araq»ni ochib, qarg'aning ichiga qulqillatib quya boshladilar.

— Endi bu qotadi, — dedilar menga.

— Qotadi?

— Ha. Bu qotiradigan dori.

U odam esa asta yonimizga keldi, cho'nqaydi, barmog'ini butilkaning og'ziga tegizib hidladi.

— Isi yo'q-ku?

— Yo'q, — dedi Zokir aka. — Kakligingizni bering. Qotirib beraman. Uyingizga qo'yasiz. Xuddi ti-rikday turadi.

— Tirikday? Tirikday tursa, qiziq bo'ladimi deyman-a, aka?

— Qiziq bo'ladi.

— Mana, mana, ichini tozalaymi? Xo'p... mana... e, yashang, kam bo'lmang. Aka deyman, siz ovdan maza qilmadingiz-a? — dedi ma'noli qilib.

— Ha, — dedi Zokir O'rinovich.

— Hozir maza qilasz. Inim, siz bu tovushqonning terisini shilib turing. Ketdik, aka, to'xtang, bittadan miltiq bo'shataylik... ana uchishdi, qo'zg'ab yubordik. Ketdik.

Quyoning terisini bir amallab shildim, jirriq labini tomosha qilayotgandim, ular kelishdi. Zokir O'rinovichning bellarida bitta quyon va ikkita kaklik osig'liq, u odam kechagi hikoyasining davomini aytib kelardi:

— Ikkovimiz bir-birimizga qarab turibmiz. Oramiz uch qadam. Xivchinni ko'targanimga kulgim keladi. Es ketgan-da, es ketgan. Aka, yo'lbarsda qirq yigitning haybati bor, bir yigitning kuchi bor; qoplonda bir yigitning haybati bor, qirq yigitning kuchi bor, deydilar. Bekor gap ekan. Bir yigitning haybati bo'lsa, mening esim ketarmidi?

Keyin

desangiz,

bir-

birimizga qarab turaverdik, turaverdik. Kiprik qoqqanimiz yo'q. Ishonasizmi, aka, shunda men kiprik qoqsam, qoplon meni olar ekan. Qo'rqqanimdan baqrayib turaverdim-da. Bir vaqt desangiz, asta iziga qayrildi. Ikki qadam yurib, menga yana bir qaradi, ketdi, ha, ketdi. Ana shu mardlikni qarang endi.

Ovqatni yedik. Men ham bir kaklik otdim. Charchab o'tirgan edim, oldimga kelib qo'ndi, otdim.

Qosh qorayishiga yaqin qaytdik. Direktor u kishi bilan oddiygina xayrlashdi. U odam esa bizni uyidan kuzatayotganday:

— Xushvaqt boringlar, — dedi. Balandda, sadaqayrag'ochga o'xshagan archaning yonida uning jikkak gavdasi uzoq vaqt ko'rinib turdi.

Ketyapmiz.

Olako‘z qadam tashlaydi: tap-tap-tap... O‘rtoq direktor egarda, men egar korsonidan ushlab o‘tirib-man. Boshim xam. Bir payt direktorimiz so‘rab qoldilar:

— Bu odam senga yoqdimi?

Nima deyishimni bilmay qoldim:

— Sizga-chi, o‘rtoq muallim?

— Yoqdi, juda yokdi.

— Nimasi?

— Sofligi, to‘g‘riligi. Lekin, u, bu kishilarga yoqay deb hatto o‘ylaganiyam yo‘q. Ko‘ngli nimani tusagan bo‘lsa, shuni qildi.

Indamay qoldim. Go‘yo tildan qolgan edim...

Kunlar o‘tdi.

Men shotida o‘girib kitob o‘qishni ham, ovga chiqishni ham yig‘ishtirib qo‘ydim; o‘sha kunning ertasi tog‘am kelib, mendan xo‘p ranjidilar. Bir haftadan keyin esa bozorda mo‘ylovlarini burab: «Direktoring ovulimizda tunadi», dedilar. Lekin... men xursand bo‘lmadim. Mundoq qaraganda, men o‘z niyatimga yetgan edim: Zokir O‘rinovich ham menga boshqacha ko‘z bilan qaraydigan, nomimni aytib, qo‘limni tutib so‘rashadigan bo‘lib qoldilar. Ammo u kishining qarashlari ham, so‘rashishlari ham boshqa muallimlarnikidan farq qilardi.

1965

...IKKI KO'RGAN BILISH

O'sha tog' safaridan so'ng menda shunday bir fikr paydo bo'lgan edi: «Endi birovga yoqaman deb hech urinmayman. Yo'qolsin xushomadgo'ylik!»

Bir kuni — o'shanda qish edi — bozor oqshomi dars tayyorlab bo'lib, deraza yonida turgandim. Tashqarida shitirlab qipikday quruq qor yog'ar, ayvon ustunidagi chiroq yorug'ida yiltillab, aylanib-aylanib tushardi.

Darvoza taqillab qoldi. «Otam keldi», deb o'yladim. Qarindoshimiz to'y qilib, bizni chaqirtirgan edi. Onam yosh go'dagi borligi uchun, men darsim ko'pligi uchun uyda qolgandik — otam ketgan edi. Pidjagimni kiyimasimdan, xonam devori dukulladi. Tushundim: narigi uydan onam dukullatyapti — darvozani och, degani.

Darvozani ochsam, ro'paramda novcha otam emas, o'zim bilan teppa-teng bir kishi yelkasini qisib, junjikib turibdi. Ust-boshi oppoq qor, qorboboga o'xshaydi. «Qorbobo»ning beliga osig'liq allanarsalarga ko'zim tushdi-yu tanidim: Zokir O'rinovich!

— Salomaleykum.

— Salom, — dedi u kishi. — Bu, yangang bir yoqqa ketgan ko'rinadi. Darvoza qulf. Kalitni sizlarda qoldirmadimi?

— Yo'q, — dedim. Onamdan so'rab chiqqim keldi-yu bu kishi xushomadgo'ylik qilyapti, degan xayolga boradi deb, qimirlamadim.

— Chatoq! — dedi Zokir O'rinovich. Etiklarining

qorini qoqib, atrofga qarab oldi. — Balki onangga tashlagandir. So'rab chiqmaysanmi?

— Mayli. So'rab chiqaman, — dedim. Yugurib bormoqchi bo'ldim-u, o'zimni bosdim. Salmoqli qadam tashlab ketdim. Onam Zokir O'rinovichning ismini eshitishi hamon irg'ib turdi.

— Kalit yo'qmi, shuni ayting? — dedim.

— Yo'q-yo'q, kelinoying kech tushmay kelaman, devdi.

— Bo'lmasam, o'tiring, borib shunday deyman. Nimaga turyapsiz?

— Seni qara-yu, u kishi sovukda qotib tursinlarmi uyoqda?

Men indamay qoldim. Rostdan ham bunday sovukda ko'chada turishi yaxshimas. Onam chiqib Zokir O'rinovichni boshlab qaytdi.

— Hali zamon kelib qoladilar, domlajon.

— Asli o'zim ham bugun qaytmoqchi emas edim, — dedi Zokir O'rinovich, — qaragam, qor hali-veri tinmaydigan. Qayta qoldim.

Ular gaplashib ayvonga chiqishdi. Men xonamga kirayotgan edim:

— Shu uygga kiramizmi? — dedi Zokir O'rinovich. Men eshikni ochgan ko'yim beixtiyor to'xtadim.

— Yo'q, bu Toshboyjonniki, shogirdingizniki, — dedi onam.

— Qani, qani, — Zokir O'rinovich yonimdan ichkariga mo'raladi. Xonam, maqtanmayman, aytsa aytgudekkina edi. Ro'parada, burchakda tunuka pech lovillab turibdi. Undan narirokda, javonda kitoblarim taxlog'liq. Shiftga osilgan chiroq uydamni yop-yorug' qilib yuborgan.

— Durust, durust, — dedi Zokir O'rinovich. — Shu yerga kira qolaylik bo'lmasam.

Ta'bingiz, ta'bingiz, — dedi onam. Zokir O'rinovich o'sha yerda etigini yechmoqchi edi, onam: «Etigingiz muzlab qoladi», deb qo'ymadi, Zokir O'rinovich ichkarida yechindi. Onam u kishining etigini yerga yotqi-zib, tagini pechga qaratib qo'ydi, uzun paxtaligini qoziqqa ildi. Zokir O'rinovich pechga qo'llarini tob-lab bir oz isitgach, kaftlarini bir-biriga ishqay-ishqay, javon yoniga bordi. Onam stol ustini tartibga solar, karavot qoshidagi kiyimlarimni olib, qoziqlarga ilar, tinmay ivirsir va og'izlari ham tinmas edi:

— Domlajon, shugina o'qisin, odam bo'lsin deymiz-da. Otasi ham, men ham bundan hech narsamizni ayamaymiz. Xudoga shukur, bu ham yuzimizni yerga qaratmay kelyapti.

Men bir chetda g'ijini turardim, onamning ba'zi gaplari ko'nglimning qaerigadir yoqib-yoqib ketsa-da, bari bir g'ashimni keltirardi.

— Qani, domlasi, o'tiring, ustalga o'tiring, — dedi onam. Zokir O'rinovich stulga o'tirib, uyni ko'zdan kechira boshladi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi u kishi. — Endi, xola, hammamiz ham shular odam bo'lsin deymiz-da.

— Rahmat, o'rgilay, rahmat. Domlasi, siz bermalol o'tiravering, men hozir kelaman.

— Hech narsaga ovora bo'lmang.

— Ovoragarchiligi bormi, domlajon. Allag'aytib bir kiribsiz uyimizga. — Onam chiqdi. Men toqatim toq

bo‘lib, Zokir O‘rinovichning qarshisidagi stulga cho‘kdim.

— Xo‘sh, ishlar qalay? — so‘radi u kishi.

— Yomonmas, — dedim yonboshimga qarab.

— Bu, ovni ham yig‘ishtirib qo‘ydingmi deyman? Men bosh irg‘adim.

— Yaxshimas, yaxshimas, — dedi u kishi. — Kishilar uzoq-uzoq shaharlardan ov uchun tog‘imizga kelishadi. Sen esa bu yerda turib, qadrlamaysan. Yaxshimas. O‘sha odamlar shu yerga kelguncha qancha mashaqqat tortadilar, pul xarj qiladilar. Olib ketadigan boylklari esa ikkita-uchta kaklik. Lekin ular bundan aslo xafa bo‘lmaydilar. Bu yerda gap bor-da.

Men bosh qimirlatib o‘tirardim.

Onam choy qaynatib keldi. Stolga shokolad va men mazasini totmagan marmeladlar ham keltirildi... Onam yana qaytib chiqdi, shu payt tashqarida o‘tin yorilayotgani eshitildi.

— Onang bir nima qilmoqchi, ayt, ovora bo‘lmasinlar, — dedi Zokir O‘rinovich.

Men chiqdim.

— Ona... qo‘ying...

— Nima? — Onam hayron bo‘lib qaradi.

— Qo‘ying... o‘zlari shunday deyaptilar.

— Jinni bo‘ldingmi? Desalar deptilar-da.

— Xushomadgo‘ylik qilmoqchimisiz?

— Yo, pirim, bu nima deganing? Bo‘ldi-bo‘ldi, bor, kir ichkariga. Gaplashib o‘tir u kishi bilan, zerikib qolmasinlar. — Onam meni chirt burib, yelkamdan itarib yubordilar.

Zokir O‘rinovich devordagi dars jadvalimni ko‘zdan kechirayotgan ekan.

— Onam unamadi, o‘rtoq muallim, — dedim. Zokir O‘rinovich menga ohista burildi-da, tikilib qaradi, so‘ng jimjilokdari bilan ko‘zlarining pastini qashib, o‘ychan so‘radi:

— Nima dedilar u kishi?

— Odamgarchilikni bilmas emishman. — Men yelkamni qisdim va «uzr, o‘rtoq muallim, onam sal xushomadgo‘yroq» deganday, kulimsiradim. Nazarimda, u kishi ham kulimsirayotgan bo‘lishi kerak edi. Ammo qaragam, u kishi tamom jiddiy, buning ustiga, chimirilgan.

— Bo‘lmasam sendan iltimos, — dedi Zokir O‘ri-novich allanechuk temirdek jarangli tovushda, — shu kakliklarning birini u kishiga chiqarib ber. — Turib, kakliklarning bittasini olib berdi. Men hayron bo‘lib u kishiga qaradim.

— Nega?

— Bor-bor.

Muzlagan patlari yumshab ho‘l bo‘lgan kaklikni ko‘tarib chiqdim... Onam qaytarib olib keldi. Lekin Zokir O‘rinovich: «Xafa bo‘laman», deb qo‘ymadi.

Men yana hayron edim. Nazarimda, Zokir O‘rinovich ham onamga xushomadgo‘ylik qilayotgan edi.

Sho‘rva ham keldi. Ichildi ham. Albatta, mening tomog‘imdan o‘tmadi. Choy ustida suhbat yana menga ko‘chdi. Onam yana menga yaxshi sharoit yaratib bergani, meni o‘qitish va yaxshi odam qilish niyatida ekanligini gapirdi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi Zokir O‘rinovich. — Biz ham shularni odam bo‘lsin deb harakat qilyapmiz. Lekin bilasizmi, xola, nazarimda, hammamiz ham juda oddiy bir narsani unutayotganga o‘xshaymiz. Bu eng oddiy odamgarchilik nima? Kishilarga qanday muomalada bo‘lish kerak? Jamoat orasida o‘zini qanday tutish kerak? Yoki bo‘lmasam, mehmondo‘stlik nima? Bular haqida kam ta‘lim berayotganga o‘xshaymiz. Maktabda ham odamgarchilik to‘g‘risida fan kiritsakmikin deb o‘ylab qoldim.

Direktorning gaplarini bosh qimirlatib ma‘qullab o‘tirgan onam birdan qizarib ketdi-da, menga qarab oldi, siniq kulimsiradi. Zokir O‘rinovichning gaplari to‘g‘ridan-to‘g‘ri menga qaratilganini sezib, o‘zim ham muzlab ketdim: «Lekin... nega? Nega axir? Men xushomadgo‘ylik qilishni istamadim, xolos!»

— I-e, bizning hovlida chiroq yonibdi! — deb qoldi Zokir O‘rinovich.

Haqiqatan, u kishining hovlisida chiroq yongan edi.

Zokir O‘rinovich onamga qo‘sh-qo‘sh rahmat aytib, o‘rnidan turdi. Onam rahmatning hech hojati yo‘qligi, u kishining izzatini joyiga qo‘yolmaganlarini aytdi. Zokir O‘rinovich kiyinib, kakliklarni oldi. Chiqdik. Darvoza yonida ham onam bilan u kishi bir muddat haligiga o‘xshash gaplar qilishdi: onam u kishidan kalit yonlarida bo‘lgan chog‘dayam kirib turishlarini so‘radi. Zokir O‘rinovich va‘da berib, onamni ham uyiga taklif etdi.

Onam tirsagimni bir chimchiladi-da, ro‘molini pe-shonasidan pastroqqa tushirib, hovliga kirdi. Men qimir etmadim.

Zokir O‘rinovich darvozasi yoniga bordi-da, mening hali ham turganimni ko‘ribmi, to‘xtadi. So‘ng sekin yurib, yonimga keldi.

— Sen bir gap aytmoqchiga o‘xshaysan?

—Ha, o‘rtoq muallim, — dedim men, — sizga yana yoqmadim... Negadir boshqalarga ham yoqmay qolyapman.

Zokir O‘rinovich bir muddat o‘ylanib turgach, javob berdi:

— Chunki xushomadgo‘ylik bilan odamgarchilikni farqlay olmayapsan. Tushundingmi?.. Xo‘p, bu haqda hali ko‘p gaplashamiz. Aytmoqchi, tayyorgarligingni ko‘rib yur, kelgusi hafta ovga boramiz.

— Mayli, — dedim sekin.

Qor yog‘ar, uyda meni onam kutardi.

1965

NIMADIR YO'Q BO'LDI

Er — Qismatulla ta'sirchan, sho'x edi. Xotin — Hikmatoy sovuqqon, xotirjam ham andak qo'polroq edi. Lekin ular bir-birini yaxshi ko'rar, shuning uchun tabiatlaridagi bu har xillikni sezmas edilar, go'yo ular shundoq tug'ilganlaru shundoq bo'lishlari lozim edi.

Bir kuni bular bir ziyofatda bo'lib, bir eru xotinning o'zaro va o'zgalarga muomalasiga guvoh bo'lishdi. Ular bir-biriga shu qadar yarashgan, shu qadar odobli, harakatlariyu so'zlari shu qadar dilbar va o'zlariniyu o'zgalarga shunday ajib dildorliklar ko'rsatar edilar, beixtiyor shu bazm qahramonlariga aylanib qolishdi...

Bazm tugagach, bu antiqa juft haqida har kim har xil fikrda ketdi. Qismatulla bilan Hikmatoy ham.

«Er ancha og'ir... lekin xotini chuchmal ekan», deb o'yladi Hikmatoy.

«Ha, eri kulturniy, lekin xotini...» — Qismatullaning o'yi o'zga, notanish chiziqdan ketdi: u beixtiyor «qahramon xotin»ni o'zining Hikmatoyi bilan qiyosladi va nazdida, xotini undan go'zalroq tuyuldi, ammo taqqos muomala-munosabat masalasiga yetganda Qismatullaning ko'ngli allanechuk orziqishga to'lib, bir zum xayolga tildi: Hikmatoydan shu mahalgacha biron-bir iliq so'z yo yoqimli bir dildorlik ko'rganini eslolmadi.

— Ko'rdingmi u er-xotinni muomalasini? — so'radi u chidolmay.

— Ko'rdim, — loqayd jaob berdi Hikmatoy. — Eri durust, lekin xotini ko'p kisliy ekan.

Qismatulla yongudek bo'lib ketdi.

— Senga shunday tuyulgandir-da, — dedi dag'allik bilan.

Xotini eridagi yangilikni sezdi, bu uning hamiya-tiga tegdi.

— Bo'lmasam, shunaqasidan topa qoling, — dedi-da, jadallab ketib qoldi.

Ular boshqa bir masala xususida tortishib, Hikmatoy shundoq ketib qolganda Qismatulla uning izidan borib uzr so'rab, so'ng unga tegajaklik qilib, sho'xlik qilib, ko'nglini olar edi — shu bilan o'rtadagi inoqlik tiklanar edi. Shunisi qiziqki, erining bu odatini Hikmatoy ham yaxshi bilar va yo'lakay uning yetib kelishini kutar, so'ng bir oz injiqlanib, yon berar — shu bilan inoqlik barqaror bo'lishiga hissa qo'shar edi.

Qismatulla xotining ortidan qarab turar ekan: «Nima uchun endi hamisha men gapirishim kerak?» deb o'yladi birdan va o'ziga o'zi uqtirdi: «Bu safar o'z» gapirsin!»

Ular uylariga yetguncha bir-biriga gap qotishmadi. Xonaga kirib, kresloga cho'kishdi va shunda nozik bir holat maydonga keldi: ular beixtiyor bir-biriga, qarashdi.

Ilgari mabodo biron masala xususida shunga o'xshash vaziyat sodir bo'lib, so'ng favqulodda bir-biriga qarashganda Qismatulla... kulib yuborar, so'ng Hikmatoy ham o'ziga xos zo'rg'a tabassum qilar edi. Shuning bilan yarash-yarash...

Qismatullaning ko'zi xotiniga tushdi-yu, ichidan tomog'i tomon bir kulgi otilib chiqib kelayottanini payqadi, ammo: «Yo'q, bu gal u kulsin!» deb o'yladi. Xotini esa teskari qaradi.

Qismatulla shu kecha beixtiyor tarzda o'zining ta'b-tabiati haqida xayol surib qoldi va unga birdan shunday tuyuldiki, o'zi sho'x, ta'sirchan, xotiniga tegajak bo'lgani uchun xotini shundoq: sovuqqon, xotirjam, hatto qo'polroq.

Qismatulla ahd qildi: endi buning teskarisi bo'lishi kerak, endi o'zi sovuqqonu xotirjam bo'lishi kerak, shunda xotini o'zi kabi... bo'ladi.

Odatda, ertalab Qismatulla choyga unnar, Hikmatoy to'shaklarni yig'ar edi. Bu kun Qismatulla choysiz jo'navordi ishga... Hikmatoyning ham achchig'i keldi va to'shagini yig'mayoq kiyinishga tutindi. U taxminan erining ko'nglidagini sezgan, shuning uchun undan o'ch olishga ahd qilgan bo'lsa ham ajab emas.

Bir hafta o'tdi. Er-xotin begonalar kabi yashashdi. Qismatulla qiynaldi, o'rtandi: o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas. Shubhasiz, Hikmatoy ham azob chekkan bo'lsa kerak: axir u ham Qismatullaga o'rgangan...

Keyingi haftada xotin istirohat oyiga chikdi va Vengriyaga turist yo'llanmasi olib keldi. Kiyim-kechaklarini chamadonga solar ekan, eriga eshitarli qilib:

— Erta ketaman, gruppamiz boshlig'i biletniyam olibdi, — dedi.

Qismatulla unga yalt etib qaradi. Nimadir de-yishni burchi deb bildi.

— Yaxshi. Men ham ketaman... Sen kelgandan keyin, — dedi.

Tamom. Bu yoshlar yosh ziyoli er-xotinlar o'rtasidagi rasm bo'la boshlagan bir odatni — yoshlikda dunyoni ko'rib kelish uchun xorijga chiqishni o'zlariga qabul qilgan, mana uch yildirki ular goh yolg'iz, goh birlikda chetga chiqishar edi.

Mabodo birining qolib, birining ketishiga to'g'ri kelsa, o'sha kuni uylarida uyqu ham kam bo'lar edi...

Lekin bu tun eng shirin va lazziyatli tun sifatida yodlarida qolar edi.

Bu tun ham ular kam uxlashdi. Ammo gapsiz, soʻzsiz. Shundoq daqiqalar boʻldiki, Qismatullaning birdaniga ehtiros bilan «boʻldi!» deb Hikmatoyning bagʻriga olishiga, Hikmatoyning ham bunga juda tayyor turganiga bir bahya qoldi.

Ertasi Hikmatoy «pasadka» eʼlon qilingan samolyot maydoni tomon borayotganida ham nozik hollardan biri sodir boʻldi...

Odatda, bunday mahalda Qismatulla xotiniga hazil gaplar aytar, kular edi. Hikmatoy ham ichida behad zavqlanar, xursand boʻlar edi...

— Xayr, — dedi Qismatulla.

Qismatulla uchun bu birinchi yolgʻizlik kechasi ham azob keltirdi. Garchi u shu kunlarda xotini bilan begonalardek yashagan boʻlsa-da, bari bir u qalbining muhim bir goʻshasini tabiiy holda toʻldirib turgan ekan. Chamasi, Hikmatoy ham Moskva mehmonxonasida rohat qilib dam olmadi.

Oradan hafta oʻtib, Qismatulla ahvoliga koʻnika boshladi. Xotini qaytib keladigan kundagina u tanish, olis bezovtalik ichida qoldi, intizorlik bilan tong ottirdi, hayajon bilan uni kutgani chikdi.

Hikmatoy ham chamasi shu alfozda yetib keldi va erining qarshisiga peshvoz yugurdi.

— Salom, — dedi Qismatulla.

— Salom, — dedi Hikmatoy.

Ularning qoʻllari tutashdi, lekin shunda: «Hozir oʻziga tortadi», deb oʻyladi Hikmatoy. Qismatulla esa u tomon choʻzilayotgan qoʻlini zoʻrgʻa tutib: «Yoʻq... oʻzi-oʻzi», deb oʻyladi. Bir necha daqiqa oʻtdi va qoʻllar ajralishdi. Shunda Hikmatoy kulimsiragan boʻldi. Qismatulla ham goʻyo odob yuzasidan unga javoban jilmaygan boʻldi.

Soʻng, hayron boʻlishgan kabi avtobus bekati tomon jilishdi.

Uy, tun, toʻshak...

— Haliyam... oʻzi... oʻzgarmadimi odatangiz? — dedi Qismatulla.

— Sizniki-chi? — dedi Hikmatoy.

Shunda ular turib oʻtirishdi, bir-biriga bir vaqtning oʻzida egilishdi va bir-birini quchishdi, ammo ular kutganiga qarshi, shunday tuyuldiki, egilishmasa ham, quchishmasa ham boʻladi...

Buni anglab, birdan ajralishdi va bir-biriga qarashdi: tushundilarki, oralaridan nimadir... nimadir yoʻq boʻlgan!

1965

OLMA YEMADIM

Tog'dan qaytib kelayotgan edik. Men, yana uchta oshnam. Hammamiz eshakdamiz. Ola Chopon qishlog'iga kirdik. Odamlari yangi yerlarga ko'chib ketib, uylari huvillab qolgan. Tomlari buzilib, yog'ochlari ham tashib ketilgan. Mol o'tmaydigan balandlikdagi devorlari ham nuragan, bog' ichidagi olma va tog'olchalar esa pishib yotibdi.

Soy yoqalab, devorlarning yonidan borayotgan edik. Oshnalarimning biri — sho'x, shum, tiqmachoqday Habibulla:

— Picha olma olmaymizmi? — deb qoldi. Taklif boshqalarga ham ma'qul bo'ldi. Eshaklardan tushdik.

— Xurjunlarni olinglar. Uyga ham eltamiz. — Bu taklif ham boshqalarga ma'qul bo'ldi. Xurjunlarni olib, biri yelkasiga tashladi, biri bilagiga osdi. Men esam, eshagimning kalta yolidan ushlab, uyoq-buyoqqa qarab turaverdim. Nima bo'lsa ham, bu ish — o'g'irlik-da...

— Ha? — dedi Habibulla.

— Men eshaklarga qarab turaman, — dedim.

— Eshaklarni bo'ri yeydimi, yuraver.

— Borgim kelmayapti...

— Erinyapsanmi? — dedi Mo'min.

— Yo'q...

— Birovning narsasiga tegishni yomon ko'radi bu kishi, — dedi kesatib Habibulla, so'ng bir shumlikni o'yladimi, tirjaydi: — Ko'ramiz hali, ko'ramiz...

— Ha, yomon ko'raman, — dedim men. — Bormayman.

Habibulla boshliq bolalar tosh devordan oshib, qovjirab yotgan o't-o'lan ichiga tushishdi. Keyin sakrab-sakrab olmazorga kirib ketishdi. Men, o'tlar ichida ilon-pilon yo'qmikin, deb ularning ortidan qarab turdim. Keyin eshagimning no'xtasiga bog'langan qilchilvini oyog'im ostiga bosib, toshga o'tirdim. Soy o'rtasidagi suvdan xoli yerda o'sib, xarsanglar ustiga yoyilib yotgan yovvoyi uzumni, qishloq uylarini tomosha qildim.

Devor ortida o't shitirladi. O'rimdan turdim. Oshnalarim xurjunlarining ko'zini to'ldirib, bittadan olmani tishlab iljayib kelishardi. Birin-ketin menga ko'z qiri bilan qarab, devordan o'tishdi.

Habibullaga qaraganda Mo'min menga yaqinroq. Qo'shni bo'lmasak ham, birga yuramiz. Maktabda pryanik olsak, bo'lib yeymiz. U xurjunini eshagiga ortarkan, bir pallasini ochdi.

— Ol, paxtaseb.

— Yemayman, bu o'g'irlik, — dedim.

Paxtaseb — olmaning bir turi. Kichkina, sarg'ish bo'ladi. Lekin, juda mazali, sersuv.

Jo'nadik.

Yo'l tor: bir tomon devor, bir tomon soy. Tizilishib ketyapmiz. Orqada men. Oldinda Habibulla. Shartlashib olishganmi, baravariga olma tishlashadi. Po'chog'ini bo'lsa, oldinga cho'zilib, eshaklarining og'ziga solishadi...

Soy bizdan uzoqlashishi bilan, eshagimni niqtadim. Oldinga o'tdim. Qarshimizda Jirg'oti degan dovon bor. Balanddigi uch kilometrcha keladi. Eshakning yelkasini xalacho'pning uchi bilan qitiqlab, haydayverdim. Kun qizib kelayotgandi. Mayli, bir oz yuray, keyin eshakdan tushaman. Archazor boshlanadi. Soyasidan ketaveraman.

Bir payt orqadan Habibulla:

— Buyoqdan boramiz, — dedi.

Qarasam, eshagini dovonning bitta ham tikkaygan daraxti yo'q yalang tomoniga buryapti.

— Nima qilamiz buyoqdan yurib?

— Ovul bor, qatiq ichamiz.

Qatiq... Qatikdan kim yuz o'giradi? Hademay kun qizib ketadi.

Indamay, eshakni iziga qaytardim. Ular yana oldinda, men orqada. Yana ular olma yeb, po'chog'ini eshaklarining og'ziga tiqib borishyapti.

Dovonning yarmigacha bordik. Lekin, ovuldan darak bo'lmadi. Chanqay boshladim... Kun qizib ketdi. Tevarakda suv degan narsa yo'q...

— Ovul qani? — dedim Habibullaga xo'mrayib qarab.

— Yo'q, ko'chib ketishibdi, — dedi u beparvo va qarsillatib yana bitta paxtaseb olmani tishladi. Rosti, og'zimning suvi keldi.

Dovonning tepasiga yetishimizga besh yuz qadamcha qolganda holdan toydim... tanglay o'lgur qurib, tilim og'zimda aylanmay qoldi. Ular bo'lsa, hamon pishillab, olma yeyishadi.

Eshakka o'rnatib o'tirgan kishi bo'lib, Mo'minga qaragandim, uning yuzidan menga achinganini payqab qoldim. Darhol ko'zimni qisdim. Bir mayizni ikki bo'lib yeydigan Mo'min do'stim fikrimni payqadi. Asta-sekin eshagi menga yaqinlashib keldi.

Mo'min biqinimga turtdi. Unga qaramay, orqa cho'ntagimni kovlayotgan kishiday, qo'limni sekin uzatdim. Muzdakkina, silliqqina olma qo'limga tegdi. Shartta changallab oldim-da, hech narsa bo'lmaganday, eshakni haydayverdim. A'zoyi badanim bilan Habibullaning kulgisini, ta'nasini kutdim. Gaplariga quloq soldim. Yo'q... Boshqa mavzuda... Sezmadim... Iyagimni qashimoqchiday bo'lib, olmani sekin og'zimga eltdim... Kars... Shum bola kuzatib kelayotgan ekan:

— A-ha! — deb yuborsa bo'ladimi.

Bolalar kulib yuborishdi. Tuf, deb tashladim og'zimdagini. Qo'limda qolgan qismini ham yerga urdim. Titilib ketdi. Eshagim tumshug'ini cho'zgan edi, uning ham bo'yniga xalacho'p bilan tushirdim.

— Qanday bo'larkan? — dedi Habibulla.

— Yemayman, yemayman! — dedim.

— Ko'rdik yemaganingizni.

— Yemadim!

— Ha-ha... O'g'rilikni yeding-ku?

Ancha janjal bo'ldi. Keyin bolalar ikkalamizni yarashtirishga tushib ketishdi: «Hazil», «kelishgan edik», deyishdi. Oxiri Habibning ham achchig'i chiqib ketdi: «Nima, besh-o'n kilo olma bilan hukumatning davlati kamayib qoldimi? Shu olma bilan biz o'g'ri bo'lib qoldikmi? Odamlar yesin deb ekishgan-da! Qorovuli bo'lsaki... Ah!»

Men quloq solmadim. Piyoda yurib, eshagimni haydab ketdim. Dovonga chiqib oldim. O'zimga endi juda alam qildi: «Chiqib oldim-ku? O'lmadim-ku? — deb o'yladim. — Nega chidamadim? Nega hech kimdan so'ramasdan olingan olmani og'zimga soldim. Chidash mumkin ekan-ku? Demak, kishi to'g'ri yashay oladi...»

1965

OLIS YULDUZLAR OSTIDA

(*Voqeiyy hikoya*)

Avgust oyining oxiri. Yozuvchi Safo Said bilan Boysun tog'lariga safar qilib, Do'g'oba qishlog'ining orqasidagi yantoqzorda adashib qoldik. Adashishga men sababchi bo'ldim. Uch-to'rt yildan beri u yerlarda bo'lmagan edim. Yo'l o'zgarib ketgan ekan. Izimizga qaytdik.

Oyog'imiz ostida yong'oq barglari g'ijirlaydi. Etakda soy shovullaydi. Boyqushning mungli sayrashi bizni izma-iz ta'qib qiladi. Tun battar qorayganday. Havo bo'g'uvcchan.

— Naq Jyul Vern qahramonlarining o'zimiz-a? — deydi Safo aka piching bilan.

— Ha, — deyman va atrofni ham, o'z ahvolimizni ham bir dam unutamani. Uyga borgach, bu sarguzashtlarni yozsam, qiziq chiqadiganday tuyuladi. Ammo, kitobxon uchun bu mutlaqo kulgili narsa bo'lishi esimga tushadi va hafsalam pir bo'ladi, g'ashlanaman. So'ng bu yong'oqzordan tezroq chiqish, Do'g'obadagi biron xonadonga kirib tinchish va bir piyola ko'k choy ustida hozirgi sarguzashtlarimizning qiziq ham kulgili eka-ni, sayohatlarning shunaqasi ham bo'lishi kerakligi xususida so'zlab, Safo akaning ko'nglini olish — fikr-yodim bo'lib qoladi...

Lekin, biz Do'g'obaga bormadik.

Io'lda baland o't bosib ketgan bir yalanglikdan o'tayotgandik, so'l tomonimizdagi katta xarsang toshlar orasidan o'sib chiqqan yong'okdar tomondan shatir-shutur tovush eshitilib qoldi. Eshaklar pishqirib, quloqlarini dikkaytirishdi. Men miltiqni o'qtalib, fonarni tutdim.

— Chiroqni oling, chiroqni! — dedi kimdir bo'g'iq, kulgili tovushda. Fonarni chetga burdim. Odanning o't ustida sudralib kelayotgan chopon etaklarini va belbog'idan yoniga osilib tushgan pichoq qini bilan sarg'ish popuklarini ko'rdim.

Notanish odam ro'paramizga kelib to'xtadi.

— Adashdilaring deyman-a? — dedi u, go'yo bizning adashganimizdan cheksiz mamnunday. — Men qirning tepasida edim. Chiroqlaringizni ko'rdim. Geologmi deb xayol qilgan edim. Yo'q, to'xtab orqaga qaytdilaring. Bular adashib yuripti-ya deb o'yladim.

— Ilgari shu yerdan yo'l bor edi, — dedim.

— Ha, yo'l bor edi, — dedi u. — Hozir tepadan yurishadi. Gummataka boryapsizlarmi?

— Gummataka boryapmiz.

— Haydanglar bo'lmasa. Bu yerda tepaga chiqadigan so'qmoq bor. Buni qaranglar-a. Chiroqlaringni ko'rmasam, men ham indamay o'tib ketaverar ekanman-da. Haydanglar!

U yo'l boshladi. Biz eshaklarni haydab, unga er-gashdik. Kim biladi, biz yurayotgan hozirgi yerlardan yaqin yillar ichida biron shaharlik yurganmikan. Yong'oq yaproqlari shunchalik ustma-ust, qalin tushganki, biz go'ng ustida yurib borayotganga o'xshaymiz. Dimog'imizga achchiq, eski xazon hidi uriladi. Bora-bora do'nglikning tepasiga chikdik. Yuzimizga muzdek shabada urildi. Osmonda sonsiz yulduzlar chaqnaq ko'rindi.

— Xayriyat-e, — dedi Safo aka. — Bu yer naq jahannamning o'zi ekan, birodar.

— Hechqisi yo'q, — dedi yo'lovchi. So'ng so'qmoq yoqasida turgan oqish narsa tomonga ketdi. Fonarni tutdim. Ustiga ikki qopda nimadir ortilgan oq eshak quloqlarini dikkaytirib, bizga qarab turardi.

— Boysunga boryapsizmi? — deb so'radim men no-tanish odamdan.

— Jun soyuzga, — dedi u. — Jun topshiraman. Gummatakda oshnalaring bormi?

— Bor. Axtamov uyidamikan?

— Yo'q. Axtamov ovulda. Ko'chib tushgani yo'q hali.

— Ovuli qaerda?

— Gummatakdan nari. Xiylagina bor. Tunda u yoqqa yurib o'tirmang. Yo'llar ham o'zgarib ketgan. Yana adashishlaring tayin. Gummatakda qo'na qolinglar. Bitta-yarimta xonadon bor. Erta bilan chiqib borasizlar.

— Rahmat. Shu so'qmoq Gummataka olib boradimi bizni?

— Ha. O'zi olib boradi. Xo'sh endi.

— Xo'p, xayr. Rahmat.

U eshagining bo'yniga tizzasini qo'yib, qoplar o'rtasiga minib oldi. Ix-ixlab ketdi.

Yo'lga tushdik. Toshloq yo'l. Eshaklar oldinda. Endi ularning ham qadami ildam. Goho tuyoqlari ostidan chirsillab uchqun uchadi. Bu yo'l yong'oqzor ichidan o'tgan yo'l bilan jar labidagi kekxa tug'dona tagida tutasharkan. Ilgarilari Gummataka kelganimda, shu daraxt tagida to'xtab, qishloqqa qarardim. Past-baland pista,

tog'olcha, o'rik va yong'oq daraxtlari orasidan orqa devori toshdan kesib yasalgan guvalak uylar va ular oldida tikilgan o'tovlar ko'rinardi. Birpasda ularning sezgir itlari hurib chiqar, to egasining hukmdor ovozi eshitilmaguncha yo'lni to'sib, qishloqqa yo'latmasdi.

— Shu yer Gummatakning boshi, — dedim Safo akaga.

— Gummatakada tunaymizmi endi?

— Tunash kerak. Boshqa chora yo'q.

— Chiroqlari ko'rinmayaptimi?

— Ko'rinib qolar. Daraxtlar qalin. Pana qiladi. Soat necha bo'пти? — Fonarni yoqib, o'zimning bilagimga, so'ng u kishining bilagiga tutdim. Bu yerning vaqti bilan o'n bir yarim bo'lgan edi. Toshkent vaqti bilan o'n ikki yarim.

So'qmoq tuproq yo'lga tushdi. Lekin, chiroq hamon ko'rinmasdi.

— Odamlar ovulda nima qilisharkan-a?

— Besh-to'rttadan moli bor. Boqib yurishadi.

— Davlatga foydasi tegmaydi-da bularning?

— Nega? Kolxozning chorvasi ham shularda. Kuzda bo'lsa, mevalarning hosilini yig'ib olishadi. G'alla ham ekishadi. Davlatga foyda beradi bular ham.

— Qancha odam yasharkan shu qishloqda?

— Ko'p bo'lsa, besh-o'n xo'jalik. Ilgari ko'p bo'lgan. Lekin, ko'chib ketishgan. Yangi ochilgan sovxozlarning ko'pchilik odamlari — tog'liklar.

— Chiroq ko'rinmayapti-ya?

— Ko'rinib qoladi.

— Tasavvur qilasizmi, tunni esimdan chiqargan ekanman. Shaharda tun nima, kunduz nima bilib bo'lmaydi. Keyin qulog'im ham bitib qolganga o'xshaydi. Qarang jimjitlikni... Bu yerdagilar erta uxlashadimi?

Nihoyat, tig'iz daraxt shoxlari orasidan yulduz qurtday yiltillab, nur ko'rindi. Ikkalamiz ham baravariga «chiroq-chiroq» dedik.

Chiroqni qoralab, yo'ldan chiqdik. Chiroq qarshimizda yastanib yotgan katta yalanglikning chetiga tikilgan o'tovda yonar, chiy oraliqlaridan silitib chiqardi. Yalanglikni suv bosgan ekan. Uni chetlab, yosh tollar tagi bilan uyga yaqin bordik.

— Chaqirib so'rang, — dedi Safo aka.

— To'g'ri kirib boramiz. Bu yerda shunaqa taomil, — dedim.

— Mayli endi, so'rab boqing. To'g'ri kelmas...

Miltiqni yelkanga osib oldim. Ro'paramdan otilib chiqishi kerak bo'lgan ko'ppakni haydash uchun xalacho'pni qulay ushlab, uy tagiga bordim. Uyning eshigi yo'q, u devorlariga tappi yopib tashlangan bostirma edi. O'tov esa bostirmaning ustida, naridagi peshayvoni biz tomonga qaragan uyning oldida tikilgan edi.

— Hov, boy bobo! — deb chaqirdim. Javob bo'lmadi. Yana chaqirgandim, o'tovdan o'n yoshlardagi bir bola chiqib, tom labiga keldi, qo'lini tizzasiga tirab, menga qaradi.

— Otang uydami?

— Tovga ketgan, — dedi u.

— Kim bor uylaringda?

— Enam.

— Boshqa hech kim yo'qmi?

— Men bor.

— Seni-ku, ko'rib turibman. Bu atrofda sizlardan boshqa odam ham yashaydimi?

— Yo'q. Hamma ovulda, — dedi u.

— Otang kelmaydimi bu kecha?

— Bilmayman. Enam biladi.

— Enangdan so'rab chiq. Shu kecha bizga joy bermaydimi? Erta bilan ketardik. Ikki kishimiz.

Bola orqasiga qaytib uyga kirdi-yu, yo'qolib ketdi. Nihoyat, fonus ko'targan ayolga ergashib chiqib keldi. Fonus yorug'ida ayolning ko'ylagi qizil ekanini ko'rdim. Ayol keng yengi bilan fonusdan ko'zini pana qilib:

— Salomalaykum! — dedi past tovushda.

— Vaalaykum, — dedim. — Kechirasiz, bezovta qildik. Axtamovning uyiga kelgan edik. Oshnamiz bo'ladi u kishi. Ovuldan hali qaytmagan ekanlar. Ovullari uzokdamish. Shu kechaga joy bersangiz, yotsak. Biz ikki

kishimiz.

Xotin javob bermadi.

— Men o‘zim Boysundan, — dedim. — O‘rtog‘imiz Toshkentdan. Gumonsiramang.

— Shunday-ku, — dedi ayol nihoyat. — Erkagim yo‘q. Bo‘lmasam...

— Eshitdik ukamizdan. Lekin, boshqa bir gap ham bor: toshkentlik mehmonimizning andak mazasi qochib qoldi. Yo‘lda shamolladilarmi, bilmayman. Harholda, shahar odami...

— Unday bo‘lsa, tushinglar, — dedi ayol. — Chorijon, bor, ko‘liklarini ol.

Xotin fonusni shu yerga qo‘yib, qaytib ketdi. Chori pastga kichkina archa yog‘ochidan qilingan narvon uzatdi. Narvonning oyog‘idan ushlab, yerga qo‘ydim.

Chori pastga tushgach:

— Salomalaykum, — deb, bir yelkasini pasayti-rib ko‘rishdi. Uning kichkinagina qo‘li nihoyatda qattiq edi.

— Oshnangiz qani?

— Ana. — Fonarni unga tutdim. Chori kattalarday halloslab Safo akaning oldiga bordi. U kishi bilan ham ko‘rishdi. Men ham borib Choriga ko‘maklashdim: eshaklardan xurjun va choponlarni tushirib, ayilini bo‘shatdik. Chori eshaklarni tushovlab, yalanglikning nariyog‘iga haydab ketdi. Biz chekishib, uni kutdik. U qaytib kelib:

— O‘tinglar, — dedi va bitta xurjunni ko‘tarib oldi.

Tomga chiqib borganimizda yerga sariq gulli kigiz solingan, uzun yakandoz va ikkita quroq lo‘la bolish tashlangan edi.

Chori xurjunni yonimizga qo‘yib, o‘tovga ketdi.

So‘ng odatdagicha shol dasturxon keldi: bir tovoq qaymoqday qo‘y qatig‘i, bir juft katta uy noni, bir kosada qovurdoq, bir kosada oq pishar o‘rik bilan paxtaseb olma, bir qumg‘on choy.

Chori ro‘paramizda cho‘qqayib o‘tirar, boshini u yon-bu yonga solib, bizni tomosha qilar, ammo, na taomga taklif qilar, na o‘zi qo‘l urardi dasturxoniga. Lekin, biz buni ko‘nglimizga og‘ir olmasdik. Chunki, uning o‘rnida otasi bo‘lganida ham shunday qilgan bo‘lardi. Biroq, yemasak-ichmasak xafa bo‘ladi bu odamlar.

— Kelmadi-yu xo‘jayin? — dedi Safo aka menga.

— Kep qoladi, — dedim men. — Choriboy, otangiz kim bo‘lib ishlaydi?

— O‘rmonga axranik, — javob berdi u, boshi bilan orqasiga ishora qilib.

— Bu ayol onangmi?

— Enam.

— Qo‘rqmaysizlarmi ikkovlaring?

— Nimadan qo‘rqamiz? — iljaydi u. Shu payt eshaklarimiz hangrab yubordi. Chori irg‘ib turib, tom labiga bordi. Qo‘lini tizzasiga tirab, qorong‘ilikka tikildi va qaytib keldi.

— Nima? — dedim.

— Hech narsa. O‘zlari, — dedi.

— Bo‘riyam bormi bu atrofda?

— Bor. Kelsa, eshaklar hangrab bildiradi.

— Nima qildik endi? Dam olamizmi? — dedi Safo aka.

Chori turib ketdi. Biz ham o‘rnimizdan turib, chetroqqa chikdik, chekishib, atrofni tomosha qilib tur-dik. Bu yerdan Boysun chiroqlari yulduzday miltillab ko‘rinardi.

— Huv ko‘rinayotgan chirokdar Boysunniki, Safo aka.

— Necha kilometr chiqadi oramiz?

— O‘ttiz.

— O‘ttiz kilometrni bosish uchun bir yarim kun yurdikmi-a?

-Ha.

— Samolyotda necha minut bosardik?

Biz shunga o‘xshash gaplardan gapirishib turdik. Ayol ko‘rpa-yostiq chiqarib, bizga teskari turib, o‘rin soldi.

— Sizniyam bezovta qildik, — dedi Safo aka ayolga, u ketarkan.

Ayol javob bermadi.

To‘shakdamiz. Ko‘rpaning ustidan gilam tashlangan. Kechasi bu yerlar sovuq bo‘ladi. Chalqancha, osmonga qarab yotibmiz. Osmon to‘la yulduz. Ko‘z qamashadi, jimir-jimir. Somon yo‘li yulduzlari boshimiz

ustidan o'tib, oyoq tomonimizdagi qop-qora tog'ning orqasiga egilgan. Osmonning goh u yerida, goh bu yerida yulduz uchadi. Uchiga kichkinagina tosh bog'lab otilgan bir qatim oq ipakday. U uchib borayotganida, go'yo dumidan bir alanga tushadi-yu, to manziliga yetguncha uni yondirib kul qiladi.

Tom ustiga egilib turgan tog'olchanning qip-qizil mevalari va yaproqlarida o't shu'lasini o'ynay boshladi. Bostirma biqinida o't yonardi.

—Rosa charchabmiz. Bu kecha shu yerda tunamaganimizda bo'lganimizcha bo'larkanmiz.

-Ha.

— Lekin, xo'jayinning kelmayotgani yaxshi emas.

— Kep qoladi. Pastda bir narsa pishirayotganga o'xshaydi-ya.

— Xo'p, uxladik.

— Uxladik.

Shu payt oyoq tomonimdan sharpa eshitdim. Chori ro'molga tugilgan bir narsaning uchidan chimdib ushlab, oyoq uchida yurib kelardi. U Safo akaning yoniga o'tdi-da, u kishiga bir nima dedi.

— Nima bu? — dedi Safo aka.

— Qum. Issiq qum, — dedi Chori. — Shamollaganni yaxshi qilarkan.

— Menga ber, bu yoqqa keltir, — dedim. Qumni olib, ko'rpaning tagiga soldim va badanimdan xolisroq qo'ydim.

— Shamolladingizmi? — so'radi Safo aka.

— Ha, — dedim. — Biqinim sanchib qoldi.

— Yong'oqzor zax ekan.

— Rahmat, Chorijon, — dedim.

— Sovusa, meni chaqiring, — dedi.

— Rahmat. Shuning o'zi bilan yaxshi bo'lib qolaman. Chori ketdi.

Tog'ning o'rkachi oqara boshladi. U yerda g'o'dayib turgan archalarning qorasi ko'rindi. Sal o'tmay, archaning orti sarg'aydi va bir chekkasi uvalanib ketgan oy chiqib keldi. Uning yonida Zuhro yulduzi tevaragida bir qancha yulduzlari bilan yarqillab nur sochardi. Oy unga yaqinlashgani sari Zuhroning hamrohlari asta-sekin g'oyib bo'la boshladi. Nihoyat, o'rkachda yashnab, oy bilan Zuhro qoldi. Bir ozdan so'ng esa, tog' tarafdin nay chalganday cho'ziq-cho'ziq, yoqimli bir ovoz eshitila boshladi.

— Nima sayrayapti? — cho'chib so'radi Safo aka.

— Hilol, — dedim. — Juda kamyob qush.

Qalbim hayajonga to'lib, butun vujudimga yoyildi va elitdi meni.

Ko'zim endi ilingan ekan, kimdir ko'rpa ustidan turtdi. Qarasam, Chori. Engashib turipti.

— Qumni bering, enam isitib beradilar, — dedi u.

— Kerak emas, tuzalib qoldim, — dedim. Bola qaytib ketdi va tag'in keldi.

— Berar ekansiz.

— Men tuzalib qoldim. Rahmat de, enangga.

— Yo'q, bering.

— Hali issiq, mana, o'zing ko'r.

Olib unga ko'rsatdim. Qum haqiqatan ham iliqqi-na edi. Lekin, u na qo'lini tegizdi, na qaytib ketdi.

Noiloj qumni uzatdim. Sal o'tmay, olcha shoxlari-da yana nur o'ynay boshladi. Safo akaga qaradim. U kishi bir tekis nafas olardi. Uxlab qolgan. Astagi-na o'girilib, bolishni ko'kragimga tortdim-da, cho'zilib, bo'g'otdan pastga mo'raladim.

Tosho'choq yonida qizil ko'ylakli boyagi ayol — chiroyli bir kelinchak o'tirar, archa butog'i bilan o'chokdagi o'tlarni kovlar edi. Qizg'ish biqqi bilagidagi kumush bilaguzuk o'tda tovlanyapti. U esnab, birdan seskanib tushdi va tog' tarafga qaradi. U kulcha yuzli, nihoyatda oq, qoshlari esa qora, dilbar juvon edi. Qoniga tojik qoni aralashgan tog'li qizlarga shunday bo'ladi. Aytishlaricha, bu yerdan yigirma kilometr ichkaridagi, ikki tog' oralig'ida joylashgan Sangardak qishlog'ini «Parilar makoni» deyisharkan qadimda. Shunday go'zal bo'larkan u yerning qizlari. Lekin, chet yigitlarga qiz berishmaydi. Xosiyatsiz bir ish bo'larmish... Juvon yana o'choqqa o'girildi-da, kapgir bilan qozon ichidagi masallig'ni kovlay boshladi. Qozonda qum qovurilardi. Shunda ko'zim birdan uning xiyolgina ochilib qolgan yoqasiga tushdi-yu, tezgina boshimni tortdim. Yonverimga ko'z tashlab, ko'rpaqa burkanib oldim.

Chori shu kecha yana ikki marta qumni mendan olib ketdi. Uxlay olmadim. Bir yokdan badanim qumga

tegsa jizillab kuydiradi, ikkinchi yokdan o‘y kemiradi.

Tong otay deganda qulog‘imga otning kishnashi eshitildi. Boshimni ko‘tarib qaragam, bostirma pastida miltig‘ining milini quyiga qaratib yelkasiga ilib olgan durkun bir yigit qora otdan tushyapti. O‘tovga qaradim. Eshik og‘zida ayol, qo‘llarini ko‘kragiga alla-nechuk qovushtirib, yigitga qarab turipti. Ayol uyga qarab, bir nima dedi. Kalovlanib Chori chiqdi, yigitni ko‘rdi-yu, naryoqdagi tosh zinadan irg‘ishlab tushib, unga otildi. Yigit uni tortib, yelkasiga urib qo‘ydi va eshiklarni ko‘rsatib, bir nima dedi. Chori ham bir nima deb, biz tomonga ishora qildi. Yigit biz tomonga qaradi. Men ko‘zimni yumib, yuzimni bolishga bosdim. Ko‘zimni ochib qaraganimda yigit kichkina xurjunni bilagiga osib, qamchin bilan kirza etiklarining qo‘njiga urib-urib kelar, Chori otni yetaklab, eshaklar tarafga ketardi. Yigit zinadan yugurgilab chiqib, xotinga ro‘para bo‘ldi. Unga o‘tkir bir tikildi-da, xurjunni tutqazib uyga kirdi. Xotin ham uning izidan kirdi. Men hayajon ichida nimalar bo‘lishini kutdim. Lekin, men kutganimni emas, kutmaganimni eshitdim: yigitning dag‘al kulgisini va xotinning nozli ovozi. Bir payt yigit o‘tovdan chiqib, uy orqasiga o‘tib ketdi. Sal o‘tmay, semiz bir to‘kdining bo‘ynidan g‘ijimlab ushlab qaytib keldi. Biz to‘shakdan turganimizda qo‘y so‘yilib, o‘tovga kiritilgan edi. Safo aka uyg‘oniboq:

— Eri keldimi? — dedi.

— Keldi, — dedim men kulimsirab.

— Qalay? Janjal qilmadimi?

— Qaydam! Hali ko‘rasiz!

Chori kelib, bizga salom berdi. Kechagi qumg‘ondan qo‘limizga suv quyib turdi. Yuvindik. Endi artinib bo‘lgan edik, o‘tovdan jilmayib yigit chiqib keldi. U o‘ttiz yoshlarda edi.

— Kelinglar, mehmonlar, — dedi u. — Yaxshi uxlab turdinglarmi?

— Rahmat. O‘zingiz yaxshi keldingizmi? — so‘radi Safo aka.

— Endi bizning yurishimiz shu.

— Kechirasiz. Biz bemahalda keldik. Bezovta qildik oilangizni.

— E, bezovtasi bormi! — menga qaradi yigit. — Tuzalib qoldingizmi?

— Rahmat. Kelinoyim qum qizitib berdilar.

— Kecha yong‘oqzorda adashib yurgan sizlar emasmi?

— Biz, biz, — dedik hayron bo‘lib.

— Men ko‘rib edim, — dedi yigit. — Tog‘da edim. Chiroqlaringizni ko‘rdim. O‘sha yerda qo‘nganlaringda yetib borardim. Keyin orqaga qaytdilaring. Bular Do‘g‘obaga ketdi deb o‘yladim.

— Bormadik. Bir odam yo‘lga solib yubordi. Bu yoqqa keldik. Lekin, bu kishining do‘sti o‘rtoq Axtamov ham hali ovulda ekanlar.

— Yaxshi qilibsizlar shu yerda qolib. U yoqqa jo‘nasalaring, yana adashardinglar.

— Kelinoyimiz yaxshi qabul qildilar. Rahmat.

— Lekin, kasal bo‘lganlaringiz qo‘l kelibdi, — dedi yigit. — Bo‘lmasam, qo‘ymas edi uyga. Xotin xalqi o‘zlaringga ma‘lum-u. Qani, uyga kiraylik.

U bizni barcha rasm-rusumi bilan mehmon qildi. Jo‘nash oldidan men ularni suratga tushirdim. Lekin, eri har qancha zo‘rlasa ham, xotini yuzini ochmadi.

— Kerak emas, kerak emas, — dedi u.

Chori bo‘lsa, otasining qo‘lidan mahkam ushlab, ko‘zlarini lo‘q qilib qarab turdi. Suratni olib bo‘lgach, u dam otasiga, dam onasiga iljayib qo‘yib, oldimizga keldi-da, uyalinqirab turaverdi.

— Ha? — dedim.

— Bering endi, — dedi u.

— Nimani?

Qo‘limdagi fotoapparatga ishora qildi.

— Suratni.

Hammamiz kulib yubordik.

— Hozir tayyor emas. Uyga borganda ishlab yuboraman, — dedim, — O‘qiysanmi?

Chori ikkita barmog‘ini ko‘rsatdi.

— Do‘g‘obaga otda qatnab o‘qiydi, — dedi yigit.

Xayrlashdik. Yigit bizni baland yaylovda bir to‘da oq o‘tovlar ko‘ringuncha piyoda kuzatib bordi. So‘ng:

— Axtamov shu yerda, — dedi. — Endi bu yog‘iga adashmaysizlar. Mening ishim bor. Kechqurun o‘tib

boraman. Xayr.

Yigit burilib ketdi. Birpasda archali do‘ng orqasiga o‘tib, g‘oyib bo‘ldi. Biz bittadan chekishdik.

— Kecha meni kasal deganingiz uchun joy berganmidi? — so‘radi Safo aka.

— Ha, — dedim. So‘ng qiynalganim, uxlay olmaganimni aytdim.

Safarimiz tugab, Toshkentga qaytib kelgach, sayohatlarimizni eslab, bir necha bor gurung qildik.

1965

SOG'INCH

Azim tabiatan ko'ngli bo'sh, ta'sirchan yigit. Lekin, besh yil shaharda yashab qoldi: shahar odamlariga xos ishchanlik, vaqtini tejash, sovuqqonlik va bir qadar takabburlik paydo bo'ldi unda.

Azim har yili qishloqqa borganida, izidan Ismat yetib kelar, u, albatta, quchoq ochib talpinar, Azim esa har gal buni unutib, qo'l uzatayotganida birdan ustalik bilan qo'llarini kengaytirib yuborar va yigitni bag'riga olib, ichida kulimsirar edi.

Ota-ona davrasiga o'tirishgach, ular Azimni sog'inganlarini, Ismatning ham o'zlaridan kam ichikmaganini aytishar, shunda Ismat sodda, otashin bir muhabbat bilan Azimga tikilar, Azim esa yana kulimsirash bilan cheklanar edi.

Azim ota-onasiga ham kam xat yozar, Ismatning esa o'nta xatiga bitta javob qaytarardi, biroq, Ismat shunga ham rozi: quvonchidan boladek o'ynoqlab, maktubni xotininga ko'rsatar, tanish-bilishlariga maqtar edi...

Ular qachon bir-biriga yaqin bo'lgan, Ismat Azimni qachon sevib qolgan — buni ularning bolaligidan so'rash kerak: Azim maktab direktori oilasidan, Ismat maktab qorovuli oilasidan; Azim goho darsdan keyin yumshoq kulimsiraganicha Ismatlarnikiga borib, uni ovga taklif etar, ov deganda oyog'i kuygandek tipirchilab qoladigan Ismat unga jon-jon deb rozi bo'lar va ikkalasi toqqa chiqib ketar edi.

Takdir g'alati ekan: Azim taniqli rahbar bo'lib, shaharda qolib ketdi. Ismat oddiy xizmatchi bo'lib, qishloqda qoldi.

Ular endi yiliga bir marta uchrashar edi — Azimning istirohat oyida yoxud u ish yuzasidan qishloqqa kelganida...

Lekin, endi Azim Ismatlarnikiga emas, Ismat Azimlarnikiga keladi; endi u ovga taklif etadi. Azim bu taklifni qaytarmaydi. Ular tong qorong'isida toqqa ketadilar... Endi Azim ilgarigidek ovlay olmaydi, nishonga olgan o'ljasiga o'qni tegizolmaydi, baland cho'qqilarga ham chopib chiqolmaydi. Tezda char-chab, biron qoyagami, daraxt to'nkasigami — o'tiradi, atrofnı tomosha qiladi. Ismat bo'lsa, hamon qadimgiday: epchil, chaqqon, mergan... O'lja taqsimotida ham o'zgarish bo'lgan: endi ovni asosan Ismat qiladi-yu, o'ljalar asosan Azimniki bo'ladi. Azim esa, buning haqiga o'zi ham bir narsa berishni istab, Ismat shaniga bir necha kalima maqtov so'z aytadi: «Haliyam juda zo'rsiz, Ismatjon»... «Shahar bizni urib tashlapti-da, Ismatjon». Ismat haqiqatan ham katta bir mukofot olgandek, boshi osmonga yetadi.

Azim shaharga ketishi bilan Ismatni iza izsiz unutadi; u yerga borib kundalik yumushlari, oilasi, o'zga birodarlari davrasiga sho'ng'iydi.

Azim bultur ish yuzasidan aprel oyida qishloqqa keldi. Daraxtlar kurtak chiqargan, ko'chalarda yoqimli sovuq shabada esar, bahor nafasi kelar edi. U uyga yetmasdan ortidan Ismat yetib keldi. Quchoqlashdilar. Utirdilar. Gaplashdilar va indini tong mahali ovga chiqib ketdilar.

Tanish adirlar qor qo'ynida jim yotar, archazor tog'dan bug'dek tuman oqib kelar edi. Tushgacha yurib, hech narsa otolmadilar, to'g'rirog'i, o'q bo'shatmadilar: na kaklik, na quyon uchramadi. Tushdan keyin qaytdilar.

So'ngra adirlardan biriga chiqqan yerda tuman orqada devordek to'xtab qoldi va ular qori yupqalashib, tagidan ko'm-ko'k ajiriqlari ko'rinib turgan betdan tusha boshladilar.

Shunda Azim qor ichidan namozshomgulning so'la-boshlagan gulidek bo'rtib chiqib turgan boychechaklarni ko'rib qoldi!

— Boychechak! — U bir nechasini uzib oldi. Gul tepasidagi qorlar tezda erib tushdi... Azim gulning sovuqqina bandidan ushlab unga tikilib turar ekan, dili zavqu shavqqa to'lib toshdi. Gul favqulodda nozik va iffatli edi! Uning haligina qor ichidan chiqib turishi shu qadar xayoliy, ajib va go'zal edi! Azimning dilida favqulodda bolaligi uyg'ondi, u favqulodda shahardan kelganini unutdi: shahar bergan yangi xislatlar ham uni bir dam tark etdi... So'ng u birdan bularning hammasini esladi va yig'lagisi kelib ketdi!

Unga kulimsirab qarab turgan Ismat:

— Teraylik bo'lmasam, teraylik! — dediyu chopqillab boychechaklardan tera boshladi; bir dasta qilib keltirib berdi. Lekin, bandini kalta uzgan ekan, Azim uning hurmati uchun bir oz olib yurdi-da, so'ng sezdirmay tashlab yubordi.

Qor tugab, ko'kalamzor boshlandi.

— Azimjon, Azimjon, kaklik! — deb, Ismat cho'nqayib, olisni ko'rsatdi. Azim ham cho'nqaydi. Olisdagi bir uyum, ho'l, malla toshlar orqasidan bitta kaklik chiqib, bo'ynini cho'zganicha naridagi tosh uyumi tomon

chopib borar edi.

— Oting, Azimjon!

Azim ko‘zlab otdi, o‘q tegmadi. Buning ustiga, u yerda qochqoq kaklikning sheriklari ham bor ekan, chug‘urlashganicha duv ko‘tarilib, etak tomonga pastlab ketdilar.

— Borasizmi, Azimjon?

— Charchadim.

Ismatning o‘zi tiyg‘ona-tiyg‘ona kakliklar orqa-sidan ketdi. Azim haligina kaklik qochib chiqqan-joyda o‘tirib, atrofni tomosha qila boshladi. Yarim soatlardan keyin ustma-ust o‘q ovozlari eshitildi va Ismat ikkita o‘ljaning qanotidan ushlab, halloslab qaytib keldi.

— Mana!

Azim olib tomosha qildi, kakliklar hali issiq-qina edi. Keyin qaytarib uzatgandi, Ismat uni Azimning belbog‘iga osib qo‘ydi.

— E, Ismatjon, — dedi Azim. — Siz hali-hamon o‘sha Ismatsiz. Bizni shahar urib tashlapti...

Ismat achinib, mehr to‘la ko‘zlari bilan do‘stining ma‘yus chehrasiga bokdi.

Uch kundan keyin Azim shaharga ketdi.

Bu yil Azim istirohat oyini xotin, bola-chaqasi bilan Issiqko‘lda o‘tkazdi, qishloqqa borolmadi.

Erta aprel kunlarining birida Azim ishdan kelgan edi, xotini unga telegramma ko‘rsatdi, unda: «Priglashaetes na razgovor s...» deyilgan edi. Yana «17.00» yozilgan. Demak, Toshkent vaqti bilan soat 8da borishi kerak pochtaga (shundoq rahbar bo‘lgani bilan uyiga telefon olib kelolmagan, bunga zilzila katta to‘g‘anoq bo‘lgan edi).

— Kimdan ekan bu?

— Bilmadim, — dedi xotini.

— Onamdanmikan?

— Onangizdan yaqinda xat kelgan edi.

— Shu... javob yozish kerak edi-da.

— Balki ukangizdandir?

— Ehtimol.

Azim issiq uydan chiqib, pochtaga borishga erindi, oqshomgi gazetani o‘qishga tutindi, o‘qirkan, «Kim bo‘lsayam... kutadi-kutadi, ketadi-da, keyin... vaqti yo‘q ekan... deb o‘ylaydi».

Biroq, soat yetgi yarimlar chamasi o‘tgach, xotini uning xonasiga kirdi:

— Menga qarang. Borib keling. Shu yarim soat vaqtingiz ularning kutishiga arzimaydi, — dedi.

— To‘g‘ri, — deb gazetani stolga tashladi.

Pochtaga bordi.

Navbati yetdi...

Qishloq pochtasining navbatchisi: «Gaplashing!» de-diyu Azim olisidan kelayotgan tanish, titroq ovozni eshitdi:

— Azimjon, Azimjon!.. — deb chaqirar edi Ismat. — Sizmi bu?

— Men, — dedi hayron bo‘lgan Azim. — Men.

— Sog‘misiz, Azimjon, salomatmisiz?

— Rahmat, o‘zingiz yaxshimisiz? — dedi Azim ensasi qotib.

— Azimjon!.. Sizni... sog‘indim! Eshityapsizmi?

— Himm... Men ham, — dedi Azim ichida kulimsirab.

— Qachon kelasiz endi? Nimaga kelmadingiz?

— Vaqt bo‘lmadi, Ismatjon... Boraman nasib bo‘lsa.

Azim uyga qaytib kelib, chaqirgan Ismat ekanini,

sog‘inganini aytdi. Er-xotin yosh bolaga jilmayganday bir-biriga jilmaydi...

Azim shu kecha uxlash oldidan chekkani hovliga chiqqan edi, eti totli junjikib ketdi. Atrofga gangib qarab, yumshoq shabada esayotgani, ko‘klam nafasi ke-layotganini sezdi va hali ensasi qotgani uchun eslamagan narsasini esladi: Ismatni, ovni... Uning ko‘zi oldiga bultur shundoq kunda ovga chiqqanlari keldi: tumanli kun, qor bosgan adirlar... Boychechaklar... Boy-chechak!!! Azim birdan tek qoldi: boychechak, sovuqbandli boychechak shundoq ro‘parasida turgandek, uni ushlab ko‘rgandek bo‘ldi!!! U shu qadar go‘zal, iffatli va xayoliy... Azimning ko‘nglida yana o‘sha his — bolaligi uyg‘ondi, u endi shaharda turganini unutdi: beixtiyor

yigʻlagisi kelayotganini sezdi!!!

Keyin, birdan jiddiy tortdi va Ismatning ataylabdan shundoq kunda telefonga chaqirganini taxmin qildi, keyin birdan oʻzini qishloq bilan, bolaligi, ov bilan, yoqimli, maʼyus tuygʻular bilan bogʻlab turgan narsa, unga Ismat boʻlib tuyuldi... va endi Ismatdan hech qachon, hech yerda ajralolmsligini his qildi!!!

Shu his taʼsiridami, unga xat yozish kerakligini, uni sogʻinishi kerakligini oʻyladi.

1965

KO'KBOY

Choyxonani bekitib qaytayotgan Qalandar aka ovchi o'rtog'i Hoshim akaning chorbog'i yonidan o'tayotib, uning baland darvozasi qiya ochiq ekanini ko'rdi va yakka kift bo'lib ichkariga kirdi. Oyoq uchida yurib, supaga yaqin bordi. Uy muyulishidan mo'ralagan edi, oldiginasida, supurgi yonida g'ujanak bo'lib yotgan ko'k junli kuchukni ko'rdi. Ko'rdi-yu, uning bo'ynidan bo'g'ib ushlab, qo'yniga soldi. Yana yakka kift bo'lib, darvozadan chiqdi va muzlab qota boshlagan ko'chadan jadallab ketdi. Yo'lda kuchukning bo'ynini bo'shatib, choponining bariga o'rab oldi. Uyg'a kelib:

— Oxiri qo'lga tushirdim, — dedi xotiniga. Bag'ridan olib, paxmoq, qora po'stak ustiga qo'ydi. Kuchuk bola javdirab atrofga qaradi-da, yugurib tunuka pechning orqasiga o'tdi.

— Chiroyli-a? — dedi Salqin opa.

— Surlon itning bolasi, — dedi Qalandar aka.

— Oshnangiz bilib qolsa, opketmaydimi?

— Bermayman. Bu kuchukvachchangga ishqim tushgan, deb yurardim. Bermayman.

— Dumi kesilmagan-ku-a?

— Shunisi yaxshi. Cho'ltoq itdan xunugi bormi?

— Oti nima?

— O'zimiz qo'yamiz-da otini. Ana, Ko'kboy bo'la qolsin. Qoraboy, Oqboy deydilar-ku. Bu — ko'k.

Qalandar aka pechning ustidan egilib, ikki qo'lini ikki tomondan kuchukchaga yaqinlashtirdi. Kuchukcha tishlarini irjaytirib, burchakka tiqilgandi, bo'ynidan shappa ushlab ko'tardi-da, po'stakka o'tirib, tizzalari orasiga qo'ydi. Dasturxondan bir burda non olib, unga tutdi. Kuchukcha og'zini ochmadi. Qalandar aka bir chaqmoq qand oldi.

— Buni ye, bo'lmasam.

— Qo'ying, it ham qand yeydimi? — dedi Salqin opa.

— Yeydi, — dedi Qalandar aka va Ko'kboyning tumshug'i yonidan qisib, og'zini ochdi-da, qandni tiqib yubordi. Kuchuk bola qih-qih yo'talib qoldi. Zum o'ggach, boshini yoniga burib, qandni qisirlatib tishladi. Qand uvalanib ikki bo'lakchasi po'stakka tushdi. Ko'kboy shosha-pisha og'zidagini chaynab yutdi.

— Aytmadimmi, — dedi Qalandar aka.

— Baloday yedi, — dedi Salqin opa.

Kuchuk bola po'stakdagi qand ushoqlarini ham qil-pili bilan yeb, lablarini yaladi.

— Endi otboy! — dedi Qalandar aka va Ko'kboyni qornidan ko'tarib, ayvonga chikdi. O'choqqa solib, og'zini tos bilan bekitdi. Tos orqasiga tut to'nkasini tirab qo'ydi. Uyg'a kirdi.

— Sovqotmaydimi? — dedi xotini.

— Hozirdan ko'nikkani yaxshi, — dedi Qalandar aka va otasining xonasiga o'tdi.

Kuchuk bola iliq kulga yumshoq panjalarini bosib, o'choqning burchagiga bordi va cho'nqayib o'tirdi. Derazada chiroq o'chdi. O'choq orqasiga tutib qo'yilgan kanop qop shamolda patir-putur qila boshladi. Ko'kboy lablarini yalab yonboshladi-da, paxmoq dumi bilan orqa oyoqlari orasiga tumshug'ini tikdi.

...Oradan uch yil o'g'ib, kuchuk bola juda bo'limli it bo'ldi. Egasi bilan bir necha bor ovga borib, uni xursand qildi. Mukofotiga hovuch-hovuch qand oldi. U zanjir ko'rmay o'sganidan odamlarga yomon ko'z bilan qaramasdi. Qalandar akani ertalab darvozada kuzatar, kechasi u kishining qaytish vaqti bo'lganda, choyxona oldida hozir bo'lardi. Uni butun qishloq tanirdi: ko'chada dumi uzun, quloqlari qalin jun orasiga yashirinib ketgan, oyoqlari ingichka ko'k itning paydo bo'lganini ko'rishsa, to'xtab uni tomosha qilishar, maqtashar edi.

Qish kunlarining birida Qalandar aka Ko'kboyni ergashtirib, tong qorong'isida ovga ketdi. Choshgohlarda Yo'lbars daraga ro'para bo'ldilar. Bo'yin junlari hurpaygan Ko'kboy oldinda ketayotgan edi, taqqa to'xtab, qorga belangan dumini quyrug'i ustida gajak qildi, bir narsaga tashlanmoqchiday, boshini ichiga tortib, pasaydi.

Pakana archa orqasidan churq-churq ovoz keldi va dahshat ichida churillab bir kaklik uchdi. Uning izidan yana bir gala kaklik ko'tarildi. Ular daradan chikdi. Qalandar aka ham izma-iz ko'tarildi. Kakliklar qordan chiqib turgan yantoqlar oralab ketishardi. Ovchi o'q bo'shatdi. Ikkitasi qorni titib qolishdi-yu, qolganlari nariroqqa uchib borib, yana qorga bota-bota ketishaverdi. Qalandar aka yiqilgan kakliklarni so'iib, beliga osib oldi. Yana yo'lga tushdi. Yana o'q bo'shatdi. Uchtasi tipirlab qoldi. Bularni ham olib qo'zg'algan edi, qayokdandir bir gala kaklik uchib keldi-yu, oldindagilarga qo'shildi. Ular uzoqqa ucholmas, sovqotgan, muzlagan qanotlari bunga imkon bermas edi. Asta-sekin kakliklar, qizishib, uzoqroqqa ucha boshladilar.

Qalandar aka ham endi chopqillab borardi. Kakliklar do'nglar osha, jarlar osha ucha boshladi. Qalandar akaning ko'ziga kaklikdan boshqa narsa ko'rinmay qoldi. Shu ko'yi ular ancha yo'l bosishdi. Nihoyat, oldinda tuman ko'rindi-yu, kakliklar tumanga kirib g'oyib bo'lishdi. Ovchi to'xtadi. Atrofga qaradi. Qaerga kelib qolganini bilmoqchi bo'ldi — bilolmadi. Orqasidagi do'nglikka ko'zi tushdi-yu, «shuning ustiga chiqib qarayman», deb o'yladi. Qadam bosgan edi, belidagi kakliklar og'irlashib ketganini sezdi. Bir necha odim yurgach, shuncha yukni ko'tarib bu yergacha qanday chopib kelganiga hayron bo'ldi. Shunda oyog'i qaltirayotganini sezdi. Do'nglikni qo'yib, yaqinginada ko'rinib turgan archaga qarab yurdi. Archaga yetgach, belbog'ini yechib, qorga qo'ydi. Yonidan pichog'ini olib, cho'qqayib o'tirdi-da, kakliklarning ichini yorib, ichak-chavog'ini chiqarib tashlay boshladi. Ko'kboy hurpayib, yeyishga tushdi, so'ngra to'yib, cho'zilib yotdi. Ovchi hamon kaklik tozalardi. Nihoyat, Qalandar aka kakliklarni sanadi. Yigirma oltita edi. U hech mahal buncha kaklik otmagan edi. Ulardan belbog'idan popukday osilgan iplarga qanotlaridan bog'lab, o'rnidan qo'zg'olgan edi, yuz-tuban yiqilib tushdi. Og'iz-burni qorga botdi. It cho'chib, ko'zlarini chaqchaytirdi. Ovchi qorga qo'lini tirab, boshini ko'tardi. Qaddini ko'tarmoqchi edi, yana yuztuban tushdi. It g'ingshib, dumini ko'tardi. Tuman bularning ustidan bosib o'tib ketdi. Ovchi yana boshini ko'tardi va uzoq yo'l yurgach birdan cho'nqayib o'tirgani uchun oyoqlarining tomiri tortishib qolganini payqadi. Bir yonbosh bo'lib, taqimini uqalashga tushdi. Lekin torday tarang bo'lib qolgan tomir yumshamasdi. Shunda ovchining ko'zi birdan tinib ketdi. Dumalab ketadiganday qorni changalladi. Nafasi qisila boshladi. Ovchi buning sababi haqida o'ylolmas, bu uzoq yo'l yurib, birdan to'xtashning oqibati edi. Ovchi itning hurayotganini eshitdi-yu, lekin, it teskari bo'lib ko'rindi. Ichi yonib borardi. U qorni yamlay-yamlay o'zidan ketdi.

Ko'kboy egasining tevaragida g'ingshir, hurar edi. Keyin uning choponi baridan tortqilay boshladi. U egasini hech mahal bunday holda ko'rmagan edi. Nihoyat, ovchining boshida cho'nqayib o'tirdi-da, tumshug'ini osmonga ko'tarib ingichka uvladi. So'ng yalanib, yana egasiga qaradi. Yana uni tortqilashga tushdi. Egasi qo'zg'almas, lekin uning burni tegib turgan qor asta-sekin sarg'ayib borardi. Nihoyat, it uning oyoq tomoniga o'tib, cho'zilib yotdi.

Quyoshning qaerda ekanini bilib bo'lmasa-da, it kech bo'lganini sezdi. Ular hamisha qorong'iga qolmay, uyga yetib borishardi. Ko'kboy turib, yana ovchining atrofida aylandi va yana tortqilashga tushdi. Ovchi qimirlamagach, uning etagidan tishlab oldinga, orqasiga tisanib sudray boshladi. Boya o'zlari qoldirib o'tgan izlarga yetib to'xtadi. Tag'in egasini aylanib vov-vovladi, hurdi. Egasi miq etmay yotar, uning bo'yinlariga qor kirgan, telpagi yo'lda tushib qolgan edi. Ko'kboy ovchini yana sudrashga tushdi. Do'nglikka olib chikdi-da, ko'zlariga qon tepib, atrofga qaradi. Shunda birdan qorong'i tushib qolganini sezdi. Do'nglik etagiga qarab ho'l burnini qimirlatdi. Keyin ovchini ikki marta aylandi va do'nglik pastiga otilib tushib ketdi. Qorong'i tumanda itning o'tkir ko'zlari o'zi bosib kelgan izlarni yaqqol ko'rar, u izdan chiqmay, do'ngliklar, jarliklar osha uchib borardi. Dimog'iga qishloq hidi urilib, battar jadalladi. Qishloq ko'chalar, devorlaridan ko'z ilg'amas tezlikda o'tib, tanish darvoza yonida to'xtadi. Bo'g'iq hurdi. Hovlidan cholning ovozi eshitildi. It ortiga tisanib, devorga sapchib va tomorqaga o'tib, ayvonga chiqib bordi.

Ochiq eshik oldida hassasiga tayanib turgan chol manglayi tagidan itga tikilib iljaydi, yo'lkaga qaradi. Yo'lkada hech kim ko'rinmagach, yana itga bokdi-da, uning yirtqich vajohatidan qo'rqib ketdi. It g'ingtib, supa tuprog'ini tirnab pastga otdi. So'ng tumshug'ini osmonga cho'zib, hovlini boshiga ko'tarib uvladi. Eshikda Salqin opa paydo bo'ldi.

— Qizim, kuyovingga bir gap bo'lgan, — dedi chol, — itning avzoyi buzuq.

Xotin otilib chiqib, olazarak bo'lib turgan itning oldiga bordi. It o'qrayib, uni tishlamoqchiday vovulladi. Shunda noxos sergaklanib, ko'zlarini chaychaqtirdi-da, shart burilib chop ketdi. U yana qishloq ko'chalaridan uchib o'tdi. Qirga o'rladi. Endi u boyagidan ham zo'r shiddat bilan uchib borar, uning afsonalardagina kuylangan itlik tabiati bir xavfni sezgan edi. Darhaqiqat, tanish do'nglikka chiqib borarkan, qordagi qorayib yotgan jasad yonida bir-biri bilan talashayotgan ikkita kulrang hamjinsini ko'rdi. Otilib borib, ularga o'zini urdi. Bunday bo'lishini kutmagan bo'rilar ikki tarafga qarab qochdi. Lekin o'ttiz qadamcha nariga borib to'xtashdi. It ovchini gir aylanib hidladi va shaxd bilan bo'rilarining biriga otildi. Ko'kboy bu xil hamjinsi bilan bo'ladigan uchrashuv ikki tomondan birining o'limi bilan tamom bo'lishini yaxshi bilardi. Uning yelkasiga sapchib, bo'yniga og'iz soldi. Safdoshi bilan o'lja talashib urisha-urisha holdan toygan bo'ri qorga yotib qoldi. Ko'kboy uning kekirdagini uzib tashladi. So'ng burila solib, do'ngga qarab chopdi. Jasad ustiga kelib qolgan ikkinchi bo'ri tishlarini takillatib uni qarshi oldi. Lekin Ko'kboy hozir tap tortadigan emasdi. U ashaddiy yirtqichga aylangan, ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi. Borib ko'kragi bilan uni urdi. Ko'kboy bu raqibni ham

cho‘ziltirgach, egasining yoniga cho‘nqayib, bo‘ri tishlagan yerlarini yaladi.

Tong otib, tuman tarqaldi. Do‘ng pastida shovqin-suron qilib kelayotgan odamlarning qorasi ko‘rindi. Ko‘kboy hurib, dumini likillatib, ovchini aylanardi.

Qalandar akani ko‘tarishganda, u o‘tirib oldi. Ammo Quloqlari va chakkasida oppoq qor yopishib turar, uning ham muzlab qotib qolishiga sal qolgan edi. Uni choponga solib ko‘tarishdi. Bo‘rilarni ham sudrab olib ketishdi. Ovchining xotini sochini yulib yig‘lar, chol «bo‘tam»lar edi.

Shu kuni tush mahali marhumni go‘ristonga eltib ko‘mdilar. Odamlar yig‘ladi-siqtadi va qishloqqa qaytishdi. Go‘rkov ham, chol ham qaytdi. Go‘ristonda faqat Ko‘kboy qoldi. U go‘rning qoshida uzoq cho‘nqayib o‘tirdi, muzlagan tuproq uyumiga bag‘rini berib yotdi n tumshug‘ini old oyoqlari ustiga qo‘ydi. Biron kimsa uni chetdan kuzatganda, malla ko‘zlaridan yosh oqib tushayotganini ko‘rardi.

Kechki payt Salqin opa itni izlab keldi. It hamon ertalabki alfozda yotardi. Opa o‘kirib yig‘ladi va itning bo‘ynidan quchokladi. It paxmoq dumini qimirlatib, ayolning qo‘lini yaladi. So‘ng, Salqin opa itning bo‘ynidan tortdi, ammo it qo‘zg‘almadi. Kesak bilan urdi, turmadi. Uning bag‘ri go‘rga yopishib qolganga o‘xshardi. Opa yana yig‘ladi va uyga qaytib, noy bilan bir hovuch oq qand olib kelib, itning oldiga qo‘ydi. It ularga sovuqqina qaradi-yu, ammo hidlab ham ko‘rmadi. Ayol tag‘in uni uyga olib ketmoqchi bo‘ldi. It tag‘in jilmadi.

Ko‘kboy yana ikki kun shu ko‘yi yotdi. Uchinchi kuni odamlar uning muzlab qolgan jasadini ko‘rdilar.

1966

YOVVOYI GUL

Vosit nimjon, yalqov va xayolparast bola edi. Madaniy-oqartuv bilim yurtini tamom qilganidan keyin shaharda qoldi. «Shahar haqiqati» gazetasida korrektor bo‘lib ishlay boshladi. U olti oy o‘tmay kvartirasini almastirar, bunga goh o‘zi sababchi bo‘lsa — ijara haqini vaqtida to‘lolmasa, goh uy egasi sababchi bo‘lar — bu lallaygan bolani yoqtirmay qolar edi.

U shahardan uch yuz kilometr olisdagi yosh, adirsimon tog‘lar ostidagi «Gulbahor» qishlog‘ida tug‘ilgan, otasi dehqon, onasi uy bekasi, yana ikkita ukasi bor edi. Bundan tashqari, albatta uning yor-birodarlari ham bor edi. Ular bunga achinib qarar, lekin, xayolparastligini yoqtirar, uni saflaridan tirsaklashmas edi. Bu qishloq ustidagi adirdan boshqa yerlarda o‘smaydigan kiyiko‘t va anduzlar ko‘p bo‘lar, bahor boshlanishi bilan ularning mayin va o‘tkir hidi qishloqqa esib turar edi.

Ana shunday bahor kunlarida Vosit adirlarda sang‘ib kunni kech qilar, oshnalari chiqib qolganda, u kunbotarni ko‘rsatib, o‘sha yoqda shahar borligi, uning juda antiqaligini aytar va kelgusida o‘zining shaharda yashash orzusini hikoya qilar edi. O‘rtoqlari kulgi aralash, vaqti kelganda, uning uyiga mehmonga borishlarini aytar, Vosit ularni jon deb qabul qilishga va‘da berar edi.

Vosit bolaligidan nimadir, odamlarni hayron qoldiradigan va o‘zi uchun suyumli bo‘lgan bir ish qilishni istar edi. U texnikumni bitirib, gazetada korrektor bo‘lib ishga kirgach, bu narsa yozilajak qandaydir mashhur bir asar ekanini ukdi... Lekin uning yozishga qobiliyati yo‘q, jiddiy bir mulohaza qilishga ham erinar edi.

U to‘rt yil umrini shaharda o‘tkazdi. To‘rt marta qishlog‘iga borib keldi. Har gal borganida uning onasi va ukalaridan tortib yor-birodarlarigacha «Gulbahor»da qolishga undar, Vosit unamay ketib qolar edi. Shunda ular Vositning orqasidan achinishar, ayni chog‘da uning g‘ayritabiiy odatlarini o‘ylab, u qandaydir katta bir ish qilayotganiga ishonganday bo‘lishar edi...

Vosit katta park orqasidagi shofyor o‘g‘li bilan uzzukun janjal qiladigan Navoxon ayaning uyida yettinchi oy ham yashab qoldi. Navoxon aya o‘g‘li ishga ketganida, undan zorlanib, unga aql kirmayotgani, besh yildan buyon bolali bir xotinning izidan yurganini aytib kuyinar, xayolparast Vosit onaga rahmi kelib, uning gapini quvvatlar va shu sababli uy bekasiga yoqib qolgan edi. Lekin, u shofyor yigitga ham yoqib qolgan edi: chunki u ham onasi bo‘lmaganda, undan zorlanib, o‘sha ayolni sevishi, onasi esa, u bilan birga bo‘lishini istamasligini aytib, uni johillikda ayblardi. Vosit uning ham gapini quvvatlar va hamdardlik bildirar edi. Lekin, gap ko‘ndalangiga hal qilinishiga to‘g‘ri kelib qolgan kezlarda, miq etmay o‘tirar, uning nazarida, bularning ham hayotida yaqin kelajakda qandaydir, qiziq bir o‘zgarish bo‘ladiganday tuyular, ular antiqa bir hayot og‘ushida baxtli hayot kechiradigandek bo‘lar edi. Biroq o‘zi yozmoqchi bo‘lib yurgan asar qanday bo‘lishini bilmaganidek, bularni o‘z og‘ushiga oladigan baxtning ham qandayligini bilmas va bu ishlar qanday amalga oshishi haqida ham o‘ylamas edi... To‘g‘ri, gohida o‘ylashga tirishib ham qolar, ammo tezda zerikar, o‘y uning yalqov vujudida sarobdek xayolga aylanib ketar edi...

Bu oila ham Vositga yoqar, lekin, ona-boladan ham ko‘ra, hovli o‘rtasidagi gulzor unga ko‘proq yoqar edi. U boshqa xonadonlarda yashaganida ham, hammadan, o‘sha xonadonlardagi gulzorlar unga ko‘proq yoqar edi, biroq, bu yerdagi gulzorda ularda bo‘lmagan gullar: kosagul, chinnigul va xinalar barq urib ochilib yotardiki, bular unga har qanaqa atirgul, romashka, prezident guli va shu kabi Yevropadan kelgan gullardan o‘n chandon yaqin va qadrdon tuyular edi. Negaki, qishloqdagi uylari oldiga ham onasi har bahor shu xil gullardan ekar edi.

Vosit bu gullarni shunchalik yaxshi ko‘rib qolganidan, ularga qarashni tamom o‘z gardaniga oldi. Ularga o‘zi suv quyur, pushtalarini yumshatar, quriganlarini yigab gajimlangan qog‘oz xaltaga solib, Navoxon ayaga berar va «Kelgusi yil ekasiz», der edi... Lekin, Vosit kechalari vodoprovodning suvini gullarga quyib, uning toshib ketmasligani kutib o‘tirar ekan, o‘sha antiqa gullar haqida ham o‘ylar va yaqin kelajakda bu gullar takdirida ham qanday qiziq o‘zgarishlar bo‘lishini xayol qilar, yana qanday o‘zgarish bo‘ladi — bu haqda o‘ylamas edi.

Vositning oladigan maoshi qornini to‘yg‘azishga zo‘rg‘a yetar edi. Shu sababli ijara haqini to‘laganidan keyin, qolgan pulini tiyinlab, kunlarga taqsim qilib chiqar va buni hech yerda unutmaz edi. Uni ko‘pincha pochasi so‘kilib ketgan dag‘al shimda, yoqasi ag‘darib tikilgan oq ko‘ylakda, tovoni qiyshayib ketgan tagi rezinka tuflida va sochlari o‘siq holda ko‘rish mumkin edi. Bo‘m-bo‘sh ko‘chalarda ham birovga tegib ketadigandek ohista, ehtiyotkorlik bilan chetdan yurar, basharasiga qaragan kishi xayoli boshqa joyda ekanini sezishi mumkin edi.

O‘zi nimjon bo‘lgan bu yigitga shahar havosi yomon ta‘sir qila boshladi. Yuragi siqilib, nafasi yetmaganday

bo‘lar, gullar qovjiragan mahallarda parkka chiqib, jimjit daraxtlar ostida, oyog‘i tagida g‘ijirlagan barglarning ovozigina quloq solib yurar edi. Uni ba‘zida «Planetariy» oldidagi tepacha ustida turgan Pushkinning oqqa bo‘yalgan haykali yonida uchratish ham mumkin edi, shunda u Pushkin kabi qo‘lini ko‘ksida kiborlarcha qovushtirib, pastdaga anhora o‘ychan tikilib turar edi.

Qish kunlarining birida shofyor yigit bolali xotinni olib keldi. Navoxon aya noiloj rozi bo‘lgan edi. Lekin xotin bilan urishishga bahona izlar, shunda behudaga Vositni ham xafa qilib qo‘yardi. Bunga ham chidashi mumkin edi. Vosit — u kvartirama-kvartira yashab uy bekalarining dashnomlari va mensimasliklariga ko‘nikib ketgan edi. Lekin, joyning torlik qilib qolgani yomon bo‘ldi: Vosit buklama karavotini oshxonaga olib chiqib yotadigan bo‘ldi. Bunga ba‘zida Navoxon aya achinar, uni qishloqqa ketishga undar, boshqa biron yaxshilik qilishdan o‘jiz edi.

Bir kuni Vositning o‘ng biqini og‘rib turdi. Darmondan ketib yotib qoldi. Doktor chaqirdilar. Ertasi kuni Vosit bir-bir bosib poliklinikaga borganida, uning talog‘i shamollagani ma‘lum bo‘ldi. Kasalxonaga yo‘llanma berdilar. U ishxonasiga zo‘rg‘a kirib bordi, xokisorlik bilan o‘zining betobligini aytib, yo‘llanmani ko‘rsatdi. Ular yotishga da‘vat qildilar. Vosit Navoxon aya va shofyor yigit bilan quyuq xayrlashib kasalxonaga ketdi.

Kasalxona uning yotib yurgan sharoitidan yuz chandon a‘lo edi, to‘shaklari ham yangi, oppoq, palata issiq, ovqat vaqtida tayyor... Bu yangi sharoit Vositga juda yoqib qoldi. U kasallar bilan inoq bo‘lib ketdi. Endi u istaganicha xayol surishi mumkin edi. Keyinchalik, u tuzalib chiqqanidan keyin, turmushi tamom o‘zgarib ketadigandek, xayollari amalga oshib, qarshisida antiqa olam ochiladigandek va o‘z yaratishi kerak bo‘lgan asar ham endi yoziladigandek tuyula boshladi. Biroq, uning tuzalishi sekinlik bilan bo‘ldi. Doktorlar unga apelsin, limon, mandarin va o‘zimizning bozorda sotiladigan mevalardan yeyishni tavsiya etar, u esa, bularni iste‘mol qilishdan mahrum edi. Faqat ba‘zi bemorlar unga achinganidan bitta-yarimta meva tutqazar, Vosit mamnun bo‘lib, uni yeb olar edi... Undan keyin kelgan, shu kasal bilan og‘rigan bemorlar ham bir yarim-ikki oyga qolmay shifo topib ketishdi, Vosit to‘rt oy yotib qoldi. Bu orada redaksiyadagi sekretar qiz bilan korrektorlar bo‘limining mudiri ikki marta xabar oldi. Onasi bitta ukasi bilan bir marta kelib ketdi va bu gal ham Vosit tuzalib chiqqanidan keyin qishloqqa ketishini yolvorib so‘radi. «Tuzalib chiqay, keyin ma‘lum bo‘ladi», dedi Vosit.

Vosit kasalxonadan chiqqan kuni Navoxon ayaning uyiga bordi. Aya ham, shofyor yigit ham uni iliq kutib olishdi va ko‘rgani borisholmaganlarini aytib, turmush tashvishlaridan nolishdi. Vosit endi oshxonada emas, karavotini gulzor yoqasiga qo‘yib yotar edi. Chunki, ko‘klam boshlanib, havo isib ketgan edi. Lekin, u redaksiyada ko‘p ishlolmas, tez charchab qolar, doktorlar ham unga ko‘p urinmaslik, og‘ir ishlarni esa, mutlaqo qilmaslikni uqtirgan edi. Shuning uchun korrektorlar boshlig‘i ham, boshqa xodimlar ham unga qiya qarashar va gazetada xato ko‘p ketayotganidan nolib qandaydir boshqa ish qilishni shama qilishar edi... Ilgari bundoq muomalaga duch bo‘lmagan Vosit xafa bo‘la boshladi. U endi kelajak qish haqida o‘ylab, yana kasalga chalinishi mumkinligini chamalar, boshqa xonadonga ko‘chib o‘tishni avvalambor istamas, so‘ng bu ko‘chishlar joniga tekkan edi... Endi o‘zining kelajagi va kelajak yorqin hayoti unga bir sarobdek ko‘rina boshladi. Yodiga tug‘ilgan qishlog‘i tez-tez tushadigan bo‘lib qoldi.

Aprelning o‘rtalari edi. Redaktorning tashabbusi bilan xodimlar bir avtobus bo‘lib, Oyna toqqa lola sayriga chiqadigan bo‘lishdi. Buni eshitib, Vositga jon kirdi. Sayrga boradiganlar besh so‘mdan profkomga to‘lashi kerak edi, chunki, u tomonda qo‘y so‘yishmoqchi edilar... Vosit ham asrab qo‘ygan pulidan badanini uzgandek qilib, besh so‘m chiqarib berdi.

Tong mahali o‘zlari ijaraga olgan avtobusda jo‘nashdi. Shivalab yomg‘ir yog‘ib turar, havo bulutli edi. Toqqa yetguncha yomg‘ir tinib, ko‘k ochilib ketdi. Bahor butun ko‘rki bilan ko‘zga tashlanar edi. Bir kun ilgari borgan bo‘lim boshlig‘i bularni Nanay qishlog‘ining loyi qotgan ko‘chasida kutib oldi. Chuvurlashib, quvnashib, avtobusdan tushdilar. Bo‘lim boshlig‘i mahalliy agronomning uyida joy hozirlagan ekan. Kirib joylashdilar. Taom tayyor bo‘lguncha atrofnii aylanib kelish haqida taklif tushdi. Hamma rozi bo‘lib, qo‘zg‘aldi. Biroq, yig‘ilib kelgan qishloq bolalari lola hali kam ochilgani, tog‘ning baland kungay betlaridagina borligini aytdi. Hamma mamnuniyat bilan o‘sha yerlarga chiqishga rozi bo‘ldi va bolalarga ergashdilar. Ammo lola o‘sgan adirning etagiga yetguncha charchab qolishdi. Loladan hafsalalari sovib, tevarakni tomosha qilish va oyoq ostida ochilib yotgan mitti sariq gullardan terish bilan cheklandilar. Vosit xayolparastlik bilan gangib, o‘tlokda turar edi. Xayolidan bolaligi o‘tgan qishloqlari ortidagi adirlar, bolalikda o‘zining o‘sha adirda yurgani, o‘tirib ufqqa tikilgani o‘tar edi. Shunda birdan unda adirga ko‘tarilishdek tiyib bo‘lmas bir istak uyg‘ondi. Dili hapriqib, go‘yo shu adirga chiqib ufqqa qarasa qandaydir orzulari birdan ro‘yobga

chiqadigandek, go‘yo o‘zi ko‘pdan beri shuni kutib yurgandek tuyuldi. U shunda doktorlarning ko‘p yurmaslik, og‘ir ish qilmaslik haqidagi o‘gitlarini ham unutdi va adirga tirmashib chiqa boshladi. U darmonsizlikdan charchar, ammo, buni o‘ziga olmas edi. Adirga chiqib ham bordi. Ufqqa qaradi. Ufqda katta, yalang tog‘ ko‘ndalang turar edi. Vositning nazarida hozir quyosh shuning orasida botayotgandek, ufq qip-qizildek tuyuldi.

Beixtiyor yonidagi toshga o‘tirdi. Shunda qaerdandir juda tanish bir hid dimog‘iga urilayotganini sezdi. Birdan sergaklanib alangladi va tevaragida ko‘m-ko‘k, ko‘rpadek bo‘lib yotgan kiyiko‘tlarni ko‘rdi. G‘alati bir titroq bilan qo‘zg‘alib, katta bir tup o‘tning boshiga bordi. Egilib hidladi. Dili yorishib, ko‘pdan izlab yurgan narsasini topgandek bo‘ldi. Shunda etakda shapaloq barglarini yozib yotgan anduzlarni ko‘rdi va yuragi hapriqib, ko‘zlariga yosh kelayozdi. Yugurgilab ularning boshiga bordi. Shunda orqadan xodimlarning chaqirayotganini eshitdi. Turib, adir boshiga keldi. Ikkita olti yashar bola qo‘li bilan ko‘katlarni ushlab, tirmashib chiqib kelar, pastdan korrektorlar bo‘limining boshlig‘i qo‘llarini yuqoriga ko‘targancha qichqirar edi. Bu bolalar — ma’sul sekretarning bolalari edi.

— Vosit! Tushing, tushing axir! — deb qichqirdi u. — Sizni ko‘rib bular chiqib boryapti. Keta-mi-iz!

Vosit birdan o‘zini aybdor his etib, pastga tusha boshladi. Ammo bu adirdan juda ham ajralgisi kelmadi. Nima qilishini bilmay, bir zum ikkilanib turdi-da, so‘ng kattagina bir tup kiyiko‘tni tutamlagancha ushlab torta boshladi. Uzun tomiri uzilib, bir misqol tuproqni tomirlari bilan changallaganicha o‘t uning qo‘liga keldi. Vosit loyini tushirmaslikka harakat qilib tusha boshladi. Biroq, qumli tuproq tezda to‘kilib, kiyiko‘tning qizg‘ish tomirlari banka ichida o‘sgan tomirlardek taralib qoldi. «Zarari yo‘q», deb o‘yladi Vosit; bolalarni zo‘rg‘a qaytarib, pastladi.

— Kasalman der edingiz, kasal ham toqqa chiqadimi? — dedi boshlig‘i. Vosit g‘amgin jilmayish bilan javob berdi. Lekin kasalligi o‘zini tezda ko‘rsatdi. Agronomning uyiga yetmasidan o‘ng biqinida bir nima tugilib qolgandek bo‘laverdi. Ovqatga ishtahasi bo‘lmadi.

Shaharga kechqurun qaytib ketdilar. Vosit kiyiko‘tni tutganicha Navoxon ayaning uyiga kirib bordi.

— Bu gulni ekamiz, aya, — dedi. — Ko‘payib ketadi. Bu yovvoyi gul, kiyiko‘t. Madaniy bo‘lib ketadi.

Aya uni hidlab ko‘rib, xursand bo‘lganini aytdi.

Vosit gulzorda rosa joy tanlab, gulni ko‘rinib turadigan yerga, rayhonlar ekilgan joyning pushtasiga ekdi.

Kunlar isigan sari vodoprovodlarning suvi ham kamaya boshladi. Suv faqat kechasi kelar, gulzorni sug‘orishga esa, Vositning negadir hafsalasi yo‘q edi. Bir kuni kiyiko‘tdan xabar oldi-yu, xafa bo‘lib ketdi. Pushtaga ekilgan o‘tga suv yetmas, uning yaproqlari hamon ko‘k bo‘lsa-da, qovjiray boshlagan edi.

Bir kuni Vosit ishdan haydaldi. Endi qanday ishga kirish, ijara haqini qanday to‘lash haqida o‘ylanib, uyga keldi. Shunda birdan qishning yaqin qolgani yodiga tushdi. Shunda o‘zining ham juda holdan toyganiga fahmi yetdi. Kechgacha darvoza yonida o‘tgan-ketganga qarab o‘tirdi-da, keyin hovliga kirdi va birdan o‘tini eslab, uning qoshiga bordi. Dong qotib qoldi.

Kiyiko‘t cho‘p bo‘lib qolgan edi. Uning tomirini kavlab ko‘rgisi keldi, biroq, buni orqaga surib, uning boshiga cho‘nqaydi. Shunda birdan ko‘ngli buzilib, shu o‘t o‘sgan adirni esladi va beixtiyor kuyindi: «Nimaga buni shu adirdan olib keldim. Usha yerda o‘saversa, qurimasdi», deb o‘yladi. Shunda birdan nimagadir o‘zi haqida o‘ylab qoldi va zo‘r taajjub bilan o‘zini shu gulga o‘xshatdi. Ko‘ngli buzilib ketdi, o‘zining xor-zor yurganlarini esladi. «Nima uchun? Nima uchun?» dedi. Javob topolmadi-yu, o‘zining ham shu guldek qovjirab borayotganini, yaqin kularda shu guldek qurib, cho‘p bo‘lib qolishini o‘yladi. «Yo‘q, mening joyim o‘sha yoq», deb o‘yladi. Bu o‘y Vositning umrida birinchi jiddiy o‘y edi. Shuning uchunmi yo boshqa sababdanmi, bu unga kuchli ta’sir qildi. Ertasi kuni kechqurun karton chamadoniga eski-tuski kiyimlarini joylab tashqariga chikdi-da:

— Xayr, oyi, mendan yomonlik o‘tgan bo‘lsa, kechiring, — dedi. — Kiyiko‘t tog‘da o‘sgani ma’qul ekan.

Ijara haqini to‘lab, darvozadan chiqib ketdi.

SIRLI MILITSIONER

Tashqarida yomg'ir quyay, magazin ichida namiqqan tuz va sovun hidi anqir edi. Eshik og'zida turgan sovxoz direktori To'raev:

— Sel kelar-ov, — dedi. Peshtaxta ortida turgan mudir bo'ynini cho'zib, soyni ko'rmoqchi bo'ldi.

Ko'cha yoqasiga kelib, bir mashina to'xtadi. Kabinadan militsioner tushdi. U to'ladan kelgan, shapkasini bostirib kiyib olgan, pogonida uchta yulduzchasi bor, chehrasi tashvishli edi. Shoshib, magazin ayvoniga chiqdi. Etiklarini urib qoqdi va shapkasini boshidan olib, sochini kafti bilan siladi.

To'raev unga iljayib qarab turardi: sekin ortidan borib, ikki qo'llab uning ko'zlarini berkitdi.

— Toping! — dedi.

Militsioner iljaydi, burildi va birdan qovog'ini uydi:

— Salom.

— Yaxshimisan?

— Yaxshi... Yomg'ir ham zo'raydi!

— Juda!

— Hm...

— E, odammisan o'zi?! — To'raev uning tirsagidan ushlab o'ziga qaratdi. — Nima bo'ldi? Tanimayapsanmi?

Militsioner tomog'ini qirib, shapkasini kiydi:

— Tanidim... Siz sovxoz direktori o'rtoq To'raev bo'lasiz.

To'raev burnidan nafas olib, boshini orqaga tortdi:

— Hazil qilyapsanmi? — Qanaqa hazil?

— Hali shunaqami?

— Nima?

— Bor, toshingni ter! — To'raev burilib magazinga kirdi, bir ozdan keyin qaytib chiqib, ayvondan chiqdi. Tarnovdan oqayotgan suvga parvo qilmay, militsionerga burildi: — Katta bo'p qopsiz-da, a? Zamnachalnik bo'psiz-da?! Tuzuk, tuzuk... Tanimay qoldingizmi? O'zi, eskilar aytishar edi, milisa bilan do'st bo'lma, xotinga sir aytma, nomarddan qarzdor bo'lma deb. Shu gap rost ekan!

Militsionerning qalin lablari uchdi, burun kataklari qappaydi, lunji shishdi:

— Ha, — dedi xirillab. — Bu rost gap. Milis bilan do'st bo'lma... Milisa bilan har kim ham do'st bo'lolmaydi!..

— Endi bildim. Ishondim, — dedi To'raev va telpagini bostirib, toshloqdagi ko'lmaklar ustidan o'tdi va qumloq yo'lga tushib, idora tomon ketdi.

Militsioner xo'rsinib, har tarafga bokdi. So'ng magazinga qarab, ichkarida o'ziga tikilib turgan mudirni ko'rdi. Tag'in ortiga qarab olib, shitob bilan xonaga kirdi:

— Yuzta quy! — dedi. Magazinchi o'ylanib:

— Bizda... grammlab sotilmaydi-ku, — dedi.

— Quy, quy! Gapni cho'zma! — zamladi militsioner va peshtaxta burchagiga o'tdi. — Hov, konfetdan ham bitta ol!

— Endi... yangisini ochar ekanmiz-da, — magazinchi to'ng'illab, rastada turgan aroqdan birini oldi-da, kir doka bilan artib, qopqog'ini tishida ochdi. Peshtaxta ostidan piyola olib, pufladi. Aroqdan g'uldiratib quyib, mehmonga uzatdi.

Militsioner piyolani bir ko'tarishda bo'shatib, konfetdan tishladi. Shimidagi piston cho'ntagini kovladi.

— E, qo'yaving, — dedi mudir piyolani olib. Militsioner peshtaxtaga pul tashlab, eshikka qarab turdi. So'ng papiros tutatdi. Do'konchi bergan qaytimni shineli kissasiga solib:

— Kofirunga qaysi yo'l yaqin? — dedi.

— Hamma yo'l ham, — javob berdi mudir unga hayratlanib qaragancha. — Piyoda borsayam bo'ladi-yu, yomg'irda qolasiz... Soydi kechib o'tish kerak. Suviyam mo'l.

— Shu yo'l yaqinroq-a?

— Ha, bunisi yaqin. Qirdan oshsangiz, Kopirin-da.

Militsioner papirosni tashlab, tovonida ezdi. Shapkasini bostirib, yoqasini ko'tardi. Shineli baridan chimdib ushlab, tashqariga chiqdi va shovillab yog'ayotgan yomg'ir ostida yo'lning narigi betiga o'tib oldi.

Yuz qadam yurib, so‘qmoqqa burildi va tiyg‘anib ajriqzorga tusha boshladi. Ajriqzor keng maydonni ishg‘ol qilgan bo‘lib, bir tomoni yulg‘unzor, bir tomoni qamishzor, qamishlar orasidan bug‘ ko‘tarilib turardi. Militsioner ajriqzorni kesib, tuzi chiqib yotgan soy sohiliga yetdi. Soyning bu yeri kengayib oqar, suv bo‘tana, har yer-har yerda dumaloq toshlar chiqib turar edi. Militsioner o‘ylanib, suvga tushdi-da, yana shineli etaklarini ko‘tarib, olg‘a yurdi. Soyning o‘rtasiga yetganda, suv uning tizzasidan oshdi. U to‘xtab, orqasiga g‘amgin qaradi. So‘ng yana olg‘a jilib, beligacha shalabbo bo‘lib, narigi sohilga chiqib oldi. Ajriqzorga o‘tib, shimi pochalarini siqqan bo‘ldi. Bir-ikki qadam borib, xarsang toshga suyandi. Etiklarini yechib, suvini to‘kdi, yana kiydi va sal o‘tmay, nari yokdagi gaza o‘rkachiga chiqib bordi. Ko‘katlar nish urgan, yomg‘ir arnalardan oqar, yerga singib ketar edi. U adirdan oshib, qishloqqa tusha boshladi.

Qishloq etakdagi daryoning sohilida bo‘lib, yalang‘och, siyrak daraxtlari shuppayib turar, shiferli tomlardan tutun ko‘tarilar, pastdan kesib o‘tgan yo‘lda bir otliq bir buqani surib haydab borardi.

Militsioner yo‘lga yetdi. U yoq-bu yoqqa angrayib, ko‘rinayotgan uylardan durustrog‘ini tanladi-da o‘sha yoqqa yurdi. Biroq bu uyning ortidan ariq o‘tgan edi. Sakrash uchun qulay joy izladi, topolmay to‘xtadi. So‘ng... yonboshida qaqqayib turgan, tomiga shifer yopilmagan uyga yo‘naldi. Nishab so‘qmoqdan tushib, qo‘y qiylari erib oqayotgan maydonga yetdi. Shunda uy biqinidagi bostirmada yotgan tozi it hurdi, lekin turishga erinib, burchakka tiqildi.

Militsioner chimirilib, to‘g‘ri uy eshigiga bordi, taqillatdi:

— Kim bor?

Uycha ikki xonadan iborat ekan, ichkaridan ovoz keldi:

— Hozir... — bir ozdan so‘ng eshikdan oq ko‘ylak kiygan, siyrak soqol o‘rta yashar yigit chiqdi. Militsionerni ko‘rib, ko‘zlari kengaydi: — Keling, bobo, — dedi.

Militsioner uyga kirdi. Uy qorong‘i bo‘lib, ichkari xonada yonayapgan lampochka bunisini yorita olmas, xonadan anor, qatiq va rutubat hidi anqir edi.

— Ichkari kiring, bobo. E, etikni yechib o‘tirasizmi? — dedi uy egasi.

Militsioner shoshmay paltosini yechib, unga berdi. Etigini sug‘urib, yerga yotqizib qo‘ydi. Paypoqlarini ham yechib, eshikdan chiqarib siqdi, so‘ng etik qo‘njiga yoyib qo‘yib, oqem bo‘lib ketgan oyoqlarini bo‘yraga yengil bosib, ichki xonaga o‘tdi. O‘rtada tancha tutar, devorga do‘mbira ilingan, burchakka o‘rin solib qo‘yilgan, to‘rda bir taxmon yuk, yerga kigiz to‘shalgan edi.

— O‘tiring, bobo! Sandal ham sovib qog‘an. O‘t qilaymi? Sovqotgan ko‘rinasiz?

Militsioner uning qiyshayib turgan gavdasi, cho‘loq oyog‘iga qarab:

— Kerak emas, o‘tiring! — dedi.

— Xo‘sh-xo‘sh, — uy egasi o‘tirgan yeridan yana irg‘ib turdi. — Choy qo‘yay, u-bu opkelay!

— Kerak emas! O‘tiring. Otingiz nima?

— Otim Xushvaqt! — mezbon cho‘kkaladi.

— Shamollaysiz, ustingizga bir nima tashlab oling!

— E, shamollab yosh bolamizmi! Qatiq opkelay bo‘lmasam! — mezbon dasturxon yozdi, qo‘sh non keltirdi, kosada qatiq qo‘ydi. — Qani, oling!

Militsioner nondan sindirib tishladi:

— Xushvaqtboy, — dedi o‘ylanib. — Kim bo‘lib ishlaysiz sovxozda?

— Biz... iskaladga qorovul, bobo, — javob berdi mezbon.

— Nimaga uyingiz munday xarob? Xotin bormi?

— Xudoga shukur, bor. Uchovgina bolayam bor... Ammasinikiga qidirib ketgan edi. Kep qolar... Uyni so‘raysizmi? Nima qipti, vaqtinchaga bo‘ladi bu!

— Nimaga vaqtinchaga? Boshqa uy solyapsizmi?..

— Ha, bitib qog‘anda qish tushib qoldi. Yozda bitirib olamiz endi.

— Qaerda?

— He, dayradan norman. Bobolarding yurtidan. Cho‘pon bo‘g‘anmiz-da aslida.

— Hm... direktor yordam beryaptimi?

— Ey, men sizga aytсам, milisa bobo, bu direktorimiz ko‘p qoruvli bola chikdi. Ko‘z tiymasın, bo‘lali bola!

— Nimasi yaxshi? Siz bunday uyda o‘tiring, u tipovoy uyda tursin, yana uchastka solayotgan bo‘lsin!.. Shumi yaxshiligi?!

— E, uni aytasizmi? Lakin, milisa bobo, tipovoydan bizgayam birovini beramiz deyishgandi. Kampir

ko'nmadi, yurtqa boramiz, deb. O'zlarining lakin uchastka sog'anini bilmayman. Tepamda xuda bor, yolg'on gapiralmayman!

— Yo'q... Bizga, rayonga ma'lumot borgan! Direktor bo'lganiga bir yil to'lmay, uchastka soldi deb... Yashirmang! Biz biribir aniqlaymiz!

— E, milisa bobo, biz yashirib nima qilamiz. Yashirsak, direktor kun tug'dirib beradimi bizga... Bor gap. U yog'ini so'rasangiz, u bola asli shu qishloqdan, milisa bobo. Bir kambag'aldan chiqqan. Ko'p qiynaldi bechora. Qiyinchilik bilan o'sgan... Uni bilgan biladi, bilmagan bilmaydi!

— Asli shu yerda tug'ilgan-a? Xo'p... O'sha tug'ilgan yerida nima bor hozir?

— U yerda hech gap yo'q, oborib ko'rsataman xohlasangiz. Zateknik bo'g'anda, bir kulba solaman, deb jurdi. Hasharga chaqirdi odamlardi. Paxsa devor qilib, uyi tikka bo'g'anda, direktor ko'tarilib ketdi... Shuytib, u kishi tipovoyga ko'chdi. U kulba shu ahvolda qolib ketdi.

— Qani, menga ko'rsatasizmi? Yo'q, siz turmang... O'zim topib olaman!

— E, oyoq cho'laq bo'g'ani bilan jurishga yaraymiz, milisa bobo. Qani, qatiqdan oling... Boramiz-da! Choy qilay. Go'sht bor...

Militsioner soatiga qarab oldi:

— Yo'q... Bo'lmasam menga bir kalish bering, — dedi. — Payafzal qurib tursin. Sovuq o'tib, burinni tortib yurmay.

— Xo'p-xo'p. Kalishdan boshqa nima bor. — Mezbon halloslab turib, sandiq ustidan ko'rpalarni tushira boshladi. Qopqoqni ko'tarib, bir juft kalish olib militsionerning oldiga tashladi. — Bo'ladimi?

— Bo'ladi, bo'ladi.

Bir ozdan so'ng ular baland o'riklar ostidagi bir yon devori yomg'irda yuvilib ketgan uy oldida turishar, uning supalari ham yemirilib tusha boshlagan edi. Ayyonga chiqishgan edi, ichkaridan bir it chiqib qochdi. Militsioner ichkariga mo'raladi, suyak, jun, teri parchalari, rom qo'ndirilmagan derazadan sovuq shamol kirar edi...

Militsioner qishloqdan chiqib, soydan o'tdi. Magazinga keldi. Do'kon berk, qorovulxonada odam ko'rinardi. Militsioner budkaga yaqinlashdi:

— Direktor qani?

— Idoraga ketgan edi, — dedi do'konchi.

— Borib... chaqirib keling! Birov so'rayapti deng.

Direktor militsionerni ko'riboq to'xtadi va shart burilib keta boshladi. Militsioner unga yetib olib, tirsagidan ushladi:

— O'rtoq To'raev!

— Ha, men o'rtoq To'raevman! Sen zammachalnik bo'lsang, men direktorman... Nima deysan?! - deya burildi direktor.

— Yo'q... Sen Abdushokirsan, sen mening o'rtog'imsan.

— Senday o'rtog'im yo'q.

— Yur magazinga. Ish bor...

To'raev burildi. Bir necha daqiqadan so'ng ikkovlon kulishib yo'l yoqasida turishar, do'konchi magazin eshigidan ularga hayratlanib qarardi...

1966

BIR GUZAR ODAMLARI

1966 yil 26 aprel, tong.

(*Shingil novellalar*)

* * *

Devor yiqilgan. Guvalalar hovli sahniga dumalab ketgan. Yer to‘xtab-to‘xtab titrayapti. Er o‘rik tagida cho‘nqayib o‘tirdi. Xotin daraxt tanasiga suyanib turirdi.

— Tezroq to‘xtasamidi, — dedi er ensasi qotib. — O‘n birda vokzalga borishim kerak. Loyini qilib tashlar edim devorning. Kechqurun ikkovlashib paxsasini ko‘tarib qo‘ya qolardik.

* * *

Teshavoyning uyi bosib tushdi. U xotini bilan hovliga zo‘rg‘a chiqib oldi. Tong otgach, g‘izillaganicha otasinikiga ketdi. Egamberdi bobo to‘qson sakkizda. Qulog‘i og‘ir. Garang.

— Baxay? Kallai saharlab yuribsan? — so‘radi chol to‘shagiga o‘tirib.

O‘g‘il otaga tikilib qaradi. Ota uyqudan to‘yib uyg‘ongan, xotirjam: yer qimirlaganini sezmagani edi. «Aytib, cholni tashvishga solib o‘tirmay», deb o‘yladi.

— Shunday. Bozorga borayotgan edim, — dedi. — Bir ko‘rib o‘tay dedim.

— Omin. Omading kelsin! — fotiha o‘qidi chol.

Teshavoy sinchli uyning shifti, derzasini ko‘zdan kechirib, chiqib ketdi...

* * *

Frontovik Elmurod Zafarov karavotdan dumalab tushdi. Xotini o‘rinda yo‘q. O‘rnidan turar ekan, deraza orqasining yorishib ketganini ko‘rdi. Shkaf ustidagi kitoblar titilib to‘kildi. Zafarov bir zum derazaga horg‘in qarab turdi. So‘ng silkinayotgan polda oqsoqlanib, deraza oldiga bordi. Qo‘lini beliga tirab: «Urush», dedi sekin. U asli buxorolik, u yerdagi yolg‘iz onasini anchadan beri ko‘rmagan edi. Shuni eslab: «Esiz, ko‘rolmadim», dedi.

* * *

Ota kasalxona yo‘lagida to‘lg‘oq tutgan ayoldek yurirdi. Olti yashar o‘g‘li operatsiya xonasida, stolda. Oyoq-qo‘li stol qanotlariga chandib bog‘langan. Ko‘richagi tutgan. Uchinchi tutishi. Hamshira bo‘zarib, bolaning oyoq tomonida turirdi. Navbatchi vrach o‘tkir pichog‘ini olib, bolaning ochiq qorni ustiga engashdi.

Uy ostidan bir kishi tepganday sapchib tushdi. Yon-veridan noma‘lum qo‘llar qitiqlayotgan kabi silkina boshladi. Dod soldi bemor bola. Hamshira qiz o‘zini eshikka urdi. Koridordagi ota esa, o‘zini ichkariga urdi. Vrach stol qirrasiga suyandi. Ota kirib, o‘g‘lining oyog‘idagi iplarga yopishdi.

— Chiq! — dedi vrach bo‘g‘ilib.

— Doktor!

— Opchiqsangiz, tirik qoladimi? Chiqing! Titroq susaya boshladi. Ota koridorga chikdi. Hamshira diydirdab xonaga kirdi. Vrach yana bemor ustiga engashdi.

* * *

Pirmat qorovulning xotini yurak o‘ynog‘i edi. Yer silkindi. Ikkalovi ham uyg‘onib ketishdi. «Yuragi yoriladi!» deb o‘yladi Pirmat.

— Oh! — dedi xotin.

— Hech narsamas. Hozir iziga qaytadi, — dedi er.

— Qimirlayapti-ku?

— Yer bo‘lganidan keyin qimirlaydi-da, xotin. «Bo‘lgan ish bo‘ldi», deb o‘yladi Pirmat va xotini mahkam quchoqlab oldi.

Xotin bir muddat eshikka qarab turdi. So‘ng, shunday qilsa omon qoladiganday u ham erini mahkam quchib oldi.

* * *

Itlar vovullar, daraxt tepasida chumchuqlar shatir-shutur qilib chug‘urlar, devor osha erkaklarning uzuq-yuluq uyquli ovozi kelar edi. Kampirining bilagidan ushlab yo‘lakda turgan G‘olib bobo o‘g‘li Samadning uyidan eshikning taqillagani, nevaralarining bag‘illashgani va kelinning: «Musulmonlar!» degan bo‘g‘iq ovozi eshitildi.

Chol bundan to‘rt yil muqaddam o‘g‘lining Karomatga uylanish niyati borligini eshitib, undan qo‘lini yuvgan edi. Emishki, qizning ammasi Xadicha xola vaqtida oyog‘i yengil... bo‘lgan emish. «Shu nopokning jiyanini kelin qilamanmi?» dedi chol. Lekin, Samad Karomatga uylandi. To‘y kuni G‘olib bobo miskarlik do‘konida bo‘ldi. Ertasiga o‘g‘lining ro‘zg‘orini bo‘lib tashladi. Hovlining o‘rtasidan devor oldi. Samad ham shu kuni ko‘chadan darcha ochdi. Samad o‘g‘il ko‘rdi, qiz ko‘rdi. Beshik to‘yi qildi, sunnat to‘yi qildi. Chol uning uyiga qadam bosmadi.

Samad — militsioner, kechasi navbatchilik qilar, Karomat uyining ichkarisidan zanjir lab yotar edi.

— Ularga bir nima bo‘ldi, — qo‘rqa-pisa pichirladi kampir.

G‘olib bobo esa esi oqqan kishi kabi devorga tirmashdi. Umbaloq oshib, tandir ustiga tushdi. Yugurib borib, Samadning eshigini tortdi. Oyog‘ini kesakiga tirab, uchinchi marta tortishda zulf uzilib, eshik ochilib ketdi. Chol duch kelgan o‘g‘il-nevarasini bag‘riga bosib, xolis yerga qochdi. Karomat qizini quchoqlab, qaynatasining orqasidan chopdi.

— Otajon, nima bo‘lyapti? — dedi u dag‘-dag‘ titrab.

Chol birdan to‘xtab, Karomatga bir zum tikilib qoldi. Birdan esi o‘ziga kelgan kishi kabi:

—Ol, bolangni! — deb nevarasining yelkasidan itarib yubordi. Yana devorga tirmashdi. Endi osholmadi. So‘kinib, darchadan chiqib ketdi.

* * *

— Ketasizmi, yo‘qmi? — dedi kuchanib Sora opa.

—Ahmoq, nega baqirasan? Qaerga ketaman! — dedi Norqul aka.

— Bo‘ldi, o‘zim ketaman.

— Ketaver.

Yo‘lakda cho‘nqayib o‘tirgan Sora opa g‘izillab uyga kirdi. Norqul aka baxmal gullar tagini chopiq qilaverdi. Yer qattiq titradi. Sora opa «voy-voy»lab chopib chiqdi.

— Burun ketmasam ham endi ketaman.

— Ketaver.

Sora opa gilos tagida bir fursat ikkilanib turdi. So‘ng eshikning boshqa tavaqasini ham ochib Qo‘yib, uyga kirdi. Shkaf tortmasidan kiyimlarini yulqib olib, divanga otdi. Choyshabga o‘rab, qaytib chiqdi.

— Men ketyapman.

— Ketaver dedim-ku.

Sora opa darvozaga yetib, to‘xtadi. Shipillab yurib, erining boshiga keldi.

— Aylanay sizdan. Yer cho‘kib ketadiganday bo‘lyapti.

— Men ketmayman bu yerni tashlab. Tushudingmi? Kun to‘lgan bo‘lsa, shuncha odamning bittasimiz-da.

— Yo‘q. Yo‘-o‘q.

Sora opa tugunini qo‘ltig‘iga qisib ketdi. Vokzalga borib, «Toshkent—Chirchiq» avtobusiga o‘tirdi. Kechqurun daryo bo‘yiga tushdi. Suvga chiqqan kelinchaklar uni o‘rab oldi.

— Vulqon chiqdimi?

— Suv bosdimi?

— Cho‘kib ketdimi?

Sora opa hovliga kirar-kirmas xotin-xalaj yetib keldi.

— Mening o‘g‘limni ko‘rdingizmi? Talabalarning yotog‘i ham yiqilganmish.

— Ko‘rdim. Eson-omon. Yotoq ham joyida.

- Erim ToshMida edi.
— Sog‘-salomat. Sizga salom aytdilar.
— Siz nimaga keldingiz, Soraxon?
— Nimaga kelmas ekanman! — qichqirib berdi Sora opa. — Oyimning ko‘nglini tinchitay deb keldim, inson!
— To‘g‘ri, to‘g‘ri.
— O‘zingizning uyingizga ziyon yetmadimi?
— Xudoga shukur. O‘rnida turipti.
— Eringiz qalay?
— Yaxshi. Meni yubordilar. Ishonasizmi, u kishi hozir gullarni chopiq qilyaptilar.
— Ilohi, omon bo‘linglar jumla-jahonning qatorida.
— Xotirjam bo‘linglar.
— Endi qachon qaytasiz, Soraxon?
— Bir-ikki kun turaman.
— Bizga bildirmay ketmang, aylanay.
— Albatta. Ayollar ketishdi.
— Xotirjamlikmi, bolam? — so‘radi Zinnat buvi.
Sora opa yig‘lab yubordi.
— Qochib keldim. Kuyovingiz qoldi. O‘lguday o‘jar.
— Ishqilib, tinchlikmi?
— Tinchligi ham qursin. Likillab turipti! Birov unday deydi, birov bunday.
— Norquljonni bekor qoldiribsan-da.
— Voy, qancha yalindim. Unamadilar.
— Hay, o‘zing omon bo‘l.
— Hozir ham qimirlagandir.
Sora opa radioning qulog‘ini buradi. Diktor e‘lon qildi: «Besh ball».
— Oh! — dedi Sora opa. — Uyim yiqildi. Derazalarning oldi darz ketgan edi.
— Norquljon kunduzi ishlaydi-ya?
— Kechasiga balo bormi?
Sora opa ayvonga chikdi. Tog‘lar qoraygan. Olisda daryo shovillaydi.
— Kel endi. Bir piyola choy ich, — dedi dahlizdan Zinnat buvi.
Sora opa qaytib kirdi.
— Xavotirlanyapman.
— Xavotirlansang, uyingda o‘tir edi-da, qizim.
— O‘tirib bo‘lmadi-da, oyijon.
Yarim kecha. Uy orqasida bir narsa «gup» etdi. Soraxon o‘rnidan turib ketdi.
— Yer qimirlayapti!
Kampir uyg‘onib, quloq soldi. Yana «gup, gupur-gupur» etgan tovush keldi.
— Eshak-ku, — dedi Zinnat xola. — O‘yin qilyapti. Sora opa ko‘kragiga «tuf-tuf»lab, to‘shakka o‘tirdi.
— Juda qo‘rqibsizlar-da, bolam.
— Oyijon, ko‘nglim g‘alati bo‘lyapti.
— Opkelolmapsanmi, o‘zingdan o‘tipti. Qo‘y endi. Shu kecha tinch uxla.
Sora opa ertalab ko‘chaga chikdi. Avtobus bekatiga borib turdi. Toshkentdan kelgan avtobusdan somon shlyapali yigit tushdi. Sora opa uning oldiga bordi.
— Siz ham Toshkentni so‘raysizmi? — dedi yigit bo‘g‘ilib. — Toshkent sob bo‘ldi. Tamom!
— Og‘zingizga tosh! — dedi Sora opa.
Sora opa qaytib kelib, choyshabda tugilgan kiyimlarini ko‘tardi.
— Ketasanmi?
— Ketaman.
Kampir fotiha berdi. Ko‘chaga chiqishi bilan uni yana kelinchaklar o‘rab oldi. Bekatga yetmasidan xotin-xalaj qurshovida qoldi.
— Mening o‘g‘limni so‘rang. Xat yozsin.

— Erimga aytib qo‘ying. Bozor kuni o‘zim boraman.

— Voy, yuragingizga balli. Shu yerda turib, biz qo‘rqyapmiz. Siz boryapsiz!

Sora opa «Chirchiq—Toshkent» avtobusiga o‘tirdi. Tush mahali Salorga yetib keldi. Darvozadan kirdi.

Norqul aka devordan yiqilgan kesaklarni belku-rak bilan olib, burchakka tashlar edi.

— Keldingmi? — dedi.

— Keldim, — dedi Sora opa jilmayib. So‘ng qovog‘ini solib, uyiga kirib ketdi.

1966.

QORBOBO KELADI

—*Qorbobo qaerda?*
—*O'rmonda.*
(Jiyanlarimning suhbatidan)

Hovlimiz Kuytan tog'ining archazor yonbag'rida bo'lib, tevaragi pastak devor bilan o'ralgandi. Lekin, ayvondan turib qarasangiz, devorlar ko'rinmaydi: daraxtlar shunaqa qalin. Bu daraxtlar orasida bir tup archa ham bor edi.

Men shu hovlida to'rt faslni kuzatib, to'rt faslni qarshilardim. Lekin, bular orasida eng yaxshi ko'rganim — qish fasli edi. Gap shundaki, men qish mahalida, qish bo'lganda ham qirchillama kunida, birinchi yanvarga o'tar kechasi, Qorbobo kelishidan sal oldin tug'ilgan ekanman. Shuning uchun mendan biron kishi, dunyoga kelib, ko'zingni ochib, ilk bor ko'rgan narsang nima, deb so'rasa, onamdan keyin qishni, qorni, Qorboboni ko'rganman, deyman. Xullas, bu to'rttalasini ham yaxshi ko'rardim.

Biroq, ko'p o'tmay bularning bittasiga shubha tug'ildi-yu, hammasiga bo'lgan muhabbatim shubha ostida qoldi.

Hovlimiz etagidagi do'nglik ustida joylashgan maktabda Yangi yil bayrami bo'ldi. Qorbobo keladi, degan gapni eshitiboq, o'sha yoqqa qarab uchdim.

Maktab zali, o'rtada archa... Atrofdagi o'quvchilar. Hammasining og'zi qulog'ida. Bayram!

Nihoyat, Qorbobo keldi! Oppoq kiyingan, soqollari ham oq. Qo'lida savatcha. Unda turli-tuman, qiziq-qiziq o'yinchoqlar... «Bayramlaring muborak!» dedi Qorbobo. U uzoq yurtlardan, notanish bolalardan salom aytdi, ke-yin bizga sovg'alar ulashdi, keyin ketdi... Ketdi!

— Qaerga ketdilar? Qaerga? — deb so'radim. Kimdir:

— O'rmonga, — dedi.

— O'rmonga!

— Nimaga o'rmonga ketdilar?

— Qorbobo o'rmonda yashaydi.

Maktabdan chiqib, toptalib, sarg'ayib qolgan qorli so'qmoqdan hovlimizga borarkanman, o'rmonga qarardim.

— Qorbobo o'rmonga ketdi! — dedim onamga. Onam kulimsiradi.

— Qachon keladilar?

— Yanagi Yangi yilda.

Men kuta boshladim. Bahorda ham, yozda ham, kuzda ham kutdim. Yana qor tushdi. Yana Yangi yil keldi. Maktabga yugurdim. Usha zal. O'quvchilar. Archa... Yana Qorbobo keldi! Bizni tabrikladi, salomlar aytdi, sovg'alar berdi, yana... ketdi!

Tashqariga chiqib, o'sha qorli so'qmoqdan atrofga alanglab, uyga borayotgandim, o'quvchilarning gapini eshitib qoldim:

— Mana, Qorbobo. Shu odam — Qorbobo.

— Qani? — so'radim men alang-jalang bo'lib.

— Anovi ketayotgan muallim-da.

— Yolg'on! Qorbobo o'rmonga ketdi.

Bolalar mendan kulishdi, meni mazax qilishdi.

— Nega Qorboboning o'zi kelmadi?

— Kelibdi-ku maktabga.

— Yo'q. U odam muallim ekan. Bolalar shunaqa dedi.

— Shunaqa bo'ladi-da rasmi, — dedi onam.

— Nega? — alam bilan qichqirdim men. — Axir u kishi Qorbobo emas-ku. U kishi muallim-ku! Qorbobo o'rmonda-ku!

Onam menga qarab turdi-da:

— Rost, Qorbobo o'rmonda. Bu kishi muallim, dedi.

— Nega kelmadilar o'zlari?

— U kishi boshqa maktablarga ketgan. Quvonganimni ko'rsangiz! Hovliga chikdim. Devordan osha

oʻrmonga roʻpara boʻldim. Sovuqda diydirab «Qorbobo, nimaga kelmadingiz?» dedim. Nazarimda, u kishi javob berganday boʻldi: «Kelgusi yil kelaman!» Lekin, kelgusi yili ham kelmadilar. Undan keyingi yillarda ham. Bu orada oʻzim ham oʻquvchi boʻldim va tushundim: Qorbobo degan kishi oʻrmonda boʻlmas ekan, oʻshanda meni aldashgan ekan, oʻzim-oʻzimni aldab yurgan ekanman. Lekin bari bir ishonmasdim: Qorbobo bor, u oʻrmonda yashaydi, yangi yilda keladi, sovgʻalar olib keladi, tabriklaydi, deb oʻylar edim. Shuni oʻylasam, oʻrmon ham, yangi yil ham, tugʻilgan kunim ham, qish ham, hammasi sirli boʻlib koʻrinardi, yosh boladay quvonar edim. Qorbobo yoʻq, desam-chi? Sir toyib boʻlar, oʻrmon-oʻrmondek, qish-qishdek, yangi yil — shunchaki bir bayramdek, tugʻilgan kunim esa, tugʻilishim kerak boʻlgan bir kundek tuyular, yuragim boʻshab qolardi. Soʻng yana zoʻr berib shivirlardim oʻzimga: «Qorbobo bor... u oʻrmonda...»

Mana, oʻsmirlikdan ham oʻgib qoldim. Qishlogʻimdan, maktabimdan, hovlimiz, oʻrmonimizdan yirokdaman. Endi koʻp narsaga aklim ham yetadi. Kishi oʻzini-oʻzi aldashi yaxshi ish emasligini ham bilaman. Lekin nima qilay? Hamon oʻsha ikkilanish bor menda. Hatto, endi koʻproq ishonib qolganman: «Qorbobo bor, u oʻrmonda, u sovgʻa olib keladi, u salom olib keladi, u bizni tabriklaydi...»

Bilmadim, bu xayol chol boʻlib bukchayib qolganimda ham oʻzgarmasa kerak.

1967

KECHAGI KUN KECHA

Sobirova opa o'n sakkiz yoshida mansabdor bo'ldi. O'shanda u yozuvni zo'rg'a o'qiy olardi. Keyinchalik Toshkentda partiya kadrlari tayyorlash kursida olti oy tahsil ko'rib keldi. Bor-yo'q olgan bilimi shu bo'ldi.

Uning dastxati nihoyatda xunuk va serxato bo'lar, uni hech kim tuzatmas edi. Biroq bu orada opa ko'p martabali lavozimlarda ishladi. Artelning raisi ham, raykomning ikkinchi sekretari ham bo'ldi. Urush yillarida ota-onasiz bolalar uyida direktor bo'lgani holda, tarbiyachilik ham qildi. Ko'pgina hukumat mukofotlari va yorliqlari ham oldi. Nihoyat, yoshi ellikka yetib, unga pensiya tayinlandi, so'ng uni raykom ishdan bo'shatdi. Opa hali ishlashga qurbi yetishini aytib rad etdi, lekin ular unashmadi. Ishlab turgan o'rni — lesxoz boshlig'i qilib qishloq xo'jaligi institutini bitirib kelgan qizchani qo'rganlaridan keyin opa gap nimadaligini tushundi. Bir necha kun alamini yutib yurdi-da, yana raykomga kirib, joyini so'radi.

— Opa, siz... — dedi raykom sekretari, — qiynalasiz endi.

— Qiynalmayman. Men o'n bir yil shu ishda ishladim. Hammasini bilaman! — dedi Sobirova.

— Yengilroq bir ish bersak-chi, — degan edi sekretar, opa xafa bo'lib ketdi.

— Men hali holdan toyganim yo'q. Keksayganim ham yo'q. Nega yengil ishni qilar ekanman?!

Sekretar opaga, o'ylab ko'ring deb, muhlat berdi. Bu muhlat o'tib ham ketdi. Sobirova opa raykomga qaytib bormadi.

Bir kuni uni eri Shomurod polvon urishib berdi:

— Endi senga ishlashni kim qo'yibdi! O'tiravermaysanmi! Bitta seni boqish qo'limdan kelmaydimi! Bolalaring ham odam bo'ldi.

— E, siz nimani bilasiz, — dedi Sobirova opa, — ular meni shu yo'l bilan jamiyatdan chetlashtirishmoqchi. Menga dushmanlik qilyapti ular. Bo'lmasam, nima aybim borki, tinchgina ishlab turgan joyimdan bo'shatishsa!

— Ha, o'zing bilasan-e, — dedi Shomurod polvon.

— Men obkomga yozaman, — dedi opa, lekin obkomga yozmadi.

Qog'oz bilan ruchka olib ancha o'tirdi-da, dastxatining xunukligini o'ylab, yig'ishtirdi. «Savodi kam ekan», — deb o'ylashadi, dedi, uning pensiyaga chiqishi bilan baravar ishdan bo'shatilishining ham sababi shu — savodining kamligi, mavjud savodi bilan endigi sharoitda ishlab ketolmasligi ekanini esa tan olgisi kelmasdi. «Men tajribali rahbarman, men ishning ko'zini bilaman. Yoshlar mendan ish o'rganish kerak», deb fikr qilardi.

Haftalar o'taverdi. Sobirova opa xo'mrayib, raykom chaqirib ishini qaytib berishini kutib yurdi.

— Men qirq yillik partiya a'zosiman, — der edi u eriga. — Shuncha yil ishladim, endi partiya haqiqat qilishi kerak!

Shomurod polvon bu gaplarni eshitganda esnar, keyin iljayib, xotiniga mayda-chuyda ishlarni buyurar edi.

Sobirova opa goho xilvatda o'tirib yig'lab ham olardi. U qandoq prezidumlarda o'tirgan, minbarlarda turib qandoq nuqtalar so'zlagan! Uni kishilar qandoq hurmat qilishar edi! Endi bo'lsa, eri ham nazariga ilmay qo'ydi. Opaning tengqur, xizmatchi dugonalaridan ham ko'ngli qoldi. Ilgari haftada o'chrashib, bazmlarga taklif etib turishardi, endi bo'lsa eslashmaydi ham, aftidan... opa rahbariy ishlarda yurib ro'zg'ordan chiqib ketgan edi. Ko'nikish juda qiyin. Ro'zg'or ishlari uni ba'zan tahqirlagandek bo'lar, bunga faqat eri sababchidek tuyular edi. Tez-tez yuragi siqiladigan bo'ldi. Toshkentda o'qib, o'sha yerda qolgan o'g'lining uyiga faqat to'yda borgan edi. Endi o'sha yoqqa ham borib keldi. Andijon pedinstitutida o'qiydigan qizidan olti oy ichida ikki marta xabar oldi. Lekin Sobirova opa ko'chada ko'p yurmaydi. O'ziga bir vaqtlar ta'zim bilan salom berganlardan uyaladi...

— Nima, mening Malikovadan qaerim kam? U ishlab yuribdi-ku, — deb qoladi u goho eriga. — Bu yerda boshqa gap bor. Kimlardir menga dushmanlik qilgan. Raykomga yomonlagan meni. Siz kulasiz-da... — Lekin Sobirova opa tengqur dugonalarining o'z o'rnida ishlab yurganiga bois — vaqti kelganida ular bilimini oshirib qolishgani, maxsus kurslarga bolalarini yolg'iz qoldirmaslik uchun u borolmaganida, ularning o'qib kelgani — shuni Sobirova opa tan olgisi kelmas edi. Kunlarning birida rayon matlubot kooperatsiyasining raisi — dugonasi Unsinova, gazetaga ikki kilo shokolad o'rab kirib keldi. Sobirova opa o'zida yo'q shod bo'lib, uni o'tqazgani joy topolmay qoldi.

— Urinmang, Sobirova opa, — dedi u, — men tez ketaman.

— Hoy, xudo yarlaqab bir kepsiz...

— Ish ko'p-da, opajon.

— Rost, — dedi Sobirova opa ichida zil ketib, keyin birdan ko'ziga yosh oldi. — Ko'rmaysizmi,

Unsinovajon, mana shunday qilib qo'yishdi meni. Jamiyatdan chiqarib tashlashdi. Xudoyo dushmanlarimning ko'ziga cho'p suqilsin!

— Qo'ying, opajon, xafa bo'lmang. Raykom haqiqat qiladi. Siz ko'p yillik kommunistisiz. Davlatga ko'p xizmatlaringiz singgan.

— Albatta, albatta, — ilib ketdi Sobirova opa. — Men ot minib tog'-toshda yurganimda, hozirgilar burnini artolmay yurar edi. O'zingiz bilasiz-ku.

— Bilaman, opajon, bilaman.

Sobirova opa tuxum qovurishga tushdi. Sopqondan qushlarga tosh otib yurgan kichkina o'g'lini chaqirib:

— Chop, otangning oldiga, go'sht bilan guruch olib berarkansiz de, — dedi. Lekin Unsinova bolani yo'ldan qaytardi;

— Men ketaman, Sobirova opajon. O'tiring. Sizga gap bor.

Sobirova opa o'zidan uch yosh kichik dugonasiga umidvor ko'zlarini tikib, ko'rpachaga cho'kdi.

— Yaqinda men Samarqandga borib keldim, — dedi Unsinova.

— Eshitganim yo'q... shunaqa, eshitmas bo'lib qoldim, — dedi Sobirova opa.

— Ko'ktosh qishlog'idan qimmatchilikda bir sag'ir bola chiqib ketib, endilikda professor, doktor bo'lgan ekan. O'sha odamning ellik yillik yubileyini SamDUDagilar nishonlayotgan ekan. Meni ham taklif qilib qolishdi. Men ham ko'ktoshlik emasmanmi, domla bilan taklif qilgan ekan. Men ham nutq so'zladim. Hamqishloqlarim nomidan tabrikladim. Keyin u kishi banketga ham taklif qildi. Uyiga bordim. Iligirma mingga qurgan hovlisi bor ekan. Xotini ham odamning joni ekan, deng. Ikki o'g'li bor ekan. Aspiranturada o'qishar ekan. Banketdan keyin meni olib qoldi, ko'nglida dardi bor ekan, yordi: «Hamqishloq, men yetimlikdan shu darajaga yetib keldim. Hamma orzularim ushaldi, lekin endi keksayganim uchunmi, ko'nglimga bir tashvish tushdi. Men endi Ko'ktoshga borib, u yerda yasholmayman. Ilmiy ishlarim uchun bu yer qulay. Mana, katta o'g'lim uylandi. Kichigiga navbat kelib qoldi. Shuni ko'ktoshlik yaxshi bir qizga uylantirsam. Shunday qilmasam, Ko'ktoshdan ildizim uziladi, men o'lgandan keyin bolalarim uni eslaridan chiqarib yuboradi».

Sobirova opa bu gaplardan ta'sirlanib, boshini xam qilib qoldi. Unsinova xotirjam davom etdi:

— Men, yaxshi o'ylandsiz, domla, dedim. Avvalambor, bu bizning baxtimiz, dedim. Keyin, o'ylab-o'ylab, opa sizning qizingiz Naimaxonni aytdim. Bizda bir qiz bor, yaxshi oiladan, onasi kommunist, dedim. Siz shunga nima deysiz, opa?

Sobirova opa Naimani erga berish to'g'risida hech o'ylab ko'rmagan, bilimsizlik ko'ngliga tashvish solib yurganidanmi, «qizim, sen o'qi, aspiranturalarni bitir», deb yurar edi. Albatta, ko'plar og'iz solishar, ayniqsa, o'zining qadimgi tanishi mana shu olifta bilan uning chiroyli yosh xotini gohida fotiha qilish haqida gap ochishar edi. Uning harbiyda xizmat qilayotgan o'g'li, opaning Toshkentdagi farzandi Kamolning yaqin do'sti bo'lib, bir oyog'i shu xonadonda bo'lib yurganida, qizining unga, uning qiziga zimdan qarab qo'yishlarini opa sezar, lekin bunga: ham e'tibor bermas edi. Shuning uchun Samad olifta; bilan uning xotiniga ham boshqalarga beradigan javobini takrorlab qo'yar edi: «O'qiyversin-chi...» Sirasini aytganda, Naima ham juda ko'hlik, aqlli, iboli qiz edi. Uni maktabda bo'lsin, tanish-bilishlar orasida bo'lsin, maqtamagan kishi kam edi...

Sobirova opa hayron bo'lib, bir zum o'ylanib qoldi. Ko'z oldida ko'zoynak taqqan professor, uning atrofidagi boshqa olimlar gavdalandi. Keyin uning aspiranturada o'qiydigan o'g'li, so'ng banket ko'rindi. Opaning nazarida, bir chetda qizil bo'yoqqa bo'yalgan minbar ham ko'rindi. Opa bir zumga o'zini shu davrada ishtirokchi kabi sezdi va siniq dili o'kinch bilan zavqqa to'ldi... Lekin Naimani erga berish to'g'risida hali hech o'ylab ko'rmagan edi. Ko'ngliga allanechuk vahima tushib:

— Unday kishilar bilan quda bo'lish haqiqatan baxt, — dedi. — Lekin Unsinovajon, men qizimni hali erga bermayman.

— Opajon, domla ham kelinni darrov tushirib olmoqchi emas. U kishi ham qizni o'qitmoqchi. O'zlarining xohishi ham shu: o'qigan, madaniyatli qiz bo'lsin, dedilar. O'zingiz bilasiz-ku, olimlar oilasiga tushadigan kelin qanday bo'lishi kerak. — Unsinova dugonasiga zimdan qarab, qo'shimcha qildi: — Shu ish bo'lib ketsa, hammamizga ham yaxshi bo'lar edi-da... Balki shundan keyin rayon rahbarlari sizning kimligingizni ham yaxshiroq bilib olarmidi...

— Hm-hm... — deb bosh qimirlatdi Sobirova opa ichida titrab: «To'g'ri-da, kimsan, professorning qudasi bo'laman... Ha, dushmanlarimning uyiga o't tushsin!»

Shu suhbatdan keyin Sobirova opaning dilida bir cho'g' paydo bo'ldi. Bu cho'g' goh ko'zoynak taqqan professorning, goh uning atrofidagi olimlar, uning o'g'li va xotining yuzini yoritir; o'zini o'shalarning

davrasida ko'rsatar; goh o'zining bu katta chorbog'ini munavvar qilib, unda to'y-tomoshalar namoyon bo'lar edi.

Sobirova opa bir oqshom bu gapni eriga aytgan edi, Shomurod polvon:

— Unsinovang shuning uchun kelgan ekan-da. Men aytdim, qanday shamollar uchirdi? — deb kuldi. Keyin o'zining fikrini aytdi: — Qiz mardum bari bir birovga tegadi. Lekin, kampir, bunday katta odamlar bilan quda bo'lishga mening hushim yo'q. Kamol ham menga o'xshaydi. U yog'ini o'zing bilasan.

Yana may oyining issiq kunlaridan birida Unsinova qog'ozga shirinlik o'rab keldi.

— Sizni bir tomoshaga olib chiqmoqchiman, — dedi. — O'zim ham zerikdim, bilaman, siz ham zerikkansiz.

— Qaerga Unsinovajon? — xushvaqt bo'lib so'radi Sobirova opa.

— Samarqandga, — dedi Unsinova xotirjamlik bilan. — Bir-ikki tanishlarim bor. Bir kelib keting, deb yurishadi ko'pdan. Bir tandir kabob yeb, maza qilib kelaylik.

— Xo'p, Unsinovajon, xo'p, — dedi Sobirova. — Sizday dugonam bir yerga olib boray deb keladi-yu, men yo'q deymanmi? — Lekin ichida: «Shu professorning uyiga olib boradi», deb o'yladi. Xayolida tanish manzaralar yana birma-bir o'tdi. Ko'nglini vahima aralash quvonch qopladi. Unsinovanning ham ko'nglida bu gap bor ekan.

— Xohlasangiz, domlanning uylariga ham olib boraman, — dedi. — O'zingiz ko'rasiz, gaplashasiz u kishi bilan. Lekin, opajon, xursand bo'lasiz.

— Mayli, mayli, — dedi Sobirova opa. — Ammo u kishiga qizim haqida va'da berolmayman.

Unsinova erkaklardek xaxolab kuldi.

— E, opaginam-ey, uning tashvishini qilmang. Hali gap ko'p.

Sobirova opa bu xabarni eriga aytgan edi.

— Xotin, sening aqling kamayib boryapti chog'i, — dedi Shomurod polvon. — O'rtoq Unsinovang seni professorning uyiga eltib, og'zingni bog'lab kelmoqchi. Bo'lmasam, seni aylantirib yurish unga nima zarur? Shuncha vaqtdan beri ishsiz yotding, holing ne deb bir xabar oldimi?

«To'g'ri», deb o'yladi Sobirova opa. G'ashi kelib, ko'ngli qolib yurgan dugonalaridan biri ham shu — Unsinova edi... Biroq, ertalab tor ko'chaning boshida qoldirilgan Unsinovanning «Volga»sini ko'rди-yu, amirkon etigi, qora atlas ko'ylagini kiyib, yo'lga chikdi.

Samarqandga borganlarining ikkinchi kuni Unsinova dugonasini Akbarovning uyiga olib bordi. Darhaqiqat, professorning uyi yigirma ming so'mga qurilgan desa arziydigan edi. Lekin ortiqcha jim-jimadorlik yo'q, ham kamtarlik, ham salobat seziladi. Professorning o'zi buzilgan vodoprovodini tuzatayotgan ekan. Yosh yigitlardek qah-qah otib kulib: «Yerliklarim, hamqishloqlarim!» deb, bularni qarshi oldi.

Akbarovning bu ochiq, kamtar gapi uni Sobirova opaga juda ham yaqin qilib qo'ydi. Shu kecha professorning uyida ziyofat bo'ldi. Qo'ni-qo'shnilar ham ishtirok etib, hamqishloqlarning topishganidan mamnun ekanliklarini aytishdi... Bazm chog'ida yuzlari qizargan Sobirova opa bir onga o'zini haqiqatan ham orzu qilgan xayolidagi manzara qatnashchisi deb o'yladi. Dilini faqat zavq va shodlik egalladi. Bundan keyingi hayoti ham hamisha shundoq o'tadigandek tuyuldi... Lekin opa bu davrada o'zining yopishmay turganini bilolmadi. Arzimagan. qochiriqlarga ham qah-qah otib kuldi. Holbuki, bu vaqtda bazm ishtirokchilari oddiy jilmayish yo tabassum bilan cheklandilar. Nihoyat, Unsinova dugonasini nomzod ko'rsatilgan qizning onasi ekanini aytdi: Akbarov bundan juda xursandligini izhor qildi.

«Endi nima qildik?» degan savol ko'ndalang bo'lganida:

— Mayli, domlajon, siz bizdan qiz so'raysizu biz yo'q deymizmi? — deb yubordi Sobirova opa.

Shunday qilib, Sobirova opa Naimani ularga ke-linlikka berishga rozi bo'lib qaytdi. Ular Naimani ko'rish uchun Andijonga borishlarini aytib, xayr-xo'sh qilib qoldilar.

Akbarovlar kelishidan ikki kun oldin Naimaning o'zi ham ta'tilga chiqib, u yokda Kamol ham otpuskaga chiqib, xotini va yosh o'g'ilchasi bilan kelib qolishdi. Uy to'lib, xursandchilikning cheki bo'lmadi. So'ng Sobirova opa bo'lajak fотиha haqida ularga gap soldi.

Naima:

— Men bilmayman, — deb rangi oqarib turib ketdi-yu, Kamol tajang bo'lib o'shqirdi:

— Bu gap qaerdan chiqib qoldi? Nima uchun? Nai-maning sizga og'irligi tushyaptimi?

Ona yotig'i bilan tushuntirishga harakat qildi, ammo o'jar bola:

— Kerak emas, professor bo'lsa o'ziga! Bunaqa odamlar bilan qarindosh bo'lishni jinim yoqtirmaydi, — dedi.

— Bolam, sen yoshsan. Turmushni bilmaysan, — dedi Sobirova opa

Akbarovlar kelishganidan keyin, masalani ko'ndalang hal qilinishiga fursat yetdi. Uy bekasi mehmonlar bilan sarhovuzda taxmondan tushmaydigan baxmal ko'rpachalarda — davrada o'tirar ekan, Kamol singlisini bolaxonaga boshlab chikdi. Yoniga, sim karavotga o'tqazib:

— Gapni qisqa qil, sen nima deysan? — dedi.

— Men bilmayman, — dedi Naima yerga tikilib.

— Sening taqdiring hal bo'lyapti-ku, go'dak! Sen bilmay, men bilamanmi? — bo'kirdi Kamol.

— Men bilmayman, — dedi Naima yana.

— Singlim, sharm-hayoning vaqti emas, — deb pastga tushdi Kamol. — Agar bironta ko'nglingda o'ylaganing bo'lsa, uni ayt menga. Men hoziroq chiqib rad qilaman.

— Qo'ying, akajon, — dedi Naima.

— Samad oliftaning o'g'li-chi? Mening sezishimcha...

— Yo'q-yo'q... — so'ng «Onam...» deb ming'irladi.

Kamol singlisini onasining so'zidan chiqmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun «menga nima? » deb o'yladi alam bilan: «Bir kuni aybdor bo'lib qolaman».

— Bo'pti bo'lmasam, men betarafman! — deb o'rnidan turdi Kamol.

Shu kuni fотиha qilindi. To'y, qiz o'qishni bitir-ganidan keyin bo'ladi, degan qarorga kelindi. Ikki kundan keyin Kamol onasi bilan janjallashib, xotin-bolasini olib Toshkentga ketib qoldi.

Sobirova opa qattiq xafa bo'ldi. Lekin: «Hali esidan chiqib ketadi. Et-tirnoq ajralarmidi?» dedi o'ziga-o'zi. Endi orzularining amalga oshuviga shubhasi qolmagan edi. Opa beixtiyor to'yning tezroq bo'lishini istay boshladi. Haqiqatan ham ish yurishib ketdi. Bir oy o'tmasdan Unsinova kelib:

— Opajon, domlaning xotinlari meni bezor qilyaptilar har kuni telefon qilib, — dedi. — Naimaning mehriyosi bor ekan. Dilimga tushdi. Shuning to'yini tezroq qilsak-chi? Bu yerda ham institutlar bor, o'qiyverar edi... deydi.

— Unsinovajon, axir kelishdik-ku, — dedi Sobirova opa.

Erta kuz kunlaridan birida Kamol: «Singlingning to'yi bo'lyapti. Tezda yetib kelinglar!» degan telegramma oldi. Telegrammani yirtib tashladi.

To'y dang'illama bo'ldi. Rayonning barcha rahbarlari keldi. Sobirova opa raykomning birinchi sekretari bilan qadah urishtirib ichdi. Ish haqida shu yerda gap ochmoqchi ham bo'ldi-yu, o'zini bosdi. Faqat Samad olifta ichib kelib, darvoza oldida bir oz janjal chiqardi. Uning yosh xotini bu hovlidan chiqayotgan childirma va ashula ovozlari ostida uyida o'tirib yum-yum yig'ladi. Ertasiga kechki payt to'y tarqadi va Sobirova opa eri bilan Akbarov tushgan «Volga»ga o'tirib, yana uchta mashina safida Samarqandga yo'l oldi. Samarqandda ham dang'illama to'y bo'ldi. Stolning boshida o'tirgan Sobirova opa o'zini chinakam baxt og'ushida his etdi. To'ydan faqat Shomurod aka bir oz ranjib keldi:

— Boy bo'lgani bilan xasis ekan bular, — dedi. — Bergan choponiga qara, tizzamga yetmaydi. Nima, men ko'chada qolganmidim?.. Lekin kampir, Naimangni qaynanasi zahar ko'rinadi.

Qaytib kelganlarining ertasigayoq Sobirova opa ishda kiyadigan poshnasi yo'g'on tuflisi va odmi atlas ko'ylagini kiyib, raykomga bordi.

— Xo'sh, Sobirova opa, mana, ma'rakalardan ham qutulib oldingiz. O'zingiz ham ishsiz yurib zerikkansiz chog'i? Nima bo'ldi, o'ylab ko'rdingizmi endi? Qanaqa yengilroq ishni tanlaysiz? — dedi sekretar.

Sobirova opa o'zini yo'qotib, ko'zoldi qorong'ila-shib, bir oz qotib o'tirdi-da yig'lab yubordi.

— Mening nima yomonligim o'tgan ekan kishilarga?! — deb pichirladi, shartta o'rnidan turib chiqib ketdi. Uyga borib, boshi og'rib yotib qoldi. — Men nega o'lmadim, esiz jonim, — deb yosh to'kdi. — Kamoljon, onangni kelib ko'r, — deb nola qildi. Shomurod polvon gap nimadalgini bilib, xotinini ovutgan bo'ldi. Lekin bu Sobirova opaning diliga taskin bermadi. Keyin bir oy o'tib, kuyovi bilan qudasini chaqirdi. Keyin o'zi bordi. Biroq bu gal ilgari gidek xursand bo'lib kelmadi...

Opa bosh og'rig'iga yo'liqib, yotib qoldi.

— Bolamni chaqiring, Kamoljonni bir ko'ray, — derdi. Shomurod polvon kichkina o'g'liga aytirib xat yozdirdi: «O'g'lim, yetib kelmasang, onangni ko'rolmay qolasan, deb qo'rqaman», degan gaplarni ham bittirdi.

Kamol endi qishloqqa bormayman, deb ahd qilgan edi. Biroq, bu xatni oldiyu onasini ko'rishga shoshildi.

Sobirova opa yotgan yerida qo‘l uzatib o‘g‘lining boshidan quchdi. Bir zumda ona-bola ittifoq bo‘lib qoldi. Ertasi kechqurun Shomurod polvon:

— O‘g‘lim, o‘tgan ishga salovat. Singlingda ayb yo‘q. Uni ko‘rishing kerak. Qaynanasi, qaynatasi, eri ham so‘rarmish. Borib ko‘rmasang, yaxshi ish bo‘lmaydi. Yolg‘iz singling, musofirchilik... — deb Kamolni Samarqandga borishga undadi.

Kamol singlisini yaxshi ko‘rar, uni sog‘ingan edi. Borib ko‘rmasa, singlisining sha‘niga durust gaplar bo‘lmasligini tushundi. O‘g‘lining Samarqandga borish xohishini eshitib, Sobirova opa ham inqillab o‘rnidan turdi.

— Men o‘zim olib boraman o‘g‘limni, — dedi. Eri kasalligiga ishora qilsa ham ko‘nmadi. Ikkinchi kuni ona-bolani Shomurod polvon avtobusga o‘tqazib jo‘natdi. Ular Ko‘ktoshdan o‘tganlaridan so‘ng, Samarqandga boradigan avtobusga tushib ketdilar.

Kamol Akbarovning hovlisiga yot ko‘z bilan kirib, yot ko‘z bilan chikdi. Shuning uchun bu odamning dilkashligi va sho‘xliklariga o‘zga ma‘no berdi. Naima ozib, ko‘zlari kirtayib qolgan, yuzlarini dog‘ bosgan edi. Kuyovning ortiqcha odobliligi ham Kamolga yoqmadi: hamma zalda o‘tirishganda, onasi necha marta tashqariga chiqib kirsam, kuyov bola shuncha marta o‘rnidan turib uni qarshi oldi. Singlisi ochiq aytmagan esada, uning qiynalayotganini sezdi. Professor haqiqatan ham Naimani SamDUga joylab qo‘ygan ekan... Albatta Kamol qaynananing o‘zgalarga balanddan qarashini ham payqadi. Ayniqsa, qaytib chiqayotganlarida, o‘zi qishloqdan zo‘rg‘a izlab topgan ikki jo‘ra atlas hamon karzina ichida turganini ko‘rganida, behad g‘azablanib ketdi.

Sobirova opa allanechuk titrab:

— Olish eslaridan chiqibdi, — degandi, u bilan urishib ketishiga oz qoldi. «Begonamiz... Bizlar bu oilaga begonamiz!» deb chiqdi. Kuyov yigit bularni avtobus to‘xtaydigan bekatgacha kuzatib bordi. Shunda Kamol:

— Endi hamisha shu oilada turaverasizlarmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q, Naima bilan maslahat qildik. Sektsiyaga chiqmoqchimiz. Shuni otamga aytamiz, — dedi kuyov.

Kamol bu gapdan bir oz qanoatlanib:

— Yaxshi, shunday qilinglar, — dedi. Ona-bola «ZIL» avtobusga o‘tirib, yo‘lga tushdilar.

— Qalay, onajon, xursandmisiz? — dedi u yo‘lda yonma-yon o‘tirishar ekan.

Sobirova opa mashaqqat bilan kulimsiradi:

— Albatta, xursandman, bolam. Singling yaxshi oilaga tushdi. Baxtli bo‘ldi.

Kamol zaharxanda kuldi:

— Siz nimalik bo‘ldingiz, onajon? Tushunolmayman...

— Men... — Opa g‘oyat ta‘sirilanib, barbod bo‘lgan orzulari, aldamchi hislari qalbida junbisha kelib derazaga qaradi, ko‘zlaridan yosh oqib ketdi.

Kamol onasi bilan Samarqandga boradigan avtobusga o‘tirgan yerlarigacha birga keldi. Keyin, xayrlashib, Toshkentga o‘tib ketdi.

Sobirova opa bug‘doy ortgan bir mashinaning kabinasida qishloqqa qaytdi. Opa derazadan yalang‘och, bo‘r qatlamlari chiqib turgan tog‘larga mung‘ayib qarab borar ekan, o‘zining darhaqiqat keksayganini, ham jisman, ham ma‘nan horiganini his qildi. Shunda loqaydlik bilan yaqinida ot minib, tog‘- Toshda yurgan chog‘lari, prezidiumlarda nutq so‘zlaganlari, hamqishloqlariga mag‘rurona rahbar ko‘zi bilan qarashlari xayolidan bir-bir o‘ta boshladi. Ularni qayta tiriltirish qo‘lidan kelmasligi, buning uchun har qanday urinish — ertangi kunni ham qisqartirish bo‘lishini o‘yladi. Shunda o‘zining savodsizligi, soddaligi va o‘jarligiga ham iqrar bo‘ldi. Endi yoshlarga yo‘l berish fursati yetganiga ishondi... Beixtiyor o‘zining bu ahvoli bir kunmas-bir kun tengur dugonalari boshiga tushishini o‘yladi.

Sobirova opa bir haftadan keyin horg‘in qadam tashlab, o‘ziga yarasha ish so‘rash uchun raykomga yo‘l oldi.

1968

YOSUMAN

Rassom Qo'ziboyning nazarida, olamdagi insonlarning hammasi ham yaxshi, pok va samimiydir, lekin... ularning orasida qandaydir odambashara yosumanlar borki, shular buzg'unchilik qiladi: kishilar orasiga nifoq soladi, aloqalarini uzadi, g'iybatchilik qiladilar va o'zlari bu qiliqlaridan xursand bo'lib yuradilar. Qo'ziboy sodda edi; yoshi o'ttizdan o'tgan bo'lsa ham, uzog'i yili Leningrad rassomchilik akademiyasini bitirib keldi. Urush yillarida ota-onasidan ayrilib, yetim bolalar uyida tarbiya topdi, u yerda shaytonga chap bergan muttaham bilan ham, yotoqdagi choyshabu odeyallarni o'g'irlab, xufiya pullaydigan o'g'ri bilan ham, kechasi el yotgach, devor osha hamsoyalarning chorbog'iga tushib, o'rada sabzisi bormi, qazilmay qolgan kartoshkasi bormi — kanop qopda orqalab chiqib, bankning qorovuliga sotadigan yaramas bilan ham hamtovoq bo'lishiga qaramay, o'zining bolalarcha sodlaligi va ko'ngilchanligi saqlanib qolgan yigit edi. Ana shuning uchun u odamlarning fe'l-atvorlari har xil bo'lishini ham, nihoyat, kishilar orasiga nifoq soluvchi «yosuman»lardan biri — ular mavqeidagi farq, yashash sharoitidagi farq ekanini ham tushunmas edi.

Rassomlar soyuzidan kech chiqqan Qo'ziboy yo'lda havaskor rassom do'stini uchratib, uning mashqlarini ko'rgani uyiga kirdi; do'stinikidan soat o'n birlarda chikdi. U kam ichar edi, shu sababli bir stakan «q stolovoy» ham ta'sir qildi, piyoda yo'lga tushdi. Ikki xonali kvartirasiga yetib kelgunicha allavaqt bo'lib qoldi. Qo'ng'iroqni bosdi. Xotini Afruza eshikni ochdiyu, yosh qizlarday quvonch bilan:

— Suyunchi berasiz! To'xtang! — dedi.

Qo'ziboy gangib, zal tomonga alang-jalang qaradd u yerda hech kimni ko'rmay, xotinini o'pmoqchi bo'ldi. Afruza tislani:

— Voy, uyat bo'ladi! — dedi.

Qo'ziboy eshikni yopdi-yu, uning orqasida bekinib turgan yoshlik do'sti Xudoyorni ko'rdi.

— Xudoyor?! E-e! Xudoyor! — u poyafzallarga qoqilib, barvasta, girdig'undan kelgan do'stini quchoqlay ketdi. Ko'tarib, yerga qo'ydi. Aftiga tikilib, yana: — Xudoyor! Bu senmisan, do'stim! — dedi.

Xudoyor miyig'ida iljayib turardi.

Zalga o'tdilar. Qo'ziboy u yerda ham bir kishini uchratdi: u do'stining o'zidek jussador xotini Norbibi edi.

— E, Norbibi! Keling, kelin! Salom! — dedi u quvonchdan baqirib.

O'tirib so'rashdilar. Qo'ziboy sevinchdan entika-entika mehmonlarning hol-ahvolini so'radi. Xudoyor xotini o'tirgan divan chetidan joy olib, charchagan kishidek stol qirrasiga o'mgagini tirab oldi:

— Mana, — dedi o'zini o'nglab Xudoyor. — Uyinggayam kep qoldik! Norbibi qo'yarda-qo'ymay shaharga oboring, jo'rangizning uyini bir ko'ray, dedi, olib keldim. Hozir otpuskadaman.

— Do'stim, qachon keldilaring! Hozirmi?

— Ha, hozir poezdadan tushdigu to'g'ri bu yoqqa kelaverdik.

— Juda yaxshi bo'пти-da, boshimiz osmonga yetdi! Afruz, Afruza, qaerdasan? — Qo'ziboy oshxona yoqqa qarab, gazning big'illab yonayotganini eshitdi. — Ha, choy qo'yyapti! — dedi va stolga ko'z tashlab, unda bir pachka shokoladdan bo'lak narsani ko'rmadi: noqulay o'tirib qolgandek qimirlab, qoshlarini chimirdi, sekin o'rnidan turdi: axir, o'zi xotini bilan qishloqqa borib, Xudoyorlarning uyiga kirib qolgudek bo'lsa, dasturxonlari shunaqa bo'larmidi?! — Hozir, hozir! — deya u shoshib oshxonaga o'tdi. — Afruz, Afruz... hm, bu qanday bo'ldi endi?

Choynakka quruq choy solayotgan xotini unga kulimsirab qaradi:

— Nima, nima bo'ldi?

— Hm, — Qo'ziboy cho'ntaklariga qo'lini tiqib, turgan yerida bir aylandi, tomog'ini qirib, o'qraydi: — Bu, stolda hech vaqo yo'q-ku? Nima qildik endi?

— Nima qilardik, hech narsa, — dedi xotini tushunmay.

— Yo'q, yo'q, axir... o'zing bilasan-ku, biz borganda, ular qo'ygani joy topisholmasdi, bor narsalarni oldimizga to'kib tashlardi.

Afruza bir oz o'yladi-da, siniq kuldi:

— Nima qipti, ularda bor, bizda yo'q, bo'lganda qo'yardik.

Qo'ziboy boshini orqaga qildi:

— Gaping to'g'ri! — dedi ta'kidlab. — Ularda bor, bizda esa yo'q. Afruza, aqllisan-da! Shunga aqlim yetmay, hayron bo'lib turgan edim.

Afruza choyni damlab, gazga qo'ydi. Qo'ziboy ildam odimlab zalga qaytdi-da, yana chikdi:

— Afruza, — deya shivirlab uning yoniga keldi: — Non ham yo‘qmi?

— Nonning suvi qochib qolgan ekan, — dedi Afruza. — Qo‘shning moliga berib chiqqan edim. O‘zlari ham kech kelishdi, hozir magazinlar berk.

— Ha, — Qo‘ziboy shunday deb qishloqqa borib qolgan vaqtlarida bularning uyiga qachon kirmasin, hatto tongotar mahalda ham yo‘qni yo‘ndirishlarini esladi: — Hm, lekin... bulardan uyatga qoldik-da!

— Nega unday deysiz, axir o‘zingizning jo‘rangiz-ku! — dedi Afruza. — Men ulardan so‘radim, qornimiz to‘q, restoranda ovqatlandik deyishdi o‘zlari.

— O, restoranda! — Qo‘ziboy qotib kuldi, yana zalga o‘tdi. — Xush kelibsan, do‘stim. Xudoyor, kelinjon! Mana bu boshqa gap! Lekin, Xudoyor, men seni tanqid qilishim kerak, senda feodallik bor, ha, bo‘yningga ol! Kelinni hech qachon birga olib yurmagansan.

— Mana, endi boshladik-da, — dedi Xudoyor.

Norbibi xuddi eridek horg‘in ko‘rinar, uying faqir jihozlariga o‘ychan qarar, shokolad pachkasini barmog‘ida turtib-turtib qo‘yardi.

Afruza choy keltirgach, Qo‘ziboy uni piyolalarga qo‘yib, mehmonlarga uzatdi:

— Marhamat! Marhamat! E, sizlarni qarang-a! — O‘ o‘ylanib, Xudoyordan so‘radi: — Xudoy, qorin qalay? Afruza aytdi, to‘q emish. Sizniki-chi, kelin, to‘qmi?

— Xudoga shukur, to‘q! — dedi Norbibi va Qo‘ziboy kelinning so‘z tarzida qandaydir bepisandlik va kishini tahqirlovchi ohangni uqdi.

— Yo‘q, yo‘q! — deya irg‘ib o‘rnidan turib ketdi:

— Yo‘q, bekorginani aytibsizlar! E, Afruza, shularni gapiga ishondingmi? Axir... Ha-ha-ha! Axir, poezdda restoran qachon bekiladi? Bular yolg‘on gapirishyapti!

Qo‘ziboy oshxonaga chikdi. Orqasidan kelgan Afruzaning bilagidan ushladi: — Pul bormi?

— Hozir nima topila qoladi? — dedi Afruza.

Qo‘ziboy o‘ylanib qoldi:

— To‘g‘ri! — dedi. — Lekin... Biron narsa qilish kerak-da!

— Bir quti chuchvara bor, shuni qaynataymi?

— O, yaxshi, yaxshi! Juda aqlli xotinsan-da, Afuzam! Bitta o‘pay!

— Unday bo‘lsa, siz... biron shisha aroq topib keling!

Qo‘ziboyning ko‘zlari charaqlab ochilib ketdi:

— Qoyil! Axir, bular aroqsiz o‘tiradimi?!

Qo‘ziboy koridorga chiqqanda, ortidan Xudoyor yetib keldi:

— Qaerga ketyapsan?

Qo‘ziboy endi o‘z axdidan mamnun bo‘lib:

— Yo‘q-yo‘q! — dedi, — sizlar mehmon!.. O‘tiraturinglar, hozir, darvoqe, mehmonning ixtiyori mezbonda!

Xudoyor ichkariga qaytdi, xotiniga ma‘nodor tikilib qo‘ydi. Afruza choynakni Xudoyorning oldiga surib, oshxonaga chiqdi, u kuymalanib, taqir-tuqir qilar ekan, Xudoyor xo‘rsinib manglayini siladi. Norbibi bo‘lsa, eriga qattiq tikilib turdi-da, piqillab kula boshladi.

— Nimaga kulasan? — dedi Xudoyor do‘q qilib.

Norbibi yana qattiqroq kuldi.

— Ha, endi... bular mehmon kutib o‘rganishmagan-da, — dedi Xudoyor. — Shaharlik...

— Shaharlik, — Norbibi xaxolab yubordi, so‘ng boshini egib: — Sho‘rim qursin! — dedi. — Hoy, meni shu niyatda bu yoqqa op keldingizmi? Ochdan o‘ldirasizmi meni? Yo‘lga chiqayotganda shunaqa bo‘lishini aytmaysizmiki, yegiligimni olib kelardim.

— Bo‘ldi! — Xudoyor esnab, to‘ng‘illadi: — Restoranda ovqatlanding-ku?

— Restoran emish, — dedi Norbibi. — Tirnoqcha go‘sht bilan ikki dona kartoshka ham ovqat bo‘ptimi. — U yana uyni ko‘zdan kechirib, kuldi.

Xudoyor unga do‘q urmoqchi bo‘lib, ilkis qaradi-da:

— Bas, ovozingni o‘chir, — dedi. — Ertalab ketamiz!

Afruza mehmonlardan yana xabar oldi... Bu vaqtda Qo‘ziboy past ko‘chada mashina kutib turardi. Bir taksi kelib to‘xtadi. Qo‘ziboy mashinaga o‘tirib, shoferga iltijo qildi:

— Do‘stim, menga yarimta aroq kerak bo‘lib qoldi... uyga aziz mehmon kep qoldi. Tushunasiz-ku? — dedi.

Shofyor aroq sotadigan cholning yoniga oborib qo'yishini aytdi.

—Lekin qaytib kelmayman, zakaz bilan ketyapman, — dedi shofer.

Qo'ziboy shunga ham xursand bo'ldi.

Uyda mehmonlarning suhbatini davom etardi:

— Boshqa yerdayam uylari bormi bularning? Yo shumi?

—Bilmadim, — dedi Xudoyor. — Har holda bo'lsa kerak. Shaharliklarning hovlisiyam, kvartirasiyam bo'ladi.

Norbibi bosh irg'ab qo'ydi.

Chuchvarani qozonga solgan Afruza qaytib kirdi.

—Afruzaxon, — dedi Norbibi. — Ertaga uchastkalarimizgizyam olib borasizlarmi? Yo qishloqqa shu yerdan ketaveramizmi?

Afruza tushunmadi:

—Qanaqa uchastka? — dedi va kuldi. — Uchastkaga deysizmi? Uchastkamiz yo'q. Uchastkani nima qilamiz? Bu yer yaxshi!

Er-xotin zimdan bir-birlariga qarashdi.

— Shu-shu, — deya chaynaldi Norbibi. — Bor bisotlaring shumi?

— Ha, shu! — dedi Afruza. — Bo'ladi-da!

— Uff...

Qo'ziboy keldi. U Xudoyorni majbur qilib, bir-ikki piyola ichirdi, o'zi ham ichdi... Norbibi yana o'zini tuta olmadi:

— Qo'ziboy aka, mashinaga pul yig'yapsizlarmi deyman?

— Mashinaga?! — Qo'ziboy kulib yubordi. — Mashinaga hojat yo'q. Ana, ko'chada tramvay, trolleybus bor, bo'ladi-da. Mashina sizlarga kerak. Olsalaring bo'ladi...

Norbibi rangi o'zgarib choydan ho'pladi. O'ringa yotishgach, eriga:

— O'lguday xasis ekan-ku bular! — dedi.

— Bilmadim, — dedi Xudoyor.

Ular suyanchig'i yozib qo'yilgan divanda yotishar edi.

— Ertalab gum bo'lamiz bu yerdan! — dedi Norbibi. — Endi bildim! Qani, bular qishloqqa borgach, uyga oborib ko'ring-chi, o'zim bilaman! Qo'ying-e, odamgarchilik ham shu bo'ptimi. Bular borganda, o'zimni qo'yishga joy topolmasdim!.. Bularning esa parvoyiga kelmaydi-ya?

Ertalab mehmonlarni Qo'ziboy uyg'otdi-da, shoshib:

— Yuringlar, masterskoyga kiramiz, — dedi.

Hozir oftob chiqib turibdi. Rasmlar yaxshi ko'rinadi.

Er-xotinga mezbonning bu «odobsizligi» yoqmmadi. Ular eran-qaran o'rinlaridan turishdi. Yuvindilar. Qo'ziboy ularni ustaxonaga olib kirdi.

Mehmonlar ichkariga qadam bosishlari bilan bo'yoqlar hidi dimoqlariga urildi, bu yerdan tezroq chiqib ketish niyatida, ostonada to'xtashdi.

Qo'ziboy har xil ramkadagi rasmlarni o'ngladi, so'ng har biriga izoh berib:

— Birinchi taassurot qalay! — dedi.

Xudoyor ham, Norbibi ham bu rasmlarda o'z qishloqlari, uning manzaralari va odamlarini yaqqol ko'rishdi. So'ng rassomdan bularning narxini so'rashdi. Qo'ziboy gangib qoldi, dudmal javob berdi. Qaytib chiqdilar.

— Endi ketamiz! — dedi Xudoyor. — Bozorda ishimiz bor, keyin qishloqqa qaytamiz.

— Muncha tez?! — dedi Qo'ziboy. — Shaharda qurilish ko'p, ko'rish kerak.

— Yangi muzey, kinoteatr! — qo'shimcha qildi Afruza.

— Bizlar qishloqi, kelin, — dedi Norbibi. — Qurilish ko'p ekan, ko'rdik, kinoni televizorda ko'ramiz.

Xudoyor o'ylanib, tushuntirdi:

— To'ychig'imiz bor, bir-ikki yuz metr gazmol olishimiz kerak. Bugun yakshanba, vaqt o'tmasin!

— Choy ichinglar...

— Mana, issiq non olib keldim, — dedi Afruza. — Qaymoq bor.

Chiqdilar. Qo'ziboy qishloqqa borgan mahallari do'stlarining to katta yo'lgacha uzatib qo'yishlarini esladi:

— Bo'lmasam, ishlaringiz bitgach, bu yerga qaytib kelinglar... — dedi. — Vokzalga olib chiqib qo'yaman!

Xudoyor kulimsiradi:

— Imkoni bo'lsa kelamiz.

Norbibi kuldi:

— Bu yil ertaroq boringlar, kutamiz. Qora kamarga chiqamiz, qo'y so'yamiz, tandir kabob qilamiz!

Qo'ziboy sergaklanib, do'stiga qaradi:

— Bo'пти! — dedi. — Afruza, bu yil albatta boramiz-a? Bir maza qilaylik! Kolbasa jonga tegdi?!

— Bo'tggi, bo'пти! — dedi Afruza.

Mehmonlar xususiy mashinaga o'tirib jo'nadilar.

Qaytib kelishmadi...

Avji bahor kunlarining birida Qo'ziboy bilan Afruza tog' etagidagi qishloqlariga borishdi... Afruzaning tarjimai holi Qo'ziboynikiga o'xshash edi: u ham urush yillarida ota-onasiz qolib, yetim bolalar uyida tarbiya topgan, shuning uchun ba'zi rasm-rusmni bilmay o'sgan edi.

Qo'ziboy tanish shoferning uyida mehmon bo'ldi, ertasiga Xudoyorga telefon qildi:

— Salom, Xudoyor! Biz keldik! Do'stim, Qora kamarga chiqamizmi? — dedi.

Xudoyor sukut qildi, so'ng:

— Qo'ziboy, xafa bo'lmang, vaqtim yo'q. Agar mol kerak bo'lsa, beraman, olib borib so'yinglar! — dedi.

Qo'ziboy allanechuk bo'lib ketdi:

— Mol... hm, biz nima qilamiz molni? — dedi. — Bizga... yarim kilo go'sht ham yetadi, do'stim! Sizlar bilan borsak, boshqacha bo'lardi-da.

— Men chiqolmayman, xotinim ham, — dedi Xudoyor.

— A, hm... unda qachon vaqtingiz bo'ladi, biz ko'p turamiz bu yerda!

— Biz.. vaqtimiz bo'lmasa kerak...

Qo'ziboy gangib, trubkani joyiga qo'ydi. Ko'chaga chiqib, xotini yoniga keldi:

— Ketskik, — dedi.

Afruza jilmaydi.

— Gaplashdim, — dedi Qo'ziboy u yoq-bu yoqqa alanglab qarab. — Gaplashdim... Lekin... meningcha, Afruza, Xudoyorni kimdir buzibdi. Ha-ha. Meni unga yomonlagan biron, seniyam... Ha, yomon odamlar, yosumanlar bor hayotda!

1969

AHAD MIRZO YIG'LADI

Ateistlar jamiyatiga rais etib tayinlangan Mirzo bugun oqshom toshloq ko'chadan uyi tomon yurarkan, yo'l yoqasidagi yolg'iz qabrga birinchi marta e'tibor qildi va unga tikilib qoldi.

Shunda orqasidan buldozerini haydab, o'zidan sinf keyin o'ninchini bitirgan mexanizator G'olib kelib qoldi.

— Ha, Ahad aka? Chiqing mashinaga! — dedi u.

— E, mashinagayam chiqarmiz, — dedi Ahad Mirzo — Manavi qabr qiziqtiriyapti meni. Kimniki ekan?

— Bitta paymonasi to'lgannikidir-da, aka, — G'olib. — Nima, yoqmayaptimi sizga?

— Gap yoqish-yoqmasligidami! — g'ijindi Mirzo. — Gap uning xalqqa qiladigan ta'sirida, masala!

— E, xalqqa nima ta'sir qilar edi! — dedi G'olib. — Turibdi-da. Eski qabr. Men yalangoyoq yur paytlardayam bor edi bu. O'zingiz-chi, o'zingiz bilmaysizmi?

— O'zim-ku bilaman. Lekin nima uchundir e'tibor qilmaganman-da! — dedi Ahad Mirzo. — Har holda bu qabrning bu yerda yolg'iz turishi yaxshi emas... bilasizmi, uka, bu bekorga tikkayib turibdi deb o'ylaysizmi? Qarang, atrofi devor bilan o'ralgan. Tug'iyam bor, tug'i! Hozir tekshiramiz. Qani, tushing siz ham pastga... Mana, mana muni ko'ring! Bu toshni ko'ring. Ustiga yog' to'kilgan, mana, gugurt cho'plari, bu yerda chiroq yoqilgan... Vot masala!

— Xo'sh, nima qilish kerak endi? — so'radi G'olib ensasi qotib.

— Nima bo'lardi, buni bu yerdan ko'tarish kerak!

— Yo'g'-e, qo'ying-e!

— E, qarshimisiz, G'olibboy?! Menga maslahat berish o'rniga bu qabrning yonini olasizmi? Kim biladi, balki bu bir shayxning mozoridir? Balki bir eshonning, mullaning qabridir? Bo'lishi mumkinmi. Juda mumkin-da! Shunaqa...

— Bo'пти, men betaraf! — dedi G'olib va buldozerini jildirdi.

Biroq Ahad Mirzo bo'sh kelmay, uning yo'li to'sdi:

— To'xta!

— Nima?

— Tush pastga?

— Gapiravering, ishim zaril. Ovqatlanganim yo'q, cho'lga ketaman.

— Tush deyapman. Nimaga majbur qilasan kishini?

— E, men nima qildim sizga?

— Tushmaysanmi?

— E...

G'olib tushib, unga ro'para bo'ldi.

— O'chir aravangning ovozi, o'chir, gapni ko'paytirma!

— Uf...

— Bu yoqqa ke!

— Qulog'im sizda.

— Bu qabr kimniki?

— Esingiz joyidami, men qaerdan bilay! Bitta-siniki bordir-da... Bir yilda ham ko'zim tushmaydi bunga.

— Yolg'on aytasan, yolg'on! Ko'zingdan bilib turibman... Bo'lmasam, buzamiz deganimda, nimaga xo'p demading? Yo'q, uka, chuchvarani xom sanama... Men nimagadir e'tibor qilmaganman-a! Lekin sen... sen emas, enang ham, otang ham, bobong ham bilasizlar buning tarixini! Bundagi chiroqni enang yoqmaganiga meni qanday qilib ishontirolasan? Yoki bo'lmasam, shu yerdan otang o'tayotganda, fotiha o'qimaganiga kimni kafil qilolasan?! A? Ana shunday! Meni alday olmaysan!

G'olib yolg'on to'qidi:

— Kechirasiz, aka. Sizning gaplaringiz rost... Ota-onang bu yerga kelib, ilmi-amal qiladi deganingiz, lekin yolg'on! Shu gapni otam eshitsa, sizni yomon xafa qiladi. U frontovik, pensioner! O'zlari pionerlarga mullalarni, eshonlarni yomonlab yuradi. Bilarsiz. Enam ham shuning biri. U ovqatni yeb, dasturxonga fotiha o'qishni ham bilmaydi... Bilmaydi! Buni o'ziam isbotlab beradi. Xohlagan joyingizga chaqirtiring! Mayli.. Lekin bitta gappingiz rost, biz buni kimning qabri ekanligini bilamiz. — G'olib tiliga kelgan gapni qaytarmadi:

— Bitta musofir o'tgan vaqtida. Afg'onimi, eronmi bo'lgan. Uni odamlar sazoyi qilgan, shu yerda o'lgan, shu yerga ko'mishgan uni! — G'olib shunaqa bir muhojirni inqilob arafasida toshbo'ron qilingani haqidagi

hikoyani otasidan eshitgan edi. Hozir uni aytar ekan, o'sha musofirning qabri shu ekaniga endi o'zi ham gumon qilmai davom etdi: — bechoraning nima uchun sazoyi qilingani ham ma'lum aka. Bitta Narzi degan kampir bo'lar ekan-da, kimi yo'q, birovlarning kirini yuvib berib, tirikchilik qilarkan. O'sha afg'oni ham ust-boshini yuvdirarkan. Buni bir eshon bilib qopti, qarasa, kechqurun xorijiy odam Narzi xolaning uyidan chiqib kelyapti. Eshon o'lgur ayyuhannos solibdi: «O, musulmonlar, nas chikdi, nas! Yuzini ko'rmanglar!» deb. Keyin, odamlarni bilasiz, ko'r bo'lgan u vaqtlar, darrov yopirilib kelib, bechorani tosh bilan ura ketibdi. Shu, aka! — Shunda G'olib, bu o'jar yigit surishtirib ketsa, so'zi yolg'on chiqmasin uchun yana bir hikoya aytdi: — Lekin, Ahad aka, yana bir gap ham eshitganman, qizil askarning go'ri deyishadi buni. Ishonmaysizmi? O'zingiz bilasiz... Ana, anavi tog'ning tili bo'lsa gapirsin... Qishloqni qizillar egallab olganda, otlariga yemish topisholmagan. Shunda birovdan Yetim cho'qqi ostida bug'doy bor, bosmachi ko'mib qo'yibdi, degan gapni eshitishgan. Keyin, borishgan. Lekin bundan bosmachilar xabar topgan ekan, tog'ning orqasiga o'tib, tepadan kelishgan. O', bilasizmi, tepaning orqasida qor qalin! Bosmachilar u yoqdagi chorvadorlarning yerga to'shab qo'ygan kigizi bormi, gilami bormi, hammasini olib, qorga to'shab, keyin shuning ustidan yurib kelishgan. Keyin qizillarni otib tashlagan. Shunda ulardan bittasi aravani olib qochgan deyishadi. Shu yerga yetganda, bosmachi orqadan yetib kelib, otib tashlagan. Ishonmayapsizmi? Bilasizmi, men ham bu gaplarga uncha ishonmayman, Ahad aka. Xo'p, endi men ketay!..

— Ketmaysan!

— Nima?

— Ketmaysan deyapman!

— Xo'sh, endi nima deyin? — G'olibning jahli chikdi. — A, aka, o'zi odammisiz! Men nima Yana nechta bahona to'qiy! Kim biladi, bu kimning qaeri! Lekin... bir kampir shu yerda is chiqarganini ko'rganman.

— Kim? Kim u? Qaysi kampir? Qaerda?

— E, Zinnat momo bor-ku... Uning gapi to'g'ri edi: Zinnat kampir shu qabr boshiga goho kelib is chiqarib, chiroq yoqib ketardi.

— Yaxshi, — dedi Ahad Mirzo.

U ertalaboq nonushtani qilib-qilmay, kampirning hovlisiga bordi. Kampir o'tgan yili qazo qilgan opasining chirog'ini yoqib o'tirardi, bir necha tovug'i, bir laycha iti, almisokdan qolgan charxi, urchug'i va opadan meros qolgan ikki uy, bir ayvonli imoratdan bo'lak narsasi yo'q... uning... o'zidan bo'lak kishisi ham yo'q edi. Aytishlaricha, vaqtida ko'p serfarzand bo'lgan, so'ng ularni bir kechada bosmachilar so'yib ketgan. Opa-singil oh-voh deb qolishgan.

Kampir tandir ustidagi supada urchuq yigirib o'tirardi.

— Salom, momo!

— Salom. Kim bu?.. E, e, Safar Mirzoning o'g'limisiz, bolam?!

— Xuddi shu. Ahad Mirzoman! — dedi ateistlar jamiyatining raisi. — It tishlamaydimi?

— Yo'q, bolam. Hurgan bilan olmaydi, menga o'xshab qolgan. Keling, o'tiring. Ha, bahay?

— Momo, vaqtim ziq, sizdan bir narsa so'ray deb keldim.

— Voy, bolam, axir munday o'tiring! Qani, so'rang, o'zimam zerikib o'tiribman. Qarigandan keyin odamlarga yoqmay qolar ekansan...

Ahad Mirzo yerda yotgan to'nkaga o'tirdi. Kampir urchug'ini ko'rpachaga qo'yib, bo'g'inlari ko'pchib chiqqan qo'llarini fotihaga ochdi:

— Yaxshilik kunlar bo'lsin, to'ylar bo'lsin! Bemahal o'lim, quruq tuhmatdan asrasin, omin!..

Ahad Mirzo kampirga o'qrayib, xuddi bir sirning tagiga yetgandek shodlanib ketdi:

— Kampir, savolim shundan iboratki, — deb gap boshladi. — Avvalasi, ayting, siz shu jamiyat tarafdorimisiz?

Kampir tushunmadi.

— Bu nima deganingiz, bolam?

Savol Ahadning o'ziga ham yoqmadi:

— Kampir, siz eshonlar, muftilar, mullalarga qanday qaraysiz? — dedi va ishtiyoq bilan qo'llarini tizzasiga tirab oldi.

— Ular... ha, bu nima uchun sizga kerak bo'ldi, bolam? Bir gap bormi. He, bir zamonlar shunday gaplar bo'lgich edi. A?

Kampir, o'smoqchilamang, men sizga konkret savol beryapman.

—Uf... bolam, — chuqur xo'rsindi Zinnat buvi. Axir, qarang endi, qancha yillar o'tib ketdi. Su azon aytadigan mezananing buzilganida men kelinchak edim.

—Bo'lmasam, sizga boshqa savol beraman. Xudoga ishonasizmi?

—Xudogami? Xudoga.. O', bolam, biz endi sop bo'lganmiz. Kishi qarigandan keyin boshqacha bo'lib qolar ekan. Xudoni so'kkan mahallarim ham bo'lgan. Axir meni: bola-chaqam, erim, qarindoshlarimdan ayirgan kim, bolam? Bosmachilar! Sizlar bilmaysizlar-da. Xoliqboy eshon ularning kattasi edi, eshitgandirsiz? Shuning fatvosi bilan urug'-aymog'im so'yilib ketgan. Siz menga yana eshon, mulladan gapirasiz, jonim!

—Hozir-chi, hozir xudoga ham ishonasizmi, o'sha din peshvolarigayam. A?

—E, bolam! Meni chiqartirib otmaysanmi? Men dunyoni ko'rganman! O'likniyam, tirikniyam, qonniyam ko'rganman. Bu umr foydaga qolgan, chirog'im! Savolingni qarang!

—Demak, javob berishni istamaysiz. Xo'p, buni e'tiborga olamiz. Endi... sizga boshqa bir savol: anavi yo'lda bir qabr bor-ku, ustida tug'iyam bor. O'shanig nima uchun vaqt-bevaqt ziyorat qilib kelasiz? A?

Kampir xayolga soldi.

—A? Unimi, — dedi-da, ko'ziga yosh oldi: — Shuniyam ko'p ko'rdingizmi, bolam? — birdan ovozini ko'tardi: — Axir, men nima qilay? Kimga sig'inay," kimga topinay? Men bilan opamni olib ketishgandan keyin o'liklarni ko'mishgan ekan. Biz o'zimizni bilmay qolganmiz! Shunda otish, tutishning hisobi yo'q edi. Qaerga ko'mgan, kim biladi! So'rab-surishtirib ham biololmadik... Keyin, bir odam sen aytgan qabrni ko'rsatdi... Men ham noiloj shunga bordim. Shundan beri har seshanba chiroq yoqib kelaman, arvohlari shod bo'lsin deyman-da.

— Arvohlar... Arvohgayam ishonasizmi-a?

— Bolam, men aytdim-ku, chiqartirib ottirmaysanmi qo'lingdan kelsa! To'xta, nimaga meni so'roq qilasan? Kim bo'lding sen o'zi? E, odam deganniyam muncha qiynaydimi! Bor-e, nima...

— Yaxshi! Sizga so'nggi savol, — dedi Ahad Mirzo. — Demak, siz qabrda kim yotganini umuman bilmaysiz? A?

— Endi u.. kim bo'lsayam, — kampir bo'g'ildi, — kim bo'lsayam... mening jigalarim!

— Yo'q, bu yerda aniqlik kiritish kerak!

Kampir birdan itini chaqirib, baqira boshladi:

—Ol! Ol manavini! Ol-e, bergan tuzim ko'r qilsin! Ol, tishla, deyapman!

— Kampir, baqirmang! Yaxshimas!

Ahad Mirzo bu masala bilan to'rt kun shug'ullanib, biror natija chiqara olmadi: birov qabrda yotganni bosmachi dedi, birov qizil askar dedi, boshqasi uni musofirga chiqardi, yana biri shahid, deb turib oldi...

Oxiri Ahad Mirzo shu xulosaga keldi. Agar bu yerda qizil askar yoxud bizning odamlardan birontasi yotganida edi, qabr bu ahvolda bo'lmas, unga boshqacha tus berilgan bo'lar edi. Ahad Mirzo qishloq chetidagi qabristonda ming-ming o'liklarning ham go'ri shu go'rdan farq qilmasligini bilsa ham shu fikrda turib oldi... «Yaxshi emas, buning tarbiyaviy ishimizga zarari bor!» deb, uni buzdirib, tekislatishga qaror qildi.

So'ng o'ylab-o'ylab G'olibning o'ziga buzdirmoqchi bo'ldi.

— Buzmayman! — dedi G'olib.

— Buzmay ham ko'r! Tush buldozerdan bo'lmasam!

— Tushmayman, buni siz berganingiz yo'q... Xo'p, mana tushaman! Buzsangiz o'zingiz buzing, men buzmayman. Hoy, inson, buning nima zarari bor sizga? Bu yerda yotgan axir... odam. Kim biladi endi u... kim bo'lgan. Bu bilan nima topasiz?

— Bu bilan biz ko'p narsaga erishamiz! — ko'tarilib ketdi Ahad Mirzo. — Men uchun juda katta problema tug'ildi, ukam! Men butun qishloqni aylanib shunday qabrlarni topishga ahd qildim! Barini tekislataman! Toki, bular haqida har xil afsonalar yurmasin hamda hech kim kelib, chiroq yoqmasin, sig'inmasin, bildingizmi?! Yana yangi zamon odami bu... Bilyapsizmi, bu ishning qanchalik katta ahamiyati bor! Biz shu bilan xalqning, ya'ni ba'zi birlarning ongida saqlangan eng so'nggi... eskilik, din qoldiqlarini ham chiqarib — supurib tashlaymiz!

— Bilganingni qil-ey! — o'dag'ayladi G'olib sensirab. — Tirik yurasanmi shu qishloqda?

E, hali menga qarshi turadigan kishilar ham bormi?

— Yo'q, hech kim qarshilik qilmaydi, — so'zladi G'olib. — Lekin buz-chi, biron shikastga uchrayсан!

Ahad Mirzo qah-qah urib kuldi-da, qo'llarini beliga tirab turib, dedi:

— Tush pastga! Ko‘zingning oldida o‘zim buzaman!.. Bilaman buni yurgizishni, bilaman. Qani, tush!

G‘olib bir nafas o‘ylab turdi-da, pastga sakrab tushdi. Ahad Mirzo rulga o‘tirib, buldozerni bir amallab yurgizdi, uning surgichini ham bir amallab tushirdi va qabrga qaratib haydadi. Uni buzib-surib o‘tarkan, allanechuk bir titradi ham, lekin buni bildirmay, yana orqaga qaytmoqchi bo‘ldi, eplolmadi. Qabrning lahadi ochilib qoldi.

— Marhamat! Ol mashinangni! Ko‘rdingmi?

— Ko‘rdim, lekin sizni bir balo qiladi shu, qabr! — dedi G‘olib.

— Qilgan kuni menga salom berasan. Kelishdikmi?

— Kelishdik... — G‘olib o‘kinch bilan qabr boshiga keldi, cho‘nqayib tikildi va unda hech qanday inson suyagini ko‘rmadi. Hayron bo‘lib, pastroqqa ham tushdi, hech narsa yo‘q edi. «Har holda yaxshi ish bo‘lmadi», deb yo‘lga chikdi.

Shu kecha bu buzilgan qabr boshidan Zinnat kampirning uvlagan ovozi butun mahalla-ko‘y eshitdi. Uch kundan keyin uning uyiga ta‘ziya bildirgani bo‘rishdi. Kampirni qishloqning shimolidagi katta qabristonga qo‘yishdi.

Ahad Mirzo bu marosimni ham kuzatib yurib, yana xiyla problemalar topdi: nimaga kampirning tobutini ko‘targani shuncha odam talpinadi? Nega ular go‘rga tuproq tashlagani shoshadi? A, odamlarda dinning ta‘siri zo‘r ekan... Vot masala qaerda! Qabr boshida fotiha o‘qishdi-ya? Obbo... Anavi o‘qituvchi ham bor edi, agronom ham! Gaplashamiz, gaplashib qo‘yamiz hali ular bilan... Shu saviya bilan maktabda dars beradi-ya! Biri xalqqa boshchilik qiladi! Ko‘ramiz... Raykomga kiraman! Yana bir oz fakt to‘play!

Bir kuni Ahad Mirzo havaskorlar kontsertidan kech chikdi. Odam juda gavjum edi. Ko‘chani kesib o‘tib, choyxonaga kirdi. Chollarning suhbatiga quloq solib o‘tirdi. So‘ng uyiga yo‘l oldi. Ahad Mirzo G‘olib bilan bo‘lib o‘tgan o‘sha suhbatdan keyin, uni eslaganda kulsa ham, baribir qabrni buzayotgan mahalida seskangandek seskanib ketar, buni birovga aslo bildirgisi kelmas edi.

Oy sutdek yoritib turar, o‘yiq qabr ortidagi da-raxtzordan boyqush ovozi kelar edi. Ahad Mirzo bir-bir bosib, bir kuyni xirgoyi qilib ketaverdi. Qabr yonidan o‘tayotganda, ovozigina yana kimdir jo‘r bo‘lgandek tuyuldi. U kulimsirab to‘xtadi-da, qattiq yo‘talib oldi. Balandroq xirgoyi qilib, ildamladi. Shunda yoniga bir kesak tushdi. Ahad Mirzo gir aylanib qaragan edi, qabrni ko‘rdi. Uning og‘zi qorayib turar, nari-berida yotgan yog‘ochlari oqish bo‘lib ko‘rinar edi. U yana yo‘liga ravona bo‘ldi-yu, ingichka ayol ovozi eshitdi:

— Ahadjon!

— A? — Ahad Mirzo keskin o‘girildi.

Go‘rdan oppoq kafan yopingan bir maxluq chiqib kelar edi.

— Ahadjon, qo‘rqma, — dedi u.

Ahad Mirzo yutindi, yo‘liga qaradi-yu, xirillab yubordi:

— Enajon! — O‘zini oldinga otdi, yiqildi, o‘rmaladi...

Ahad Mirzo shu ketishda darvoza oldiga yetib yiqildi. Uni ko‘tarib hovliga olib kirgan xotiniga qaynanasi baqirdi:

— Nima balo, ichibdimi? Mundoq odati yo‘q edi-ku!

Chiroq yorug‘ida Ahad Mirzoning murdanikidek oqarib ketgan yuzi, qiyshayib qolgan og‘zi ko‘rindi. Qaynana birdan barmog‘ini chakkasiga bosdi. Xotin o‘kinib yuborib, cho‘nqaydi.

Oradan uch oy o‘tgach, Ahad Mirzo odam qatoriga kirdi. Bolaligi o‘tgan toshloq ko‘chani qoldirib, aylanma yo‘l bilan raykomga bordi. Raykom sekretariga bor gapni oqizmay-tomizmay aytib berdi.

Sekretar diqqat bilan quloq solgach, kuldi:

— Xo‘sh, nima qilmoqchisiz endi?

— Endi ishlamasam degan edim, — dedi Ahad Mirzo.

— Ixtiyor o‘zingizda, — dedi sekretar.

— Menda?!

— Ha. Biz nima ham deya olamiz.

— Axir... Lekin men ham oxirgi so‘zimni aytay, — Aavom etdi Ahad Mirzo. — Xudo bor ekan, eshon, mulla, muftilarda gap ko‘p ekan, o‘rtoq...

— Siz aynabsiz, — dedi sekretar.

Bir kun mahallada to‘y bo‘ldi. Ahad Mirzo bordi. U chopon kiyib olgan edi. Unga ichkilik tutishdi, u ichmadi. Bir mahal davra tarqay boshladi. Hamma eshik og‘ziga yetganda to‘rdagi so‘zana yor qaqqaygan

G'olib Ahad Mirzoni chaqirdi:

— Ahadjo-n!

Ahad Mirzo tanish ingichka ovozni eslab, keskin burilgan edi, G'olib Ahad Mirzoning ovozida:

— Enajo-on! — deb o'zini derazaga urdi.

Ahad Mirzo shu kecha G'olibni qo'lida pichoqni xo'p izladi. So'ng yig'ladi: raykomga boraymi, mozorgami?

HAYOT ABADIY

Sovxozning bosh agronomi Nodir Ro‘ziqulov majlisdan qattiq tanqid yeb chiqdi. Uygaga kelib, o‘zi yoqtirmaydigan qaynanasining «hemirisi yo‘q ekspeditori ham yangi uchastka qurib olyapti, yer bo‘lsa sizni qo‘lingizda» degan gapini eshitib: «Mening bo‘lgan turganim shu. Chidamasangiz qizingizni olib ketavering!» — dedi. Xotini ham shuni kutib turganday qizchasini ko‘tarib, onasiga ergashdi.

Nodir ko‘chaga chiqib, o‘zini qopmoqchi bo‘lgan qo‘shnisining itiga kesak otgan edi, itga qattiq tegdi shekilli, u shunday vang‘illab qochdiki, endi ko‘knori ichib, boshiga choponini tortayotgan bangi qo‘shnigor kayfi uchib, darrov devordan qaradi. Nodirni ko‘rib nima gapligini so‘radi. Nodir aybini bo‘yniga olgan edi, u: «Hayf sizga-ey, xo‘jayin, kuchingiz shu tilsiz maxluqqa yetdimi! Kuchingiz juda oshib, qo‘lingiz qichiyotgan bo‘lsa, sekin meni chaqirmaysizmi!» deb, Nodirning ta‘bini tirriq qildi, buyam yetmaganday, itini ayvonga chaqirib, unga shunday baqirdiki...

Nodir huvillab yotgan uygaga kirib, qizchasining to‘shab qo‘yilgan ko‘rpachasiga ko‘zi tushdi, borib uning ustiga cho‘nqaygan edi, bolasining ona sutini eslatuvchi isi dimog‘iga urildi-da, ko‘ngli buzilib ketdi. Chopib tashqariga chiqdi, yuziga sovuq shamol tegib, to‘xtab qoldi. Bir nafas ko‘ksini ochib, ayvon panjarasiga o‘tirdi va to‘satdan shu qadar bo‘shashib ketdiki, yerga guppa yiqilib, o‘lib qoladigandek bo‘ldi. Haqiqatan ham guppa yiqildi...

Shamol qattiq esib, bujmaygan tok barglarini uning ustiga opkelib sochdi. Tongga yaqin shivalab yomg‘ir yog‘a boshladi. Bu ilk kuz yomg‘iri edi. Qovjiroq ko‘katlaru daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi. So‘ng yomg‘ir tinib, havo ochildi, unda oppoq yulduzlar yarqirab yona boshladi. Atrof shu qadar sokin ediki, hatto yaproqlardan tomgan tomchilarning chakillashi ham eshitalardi. Shabada esa boshladi. Atrof salqin, birdaniga sovuq tushganday bo‘ldi.

Bu ajoyib o‘zgarishlarni Nodirgina ko‘rmadi, chunki u tirishib, o‘lib yotibdi. Oyoq-qo‘lini yozib, ko‘zlarini yumib, iyagini ko‘tarib bog‘lab qo‘yadigan bironta odam bo‘lmaganidan tirishib, kulala bo‘lib qoladi-da. Esiz, yomon o‘lim topdi-da, it qavmida ketdi, deyishadimi buni? Vasiyat ham qilmadi, yosh ketdi. Qizchasini ham ko‘rib, diydoriga to‘yolmadi, xotinidan ham rozilik ololmadi. Sovxoz ishchilari... Har holda uni hurmatlaydigan kishilar ko‘p edi. Ayniqsa, Cha-Chaning onasini aytmaydiki. «Yog‘och topib bering, direktor yo‘q dedilar. Qish tushyapti, uyim bosib qoladi» deganida uchastka qurish niyatida bir kunlik yo‘ldan olib kelib, sim bilan o‘rab qo‘ygan taxtalarini unga berib yuborgan edi. «Kam bo‘lmang, umringiz uzoq bo‘lsin, o‘lgunimcha sizni duo qilaman», degan edi kampir boyoqish. U eshitsa, albatta yig‘laydi, bo‘masam-chi?!

Tong otdi. Ko‘chadan o‘tib ketayotgan bo‘lim mudiri o‘zining ishga erta ketayotganini bildirish uchun devordan mo‘ralab qaradi-yu, odatdagidek, Nodirni ayvon oldidagi kosagullar yonida ko‘rmadi. «Uxlab qoptilarmi?» deb o‘ylab, «O‘rtoq Ro‘ziqulov!» deb chaqirdi. Unga hech kim javob bermadi. «Nima, bular qirilib ketganmi?» deb ichkariga kirgan edi, ayvonda g‘ujanak bo‘lib yotgan bosh agronomni ko‘rib qoldi. «Nima balo, mastmi? Bu ko‘p ichsa ham hech mast bo‘lmasdi-ku?» deb o‘ylab, uni chaqirdi. Bir vaqt agronomning o‘lib qolganini ko‘rib, dodlab yubordi.

Tumonat odam yig‘ildi... Albatta yig‘iladi-da, kimsan sovxozning bir rahbari olamdan o‘tadi-yu, odam yig‘ilmaydiki. Marhum ko‘plarga yaxshilik qilgan edi...

Hanifaning yig‘lashini ko‘rsangiz edi! «Vo, to‘ram! Meni kimlarga tashlab ketdingiz, o to‘ram! Qizingiz: «Mening dadam qani?» desa, nima deyman? Enamnikiga ketmay o‘lay! Bunday bo‘lishingizni qaydan bilibman? Yoningizda o‘tirsam bo‘lmasmidi? Vo, to‘ram!»

Ha, shunday! Kishining yaxshiligi keyin bilinadi. Hali bu xotin ko‘p yig‘laydi. Qaynanasi-chi? E, tang, kuyovingni shunchalik sevar ekansan, hayotligida nega uni tergayverding, lo‘li! Yo bu samimiy yig‘layaptimi? Balki yig‘isi samimiydir. Bir hisobda maddoh kampir ham haq edi. Shular biron narsaga zor bo‘lmasin, der ekan-da. To‘g‘ri, Nodir oilasiga ko‘p beparvo edi. Xolxo‘ja milisani: «Sen g‘irt proletarsan!» deganida jon bor.

Hammasi o‘tdi-ketdi, endigi pushaymon o‘zingga dushman.

Direktor ham yig‘layaptimi? Ha-a, yig‘layapti. Nodirbek, halol bir agronom dunyodan o‘tsa-yu, u ko‘ziga yosh olmaydiki!..

Axir, Nodir tuzuk xodim edi. Direktor nima o‘ylyotganikin? Nodirning favqulodda o‘limi uni hayron qoldirayotgan bo‘lsa kerak-a? Ehtimol kecha majlisda tanqid qilgani uchun afsus qilayotgandir? Chidolmagan, nohaq gapni ko‘tara olmagan, deb albatta. Shunday bo‘ladi. Bilib tanqid qilish kerak. Bu odam qobil, tanqidga

chidaydi deb do'pposlayveradimi kishi deganni.

Mana, kafanga o'ralgan bosh agronomni tobutga soldilar, ko'tar-ko'tar qilib, Qizilqoya qabristoniga olib ketdilar.

Hammasi orqadi qoldi. Xotin, bola, uy. Araz, diqqatpazlik, g'iybat... Ish. Sovxoz. Ishchilar...

Qishloq ham orqada qolib ketdi.

Xalqimizning yaxshi odati bor-da. Eshakda ketayotgan bir odam shartta pastga tushib, chopib kelib, tobut shotisini yelkasiga oldi. Ellik qadamcha ko'tarib bordi-da, boshqaga berdi. Fotiha o'qib, orqada qoldi. Ana bir shofyor ham mashinasini to'xtatib, kabinadan tusha solib, tobutga qarab chopdi.

Qabriston. Negadir bu yerning tuprog'i qizil. Nodir dinga ishonmas edi. Ammo shu qabriston oldidan o'tayotganda, ko'ngliga allaqanday vahima tushar edi. Kechasi o'tganda ovozini chiqarmas, u yerdan eshitilayotgan boyqushning sayrashi Nodirni qishloq yo'liga tushgancha ta'qib etar edi: «Bu yerda o'liklar qo'rqmasdan qanday yotisharkin-a? I-e, ular axir, hech narsani sezmaydi-ku? Axir, o'lik o'lik-da. Kesak nima-ya, o'lgan odam nima?..»

Mana, marhum qabrgayam qo'yildi. Mehribon ota go'rga birinchi bo'lib tuproq tashladi. Odamlarga hayronsan! Muncha shoshishmasa? Bosh agronom tezroq ko'zdan yo'qolsin deganday go'rga tez-tez tuproq tashlashadi-ya.

Jimjitlik. O'lik sukunat. Mozor, qizg'ish uy, manavi qaqqaygan qari tut daraxti hech narsani sezmaganday turibdi. Uning kovagiga chumchuqlar har vaqtdagidek shoshib kirib chiqyapi. Ana, namgina tuproq uyumi ustiga bir qarg'a qo'ndi.

Inson hayoti shu ekan-da. Tug'ildi, o'sdi, o'qidi, ishladi, odamlar bilan urishdi, yarashdi. Ro'zg'orni o'yladi, tashvish tortdi. Sevdi... nihoyat, o'ldi.

Oilada bir necha kun yig'i-sig'i, rasm-taomillar. Keyin? Uni eslab yurish...

Bu orada sovxozga boshqa kishi, ikkinchi bo'limning boshlig'i bosh agronom bo'ldi.

Ota ham, ona ham asta-sekin g'am bukkani qaddini tiklashdi. Yosh kelinga sovchi keldi. Sovchi uchinchi kelishida qaynana ko'ndi.

Keyin?.. Yoshgina qizi, onasining keyingi erini otam deyishga o'rgatadi uni qaynana. Yo?..

Nodir bo'lsa sezmas, eshitmas bo'lib qabrda yotibdi.

Darvoqe, u qanday bo'lib o'ldi?

O'sha kuni majlisdan tanqid yeb keldi, qaynanasi bilan uy xususida janjallashdi, xotini ketib qoldi, ko'chada itni urib, egasidan dakki eshitdi...

Keyin eshikka chiqqanda ko'kragiga sovuq shamol urildi.

Bu kuz shamoli shunchalik yoqimli, huzurbaxsh ediki, Nodirning xo'rliqi keldi. Keyin... bu adolatsizliklarga chidolmay, o'zini achchiq ustida o'ldirib qo'ydi.

Bu kimga foyda bo'ldi? Kim uni maqtadi? Nima bo'ldi, keyin nima?

O'sha kechagi seryulduz osmon ham, oppoq yulduzlar ham o'z o'rnida. Daraxtlar, yomg'ir... Shabada.

Hayot Nodirsiz ham davom etyapti.

...Ayvon panjarasida bo'shashib o'tirib qolgan Nodir cho'chib boshini ko'tardi va chuqur xo'rsinib o'rnidan qo'zg'aldi. Sigareta chekib yana bir nafas turdi-da, ko'chaga chikdi. Qo'shnining ko'ngli yumshab, itga achinganini aytdi va «mashoyixlar aytibdiki, Ka'baga o't qo'yib, butga cho'qin, lekin mo'rchani og'ritmagil, ha, shunaqa bo'ladi-da», dedi. Nodir bolalarini olib kelgani qaynanasinikiga yo'l oldi. Yo'l bo'yi oqshom eshitgan tanqidini eslab, tahlil qilib, xatolarni bartaraf qilish yo'llarini rejaladi.

Hali Nodir panjarada xayol surib o'tirganida, bo'yniga bir necha tomchi yomg'ir tomgan edi, endi shivalab yog'a boshladi. Qovjiroq o't-o'lanlar, daraxtlarning taxir yozgi hidi anqib ketdi.

1970

BAHOR

Azimovning qizi seni velosipedda ko'riпти. Yiqilibsan. Onasiga aytiпти...

Onamning bu gapı mening tinchimni yo'qotdi: demak, Bibigul meni ko'riпти, yo'q.. menga e'tibor qiliпти. Yiqilganimga achiniпти. Hatto onasiga ham aytiпти!

— Ena, men dashtga ketaman! — dedim.

— Hozirmi? Shu kundami! — hayron bo'ldi onam. — Yog'in-sochin mahali, bolam. Dashtda chaqmoq yomon bo'ladi, bir cho'ponni urib ketiпти!

— Hechqisi yo'q. Men oq kiyim kiymayman-ku!

— Kim bilan borasan dashtga?

— O'zim. O'tkinchilar bilan. Chorbozorchilar bor. Ana, eshagim!

— Nimaga... birdan boradigan bo'lib qolding?

— Enajon, hademay yoz boshlanadi. Velosipedimni opkelaman!

— Axir, hozir velosiped minib bo'ladingmi? Bari bir keltirib omborga qantarib qo'lasan.

— Bari bir borgim kelyaпти. Dashtniyam sog'inyapman!

— Kutsang bo'lardi bir-ikki kun. Ayttirib yuboraman. Akang o'zi opkeladi.

— Yo'q. Erta shanba. Tushdan keyin jo'nayman. Bozor kuni qaytib kelaman.

— O'zingga ehtiyot bo'l-da.

Shanba kuni tushdan keyin jo'nadim. Havo iliq. Bahor osmoni tiniq. Tollar kurtak chiqargan. Hovlimizdan chikdim. Rayon ham orqada qoldi. Biyday dasht. So'qmoq... Bu so'qmoq menga ko'pdan tanish. Esimni taniganimdan buyon yuraman. Avval dashtda yashardik. So'ng rayonga ko'chib keldik. Uyoqda o'tovimiz, uyimiz qolgan. Akam doktor. Kuzda mototsiklini sotib, velosipedimni minib ketgan edi. Borib opkelishimga vaqt bo'lmadi. O'qish boshlanib qoldi... E-he, bu dashtlar menga tanish! Guli, ko'kati bilan! Qushlari, kengligi bilan! So'qmoqlari, o'rlari bilan tanish!

— Eh-he, o'zlari-ku! — deb qarshi oldi akam.

Akam Aliqul o'rta bo'y, yelkador yigit. Sho'x, ko'zlari qiyiq. Men onamga tortib, qirraburun, chaqnoq ko'z bo'lganman... Ana o'tovimiz! Ana yolg'iz qayrag'och. Ana pastlikda... G'orkamar! Narida daryo, uning g'ish sohillari. Adirda qo'y-qo'zilar!

— Ha, keldim, — dedim. — Velosipedga keldim.

— E, ukam-e, ovora bo'psan-da. Oborib berardim.

— O'zim keldim, sog'indim dashtni!

— Bu boshqa gap. Yur o'tovga. E, qo'yib yubor eshakni, qaerga ketadi. Uzum obkemadingmi?

— Sob bo'ldi. O'sma uzumniyam yeb qo'ydik.

— Bizda qatiq, qaymoq, go'shtdan bo'lak narsa yo'q.

— Shu yaxshi-da. Bizda ana shulardan kamchil!

— Velosipedni qanday qilib olib ketasan? Egningga ortasanmi, yo eshagingni unga ortasanmi?

— Bir yo'lini qilarmiz-da, aka!

— Sovqotmadingmi? Hey, kampir! Mehmon keldi. Yangam bilan ham so'rashdim. O'tov... O'tov. Ana silliq uvuqlar, shaxmatnusxa keraga. Ana sanoch, do'mbira. Kigizlar, quroq ko'rpalar. O'rtada o'choq. Bu o'choqda bozillagan shuvoq cho'g'ida qancha isinganman. Qo'ylar qo'zilaganda, tashqari sovuq bo'lsa, ichkariga kiritardik. Tapir-tupur qilib, uyqu berishmasdi. oqshomlari tashqaridagi supada yotardik. Otam do'mbira chertar edi. Uning ovozi! Past, qandaydir dag'al va xasta. Biroq uni eshitganda ko'ngling kengayib ketadi. Ko'z oldingda behad adirlar ko'rinadi... O'tov! Qaymoq ham yedim. Qatiq ham ichdim, go'shtga havm to'ydim.

Akam bilan G'orkamarga tushib chikdik. O'sha kamar, ichi keng, yuz bosh qo'y soyalashi mumkin. Burchakda, qoyalar orasida bir tup tut o'sgan. Uning shoxlari pastdagi serqamish ko'lga tegib turardi. Shu ko'lga tushgan narsa qaytib chiqmaydi deyishadi: uning tagi yo'q emish. Bir tuya cho'kib ketib, to'qimi yuz chaqirim naridagi boshqa ko'ldan chiqqanmish... Biz yozda bu kamarda ham ko'p bo'lardik. Chunki bahorda oshqovoq ekardik. Ichkariga kirib, ko'chmak o'ynardik.

— Xayr, aka.

— Eshaging bo'lmaganda bir moshinga solib yuborardim.

— Hechqisi yo'q.

— Qani, menga qara. Qiynalmaysanmi?

— Yo‘q.

Men eshakda o‘tiribman, velosiped ramasini go‘yo qiyib olganman. U yelkamda, rama ichidan boshim chiqib turipti. G‘ildiraklari ikki yonda. Eshakni haydab yurish noqulay. Lekin bunga ehtiyoj ham yo‘q: eshagim qayoqqa borayotganini yaxshi biladi.

— Xayr, aka.

— Ochqasang, xurjunda go‘sht bor, olib yo. Qatikdan qo‘shnilargayam beringlar.

— Xo‘p, aka.

Yo‘lda yomg‘ir yog‘di. Chaqmoq bo‘ldi. Men shalabbo bo‘ldim. Sovqotdim. Qo‘rqdim...

Kechqurun uyga yetib bordim. Yelkam uvishgan, ko‘tara olmas edim. Ertasi tushdan keyin velosipedga yel berdim. Artdim. G‘ildiragi qiyshayib qolgan ekan, tuzatdim, to‘g‘riladim. Yomg‘irli, loyli tor ko‘chamizga minib chikdim. Undan markaziy ko‘chaga o‘tdim. E, hamma menga qaraydi! Hozir kim velosiped minadi? Menga o‘xshagan biron «olifta» bu ishga jazm qilmasa, boshqasi qilmaydi... Chorraha!

Bu chorrahayam men uchun aziz. Chunki pastga tushgan yerda Azimova opamning uyi bor. Derazasi ko‘chaga qaragan, Bibigul yoz, bahor oqshomlari shu deraza yonida kitob o‘qib o‘tiradi. Shu deraza yonidagi darchadan satil ko‘tarib suvga chiqadi. Men uni... maktabdan kelayotganimda ko‘p ko‘raman. Nima uchundir... uni ko‘rganda oyoq bosayotgan yerim esimdan chiqib ketadi. Bir-ikki marta ariqqa tushib ketganman. Yurak-bag‘rim eziladi, ichlarim og‘riydi. Panaga o‘tganda yig‘lagim keladi. Nimaga?.. Qishda «Robin gud» degan kino bo‘ldi. Birinchi oqshom kirib Bibigulni ko‘rdim. Yonma-yon tushib qolibmiz. Keyin har kech kinoga kiradigan bo‘ldim. Lekin u boshqa kirmadi. Tizzagacha loyga belanib uyga qaytardim...

Bibigul! Ana Bibigul!.. U ham menga o‘xshab ketadi, faqat rangi tiniq, oq! Qarashlari mayin, kulib turganday hammavaqt.

Bibigul!..

— Qani! — deb pedalni bosdim. Xuddi buyurganday unga yetganimda, yo‘q, chorrahadan burilib, derazalari oldidan o‘tayotganimda g‘ildiraklar birdan toyib ketdi. Men, telpagim bir yoqqa uchib, otilib tushdim... Qizarib va iljayib o‘rnimdan turdim.

— Ko‘zingga qarasang bo‘lmaydimi! Hammavaqt yiqilib yurasan-a! — dedi Bibigul va... darvozalaridan kirib ketdi.

Men velosipedni turg‘izib xiyobonga chiqardim. Yig‘lagim kelardi...

Keyin bildim: u menga qiziqmagan, menga achinmagan. Onasiga ham shunchaki gapirgan ekan.

OY YORUG'IDA

Samar qoya oralig'idan o'tgan so'qmoqdan yurib yalanglikka chikdi. Oy uning qoq manglayida, soyasi tomon cho'zilgan edi. So'qmoq oqarib ko'rinadi. yo'ldan chiqmasa, u tonggacha qishloqqa tushib boradi.

Samar yaqinda xotinidan ajralib, bu yoqqa kelga uni shahar ham o'zidan bezdirgan, bu yovvoyi tog' orasida bir-ikki oy yashashga qaror qylgan edi. Bir oqshom garovda yutqazib, aroqqa chuv tushdi. Do'stining e'tiroziga ham qaramay yo'lga chiqdi. Mana, yarim kechadan oshganda cho'ponlar ovuliga qo'ndi, chalob qovurdoq yedi va ularga rahmat aytib, yana yo'lga tushdi.

Samar yalanglik o'rtasiga yetib, ortiga o'girilib qaradi, endi cho'ponlarning iti ovozlari ham eshitilmas, o'tovi oldidagi gulxandan sachrayotgan uchqunlar ham tun qa'riga yutgan edi. Atrof jimjit, sirli sokinlik qo'ynida. Uzoqda ukki sayraydi.

U yana olg'a ketdi. Yalanglikning adog'ida qorayib qoyalar ko'rina boshladi. Yo'lovchi hademay ularga yetdi. Bu qoyalar orqada qolib ketgan tog'dan qulagan, dumalab shu yerga, soy labiga kelib to'xtab qolgan. Oy anchagina ko'tarilib qolganidan metin xarsanglarning sirti yaltirar, pana joylardagi soya behad quyulashib ko'rinar edi.

Samar qoyaga yaqinlashgan ham edi, yo'lga egilgay tumshuqda oyoqlarini osiltirib o'tirgan qora gavadni ko'rdi. U cho'chib ketdi, shuning bilan birga sayohat-sarguzasht talab ko'ngliga sirli zavq oqib kirdi; miltig'ini yelkasidan asta oldi.

— Qo'rqmang, — dedi haligi qora gavda va yengil sakrab tushib, Samarga tikildi.

Samar g'ayritabiiy entikib, o'zi jinga ishonmasa ham, uni «jin» deb o'yladi. So'ng bu mudroq, mungli hayotiga yorqin bir xotira kirganiga iqror bo'ldi.

— Qo'rqayotganim yo'q. Kimsiz?.. Odammisiz? — dedi.

— Kechiring, — dedi qiz shoshib va Samarni anchadan beri taniydigan odamdek unga yaqinlashdi. — Men sizni anchadan beri poylab o'tiribman! — davom etdi u, — Siz o'tovdan chiqqanda izingizdan men ham chiqqan edim, sekin yurar ekansiz.

«Qiz... Tushunib bo'lmaydi bu xalqqa!» ko'nglidan kechirdi Samar va:

— Nima, siz shu ovuldanmisiz? — so'radi.

— Ha, — dedi qiz va shosha-pisha gap boshladi: — Siz bilan birga choy ichgan cho'tir odam bor-ku, dadam meni shunga bermoqchi. Men xohlamayman. Men o'qiyman, shaharga boraman. Shuning uchun uydan qochib chiqdim. Malol kelmasa, sizga hamroh bo'lsam?

— Marhamat, menga baribir, — dedi Samar va uning yuzini ko'rmoqchi bo'lib tikildi, qiz kulcha yuz, shahlo ko'z, o'rta bo'y, xipchadan kelgan, ko'rinishdan ziyoli oilada tarbiya topganligi sezilib turardi.

— Rahmat, — dedi qiz so'qmoqqa tushib. — Men shaharni ko'rmaganman, qayoqda ekanini ham bilmayman. Goho cho'qqidan qarasam, chiroqlari ko'p bir joyni ko'raman. Shu shahar bo'lsa kerak.

— Ha, — dedi Samar va xo'rsindi: «Ey, qiz, shaharda nima bor senga?»

Samar ham uning ortidan yurdi. Bir necha qadam yurmay, yigitning ko'ngli g'ash bo'ldi:

— Bu, ota-onangiz nima deb o'ylashadi? Bir o'tkinchi yigit qizimni opqochib ketdi demaydimi? Orqamizdan tushsa, sharmanda bo'lamiz-ku... unda o'zingiz bilasiz, mening ahvolim chatoq bo'ladi, janjalni yomon ko'raman!

Qiz orqasiga ilkis qaradi.

— Siz qo'rqmang, men ularning sharpasini sezib qolsam, qochib ketaman, — dedi. - O'zi shunday deyishingizni sezgan edim... Faqat iltimos, tezroq yursak!

— A-a, — dedi Samar. — Ishqilib, javobini o'zingiz berasiz. Men... mening tez yurishga madorim yo'q, charchaganman.

— Qatdan kelyapsiz! Bu atrofning odamiga o'xshamaysiz-ku?

— Uzoqdan. Ha, bu atrofning odami emasman, lekin shu atrofning odami bo'lib qolishni istayman, singlim.

— O! Bu yerda nima bor! — dedi qiz... Hamma yoq tog'-tepalik! Hamma narsa shaharda-ku!

— Ha, shaharda. Boring, ko'rasiz, — dedi ensasi qotib.

— Ko'ramiz, ko'ramiz, — dedi qiz, u boshini burib, quchoqqa sig'mas oyga qaradi. Toshga qoqilib ketdi.

Kulib, qaddini rostlab oldi. — Oyog'imda kalish, shaharliklar kulmaydimi?

— Parvo qilmaysiz-da, kulsayam.

— To'g'ri, — dedi qiz bosh irg'ib. — Buvim ham shunday der edilar.

Ular qiyalikdan pastlab, yarqirab oqayotgan sayoz soy bo'yiga tushdilar! Suv betiga chiqib turgan toshlarga oyoq qo'yib o'ta boshladilar.

Narigi sohilga o'tganda Samar shag'al ustida qizga qaradi:

— Singlim, bekor qilyapsiz-da, pushaymon yeysiz, — dedi yuragi hapqirib, — bu joylarni sevish kerak. Siz buning qadrini bilmaysiz. Bir kuni qaytib kelasiz.

— Menmi? — dedi qiz... — Ha, qaytaman... Lekin bir oy-ikki oyga.

— Nimaga?

— Chunki men bu yerda yashamayman-da. Bu yerda cho'ponlar, podachilar yashaydi, qo'y boqadi, poda boqadi. Men nima qilaman batda? Sog'inganda kelaman, sayohatga kelaman.

— Siz kimsiz o'zi?

— Menmi? Men oddiy... dadamning qizi. Nima hayron bo'lasiz?

— Xuddi shaharda tug'ilib, shaharda o'sganga o'xshaysiz?

— Yo'q, shatda tug'ilib, shatda o'sganman. Buvim gapirib berganlar shahar haqida.

— Buvingiz kim? U kishi shaharda yashaydimi?

— Yo'q, Cho'ltoq tog'da... — dedi qiz. — Yuring, yo'ldan qolmaylik, yo'lakay gaplashamiz. Tag'in anavilar orqamizdan quvlab kelmasin.

— To'g'ri gapingiz.

Soy yoqasidagi o'pirilib tushgan qumloq tepaga chiqib, yo'lni yengil changitib keta boshladilar.

— Singlim, bu yurishdan foyda yo'q, — dedi Samar. — Yo'ldan yursak, haqiqatan ham ular yetib olishi mumkin. Chetdan yuraylik, siz yaxshi bilsangiz kerak bu yerlarni?

— Ha, bilaman, — dedi qiz. — To'g'ri aytdingiz, yuring, anavi archazor ichidan ketamiz, hech kim bizni qo'rmaydi. — Qiz yo'lni qoldirib, oqarib turgan tikanzorga kirdi, etagini andak ko'tarib olib, tikanlar ustidan sakray-sakray qiya betga o'rladi. So'ng yumshoq tuproqda sirg'ala-sirg'ala tepadagi archaga yetdi. Samar ham uning orqasidan chiqib bordi, bu yo'l davomida u charchaganini yana qattiq sezdi, soni birdan uvushib tarang tortildi. Yigit egilib, uni uqaladi, cho'zdi. Tomir qo'yvordi. Qiz unga miltiq xalaqit berayotganini ko'rib, dedi:

— Bering miltig'ingizni, men ko'tarib yuray. Siz charchabsiz, og'irlik qiladi.

Samar yelkasidan miltiqni oldi-yu, qizga tikilib qaradi, ko'nglida g'alati shubha paydo bo'ldi: «Yo'q... bu yerlik emas bu, — deb o'yladi. — Tiliyam, muomalasiyam boshqacha... Qiziq, nima qilib yuribdi ekan bu yerlarda? — Samar battar hayron bo'ldi: — Men erkak bo'lsam, seskanmaydimi mendan? Hech narsa ko'rmaganday kelyapti... Bir sir bor!»

— Rahmat, — dedi Samar, — o'zim ko'tarib yuraman, — u iljaydi. — Momongiz aytgan bo'lsa, yigit kishining yonida qiz kishining yuk ko'tarishi odobdan emas...

— Ha, buniyam gapirganlar, yana ko'p gaplar aytganlar. Bechora, bir oy bo'ldi, qazo qildi, — qiz parishon bo'lib, olisdagi ufqqa, qora qalam bilan chizib qo'yilgandek toqqa qaradi.

So'ng tepalik o'rkachidan odimladi.

— Aytmoqchi, anavi yo'l shaharga olib boradimi yo boshqa yo'lgayam chiqamizmi?

— O'sha olib boradi, — dedi Samar.

— Unday bo'lsa, undan uzoqlashmay yuraylik-da?

— Darvoqe, ular quvib kelganda tutqich beradigan darajada yaqin bormasligimiz kerak.

Ular tepalikdan qiyalab tushib, boshqa tepaga ko'tarildilar, bundan chiqish ham Samarga azob bo'ldi. So'ngra qop-qora archa soyasi bosib yottan arnaga duch kelishdi. Qiz shu arna yoqalab yo'l boshladi. O'rmon jimjit, goho qaerdadir jir-jir qushi uchadi, uning yangroq ovozi tun sukunatini buzib yuboradi. So'ng yana o'rmonga jimlik cho'kadi. Faqat yo'lovchilarning qadam tovushlari, ular qimirlatib o'tgan shoxning shildirashi eshitiladi. Goho qiz yo'lga ko'ndalang cho'zilgan shoxni iziga qaytarib turadi, yigit o'tib olgach, uni qo'yvoradi va tag'in olg'a chiqib, o'tkir ko'zlari bilan bexato yo'l topib boradi.

— Hm, bir vaqtlar boyagi soyning bo'ylarida archa o'sardi deng, — dedi Samar va tajanglanib ketdi. Texnika shu yerlargayam yetib keldi... singlim, ana shu hozirgi shaharning, texnikaning sharofati. Bora-bora bu texnika degan narsa butun tabiatni yutib yubormasa, deb qo'rqaman.

Qiz hayratlanib hamrohiga qaradi:

— Tushunmadim gapingizga, nimaga? — dedi. Cho'ltoq toqqa birinchi marta vertolyot kelganda ba'zi odamlar, odamxo'r qushlar bu deb qon chiqarishib, xudoyi qilibdi. Buvim bechora kular edi... Hozir vertolyotdan ko'pi yo'q. Odam yurolmaydigan cho'qqili tog'ga chiqadi, geologlarga yuk tashiydi. Bultur qish

qattiq keldi, kiyiklar ham o'tovimiz yoniga kelib qoldi. Shunda vertolyotlar beda-pichan tashlab ketdi. Shu bo'lmaganda mol qirilib ketardi. Shuyam... texnikami?

— Ha, buyam texnika, — deb qo'ydi.

— Shuning uchun siz uni yomonlamang, — dedi qiz yo'lida davom etib. — Buvim aytar edilarki, odamning hayvondan bitta farqi bor, uyam bo'lsa aqli, der edilar. Rost-da, hayvonda aql nima qiladi. Shuning uchun aql yaratgan mo'jizalarni hurmat qilish kerak der edilar... Shu vertolyotni ham aql yaratgan-da? Qani bir ayiqning oldiga shu miltiqni qo'yib ko'ring. Ichida o'qi bo'lmasayam sindirib tashlaydi, negaki, aqli yo'q. Odam bo'lsa bu miltiq bilan o'zini qo'riqlaydi, molini qo'riqlaydi. Miltiq bo'lmasa, siz ham shu yurishdan qo'rqardingiz... O'rmonda jondor ko'p, silovsin bor, to'ng'iz bor.

Samar zimdan tevaragiga qarab qo'ydi:

— Mulohazalaringiz chakki emas, siz o'qisangiz..! o'qib ketasiz, — dedi.

— Ha, men o'qiyman, — dedi qiz. — Shaharni ko'raman, dunyoni ko'raman. Men tushunmaydigan narsalar ko'p, shularni tushunib olaman. Buvim rah matlik armonda ketdi, ikki oyoqdan qolmaganimda bu yerga kelmas edim, o'lim quvlab keldi meni, der edilar.

— Momongiz... bu momongiz ham antiqa odamga o'xshaydilar, — dedi Samar.

— Ha, u kishi dono ayol edilar, — tasdiqladi qiz. — U kishining ayalari otinoyi bo'lgan.

— Nahotki? — hayron bo'ldi Samar. — Bu yerlardayam otinoyilar o'tganmi?.. Siz aldayapsiz, singlim, bir sirni mendan bekityapsiz? Tilingizda bo'lsa atda, batda, buvim, ayam...

— Dukillayotgan narsa nima?

Samar ham qo'shni adirdan kelayotgan bu tovushni eshitib, miltig'ini o'ngladi. Tuyoq tovushlari borgan sari uzoqlashib ketdi.

— To'ng'izlar, — dedi qiz. — Biz bilmaymizu, ular bizni sezishgan, qochib ketdi. Ana, aytmadimmi hayvonlar ko'p deb? Miltig'ingizni o'ng qildingiz... Texnikani yomonlamang.

Samar kerishdi:

— Bo'pti, yomonlamayman! — u behad holdan toygan edi, tomiri yana tortishib borardi; chuqur nafas olib to'xtadi, qiz ham to'xtadi. Shunda u Samarga yana ham sirli bo'lib ko'rinib ketdi... Endi u bu g'alati qiz bilan kelayotganiga ishongisi kelmadi: «Nima, bu tasavvurimmi?» deb ko'nglidan kechirdi. Go'yo qizning tasavvur yoki tasavvur emasligini bilmoqchidek, gapida davom etdi: — Otinoyilar bu yerlarda bo'lmagan hisob. Mening tarixdan bilishimcha, janubda din qadim zamonlardan beri sust bo'lgan, ba'zi manbalarda bu o'lka odamlarini «tabar musulmonlar» deyishadi, — u qizning diqqat bilan quloq solayotganidan ilhomlanib, so'radi: — Tabarni tushunarsiz, bolta degani?

— Ha, tojikcha-da, — dedi qiz.

— Musulmon dinini bizga arablar olib kelgan, ular qilich, bolta, tig' kuchi bilan buni aholi o'rtasiga singdirishga harakat qilgan. Lekin bu tog'liklar bo'yinlariga bolta qo'yganda ham, o'zlarining otashparastlik dinlaridan qaytmagan, shuning uchun bularga «tabar musulmonlari» deb nom berishgan. Ana shuning uchun bu yerlarda islomning ta'siri qadimdan sust bo'lgan, singlim... Siz bo'lsa otinoyi, deyapsiz. Bu so'zni... bu o'lkada eshitish qiyin. Anavi g'alati so'zlarni qaerdan o'rgangansiz, hayronman!

— Axir, mening buvim Parg'onadan bo'lganlar, buvam Qashqardan qaytayotib, opqochib kelganlar.

— E, shunday demaysizmi? — Samar qizni o'ziga ancha yaqin his etdi. — Tilingizgayam o'shalarining ta'siri o'tgan deyman?

— Ha, batdagilar bizning gapimizdan kuladi, dadam kulgi bo'lmaslik uchun bizday gaplashmaydi. Siz ayamni ko'rmagansiz, u kishiyam yaxshi xotin.

— Onangiz ham bilmaydimi bunday qochib yo'lga chiqqaningizni?

— Ha, bilmaydilar, — dedi qiz olislarga ko'z tashlab. — Lekin u kishiyam meni erga berishlariga norizo edi. Dadam meni maktabdan olib ketganlarida urishganlar.

Samar shoshmas edi, u cho'nqayib o'tirmoqchi bo'ldi, biroq soni qotib qolishidan qo'rqib, yonboshidagi archaga suyandi, archaning chayir shoxlari silkinib, ko'tarib qoldi.

— Qanday maktabdan?.. Shahardanmi? — so'radi Samar.

— Yo'q, aytdim-ku, shaharni ko'rmaganman, — dedi qiz. — Olatumshuq qishlog'idan, — u tez-tez gapirdi: — Qishloqda maktab bor-da! Bitta o'qituvchi o'qitadi, birinchi sinf bolasiniyam, beshinchi sinf bolasiniyam, men yettinchiga o'tgan edim, meniyam shu o'qituvchimiz o'qitardi. Keyin dadam katta bo'p qolding, dedi-da, oldi-ketdi. Men bilan o'qigan bolalar shaharga ketishdi, u yoqda — internatda turib o'qishni davom ettirarmish.

Shunda... ayam dadam bilan urishgandi.

— Tushunarli, — dedi Samar va qizga tikilib savol berdi: — Ayting-chi, singlim, nimaga bir o‘tkinchiga ergashdingiz! Men yomon kishi bo‘lishim mumkin-ku!

— Yo‘q, ishonmayman, — dedi qiz. — Siz gaplashib o‘tirganda, men chiy orasidan sizga qarab turdim, qobil-mo‘min odam ko‘ringiz. — So‘ng qizning ovozida boshqa ohang paydo bo‘ldi: — Xo‘p, yomon bo‘lsangiz... qo‘lingizdan nima ish keladi? Charchab kelyapsiz. Shaharlik odamlar qo‘rqoq bo‘ladi.

Samarning ko‘nglida qizga nisbatan iliqlik, hurmat paydo bo‘ldi.

— Yo‘q, singlim, men yomon odam emasman, — dedi u ta’sirlanib, — meni turmush xafa qilgan, xolos, — shunday deb o‘zining shaharu madaniy olamni tashlab kelganini esladi: — Umuman, kishi kam narsani bilgani yaxshi, — qo‘shimcha qildi u.

Qiz cho‘chib qaradi:

— Nimaga, men ko‘p narsani bilgim keladi. Qiziq. Ozgina narsani bilib yashash... bu zerikarli!

Samar unga havaslanib boqdi:

— Nechaga kirdingiz! Aytmog‘chi, tanishmadik ham, ismingiz nima, sir bo‘lmasa?

— Ismim Hidoyat! O‘n yettiga kirdim. Hali yoshman... Siz qarib qolgan ko‘rinasiz.

Samar kulimsiradi:

— Nega, men... yigirma beshga kirdim. Bu ayni yigit yoshi.

— Bilmadim, — yelkasini qisdi Hidoyat. — Qandaydir cholga o‘xshaysiz, og‘ir... La-anj. Charchadingizmi chindan ham?

Samar kuldi:

— Ha.

Yana yo‘lda davom etdilar. Arnaning ikki labida tig‘iz bo‘lib archa o‘sgan ekan, uni aylanib o‘taman deb balanddigi belga uradigan miyazorga kirib qolishdi. O‘simlikning shoxlari oyoqlariga o‘ralashib, taqir yerga chiqqanlarida, etak tarafdin yana tuyoq tovushlari eshitila boshladi. Bu — bir maromda chopayotgan ot tuyog‘ining dukillashi edi. Yo‘lovchilar burilib qarab, oy ravshan yoritib turgan soy sohiliga otilib tushayotgan ikki otliqni ko‘rishdi.

Ular bu kishilarning kimligini aniq bilishdi.

— Ana, — dedi Samar vahima qilib.

— Ha, shular. Bilardim quvlashini, — dedi Hidoyat. — Baribir topisholmaydi, bu archaning ichidan kunduz kuniyam topisholmaydi. Siz qo‘rqaysizmi?

— Yo‘g‘-e, — dedi Samar. — Ishqilib, janjal chiqmasa bo‘lgani.

— Janjal chiqmaydi, bizni tutib olishsa, o‘zim javob beraman! Men baribir ovulga qaytib bormayman, yo shaharga ketaman, yo o‘laman shatda... Shaharga yetib olsam, bas edi! Keyin meni tutsayam obketisholmasdi. Meni himoya qiladigan qonun bor, a? Militsiya...

— Yaxshi o‘qigansiz chamamda?

— Ha, yaxshi o‘qiganman... Keyin ham yaxshi o‘qiyan! Internatga boraman, atda qizlar ham bo‘lsa kerak-a?

— Bor, albatta.

— Ana o‘shalarning yonida o‘qib yashayveraman. Forma beradimi?

— O‘tib ketishdi, — dedi Samar gangib quloq solar ekan. — Formami?.. Bermasa kerak.

— Mayli bermasa, biror ishgayam kiraman, — Hidoyat osmonga qarab gapirardi, u Samarga ko‘z tashladi: Nima, ishlolmaymanmi? Ishlayman. Sigir sog‘aman; pishaman, teri oshlayman! Bunaqa narsani shaharliklar bilmas emish. Haqiga kiyim-bosh qilaman!

Samarning bu yerdan jilgisi kelmas edi, birinchidan, anavi otliqlarga yo‘liqishdan qo‘rqar, sal g‘alati tabiatli qiz bilan suhbatlashishga ishtiyoqi oshib borar edi.

— O‘tiramizmi, Hidoyat?

Hidoyat unga ilkis nazar tashladi:

— Siz o‘zi, juda horibsiz, ovozingiz ham xirillab qopti. O‘tirishdan nima foyda? Qaytamga keyin yurolmay qolasiz. Miltiqni bering menga, og‘irlik qilayotgan bo‘lsa!

Samar qizning gapi ta’siridanmi vujudida quvvat sezdi.

— Yo‘q, ketdik! — dedi. — Qorong‘ida qishloqqa yetib olish kerak, sizgayam yaxshiroq bo‘ladi.

Hidoyat jildi. Samar ortiqcha horimaslik uchun savol-javobni ham bas qildi, shuning uchunmi yoki oldida

beixtiyor sirli bir majburiyat sezayotgani uchunmi, undan orqada qolmaslikka qaror berdi.

Ular arna yoqalab, tepaning o'rkachiga chiqib borishdi. Bu yer gilamdek yalanglik bo'lib, tuprog'i o'ynab yotar, qiyshaya boshlagan oy nurida unda behisob izlar ko'rinar edi.

— Uf-f! — dedi Samar ixtiyorsiz va ortidagi archaning qattiq shitirlashidan cho'chib tushdi, qo'lidagi miltiqni shu yoqqa qarattidi. Archa ostidan otilib chiqqan quyon bular oldidan o'tib, o'n qadamcha naridagi archa yonida to'xtadi. So'ng yana dik-dik sakrab, g'oyib bo'ldi.

— Quyon, — dedi Hidoyat. — Tinmaydi kechasi bilan. Go'shtini yomon ko'raman, qip-qizil bo'ladi.

Samar miltiqni yoniga suyab qo'yib kerishdi, xo'rsinib olislarga qaradi. Qarshida qiyshayib-buralib, tobora pasayib ketgan archazor adirlar. Etakdagi d-rani oqish tuman bosib yotibdi. Hamon kakkuning mungli sayrashi eshitiladi...

— Chiroyli-ya? — dedi. Hidoyat o'sha tomonlarga qararkan.

— Juda chiroyli, — dedi Samar. — Men bir umr shu yerlarda qolishni istar edim...

Qiz yigitga qiya qaradi:

— Siz bu yerlarda kam bo'lgansiz-da, qishda juda zerikarli bo'ladi.

Oy botishiga bir quloch qolganda ular daraning tugash yeriga yetib borishgan, orqadan izg'irin esar, pastlikdan elas-elas it ovozlari eshitar edi.

Samar to'xtagan yerida o'tira qoldi, Hidoyat ham hansirar edi.

— Pastda qishloq bormi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi Samar va «men shu yerdan aroq olib qaytmoqchi edim», deya gapini davom ettirmoqchi bo'ldi, biroq qizni dam olishga taklif etdi.

— Yo'q, — dedi qiz. — Tong otadi hozir... Ketish kerak, yo'l qishloqdan o'tadimi?

— Ha.

— Shahar qatda o'zi? Shahar?

— Shahar... — Samar qishloq chetida oqarib turgan tog'ni ko'rsatdi. — Shuning orqasida.

— Shunaqami? Bo'lmasam ketaylik, yaqin qopti-ku, birato'la o'sha yokda dam olasiz. Dadamlar shu qishloqda bo'lishi kerak, bizni poylab yotishgandir, shundaymasmi? Qishloqni chetlab o'tamiz-da?

Samar kafti bilan peshanasini siladi:

— Men shu qishloqda qolsam-chi? — dedi.

— Qolasizmi? — unga shart o'girildi qiz. — Nimaga kelayotgan edingiz o'zi, siz ham sirli ekansiz-ku?

— Bir narsa olib qaytmoqchi edim, — dedi Samar va qishloq chetlarini qoplab yotgan archazorlardan qizning yolg'iz ketishini o'ylab, xavotirga tushdi. Ayni chokda o'zining unga bog'lanib, bu qiz bilan yo'lakay suhbat asnosi, mudroq ruhi ancha tetiklanib qolgani, U ketsa, usiz o'z ahvolini tasavvur qilolmasligini his etdi. Biroq... unga qol deyishdan ham, orqaga qayt deyishdan ham o'jiz edi.

— Hidoyat...

— Ha.

— O'zingizga ehtiyot bo'lasiz-da, singlim.

— Albatta, lekin miltiq bo'lgandamidi. Sizning miltig'ingizni so'rardimu, o'zingizga kerak... Munday botirroq yigit bo'lganingizda...

Samar allanechuk cho'kib ketdi, zo'rg'a o'rnidan turdi. Endi o'zi orziqib kelgan bu tog'-tosh orasida piyoda yurish ham joniga tekkan, asrining, anavi aytmoqchi «aqlning» yaratgan imkoniyatlariga o'rgangan vujudi bu ibtidoiy harakatni inkor eta boshlagan edi. U shahdamlik bilan miltiqni uzatdi:

— Oling...

— Nima qilasis, qo'ying! — dedi qiz. — Bu qo'rqinchli bo'lmasa kerak... Qishloq yaqin, shahar yaqin. Nega menga unaqa qaraysiz?

— O'zi, qarashim shunday. Men ishonaman, siz shaharga borasiz, o'qiysiz ham... Lekin shaharda o'zingizga, tuyg'ularingizga yana ham ko'proq ehtiyot bo'ling!

— A-a, shahardami? Albatta-da!.. Nima, shahar yomonmi? Yo'q, shaharda odam aqli bilan yaratgan mo'jizalar ko'p. Xayr bo'lmasam.

— Oq yo'l.

Qiz boshidagi oqqina qiyig'ini qayta bog'ladi. Yon-bag'ir tuprog'ini changitib tushib ketdi. Samar oyga qaradi, botib borar, kunchiqar tobora oqarar edi.

Shunda yigit birdan bezovtalandi, unga Hidoyatning nimasidir yuqqan edi...

OT EGASI

Inodning uchta boyligi bor edi. Biri — soy bo'yidagi serdaraxt qishlog'i; qishloq chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan otasining qabri do'ppayib turar, Inod goho uni ziyorat qilgani borardi. Ikkinchi boyligi — qishloq o'rtasidagi tepada o'rnatilgan ikki xonali maktabi edi; bu maktabga tog'ning olis-olis burchaklaridan otli, eshakli bo'lib o'quvchilar qatnar, hammasining yagona muallimi shu Inod edi. Uning uchinchi boyligi — qorabayir oti edi; bu otning olis avlodi muallimning otasiga ham vaqtida xizmat qilgan, uni ko'p jangu jadallardan omon olib o'tgan edi. Lekin Inodning qo'lidagi ushbu qorabayir ham unga sodiq xizmatini o'tardi, ikki bor anavi soyni sel suvi bosganda, egasini olib chiqqan, to'rt yildan buyon ko'pkarilarda uloqni muttasil shu ayirib chiqar, yana uning bir xosiyati quyidagicha edi... Uzoq yili Inodning bor-yo'q ikki farzandi beda solingan bostirmaga tuynukdan kirib, gugurt o'ynaydi, bedaga o't ketadi. Ularning qiy-chuvini eshitgan onalari borib, eshikni ochmoqchi bo'ladi, biroq eshik qulf, u ham jonsarak holatda tuynukdan o'zini ichkariga tashlaydi. Bolalarini topadi, biroq tutunu olov bosgan xonada kirgan tuynugini topolmaydi. Alangani ko'rib yayov chopib kelgan Inod xotin, bola-chaqasining allaqachon sob bo'lganini ko'radi. So'ng ularni otasi yotgan qabristonga ko'mib, chorbog'da yolg'iz qoladi. U ruhan va jisman harchand kuchli bo'lmasin, g'am uni eza boshlaydi, qishlog'u maktabidan ham ko'ngli sovib boradi. Nochorlikdan qorabayirni minib, toqqa ketadi. Cho'ponlar ovulida sang'ib, marhum otasining jang qilgan yerlarini ko'radi, zumrad qorli cho'qqilar ostidan o'tib, yashil o'tloqlarda tunaydi va o'zi sezmaganda holda ko'ngli ko'tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi. Shundan keyin darsdan bo'sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo'lib qoladi.

Oylar o'tib, yigit qalbidagi yara bitgandek bo'ladi. Qishlog'iyu maktabiga bo'lgan mehri yana jo'sh uradi. U azalgi ahvoliga qaytganday his etadi o'zini.

Maktab ikki xonadan iborat bo'lib, biri dahliz, biri sinfxona. Ana shu sinfda yetti yashar bolakay ham, o'n ikki yashar yigitcha ham yonma-yon o'tirib o'qishadi, ularning har biri har xil sinf o'quvchisi bo'lgani holda, bir sinfda o'tirib saboq olishlari bir-biriga xalaqit bermaydi. Chunki bu atrofda bundan o'zga maktab yo'q, shu yerga qatnab, imkoni boricha ilm oladilar. Inodning o'zi vaqtida o'n sinfni bitirgandi, xolos. Qolaversa, ular o'qituvchilarini sevadi, bu — bir qadar xo'mraygan, og'irkarvon va allanechuk odamovi yigitni hurmat qilishadi. Inod bo'sh soatlarda va mehnat darslarida qorabayir otini maktab qoshidagi maydonga keltirib, o'quvchilarga arg'umoqda yurishni ham o'rgatadi, miltiq otishni ham ko'rsatadi, goho soy suvini band qilib, bolalari bilan baliq ham tutadi.

Bir kech Inod maktabdan chorbog' qorovuli bilan yayov qaytib kelarkan, qorovul Bo'riboy:

— Eshitdingizmi, shaxsiy ot saqlash man bo'lipti. Qaror chiqipti. Bir milisa kecha bizning yonimizdagi yurtdan bir cho'ponning otini haydab ketdi, — dedi.

Inodning ko'ngli xira bo'ldi:

— Yangilik-ku... Lekin men otimni bermayman, — dedi.

Darhaqiqat, bu tog' yonbag'irlari qarashli bo'lgan rayondagi partiya komiteti «nega o'zimiz tog'lik bo'lib, qimiz ishlab chiqarmaymiz!» degan mulohaza bilan yangi bir sovxoz tashkil etishga qaror qilgan, aholining ortiqcha baytallarini sotib olish uchun tashkilotlardan joylarga vakil jo'nagan edi. Bu tomonlardan biya sotib olish esa kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdievga topshirilgan edi. Uning esa dilida boshqa bir pinhoni istagi ham bor edi: ana o'sha tog'dagi soy bo'yida joylashgan qishloqda istiqomat qiladigan muallimning ko'p yaxshi, chopqir, chiroyli oti bor-da. Shuni o'zini qilishning iloji yo'qmikin? U o'ylab-o'ylab, ilojini topdi: bir necha biyaning narxini bichib, rayonga jo'natgandan keyin Tumshuqda bitta cho'ponning soppa-sog' baytali turgani holda, uning minib yuruvchi otini aldab-suldab, qo'rqitib, do'q urib sotib oldi va: «Nega biya olmading, deb so'rasha, biyasi yo'q ekan, otini bera qoldi. Buni almashtirish mumkin-ku deyman-da», deb o'yladi. U bilardiki, qishloq qorovuli cho'ponga qo'shni, qishloqda esa Inod muallimdan bo'lak kishi yo'q hisobi. Aholisi bo'z yerlarga ko'chib ketgan. Demak, bu xabarni qorovul chol Inodga yetkazadi...

Inod peshayvonli uyi oldidagi bedapoyada yo'ng'ichqa o'rardi. Quyosh kunbotarga egilib, kunchiqardagi adirlar bag'rini yoritir, soyni ham u yer-bu yeri yiltirar edi. Nari sohildan to'riq ot mingan shapkali, pogoni bor kishi pastlay boshladi. Suvni kechib o'tib, bu sohilga chiqib keldi.

Inod unga bir qaradi-da, ishidan qolmadi.

Egamberdi pakana jiydalarni oralab, bedapoya adog'ida paydo bo'ldi.

— Hov, salomatmi? Qani bu, mehmon keldimi, demaysiz? — dedi.

Inod qaddini ko'tarib turdi. O'roqni o'rik tanasiga qattiq sanchib:

— Keling, — dedi do‘rillab.

Egamberdi to‘riqni jadal. haydab, o‘rik ostiga keldi, egardan sakrab tushib, tizgindan tutganicha chorbog‘ egasi tomon yo‘rg‘aladi.

Inod u bilan xomush ko‘rishdi.

— Qani, bu maza yo‘qmi? — dedi Egamberdi kulib va tizginni o‘rik cho‘qmoriga bog‘ladi, o‘rib qo‘ygan o‘tdan bir qo‘ltiq olib ot oldiga tashladi; kaftlarini bir-biriga urib qoqqanicha, Inodga kulimsirab bokdi. — Bilaman, nimadan xafasiz? — dedi, so‘ng chuqur xo‘rsindi: — Endi, Inodboy, bu ko‘pga kelgan to‘y, jo‘ra. Biz oddiy ijrochi. Shuning uchun bizdan xafa bo‘lmaysiz endi.

— Yo‘g‘-e, sizdan nimaga xafa bo‘laman, — deb to‘ng‘illadi Inod va uyi tomonga burildi. Ayvonga yetib, ichkaridan ko‘rpacha olib chikdi. Sholchaga yozib tashlab: — O‘tiring, chalob ichasizmi? — dedi.

— Chalobmi, chalobdan ham chakki ma‘qul! — dedi militsioner ko‘rpachaga cho‘kkalab.

Inod dasturxon chiqarib to‘shadi, ustunga ilig‘liq qo‘y qornidan qilingan tulum og‘zini ochib, kosaga yog‘och qoshiq bilan suzma olib sola boshladi.

— Bu, Inod jo‘ra, qachon uylanasan endi? — o‘zini unga yaqin ko‘rsatish uchun sen-senlab so‘radi Egamberdi.

— E, o‘lmasak uylanamiz-da bir kuni, — dedi Inod. Kosani keltirib, dasturxonga qo‘ydi. Qorovulning xotini yer tandirda pishirib yuborgan uy nonini to‘rt bo‘lakka bo‘lib, mehmonning oldiga tizdi.

— Oling, dasturxonga qarang.

— Qani, o‘zlaridan, qani.

— Olavering, qornim to‘q... Lekin, Egamberdi, bekor kepsiz bu yerga, men bari bir otimni bermayman. U menga... juda qadrdon bo‘lib qolgan.

Egamberdi suzmaga bulab olgan nonni og‘ziga solib, duduqlanganicha bidillay ketdi:

— Bilaman, bilaman, jo‘rajon. Sizlarga ot suv bilan havoday zarur! Lekin iloj qancha... Lekin menga bermasang, boshqasi kelib olib ketadi. Shunday emasmi? Masalaning boshqa jihatiyam bor. Mendan, Inodning oti qani, deb so‘raganda nima deb javob beraman? A? To‘g‘risini aytaman-da, shuni talab qilishadi, to‘g‘ri so‘z aytganda jazoyam kamaytiriladi. Unda, jo‘rajon, o‘zingga qiyin bo‘ladi... Qarorni bajarishdan bosh tortgan, deyishadi seni. Bu yomon gap, bilsang.

Inod boshini quyi solib, ancha vaqt jim o‘tirdi. Nihoyat:

— Shundaymi? — dedi.

— Ha, albatta! — dedi Egamberdi.

Inod yana jim qoldi. So‘ng mehmonga manglayi ostidan qaradi.

— Bilishimcha, sizlar kelishuvchilikkayam ko‘nasizlar, — dedi.

— Qanday? — o‘smoqchiladi Egamberdi.

— Shu... jo‘ra deyapsiz meni, rahmat bunga... Egamberdi, menda bir sog‘in sigir bor, shuni ola keting, o‘zingizga... Lekin shu ot qolsin menda, a?

Egamberdi chaynayotgan nonini yutmay: «E, bir sigirli bo‘laman-ku?»— deb o‘yladi va govmish sigirga egalik qilish hissi uning qorabayirga bo‘lgan ishqini susaytirdi. Shundan keyin u jiddiy tus oldi:

— Bu poraxo‘rlik-ku, davlatni aldash-ku?

— Bilaman, — dedi muallim nochorlik bilan. — Bilaman... Lekin sizning ko‘nglingizni olay deyman-da. Bu... sizga bog‘liq-ku? Mayli, men uch-to‘rt yilgacha otni rayonga yo‘latmayman, hov toqqa, tanishlarning qo‘liga berib qo‘yaman, o‘sha yokda tursayam ko‘nglim to‘q.

Egamberdi manglayini changalladi: «Hozir sigirning ustiga o‘n besh qo‘y ber desam ham beradi!»— deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

— Xo‘p, lekin oting yoningda qoladi, deb va‘da berolmayman, bironta katta payqab qolsa, o‘zing javob berasan! — dedi.

Egamberdi kosani yalab, turdi.

— Men anavi qirning ortidagi Eshmat podachining uyida bo‘laman, qosh qoraygandan keyin... sigirni yetaklab o‘t. Cholga berib qo‘ysang, o‘zi podasining ichida boqib yuraveradi. Lekin shu gap shu yerda qolsin, — dedi. So‘ng tahdid bilan davom etdi: — Birovdan shu gapni eshitsam, Inodboy, bilib qo‘y, ayb o‘zingga tushadi. Organning odamini yo‘ldan urmoqchi bo‘lgan deyishadi seni. Men uni sinagan edim, qancha shaxsiy moli borligini bilmoqchi bo‘lgan edim, deyman... Menga ishonishadi.

— To‘g‘ri gapingiz, — dedi Inod.

Egamberdi ketgandan keyin qorabayirga egalik qilish istagi unga yana tinchlik bermadi, hafta o'tkazib, xafaqon bir kayfiyatda tag'in to'rig'ini yo'rttirib, Inodning chorbog'ida paydo bo'ldi.

— Bu ishimiz o'tmadi, jo'ra, — dedi u Inodga. — Senda ot borligini rayonning yetti yasharidan yetmish yasharigacha bilarkan. O'lgan desam ham ishonishmadi. Yashirgan, topib keling... bo'lmasam, ishga sovuqqonlik bilan qaragan, deb o'zingizni javobgarlikka tortamiz, deydishdi. Mana, keldim.

— Yana bir marta yo'q deb yuboring, — dedi Inod. — O'n bosh qo'yim bor, shuyam sizniki... Otni bersam, kunim qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot... mening og'ir kunimga yaradi.

Egamberdi yana manglayini ushladi, qo'ylarni o'ziniki qilganidan keyin ham yana ot xumoriga tushib kelishini his etdi va:

— Yo'q endi, jo'rajon! — dedi. — Shu sigiringni olganimdan beri ko'nglim qora. Xohlasang, borib podachidan qaytib ol.

— Shundaymi?

— Ha! — dedi Egamberdi va ko'ngliga g'ashlik tushib, uning nima qilishini kutdi.

Inod yirik gavdasini og'ir burib, uyi orqasiga o'tib ketdi. Archazor yonbag'ridagi qo'rikda boyloq turgan qorabayirni yetaklab keldi. Uni o'rik ostida qaqqaygan Egamberdi yonida to'xtatib, qashqali peshonasidan o'pdi-da, bedapoyaning o'rtasiga olib borib, tizgini uchini tikanga bog'ladi, uyga qaytdi.

Egamberdiga Inodning harakatlari juda sirli ko'rinib, ko'ngli vahima tushdi. «Nima qilmoqchi o'zi u?» — deb orqasidan qarab qoldi. So'ng ko'm-ko'k yo'ng'ichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagi otlarnikidan yo'g'on bo'ynini gajak qilib, odatdagi arg'umoqlarnikidan keng o'mrovini kerib va odatdagi chopqir otlarnikidan ingichka oyokdarini yerga qattiq tirab turgan qorabayirga qaradi. Uning ko'zlariga ko'zi tushib, eti jimirlab ketdi.

Ot xuddi dahshatli bir xavfni sezgandek olayib, egasi kirib ketgan uyga qarar, hayratda qotgan antiqa haykalga o'xshar edi. «Yopiray!» — dedi Egamberdi va xona eshigida Inodning qorasini ko'rdi. Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi.

Shunda uy eshigidan otilgan miltiqning tutuni cho'zilib chiqdi, arg'umoq balandga sapchishi hamon o'q ovozi eshitildi. Nihoyat, eshikdan qo'lida miltiq tutgan Inod chikdi. Qorabayir yonboshlab yotib oyoqlarini silkir, qisqa-qisqa kishnar edi, Egamberdi o'q uning peshonasiga tekkani, qon u yerdan tirqirab chiqayotganini ko'rdi-yu, ham dahshat, ham achinish bilan ko'zlarini yumdi. Inod miltiqni sholchaga tashlab, supa labiga o'tirdi.

«Buning avzoyi buzuq», deb ko'nglidan kechirdi Egamberdi Xudoyberdiev va miltiqqa nazar tashladi: bir tig'li. «U o'q chiqarib joylaguncha ancha yerga borib olaman», deb o'yladi... Yigitning karaxt gavdasiga bir qarab olib, to'rig'ini yechdi, o'zini egar ustiga olishi bilan bu manzaradan yuragi yorilgudek bo'lib turgan ot uni olib qochayotgandek yugura ketdi.

«Meni qamashadimi?!» — loqayd o'yladi Inod otliq orqasidan qarab va bu o'yi kor qilmay, ustunga suyandi. Qorabayir xirillar, hamon ingichka oyoqlarini silkir, issiq qon hidi atrofga yoyilgan edi.

Ot jimib qolgandan keyin Inod uning boshiga bordi va birdan uning bo'ynidan quchoqlab, ko'zlarini yumdi. Ot badani sovidi. Inod o'rnidan turdi: qarshisidagi archali tog'lar ham, chorbog'i, daraxtlari ham, anavi soyu olisda oqarib turgan maktabi ham ma'nosini yo'qotgan, yigitning ko'zlari loqayd boqardi. U tag'in ot boshida cho'nqaydi-yu, qishloq yoqasidagi qabristonning oq yalovi, tug' uchidagi qo'chqor shoxini ko'rdi. Beixtiyor ot tizgini bilan uning oyoqlarini kulliklab, bilagiga soldi. Yonboshiga yiqilgudek mayishib sudray boshladi. Qabristonga yetib, jigarlari go'ri yonida otni qoldirib qaytdi. Ketmon olib borib, yorma go'r qazidi va qorabayirni tushirib ko'mdi.

So'ng kechgacha shu yerda o'tirdi, otasi va bola-chaqasining ham ruhiga tilovat qilgan bo'ldi. Keyin uyga qaytib, eshiklarini qulfladi-da, soyga tushib bordi.

Uning yoqasi bilan yurib, qosh qorayganda suv oqib chiqayotgan bog' betiga yetdi. O'tirdi. Oy chiqib, olisda qolgan qishloqniyu tepadagi maktabni ravshan yoritdi. Shunda Inod bosh olib ketib, qarda ham yashashi mumkinligi haqida o'ylab qoldi.

Inod bir necha oydan keyin Egamberdining o'shandagi niyati nima ekanligini payqadi. Lekin bu vaqtda uning ko'nglida qolgan ikki sevgilisi — qishlog'iyu maktabi yana tomir otib ulgurgan edi.

1971

BOYCHECHAK OCHILDI

Domla Qo'ng'irotdan beri ilmiy ishlar yozmas edi, yozishga o'tirishi hamono yuragi siqilar, keyin, bu kimga kerak o'zi, degan xayolga borib qolardi. Bu orada esa aziz umrining oylari, yillari o'tib borar, sochidagi bitta-yarimta qora ham oqarib, bir zamonlar kitob ustida ko'p o'tirganining guvohi bo'lgan egik kifti tobora egilar edi.

Bu o'zgarishlarning hammasini domla bilar edi, juda yaxshi bilar edi-yu, ko'ngliga yaqin olgisi kelmas, undagi tug'ma qaysarlik va ruhiy porloqlik o'tmishdagi dovruc — shon bilan qanoatlanib, o'shalar panohida orom topar edi.

Chunki o'shanda nimaiki yozgan bo'lsa, qanday kitob chop ettirgan bo'lsa, bu uning qalb-qalbi tubidan chiqqan, inongan e'tiqodlari mahsuli o'laroq yuzaga kelgan edi. Umuman, domla o'z ruhi, aqidasi zid bir satr yozmagan, bir kalima ham so'zlamagan edi.

Domla ijodini sindirgan yirik omil nimadan iborat edi? Bu avvalo lirikani eskirdi deb e'lon qilingan ba'zi o'tkinchi mulohazalar edi.

Domla buning bir qadar asossiz va o'tkinchiligini ham yaxshi bilar edi: lirikani rad etishlar fanning misli ko'rilmagan taraqqiyosidan kelib chiqqan bir hol, qolaversa, bu fikr tarafdorlari hayotning o'zi tomonidan rad etildi va inson yaratgan mo'jizalar ichida san'at ham toabad u bilan hamqadam bo'lishi, busiz insonning inson atalishi qiyin bir hol ekani ham isbot etilibgina qolmay, bu eski haqiqat yangi bir to'sikdan o'tib mustahkamlandi — domlaga bular ham yaxshi ma'lum edi.

Ana shu odam yaqindan beri o'zgarib qoldi.

Buning sababi bir qarashda u qadar katta emas, lekin uni inson hayotida kichik deb ham bo'lmaydi.

Domla Kuhitan qishlog'i etagida, daryo bo'yida joylashgan so'lim bir qishloqdan edi, qishloq odamlari tabiatan xushsuhbat, shirinsuxan va azaldan she'riyatni, musiqani xush ko'rguvchi kishilar edi.

Domlaning o'zi ko'p yillardan buyon shaharda — markazda xotini va yagona qizi bilan kun kechirar, taniqli nashriyotda muharrirlik qilardi.

Goho hushi kelganda, qadimiy forsiy g'azallarni o'zbekchaga ag'darib qolar, shu ish munosabati bilan andak orom olar va doimiy hamrohi andishani ham unutar edi.

Lekin keyin... keyin, hamma bilgan, tanish-bilishiga otning qashqasidek ma'lum, vaqtida zo'r ilmiy asarlar yaratgan, biroq keyin «ilhomli so'ngan» domlaning o'zi bo'lib qolar edi.

Darvoqe, u ona qishlog'iga borganda ham, do'stlar davrasida o'tirganda ham, yoshligi-navqironligi kechgan bog'larda sayr ettanda ham va ilk muhabbatining guvohi bo'lmish qari yong'oq soyasida to'xtaganda ham, o'sha... oromli kayfiyatini his etar, bir nafas hamma narsani unutar, bu sirli huzurbaxsh on quchog'iga sho'ng'ir va shunda yashar edi.

Bu yil naq dekabr oyida domla Qo'ng'irotdan beri oltmish yoshga kirgani munosabati bilan kichkina ziyofat bo'ldi, ziyofatda avvaldan o'ziga ixlos qo'ygan tengdoshlari va uning o'shandagi asarlarini o'qib, hurmat bilan qarovchi shogirdlari ishtirok etdi.

Ular domlani tabriklab, umriga umr, ijodiga baraka tiladilar.

Domla juda mamnun bo'lib, o'zini baxtiyor his etdi va haqiqatan ham endi yana qadimgidek kuch-g'ayrat bilan yeng shimarib ishga tushadigandek Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy g'azallarini tahlil etib hamda bugungi yosh iste'dodlar she'riyatini saralab, bulardagi shakl va mazmun bilan ulardagi shakl ham mazmuni chog'ishtirish va mazmundagi umuminsoniylik bilan shakldagi zamonaviylikni topib, uni behad shirin til bi-lan sharhlab beradigandek tuyuldi.

Domla ko'chaga chikdi, tanish shahar manzaralarini ko'rdi, tanish kishilarni uchratdi, tanish munosabatlarni eshitdi.

Yana aynidi.

Biroq bu daqiqadan boshlab qalbida o'zining yashashidan qandaydir qanoatlanmaslik hissi tug'yon ura boshladi, qandaydir sirli-sehrli kuch ilk bor qalam olib, qog'oz ustida o'tirgan manziliga tortayotganini sezdi.

Bu sezgi so'nay-so'nay deganida, bahor yetib keldi, domla har gal yozda qishlog'iga borar edi. Bu gal bahorda qishlog'iga borgisi keldi, chunki bahor — odamdagi jonlanish, tiklanish domlaning qalbidagi sirli-sehrli intilish tuyg'ularini junbishga keltirdi.

Domlaning bir qadar barvaqt kelishidan tanish yurtdoshlari uni odatdagidan zo'rroq ehtirom bilan kutib oldilar. Odatdagi o'tirishlar, suhbatlar boshlandi. Domla o'ziga tanish qadamjolarga bordi. Sukut qildi.

Shaharda boshlangan bahor tog' etagidagi qishlokda endi yuz ocha boshlagan: dov-daraxtlar yalang'och, qishdan qolgan izg'irinda tunlari junjikishar, kunduzning iliq oftobida isinib ulgurolmas edilar.

Faqat qishloqning u yer-bu yerida tansiq bodomlar oppoq bulduruq bog'lagandek gullab turar, ularning ham shamol yo'lida turganlarini sovuq urib, oq gullarini sarg'aytirib qo'ygan, tomorqadagilari omon — ostida kechasi buruqsitilgan tezak tutuni ularni ayozdan asrar edi.

Hech mahal bahorda, yana bahorning ham xuddi hozirgi uyg'onish davrida kelmagan domlaga ushbu manzaralar, yangiliklar qattiq ta'sir qildi.

Bir kecha domlaning do'stridan biri ko'krak kissasini kavlayverdi, kavlayverdi va afsuslanib, bosh chayqadi:

— Esiz, tushib qopti, boychechak opkelgan edim bir dona, — dedi.

Domla Qo'ng'iro't boychechakning qandoq bo'lishini ham ancha yillardan beri unutib yuborgan edi, u kishi birdan hovliqib, xuddi yosh boladek quvonib:

— Qani? Hay-hay-hay!.. Qaerda ekan, qaerda ochilibdi? — deb so'roqlab ketdi.

Cho'ntagini kavlagan kishi hamsuhbatlarining taajjubiga qarshi, boychechak qishloqda emas, naq tog'ning kungay betida ochilgani, uni kecha ovga chiqqan o'g'li olib kelganini so'zladı.

— Boraylik, meni olib boringlar o'sha yerga! — turib oldi domla.

Davrada o'tirgan ijroqo'm raisi:

— Xo'p bo'ladi, ertaga olib boramiz! — deb so'z berdi.

Ertasi saharlab ijroqo'mning yap-yangi «Villis» mashinasida yo'lga chiqdilar.

Biroq, mashina tog' etagiga yetganda shofyor:

— Naryog'iga borolmaymiz, domla. Kun ko'tarilib ketsa, eruvgarchilik bo'ladi, qaytolmay qolamiz, — dedi.

Domla irg'ib mashinadan tushdi-da, paltosi yoqasini shaharchasiga ko'tarib olib, muzlab qatqaloq bo'p qolgan so'qmoqdan ildamlab ketdi.

— Borish kerak! — dedi ijroqo'm raisi.

— Bu juda qaysar, yo'lidan qaytmaydi, — dedi hamrohlaridan biri.

So'ng, boychechak ochilgan kungay betga yetishlariga hali anchagina masofa borligiga afsuslanib hamda kecha suhbatda boychechak to'g'risida gap ochgan sheriklaridan nolib, domla izidan tushdilar.

Domla shu topda qalbida g'ayritabiiy bir kuch sezib o'zini xuddi navqirondek his etar, qarilik — kam quvvatlikni ham unutkan, go'yo shu ketishda tog'lardan ham oshib ketgudek vajohatda edi.

Domla tog' unguriga yetganda qiyshiq yo'l bilan pastga yurdi.

Yo'lning so'l tomoni uncha chuqur bo'lmagan jarlik, jar tubida muzlarni yalab jildirab suv oqyapti — rangi sarg'ish, qaerda sariq tuproqqa ishqalanib kelyapti. Yo'lning o'ng tomoni nishab yonbag'ir, unda-bunda maysalar ko'kargan, lekin hali ulardagi nam ko'tarilmagan, sabzalar chiroyi ochilmagan.

Yana bir oz yurganlaridan keyin, domla bu yoqlarga bir emas, bir necha marta kelganini xotirladi va endi... nechun shuncha yillardan beri hech kelmaganini, axir bu yerlar ham o'zi uchun o'ta tabarruk qadamjolar ekanini o'ylab, qattiq o'ksindi.

— Shu manzil ilgari ham bormidi, taqsirlar? — dedi.

Hamrohlar kulishib, domlani gapga tutish payida bo'ldilar, bu orada ulardan biri belgilangan manzil shu yer ekani, shu yerlardan ham boychechak topish mumkinligini aytdi.

— Darhaqiqat... to'g'ri! — dedi domla.

Izlab ketdilar.

Domla gangib parishonhol, yo'l yoqasidagi g'adir-budur xarsangga suyanib o'tirdi. Unga qo'lini tekkizdi, muzdek. «Hali sovuq, shuyam muzlagan-a!» deb o'yladi. Keyin xarsangga xiralasha boshlagan ko'zlarini tikarkan, uning u-bu yerida miltirayotgan jajji tomchilarni ko'rdi, barmog'ini tekkizdi, qo'li ho'l bo'ldi.

Domla xo'rsinib, narigi betdaga qorayib ko'rinayotgan o'rkach-o'rkach tog'larga, ular ustidagi oppoq qorlarga qaray boshladi va bir damga o'zini unutdi, tez-tez yurib, pastga tushdi, suvdan hatlab, aylanma bilan tepaga ko'tarildi.

Kiftiga oftob tegdi, ko'zlari qisinqirab, qarshisida million-million yulduzchalar misol porlayotgan qorga tikildi.

Tunlari bu yerdan izg'irin-shamollar ko'p esgan, ular qor betini yalab, cho'tir qilib ketgan, ba'zi joylardagi qor surilib, qiyshayib qolgan, ba'zi joylarda u shu qadar yupqaki, xuddi doka pardaga o'xshaydi, tagidan muz

qotgan xas-xuslar ko‘rinib turadi.

Domla teparoqda ola po‘stin kiygandek ko‘rinib turgan archani ko‘rdi va g‘ayrishaariy bir quvonch bilan halloslab shu tomonga yo‘naldi.

Lekin unga yetishi ancha qiyin bo‘ldi: qor yupqa joylarda yurish oson, qor qalin joylardan botib qolgan oyoqni ko‘tarish malol kelardi.

Domla hansirab, kattakon bir mo‘‘jizani topgandek, archaga iljayib tikila boshladi. Qiziq: xuddi unda xayollarida azaldan o‘rnashib, endi xiralashib qolgan qandaydir ranglar, yo‘qolgan — o‘tmaslashgan tuyg‘ularini ko‘rayotgandek angrayib qoldi va asta-sekin atrofini aylana boshladi. Nihoyat, sovqotayotganini, oyoqlari karaxtlanganini sezib tursa-da, bu tansiq holatdan o‘zini opchiqish haqida asti o‘ylamay, sekingina archa tagiga kirdi, cho‘nqaydi va bekinmashoq o‘ynayotgan boladek, yelkalariga archa shoxlari tegdi, yerga o‘tirib oldi.

«Dunyoga kelganimga shukur. Tirikligimga shukur. Shu go‘zalliklarni ko‘rib turibman!» deb shivirladi u.

Ana shunda qalbida boshqa bir g‘alayon — bu tuyg‘ularni aytish, hayqirib aytish, yo‘q... yozish istagi jo‘sh urayotganini payqab qoldi.

Keyin... Domlanning bu tomonga ketayotganini ko‘rib izidan tushgan hamrohlari yetib kelishdi va uni shu alfozda ko‘rib, sog‘lig‘i haqida o‘ylab, yalina ketdilar:

— Ketdik, domlajon, ketdik!

— Axir, sovuqqa oldirasiz o‘zingizni!

— Biz kennoyimizga nima javob beramiz keyin? Ular yo‘lga qaytib tushdilar.

Domla, hali suyanib o‘tirgan xarsangga yetganda yana unga o‘tirgisi keldi.

— Boychechak topdilaringmi? — birdan so‘rab qoldi u. — Axir, boychechakka chiqqanmiz-ku, taqsirlar!

Hamrohlar afsus bildirishdi:

— Yo‘q, shekilli. Balki bitta ochilgandiru uni shu bola uzgandir.

Kulishib, domlani endi orqaga yurishga undadilar.

— Xo‘p, man bir oz damimni rostlay, — dedi u va tag‘in xarsangga o‘tirdi. Qo‘tir xarsang ustidagi qirov endi «erigan», uning hamma yeri nam edi.

Domla quyoshga qaradi-yu, xuddi uni birinchi marta ko‘rayotgandek bo‘ldi, bu oftob o‘ziga azaldan tanish, juda qadrdon oftob ekaniga iqror bo‘ldi.

Shunda birdan uning xayoliga guvillab, allaqachon hayot rad etgan tabiatga qarashlar — quyoshga ham oddiy bir sayyora deb qarash, olamda uning shu nurlari misol dahshatli zarralar kezib yurgani xususidagi vahimalar quyilib keldi.

«Yo‘q, bu toza oftob! Agar fazoda biron yomon narsa bor bo‘lsa, u yo‘qolishi kerak. Axir, insonlar buning uchun kurashishi kerak... Mana shu oppoq qorlar bor bo‘lsin, archalar, suv, xarsang.. Ko‘katlar!»

Domla bir daqiqa o‘zini anchadan beri hayotning go‘zalligi uchun kurashmayotgan kishidek, allaqanday ko‘zbo‘yamachi — jinoyatchidek his etdi va bir zamonlar yozib qo‘ygan risolalari, poetik taxlillari o‘z qimmatini hamon yo‘qotmaganiga, ularning vijdonan yozilganiga, ular insonlar yashashiga yordam berishi, insonlarning yana ham go‘zalroq yashashlari uchun kerakli ekanligini o‘ylab qoldi.

Bu his domlaga qattiq ta‘sir etib, uni mahzun qildi.

Ana shunda bu holatdan yana tabiatning o‘zi qutqardi: naq xarsang yonida qandaydir gulning ingichka, och pushti boshi chiqib turganini ko‘rib qoldi. Domla apil-tapil burilib, barmoqlari bilan uni siypay boshladi.

— Boychechak! Boychechak! — deb hayqirib yuborishdi hamrohlar.

Boychechakning ipdek tomiri chuqur edi.

Domla ishga berilib ketdi, barmoqlari sovqotdi, tirnoqlari qizarib zirqiray boshladi — u sezmaganday edi, oxiri gulni tortib, uzib oldi. Puflab, iskadi va o‘ta nozik, unutilayozgan bir hidni tuydi.

«Muncha qo‘pollashib ketmagan bo‘lsam!» deb o‘yladi u battar ta‘sirilanib va yana hiddadi. Endi domla yosh go‘dakning pokiza, o‘tkir sezgisi bilan hidni yaxshi payqadi, yana... yoshligiga qaytdi.

Shunday qilib, ular orqaga jildilar. Ijroqo‘m yo‘ldagi bir xonadonga ovqat buyurgan ekan, u uyga kirdilar.

Domla Qo‘ng‘irot shaharga qaytdi.

Uni ko‘rgan xotini ham, qizi ham chehrasidagi shodiyonalik, barq urib turgan ko‘tarinkilikdan hayron bo‘lishdi, bu holni uning do‘stlari va shogirdlari ham payqashdi.

Endi, tanish his — yozish hissi domlanning qalbida tamom o‘rnashib bo‘lgan edi.

Biroq domla stulga o‘tirishi bilan qiziq hol sodir bo‘ldi.

Xuddi yozajak maqolasini kimlargadir achchiq qilib yozadigandek, nimalarnidir inkor etadigandek tuyulayotganini sezdi va bu hol ham uni yozishga undadi.

U kutubxonasiga kirib, azaliy do‘stlari — zavol bilmas og‘aynilari — javonidagi kitoblariga tikildi.

Biz domla Qo‘ng‘irot bilan shu yerda xayrlashaylik, mayli, kimgadir achchiq qilib ham yozsin, lekin bizga ma‘lumki, «kimgadir» nomli shaxs — uning o‘zi, gumonlari.

O‘zini esa yaqin-orada yengadi.

1971

JARGA UCHGAN ODAM

Islom tugʻilgan uy eski, vassalari qorayib ketgan, bitta keng derazasi ellik qadam naridagi qishloqning daraxtlarga burkangan tomoniga ochilar edi. Uning ustida Boysuntogʻning musaffo osmoni osilib turar, uning orqa tomonida toʻlqinsimon sargʻish adirlar togʻ tarafga emgaklab ketgan, adirlar ortida esa chagʻir toshli qirlar va ular orqasida mol podalariga oʻxshab archazor qoplagan togʻ koʻrinar edi. Togʻning osmonga qadalgan oʻrkachlarida parquv bulutlar suzib yurar, ular togʻ bilan zangori osmonni bir-biriga qoʻshib turganga oʻxshar edi.

Islom ana shu uyda tugʻilib, shu manzaralarni ilk bor koʻrgan edi. U qishloq markazidagi maktabga qatnay boshladi. Darsdan boʻshashi hamono uyiga chopar, kelgach, oʻzini erkin, baxtiyor his etar edi.

Islom maktabni tugatgach, harbiyga joʻnadi. Baxtiga, u Belorussiyaning shimoli-sharqidagi oʻrmonlardan biridagi qismga tushdi. Togʻdan ayriliq azobi oʻrtab yurgan qalbiga belorus oʻrmonining mayin, yashil manzaralari taskinlik berdi.

Lekin u oʻsha oʻrmonda turib ham oʻz uyini, etakdagi qishlogʻiyu shimoldagi togʻlarini yanada sevib qolganligini tuydi, ularni juda-juda koʻrgisi keldi.

Islom kishlogʻiga keldi, uyiga kirdi, togʻlariga sayrga ham chiqdi. Ana shunda u endi bu yurtidan bir umr judolikda yashay olmasligini, jasaki ham albatta shu yerda dafn etilishi kerakligini chuqur his qildi.

Hayotning, yashashning talab va qonuni oʻzgacha.

Islom oʻrmonchilik fakultetiga kirish uchun Toshkentga yoʻl oldi. Qishloq xoʻjalik institutiga hujjatlarini topshirdi. Ammo konkursdan oʻtolmadi. Bu hol yana ikki yil takrorlangach, uning oʻqishdan koʻngli sovidi va qishlogʻiga qaytib kelib, yoshligida oʻzi saboq olgan maktabda badantarbiyadan dars bera boshladi.

U darsdan boʻshagan mahallarida tomga chiqib oʻtirar, poʻstak yozib chalqancha yotar, shunda charchogʻi tarqab, olam-olam zavq olar edi.

Uni kichkina qishlokda hamma tanir, u ham hamqishloqlarini bilar edi. Biroq u davralarga kam qoʻshilar, yolgʻizlikni, oʻz xayollari ishqi tushgan manzaralari bilan ulfat boʻlishni istardi.

Darvoqe, Islom shimoldagi togʻlar, oʻrmonlar, undagi hayvonotu parrandalar zotini ham yaxshi bilardi. U miltiq koʻtarib yursa-da, kamdan-kam oʻq boʻshatadigan bu gʻalati ovchini togʻ ham, sokin oʻrmonlar ham, yovvoyi hayvonlaru beozor parrandalar ham bilishar edi.

Zamonning zayli bilan qishloq rayonga aylandi, unda redaksiya ham tashkil topdi. Bir kuni Islomni oʻzi dars berayotgan maktabning sobiq direktori, peshanasi doimo terlab yuradigan Omon Fatullaev, yaʼni «Togʻlar sadosi» gazetasining muharriri chaqirib qoldi.

Islom hayrat va kiziqish bilan uning huzuriga bordi.

— Islomjon, — dedi u, koʻk baxmal sirilgan stolning qoshidagi stulni koʻrsatib. — Oʻtiring. Sizga bir iltimos bor edi.

— Marhamat. Rayon tashkil boʻlganda bir marta xursand boʻlgan boʻlsak, redaksiya tashkil boʻlganda ikki marta xursand boʻldik, — dedi Islom.

— Rahmat, Islomjon. Gap shundaki, oʻzingiz aytganingizdek, rayon ham, gazeta ham yangitdan tashkil boʻldi. Hali ikkalasi yosh, tajribasi kam... Maqsadimiz avvalo, rayonni tiklab, qaddini koʻtartirib olish. Soʻngra, gazeta ishlarini ham yaxshilash. Oʻzingizga maʼlum, gazeta, dohiy Lenin aytganidek, tashkilotchigina emas, tashviqotchi hamdir. U partiyamizning ideologiya quroli. Islomjon... xullas, maqsad shuki, biz rayonimizning koʻrkam-obod boʻlishiga, xalqimizning boy-badavlat yashashiga gazetamiz bilan yordam berishimiz kerak... Biz kecha muharrir muovini, boʻlim mudirlari bilan gaplashib, gazetamizni qanday chiqarish, qanday masalalarni koʻtarib chiqish xususida kelishib oldik. Siz gazetachilikdan bexabarsiz... Rubrika degan narsa boʻlarkan. U sarlavha degani. Umumiy sarlavha. Shu sarlavha ostida gazetaning har bir sonida bittadan maqola berilishi shart, boʻlmasa, gazetamizning obroʻyi tushadi... Bizda bir necha rubrikalar bor, ular bilan keyincha tanishasiz. Bular ichida «Tabiat va Odam» degan rubrika sizga tegishli.

Islom qiziq bir gap eshitgandek yengil tortib ketdi, muharrirning soʻzlarini jon qulogʻi bilan eshitdi.

— Ana shu rubrikani boshqarib, uni materiallar bilan taʼminlab turadigan bir xodim kerak bizga. Bu rubrikani joriy etmasak boʻlard. Lekin oʻzingizga maʼlum, rayonimiz togʻli, oʻrmonli, bogʻli... Bu bir. Ikkinchidan, hozirgi davrda tabiatni qoʻriqlash... uni asrash eng muhim masalalardan biri boʻlib qolgan. Bu hol biz togʻliklarga ayniqsa katta masʼuliyat yuklaydi.

— Yaxshi... Rahmat, — deb pichirladi hayajonlanib ketgan Islom.

— Bilasiz, raykomimiz sekretari olim odam. Sirasini aytganda, bu rubrikaning joriy etilishi u kishining tavsiyalari bilan bo‘ldi. Lekin uni boshqara oladigan, tabiatimizni behad sevguvchi bir kishi kerak, uni topinglar o‘zlaring, deb maslahat berdilar. Biz Islomjon... o‘ylab-o‘ylab shu ishga sizni jalb etmoqchi bo‘ldik. Nima deysiz shunga?

Gazeta chiqarish nima, rubrikani maqola bilan ta‘minlash nima, uni uyushtirish va boshqarish nima — bu narsalar haqida zarracha tasavvurga ega bo‘lmagan Islom...

— Domla, men tabiatni sevaman, uning shaydosiman, — dedi. — Lekin... bu ish menga qalay bo‘larkin? Men avvalo, bu sohalarni tushunmayman. Keyin... o‘n sinf ma‘lumotim bor. Hozirgi davrda bu g‘irt savodsizlik.

— Islomjon, biz sizga yordam beramiz, ishni o‘rganib ketasiz. Hamma gazetchilar ham ishni ona qornidan o‘rganib tushmagan. Ikkinchidan, biron yil o‘tsin, biz sizni jurnalistlik o‘qishiga yuboramiz. Sirtidan o‘qiysiz. Unga kirish uchun kishi avvalo redaksiyada ishlagan bo‘lishi kerak. Agar maqolalaringiz bosilmagan bo‘lsa, bosilgan maqolalaringizdan nusxa olib bormasangiz, hujjatlaringizni qabul qilishmaydi... Hammasidan muhimi, siz tabiatni sevasiz. Bordiyu... shunday bo‘lishiga qaramasdan bari bir, bu ish sizga to‘g‘ri kelmasa, unda maktabingizga qaytib ketaverasiz. Xo‘pmi?

Islom «xo‘p», deb chiqib ketdi. Uyga borib, gapni xotiniga aytdi.

— Shunday qiling, — dedi xotini. — Maktabni boshingizga urasizmi? O‘qishga ham yuboramiz, deyishibdi. Qachongacha tomga chiqib o‘tirasiz, tog‘- Toshda darbadar kezasiz... Ro‘zg‘orimizga ham yaxshi bo‘lar edi.

Bir oy o‘tdi.

Islom ishga chunonam berilib ketdiki, gazeta nimayu uni chiqarish nima, rubrika nimayu unga material uyushtirish nima — bular haqida birovga maslahat bergulik darajaga yetdi.

Asta-sekin uning maqolalari ham bosila boshladi. Oldiniga hamqishloqlari unga qiziqsirab qarashdi: «Ie, yozuvchilik muborak bo‘lsin», deganlari ham bo‘ldi. Keyinchalik unga ko‘nikdilar va Islomdek tabiatni xush ko‘ruvchi, uning ishqibozi bo‘lgan kishi shu ishni qilishi lozim-da, degandek fikr yuritadigan bo‘lib qoldilar.

Islom tabiatning turli-tuman mavzularida maqolalar yozar edi, bir tup archaning yonbag‘irda turishi, quyoning bolalashi haqidami, burgutning kaklik ovlashi haqidami yoki tog‘ ayiqlarining xulq-atvori haqidami, xullas, har xil mavzularda yozar edi.

Oradan bir yil o‘gib, uning nomi qishloqqagina emas, hatto oblastta ham besh barmoqdek ma‘lum bo‘lib qoldi.

Uning «Tog‘lar sadosi»da bosilgan tabiat lavhalarini oblast gazetasi ham ko‘chirib bosar, undan bu maqolalar o‘zga rayonlarga ham tarqalib ketar edi.

Islom bir holga amin bo‘ldi:

Tog‘ni, o‘rmonlarni, hayvonotu parrandalarni — umuman, Boysuntog‘ bag‘ridagi tabiat boyliklarini faqat o‘zigina emas, hamma, hamma odamlar ham sevar ekan...

U o‘zidan mamnun bo‘lib ketdi va asta-sekin o‘zini atrofdagi tabiatning ilk oshig‘i, uning jonkuyar himoyachisi, uning ilk targ‘ibotchisidek his qila boshladi.

Bu hol uni tabiatga yana ham ko‘proq bog‘lab qo‘ydi.

Kunlarning birida rayon partiya komitetining tashviqot-targ‘ibot bo‘limidan Islomni chaqirib qolishdi.

Bo‘lim mudirasi o‘rtoq Sotiboldievaning yonida qirraburun, sochiga oq oralagan, o‘ttiz besh yoshlar chamasidagi bir yigit oyoqlarini bir-biriga chalishti-rib, chiroyli qizil paypog‘ini ko‘rsatib o‘tirar edi.

Islom xonaga salom berib kirdi.

— Tanishing, bu kishi shahardan. Kinorejissor. Bizning Boysuntog‘ tabiati haqida film yaratmoqchi ekanlar. Shuning uchun kelibdilar, — dedi mudira.

— Xush kelibsiz, — dedi Islom u bilan ko‘rishib.

— Islom deganingiz shu kishi bo‘ladilarmi? — stolda turgan qo‘li bilan ko‘rsatdi uni rejissor.

— Ha, shu kishi, o‘rtoq Ismoil Yusupovich!

— Marhamat, o‘tiring, — dedi Ismoil Yusupovich qarshisidagi stulga ishora qilib.

— Tashakkur.

— Siz men bilan ikki kun birga bo‘lasiz. O‘rtoq Sotiboldieva redaksiyadan sizga javob olib beradilar. Shundaymi?

— Shunday, — tasdiqladi mudira.

— Siz meni tog‘dagi, imkoni bo‘lsa, hamma qiziq-g‘aroyib narsalarni ko‘rsatasiz. O‘zi nimalar bor tog‘-da?

— Tog‘da hamma narsa bor, — dedi Islom jilmayib.

— Qanday hayvonlar, qanday qushlar bor?

— Gazetchilikda sir saqlash degan gap bor... Yaxshisi, toqqa chiqqanda ko‘rasiz. Ko‘rsataman.

— Kelishdik. Rahmat. Qachon chiqamiz?

— Buguncha rayonimizni aylaning, o‘rtoq Ismoil Yusupovich, — gapga qo‘shildi mudira. — Xohlasangiz, o‘zim aylantiraman. Qurilishlarimiz ko‘p, yangiliklar ko‘p. Balki bular ham sizga kerak bo‘lib qolar. Kechqurun, dachamizda dam oling. Ertalabdan sayohatni boshlaysiz. Ismoiljon, sayohatni qay tarzda olib borish mumkin?

— Shu... biznikiga boramiz. Eshak bor, tongda minib, toqqa chiqib ketamiz.

Sotiboldievaning rangi o‘zgardi.

— Yo‘q-yo‘q, unday demang, ayb bo‘ladi. Mashina bor. Mashina borgan joygacha borasizlar. Keyin, odamlarga aytib qo‘yaman, ular sizlarga ot berishadi... Xo‘pmi?

— Yaxshi taklif! — dedi rejissyor.

— Mayli, — dedi Islom. — Lekin ot chiqolmaydigan joylardan ham yurishga to‘g‘ri keladi-da, o‘rtoq Ismoil Yusupovich.

— Boraveramiz, chiqaveramiz.

Kelishdilar.

Kechasi soat o‘n ikkidan oshganda, Islom Ismoil Yusupovichni raykomning qishloq janubida joylashgan bog‘idan uyiga olib keldi.

— O! Juda sodla yasharkansiz-u? — dedi shirakayf rejissyor Islomning uyini ko‘rib.

— Lekin o‘zimga yoqadi, o‘rtoq Ismoil Yusupovich.

— O‘zingizga yoqadi, buni bilaman. Shuning uchun yashayapsiz-da. Lekin buning boshqa birovlariga ham yoqishini o‘ylab ko‘rishingiz kerak.

— Mening uyimga mehmon kam keladi. Redaksiyaga o‘tganimdan keyin ham... Men ham birovlarining uyiga kam boraman.

— Da-a, qiziq!

Islomning xotini eri bilan mehmonga tomga joy solib berdi.

Soat to‘rtlarga yaqin uy etagiga kelib to‘xtagan raykomsomolning «gazik»i signal berdi. Islom bilan mehmon pastga tushib, tamaddi qildilar. Villisiga o‘tirib, toqqa jo‘nadilar.

Ular ikki kun tog‘da aylanishdi. Islom Ismoil Yusupovichga uchragan har bir giyoh haqida gapirdi, har bir qushga ta‘rif berdi, uning xulqi haqida so‘zladi. Lekin rejissyorni ko‘pincha bunaqangi ikir-chikirlar emas, g‘ayritabiiy manzaralar va hayvonlar qiziqtirar, ularni qanday qilib suratga tushirish haqida bosh qotirar edi...

Ammo Ismoil Yusupovichning tog‘ni yaxshi ko‘rishi, tabiatdan zavqlanishiga ham shubha qilib bo‘lmas edi.

U goho yugurgilab baland qoya ustiga chiqib ketar, olmurutlarga tosh otib qolar, kaklikning sayrashiga quloq berar edi.

Shunday paytlarda Islom hayajonga tushar, tabiat bu mehmonga zavq bag‘ishlaganidan faxrlanib, unga mehr qo‘yganidan ichida shodlanar edi.

Ular cho‘qqilarga chiqib hilollarning sayrashini ham kuzatishdi, tulkilar ini og‘zida olov yoqib, ularni qochirishdi, bo‘ri inlari og‘zida papiros chekishdi, qoya o‘rkachidagi burgut bolalariga do‘ppilari pastga tushgudek bo‘lib qarashdi.

— Men o‘n besh kundan keyin operatorim bilan kelaman, — dedi Ismoil Yusupovich, ular qishloqqa qaytishar ekan.

Mashina tog‘ oraliqlaridan chiqib, Yetim cho‘qqi ostidan o‘tayotganda Islom mehmonni yana bir xursand qilgisi keldi:

— Mashinadan tushamiz! — dedi, so‘ng shofyorga: — Siz bir oz o‘tirib turing, biz cho‘qqiga chiqib kelamiz, — deb uqtirdi.

Ular cho‘qqining yarmisiga yetganda, Islom terga botgan rejissyorga sirni aytdi.

— Ayiqni ko‘rsataman, bolalari bor.

— Shuni ilgariroq aytmaysizmi? — hovliqib ketdi Ismoil Yusupovich. — Tirik ayiqmi?

— Tirik.

— Odamga tegmaydimi? To‘xtang...

— Tegmaydi. Odam tegmasa, tegmaydi jonivorlar. Ularni o‘zlariga dushman qilib qo‘ygan odamlarning o‘zi, mehmon.

— Har holda... Miltiqni olvolish kerak edi-da.

— Ko‘rsa, polvonning achchig‘i chiqadi.

Bir necha qadam bosishgach, rejissyor taqqa to‘xtab, buyruq qilayotgandek dedi:

— Iltimos sizdan, miltiqni olib keling pastdan.

Siz shu yerning odamisiz, o‘rgangansiz, o‘zingizni himoya qila bilasiz. Men shaharlikman, birodar!

— Xo‘p, lekin miltiqni unga ko‘rsatmaymiz-da.

— Yaxshi. Miltiq yonimizda bo‘lsa, quvvat bo‘ladi har holda. Hayvon quturgan bo‘lishi ham mumkin...

Islom sakrab-sakrab pastga tushib ketdi, miltiqni olib chopib keldi.

Rejissyor uni maqtadi.

— Haqiqiy tog‘ yigiti ekansiz! Sizni bekorga maqtashmagan ekan.

Ular cho‘qqiga chiqib bordilar. Cho‘qqining usti keng maydon, bu yerda olma, olmurut va pistalar changal bo‘lib o‘sib yotar edi. Oyoq ostida kech bahorning qalam-qosh gullari.

Islom mallarang ulkan qoya yaqiniga borib:

— Shu yerda, mana, izlari ichkariga ketgan. Chiqadi, kutamiz! — dedi va mehmonni ergashtirib, iziga qaytdi. Ular cho‘qqining labiga yetib, qoya toshlar orasiga kirib o‘tirishdi.

Bu joyni Yetim cho‘qqi deganlaricha bor. Uning atrofini chuqur daralar o‘rab turadi, cho‘qqi bamisoli atrofi suv bilan o‘ralgan qadimgi qasrni eslatadi. Faqat, bu «qasr»ning usti o‘rmon.

Quyosh ufqqa yonboshladi, daraxtlarning soyasi kunchiqarga qarab cho‘zildi. Olisdagi, pastlikdagi qorong‘i tusha boshlagan qishlokda chiroqlar yondi.

— Hozir chiqadi, olma yeydi.

— Mana shu yer surat olishga qulay ekan, birodar.

Nihoyat, g‘ordan mo‘ralab sariq, baroq junli maxluq chikdi. U yoq-bu yoqni iskadi-da, «ma-a» deb bo‘kirdi.

So‘ng ichkariga kirib ketdi.

— Hidimizni oldi shekilli, — dedi Islom va yana ham chetroqqa borib shamol yo‘lida o‘tirishni maslahat berdi.

Yarim soatlardan keyin yana ona ayiq g‘ordan chikdi, yana is oldi va dam osmonga, dam qizarayotgan ufqqa qaradi. So‘ng uning orqasidan bir juft choynakdek-choynakdek ayiqchalar ergashib chikdi va onasining jun to‘sib turgan qorniga intila boshladi. Ona ularga parvo qilmay, rezgi olma daraxti tagiga keldi. Dik etib, orqa oyoqlarida turib oldi va daraxtning yosh tanasiga tirnoqlarini botirib, g‘ayritabiiy silkidi, bir qancha jajji-jajji «paxtaseb» olmalar «duv» yergato‘kildi. Ayiqchalar chopqillab, ularni terib yeya boshladi.

Ona o‘rtada turib oldi-da, cho‘nqaydi va yana xavotir-la atrofga razm sola boshladi.

Shunda Islom rejissyorning miltiqqa qo‘l cho‘zayotganini ko‘rdi.

— Nima qilmoqchisiz?! — dedi.

— Juda yaxshi turibdi-da, hozir...

— Ha, jonivor miltiqning hidini sezgan, xavotiri bor ko‘nglida, — dedi Islom.

— Bundan boshqa joylardayam ayiq ko‘pmi?

— Bor.

— Menga bering miltiqni.

— Otsangiz xafa qilaman, mehmon.

— E, qiziqmisiz! Bitta ayiq nima bo‘pti? Yirtqich hayvon.

— Sizga zarari tegmayapti. Qaytanga biz uni bezovta qilyapmiz...

— Menga qarang, shuni siz otib bering menga. Terisi... juda kerak edi. Xotinim juda tayinlagan edi. Axir, bu sovg‘a-da! Men sizni maqtab yuraman, buni bir zo‘r ovchi yigit otib berdi deyman. A?

— Birinchidan, hozir hayvonlarni otish mumkin emas. Ikkinchidan, qarang, uning ikkita bolasi bor, ularni yetim qilib nima qilasiz. Ochdan o‘lib ketishadi.

— Ochdan o‘lmaydi, tutib, zooparkka topshirish mumkin, ularga kerak.

— Mehmon, siz meni bilmaysiz... Mening onam ham, otam ham, do‘stim ham ana shu tabiat. Meni tog‘ shaydosi deyishadi. Bu xayolni boshingizdan chiqaring. Vaqti-soati kelganda, o‘zim bironta qarisini otib beraman... yuboraman sizga.

— Menga qarang, bu sizning shaxsiy molingiz emas-ku, davlatniki!

— Davlatniki bo‘lsa yanayam yaxshi. Siz aqlli, o‘qigan odamsiz...

— Ketamizmi?

— Ktdik.

— Turmang o‘rningizdan. Sekin tushib ketamiz. Bilib qolsa, tosh otishi mumkin.

— Tegmaydi odamga dedingiz-ku, o‘zingiz?

— Biz miltiq opchikdik, miltiq — uning dushmani... Jonivor niyatingizni tushunganida, sizni dabdala qilib tashlar edi.

— Uf... Men bu yerdan tusholmayman, tosh dumalaydi bari bir!

— Bo‘lmasa, u ketguncha o‘tiramiz.

— E, meni qamab qo‘ymaydimi hukumat?!

Ismoil Yusupovich miltiqni shartta tortib oldi-da, ayiqni mo‘ljalga oldi, Islom unga qo‘l cho‘zgan edi, o‘q ovozi yangrab ketdi. Islom titrab-qaqshab boshini egdi va o‘q ayiqqa tegmasa go‘rgaydi, deb kutdi. Ona ayiq birdan bo‘kirib yubordi va o‘q chiqqan tomonga otildi. Ammo o‘mbaloq oshib tushdi, o‘rnidan yana turdi-yu, qaddini ko‘tara olmay, o‘rmlab kela boshladi.

Ayiqchalar qochib g‘or og‘ziga kirib ketishgan edi, o‘rmlab borayotgan onalarining to‘xtab qolganini ko‘rdilar-da, atrofga qo‘rqa-pisa qarab, chopqillab keldilar.

Miltiqni yerga tirab cho‘nqaygancha ayiqni kuzatib, qaltirab o‘tirgan Ismoil Yusupovich Islomga qiya qarab:

— O‘ldimi? — deb so‘radi.

Islom xuddi onasi o‘lganu nafasi ichiga tushib ketgandek baqrayib qolgan edi.

— O‘ldi shekilli qimirlamay qoldi, — dedi rejissyor va yana Islomga qaradi, so‘ng qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi, yana o‘tirdi-da, qizishib dedi: — Buncha xafa bo‘lasiz? Bo‘lgan ish bo‘ldi-da... Men hech ovchilik qilmaganman. Islom, menga qarang... Men sizni xursand qilaman. Oladigan filmimning bosh qahramoni o‘zingiz-ku, axir? E, qo‘ying-ey.

Ismoil Yusupovich ayiqdan besh qadamcha berida to‘xtab, unga tikildi. O‘q uning manglayini yorib ketgan edi. Islom botayotgan quyosh shu‘lasi bir yelkasini qizartirgan holda, sekin yurib, ayiq boshiga keldi.

Ayiqchalar odamlardan hayiqishmadi, ular tamshanib, o‘lik onalarining sut to‘la emchagini cho‘zib-cho‘zib emishar edi.

— Nima qilib qo‘ydingiz? — dedi Islom rejissyorga.

— Qiziqmisiz? O‘ldi... Bolalarini ham opketamiz.

Islom gangib atrofga qaradi. O‘rmonlar, tog‘lar, osmonu yerga — tabiatga ko‘zi chizilib o‘tdi. Shunda birdan qulog‘i shang‘illab ketdi. Nazarida, bola qalbiga allaqachonlar kirib, uni o‘z asiriga aylantirib qo‘ygan tabiat uvvos tortib faryod ko‘tarayotgandek tuyuldi.

Islom o‘zini shu tabiatning yagona qo‘riqchisi, sodiq do‘sti, vafodori deb hisoblar edi.

Agar unga qilingan bu jabr uchun dushmandan qasos olmasa, o‘zini xiyonatchi, xoin, sotqin bo‘lib qoladigandek his etdi. Va... Ismoil Yusupovichning qo‘lidan miltiqni tortib oldi-da, qulochkashlab uning bo‘yniga tushirdi. Rejissyor ovoz chiqarmay kesilgan shox kabi uchib ketdi, apil-tapil o‘rnidan turdi-yu, yana yiqildi, uning gavdasi jardan quyiga uchdi.

1971

ZOV OSTIDA ADASHUV

(Do‘stimning o‘g‘liga aytganlari)

O‘shanda yetti yoshlarda edim. Tog‘da yashardik. Otam cho‘pon, onam sut sog‘uvchi. Bitta singlim ham bor. O‘tovimiz Zovboshidan besh-olti chaqirim naridagi kungay betda edi. Biz bu yerga yozning boshlarida chiqib kelardik: ko‘chlarimiz aravaga ortilgan, onam, singlim va men yuklar ustida o‘tirardik. Otamiz aravaga qo‘shilgan otni yetaklab borardi. U aravani bizda ot arava deydilar, keyin bilsam, boshqa nomi — qo‘qon arava ekan... Shunday qilib, ko‘ngay betda kuzning boshigacha yashardik. Otamning cho‘pon-cho‘liqlari ham bor edi, otam shular bilan ikki suruv qo‘yni boqishar, onam qo‘ylarni sog‘ib, sutini separatoridan o‘gkazar, qatiq qilar, men bo‘lsam, qo‘zichoqlarning ketidan chopqillab yurib, onasiga emdirish payti kelganda ko‘maklashar, keyin ularni ikki qoziqqa uchlaridan bog‘langan ipdagi halqalarga boshini solib, ya‘ni ko‘ganlab yurardim. Otam ham, onam ham menga ko‘z-quloq bo‘lishar, ayniqsa Zovboshi tomonga boraman desam, aslo yo‘l qo‘yishmas edi. Chunki Zovboshi xavfli joy, har xil yovvoyi hayvonlari bor, changalzorlari mo‘l. Men buni uyimizdagi gaplardan ko‘p eshitgan edim. Goho bironta echkinning ortidan bir-ikkita qo‘y ergashib zovostiga tushib ketgan bo‘lsa, cho‘liqlar uni izlamayoq qo‘l siltab qo‘yishar edi. Chunki u yerda bo‘rilar ham ko‘p bo‘lar emish. Bir kuni otam: «Zov ostiga ikki polvon tushib ketdi», deganini ham eshitganman. Polvon degani ayiq degani. Bitta cho‘pon: «Arg‘amchiyam bor ekan, ko‘p chirilladi», degandi. Arg‘amchi — ilon degani. Nima uchundir tog‘da ko‘p hayvonlarni, jonivorlarni o‘z nomlari bilan atashmaydi. Masalan, bo‘rini ham jondor deyishadi. Xullas, Zovboshiga borishimni taqiqlab qo‘yishgandi uydagilar. Odam degani qiziq bo‘larkan: nimani taqiqlashsa, shuni ko‘rging kelar ekan. Men ham Zovboshini ko‘rgim kelar, lekin odobli bola bo‘lganimdan, ota-onamning gapidan chiqmas edim. Buning ustiga, otam — orden olgan cho‘pon. Shunday odamning o‘g‘li beboshlik qilsa yaxshimas-da!

Lekin kuz kunlarining birida o‘z ixtiyorim bilan emas, sharoitning taqozosi bilan, beihtiyor, Zovostiga kirib qoldim. Naq bir kecha-kunduz u yerda adashib yurdim. Shuni sizga hikoya qilib bermoqchiman.

Kuz kirib, tog‘ cho‘qqilarini qor bosdi. Uyoqdan esgan sovuq shamol o‘tovimiz chang‘arog‘idagi kigizni hilpiratar, shunda o‘tov zir-zir titrar, shamol keragalar orasidan ichkariga kirsam, uy o‘rtasida yashnab turgan cho‘g‘imizni ham yalab o‘chirib ketardi. O‘tovni ko‘rgan bo‘lsangiz, u shunday bo‘ladi: tepasi ochiq, tuynuk misoli. Shu tuynukka chang‘aroq o‘rnatilgan. Chang‘aroq degani — gumbaz shaklida qilib xodalardan yasalgan panjara. Shu panjaraning ustini bir parcha kigiz yopib turadi. U kigizning bir uchiga chilvir bog‘langan bo‘lib, chilvirning ikkinchi uchi eshikning biron yeriga o‘rab qo‘yiladi. Havo ochiq kunlari va uy o‘rtasidagi o‘choqqa o‘t yoqilganda, ana o‘sha ipning yordamida tuynuk ochiladi. O‘tovni ko‘tarib turgan qiyshiq, yovvoyi tol shoxlarini uvuq deyishadi. Shu uvuqlar keragaga mahkamlangan bo‘ladi. Keraga degani — bir-bir yarim metr balanddikdagi shaxmatnuxsa qilib yasalgan o‘tovning poydevoridir. Keragalarning uchlari bir-biriga yaqinlashgan joy — eshik. Bu ma‘lumotlarni aytishimga sabab shuki, ko‘p shaharliklar bularni bilishmaydi. Axir, bilgani yaxshi-da.

Qisqasini aytganda, tog‘dan bizga qishning yaqinlashganidan xabar beruvchi shamol esa boshladi. Bir kechasi sevalab yomg‘ir yog‘ib o‘tdi. Ertalab otamiz:

— Kampir, uyni buz, ko‘chamiz cho‘lga! — dedilar onamga.

Shuni ham aytishim kerakki, o‘tovni tiklash va buzish faqat ayollarga tan, qadim-qadim zamonlardan shunday. Ular bu ishning piri bo‘lib kelgan, juda o‘rinlatishadi.

Lekin shoshilish kerak edi, cho‘pon-cho‘liqlar ham yordamga keldi, men ham qarab turmadim. Birpasda o‘tovni o‘ragan kigizlarni tushirdik, uyning yog‘ochdan tiklangan tanasi qaqqayib qoldi. Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayirib ola boshladik. Tushga qolmay, yukimiz ot aravaga ortildi. Bir piyoladan choy, bir kosadan qatiq ichdik-da, yo‘lga tushdik. Cho‘pon-cho‘liqlar mollarni oldin haydashdi. Biz orqada — har galgiday bu gal ham men, singlim, onam yuklar ustida o‘tiribmiz. Otam piyoda, otning yugani uchiga bog‘langan tizimchadan ushlab ketyapti. Tekis joylar kelganda, otga minib ham oladilar.

Xayr, tog‘! Xayr, yurtimiz. O‘rmonlar, xayr! Qo‘zi boqib, irg‘ishlab yurgan o‘tloqlarim, xayr! Yanagi yozgacha xayr sizlarga!

Nima uchun cho‘lga ketyapmiz? Shuning uchunki, cho‘lda hozir havo iliq, qishning yarmigacha ham o‘t bo‘ladi. Bu paytga kelib, tog‘ni qalin qor qoplab oladi. Cho‘lda ham yurtimiz bor. Yurtimizga yaqin yerda sovxozning atrofi chipta devor bilan o‘rab qo‘yilgan qo‘tonlari ko‘p.

Quyosh chiqib turgan bo‘lsa ham, nuri ojiz edi. Yelkamizni isitmas, lekin yoqimli edi. O‘rmon ichidan

ketgan yo'lda boryapmiz. Bu — aralash o'rmon, ya'ni turli-tuman mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon. Archa ham serob. Qarang, haqiqatan ham kuz tushib qolgan. O'riklarning yaprog'i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir satil qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko'zga shunday jozibali ko'rinadiki, uzib-uzib, g'arch-g'urch tishlagining keladi. Onda-sonda, goh o'ng, goh so'l tomonimizdan kaklik sayrab qoladi. Unga qo'shib yonimdagi qafasda turgan kakligimiz ham sayraydi. Men quvonaman, kaklikka taqlid qilgim keladi. Hakkalar ko'p, ular daraxtlarning chakalak shoxlari orasida tipirchilab, yaproqlarni uchirib yurishadi. Xuddi bizni izma-iz ta'qib etib borayotganday, goho shoshib chiqib, g'oq-g'oq deganicha uchadi. Tog'da yashaganingdan keyin tabiatning ko'p sirlarini bilib olarkansan... Hoziroq sizga aytib qo'yay, agar u sirlardan bexabar bo'lganimda, kim biladi, Zovostidan qaytib chiqolmay, anavi yo'qolgan qo'ylarning ahvoliga tusharmidim! Masalan, hakkani bizda ayg'oqchi qush deyilar. U boshqa jondorlarni xavf kelayotganidan xabardor qilib turadi. Lekin, biz xavfli dushman emasmiz, shunday bo'lsa ham, u ovozini baland qo'yib uchgani-uchgan. Nima ham deysiz? Qush. U bizning ko'nglimizni qaerdan bilsin? Kakliklarga qiron keltiruvchi ovchilar deb o'ylayapti-da. Mayli, o'ylayversin, uning ishi.

Bu o'rmondan chiqib, jar yoqalab keta boshladik. Oyog'imiz ostida darz ketgan mallarang tovalar. Arava taqir-tuqur qiladi. Yo'lda donlab yurgan malla to'rg'aylar childirab uchadi. O'ng tomonimizda o'rmon cho'zilgan. Chap tomonimiz... chap tomonimiz bir-ikki terak bo'yi pastlik. Uyoqqa qaramaslikka harakat qilaman. Qarasam, boshim aylanib, dumalab ketadiganday bo'laman. Lekin bari bir ko'z qirimni tashladim. Shunda pastlikdagi yengil tuman bosib yotgan o'rmonlarni ko'rdim, o'rmonlar adog'i juda uzokda, uyoqdagi tog' etagiga tutashgan, tog' esa quyidagi jarlikni otning taqasidek o'rab olgan. Shunda birdan Zovboshida ketayotganimizni payqadam. Zovboshi... bu so'z ham tog'liklarga xos so'zdir. Zov degani — xuddi biz yurib borayotgan yo'l bo'lsa kerak. Zovosti-chi? Anavi ko'z zo'rg'a ilg'aydigan pastlik, undagi changalzorlar bo'lsa kerak.

— Ota, ota! Zovboshi shumi? — deb baqirdim.

Onam nimagadir mening tizzamga turtib qo'ydi.

Singlim ham:

— Qani? Shumi? Viy, muncha chuqur! — dedi.

Otam juda gavdali, og'ir, kamgap odam. Egnida chakmon, oyog'ida kirza etik. Chakmonning ustidan ikkita belbog' bog'lab olgan. Boshida telpak. Yozda ham, qishda ham telpakni yechmaydilar, issiq kiyinib yuradilar...

Otam gapimni eshitdi: yelkasi osha bir qaradi-da:

— Ha! — deb to'ng'illab qo'ydi, so'ng otni Zovdan chetlatib hayday boshladi.

Yo'l nishob edi. Tushib ketyapmiz. Goho otning tuyog'i silliq toshda sirg'alib ketadi. Otam to'ng'illab, uni to'g'ri yo'lga soladi. Onam bir qo'li bilan singlimning, bir qo'li bilan mening bilagimdan mahkam ushlab olgan.

Zovboshi... biz pastga tushganimiz sari zov ham pasaya boshladi.

* * *

Etakka tushib, yana yalpi archazor oralab ketdik. Bu yerlar juda ham nam ekan. Chamamda, Zovboshida yoqqan yomg'ir suvi shu qadar tiniq, uning xushbo'y hidi shu qadar anqiydiki, entikib ketasan kishi! Yo'q, men bunaqangi kuzni ilgari ko'rmaganman. Ko'rgan bo'lsam ham, qadriga yetmaganman, chunki yosh bo'lganmandam. Hozir maktab yoshidagi bolaman. Demak, esliman! Bu o'rmonning ham etak tarafini tuman qoplab olgan ekan. Qaerdan paydo bo'lgan bu tuman? Bilmayman. Balki Zovostidan oqib kelgandir. Tumanga kirdik, buning ham o'z gashti bo'lar ekan. Xuddi tushdagi, ertakdagi bir makonga kirib borayotgandek sezasan o'zingni. Oqish tuman yelkalarini, boshingni silab o'tadi. Hayratlanasan. Yana nimagadir qo'rqasan.

— O'ranib o'tiringlar, nam tortasiz, — dedi otam.

Bu gap ham men uchun yangilik bo'ldi, demak, tumanda kishi nam tortar ekan. Choponimga o'ranib, qalpog'imni bostirib oldim. Onam singlimni bag'riga tortdi. Juda baland archalar orasidan chiqib, rezgi archalar orasidan yurayotganimizda, bir ariqqa duch keldik. Bu ariq ham emas, suv urib ketgan arna edi. Otam otni uyoqqa haydadi, buyoqqa haydadi. Yo'l yo'q. Arnasi tushmagur yo'limizni naq ko'ndalang kesib o'tgan. Oxiri arna qirg'oqlari pasaygan joyni topdilar-da, otni shitob bilan haydadilar. Ot tipirchilab pastga tushdi va uning oldingi oyoqlari tizzasigacha loyga botib ketganini ko'rdim. Otam, chamamda, otni tislantirmoqchi bo'lib, yuganni silkitdilar. Lekin ot buni tushunmadimi, olg'a sakradi. Yana sakradi va narigi betga chiqib oldi-yu,

aravani odam bo‘yi g‘ildiraklari loyga botib qoldi. Ot jonivor kuchanib olg‘a intiladi. Arava silkinadi. G‘ildirak jilgan bo‘ladi-yu, yana chuqurroq botadi. Otam egarga chiqib, u betga sakrab o‘tib oldilar. Keyin yuganni tortib:

— Hay! Cho‘, cho‘! — deb hayqira boshladilar.

Qani arava jilsa! Ot zo‘riqib intiladi, uning ko‘kragidan o‘tqazilib, arava biqinlariga bog‘langan ayili uzilgudek bo‘ladi. Oxiri otam g‘azab bilan loyga tushdilar. Aravaning bir g‘ildiragiga yelkalarini tirab, otga madad berib, yana:

— Cho‘! Cho‘, jonivor! Ha! — deya boshladilar.

Oxiri bundan ham natija chiqmasligi ma‘lum bo‘ldi. Onam:

— Qo‘ying, otasi. O‘zingizni ko‘p urintirmang! Biz tushaylik, arava yengil bo‘ladi, — dedilar.

Onam bir amallab tushib oldilar. Keyin otam men bilan singlimni ko‘tarib, sohilga opchiqib qo‘ydilar. Aravaga bir balo bo‘lganmi? Shundan keyin ham chiqmasa bo‘ladimi!

— Yuklarniyam tushiraylik! — dedilar onam.

— E, tushirib o‘tiramizmi, — dedi otam. — Men picha shox-shabba kesib kelay, g‘ildirak ostiga tashlasak, shoyad chiqib ketsa!

Shunday deb otam aravadan belkurak bilan boltani sug‘urib oldilar. Belkurakni yerga sanchib qo‘yib, boltani ko‘targancha o‘rmonga kirib ketdilar. Biz sohilda junjikib qoldik. Bu yerda kakliklarning ham ovozi eshitilmas, o‘zimizning kaklik ham qafasda hurpayib olgan edi. Menimcha, namgarchilikda kaklik sayramasa kerak. Oradan sal vaqt o‘tmay, tuman qoplagan o‘rmondan boltaning gup-gup ovozi eshitila boshladi.

— Ena, men ham boray, qarashaman, — dedim.

— Yo‘q, jilma! Bu yerda adashib ketasan, — dedilar onam.

Men nari-beriga yurib, g‘ildiraklariga qarayman. Naq yarmi botib kettan-a! Ot jonivor zo‘riqqanidan ko‘zlarini olaytirib pishqirib qo‘yadi, ko‘kragidan va sonidan aylanib o‘tgan tasmalar tagi ter bo‘libdi. Pishqiradi, chuqur-chuqur nafas oladi. Singlim qo‘rqoq, onamning bilagidan ushlab olgan.

— Ena, qop ketsak-a? — deydi.

— Nafasingni o‘chir! — deydi onam.

Men, ota-onam ishlayotganda tek turib o‘rganmagandim. Albatta otamga yordamga borishim kerak, deb ahd qildim. Qanday yordam beraman? Hozir izlari bilan boraman... Shoh ko‘tarishib kelaman... Keyin, yo‘lda otam meni maqtaydi, onam ham yelkamni silab qo‘yadi. Hammavaqt shunday bo‘lgan.

— Xo‘p, bormasam bormadim! — dedim-da, bir muddat cho‘nqayib o‘tirdim. Tuman qoplagan o‘rmon sokin, shunday sirli ediki, go‘yo o‘n qadam yursam, bu tumandan chiqaman-u, buning sirini ham bilib olaman. — Uf, — deb turdim-da, yura boshladim.

Keyin otamning iziga tushdim va birdan chopgan edim, onam baqirdi. U kishi quvadi, ushlab oladi, deb chapga burildim, keyin o‘ngga burildim, keyin to‘g‘riga qarab yugurdim va bitta rezgi archaning qoshiga yetib to‘xtadim. Qarasam, onam yo‘q... Ha, zo‘rman! Qutulib ketibman, deb o‘yladim. Xo‘sh, otam qaerda? Tek turib quloq soldim. Shundoq yonginamdan boltaning taq-tuq ovozi kelardi. Jo‘nab qoldim. Novcha archa ostidan o‘tdim. Kattakon qoya dumalab yotgan ekan, uni ham aylanib o‘tdim. Kichkina yalanglikka chikdim. Otam qani? E. boltaning tovushi mana buyoqdan kelyapti-ku? Shu yoqqa qarab yurdim Aralash bo‘lib o‘sgan daraxtzorga kirdim...

Nima qilayki, men shu yerda adashdim. Keyin bilsam, boltaning ovozi meni aldagan ekan. U o‘rmonda aks sado berib, har tarafdin eshitilayotgan ekan. Men gangib yuraverib, chopaverib, naq Zovostiga kiradigan yerga borib qolgan ekanman.

* * *

Endi boltaning ovozini ham eshitmasdim. Ota-onam, singlim va aravamizni ham izlay-izlay charchagan, adashganimga iqror bo‘lib, ularning ketib qolishganiga ham ishonar edim... Nima qilishim kerak? Atrofga qarayman. Yonginamda ikki odam bo‘yi qoya turibdi. Uning tepasidan suv sizib tushyapti. O‘sha yerda mitti buloq bo‘lsa kerakki, suvning yo‘lida maysalar o‘sgan. Odatda shunday bo‘ladi: hamisha suv oqib turadigan ariqdagi toshlarni ham zuluksimon maysalar qoplab oladi. Unda toshlarga oyoq qo‘yish ham xavfli, sirg‘alib ketadi kishi. Nima qilish kerak? Alanglayman. Sal narida ayri archa o‘sgan, tanasi bitta-yu, bir qarich ko‘tarilgach, bo‘linib ketgan. Uning chakalaklari shu qadar tig‘izki, qush ham uchib kira olmasa kerak. Qiziq:

archaning quyi shoxlarida bittayam yaproq yo‘q, hammasi to‘kilib ketgan. Ana, tagida ko‘rpa bo‘lib yotibdi. U yerga borgim keldi, lekin yuragim dov bermadi. Men, hamon ota-onam bilan ko‘rishishga umid qilar, ular meni izlab topishlariga ko‘z tutar edim. Shuning uchun ularni chaqira-chaqira xirillab qolgan tomog‘imni yana ishga solmoqchi bo‘ldim. Biroq endi nimadandir qo‘rkdim. Ovozimni chiqarmasligim kerak deb o‘yladim.

Shunisi qiziqki, biz hali Zovboshidan o‘tgan bo‘lsak ham, men hozir naq shuning og‘zida turganimni o‘ylamas, o‘zimni o‘rmonda adashgan, uning qaeridadir qaqqayib qolgan deb o‘ylar edim.

Nima qilish kerak? Jim o‘tiraversam o‘tiraveraman. Yig‘lagandan ham foyda yo‘q. Aqlni ishlatish kerak. Xo‘sh, nima qildim endi? Nima qilib bo‘lsa ham odam yurgan so‘qmoqni topishim kerak. So‘qmoqni topib, shu yo‘l bilan ketsam, albatta bir «yurt»ga borib qolaman. Tog‘da «yurt» deganda cho‘ponlar qo‘nadigan, o‘tov tikadigan yerni ham tushunishadi.

Ehtiyotkorlik bilan atrofimni ko‘zdan kechirdim, yerga tikilib, nari-beri yurdim. O‘z izlarimni ko‘rdim. Yo‘q, bu izlardan ketmayman... Menga so‘qmoq kerak!

Qoyaning tagidan o‘tgan edim, ne ko‘z bilan ko‘rayki, ro‘paramda uzungina yolg‘izoyoq so‘qmoq cho‘zilib yotibdi! Irg‘ib shu yo‘lga tushib oldim. Qiziq, tuprog‘i oq bo‘lsayam loy ekan-a. Nega buning tuprog‘i oq? Ha-a, so‘qmoq yoqalab ketgan qoyalarning tagi oq ekan, shundan uvalanib to‘kilgan. Qaniydi biron odamning izini ko‘rsam, shunda bu so‘qmoqdan odam yurganiga ishonardim. Axir, bu hayvonlar yuradigan so‘qmoq bo‘lishi ham mumkin-da! Ajabo! Omad deganlari shu-da! Besh-olti qadam bosgan edim, so‘qmoqning nishabiga sirg‘alib tushgan kattakon etik izini ko‘rdim. O‘! Maza! Bu yerdan odam o‘tgan, kim bo‘lsayam odam o‘tgan! Nega uning izi nishabda qolgan? Nima balo, u nishabga tushib ketganmi? Yo‘q, nishabga tushmagan bo‘lsa kerak: shu yo‘ldan ketgan-u, bundagi izlarini uvalanib tushgan tuproq bekitgan bo‘lsa kerak... Shunga qaramay, men nishablikni ko‘zdan kechirdim. So‘ng yana uch-to‘rt qadam qo‘ygan edim, yana nishabga sirpangan izni ko‘rdim. Bo‘ldi! Ovchi yurgan. O‘shanda so‘qmoq nam bo‘lgan. Shuning uchun oyog‘i sirpangan! Buyoqdagi izini uvalangan tuproq bekitgan, nishabdagi izlari qolgan.

Yuryapman-u, notanish odamning qayoqqa borgani meni qiziqtiraverdi. Agar ovchi bo‘lsa, biron kamarga boradi. Kamarlar odatda tog‘ning belida, shamoldan pana, atrof yaxshi ko‘rinadigan yerda bo‘ladi. Agar «yurt»ga borgan bo‘lsa, bo‘ldi! Tog‘da otamni tanimaydigan odam yo‘q. «Ollomurod cho‘ponning bolasiman!» desam, bas. Darrov bir hamrohga qo‘shib, otga mingazadi. Qarabsizki, cho‘lga ketib boryapmiz-da!

Bir mahal yo‘l kengayib ketdi. Shunda tepaga qarab, do‘ppim tushgudek bo‘ldim. Men yoqalab kelayotgan qoyalar juda balandga ko‘tarilib ketganday edi. Shunda qandaydir daraning sohili ostidan ketayotganimni payqadim. «Zovboshi!» degan so‘z yodimga tushdi-yu, bunga ishongim kelmadi. Bu so‘zni tezroq miyamdan chiqarib tashlab, yana orqaga qaytmoqchi bo‘ldim. Biroq, qarasam, pastni qoplab yotgan tuman qorayganday. Osmonga qaradim: och-tund rangda.

Obbo! Kech tushib qolibdi-ku? Axir, uydan chiqqanimizda peshindan o‘tgan edi. Nima qildim? Qorong‘iga qolmay, odamlarga yetay! Endi so‘qmoqdan chopqillab keta boshladim. Sezib qoldimki, so‘qmoq pastlab boryapti. Bu pastlagani sari dara sohili ham ko‘tarilib ketyapti... Yuragimga birdan vahima kirdi-yu, darrov o‘zimni to‘xtatib oldim. Sevinib ketdim, axir, «yurt» degani ham suvdan uzoqda bo‘ladimi? Suv-chi? Suv pastlikda bo‘ladi-da! E, kallavaram!.. Endi chopa boshladim.

* * *

Qosh qoraydi shekilli... Yorug‘dan chiqqanimda, balki hozir atrof qorong‘i bo‘lib ko‘rinarmidi? So‘qmoq birdan ikkiga bo‘lindi-yu, biri sohil yoqalab ketganini, biri pakar archalarni aylanib o‘tib, pastlikka ketganini ko‘rdim. Hayallamay ikkinchi so‘qmoqqa tushdim.

Bir oz yurgan edim, badanim junjika boshladi. Ha-a, suvga yaqinlashyapman-da shuning uchun sovqotyapman. Suv urib ketgan joydan o‘tib, shoxlari kesilgan archaga duch keldim — quvonib ketdim. Demak, buni odamlar kesgan. Shu yerda uy bor!

Shunda qulog‘imga suvning sharillab to‘kilayotgani eshitildi. Ho‘, ish degani mundaq bo‘pti-da! Chophonimning barini belbog‘imga qistirib olib, o‘n qadamcha bosgan edim, qarasam, jildirab suv oqayotgan ariq bo‘yiga yetibman. Uning narigi betida kichkina bir uycha turibdi! Uychaning ayvoni ham bor, supasi ham.

— Hov, amaki! — deb chaqirganimni bilmay qoldim. Birdan tislani, boyagi shoxi kesilgan archaga yetdim, tirmashib beliga chiqib oldim.

Siz cho‘ponlarning itini bilasizmi? «Eshakday iti bor ekan», deyishadi bizda. Ana shunday ko‘ppaklar

cho‘ponda bo‘ladi! Ularning qo‘riqchilari shu-da! Bo‘rilarning jazosini beradigan azroillari ham shu! Cho‘pon uchun olamda itdan qadrlı mahlul bo‘lmas kerak! Kezi kelganda o‘zlari yemay, ovqatini shu itiga beradi. Men begonaman! Hozir chopib chiqsa nima qilaman! G‘ajib tashlaydi meni! Archaning shoxida o‘rnashib olib, yana chaqirdim:

— Hov, yurt egasi! Ho, boy bobo! Amaki!

It ham hurib chiqmadi, uy egasi ham ko‘rinmadi. Hayron bo‘ldim; biron yoqqa ketishganmi? E kalla! Hozir tog‘da cho‘pon qoldimi axir? Ko‘chgan-da cho‘l qaerdasan deb!

Archadan sekingina pastga tushdim. Ikkilanib ariq bo‘yiga yetdim. Ariq suvi kattagina xarsangdan burilib tushayotgan ekan. Shu joyi sharillayapti. Gangib uyga qarayman, suvga qarayman, orqamga qarayman. Xo‘rsinib, cho‘nqaydimu suv sharillab to‘kilayotgan chuqurga qarab, undagi suv ustini o‘rgimchak to‘rlari o‘rab olganini ko‘rdim. Etlarim jimirlab ketdi. Suvning yuzini o‘rgimchak o‘rab olibdimi, demak bu yerdan mol-pol suv ichmagan yaqin orada.

Men nuqul cho‘ponlar o‘tovda, kapada yashaydi derdim. Rost. Lekin hammavaqt bir xil yaylovda keladigan cho‘ponlar ba‘zan mana shunday uychalar ham yasab qo‘yishadi. Suv yaqin, loy qilish oson. Yaylovda bunday uylarni uchratish mahol. Keyin, bunday uylarning bir hikmati bor: cho‘pon o‘tovini buzganda, «yurt»da hech narsa qoldirmaydi. Bunday uydan ko‘chganda, oshiqcha narsalarini tashlab ketaveradi... Men o‘g‘rilik degan gapni keyinchalik eshitganman: tog‘da tulki ko‘p, shu haqda aytishar edi: «Anavi xolaning xo‘rozini o‘g‘irlab ketibdi. Kapasiga kirib, cho‘pqaymog‘ini o‘g‘irlab ketibdi!»

* * *

Ariqdan hatlab uyga yaqin bordim. Shunda yana qo‘rqib to‘xtadim: bu kimsasiz uy, uning biqinida yoki takxonasida nima yo‘q deysiz? Lekin qarashimda odamlar yashagan uyning turishi menga madad bo‘ldi: har holda bu kimsasiz, yovvoyi, o‘rmonli darada bunday qo‘noqning bo‘lishi ko‘p yaxshi-da!.. Har ehtimolga qarshi deb, yerni timirskiladim. Katta bir tosh qo‘limga ilindi. Uni olib, supaga sakrab chiqqan edim, o‘choq boshida menga o‘qrayib qarab turgan qop-qora, junlari hurpaygan maxluqqa ko‘zim tushdi. Nima bu? U battar hurpaydi va «m-iyav», deb ovoz chiqardi. So‘ng dik-dik sakrab, supa labiga yetdi-da, o‘zini pastga tashlab g‘oyib bo‘ldi... Yopiray! Bunday katta mushukni birinchi ko‘rishim edi. O‘tgan yili yaylovga kelayotganda, yo‘lda bir cho‘ponning karvoniga yetgan edik. Shunda bitta sariq mushukni ko‘rgan edim, juni naq yerga tegib turardi. Nimaga bunday deb so‘rasam, «otasi tulki, onasi mushuk» deyishgandi. Keyin buning sirini bilib olgandim, goho cho‘ponlar o‘zlari oshiqcha deb bilgan mushuklarini va molga yaroqsiz bo‘lib qolgan itlarini tashlab ketishadi. Shunda agar mushukni biron jondor yeb ketmasa, u o‘z qavmiga yaqin biron hayvon bilan topishadi. Munaqa sariq mushuklar o‘shalardan tarqaladi.

Xullas, qora baroq mushuk g‘oyib bo‘ldi. Men bu mushukni odatdagi mushuklardan emasligini bildim va o‘zimga «ehtiyotkor bo‘l» deb, bir-ikki qadam bosdim. Toshni pastga tashlab, oyog‘imning loyini supa chetiga qoqdim...»

* * *

Qorong‘i tushib qolgan, yigirma qadam naridagi qora narsaning nimalagini ko‘ra olmas edim. Biroq, unga tikilib, qoramolning tappisi — go‘ng ekanini fahmladim. So‘ng o‘zim tushib kelgan so‘qmoqqa qaradim, uning shoxi kesilgan yalang‘och archagacha bo‘lgan bo‘lagini ko‘rdim, xolos. Qarasam, tomning tepasidan oppoq tuman meni o‘rab oladiganday tushib kelyapti. U xuddi bulutga o‘xshaydi. Juda chiroyli edi! Hatto xursand ham bo‘ldim. Biroq shu onning o‘zida meni yana vahima bosdi va ruhim tushdi: ana xolos! Odamlar yo‘q, bu tashlandiq kulba!.. Endi nima qilaman? Shu haqda o‘ylab, nima qilib bo‘lsa ham bu tunni shu yerda o‘tkazishdan boshqa choram yo‘qligiga aqlim yetdi. Erta nima bo‘ladi? Uni ertangi kun ko‘rsatadi! Nahotki ertagayam darani tuman bosib yotsa... Dara, dedimu, etim jimirlab, ko‘nglim bu joyning Zovosti ekanini aytib turar, lekin men bu fikrga o‘zimni ko‘niktirgim kelmas edi.

Xo‘sh, ish boshladim bo‘lmasam!

* * *

Bunday mahalda qiladigan birinchi ishing — o‘t yoqish bo‘ladi. Nima uchun? Bilmayman... Hozir kun sovuq emas. Terlaganimdanmi, badanim ham issiqqina edi. Lekin nuqul o‘t yoqqim kelar edi. Buning sababi shunga o‘rganganimda bo‘lsa kerak. Chunki oqshom tushdimi, bas, o‘tovimiz yonidagi katta o‘chokda o‘t lovillar, goho uning cho‘g‘i uyga kiritilib, o‘rtadagi yero‘choqqa to‘kilar, biz uning atrofida qur tutib o‘tirishardik... Aytmoqchi, bilaman-ku: olamda insondan zo‘r narsa yo‘q! Hamma jonivorlar insondan qo‘rqadi. Men ham insonman. Bundan tashqari, insonning qo‘lidan o‘t yoqish keladi. Hayvonlar esa o‘tdan qochadi. Demak, tezda o‘t yoqsam, xavf-xatardan ham qutulaman. Ana gap qaerda!.. Men shosha-pisha cho‘p-cho‘pchak izlashga tushdim. Ayvonda xas ham yo‘q edi. Supadan sakrab tushgandim, eshigi ochiq takxonada qalanib yotgan shuvoqqa ko‘zim tushdi. Apil-tapil ichkariga kirdim-u, bir qo‘ltiq shuvoqni ko‘tarib qochib chikdim. Go‘yo takxonada bir hayvon, hech bo‘lmasa, anavi yarim mushuk pusib yotibdi, orqamdan chovut soladi!

Supaga chiqib, shuvoqni o‘choq boshiga eltib qo‘ydim. Xo‘sh, endi yondirish kerak. E, gugurt qani! Bu uyda yashagan odamlardan aylansang arziydi! Shundoq devordagi mixga sanchib qo‘yilgan gugurti ko‘rdim. Ola solib, bir shuvoqni oyog‘imda toptadim, keyin uni o‘choqqa tiqib, tagidan olov berdim-u, garangsib qoldim. Buning foydasini sezmadim. Agar o‘choq ustida choydush bo‘lsa, boshqa gap edi. E, lapashang! Uyga qaramaymanmi? Eshikka burildim. Eshik zanjirlangan, taqa qulf ilingan. Obbo! Sekin deraza yoniga bordim. Itargandim, ochilmadi. Romning chetidan ushlab bir tortdim, ochilib ketdi. Shunda birovning uyiga so‘roqsiz kirayotganim uchun sal-pal xijolat ham tortdim. Lekin nima qilay? Bir narsasini kamaytirib qo‘ymayman-ku? Ertaga yaxshilab bekitib ketman. Bu yerda bir kecha qo‘nganimni bilgan dara hayvonlari ham bir-ikki kun bu xonadonga yaqinlashmaydi!

Sekin ichkariga qadam bosdim. Dimog‘imga turshak, mayiz hidi urildi. Ha-a, demak, bu mevalardan ham bor ekan-da. Oz-mozgina olib yeymiz. Uy egasiga g‘oyibona rahmat aytamiz. Xafa bo‘lmas, axir, odam qimmatmi, mevami? Onam bechora nuqul gap orasida: «Odam topilmaydi, narsa topiladi!» deyдилar. Bechora onaginam! Hozir uning ahvoli qanday ekan?.. Eh, onajon! Gapingizga ko‘nmadim-da, o‘zboshimchalik qildim! Lekin men sizlarga, o‘zimizga yaxshilik qilmoqchi edim-ku?! Hay, mayli. Bo‘lgan ish bo‘ldi endi... Uy juda ham qorong‘i ekan. Gugurt chaqqandim, ko‘zim to‘rdagi yog‘och sandiqqa tushdi. Uning ustida uchta ko‘rpa taxlab qo‘yilgan, tagida bitta kigiz ham ko‘rinar edi. «Ha, shulardan bittasini olib yotaman!» deb o‘yladim. Yana gugurt chaqib, poygakka qaradim. Bir qop tiralib turibdi, ichida nima bor, kim biladi deysiz. Choydushni topolmadim. Keyin, o‘zlari bilan cho‘lga olib ketgan, degan qarorga keldim. Qozon bor ekan, lekin unda nima pishiraman. Qolaversa, bu tashvishlarning nima keragi bor: men choyga juda ham xumori emasman, bir o‘zimga ovqat pishirishning ham hojati yo‘q... Jindek non topsam, ha-ha, non topsam, bas! Anavi ariqning suviga botirib yeyman-qo‘yaman. Agar bir kosa qatiq yoki bir-ikki bo‘lak go‘sht bo‘lgandami! Afsus! Boriga qanoat qilish kerak. Men o‘z uyimda emasman.

Qopning orqasidan bir ro‘molga tugib qo‘yilgan qoqnon topdim, allaqanchasini o‘ngirimga solib, tashqariga chiqdim. Jiyda, mayiz izlashga ham hafsalam bo‘lmadi...

O‘choqda yonayotgan o‘tning so‘nishini tomosha qilib o‘tirarkanman: «Nima qilaman bu yerda? Uyga kirsam-chi? O‘zimning borligimni ko‘rsatib nima qilaman?!» deb o‘yladim. O‘t so‘ngach, supa pastini qoplab olgan tumanga qaradim-da, uyga kirib, derazani berkitdim. Gugurt chaqib, xonani yana ko‘zdan kechirdim. So‘ng paypaslab taxmondan ko‘rpa bilan kigizni tushirdim. Kigizni yozib, ko‘rpani soldim. So‘ng bir oz ikkilanib turib boshqa ko‘rpani ustimga yopdim.

* * *

Deraza tagida yotibman. Charchagan ekanman, ko‘zim ilinyapti. Lekin qo‘rqapmanmi, uxlagisi kelmagan odamday ko‘zimni ochaman. Derazaga tikilaman, tashqariga quloq solaman. Bir mahal ayvonda nimadir gurs etdi. Boshimni ko‘tarib qaradim. Ustun tagida ko‘zi binafsharang bo‘lib, oqshomgi mushuk turibdi. «Ha, uyga kirib bo‘psan!» dedim. Derazani tortib qo‘yib, boshimni yostiqqa qo‘ydim. Kechasi ikki marta uyg‘ondim. Badanimni nimadir taladi, burgamikin, deb o‘yladim. Lekin uyqu zo‘rluk qildi, qotib qolibman.

* * *

Odatdagicha sahar vaqtida uyg‘onib ketdim. Qaerda yotganimni ancha vaqt eslolmadim. So‘ng irg‘ib turib, derazadan qaradim. Tuman yo‘q, chap tomondagi dara sohilini quyosh nurlari yoritib turar edi. Kayfim chog‘

bo‘lib ketdi. Derazani lang ochgandim, tag‘in o‘sha mushukni ko‘rdim. Nima balo? U shu yerga o‘rganib qolganmi? Yoki bir vaqt bu uyning xonaki mushugi bo‘lganmi? O‘choq tomonda ekan, tag‘in «miyav» dedi-da, supadan tushib ketdi. Derazadan hatlab, tag‘in izimga qaytdim. Ko‘rpa-to‘shakni yig‘ishtirib, sandiq ustiga taxlab qo‘ydim. Tashqariga chiqqan yerimda yana qaytdim. Qop orqasidan yana picha qoqnon olib, qo‘ynimga soldim. So‘ng har ehtimolga qarshi deb pichoq izladim. Lekin topolmadim.

Supadan tushgan yerimda, yana takxonaga qaragim keldi: xarilar orasidan uzun hassa topdim. Suyanib, buloq boshiga bordim. Atrofni tomosha qildim. Chamamda, bu yer kichkina qishloqcha edi. Yana to‘rtta mana shunaqa kulba qaqqayib turibdi. Har birining takxonasi bor. Yana, oldida kenggina maydon, maydon adog‘ida go‘ng, qiy uyumi. Tomosha bilan bo‘lib, nima qilishim kerakligini unutgan ekanman. Birdan eslab qoldim-u, yig‘lagim keldi. Biroq otamning: «Yig‘idan foyda yo‘q, o‘g‘il bola yig‘lamaydi», deb aytgan gaplarini esladim. To‘g‘ri-da, yig‘lab o‘tirsam, birov meni yo‘lga solib qo‘yadi-yu, men ota-onamni topib olamanmi? Yo‘q, albatta. Harakat qilish kerak.

* * *

Beixtiyor ariqdan hatlab, kecha tushib kelgan so‘qmog‘imga chiqib oldim. Ana shunda men Zovostida ekanimni bildim. Ishondim va oyoqlarim titray boshladi. Tezgina bu yerdan ketishga, tezgina anavi sohil ostidagi so‘qmoqqa chiqib olishga intildim. Har holda jar tagida bo‘lganingdan ko‘ra, uning teparog‘ida bo‘lganing yaxshi-da!

Keyin birdan-bir yo‘l Zovning boshiga chiqib olish. O‘sha yerga chiqib olsam, marra meniki! Kechagi aravamiz izini ham toparman. So‘ngra, u yerdan tog‘ning etaklari ko‘zga yaqqol ko‘rinadi. Cho‘lning qayoqda ekanini bilib olaman-da, o‘rmonning xoli joylari bilan yurib, bu yerlardan chiqaman. Naryog‘ida yo‘l topish oson. Xo‘sh, tepaga qanday chiqib olsam bo‘ladi? Bu savolga javobni tezgina topdim: mana, ro‘paramda sohilni yoqalab so‘qmoq yo‘l ketgan. Har holda bu ovchilarning yo‘li bo‘lishi kerak. Bunday yo‘l albatta tepaga chiqadi. Tog‘da ko‘p yurganman, ko‘p yurganman bunday yo‘llardan.

Yo‘l tepaga chiqmaganda ham, tepaning bironta buzilgan yeridan o‘tadi-ku! O‘sha buzuq joylardan yurib, men ham tepaga chiqib olaman-da!

* * *

So‘qmoq tobora pastdagi o‘rmondan ajralib, tepaga ko‘tarilib borar, bu meni xursand qilar edim. Lekin nimagadir suv ichgim kela boshladi. Shu meni tashvishga soldi. Nima qilay? Suv ichayin deb pastga tushamanmi? Yo‘q, chidayman. Tushsam, yana qaytib chiqishim kerak. Chiqqunimgacha yana chanqab qolishim mumkin. Kunbo‘yi pastga tushib, tepaga chiqib yuraveramanmi? Chidayman... Eh-he, pastning manzarasi antiqa ekan.

Men ariq deb o‘ylaganim kichkina soy ekan. Sohillarini qamish bosib ketgan. Ular sap-sariq. Lekin ichida cho‘chqa bor. Tog‘da yovvoyi cho‘chqadan ko‘pi yo‘q. Buni tog‘da yurgan kishi yaxshi biladi. Biroq cho‘chqadan qutulishni biladigan kishi uchun u xavfsiz. Qutulishni bilmasang, unda holing xarob. Men yo‘limda bir gala cho‘chqaga duch kelib, ulardan eson-omon qutuldin. Buni keyin aytib beraman... Soyning sohilini qoplagan qamishlardan sal narida va sal berida chakalakzor, archazorlar. Ayniqsa narigi sohiddagi archa shu qadar zichki, ustidan bemalol yurish mumkindek tuyuladi. Ko‘m-ko‘k o‘tloqning o‘zi-ya!.. Muyulishga yetib to‘xtadim. So‘qmoqning adog‘ini ko‘ray deb qaragandim, ro‘paramda ufqni qiyalab o‘tgan taqasimon tog‘ ko‘rindi. Dong qotib qoldim. Men Zovostida edim, to‘g‘rirog‘i, Zovosti bilan Zovboshining orasida, tog‘liklar tili bilan aytganda, «qat»dan o‘tgan so‘qmoqda edim. Bir tomondan buni bilganim ham yaxshi bo‘ldi. Nimaga desangiz, o‘zimni bir oz bosib oldim: demak, yana ham ehtiyotkor bo‘laman endi... Biroq xo‘pam yo‘l tutgan ekanman-da! Tepaga chiqish qiyin deb soy yoqalab ketsam bormidi? Nima balolarga yo‘liqar edim.

* * *

Zov betining manzarasi ham chiroyli edi, buni tan olmay bo‘lmaydi. Bu metindek tik devorning ko‘pdan-ko‘p joylari darz ketgan. Ana shu darz ketgan joylardan kichkina bo‘lib o‘rik, yovvoyi bodom va na‘mataklar

o‘sgan. Ularning bunday yovvoyi, kimsasiz joyda o‘sishi nima uchundir kishida rahm-shafqat uyg‘otar ekan. Xuddi aziz bir narsang bu yovvoyi joylarda adashib qolib ketgayday. Ularning mevasidan ham inson zoti foyda topmaydi. Qushlar, kalxatlarga yem bo‘lib ketadi... Lekin hozir, yoshim bir yerga yetib o‘ylayman: ana o‘shanaqa joylarning bo‘lgani ham yaxshi, do‘stlar! Ular bizga Vatanimiz tuprog‘i qadim-qadim zamonlarda qay ahvolda, qay yovvoyi ko‘rinishga ega bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib turadi. Endi o‘ylab qaragam, mening o‘sha vaqtda adashib, o‘zimga-o‘zim yo‘l topib, hayotga intilishim ham ko‘p zavqli bo‘lib tuyuladi. Axir, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, bizning olis ajdodlarimiz o‘zlariga o‘zlari shunday qilib yo‘l ochgan emasmi? Shu yo‘l bilan tajriba orttirib, aqllarini peshlagan emasmi? Shu yo‘l bilan inson sifatida taraqqiy qilgan emasmi?..

* * *

Men tag‘in ham yuqorilab ketib borardim, Zovosti ko‘z ilg‘amas pastlikda qolib ketardi. Shuning uchun endi pastga qaramas edim. Qaragam, boshim aylanadi. Bu yerdan tushgan odam pastga yetolmasa kerak... Bir payt sezib qoldimki, tepaga qarash ham kishining boshini aylantiradi: yuraging «shuv» etadi-da, yeru osmon chirpirak bo‘ladi, ko‘ngling aynab, tek qotib qolasan. Men bu ahvolda uzoqqa bora olmasligimni sezdim. Nimaga desangiz, bir muyulishga yetganda, yurib kelayotgan yo‘limga qaradim-u, osmon uzilib, oyog‘im ostiga tushganda ham izimga qaytolmasligimni sezdim. Bu yerga qanday yetib qoldim? Hayron bo‘ldim. Endi birdan-bir yo‘l — tepaga chiqib olish, yo‘lni davom ettirish! Shunday ekan, o‘zimni bu yo‘lga ko‘niktirishim kerak. Shunday ko‘nikayki, aslo ikkilanmay! Lekin qanday qilib?.. E, axir, bu so‘qmoqdan odam yurgan-ku, deb o‘yladim men. Odam bo‘lganda ham mendaqangi kichkina odam emas, kattakon ovchi yurgan. U shu tor so‘qmoqqa sig‘ibdi. Men sig‘maymanmi? Bu yo‘l men uchun tor ko‘chaday gap-ku aslida! Shunday, do‘stim Berdimurod! Olg‘a! Olg‘a!

Navbatdagi muyulishdan o‘tish qiyin bo‘ldi, yo‘l nishab edi. O‘ylab-o‘ylab o‘tishga qasd qildim. O‘tib oldim. Biroq so‘qmoqning kichrayib qolganini ko‘rib, kapaligim uchib ketdi... Shu yil bahorda o‘tovda eshitgan bir hikoyam yodimga tushdi, anavi, qor bosgan tog‘ bag‘irlarida ham mana shunaqangi «qat»dan o‘tgan so‘qmoqlar ko‘p bo‘lar ekan. Shunday so‘qmoqlarning biri tog‘ning tepasida joylashgan bir qishloqqa olib borar ekan. U qishloq ahli bir zamonlar yovdan qochib, tog‘ ustiga chiqib ketgan ekan. Shu so‘qmoqdan faqat bir kishi yura olar ekan, yurganda ham yelkasini devordan uzmay yurar ekan, deb hikoya qilgan edi otamning oshnasi. Agar ikki kishi bir-biriga ro‘para bo‘lib qolsa-chi? Unda chek tashlar ekan. Qaysinisi yutsa, shu yerda qolar ekan. Yutqazgani o‘zini pastga tashlar ekan... Men o‘shanda bu hikoyani eshitib, ko‘p o‘ylagan edim: odamlar mard bo‘lar ekan-da, a? Masalan, yutqazgan kishi pastga tashlagisi kelmasa, yoki u, yutgan kishidan kuchliroq bo‘lsa, unda sherigini bir musht bilan jarga qulatib, o‘tib ketsa bo‘lmaydimi? Yo‘q, bo‘lmas ekan... Chunki lafz bor ekan ularda. Hozir u qishloqqa olib boradigan so‘qmoq kengaygan, deyishadi. O‘sha so‘qmoq devorini teshib, qoziq qoziq chiqibdilar. Qoziqning ustiga shox-shabba bosilgan emish, endi u yo‘ldan eshak ham bemalol o‘tar ekan... Shu hikoya yodimga tushib, nazarimda ro‘paramdan birov kelayotgandek bo‘laverdi. Ovchi bo‘lsa, meni ko‘tarib oladi, deb o‘yladim. Yoki men uning oyoqlari orasidan ham nariyoqqa o‘tib olaman... Aytmoqchi, uchrasin, uchrasin ovchi! Odam uchrasin! Menga odam kerak-ku?! Lekin hayvon uchramasin, hech-hech! Unda holim xarob bo‘ladi... Unda, onajonim, xayr! Otajonim, xayr! Kichkina singlim, o‘tovimiz, molimiz, kakligimiz, xayr!

* * *

Buzuq joyga yetdim. Buning ko‘rinishi g‘alati-ya! Toshleri qizil, qum toshmi deyman. Bo‘yim baravar antiqa cho‘qqilar sho‘ppayib turibdi. Katta bir qoya yonidan o‘tgan edim, oyog‘im ostidan chirillab bir sela chil ko‘tarildi... Chil degani kaklikdan kichikroq bo‘ladi. Lekin go‘shiti kaklikning go‘shitidan mazali deyishadi. U hammavaqt shunaqa buzuq joylarda yashaydi. «Sela» deb kaklik va chillar galasiga aytishadi. Men bir nafas to‘xtab qoldim-da, yana jilgan edim, tag‘in bitta chil ortimdan ko‘tarildi va unga qarayman deb dong qotib qoldim... Boyagi, yo‘q, kechagi qora baroq mushuk menga ergashib kelayotgan ekan. U sakrab chilni havoda tutib oldi; bir oz tislendi-da, panjalarida bosib turib, menga «miyav» deb qaradi. Men uning ko‘zlarida qandaydir g‘amginlikni ko‘rdim. «Bu yovvoyi, meni yemoqchi», deb o‘ylagan o‘yim boshimdan uchdi. «Bu odamlarning uyida yashagan mushuk-ku? — deb o‘yladim. — Odamlar esa, buni tashlab ketishgan... Albatta tashlab ketayotganda, ko‘zini bog‘lab tashlab ketishgan. Bo‘lmasa egasini qoralab topib boradi-da! Endi bu

bechora odamlarni sog'ingan chamamda! U-o', falokat! Chilni yeydi-ya?» Lekin bari bir undan qo'rqdim. Orqamga qaray-qaray qarshimdagi boshqa qoyadan aylanib o'tdim. Yana qaragandim, oyog'im toyib ketdi... Toshga yopishdim. Aytmadimmi, bunday joylarda ehtiyot bo'lish kerak deb. O'pqonga tushib ketishimga sal qoldi-ya!

* * *

Ana shu o'yiqlarning oxiriga yetib, bir to'lda yovvoyi cho'chqaga duch keldim. Ular hayron bo'lgandek taqqa to'xtab, qozondek boshlarini ko'tarib qarashdi. Men ham serrayib turib qolibman. Shunda chetda turgan kichikroq bir cho'chqa «huq» etib ovoz chiqardi-da, suzmoqchi bo'lgan novvosdek boshini egib olib menga yugurdi. Men hangu mang bo'lib qoldim va jonholatda yonboshimdagi xarsangga tirmashdim. U xarsangga yetib kelganida, men tepada edim. U xarsangni aylana boshladi. To'zg'ib qolgan boshqa cho'chqalar ham to'xtab menga qarab turishardi... Agar shu cho'chqaning o'rnida o'rtacha bir it bo'lganda ham xarsangga sakrab chiqar, hatto uloq ham bu xarsangda bemalol o'ynab yurgan bo'lardi. Lekin u chiqa olmadi. Chiqa olmaydi ham! Chunki u to'g'riga yuradigan hayvon! Unga to'g'rima-to'g'ri kelgan kishining holiga voy! Tumshug'idan chiqib turgan oppoq tishlari bilan yorib ketadi. Shuning uchun ham tog'liklar cho'chqaga duch kelgan-da, unga chap berishni yaxshi bilishadi. Sal chap berding-mi, bo'ldi, u o'tib ketadi. Iziga qaytib kelguncha sen xoliroq joyga borib olasan!.. Ana shunday! Hayvonlarning xulq-atvorini bilish kerak. Cho'chqalar aylanib, aylanib, xuddi men kelgan so'qmoqqa o'tishdi. Men bo'lsam, vaqtni boy bermay, xarsangdan sakrab tushib, olg'a jildim. Tepaga chiqib oldim. Qatqalokdek yorilgan xarsanglar ustida turar ekanman, etak tomondan mushukning miyavlagani eshitildi. Nima bo'ldi unga? Cho'chqalar bilan kutilmaganda uchrashib qoldimi? Cho'chqalarning u bilan nima ishi bor? Yo boshqa falokat ro'y berdimi? Yoki o'zlarining hafsalasi pir bo'lib qolib ketishdimi? Qayta ko'rmadim ularni.

* * *

Shunday qilib, men Zovostidek dahshatli joydan osonlikcha qutuldim. Agar ilgariroq tabiat sirlariga qiziqmagan, hayvonlar, atrofimizni o'rab turgan sharoit haqida hech narsa bilmaganimda, kim biladi, men u yerdan qanday qilib chiqolardim?.. Lekin keyinchalik ham Zovostiga bo'lgan qiziqishim susaymadi. Mana, hozir zoologman, hayvonlarni o'rganuvchiman. Yaqinda Zovboshiga boraman. Uning sirlarini ochaman, ilm bilan, tajribalarimga asoslanib u yerga bemalol kiraman... Endi o'ylayman: har holda qiziquvchanlik bo'lgani yaxshi ekan, do'stlar!

* * *

Aytmoqchi, endi hikoyaning davomini ham aytib berayin: buni qarangi, men Zovboshining biz aravada yurgan tomonidan emas, nari tomonidan chiqqan ekanman. Shuning uchun sohilni, o'sha taqasimon tog'lar tizmasini aylanib, aravamiz qoldirgan izlarga tushgunimcha kun kech bo'ldi. Men shu qadar ochikdim, holdan toydimki, ko'z oldim qorong'ilashib, gandaraklab borardim. Lekin odamlarga intilardim! Bitta inson qorasini ko'rsam, der edim... Nihoyat, unday inson ham ko'rindi.

Tog'dan kechikib ko'chgan bir cho'ponning qo'ylarini ko'rib, uning iti menga tashlanishini ham o'ylamay, oxirgi kuchimni yig'ib chopdim. Unga yetdim, keyin nima bo'lganini bilmayman... Cho'ldagi tipovoy qilib qurilgan uyimizda ko'zimni ochdim... Otam meni topib olgan ekan. Ot choptirib borib qolibdi. Cho'pon meni chakmoni bilan bekitib: «Suyunchisiga nima berasiz?» deb so'rabdi. Otam bir qo'y va'da qilibdi. Keyin cho'pon kulib, meni unga ko'rsatibdi... O'sha kuni uyimizda katta ziyofat bo'ldi. Boshqa cho'ponlar ham otliq bo'lib, meni izlagani ketishgan ekan, kelishdi... Otam meni urishmadi. Faqat: «Bolam, turmushda ham shunday qilib, aql-farosat bilan yo'l topsang bo'lgani. Bu adashuv senga saboq bo'lsin!» dedilar. Onam ham, gapimga quloq solmading, deb ta'na qilmadilar.

1971

JO'RABOSHI

Ukam Xayrullaga

— Habilla aka, armiyaga ketasizmi? — deb so'radi kir-chir panjalarini tuproqqa tirab o'tirgan kichkina In'om.

Soyaboni uzun shapkasini orqaga surib, ustarada qirilgan boshini kafti bilan silab o'tirgan Habibulla yer ostidan unga qarab:

— Burningni art, loy bo'lib ketibdi, — dedi.

Habibulla jilmaydi. Unga qo'shib atrofini o'rab, cho'nqayib o'tirgan «shaykasi» a'zolari xaxolab kulib yuborishdi.

Habibulla davradan chetda, olcha to'nkasi yonida cho'nqayib o'tirib, baroq dumi bilan yerni siypalayotgan itiga o'qrayib:

— Ko'ktoy! K-o'o'k! Bu yoqqa kel! Idi! — deb tizzasining ko'ziga shapatiladi.

Ko'ktoy o'rnidan turdi, bo'ynini cho'zib, dumaloq tumshug'ini pasaytirdi, dumini lapanglatdi, ammo kelishga jur'at etolmadi.

— Yo'l beringlar unga, Nurka! — deb qo'llarini cho'ntagiga tiqib, bir yalang oyog'i bilan ikkinchi oyog'i to'pig'ini qashib turgan qoracha bolaga baqirdi. — Yo'l bo'shat unga, Nurka!

Nurka laqabli qassobning o'g'li Nurali tislani, itga:

— O't, oshna! O't! — dedi, it yana qiypanlagach, chopib borib, uni bo'ynidan quchoqlab tortdi. — Ke, ke deyapman! Ataman bilan xayrlash!

— Qo'yaver, o'zi keladi, — dedi salmoq bilan Habibulla va o'rnidan irg'ib turib, bir oyog'ini oldinga cho'zib, tizzasini bukdi-da, soniga «tap» etkazib urdi.

Nurali qo'yvorgan Ko'ktoy belini u yon-bu yonga qilpanglatib, egasi yoniga keldi. Habibulla tizzasiga yana bir urgan edi, it orqa oyoqlarida tik turib, oldingi changli oyoqlarini Habibullaning tizzasiga qo'ymoqchi bo'ldi. Habibulla uning uzatgan oyoqlarini ushlab, oldiga tortdi, Quymuchiga itning o'mrovini tirab, baroq, oq junlarini siladi, egilib qoramtir tumshug'idan o'pib oldi.

— Qo'zi, — deya bolalarning eng durkuniga murojaat qildi. — Sen qarab turgin bunga. Qarib qolgan, itlar bilan urishmasin, ovqatga unchalik ishtahasi yo'q, unga go'sht-po'sht berib tur.

Uzun, semiz qo'llarini orqasiga qilib, to'ladan kelgan gavdasini egib turgan Qo'zi uyquli ko'zlarini ochib yumdi.

— Menga ishonavering, — dedi. — Mana, Nurka kushxonadan kunora ichak-chovoq olib kelib turadi, a, Nurka?

— Bo'пти, men har kuni desangiz, har kuni opkelaman! — deb bidirladi Nurali va yana topshiriq bormi, deganday Habibullaga qaradi.

Habibulla itni qo'yib yubordi.

— Da, — dedi va pochasi keng qilib tikilgan qalami baxmal shimining orqa kissasidan «Stolichniy» pachkasini oldi. Bitta sigaretani olib, yupqa lablariga qistirgan edi, jingalak sochli, tumshug'i oldinga turtib chiqqan Ashim:

— Hoy, — dedi, ko'zi bilan pachkaga ishora qilib, mengayam ber deganday bo'ldi.

Habibulla pachkaga qarab o'yg'a toldi, so'ng saxiylik bilan uch-to'rtta sigaretaning yarmigacha chiqarib, unga uzatdi.

Ashim bitta sigareta sug'urib olib, shartta labiga qistirdi. Nurali chizgan gugurt cho'pida yondirdi.

— Bo'lmasa uy-uyaringga boringlar endi, — dedi Habibulla. — Kechqurun men hushtak chalaman.

Bolalar asta-sekin tarqala boshlashdi. Habib ko'chalari tomon jildi. Ko'ktoy gungursday gavdasini qilpillatib unga ergashdi: egasining oyog'iga o'ralishar, boldirini tishlaydiganday tumshug'ini surkardi.

Ular orqasidan sigareta cho'g'iga tuf-tuf deb kelayotgan Ashim qo'ng'iroq sochli boshini orqaga tashlab:

— Hoy, Habib! Otangga Ashim tovuqlarga don berib turadi deb aytdingmi? — dedi ildam qadam tashlab.

Habibulla otasi uyda ekanligini eslab, qayrildi, sigaretasini uch-to'rt marta so'rib-so'rib tortdi-da, u ham uchiga tufladi, so'ng qutini olib, ichiga ehtiyotkorlik bilan solib qo'ydi.

— Yur, ko'ramiz dakangni, — dedi.

Ashim ham sigareta qoldig'ini paxsa devor kovagiga tikdi-da, yo'talib unga ergashdi.

Ular lang ochiq darvozadan kirib, suvi kamayib, rangi aynib ketgan hovuz bo'yiga kelishdi. Habibulla

shaxdam yurib, bir vaqtlar akasining uyi bo'lib, u ko'chib ketganidan keyin esa tashlandiq holga kelgan va ayvoni bosib qolgandan so'ng o'zi kaptarxonaga aylantirgan uy tomon burilar ekan, achinib hovuzga qaradi.

— Ota! — deb baqirdi hovuzning narigi tomonidagi shosupada cho't urib o'tirgan Eshqul akaga tumshug'ini cho'zib. — U qistaloqlar nega suv bermadi-ya, hovuzga qarang!

Ota unga ko'zlarini piri-piririb qarab:

— Ha, o'g'lim, suv serob bo'lganda, o'zim hovuzni to'ldirib olaman-da, — dedi-da, yana ishga mashg'ul bo'ldi. Biroq Habibulla bilan Ashim uy biqiniga taqab, to'r simdan yasalgan katak oldiga yetmay, ota so'radi:

— Hoy, Habib, ko'chaga chiqmaysanmi? — gapiga o'zi javob qildi: — Hech qayoqqa chiqma, o'g'lim. Ertaga ketasan, bugun ko'chaga chiqmasang, hech narsa bo'lmaydi.

— Xo'p, — deb to'ng'illab qo'ydi Habibulla va katak oldiga borib, ichkarida don terib yeb, aylanib yurgan oq tovuqlarga, katak shiftidagi yog'ochda turgan qizil xo'rozga qaradi. — Besh, olti, yetti, — dedi o'ziga-o'zi. — Ikkitasini kecha so'ydik... Ashim, Sharif akam kelsa, har kuni bittadan so'yib yeydi. Habib so'ymasinlar, deb menga tayinlab ketdi, de, xo'pmi, ko'nmasa otamga ayt. Otam bunga yo'l qo'ymaydi, men unga tayinladim. Dondan qarashib turasan-da. Eshaklaring bor, bolalarni olib, bir dalaga chiqsang, lyuboy xirmondan bir qop chor opkelasan, xo'pmi?

— Xo'p. Men onda-sonda bitta-yarimtasini olsam, maylimi? Anavi makyonni uyga oborib tuxum bostiraman, jo'jalari katta bo'lgandan keyin, keltirib qafasga solib qo'yaman, xo'pmi?

— Malades!

— Sen kelguncha ko'payib qoladi. Ikki yil o'tadi-ketadi.

Habibulla bir muddat o'ylanib turdi, so'ng o't-o'lan bosib ketgan eski gulzorni oralab qafasning narigi tomoniga o'tdi. Bu tomonda ham kichkina qafas bo'lib, unda patlari to'kilib kettan, bo'yni sariq yirik dakangxo'roz yolg'iz turar edi. Habib kissasini kavlab novvot ushug'i topdi, kaftiga qo'yib, unga tutdi:

— Ma, ol! Ol, dakang!

Xo'roz «chug'-chug'» deya ikkilanib yaqinlashdi va chiroyli boshini g'oz tutib, turib qoldi. Habibulla kaftini silkitib, novvot uvoqlarini katakka sohib yubordi. Dakang xursand bo'lib, chug'illab yubordi va «churq-churq»lab, ushoq tushgan yerda aylana boshladi. Narigi qafasdagi tovukdar bezovta bo'lib to'r devor yaqiniga keldi. Shunda o'sha qafasning tepasida turgan yosh qizil xo'roz «parr» etib yerga tushdi va tovuqlar galasiga o'zini urdi. Ular qaqalashib to'zib ketdi. Yolg'iz qolgan dakangga qarab, chug'illaganicha nari-beri borib kelaverdi.

Habibulla bilan Ashim miyiqalarida jilmayib, bu holni kuzatib turishardi.

— Bechora, ol o'zing. Ol! — dedi Habibulla dakangga.

— O'zi, shu yoshini yo'qotish kerak! — dedi Ashim. — Dakang bo'ladi bir o'zi.

— Yo'q, uyam yaxshi, — dedi Habib. — Uyam dakang bo'ladi.

— Bo'lmasam buni so'yish kerak.

— E, bunda go'sht nima qilsin! Hammasi pay bo'pketgan. — Habibulla do'stiga olayib qaradi. — Tag'in buni birov so'yib yubormasin. Xo'pmi?

— Xo'p.

Ilgari bu sariq dakangxo'roz tovuqlar bilan bir qafasda turardi. Habibulla shu qizil xo'rozga ikkita kaptarni almashib olib kelgach, mehmon qari mezbon bilan chiqishmay, uni cho'qib tashladi. Habibulla dakangni ajratmasa, uning ahvoli tang bo'ladiganga o'xshadi. Shundan keyin, u yolg'iz o'zi bir qafasda yashaydigan bo'ldi.

— Habibjo-on, ha, Habib, bu yaqqa ke endi, biz bilan ham birpas gaplashib o'tir, bolam!

Habib qayrilib qarab shosupada otasi yonida tik turgan onasini ko'rdi, uning qo'lida katta bir bosh qora uzum bor edi.

— Yur, ketdik. Qorning to'qmi? — dedi Habibulla.

— To'q, — dedi Ashim. — Yaqinginda qovun yegan edim... Habib, men uyga boray. Chaqirasan-da.

— Mayli, — deb Habibulla gulzordan sakrab-sakrab qadam tashlab olmaga tirmashib ketgan tok ostiga o'tib oldi. U yerda so'yilgan qo'yning pashsha talab yottan ichak-chovoqlarini chetlab, supa oldiga bordi.

U supa labiga omonatgina o'tirdi.

— Bu yoqqa chiq, bu yoqqa chiq, jonim sadaqa bo'lsin senga! — dedi ona va otasi oldidagi dasturxonning chetidan ushlab, Habib tomonga tortdi.

— Surmang, qo'lim yetadi, — dedi Habibulla va ijirg'anib kulimsiradi. — Otam yemasayu biz yesak,

qanday bo'larkin?

Eshqul aka jilmayib, cho'tni kursiga qo'ydi. Habibulla o'ng bo'lib, chordona qurdi.

— Qani, ol... Hm, oshnalaring bilan xo'shlashdingmi?

— Ha, picha gaplashib o'tirdik, — dedi uzumdan bir shingilni tirnog'i bilan uzib olar ekan Habib.

— Tovuuq-xo'rozlaring bilan ham gaplashdingmi? — dedi ota va qarshidagi uyning tunuka bo'g'otlarida tizilishib turgan kaptarlarga qaradi. — Anavilar bilan-chi? Ular bilan ham xo'shlash-da, endi biryo'la.

Habibulla otasi gapiga parvo qilmay, shingilning bandidan tutib, labida uzib-uzib yer, bir qo'lidagi burda nonni ora-chora tishlab qo'yardi.

— Habib? — dedi bir tizzasida cho'kallab o'tirgan ona va uzungina burnini tortdi, so'lg'in betlari titradi. — Men endi sensiz nima qilaman? — deb yig'lab yubordi. — Chol, shuni armiyadan opqolsak bo'lardi. Sizam qari, men qari bo'lsak. Bizga kim qaraydi bu ketsa. Shu hakda arz qilib borsak degan edim, chol?

— Qo'ying, qo'ying! — deb baqirib yubordi Habibulla va o'rnidan turib ketdi, supa chetida turgan paqirni ko'tarib, suv ichdi, yo'taldi: — Qoldiraylik emish-a! — dedi. — Eshitgan odam nima deydi? Nima, men go'dakmidim? Boraman, hamma qatori xizmatimni o'tab kelaman... Nima, qolib, hammaga kulgi bo'lib yuramanmi?

— Qo'y, kampir, kuyma, mayli, borib kelsin, — dedi ota. — Bu yerda bir qarich bolalar bilan ko'cha changitib yurib, hech narsa orttirmaydi, qaytaga armiyadan odam bo'lib keladi. Ikki yil hech narsa emas, o'tadi- ketadi. O'tir, nondan ol. Yo oshnalarga va'da berganmidim? Ko'chaga chiqasanmi?

— Ha, nima qilaman bu yerda o'tirib? — dedi Habibulla. — Ana, o't o'rdim... Suvga ruxsat olgan bo'lsangiz, bolalar bilan bog'lab kelardik.

— Hech qayoqqa chiqmaysan, dedimmi, chiqmaysan, o'tirasan shu yerda! — dedi ona.

Habibulla qo'l siltadi-da:

— Men darrov qaytaman, ota, — dedi, ulardan javob ham kutmay, hovuzni aylanib chopib ketdi.

Tovuqxonaga tutash uy yonidagi tol tagida qolgan Ko'ktoy yana irg'ib turib, unga ergashdi.

Habibulla darvozadan chiqib, hushtak chaldi. So'ng ko'cha adog'idagi tuprog'i o'ynab ketgan, to'p o'ynashadigan maydonga bordi. Qo'llarini beliga tirab, yana hushtak chaldi va boshidagi soyaboni uzun shapkasini bostirib, qiyshaytirib kiyib oldi.

U maydon o'rtasidagi po'sti archilmagan ikki yog'ochga o'rnatilgan to'r to'siqqa qarab o'yladi: «Buni bittasi gum qiladi. Qo'zining qo'li egri, shu oladi. O'rninga Ashimni boshliq qilsam qanday bo'larkin...»

Birpasda darcha-darvozalardan chiqib kelgan yetti-sakkiz bolakay Habibullani o'rab olishdi.

— Ashim, gitarangni opchiq! — dedi Habibulla.

Qosh qorayganda bolalar kinoteatr oldidagi ariq bo'yida davra qurib turishardi. Habibulla qiyshiq daraxtga suyanib shapkasi soyabonini yana ham pasaytirib kiyib olgan, uning yonida Nurali bir oyog'ini Ko'ktoyning ustiga qo'yib turardi. Qo'ziboy egilib o'tgan-ketganga loqayd qarab, pista chaqyapti. Ashim cho'nqayib, birgina simi qolgan gitarani ting'illatyapti. Kichkina In'om o'rtada:

— Bugun devorning kentigini urib qo'yishdi, Habib aka... Qo'zi aka, yana buzamiz-a?

— Hey, Qo'zi, — ded Habibulla kinolardagi dahshatli shayka boshliqlariga taqlidan xo'mrayib. — Sen bolalarga ehtiyot bo'l, ularni xafa qilma, xo'pmi?... Agar jo'raboshilik qo'lingdan kelmasa, o'rningdan tushasan. Buni menga Ashim yozadi, o'rningdan olib tashlayman seni. Bildingmi?

— Bildim, — dedi Qo'zi.

— Kecha men bozordan o'g'irlagan qovunni bu kishi uylariga olib ketdilar, — dedi itning ustidan oyog'ini olib Nurali. — Ha, shunaqa bo'ldi, Habib aka.

— Eshityapsanmi? — dedi Habibulla. — Unaqa qilma... Sen ham Nurka, o'g'irlik qilma, ukdingmi? Qo'lga tushib qolsang, seni kim qutqaradi?

— Xo'p, mayli, Habib aka, — dedi Nurali va iljayib unga qaradi. — Qovun o'g'irlash o'g'irlikka kirmaydi, Habib aka. Ushlasayam qo'yvoradi... «Biz ham yoshlikda shularday bo'lganmiz» — hazillashib degan edi bir milisa otamga.

— Bari bir, nasihatni quloqqa olishing kerak... Qushxonadan ichak-chovoq tashish esingdan chiqmasin. It endi sizlarniki bo'ldi! O'zlaring qaraysizlar unga. Kaptarlar ham endi sizlarniki, ularga hech kim tegmasin.

— Tushundim, akajon, — dedi Nurali.

— Eshitdinglar-a? — dedi Ashim. In'omcha bosh irg'ab qo'ydi.

— Eshitde-ek, — dedi cho'zib Qo'zi.

Habibulla orqasi bilan daraxtga tiralib, qaddini rostlab oldi. Ashim gitarani ting'illatgancha uning yonida, boshqalar esa ortidan jo'nab ketishdi.

Bolakaylar mahallaga kelishdi, to'p o'ynaladigan maydonga kelganda, Habibulla:

— Men endi uyga ketaman, — dedi. — Otam-onam ko'chadan tezroq ke deyishgan... Mana bu setkagayam ehtiyot bo'linglar, boshqa ko'chani bolalari opketmasin, xo'pmi?

Habibulla to'daning har bir a'zosi bilan qo'l berib xayrlashdi. Ularning: «qachon ketasiz» degan savoliga:

— Ertaga voenkomatdan jo'natishadi! — deb mag'rurlik bilan javob berdi.

Ertasi choshgohlarda Habibulla o'zi qatori harbiyga jo'naydiganlar bilan mashinaga chikdi, uni onasi, otasi, do'stlari va Ko'ktoy iti kuzatib, har kim o'zicha unga oq yo'l tilab qolishdi.

Kechki payt. Termiz vokzali. Odam gavjum. Bolalar vagonga chiqishyapti.

Habibulla zinapoya yonida sigareta chekib, xo'shlayotganlarni tomosha qilib turar, o'zini bu yerda kuzatadigan hech kimi yo'qligiga ishonar edi. Bir payt poezd chinqirdi. Harbiyga ketuvchilar shosha-pisha vagonlarga chiqib boshlashdi. Habibulla shoshmasdan sigareta chekar, poezd jilishi bilan sakrab, zinaga chiqib olishni mo'ljallar edi. Poezd ham silkinib, fosh-fosh etib jildi. Habibulla endi sigaretani tashlagan edi, orqasidan: «Habib-ib, Habibullaka! degan ovozlar eshitildi, shunda it hurdi, xo'roz qag'illab yubordi.

Habibulla orqasiga o'girilgan edi, vokzalga kirib kelayotgan Ashim, Qo'zi, Nurali, In'om va Ko'ktoyni ko'rdi. Ashimning quchog'ida dakangxo'roz, Qo'ziboy gitarani ko'tarib olgan edi.

Habibulla poezdga qarasa, ancha joyga borib qolibdi, u zinaga qarab chopti, uning tutqichidan ushladi-da, yana orqasiga qaradi, oyoqlari yerda sudralib bordi. Do'stlari u tomon chopib kelishardi.

Habibulla sakrab zinaga chiqib tutqichni mahkam ushlab oldi. Bolalar hamon xuddi poezdga yetib oladigandek chopishar, it oldinda, xo'roz qo'ltiqda qiynalganidan qiyqirar, «Habib, Habib aka!» deb baqirar edi.

— Xayr, xayr, — deb qo'lini siltadi Habibulla va beixtiyor ko'zlaridan yosh oqib kelayotganini o'zi ham sezmay qoldi. — Xayr, xayr!

«Shayka» to'xtadi. Qo'l silkitib boshladi. In'omcha itning bo'ynidan quchoqlab olgan edi. Poezd uzoqlashgan sari ular orqada qolib ketishdi.

Habibulla entikib qarab turar ekan, nazarida, o'zi kattarib ketgandek tuyuldi.

1971

UCHINCHI HAMROH

Ziyorat bilan Tesha ovga chiqqanlarida saflariga yana bir hamroh qo‘shilardi. Bu — Olapar degan it edi. Ziyoratlarning iti. Ko‘p yuvosh, odamga tez elikuvchi, kelgan mehmonga bir irillab, keyin uni ko‘chagacha kuzatib qo‘yguvchi edi. Uni hamma tanish-bilishlar maqtar, o‘zlarining ham shunday itlari bo‘lishini orzu qilishar edi.

Itning bunday bo‘lib o‘shishiga, albatta, umri bino bo‘lib zanjir ko‘rmagani sabab edi. Ziyorat uni erkalatib o‘stirgan, ko‘chalarda ham goho ergashtirib yurardi... Shu asnoda uni ovga ham o‘rgatdi. To‘g‘ri, birinchi gal Olapar ovga chiqqanda o‘q tegib yiqilgan quyoning chirillashidan qo‘rqqan, behudaga bir tulkini quvib, jarga uchib ketishiga oz qolgan edi.

Keyinchalik u ovda ovoz chiqarmay yurishni odat qildi. Shu bilan birga Ziyoratga ham juda qattiq o‘rgandi: uni bir kun ko‘rmsa yoki Ziyorat uni erkalatmasa, ariqcha ustidan o‘tgan ko‘prik tagiga kirib, oldingi oyoqlariga boshini qo‘ygancha yotib olardi.

Yillar o‘tdi, Olapar qaridi, qish mahallari qo‘shni itlar bilan bo‘lgan janglarda tishlarini boy berdi.

Lekin undagi odatlar saqlanib qoldi: ovni sevadi hamon, egasiga erkalanadi, ba‘zan arazlab, xafa bo‘lib ham turadi.

Kuz kuni edi, Ziyorat bilan Tesha eshaklarini minib, Sanjar toqqa ovga jo‘nadi. Olapar ham ularga ergashdi. Yo‘l uzoq edi. Shuning uchun qarigan itni Ziyorat qoldirmoqchi bo‘lib ko‘p urindi, ammo Olapar uni izma-iz ta‘qib etib bordi, hadeb oldidan chiqaverdi. So‘ngra Ziyorat itni xafa qilib qo‘yishi mumkinligini o‘ylab, uni chaqirdi, dag‘al bo‘yin junlarini siladi. It uzun dumini likillatib, uning qo‘llarini yalamoqchi bo‘ldi. Jo‘nadilar.

Sahar edi, qishlokda xo‘rozlar qichqirar, hovlilardan erkak ovozlari eshitalardi. Qishloq orqada qoldi. Yo‘lovchilar qishloq chetidagi korezni chetlab, yon bag‘riga tushdilar, izg‘irinda eshaklarni g‘izillatib keta boshladilar. Endi tog‘ qushlari, jonzotlari ham uyg‘ongan edi; chuldirab mullato‘rg‘ay uchadi, havoda qanot qoqib, keskin pasayadi; narida qattiq ovoz chiqarib jir-jir qushi uchadi. It beparvo, eshaklarga yondash ketyapti, goho uchgan qushlar ovozigacha diqqat qilib, shalpanq quloqlarini dikkaytiradi, hamrohlariga ma‘nodor qaraydi, so‘ng yana lo‘killab yo‘lida davom etadi.

Yo‘lovchilar daraga kirishdi, atrof g‘ira-shira yorug‘ bo‘lib, daraning metin qoyalari xayoliy soya tashlab turardi, qoq toshga tushgan eshak tuyokdari sasi jaranglab ketadi. Yo‘lovchilarning «ix-ix» deganlari ham odatdagidan baland eshitaladi.

Daradan chiqib, to‘lqin adirlarga o‘rflashadi; so‘qmoq yo‘l chuqur bo‘lib ketgan, tuyoqlar tagidan chang ko‘tariladi, shamol qayoqqa essa, o‘sha yoqqa buriladi va har tarafda sochilib o‘sgan ayiqtovonning sariq taxir hidli gullariga qo‘nadi. Unda-bunda archalar uchray boshladi, ularning yon-beri kemtik, yo‘lovchilar duch kelgan shoxlarini sindirib ketishgan. G‘adir-budir tog‘ yo‘li boshlandi. Endi so‘qmoq archalar orasidan o‘tadi, eshaklar ustidagi xurjun shoxlarga tegib silkitadi, archaning rohatbaxsh bo‘yi anqib ketadi, Goho yo‘lovchilarning biri archaning butog‘ini sindirmoqchi bo‘ladi, biroq chayir daraxt tob bermaydi, yo‘lovchining qo‘lida bir hovuch nina barglari qoladi, yo‘lovchi shu barglar bilan ham qanoat topadi, ularni hidlab ketaveradi, so‘ng tashlab yuboradi, ammo kaftdagi hid qoladi. Yo‘lni kesib, archa tomirlari o‘tgan, turli shaklda, eshaklar ularga to‘qnashmaslik uchun oyoqlarini ko‘tarib-ko‘tarib bosadi.

Olapar oldinda, endi u juda sergak. Ovchilar ham xurjunlarda buklog‘liq turgan multiqlarini chiqarib, o‘qlab olishgan, tizzalariga o‘nglab qo‘yib, sergaklik bilan ketishyapti.

Bu yokda quyosh ko‘tirilgan. Quyosh osmonni aylanib, ufqqa bosh qo‘ya boshlaganda yo‘lovchilar Sanjar tog‘ining ortidagi Oqzov ostida eshaklardan tushishar edi. Chunki oldinda buloq bor, bu bulokdan bo‘lak suv maskani tevarak-atrofdagi yo‘q hisobi. Shuning uchun jami qush, jondorlar shu yerdan suv ichishga majbur. Demak, hozir ham u yerda biron o‘lja bo‘lsa ajabmas...

Ikkita kaklik suv ichib og‘irlashganidanmi, sekin-sekin yurib, yon bag‘riga o‘rlyotgan ekan. Ular ovchilarni ko‘rmay, adirga chiqqan yerda yumshoq tuprokda to‘xtashdi va tuproqqa yotib olib uni changita boshlashdi. Shunda qoya ortidan ularni kuzatayotgan yigitlarning biri — Tesha o‘q uzdi, birdan tuproq changib, ikkala kaklik ham tipirchilab qoldi. Chopa borib, ularni bosib olishdi, so‘yib, bellaridagi tasmaga osishdi. So‘ng yana «pistirma qoya» ortiga kelib, kuzata boshlashdi.

Quyosh botguncha ular ko‘p hammas, oz hammas — o‘n bitta kaklikni o‘lja olishdi, shundan to‘rttasini o‘zlari ushlashdi. Qolganiga Olapar yordam berdi — ular yengil yaralanganlaridan sapchib qochaverishdi, it quvlab yetib, oyoqlari bilan bosib to‘xtatdi, egalari kelguncha kutdi. Olaparning odatini yaxshi bilgan Ziyorat

har gal uning manglayini silar, rag‘batlantirardi.

Nihoyat, g‘ira-shirada Oqzov ostidagi kamarda ularning gulxani lovilladi, uchqunlari osmonga sapchiiy boshladi. Yigitlar chordana qurgan. Olapar hov narida sergak, cho‘nqayib o‘tiribdi. Nihoyat, ovchilar kakliklardan ikkisini tozalashdi va bodomcha sixiga o‘tkazib, cho‘qqa qo‘yishdi. Ustiga maydalab tuz sepdilar. Keyin xurjundagi arokdan ichib olgach, ov tafsilotlari haqida so‘zlab, go‘shetni yeya boshladilar.

Olapar narida sergak, cho‘nqayib o‘tirar, endi hamrohlariga qiya qarar va tilini chiqarib, tumshuqlarini yalar edi. Hamisha ovga kelganlarida, ov baror olib, mana shunday gulxan yoqilganidan keyin ovchilar tamaddi qilishga o‘tirar ekan, Olapar ham qornini to‘yg‘azib olar edi.

Hozir bo‘lsa, ovchilar ov juda baror olganidanmi shod, aroq kayfi ta‘siridan sergap bo‘lib ketgan, itni tamom unutib, suhbat va ovqatga zo‘r berishardi.

Olapar asta-asta g‘ingshiy boshladi. Undan atigi besh-o‘n qadam beridagina kaklikning ichak-chavoqlari yotar, it ularni bemalol olib yeyishi mumkin edi. Lekin Olapar iznsiz biror narsaga og‘iz urib o‘rganmagan edi. Balki uning shu fazilati uchun ham uy egalari xush ko‘rar va unga ishonar, qozon-o‘choq boshidagi kosalar yuviqsiz, ustiga karson to‘nkarilmagan go‘shet ochiq qolgan chog‘dayam ko‘ngillari to‘q edi.

Yigitlar yana bitta quyib ichib olgach, suhbat tag‘in qizib ketdi.

Olapar endi tumshayib, uzun dumini yerga tekkizib, ularga tikilib turar, pasaygan gulxan yorug‘ida uning ko‘zlarida alam, o‘kinch ko‘rinar edi. Bir mahal u o‘rnidan turdi, turdiyu, xuddi olis bir narsani qo‘msagandek, g‘amginlik bilan cho‘zib uvladi. So‘ng birdan ortiga burilib, sekin-sekin qadam tashlab, shitob bilan keta boshladi.

Ana shunda ovchilar itni birdan eslab qolishdi, unga ovqat bermaganlari, uning xafa bo‘lganini sezishdi. Ziyorat irg‘ib turib, uni chaqira boshladi.

— Olapar! Olapar! Bax-bax... Ma, go‘shet, ma, non!

Olapar gangib to‘xtadi, orqasiga bir qaradi, tag‘in burilib, lo‘killab keta boshladi. Ovchilarning ta‘bi xira bo‘lib ketdi. Shosha-pisha uning izidan chopdilar. Yana «Olapar!» deb chaqira boshladilar. It tag‘in bir to‘xtadi, ammo endi burildi-da, qattiqroq lo‘killab ketdi va tun qo‘yniga kirib g‘oyib bo‘ldi. Uning izidan borgan hamrohlar ham to‘xtadi, tag‘in har ehtimolga qarshi deb uni chaqirishdi, keyin qo‘noqqa qaytishdi.

— Och, o‘zi qarigan, yetib borolmaydi! Ablahlik! — deb xitob qildi Ziyorat.

— Sen-da, — dedi Tesha.

Ular bir-birini ayblab qolaverdilar.

Olapar lo‘killab ketib borardi. U kelgan yo‘llaridan yurib, tog‘ boshiga yetdi. Hansirab, pastdagi chiroqlarga qaradi. Bir nafas cho‘nqayib o‘tirdi, tag‘in olis bir qadrdon narsasini qo‘msagandek uvladi va so‘qmoq bilan chopa ketdi. Yo‘l nishab edi, yurish o‘ng‘ay. Archazorga yetganda bir gala to‘ng‘izlarga duch keldi, ularga chap berib o‘tdi, ammo bundan u yog‘iga sekin-sekin keta boshladi: u holdan toygan edi. Tanish daraga yetgach, u yo‘l o‘rtasida o‘tirib oldi-da, anchagacha jilmay qoldi. So‘ng sudralib pastga tushdi. Soydagi suvdan shaloplatib yaladi, u yerda ham bir oz cho‘nqayib o‘tirdi. U tag‘in ortiga qaradi, olis o‘rmonga, qoyalarga qarab uvladi.

Qishloqqa tushganida, unga itlar yopishdi, talashdi, Olapar zo‘rg‘a ulardan qutuldi, yiqila-yiqila, nihoyat, uyga yetib keldi-da, sudralib ko‘prikka yetdi, uning ostiga kirib, boshini oldingi oyoqlari ustiga qo‘yib yotdi...

Ertalab Ziyoratning otasi sovxozga, onasi dalaga ketdi, ular itning kelganini sezishmadi. Kechqurun ovchilar ham qaytib kelishdi. Ziyorat hovliga kirishi hamono:

— Olapar! — deb baqira boshladi, eshakni qo‘yvorib, chorboqqa oraladi va birdan ko‘prikni eslab, chopa ketdi. Engashib qarab, Olaparni ko‘rdi. — Olapar! Olapar! — deb cho‘nqayganicha uni erkalagan tovush bilan chaqirdi.

It javob bermadi, unga qaramadi ham.

— Olapar, Olapar! — yana chaqirdi Ziyorat endi vahima bilan.

It dan tag‘in sado chiqmadi. Ziyorat ariq labidan kesak ushatib, unga otdi, kesak itning bo‘yniga tegdi. Lekin it yana qaramadi.

— Olapar! — deb baqirib yubordi Ziyorat va ariqqa tushib, uning bo‘ynidan ushlab tortdi. Itning boshi ko‘tarilmadi, u qotib qolgan edi.

SAYR

Jo'ra uyg'onib ketib, boshidan oq choyshabni yulqib oldi. Ovoz kelgan tomonga qaradi. Onasi Ruksat opa o'choq boshiga engashganicha o'g'li tomonga achinib qarab turar, qo'lida samovarning malla karnayi bor edi.

— Uxla, uxla, — deb pichirladi u.

Jo'ra chalqancha bo'lib, ustiga egilib turgan baland o'rikning chambarak shoxlariga qaradi. Bosh tomonidagi hovuz bo'yidagi tolda chumchuqlar chirqillar, hovuzning nariga tomonidagi peshayvon ustunida musicha kukulardi. Jo'raning esiga bugun Xo'jaqo'chqorga sayrga borishlari tushdi, u gavdasini dast ko'tarib, tirsagiga tiranib oldi. Chap yoniga qarab, uxlab yotgan xotiniga tikildi. Uning to'zg'igan sochlariga suykalib, g'ujanak bo'lib yotgan o'g'liga qaradi va engashib uning ochiq yelkasidan o'pdi. Kayfi chog' bo'lib, choyshabni ko'targanicha irg'ib o'rnidan turib ketdi.

— Uxlayversang bo'lardi, hali erta, — dedi ona achingannamo bo'lib. Baquvvat, yo'g'on qo'llarini bo'yniga chalishtirib, ayvondagi umivalnik tomon ketayotgan Jo'ra:

— Armiyada soat oltida turardik, — dedi kerishib, hovuzning yog'och panjarasini aylanib o'tdi.

U peshayvonning xunuk qilib bo'yalgan ustunidagi umivalnik «mix»ini boshi bilan itarib, shapillatib yuvindi. So'ng ustunlar orasidagi dorga tashlab qo'yilgan uzun sochiqqa artina-artina chorpoynaga qaytdi.

Otasi mol so'ygani allaqachon kushxonaga ketgan, ukasi Habib uning joyida uzun oyoqlarini ko'rpadan chiqarib yotar edi. Jo'ra chorpoynaga ilinib yotgan ukasining ustini shart ochdi. Kiftiga sovuq kafti bilan shappa urdi.

Habib ko'zlarini ochib:

— E, — deb g'ingshidi. — Oliftagarchilik qilmang-da... Ena, bu kishiga ayting! — U yana boshini chit ko'rpaga burkab oldi.

Ruksat opa Jo'raning yonida to'xtab, unga jilma-yib tikildi. So'ng:

— Men o'lay, ko'z tegmasin senga! — deb o'g'lining chakkasidan o'pmoqchi bo'ldi. Jo'ra boshini tortdi.

— Qo'ying, ena. Hadeb o'paverasizmi?

— Voy, ona to'yadimi bolaga? O'zing bolangni yomon ko'rasanmi? Ho-o! Shunaqa yaxshi ko'rasanki. Men ham shunday!

Jo'ra iljayganicha bosh chayqab, chakkasini tutdi. Ona o'pib-o'pib oldi.

— Ilohim seni bolalaring bilan pushti panohida saqlasin begona shaharda, — dedi va shoshib, uning yoniga qiyshayib o'tirib oldi. — Bolam, qishloqni sog'inmaysanmi? U yoqda ishxonangdagilar bilan yaxshimisan? Dushmaning yo'qmi, jonim! Shuni esingda tut, do'stning minggi ham kamlik qiladi, dushmanning biri ham ko'plik qiladi, bolam... Bilaman, darrov qizishib ketasan, og'ir bo'l endi. Bir bolaning otasisan, gulday xotining bor. Xudoga shukur, obro'ying yaxshi. Qishlokdagilar seni izzat-hurmat qiladi, jonim. Qachon bir o'yin bo'lsa rasming chiqqan gazetani olib, idoramga keladi odamlar. «Qarang, chempion o'g'lingizga qarang, xolajon!» deyishadi. O'zingga ehtiyot bo'l, bolam! Xo'pmi?

Bu vaqt Jo'ra oyog'i uchida ilinib turgan charm boshmog'iga qarab: «Shuni kiyib boraymi yo tufli kiysammikin? — deb o'ylar edi: — Buning tagi charm, xas-xusda sirpanadi, yaxshisi, tagi rezina tufligimni kiyaman», deb, onasiga anqayib qaradi.

Ona gaplari o'g'lining qulog'iga kirmaganini payqadi.

— Ana, gapimni eshitmading, bolam... Shuning uchun aytadilar-da, onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada, deb. Ha, omon bo'l, dog'ingni ko'rmay.

Ruksat opa karavotdan siljib tushar ekan, Jo'ra ham sakrab tushdi va:

— Enajon, xafa bo'lmang! — deya bir oyog'ida turib, ikkinchi oyog'ini tizzadan bukib kutardi, boshmoq bog'ichini o'tkazdi, so'ng ikkinchi oyoqda sollanib turib, unisining bog'ichini mahkamladi va havoni suzgan kabi qo'llarini aylantirib, bir sakradi-da, lo'killab, osho-supu orqasidagi bedapoyaga tushdi.

U birov bilan urishadigandek qo'llarini ko'ksida tutib olib, lo'k-lo'k sakrab, pushtadan yurdi, so'ng qadamini tezlatib, bedapoyani aylana boshladi.

Soat yetti yarimlarda chorpoynada jamoat jam: to'garak qilib to'shalgan ko'rpachalarda Jo'ra, xotini Manzura, o'g'ilchasi va xo'mraygan Habib qo'r to'kib o'tirishar, Ruksat opa keltirib qo'ygan alyuminiy tovoqchadagi qovurdoqni non bilan yeyishar edi. Ruksat opa katta, tumshug'i artilmagan choynakda choy olib kelib, Habibning yoniga o'tirdi.

— Ayajon, oling o'zingiz ham, — dedi Manzura qaynanasiga, — hech narsa yemayapsiz.

— Bolam, kelinjonim, — deb bo‘ynini cho‘zdi Ruxsat opa. — Sizlarning diydorlaringni ko‘rib turishning o‘zi menga ovqat, bolaginam... Ha, sizlar hali bolaning qadrini bilmaysizlar. Qani, olaveringlar, issig‘ida olinglar. Yana qovurib kelaman. Xudoga shukur, go‘sh t serob, a, Habibjon? — U kichkina o‘g‘liga qaradi, — xudo umrini uzoq qilsin. Otang omon bo‘lsa, biz dard qolmaymiz. — U endi katta o‘g‘liga qarab gapida davom etdi: — Jo‘rajon, mening topadiganim chirt-pirt bo‘lib yo‘qolib ketadi. Shu otaging topgani barakali...

— Siz qizlaringizga jo‘nating, — deb to‘ng‘illadi hamon ko‘zi uyqudan arimagan Habib, keyin jilmayib turgan akasiga qaradi. — Bu kishini bilasizmi? Xuddi o‘g‘riga o‘xshaydilar, otamdan bekitib, opamlarning uyiga narsa yuboradilar. Opamning kichkinasiyam o‘rganib qolgan, ikki kunning bi-rida: «Salom, momajon!» deb kirib kelaveradi... Unaqada pul chidaydimi? — U dag‘al, uzun qo‘lini uzatib, qovurdoqning yog‘lig‘idan oldi, og‘ziga tiqib yuborib, «uyat bo‘ladi», deganday bosh chayqab turgan onasiga o‘qraydi.

— Bolam, shi piyon o‘zimizdan chiqqan, — dedi Ruxsat opa. — Bizga boshqa shi piyonning keragi yo‘q, ha!

— E! — deb baqirib yubordi Habib. — Ularning bizga nima foydasi tegadi? Aka, bir kuni opam «erim urdi», deb yig‘lab keldi. Bu kishi darrov yalang oyoq bo‘lib, yo‘lga tushdilar. Men ham bordim nima gap ekan deb. Bir vaqt deng, bu kishi kuyovlariga nasihat qilayotlsa, opam erining yonini olsa bo‘ladimi... Nima keragi bor aralashishni? Otam ming marta aytadi, bu kishi quloq solmaydi, odam ham shunday bo‘ladimi? Yo yolg‘onmi gapim! Ayting, mana... o‘qigan o‘g‘lingizning oldida!

Ruxsat opa o‘sal bo‘lib, bir nafas bosh chayqab qoldi.

— Bo‘ldi endi, Habib! — dedi Manzura. — Bola degan hadeb onasini ayblayvermaydi. Bu kishi sizniyam yaxshi ko‘radilar.

Shunda ko‘chada cho‘zib-cho‘zib mashina signal berdi.

— Kelishdi! — deb Jo‘ra chorpo yadan tushdi. — Habib, sen bor, opke ularni. Manzur, yur, kiyinaylik.

Habib chorpo ya suyanchig‘iga qo‘lini qo‘yib, nari tomondan sakrab tushdi. Ruxsat opa:

— Voy-y, go‘sh tni yemadilaring. Jo‘rajon, bir narsaga o‘rab beraman-da, o‘sha yoqda yeysizlar, — deb qoldi.

— Mayli, mayli. Nondan ham qo‘shib o‘rang, kerak bo‘ladi, — deya Jo‘ra o‘g‘ilchasini olib, xuddi ayvon ustunlaridek chala-chulpa bo‘lgan zinapoyadan bolaxonaga chiqib ketdi. Eshikdan daxdizga kirib, deraza tomonga engashib qaradi: — Hey! — deb bo‘sh qo‘lini ko‘tardi.

Ular kiyinib pastga tushganda, Jo‘raning yoshlik do‘stlari — o‘zidek lo‘ppi, lekin bo‘yi past, xushchaqchaq militsioner Nodir va redaksiya xodimi — burni uzun, qoracha Imom chorpo ya yonida bittadan ustuxonni kemirib turishar edi.

Nihoyat, Ruxsat opaga «bir fotiha bering, safarimiz yaxshi o‘tsin!» degan taklif tushdi.

— Omin! Oy borib, omon kelinglar. Mazza qilib dam olinglar, lekin Xo‘jaqo‘chqorning suvi ko‘p bo‘lsa, tushmanglar. Xo‘pmi, Jo‘rajon? Kelinjon, siz, ko‘z-quloq bo‘lib turing. Men u sharsharani bilaman, toshday kelib uradi odamning yelkasiga. Xo‘pmi... Aytmoqchi, sizlarning xotinlaring ham boradi-ya?.. Ha-a, ha, ularning ham esi bor. Kechga qolmanglar, tog‘ sovuq bo‘ladi, kelinjon, tayinlang bularga. Bular hazil-hazil bilan qop ketaveradiyam. Xo‘pmi? Men kechqurun popukli palov pishirib turaman. Villis-a moshinalaring?

Nodir ham, Imom ham piqillab kulishdi.

— Ana, duolarimniyam mazax qilyapti bular... Xo‘p, omin! — deb fotiha tortdi Ruxsat opa.

Tor ko‘chadan chiqaverishdagi mahalla bolalari to‘p o‘ynaydigan yerda artel raisining «villisi» orqasini o‘girib turar, shoferi — Nodirning jiyani kir doka latta bilan uning yonverini artar edi.

Ruxsat opa ko‘zlarini mo‘ltiratib, allanimalarni o‘ylab turdi-da, Jo‘rani turtdi.

— Ulay men, bu yoqqa qara, — deb uning orqasiga o‘tdi. Jo‘ra ham gir aylandi. Onaning salqiz yuzlari ayanchli jilmaydi, qisiq ko‘zlari javdiradi, — Bolajon, men ham sizlar bilan borsam, nima qiladi?

— Mayli, mayli! Xo‘p! — dedi Jo‘ra, — mashinaga sig‘ishamiz. — U mashinaga qarab, unga o‘zlari zo‘rg‘a: sig‘ishlari mumkinligini angladi. — Enajon, sig‘may qolasizmi deyman?

Ona mashinaga yeb qo‘ygudek tikildi.

— Qaydam, bolam...

Jo‘ra onasini mashinada tiqilib o‘tirgandek tasavvur qildi: ular ochilib gaplasholmasliklari mumkin...

— Enajon, siz qoling, nima qilasiz yoshlar orasida? — dedi endi. — Bugun yakshanba, uyda joningizni chaqirib dam oling. Biz kechqurun kelamiz, maza qilib palovni uramiz, a?

Ona hadiksirab, mo‘ltirab:

— Mayli, bolam, mayli... shunchaki aytdim-da, jonim! — dedi, endi bolasi, onamni op ketolmadim, xafa bo‘ldilar, deb achinishini gumon qilib jilmaydi. — Meni o‘ylama, bolam.

Mashina ketdi, Ruxsat opa xo‘shlashib, yana nasihat qilib qoldi, xomush uyga qaytdi. U o‘zicha g‘amgin kulimsirab, boshini sarak-sarak qilar edi...

Har yili shu ahvol takrorlanadi: Jo‘ra bola-chaqasi bilan qishloqqa kelgan vaqtda tog‘ning xushhavo joylariga o‘rtoqlari bilan sayrga chiqadi. Ona ularni kuzatganda, o‘zining ham borish ishini bildiradi. Jo‘ra oldin rozi bo‘ladi, so‘ng onaning bormasligi uchun bironta sabab topiladi.

Ruxsat opa hovuz bo‘yiga kelib, bedapoyada qurigan yo‘ng‘ichqalarni o‘roq bilan surib, bog‘ qilayotgan Habibni ko‘rdi. Ona chorpoya suyanchig‘iga suyanib, uni loqayd kuzatdi... O‘zining yoshligi: komsomol tashkilotlarini mustahkamlash uchun tog‘ qishloqlarida otliq yurganlari, quloqlarni tugatishda faol qatnashganlarini esladi. Urush yilidagi voqealar — bolalar uyi direktori bo‘lgani holda novvoyga kalava berib, non olganlari yodiga tushdi... Yana Habibga qaradi.

Jo‘ralarning safarga ketganini esladi va yengil xo‘rsinib: «Shunisigayam shukur, shu kunlarga yetkazganiga shukur... Shular o‘ynasin, shular kulsin. Axir: mening umrim ham shularni deb o‘tdi-da, deya g‘ururlanib chorpoyadan tushdi.

Ona tevarakka bir nafas mag‘rur qarab turdi, so‘ng choyi sovugan choynakni olib, Habib tomon ketdi.

1971

KULGAN BILAN KULDIRGAN

Odamlarni faqat tirikchilik uchun harakat qiladi, deb o'ylaydigan kishilar ularning tirikchilik g'amidan yuksakroq tashvishlari ham borligini tushunmaydilar. Yo buning aksi: o'sha yuksakroq tashvishdagi odamlar faqat tirikchilik g'amida yurganlarga qandaydir past nazar bilan qaraydilar.

Sovxoz direktorining kabinetiga maktab tabiiyot o'qituvchisi Ehsan E'tiborov kirib keldi. Salom berib, sovqotgan qo'llarini bir-biriga ishqalaganicha, devor pech yonidagi stulga o'tirdi:

— O'rtoq Eshquvvatov, oldingizga bir iltimos bilan keldim.

Eshquvvatov telefon trubkasini joyiga qo'yib, usturada qirtishlab olingan boshini kafti bilan siladi. O'mrovini stol qirrasiga qo'yib:

— Xo'sh, xizmat? — dedi.

Ehsan ko'zlari nochor javdiradi, so'ng pang ovozdada bidillab ketdi:

— O'rtoq Eshquvvatov, vaqtingizni olganim uchun uzr. Lekin idorangizga kirishga majbur bo'ldim. Tog'dagi qushlar, parrandalar qirilib ketyapti. Kecha bir chorbozorchi keldi. Xurjuni to'la kaklik. Qaerdan olding desam, kamarda tirishib qolgan ekan, terib oldim deydi. Bu qanaqa gap, o'rtoq Eshquvvatov! Axir, kakliklar, parrandalar — bizning boyligimiz, tabiatimizning ko'rki-ku, shunday emasmi? Biz maktab bolalariga, qushlarni sevinglar, ardoqlanglar, deb o'rgatamiz. Bahorda qushlar in qo'yib, bola ochsin deb o'quvchilarga yashik yasashni o'rgatamiz. Bu narsani matbuotimiz ham targ'ib qiladi. Qolaversa, tabiatni qo'riqlash asrimizning muhim masalalaridan biri bo'lib qoldi. Bundan xabaringiz bordir, albatta...

— Xo'p, xo'p. Qisqa qiling, — dedi Eshquvvatov. — Maqsad nima? Ketishim kerak. Ko'rdingiz, raykom chaqirdi.

Ehsan xo'rsinib, battar tajang bo'ldi:

— Kerak bo'lsa, men raykomga ham kirishim mumkin. Lekin avval sizning oldingizdan o'tay, dedim. Nimagaki, bu tog'-toshlar sizning savxozingiz territoriyasida. Demak, u yokdagi parrandalar ham sizniki. Shunday emasmi?

Eshquvvatov dik etib o'rnidan turib, seyf ustidan sur telpagini oldi. Uni silab, bir qoshini ko'tardi:

— Xo'sh, maqsad nima, maqsad?

— Maqsad shuki, o'rtoq Eshquvvatov... — Ehsan ham o'rnidan turib ketdi, — axir, gapga quloq soling-da, bunday! Nima, men gapirayotgan masala muhim emasmi?

Eshquvvatov hayron bo'ldi. Ehsonga zimdan o'qrayib qaradi. Telpagini boshiga qo'ndirib, kresloga cho'kdi.

— Eshitaman.

Ehsan ham stulga o'tirdi.

— Shuning bir chorasini ko'rasizmi, deb kelgan edim-da, — Ehsan shoshib, davom etdi. — O'rtoq Eshquvvatov, bir hisobda bu unchalik qiyin masala emas. Uchta rabochingizni chaqirib, uchta ulov berasiz. Uch sentir g'alla. Ular toqqa chiqib, qor tushmagan kamarlarga sepib keladi... Vassalom.

Eshquvvatov xomush tortdi. O'rnidan og'ir turib, stolni aylanib o'tdi. Pechga yaqinlashib, baqrayib turgan Ehsonga tikildi, xo'rsindi va:

— Bo'sh bo'lsangiz, bizga yordam bermaysizmi? — dedi. — Dovonni qor bosib qopti, buldozer ag'darilib ketibdi. Ishchilarimiz dovonni kurashyapti, — direktor o'ylanib, qo'shimcha qildi: — Mayli, haqini undirib beraman. Xo'pmi? Kelishdikmi?

Ehsan E'tiborov anqayib qoldi:

— Bilardim sizdan bir gap chiqmasligini. Esiz! — deya shapkasini boshiga qo'ndirdi. Soyabonini ko'zigacha tushirib, Eshquvvatovga o'dag'ayladi: — Hozir... hozir raykomga boraman! Birinchi sekretarning oldiga kiraman. Masala shunday, shunday deyman! Bu odam, bu... o'rtoq Eshquvvatov ko'ra-bila turib, xalq mulkiga xiyonat qilyapti, deyman!

Eshquvvatov bir qadam orqaga tashladi. Ehsan shitob bilan yo'lkaga chikdi. Direktor chuqur nafas oldi:

— Qayting! — dedi o'qituvchining to'xtaganini ko'rib, dadilroq ovozdada takrorladi: — Qayting! Bu yoqqa keling... — Ehsan kirib eshikni yopdi. — Xo'sh, kim sizni bu yoqqa yubordi? — dedi direktor. — Kim? Bu provokatsiyami? A? Direktoringiz mashina so'raganda bermovdim, o'sha yubordimi sizni? A? O'tgan yili xotiningizni tovuq fermasidan bo'shatib yuborgan edim, xotiningiz shikoyat qildimi? Tog'da parrandalar och qolyapti emish... Alhazar! Bu qaerdan chiqqan gap? Qachondan beri sovhoz tog'dagi yovvoyi qushlarni ham

boqadigan bo‘lib qoldi! Bunchalik vatanparvar ekansiz, chorvaga chiqing! Unga yem-xashak yetishmayapti. To‘rtta otarimiz qor ostida qolib ketdi. Vertolyot ham topolmadi. Chiqing! Bilishimcha, siz ovchilik ham qilar ekansiz... Tog‘ yo‘llarini yaxshi bilasiz. Bizga yordam bering, men bir emas, yoningizga o‘nta odam qo‘shib beraman! Qalay, ma‘qulmi?.. Mayli, men haqingizni ham to‘layman, bir emas, ikki hissa qilib to‘layman! Bo‘ldimi? Tog‘dagi parrandalarga yem bering emish... Astag‘firullo!

— Shunga meni qaytardingizmi? — dedi Ehsan. — Esiz... — U burilmoqchi bo‘ldiyu to‘xtadi: — Hoy, nimaga hadeb haq to‘layman, undirib beraman, deysiz? Nimaga? Men... Xo‘p, hozir... Umuman, sizning gapingiz haq. Birinchi navbatda chorva kerak, dovonni kurash kerak. Ha! Lekin o‘rtoq Eshquvvatov, siz shuning uchun bu idorada o‘tiribsiz... ana shularning g‘amini yeng! Hozir emas, bahorda yeyishingiz kerak edi. Yo‘q! Meni qo‘rqitmang! Chorvangiz ham o‘z joyida, dovon ham toza! Shunchaki o‘zingiz gapga quloq solingiz kelmaydi, ichingiz qora! Bundan tashqari, men aytgan masalalar... Umuman, siz qoloq odamsiz!

Eshquvvatov manglayini siladi, cho‘ntagidan siga-reta olib tutatdi.

— Rost, — dedi vazminlik bilan u, — odam yo‘q hozir. Yordam berolmayman. Mayli, endi raykomga boravering. Yuring, birga boramiz.

Ehsan joyidan jilmadi, sigareta olib tutatdi. Yo‘lakka chiqib olgan direktor:

— Yuring. Eshikni bekitaman, — dedi.

Ehsan uning kichkina ko‘zlari, turtib chiqqan go‘shtdor yonoqlariga qaradi, ovozi bo‘g‘ilib:

— Rostdanmi? — dedi.

— Rost, — dedi direktor, so‘ng o‘ylanib to‘ng‘illadi: — Mening aytganim bilan chiqishmaydi ham! Negaki, bu xizmat smetaga kirmaydi, haq to‘lanmaydi.

— Yana haq deysiz-a, — g‘o‘ddiradi Ehsan va ko‘ksi ko‘tarilib tushdi, — o‘rtoq Eshquvvatov, bir minutga bu yoqqa kiring. Iltimos... Hm, mayli, men o‘zim boraman! — dedi. — Ha, o‘zim boraman. Ahvol shunday ekan, boshqa iloj yo‘q... Haqiqatan ham bugun-erta bo‘shman. O‘zim boraman!

Eshquvvatov o‘qituvchidan bir nafas ko‘z uzmay turdi, so‘ng oyog‘i uchiga qarab, xonaga kirdi. Paltosi tugmalarini qaday boshladi:

— Shundaymi? O‘zingiz boradigan bo‘ldingizmi? — so‘radi u.

— Ha, o‘zim boradigan bo‘ldim, — dedi Ehsan. — Chindan ham ahvollaringiz chatoq bo‘lsa kerak... Rost, men ovchilik ham qilaman, tog‘-toshlarni bilaman. Ulovim ham bor...

Eshquvvatov uyqudan qolgan kishidek ko‘zlarini uqaladi:

— Demak, sizga g‘alla kerak, shundaymi?

— Ha, — dedi Ehsan. — G‘alla kerak... Uyimda bo‘lganda, sizdan so‘ramasdim. O‘zingiz yaxshi bilasiz, uyda non yopmaymiz, do‘kondan olamiz. G‘allam yo‘q. Bozordan olay desam, bugun shanba... Keyin... maoshgacha ham ancha bor.

Eshquvvatov miyig‘ida jilmayib, Ehsanning yonidan o‘tdi, darpardani tortib, oynaga qaradi. Hovuz bo‘yidagi tollar ham ko‘rinmaydi. U derazani tirnagan bo‘ldi va o‘qituvchiga boqdi:

— E, Esonboy, — dedi, — Esonboy, shuni boshda hovliqmasdan, yotig‘i bilan aytasangiz bo‘lmasmidi? Haligi gaplarning nima keragi bor, xo‘sh, asrimizning problemi, u-bu... Axir, sovxozning ham ahvoli chatoq ekanligini bilar ekansiz-ku? E, Esonboy-e!

Ehsan ham jilmaydi:

— O‘rtoq Eshquvvatov, axir, men tabiatshunosman, yuragim achiydi, tabiatga yetkazilgan har bir zarar menga yetkazilganday bo‘ladi.

— Rosa ezma ekansiz-ku? Bir ximiya o‘qituvchimiz bo‘lardi. Biz uni «Azim ezma» derdik. Xuddi o‘shanga o‘xsharkansiz. Bolalar darsingizda zerikmaydimi?

— Lekin siz ham bu sohada mendan qolishmaydigan ko‘rinasiz, — dedi Ehsan.

— Xo‘p. Qancha g‘alla kerak? — direktor stoli tomon yurdi.

Ehsan o‘ylanib, unga ergashdi:

— Qancha bo‘ladi... Bir eshagim bor. Bir sentir yetadi. Bu qorda eshak shuni zo‘rg‘a ko‘tarib yursayam xo‘p gap.

Eshquvvatov stol tortmasidan qog‘oz oldi-da, orqasiga ilkis qaradi:

— Nima? Bir tsentner? Bir tsentner uchun shuncha g‘ovg‘ami?

Ehsan E‘tiborov badani qichishayotganday qimirlab, stol qoshiga keldi:

— Endi... men imkoniyatimni aytyapman-da, o‘rtoq Eshquvvatov. Harna-da...

— Yo‘q, bu masalada mening yonimga qayta kirmang. Uch tsentner yozaman!

— Yo‘q-yo‘q, o‘rtoq Eshquvvatov, yo‘q... Mayli ikki tsentner yozing. Bir amallarman. O‘zim piyoda ketarman.

Eshquvvatov tag‘in o‘qituvchiga tikilib, iljaydi. Bosh silkitib:

— Bo‘pti, — dedi-da, yozib uzatdi, — omborgy borasiz. Kechikmay boring.

— Rahmat, o‘rtoq Eshquvvatov! — dedi Ehson.

Ular birga idoradan chiqishdi, bulduruq qoplagan tollar tagidan o‘tib, katta ko‘chaga tushishdi. Muzda yurish xavfli bo‘lganidan, qor kechib ketishdi. Direktor yo‘lovchilar salomiga alik olib, har tarafga qarab borar, Ehson tuflisiga qor kirmasin deb ehtiyotlab qadam bosar edi.

— E‘tiborov deymen, — dedi Eshquvvatov.

— Labbay, o‘rtoq Eshquvvatov.

— Hm... Qancha maosh olasiz?

— Maoshimmi? El qatori. Yuz o‘n so‘m!

— Xotiningiz ishlamaydi-a?

— Uni o‘zingiz bo‘shatgansiz-ku... Ishdan ko‘ngli sovigan. Keyin ma‘lum bo‘ldiki, jo‘jalarning o‘limiga bizning xotin aybdor emas ekan.

— Lekin, xotiningizning achchig‘i tez ekan.

— Ha, bu tomoni ham bor... Yana kim biladi deysiz, o‘rtoq Eshquvvatov, men shaxsan nervim joyida emasligini bilaman. O‘qituvchilarning to‘qson protsentida asab degani barvaqt ishdan chiqadi... Umuman-ku, ishning yengili yo‘g‘-a? Sizlargayam qiyin. Boshqalargayam. Men sizga aytsam, o‘rtoq Eshquvvatov, asrimizning o‘ziga xos kasalliklaridan biri ham shu... asab kasalligi bo‘lyapti.

Eshquvvatov kulimsiradi. Ular qori kuralgan xiyobonga chiqishdi. Ko‘priikka yetganda Eshquvvatov to‘xtadi:

— Bo‘pti bo‘lmasam, sizga muvaffaqiyat! — dedi, so‘ng o‘ylanib jilmaygancha so‘radi: — Bu qishdayam ovga chikdingizmi?

— Yo‘q... Ha, bir oy avval bir-ikki marta chiqqan edim, keyin ish ko‘payib ketdi, chiqolmadim!

— Xo‘p, baroringizni bersin! — direktor bir qadam qo‘yib, yana muallimni to‘xtatdi: — E‘tiborov, sovxozimizga ishga o‘tmaysizmi? Ish yo‘q emas, bor... Mana, klub quryapmiz. Maoshiyam yaxshi! Keyin, o‘zimizning odamimiz bo‘lasiz, har holda qarashardik-da, a? Kechirasiz, menga shu... o‘qituvchilar, redaksiya xodimlari yoqmaydi. Sal ig‘vogarroq bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘qituvchilar bizniyam o‘qitgan, gazeta ishimizga yordam beradi... Xo‘sh, taklifim yokdimi?

Ehson E‘tiborov bo‘shashib, qorga tikildi:

— Yo‘q, o‘rtoq Eshquvvatov! — dedi. — Men kasbimni yaxshi ko‘raman! Maoshi kam bo‘lsa ham uni boshqa ishga alishmayman. Tushundingizmi?

— Tushundik, tushundik...

Sovxoz direktori ketdi.

Ertasi tongda qora eshagiga bir xurjunu bir qop donni ortgan Ehson E‘tiborov paltosiga o‘ralib, quloqchinini tushirgancha qishloqdan chiqib ketdi, ro‘parada oppoq qorga burkangan tog‘ uyqusirab ko‘rinar edi.

Tabiiyot o‘qituvchisi tog‘ ungurlarida, daralarida, jarliklarida kechgacha yurib, o‘ndan ortiq kamarga don sochdi. Chetda-chetda turib, don sepilgan go‘shalarga parrandalarning qo‘nishini ko‘rdi. Bu asnoda u bir necha marta qorga botdi, ikki bor yomon yiqildi, bir gal eshagi yotib olib, unga ko‘p azob berdi. Qosh qorayganda u qishloqqa kirib keldi.

Sovukdan qotib, tarasha bo‘lib qolgan kiyimlarini xotini Mayna cho‘yan pech ustidagi dorga ildi. E‘tiborov qichimsirayotgan oyoq-qo‘llarini qashib o‘tirgan edi, darvoza taqillab qoldi. Mayna eshikka chiqib kelib:

— Eshquvvatovning shopiri, direktor sizni chaqirayotganmish, darrov borarkansiz, — dedi.

— Nima ishi bor ekan... Mashina ketdimi?

— Yo‘q, kutib turibdi. Turing, kiyining.

E‘tiborov turib, quruq kiyimlarini kiydi. Chiqib, direktorning mashinasiga o‘tirdi. Mashina taqa-taq muzlagan ko‘chadan borib, birpasda direktorning darvozasiga yetdi. Shofyor:

— To‘xtab turing, — deb, ichkariga kirib ketdi.

E‘tiborov bugun tog‘da qilgan ishlarini eslab, mamnun holda nari-beri yurib turdi. Hovlida o‘tin yorilar, kimlarningdir baqirib-chaqirgani eshitilar edi.

Eshquvvatov choponiga o‘ranib, shoshib chiqdi:

— A, Esonboy?

— Keldim, o‘rtoq Eshquvvatov.

— Qalay bo‘ldi, toqqa borib keldingizmi? -Ha.

— Yaxshi, — Eshquvvatov miyig‘ida jilmayib, Ehsonga tikildi. — Ovlar baroridan keldimi?

E‘tiborov ham jilmayib:

— Baroridan kelganda qandoq! Jonivorlar mening kelishimni kutib turgan ekanmi, kamardan chiqmasimdan «gur» yopirildi-ya! Juda alqab qoldi-da... Sizniyam, o‘rtoq Eshquvvatov. Lekin yaxshi ish bo‘ldi. Harna-da. Axir, o‘sha jonivorlar ham sizning sovxozingizga qaraydi. Bu ishimizning ahamiyati katta.

— Yana diydiyoni boshladingiz, — dedi Eshquvvatov. — Asrimizning masalasiga ko‘chmasingizdan burun, Esonboy, men... sizga dangalini ayta qolay. Men tushunaman ahvolingizniyam. Lekin boshqa narsani ham tushunaman... Faqat siz gapni burmang, iltimos, vaqt ziq. Erkakcha gaplashaylik. Bizdan qaytmay qolmaydi. Xohlasangiz, ertaga yana boring idoraga, ikki tsentner emas, to‘rt tsentner don beraman... Mana ilgari uzoq bo‘lsak, endi yaqin bo‘lib qoldik, nima dedingiz? Xo‘p, gap bunday, Esonboy, uyga mehmonlar kelib qoldi, yaqin og‘aynilar. Shular desangiz tog‘li joyga keldik, kaklik yeymiz, deb turib olishsa bo‘ladimi. Qo‘y go‘shiti teshib chiqadimi, deyman? Qani ko‘nishsa. Oxiri Esonboy, shofyorni sizga yuborishga majbur bo‘ldim... Men, o‘zingiz tushunib, besh-to‘rtta kaklik opkelasizmi deb o‘ylagan edim. Afsus... Endi, Esonboy, mashina sizni uyingizga olib boradi. Ko‘p emas... o‘nta demayman, beshta kaklik berib yuboring. Xo‘pmi, uka? Hoy shopir, mashinani zavadi qil!

Ehson E‘tiborov es-hushidan ayrilganday angrayib turar edi.

— Ha? — dedi Eshquvvatov. — Bugun sovxozning ahvolini bila turib o‘zingizni bilmaganga olganday, yana nutq so‘zlamochimisiz? Qo‘ying, Esonboy, biz katta odamlarmiz... Xo‘pmi? Xo‘p, g‘allaning bir tsentnerini uyda qoldirgan bo‘lsangiz, bir tsentnerini toqqa eltib sochgan bo‘lsangiz kerak. Bilaman, parrandalarning ahvoli og‘ir. Aytganingizday, birpasda to‘dalanib qolgan. Shunday emasmi? O‘zingiz bo‘lsa ovchi yigitsiz. Munaqa vaqtda bir o‘q bilan o‘n-yigirmatasini ag‘darish hech gap emas... A? Keling, gapni ko‘paytirmaylik. Men bunday masalada birovga hech iltimos qilgan emasman. Hozir majbur bo‘ldim-da. Qaytadi mendan. Va‘da beraman... Mayli, sovxozga ishga o‘tmasangiz ham sizga qarashib turaman. Xo‘p, bo‘lmasa, shu ikki tsentner bug‘doy haqiga beshta kaklik bering! Nimaga anqayib turibsiz? Biron narsa o‘ylayapsizmi?.. Ey, shu o‘qituvchilar bilan gazetachilar o‘lgudek xayolparast bo‘ladi-da!

— O‘rtoq Eshquvvatov, siz past odam ekansiz, — dedi Ehson E‘tiborov loqayd, past ovozda. — Ajabo! Bu qanaqasi bo‘ldi? Qanaqasi? A?! — E‘tiborov direktorning yoqasidan ushlaydigandek unga yuzlandi.

— Eshquvvatov tislani:

— Nima gap? — dedi garangsirab. So‘ng telpagini orqaga surib qo‘ydi-da, chuqur xo‘rsindi. Xomush tortib:

— Xayr, — dedi. — Rahmat...

— Yo‘q, to‘xtang! — qichqirdi muallim.

— Rahmat, Esonboy, diydiyo eshitishga toqatim yo‘q. Shopir, bu odamni uyiga oborib tashla. Rahmat. Sizdan buni kutmagan edim.

Ehson E‘tiborov ketdi.

— Hayronman... Voy, pastkash-e! — dedi o‘qituvchi va izg‘irinli ko‘chani boshiga ko‘tarib kulib yubordi.

1972

«O'ZBEKNING SODDASI»

O'shanda sakkiz yoshlarda edim. Ikkinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsam ham zehnim o'tkir ekanmi, savodim chiqib qolgan, ya'ni otam aytib tursa, men fakturasini yozib borardim. Otam rayon matlubot jamiyatida magazinchimi, bir nima bo'lib ishlar edi. U kishi shunday katta ishda tursalar ham, jussalari mendaqaning o'ntasiga teng kelsa ham, savoddari haligidaqa edi. Lekin otamni mahalla ahli hurmat qilari, u kishi bilan «Polvon bobo» deb so'rashishar, bir qariyaning: «Bechora ko'p sodda, mard odam. O'zbekning soddasi shuyov», deganini ham eshitganman.

Biz yoz oqshomlari allapallagacha gurunglashib o'tirardik. Otamning oshnalari kelganda, muk tushib, doston o'qishar, navbat bilan do'mbira chertishar, momom ham qozon boshidan jilmasdi. Esimda: biznikilar ayniqsa, «Alpomish» dostonini sevishar edi. Yusuf degan bir tanishimiz bo'lardi, uyga keldimi, lo'labolishni o'mroviga tortib, shu dostonni o'qishga boshlar edi. Men jiddiy quloq solib o'tirar, keyin uxlab qolganimni bilmas edim, ertalab supa pastidagi yog'och karavotda ko'rardim o'zimni.

O'sha kecha uyimizda mehmon ham yo'q edi. Otam ham qayoqqadir ketib, kelavermadi...

Men zerikib, karavotimga chiqib yotdim. Bir mahal uyqu aralash payqab qoldim: supada g'o'dir-g'o'dir gap bo'lyapti. Ayniqsa, enamning ovozi baland-baland chiqardi. Otam bosiq, lekin u ham ba'zan «E! E!» deb qo'yardi, men shunda beixtiyor hushyor bo'lib ketdim. Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt «To'raboy, ke!» deb chaqirmaydi, shunchaki, «To'raboy!» deb qo'ya qoladi, demak, bu — beri ke, deganlari ham bo'ladi. «Ulim!» deb qo'yardilar, vassalom, men yugurib borishim kerak. Otam singillarimni ham «ulim» deb chaqirardi... U kishining «E!» deganini ko'p eshitganman. Dashtda bir sigirimizni cho'pon o'ziniki qilib, «bo'ri yedi»ga chiqargan ekan. Shunda enam cho'pondan sigirimizni undirish haqida ko'p gapirgan. Otam: «E!E!» deb turib, qo'l siltagan edi. Shundan keyin enam otamga gap kor qilmasligini bilib, cho'ponni qarg'ay-qarg'ay tinchigan edi.

— E! — dedi otam birdan baqirib. — Shu pul bilan biri ikki bo'larmidi, kampir?

— Siz shunday deysiz-da, hoy! — dedi enam. — Dashtdagi mol ham sanoqli qolgan, biz uni qaytib to'laymiz! O'ylaysizmi?

— Mol sizlarga, — deb to'ng'illadi otam. — Men endi manglayda borini ko'raman, kampir! E, gapirma! — otam qizishib ketdi: — Nima qilay? Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? — E, men bu ishti qilolmayman! Insofi bo'lsa, o'ylab ko'radi, kampir! Olti bolam bor, ko'rib turibdi o'zi. Nokaslik qilmas.

— O, sho'r boshim, sho'rgina boshim! — dedi enam kuyinib va idishlar taraqlab ketdi: — Siz arz qilmasangiz, men qilaman! Ertalab milisaga boraman, tekshirib ko'ringlar, bu odam selpodan hech mahal muncha pul olgani yo'q, fakturayam tuzgani yo'q. Tuzgan bo'lsa, kopiyasi o'zida bo'lardi-da!.. Bu odamni o'sal qilib, o'zlari padlo'k dakumit tuzgan, shuncha pulni buning bo'yniga urgan! Tekshirib ko'ringlar. Buning pakturalarini o'g'lim yozib berardi, uniyam keltirib so'roq qilinglar, deymen!

Otam jimidi. Men bu gaplarning ma'nosiga tushunmas edim. Biroq kimdir otamni aldagani, uning boshida xavf borligini sezdim. Biz bolalar tayyorga ayyor bo'lib o'sar edik: oilada paydo bo'ladigan qiyinchilik, kamchilikni ota-onamiz tuzatar, to'ldirar edi. Bizga o'yin bo'lsa, yonboshlab yotib doston eshitish bo'lsa yoki pistaga pul bo'lsa bo'ldi edi.

Men otamga faktura yozib berganlarimni eslab, ichimda xursand bo'lib, ko'rpaga o'rardim. Salqin tushib qolgan edimi, to'shakdan turishni xayolimga ham keltirmadim. Faqat boshimni ko'tarib, nima yeyishayotgan ekan deb qarardim. Qovurdoq o'rtada bo'lsa, men ham dildirab, iljayib borar edim.

Otamning oxirgi so'zi shu bo'ldi:

— E, kampir, boshimni qotirma. Men aytdim aytgichimni unga. Nomard ekansan, uka. Mayli, shu o'tirik puldi deb ket, lekin biring ikki bo'lmasin. Bir kuni seni bolalaring ham ota deb qolsin, dedim. Bo'ldi shu gap, kampir. Yurakti bo'shatdim. Agar hayvon emas, odam naslidan bo'lsa, keladi u — ukkig'ar!

O'rtoqlarim bilan so'kishib yurganlarimni esladim, otam: «O'zbekning gapi bir bo'ladi», degich edi. Men yana, hammavaqt bir so'zli bo'lishni o'yladim. So'ng nima uchundir shu tobda otamning tutgan yo'lini to'g'ri deb bildim va keyin uxlab qoldim.

Yopiray! Juda notinch bo'ldi-da, bu kecha!

Yana uyg'onib ketdim: supada g'o'dir-g'o'dir gap-so'zlar qulog'imga yetmasidan qozonda jiz-biz bo'layotgan go'shtning hidi dimog'imga yetdi. Hayron bo'lib, boshimni ko'tardim. Dashtdan otamning

oshnalari kepti deb o'ylagan edim. Yo'q, lampa yoritib turgan dasturxonning bir tomonida matlubot jamiyatining raisi cho'kka tushib o'tirar, u otam bilan kulishar edi. Enam o'choq boshida.

Men bu odamni yaxshi tanir edim, qachon otamga ergashib uning omboriga borsam, shu kishini ham ko'rardim, u burchak-burchakda uyulib yotgan yong'oq, olmaqoqi va olchaqoqilardan hovuchlab olib hidlar, so'ng sochib tashlab, kaftlarini bir-biriga urib qoqar, keta turib, menga qoshini uchirib qo'yar edi. Lekin uyimizga hech kelmagan edi.

Qovurdoqning hididan uning hali yetilib pishmaganini sezdim. Uyda mehmon borida dasturxondan chetda tur, hadeb o'rtaga qo'l uzataverma, bir ishora qil, o'zim beraman, xohlagan narsangni, der edi enam. Men o'zimning uyg'oq ekanimni enamga qanday bildirsam deb o'ylab turgan edim, ular yana kulib yuborishdi. Shunda otamning oqshomgi kayfiyatini eslab, ishi o'ngidan kelgani — tutgan yo'li to'g'ri chiqqaniga ishondim va xursand bo'lib ketdim. Enamga tikilaman, harakatlaridan u kishining ham kayfi chog' ekani bilinib turibdi.

Lekin bari bir turishga jur'at etolmadim.

— Ha, Polvon aka, menga yomon ta'sir qildi gapingiz, — dedi rais. — Men shuncha yoshga kirib, bunday gapni eshitmagan edim. Yashirmayman, mard odamsiz, tushunasiz... Bunday ishlar avval ham bo'lgan. Lekin birovi ham o'zimga havola qilib ketmagan edi. Odamga ta'sir qilar ekan, men ham odam bolasiman... Ana, faktura, dela! Yangamga bering, yoqib yuborsinlar. O'tgan ishga salovat, Polvon aka.

Men karavotdan sekin tushib, o'choq boshiga chopdim.

— Suv ichaman, suv — dedim enamga.

— Go'sht-chi, yemaysanmi, bolam? — dedi enam.

Men tirjayib, cho'nqaydim. Shunda rais meni chaqirib, qoshini chimirdi. Men o'rnimdan turib salom berdim.

— Berman ke, ulim, berman ke! — dedi otam.

Bunday vaqtda borishim kerak. Enam ham yelkamga qokdi. Otam yoniga o'tqazib:

— Sher ulim! — dedi. — Uxlamadingmi?.. Endi go'shtdan yeysizu kirib uxlaysiz. Xavotir olma, bolam! Mard odamning sadag'asi ketsang arziydi. Mana, amaking ham mard chiqib qoldilar...

Ular kulishdi. Shunday qilib, bu notinch kecha o'tdi.

Hozir men o'sha kecha, o'sha suhbatlardan yigirma besh yil beridaman. Ularni tushdagidek eslayman.

Men — endi o'zgarib ketgan, savodim ham rostakamiga chiqib, «Alpomish»ni ham o'zim o'qiydigan, hamda otamning mardlik va arz qilish to'g'risidagi aqidalariga allaqachon qo'shilmay qolgan esam-da, bu keksayib qolgan otam — «o'zbekning soddasi»ga havasim kelib ketdi.

1972

BIZ KECH QOLIB YURAMIZ

Raykom sekretari Alpomish aka ukasi Berdiyorni imlab, chinor ostiga o'tirdi. Olisdan yugurib kelgan choyxonachi yigitga:

— Bitta choy... Keyin bizga xalaqit bermang! — dedi.

— Xo'p bo'ladi, raykum bobo! — choyxonachi qaytib ketdi. Kabobpazning oldiga borib, shivirlay boshladi. Maktab tomondan bo'lim boshlig'i hovliqib tushib kelayotgan edi, choyxonachi yigit uni ham chaqirib, vaziyatni tushuntirdi.

Alpomish aka ko'cha yuzida «gazik»dan tushib, to stolga kelib o'tirgunicha kuzatib turgan xo'randalar ham undan ko'zlarini uzishdi.

Berdiyori tikdan tikilgan kostyum-shimi ustidan uzun yo'l-yo'l yelak kiyib, belini oqish qiyiq bilan bog'lab olgan edi. Tosh zinadan irg'ib tushdi-yu, buloqqa qarab burildi. Suv labiga cho'nqayib, qo'lini chaydi, belbog'iga artib kelib, akasiga uzatdi:

— Salomaleykum, aka.

Alpomish aka unga qo'lini uchini berib, stolning narigi boshidagi stulni ko'rsatdi:

— O'tir!

— Xo'p, aka. — Berdiyori o'tirdi, tosh zina boshida qolgan shofyoriga o'qrayib qo'yib, akasiga yuzlandi: — Yaxshimisiz, aka? Bu yoqlargayam qidirib chiqqan ekansiz-da? Yangayam yaxshimi, jiyalarim-chi? Ish bilan bo'lib borolmadim ham... Kampaniya mahali desangiz...

— Onamizdan senday farzand tug'ilganiga ishonmay qoldim, nokas!

Berdiyori uchib tushdi:

— A? Aka... bir gap bo'ldimi?

Alpomish aka stolga urmoqchi bo'libmi boshmaldog'ini ko'tardi, lekin yon-veriga ko'z tashlab, qo'lini stol chetiga ohista qo'ydi.

— Gapir! — dedi. — Bir boshdan gapir! Nima ish qilib yuribsiz o'zi?

— Aka...

— Taysallama! Hozir uchastkovoyini chaqiraman, ko'kragingga «piyanista» deb yozib, qo'lingga satil beradi. Ko'cha supurasan. O'n besh sutka qamalding deb shu yerda buyruq chiqartiraman. Xo'sh?

— Aka, endi...

— Sharmanda qilib yurgan ekansan-ku, meni! Akaning nomi bilan ish ko'rishni sen tirmizakka kim o'rgatdi? Nimaga zagotkontoraning mashinasini raisi minmaydi-yu, sen minasan? Qaerdan chiqqan qiliq bu!.. Nimaga ichasan, a? Nima g'aming bor! Bolang och qoldimi? Xotining tashlab ketdimi? Akang o'ldimi? Nimaga ichasan? Nima beradi ichkilik senga?.. Ichib olib hamma narsani unuting keladimi? Ishniyam, topshiriqniyam, oilaniyam, a? O'rganib qoldingmi? Mundan ko'ra bir chilvirni olib, o'zingni osmaysanmi! Har holda, odamlar, nomusli ekan, deydi. O'zim ham sezib yurar edim-a! Lekin sen, qorang o'chkur, mug'ambirlik qilar eding... Yo'q! Men seni bu ahvolda qoldirmayman. Sen akangni bilmabsan! Menga uka kerak emas, or-nomus kerak! O'n ming odamga bosh qilib qo'yibdi meni davlat, bilasanmi, shuni! Men seni, ibrat bo'lsin uchun, eshakka chappa mindiraman, hali...

— Aka...

— Nima?!

— Oxirgi marta... Aka, aka... To'xtang-da, endi! Ga-pimni eshiting-da, va'da beryapman-ku!

— Va'da! Piyanistada, masxarabozda va'da bo'ladimi!

— Aka, nima qilay? O'zimni osaymi shu yerda? A? Ayting. Sizning gapingiz — gap. Siz menga ham ota, ham ena, ham akasiz... Aytganingizni qilaman... Birinchi marta... oxirgi marta, aka...

Birpasdan keyin Berdiyori ko'chaning nari betidagi taqir do'ng ortida, toshloqda o'tirar, hovuchida bir necha shag'al toshni o'ynab, labini alam bilan tishlardi.

— Berdiyori aka!

Berdiyori burilib tepadan tushib kelayotgan shofyori — Shoniyozni ko'rdi. Shoniyoz kelib, olislarga tikildi.

— Nima deysan?

— O'zim...

— He, uka... chatoq bo'ldi!

Shoniyoz sekin cho'nqayib, yerdan xas oldi.

— Alpomish aka bilan gaplashdingizmi?

—E, uka, yurgiligim qolmadi. U odam mening pushtipanohim edi, meni yomon so'kdi. Zo'rg'a o'tirdim, uka... Menga qara! Akam meni yomon ko'rib qoldi! — u irg'ib turib ketdi. — E, uying kuysin, ichkilik! Uyingang kuysin! Men shunga qachon o'rgandim o'zi?.. Chatoq bo'ldi!

— Endi...

— Nima «endi?»

— Endi bir ish ko'rsatasiz-da!

— Ishmi? Ho'-o'! Ishni men ko'rsataman-da! Meva opkelishmi, men opkelaman. Tuxummi? Men opkelaman. Junmi, men opkelaman... Men odamlar bilan muomala qilishni bilaman. O'laman sattor deganda ham har balo qilib sotib olaman! E, uka! Men zagotovitel bo'lib ishlayotganimga necha yil bo'ldi? Sen bilmaysan. Unda sen yo'q eding... bizga ishga o'tmagan eding unda... To'xta, sen qanday bo'lib, nuqul men bilan yuradigan bo'lib qolding, a?.. Ha, bungayam o'zim aybdor, o'zim. Yur desam, ketavergansan-da, a? Ha... Axir, kimsan, raykum sekretarining ukasiman! Lekin bizning rais ham odammas ekan, bir og'iz vaqtida aytmedi-ya! Uyam qo'rqan-da, mendan? Qo'rqan... Akasiga aytadi, chaqadi, degan, ha, yaramas! Oxiri aytipti-ya! Aytgandayam boplab aytipti! Bo'lmasam akam muncha qizishmas edi. Chatoq bo'ldi! Uka, u odam menga aka emas, ota-ona ham! Shu meni katta qilgan, bilsang! Men unga suyanar edim. Uning qattiqqo'lligini bilar edim. Meni nima jin urdi... Endi, aytganingday, ishda ko'rsataman o'zimni, ishda, men o'nta zagotovitelning ishini qilaman! O'ntasining! Lekin sen... menga qara, sen men bilan yana uch-to'rt kun birga bo'l, xo'pmi? Keyin seni raisga topshiraman! Bo'limni bir obxod qilaylik.

— Mayli. Men ham shuni aytmoqchi edim.

— Borakallo, aqling bor seni, Shoniyoz... Shoniyoz uka, men aslida yomon odam emasman.

— Kim sizni yomon deyapti, Berdiyora aka. Men bir og'iz qattiq gapingizni eshitmaganman.

— Borakallo. Lekin o'zim aybdorman, Shoniyoz. Mana, uch-to'rt oydan beri zagotkontoraga bir kilo meva berganim yo'q, bir kilo jun... Uch yuzta tuxum nima bo'ladi, a? Haliyam raisning bag'ri keng ekan. E, men senga aytsam, akam hali to'g'ri gapirdi, ichkilik o'lsin! Lekin odamlar ham g'alati-ya? Qaerga borsang, ko'rpacha yozadi, darrov qozon osadi, go'sht qovuradi, araq tayyor bo'ladi. Anavi besh-olti rayonga bekor borib keldik, rais shundan keyin o'chakishgan menga. To'g'ri-da, nima haqim bor o'zi?.. Bo'pti! Ishlaymiz, endi ishlaymiz. Bo'ldi! Araqning uyi kuysin! Yana ichsam, til tortmay o'lay! Bola-chaqamga otalik qilmay...

— Ey, qo'ying shu gaplarni!

— Hozir ko'zimga dunyo ko'rinmaydi!

Ular chinorlar soyasidan o'tgan ko'chaga tushganda Berdiyora yana xuruj qildi.

— Menga qara, Shoniyozboy. Sen shu yerda tura tur, xo'pmi? Men magazindan yarimta olib chiqay. Shu tepaga opchiqib, urib maydalay. Ha, hamma ko'rsin!..

— Berdiyora aka, qizishmang.

— Shu yerda tur! Keyin dappta ketamiz... Men jun topaman, jun! Men chorvadorlarning tilini bilaman, oshnam!

Berdiyora magazinga kirganda, peshtaxta ortidagi eshikchadan kiriladigan omborda Alpomish aka ichimlik yashiklarini sanab, rabkoobning boshlig'iga bu mollarni kamaytiring, deb turgan edi.

— Hov, do'konchi bobo, beri keling! — baqirdi Berdiyora.

Eshik og'zida qo'rqibgina turgan do'konchi orqasiga qaradi.

— Oling anavi polvondan yarimtani!

Do'konchi taysallab qoldi, omborga mo'raladi, kimdir unga nimadir dedi, u nimadir deb javob qildi. Shundan keyin ham do'konchi o'sha yoqqa bir muddat qarab turdi, nihoyat Berdiyorga o'girildi:

— Yarimta dedingizmi?

— Ha, yarimta! — xitob qildi Berdiyora. — Xohlasangiz, butun qiling! Men u haromi bilan olishay, qani, kim yiqitar ekan!

Do'konchi gazmol tokcha ostidan bitta shishani olib, kir latta bilan artgan bo'ldi. Oyog'i ostidan qog'oz topib, o'rab berdi. Berdiyora do'konchiga besh so'm tashlab, qaytimini ham so'ramay chiqdi. So'ng, chinor ostiga yetganda, shishaga o'ragan qog'ozni shilib tashladi-da, uning bo'ynidan ushlab, namoyishkorona yurish bilan Shoniyozning yonidan o'tdi:

— Ko'rasanmi? Tomosha qilasanmi?

Shoniyoz u bilan borishga uyaldi shekilli:

—O'zingiz bir yog'li qilib keling, — dedi va buloq boshidagi o'rindiqqa o'tirdi.

Berdiyori mamnuniyat bilan tepaning o'rkachiga chiqib bordi. Ko'kragini kerib, kunbotardagi Quhitan tizmalariga qaradi-da, araqni yerga o'rmashtirib qo'ydi. So'ng, iljayib, undan bir-ikki aylandi. Kaftlarini bir-biriga ishqab, nari ketdi.

Yerdan bir necha tosh olib, oyoqlarini yerga tira-gancha, sal yonboshlatib ota boshladi. Qani tegsa!

—Ha, seni chiqarganni! — xitob qildi Berdiyori va yugurib borib, uni ko'tardi, boshidan aylantirib, etak tarafga otdi. Shisha chir aylanib borib toshloqqa tushib chil-chil sindi.

Berdiyori qaytib kelganida Shoniyoz yo'q edi. Uyoq-buyoqqa qarab chaqirdi:

— Shoniyoz! Shoniyoz!

—Hov magazinga chaqirib ketdi, — dedi o'rindikda o'tirgan yo'lovchi.

—Magazinga? Ha, mayli. — Berdiyori buloq bo'yiga tushib, yana nima uchundir qo'llarini chaydi, belbog'iga artidi. Iljayib chiqib mashina yonida qaqqaydi. — Shoniyoz!

Yo'lovchi kulimsirab gap qotdi:

— Jonivorni uch minutda sob qildingizmi, jo'ra?

—Bizmi? Biz ana shunday! — dedi Berdiyori. — Obering siz ham birini, shu yerda tinchitib qo'yaman!

—Zo'r ekansiz, vajohatingizdan hech bilinmaydi.

—Ha, biz ana shunday zo'r!

Shoniyoz ko'rindi, Berdiyori qo'llarini beliga tirab uni qarshiladi:

—Ha, zakuskaga ketganmiding?

—Yo'g'-e, — dedi shofyor, u xafa ko'rinardi.

—Ketik bo'lmasam. To'g'ri dashtga, oshna! Shoniyoz unga g'alati qaradi:

—Ketamizmi?

—Ha! Ketamiz-da, endi! O'tir mashinaga. Shoniyoz bir qadam qo'yib to'xtadi:

—Bugun dam olsakmikan, Berdiyori aka.

—Yo'q, bugun ayni ishlaydigan kun-ku? Shoniyoz yer chizdi.

—Ha? — dedi Berdiyori. — Kelishdik-ku? Yo, sen ham aynidingmi? Mayli, unday bo'lsa!

Shoniyoz xo'mraydi, ildam o'tib mashinaning eshigini ochdi. Berdiyori kirib o'tirdi. Shoniyoz motorni o't oldirdi. Borti shiqillab qolgan eski yuk mashinasi gurillab jildi.

Hademay qishloq markazidan o'tib, tepaga chikdi, tekis nishabdan keta boshladi. Nihoyat, soyga yetdilar. Soy keng bo'lib, unda o'sib yotgan yulg'unlar sarg'ayib, guldan qaytgan edi. Suv miltillab ko'rinadi, soy yoqasi-da bir parcha qamishzor.

— To'xta! Bur pastga, Shoniyoz! — buyurdi Berdiyori.

Chamasi, Shoniyoz uchun qaerga borishning ahamiyati yo'q edi. Rulni keskin burib, mashinani nishabga soldi.

Undan tushirib, yulg'unzorga oralatdi.

— Sekinroq hayda, oshna. Ha? Nima bo'ldi?

— Hech nima. Ovulga boramizmi?

— Ha-da, shu yerdan ishni boshlaymiz... Yusufning ovuli shekilli bu?

— Ha, o'zi yo'qmi deyman. «Moskvich»i ko'rinmaydi.

— Da-a, unda jun undirish qiyin. Yusuf bo'lgan-da, gapga ko'nar edi. Kampiri ziqnaroq. O'tgan yili kelganimiz esingdami?

— O'tovga qarang. Kimdir qarayapti, kampiri emasmi?

— Shunga o'xshaydi.

Soyning narigi sohilidagi taqir do'nglik etagida ikkita o'tov ko'rinar, o'tovlardan biri oldida ko'ylagi qizil bir ayol qo'lini peshanasiga qo'yib, qarab turardi.

Shoniyoz iljaydi:

— Bizni tanidi, deyman... Orqaga qaytdi.

— Yo'lga solamiz, oshna! Biz o'zimiz uchun unnayapmizmi!

Mashina suvga yetib to'xtadi, suvdan o'tishi mumkinu lekin narigi tik betga chiqishi gumon edi.

— Tushamiz, azob bermang mashinaga.

Tushib, qamishzor oralab yo'l izlashdi. So'ng, soydan kechib o'tishdi.

— Hov, kayvoni! O'tovdan sas chiqmadi.

— Berdiyori aka, iti yomon.

- E, it nima qiladi hozir, molning ortidan ketgan-da.
Ular o'tovlar orasiga yetib, to'xtashdi.
—Hov yanga! Hov, checha!.. Odam bormi? Mehmon keldiyam demaysizlar!
Nihoyat, chetdagi o'tovdan engashib, oltmishlardan oshgan kampir chiqdi.
— Salomaleykum.
— A-lekum... — Berdiyorkampirga qaramay, u bilan qo'l berib ko'rishdi, gaplasha boshladi: — Yaxshimi? Bachalar chopqillab yuribdimi? Yusufboy qani? Shaharga ketganmi, deyman?
— Ha, erta-mertan tushib ketgan edi, maylis bor ekanmi.
— Xo'sh, kampir, bizning vaqtimiz yo'q. Choy-poyga unnab yurmang! Bizning nima uchun kelganimizni bilsangiz kerak!
— Ha, siz nimaga kelardingiz, junga-da, — dedi kampir.
— Balli! Biz zagotovitelarning ishi shu, kampir!
— E, qo'ying, inim. Zagotovitelniyam ko'p ko'rdik. Ko'p kelib turadi, yo'q desak, qaytib ketaveradi.
— Biz qaytib ketmaymiz, — dedi Berdiyorkampir va va'z qila ketdi: — Gap shundaki, momo, xo'sh... davlat bu yil jun planni katta bergan. Xo'p, deb turing... Menga qarang, bir to'shakcha opchiqing-e. Yo'q-yo'q, uyga kirmaymiz... Shunday qiling!.. Ho', rahmat... qatiq ham opchiqasizmi? Mayli... Bir yo'la chalob qila qoling... Rahmat, endi o'tiring, momo!.. Gap shundaki, o'zingiz tushunadigan xotinsiz, planimiz katta! Lekin savxoz o'z moli bilan uzolmaydi... To'xtang-da! Bizda individualniy plan deganiyam bor-da. Bu planni tushunasizmi? Sabr qiling! Bu degani — aholidan ortiqcha juni bormi, tuxumi bormi, terisi bormi — sotib oling, degani... Bilaman, bilaman, kampir! Menga qarang, kampir, shu junni mana munga o'xshagan kigiz qilasiz! Kigizdan nima foyda! Gilam olsangiz-chi? Ham arzon, ham chiroyli... Xo'p, bir qop soting, mayli, qolganini to'qim qilsangiz ham o'zingizga! E, enajon-e! Baraka toping, enaboy! Shoniyoz, tur, oshnam!.. Ana bu ishdan keyin yuz gramm ichsang ham arzir edi... Lekin endi yo'q, yo'q, yo'q!.. Narxi o'sha-o'sha, a? Yo ko'paytirib beraymi? Mayli! Ana, hozir faktura tuzamiz, xo'sh... Mana, bu yerga qo'l qo'ying! E, chizib qo'ying-da, bilmaysizmi!.. Shunday! Yusufboyga bizdan salom ayting... Kampir, agar yana sotiladigan jun chiqib qolsa, iltimos-da, bizdan bo'lakka sotmang, xo'pmi? Nima bo'lsayam, hammamiz bir urug'ning odami! He, o'zimning Qo'ng'irotimdan!
...Ular kechgacha bir necha ovullarda bo'lishdi, xiylagina jun, teri xarid qilishdi. Berdiyorkampirning kayfi chog' bo'lib ketdi. Lekin Shoniyozning chehrasi ochilmasdi.
Qishloqqa tushib keldilar. Choy ichgani chinorlar ostiga o'tishdi. Salqin tushib qolgani uchunmi, suv qattiq sharillar, shoxlarni to'ldirgan maynalar chug'urlar, choyxona va restoranga olib boradigan tsement yo'lka atrofidagi rayhonlar xushbo'y hid ufurib, ular o'rtasidagi elektr chiroqlari porlar edi... Odam hamon gavjum, ayniqsa, Shahrisabzga o'tadigan shofyorlar ko'p.
— Qani, Shoniyozboy, o'tiring oshna! Buyuring! Ichkiliksiz buyuring!
Namozshom mahali Shoniyoz Berdiyorkampirni uyi eshigiga olib borib tushirdi.
— Salomat bo'ling! — dedi Berdiyorkampir. — Ertalab saharroqda keling-da! Uzunchuqurni obxod qilamiz... junga ehtiyot bo'ling, bolalar titib ketmasin. Ertaga topshiramiz buni. Endi men ko'rsataman ish qanday bo'lishini. Lekin Shoniyozboy, qovog'ingiz ochilmadi-da, uka!.. Sir bekitmas edingiz?
— E, Berdiyorkampir aka, — dedi Shoniyoz.
— Xo'p, siz ham charchadingiz, boring, ertaga gaplashamiz!
— Ertaga... men kelolmayman, — dedi Shoniyoz.
— Kelolmayman? Uch-to'rt kun birga bo'lamiz, deb kelishdik-ku?
— Gap unda emas.
— Xo'sh, nimada bo'lmasa?
— Sizni ertalab ishdan bo'shatishgan. Meni magazinga akangiz chaqirgan edi. Araq olganingizni ko'ribdi... Aytдим, ishonmadi. Ishonmayman, dedilar... Shu yerda bo'shatildi, hoziroq raisni top, dedilar. Yuzingizdan o'tolmadim, Berdiyorkampir aka... Gap shu.

UKKI SAYRAYAPTI

— Ariq labida qo‘lini yuvayotgan Iqlima shart o‘g‘irilib, yerga mushtladi:

— Yo‘q, nimaga shu manjalaqini olib borasiz?

Men aytdim-ku, xudo xayringizni bersin, boshqa o‘yinchi bilan boring deb. Lekin nimaga o‘chakishganday yana shu bilan borasiz? A?..

— U... — so‘ridan oyog‘ini osiltirib o‘tirgan Hafiz aka tilla tishlarini ko‘rsatib, siniq iljayganicha chaynaldi.

— Bilaman, — deb eriga o‘nglanib oldi Iqlima. — U pulni yaxshiroq teradi! Pul bermaganni askiya qilib bo‘lsayam pulini chiqartiradi. U chiroyliroq boshqa o‘yinchi qizlardan... Lekin... E, sizga gapirdim nimayu devorga gapirdim nima! — Iqlima shart turib, etagini yelpib tushirdi. Ayvon tomon jadallab o‘tar ekan, o‘zicha shang‘illadi: — Enamnikiga ketaman hozir. Kecha ukang Termizdan keladi degandilar. Kelgan bo‘lsa, u bilan Termizga ketaman, bolasini boqib yuraman. Nima ko‘rdim sizga tegib? — yalt etib qarab, qaddini bukdi. — Ayting, nima ko‘rdim? Topgan pulingiz boshingizdan qolsin! O‘zi esini yegan xotin artistga tegar ekan. — U to‘la yelkalarini silkitib uyga kirib ketdi.

Hafiz aka xo‘rsinib so‘ridan tushdi. Kalishini oyog‘iga ilib, o‘sha siniq iljayganicha uyga qarab yo‘naldi. Yo‘lakay qari tutning g‘adir-budir sarg‘ish tanasiga suyanib, buzoqnikidek ko‘zlari ola-kula bo‘lib turgan o‘g‘li Xoliqqa jahl bilan o‘shqirdi:

— Bor, o‘yna ko‘chada! Necha marta aytaman senga, ota-ona gaplashayotganida quloq solma deb. A? Marsh! — Hafiz aka shart egilib, o‘ng oyog‘idagi kalishni yechib oldi.

Xoliq zing‘illaganicha uy biqinidan o‘tgan toshloq yo‘lkaga chikdi, otasiga qo‘rquv, xavotir bilan qarab:

— Mana, ketyapman-ku... — dedi.

— Bor-bor! — Ota kalishni yuqori ko‘tardi. Xoliq ura qocha yaqinda shag‘al to‘kilgan ko‘chaga o‘tdi. Hafiz aka iljayib, kalishni yerga tashlagan edi, to‘nkarilib tushdi, u tirnoqlari qiyshiq oyog‘i bilan kalishni o‘nglab kiyib oldi. Uyda shang‘illayotgan xotining ovozi o‘chirish uchun ildamladi.

Xoliq ko‘chada bir dam gangib, qiya ochiq darchalarga tikilib turdi, so‘ng yalang, kir oyoqlariga qadalayotgan toshlarga ko‘z tashlab, nariroqqa o‘tdi va bir vaqt uy orqasidagi ariq ichida o‘lja qilgan musichasini tishlab turgan qora mushukka ko‘zi tushdi. Sekin yerga engashib, tosh olmoqchi edi, mushuk zorlanib «miyav», dedi va dik sakrab, qaldirg‘och kulcha o‘tinning tagiga kirdi. Xoliqqa qarab, uning yerdan ilkis tosh olganini ko‘rdi-da, yana «miyav», deya dik-dik sakrab, ariq ustidan o‘tgan devor kovagiga kirib ketdi.

Xoliq o‘lik musicha oldiga keldi, qo‘llarini tizzasiga tirab, unga boqdi va xuddi musichadek ovoz bilan «ku-ku, ku-ku», dedi.

Keyin u ota-onasi urishgan chog‘larida borib o‘tiradigan joyi — jar yoqasidagi changalzorga jo‘nadi. Yo‘ning nari tomonidagi kultepani chetlab, shudgorga tushdi. Yirik-yirik kesaklarga oyog‘ining uchini qo‘ya-qo‘ya traktor iziga tushib oldi. Ammo bu yerdagi mayda, qattiq kesaklar ham oyog‘iga ozor bera boshladi. U yana yirik kesaklar ustidan chopa-chopa shudgor pushtasiga yetdi.

Jar labida egilib o‘sgan yong‘oq ostiga borib, pastga qaradi, qamishlar oralab oqayotgan suvga tikildi. «Bunda andatra yo‘qmikin?» deb bir oz angraydi. So‘ng yong‘oq shoxlariga alanglay boshladi. Ko‘ziga bironta ham po‘st ajrab, ilinib turgan yong‘oq ko‘rinmadi. Xoliq quyiga qarab ketgan yolg‘izoyoq, tuproqli so‘qmoq yo‘ldan yurib, qamishzor bo‘yiga keldi. Qamish soyasida oyoqlarini suvda yozib, pufagini pishirib «quvaq-quva» deyayotgan baqaga o‘qraydi. Qalin lablari asta uchdi, yutindi va xuddi qurbaqadek «quvaq-quvaq», degan palag‘da ovoz chiqardi. Qamish ostidagi baqa shishadek ko‘zlarini baqraytirib yana vaqilladi.

Xoliq hafsalasi pir bo‘lgandek nari sohilga o‘tish uchun temir quvur tomonga qarab yurdi. U quvurdan dorbozdek pildirab o‘tarkan, onasining «Termizdan ukam keldi», degani yodiga tushdi. Tuprog‘i o‘ynab yotgan sohilga o‘tib, to‘xtadi. Uzog‘i yili tog‘asi unga: «Qani, yana bir sayrab ber-chi, jiyan, bulbul bo‘lgin, bulbul!» deganini xotirladi. Shunda Xoliq bulbul bo‘lib sayraganda, tog‘a tizzasiga urib: «Sendan mana shunaqangi taqlidchi chiqadi. Buni rivojlantir, xo‘pmi?» degan edi...

Xoliq xursand bo‘lib ketdi, tag‘in iziga qaytib, quvurdan o‘tdi-da, jar yoqalab ketgan so‘qmoqqa tushdi. So‘qmoqda sochilib yotgan somon qipiqdari va beda gullarini bosib ildamladi...

— Ke, jiyan, malades, jiyan! O‘tir bu yerga! — deb qo‘li bilan yoniga imladi shaharlik tog‘a.

Xoliq qip-qizarib ketib, supaga chiqdi va oyoqlarini sholchaga tegmasin uchun ko‘tarib, tizzasi bilan yurib bordi. Tog‘a uning boshini bag‘riga bosib, terlagan manglayidan o‘pdi.

— Menga qara, o‘, katta yigit bo‘p qopsan-ku? — dedi. — Balli, balli... O‘, soqollaring ham sabza urib

gopti. Ha, malades! Qani, hozir ham taqlidchilik qilasanmi yo tashlab yubordingmi? Tashlamaslik kerak, u juda-a noyob kasb.

— Yo‘-o‘q, bu yil Termizgayam borib keldi ashula bayramida. — dedi supa labida bir oyog‘ini bukib o‘tirgan o‘n bir yashar Egamcha.

— Ha, oblastda ikkinchi o‘rinni oldi bu, — dedi Egamning yonida cho‘kkalab o‘tirgan Shaydul. — O‘zidan so‘rang, o‘zi aytib beradi...

— O‘zlariyam ko‘rgandirlar, — dedi supaning nari labida oyokdarini chalishtirib o‘tirgan Hamdam g‘ilay va qo‘llarini sholchaga tirab, Xoliqqa tikildi. — A? Xoliqcha... Hoy, bulbul, artistning o‘g‘li! Gapirib ber tog‘angga...

Xoliq sariq, dag‘al sochli boshini quyi solib iljaydi:

— E-e, — dedi. Keyin Hamdam g‘ilayga yer suzib qaradi. — O‘zing xo‘roz urishtirganingni ayt avval.

— Nega aytmas ekanman, — dedi Hamdam. — Aytdim, mana Egamchayam tovuq o‘g‘irlaganini aytdi... Nimaga yashiramiz!

— Men ham soyda cho‘milganimizni aytdim, — dedi Shaydul va sholcha chetiga yonboshlab oldi.

— Ha, mayli, bizning jiyanni uyaltirmanglar, — dedi shaharlik tog‘a va Xoliqning yelkasiga urib qo‘ydi: — Enang yaxshimi? — boshqa, dilkash ohangda so‘radi: — A? Otang-chi? Nimaga kelmadi ular!.. Xoliq? Yaxshi yuribsizlarmi? Urishmaydimi bir-biri bilan ota-onang?

Xoliq boshini ko‘tarmay pichirladi:

— Hozir ham urishyapti...

— A-aa! — Tog‘a tizzasiga tap etkazib urdi. — Shunday de... O‘zi artistlar ko‘p urishishadi. Sen parvo qilma, jiyani. Sen... o‘qi, yaxshi o‘qi! Institutga kir... Endi, jiyani, xapa bo‘lma-yu sen ham artist bo‘lasan-da, a? Xapa bo‘lma, artistilik ham bir san‘at! El-xalq hurmat qiladi san‘atchilarni! Bir zo‘r artist bo‘l, haqiqiy artist bunday bo‘ladi de!

Shunda yaktagini lipa urgan basavlat bobo keldi, iljayib qo‘lidagi ikki palla tarvuzni o‘rtaga qo‘ydi.

— Qani buni olinglar, bolalar! Hoy, Egamcha, ke, o‘g‘lim, Shaydul, sen ham yaqinroq ke, G‘ilay nimaga urishganday teskari qarab o‘tiribsan... Olinglar! — bobo shaharlik o‘g‘lining yoniga cho‘nqayib, kiftiga so‘laqmondek qo‘lini qo‘ydi. — Hech qayoqqa bormaysanmi, o‘g‘lim? Bugun ziyofat yo‘qmi? Enangga aytay, bir osh qilsin, a?

— Mayli, ota, — deb kulib unga yelkasi osha qaradi shaharlik o‘g‘il. — Lekin men bular bilan bir Do‘lta g‘origa borib kelsammikin, deb turibman... Bir bolalik o‘tgan yerlarni ko‘raylik, a?

— Ha, borsinlar-da! — deb to‘ng‘illadi Hamdam.

— Bobojon, boraylik, — dedi Egamcha, bir karch tarvuzni olib, boboga zimdan qaradi.

— Boramiz, boramiz! — dedi shaharlik tog‘a. — Havotir olmanglar, mana endi Xoliqboyniyam olib boramiz.

Yirik ko‘zlari javdirab goh uning, goh buning og‘ziga qarab o‘tirgan Xoliq birdan tirjayib, bosh egdi. Tog‘a yana uning yelkasiga qoqib qo‘ydi:

— Boramiz, ol tarvuzdan!.. Ota, — u «bobo»ga murojaat qildi. — Esingizdan chiqibdi-da, a? Men torvuzni xush ko‘rmas edim. Ha, shu bilan kakku qushdan qimobman! Shu qushning ovozini eshitganimdan beri hech uyqu kelmaydi. Hov toqqa borganimda qo‘rqib kelganmanu?..

— Bilaman, bilaman. O‘shanda lablaringga uchuq toshib qayttan edi! — dedi «bobo».

Tarvuz birpasda sob bo‘ldi, pallalar ichida qo‘lchalarning kiri aralashgan qizg‘ish suv qoldi. Bolalar bu suvni ham maza qilib ichib yubordilar.

— Omin! Oblo akbar! Ketdik! — deb irg‘ib turdi shaharlik tog‘a, sidirg‘a ko‘k ko‘ylagining old tugmalarini qaday boshlar ekan, otasi pastdan tufisini olib, supa labiga qo‘ydi, u otaga jilmayib, rahmat deganday bo‘ldi.

— O‘g‘lim, tezroq qaytinglar-da, bo‘lmasam, — dedi «bobo», — a, Bakirjon? Bolalargayam ehtiyot bo‘l-da. — U shaylanib, shimini ko‘tarayotgan Egamchaga qarab oldi, allaqachon yo‘lga tushgan Xoliqqa ko‘z tashladi. — E, oyog‘ingda hech narsa yo‘qmi? — dedi. — Tikan-pikan kiradi, to‘qishib yiqilasan yo‘lda... U yoqda nima ko‘p, tikan ko‘p!

Tufisini kiyayotgan tog‘a Xoliqqa tikildi-da:

— E, jiyani, bu ishing yaxshi emas-ku? — dedi. — Qanaqa qilib boramiz bunaqada, a? Sen har qadamda oyog‘imga tikan kirdi, deb to‘xtasang, qachon yetib boramizu, qachon qaytamiz... Bu ishing bo‘lmabdi.

Xoliq javdirab, Egamchani orqasiga bekinib olgan Shaydulga qaradi, uning ham oyog‘ida hech narsa

yoʻqligini aytgisi keldi. Biroq togʻasiga moʻralab:

— Men... kiyib kelaymi yoʻmasam? — dedi.

Bakir qaddini rostlab, pastga tushdi, hovuz panjarasidan somon shlyapasini olib:

— Uylaring uzoq-ku, chopib borib, chopib kelasanmi? — dedi.

— Ey, borib kiyib kelsin-e, — dedi bobo. — Sizlar sekin-sekin ketaverasizlar-da! Bor, Xoliq! Chop, bolam!.. Ha, sher yigit!

Xoliq koʻzlari ola-kula boʻlib, «ketib qolmaysizlar-da!» deganday boʻldi, soʻng supa pastidagi qovjirab qolgan gulzor tarafga ikki qadam bosib:

— Togʻa, men darrov kelaman! — dedi.

— Darrov kelasanmi, boʻpti. Biz asta ketaveramiz, oʻzing yetib olasan, a, bolalar?

Bolalar ham chuvillab, Xoliqning tezroq borib kelishini tayinlashdi, sekin ketishlarini aytishdi.

Xoliq gulzorni oralab chopdi, bedapoyadan oʻtayotib, yoʻngʻichqaning yaqinda qirqigan pochleri oyogʻiga qadalganini sezdi, lekin unga parvo qilmay, chopa borib devorga yopishdi. Naryoqqa dumalab oshib tushdi. Yoʻtala-yoʻtala yoʻlkaga chikdi...

Xoliq qaytib kelganida oyogʻida sandalchasi, qip-qizarib ketgan, sochlari orasidan ter oqar edi. U hansirab, u yoq-bu yoqqa qaradi. Bolaxona ostida oʻtin yorayotgan bobosi qoshiga chopib bordi.

— Bobo, bobo.

— Bobo deguncha chop! — deb boltani gʻoʻlaga sanchganicha qomatini rostladi bobo. — Chop!.. Ular qishloqdan endi chikdiyov !

Xoliq shu yerdan burila solib uy biqinidagi devor kemtigidan oshib oʻtdi. Gʻovlab ketgan olchalar orasida toʻxtab, Doʻlta gʻorining qaysi tomonda ekanini bilmochidek, u yoq-bu yoqqa alangladi. Olchalar adogʻidagi sim toʻr devor tomonga birdan otildi-yu, yana iziga qaytdi. Koʻzi gʻilt yoshga toʻlib, bobosi yonida yana paydo boʻldi.

— Bobo, bobo! Ular qayoqdan ketdi? — Doʻlta gʻori qayoqda? A?

Bobo yana qomatini rostladi:

— E, nimaga yigʻlayapsan?.. Shu, — bobo qarshisidagi uyning tomiga qaradi. — Shu... maktabning yoni bilan ketdi-ya ular... Sen, — bobo burilib, soʻl tomondagi devorni koʻrsatdi, — sen bu yoqdan chiq, yaqin. Oʻzimiz suv bogʻlaydigan ariq bilan koʻchaga chiq, uchrashib qolasizlar. Agar oʻtib ketishgan boʻlsa, toʻgʻri chinorga boraver.

Koʻzlarini baqraytirib turgan Xoliq ura chopib, takxona muyulishidan oʻtdi. Tutga chirmashgan pastak tok zanglariga tegib ketishni ham oʻylamay, chopib ketaverdi. Qoʻshnining buzilgan devoridan sakrab, ariq boʻyiga tushdi, oʻng-soʻliga qaramay chopganidan kolxoz kartoshka poyasini oʻragan simga borib urildi, ariq boʻyida donlab yurgan tovuqni qoqalatib, nam soʻqmoqdan yugura ketdi.

U tuproq tagidan doʻqir-doʻqir toshlari chiqib yotgan koʻchaga yetib borganida, bir chol eshagini arikda sugʻorib turgan ekan.

— Bobo, anavi... manavi yoqqa bolalar oʻtmadimi? — dedi Xoliq. — Bitta shlyapali odam ham bor...

Semiz, qora kamzul kiygan, qora yuzida oq dogʻlari bor chol Xoliqning savoliga javob bermay, unga chuchmal iljayib turaverdi.

— A, bobo, oʻtmadimi, a? — dedi Xoliq. — Aytin...

— Kim deding? — oʻsha tabassumida soʻradi chol. Xoliq yigʻlab yubordi:

— Bolalar, bitta shlyapali odam ham bor.

Chol koʻcha boshidagi burchagi koʻrinib turgan oq maktab tomonga jiddiy oʻylanib qarab:

— Yoʻq, — deb sallali boshini qimirlatdi. — Oʻtmadiyov.

— E! — Xoliq oʻsha yoqqa qarab chopib ketdi. Maktab yonidan pionerlar lageri joylashgan chinorlar tomonga oʻtuvchi qumloq yoʻlda toʻxtab, xuddi bolalar bilan togʻasi bu yerdan hali oʻtmagandek, ular kelishi mumkin boʻlgan yoʻlga qaradi va soʻragani bironta odam izlab alangladi.

Koʻchadan chopib ketgan edi, oʻng tomondagi pastak devor ortida uyning poydevorini qurayotgan ikki yigitga koʻzi tushdi, taqqa toʻxtab:

— Xoʻv, aka! — dedi pishitilgan loyda toʻpigʻigacha botib turgan yigitga. — Hoʻv, aka, shu yoqqa bolalar oʻtmadimi? Bitta shlyapali bilan?

Yigit manglayini tangʻigan roʻmol uchida koʻzini arttdi:

— Oʻtdi, e-e, ancha boʻldi, uka. Hozir chinorga yetdi ular, — dedi.

Chimzorda, paxsa yonida cho‘nqayib bir ko‘zini qisgancha uning to‘g‘riligini chamalayotgan sherigi ham:
— Ha, ular hali soyga tushishmagan bo‘lsayam, chinorga yetdi! — dedi.

Xoliq chinorlar qad ko‘tarib turgan tepalik bag‘riga qizil qumni changitib chiqib borganida, tupuklari tanglayiga yopishib, bo‘g‘riqib ketgan edi. U ko‘prikda turib, suvda koptok o‘ynayotgan maykachan bolalarga qaradi va bir nafas serrayib qoldi. So‘ng olisdagi sarg‘ish gaza boshida bir necha bolalarni ko‘rdi. «Shular!» deb o‘ylab, yana chopa ketdi.

Ular shu mahallaning bolalari bo‘lib, chillak o‘ynayotgan ekan.

Xoliq gazaning tepasida qaqqayib, shimoldagi tog‘ yon bag‘rida yastanib ketgan adirlarga bokdi, bir eshakni arnaga solib, ustiga minmoqchi bo‘layotgan tengquridan so‘radi:

— He, jo‘ra, shu yoqqa bolalar o‘tmadimi?

— Bolalarmi? Bolalar o‘tdi, hozir o‘tdi, anavi do‘ngning orqasida! — dedi u va Xoliq bug‘doypoyaga oralashi bilan qornini ushlab kula boshladi. — Aldadim, anavini aldadim! — dedi sheriklariga.

Xoliq bu gapni eshitmay chopib borardi. Belgilagan gazasi o‘rkachiga chiqqanda, oyoqlari qaltirar, tomog‘i achishar, afti allanechuk shishib ketgan edi. Oldinda tekis, tobora ko‘tarilib borgan adirlar...

Shunda Xoliqning yonginasiga boshi katta, eshaktikan uchiga qanotlari qizil, ko‘ksi sariq tog‘ bulbuli kelib qo‘ndi va «Chu-chu! Chu-lu-lu-lu!» deb sayradi. Xoliq unga gangib qaradi. Qush g‘oyat beparvo, shu adirlar kabi loqayd edi.

Xoliq bo‘ynini cho‘zib, yana uning sayrashini eshitdi-da:

— Chu-lu-lu-lu! — dedi beixtiyor.

Qushcha hurpayib silkindi, so‘ng pir uchib, hali sarg‘aymagan yantoqning qizil gulli shoxini mayishtirib qo‘ndi, yana sayradi.

Xoliq cho‘nqayib o‘tirdi, boshini tizzalari orasiga oldi va xo‘ngrab yubordi...

So‘ng bir-bir bosib, orqasiga qaytdi. Boya chillak o‘ynayotgan bolalar yonidan o‘tayotib, eshak minib o‘tirgan bolani izladi. U yiqilib tushgan devorga minib o‘tirar, shisha sinig‘i bilan devorga chizar edi.

— Ha, topdingmi bolalarni? — dedi u va chalqancha bo‘lgudek o‘zini orqaga tashlab qotib-qotib kuldi.

— Ha, seni... — Xoliq uni bolaxonador qilib so‘kdi-da, pastga g‘izillab ketdi. Ko‘prikdan o‘tib, ko‘chaga tushdi.

Xoliq maktab yonidan o‘tayotib, uning hovuzidan suv ichdi, tizzalari zirqirab og‘rir edi, nam yerda bir oz o‘tirdi. Yalang yurib o‘rgangan oyoqlarini sandalcha urib qo‘ygan edi. Xoliq uni yechib oldi, barmoqlari qavargan oyoqlarini yerga asta-asta bosib, yurib ketdi.

U bobosi chorbog‘iga kirib borarkan, nazarida, ular o‘zidan avval yetib kelgandek tuyuldi. Ildamladi. Takxona muyulishidan o‘tib, mang‘alga o‘t yoqayotgan bobosini ko‘rdi-da, yana yig‘lab yubordi.

— Ha, — dedi bobo. — Topolmadingmi?

— Yo‘q, — dedi Xoliq hiqillab.

Bobo achindi, payrahani tizzasida qars sindirib, o‘tga tashladi.

— Hey, shu Bakir ham yosh bolaga o‘xshaydi-da. Yig‘lama, bolam. O‘t supaga, qovun so‘yib ye... Yo tarvuz yeysanmi? Ana, xohlaganingni polizdan o‘zing olib chiq... Bakir tog‘ang kelsa, davara qilib qo‘yaman. Nimaga aldading yosh bolani deyman. Bor, qo‘zim.

Xoliq bu erkalashlardan bir oz yengil tortib, supaga bordi. Supa labiga mung‘ayib o‘tirdi. So‘ng bu yerda yaqinginada tarvuz yeganlari, tog‘asining iljayib: «Ota, men tarvuzni xush ko‘rmasdim-ku!» degani yodiga tushdi.

Shunda uning kakkudan qo‘rqaman deganini ham eslab qoldi-yu, biror narsa qiladiganday qo‘llarini supa labiga tiradi. Keyin tog‘asining hamisha qishloqqa kelganida «bir toza havo olay» deb shu supada baxmal ko‘rpalarda yotishini xotirladi. U bedapoya yoqasidagi bahaybat yong‘oqqa, uning bo‘z rang tanasi, silliq shoxlariga tikildi...

— Bobo, men uyga boray, enam xavotir oladi, — dedi.

— Birona qovun ola ket, — dedi bobo. — Yeysizlar. E, Bakiri tushmagur-ey... Qiziqib ketganda uyam... Enangga ayt, tog‘am uyda de, kelib ko‘rsin, xo‘pmi? Otanggayam tayinla.

Xoliq poliz oralab, dum bergan oq novvotni uzdi-da, qo‘ltiqlab yo‘lkaga tushdi: .

— Bobo-o, mana qovun oldim.

— Yaxshi qipsan, — dedi bobo. — Xafa bo‘lma, nevaram... O‘zim bir kuni olib boraman seni Do‘lta g‘origa, tarixiniyam aytib beraman.

Xoliq shunda supa yonida poyafzalini unutganini esladi, qovunni yo'lkaga qo'yib, sandalini kiyib qaytdi, qovunni qornida ko'targanicha lapanglab chiqib ketdi.

Oradan biron soat chamasi vaqt o'tdi, shaharlik tog'a shlyapasi bilan yelpinganicha uy ortidagi devordan oshib tushdi, unga ergashgan bolalar ham chug'urlashib oshib tushdilar.

— Xo'-o'p, — dedi tog'a yo'lkada to'xtab. — Endi, yigitlar, sizlarga javob. Ertaga uchrashguncha xayr. Bolalar xo'shlab tarqalishdi. Tog'a tufisini yerga urib qoqa-qoqa chorpoqqa yaqin keldi.

— Da-a, — dedi.

Supada cho'zilib yotgan «bobo» unga qaradi.

— Keldingmi?

— Ha, ota! — dedi shaharlik o'g'il. — Uff... — u chorpoqa chetiga o'tirib, otasiga qaradi. — Ota, Xoliq keldimi?... Biz uni rosa kutdik, bormadi orqamizdan?

— Ey, qo'yinglar-e... Bolani aldamaslik kerak, ko'ngli nozik bo'ladi, — dedi «bobo» chalqancha yotib, so'ng davom etdi: — Bechora yig'lab-yig'lab uyiga ketdi. Sen o'zing bola bo'lmagansanmi, o'g'lim...

Shaharlik o'g'il qomatini rostlab, xayolga cho'mdi.

— Ha-a, yaxshi ish bo'lmabdi-da, xafa bo'lgan bo'lsa! — dedi. — Qayoqqa boribdi u?.. Adashgandir-da?

— Adashgan-da, — dedi ota. — Aytib ketish kerak edi.

— Men... men endi o'zi biladi, deb o'ylabman-da. Lekin yo'lda hayolimga kelgan edi-ya... Da-a, chatoq bo'пти-da!

— Qo'y, gapirma.

Shaharlik yalang oyoq bo'lib, pastga tushdi, ko'ylagini yechdi va paqir ko'tarib, hovuzning suv oladigan tomoniga ketdi. Suv olib, yuvindi. Sovqotgandek bo'lib, bolaxonaga chikdi va karavotga cho'zilib, yerda yotgan gazetaga tikildi. Shu bo'yi uxlab qoldi...

Kechasi allamahall edi, oy bedapoya adog'idagi jiyda shoxlari ustida nur taratib turar, hovuzda baliq cho'lp-cho'lp etib o'ynardi. Jimjitlik. Qaerdadir kaltakesak tak-tak etib sayraydi. Bakir tog'a shoxsupada tunda sovuq bo'lishini bilganidan baxmal ko'rpaqa o'ranib yotar, erta uxlab olgani uchun to'shak yomon solingandek u tomonidan bu tomoniga ag'darilar edi.

Nihoyat, u uf tortib chalqancha bo'ldi-da, oyga qaradi. Xo'rsindi, yodiga rahmatli momosining oyga ko'p qaramaslik kerak, degan nasihati tushdi, beixtiyor ko'zini yumgan edi, oy yoritib turgan jimjit bog'dan dahshatli titroq ovoz taraldi:

— Kak-ku, kak-ku...

Tog'a qulokdariga ishonmay, boshini ilkis ko'tardi va o'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi. Atrof jimib qoldi. «Menga shunday tuyuldimi?» deb o'ylab, boshini yostiqa qo'ydi, yana titroq, qo'rqinchli ovoz yangradi. Endi ovoz etak tomondagi yong'okdan kelayotgan edi. Bakir o'rnidan tura solib, shosha-pisha poyafzalini izladi. Shunda ovoz yana takrorlandi, tog'a ura qochib chorpoqa yoniga bordi.

Sharpadan uyg'onib ketgan ota:

— Ha? Kim u?.. Bakirmisan, tinchlikmi? — dedi.

— Men, men, Bakirman, ota, — dedi Bakir hayrat va hayajondan hansirab. — Kakku sayrayapti, ota... Quloq soling... Ana-ana! — U chopib zina qoshiga bordi. Shunda ovoz tag'in takrorlandi. Bakir zinadan lipillab, bolaxona ayvoniga chiqib oldi.

— Ota-a, miltiq bormi? — dedi mungli ovozda. — Oting!

Shu vaqt onasi va kenja ukasi Hamdam g'ilay ham uyg'onib ketdi.

— Rost, — dedi ota quloq solib. — Qaysi go'rdan paydo bo'ldi u? Otib o'ldiraymi, onasi?

— Qo'ying-e, uchib ketadi, — dedi kampir, — Tunda miltiq otasizmi? Ziyodning xotini boshqorong'i, tag'in bolasi tushib, baloga qolib yurmang!

Bobo iyagini lo'la bolishga qo'yib jimidi.

— Ha, ota? Nimaga indamaysiz? — dedi Bakir.

— E, uchib ketadi-e, o'g'lim... Qo'rqsang, bolaxonada yot! — dedi u va xotiniga to'ng'illadi: — Uyga joy solib ber.

Ona uyquli qadam bosib, dovdirab zinadan bolo-xonaga chiqar ekan, Bakir:

— Hayronman, — deb ming'illadi va yana qulog'i ding bo'ldi.

Shunda yong'oq shoxi qars etdi, «ih» degan ovoz keldi. Hamma o'sha yoqqa quloq tutdi. Jimlik. Keyin yong'oqdan kimdir tap etib, o'zini yerga tashladi-da, devor tomon chopdi, nari yoqqa gup etib tushdi.

— Bu... Xoliq artist, ota, — dedi Hamdam. — Alamidan shunday qilyapti.

— Yo‘g‘-e? -Ha.

— Chaqir uni bo‘lmasam, uyiga borib yuradimi?

— E, boradi... Ketdi.

— Viyy, — deb qoldi kampir.

Bakir tushib, joyiga borib yotdi, oy tepaga kelganida uyqu elitdi uni. Tush ko‘rdi: tushida Xoliq ukki qiyofasida emish... G‘o‘ldirab uyg‘ondi.

Ertasiga Bakir opasining uyiga yo‘l oldi, darvozasiga yetganda, tomda olmaoqi supurayotgan Xoliq uni ko‘rib, sakrab pastga tushdi-da, sevimli changalzori tomonga ketdi.

Bakir ham uch kundan keyin shaharga jo‘nadi.

1972

ORA YO'L

Kishida shunday holat paydo bo'ladi: atrofingdagi narsalar seni qanoatlantirmay qo'yadi, baridan zerikkanday his qilasan o'zingni; ishingdan ham, uyingdan ham, shahringdan ham, hattoki, seni uyingga eltadigan asfalt yo'lingu sen qatnaydigan transport vositalaridan ham ko'ngling sovib ketadi. Bunga arzimas bir narsa ham sabab bo'lishi mumkin. Shunda birov ichadi, birov tomoshaga tushadi, birov ovga...

Men xuddi shunday holatga tushib, Termiz tomonga ketayotgan edim. Yo'l Eski Termiz vayronlari yoqalab o'tib, shaharga kiradi. Yangi Termizning hozir biz ko'rib, yashab turgan yigirmanchi asr shaharlaridan farqi yo'q... Shu vayronalar yonidan avtobusdan o'gib ketayotib, ko'nglim birdan to'lishib ketdi. «To'xtating!» dedim shofyorga. Shofyor hayron bo'ldi, to'xtadi. Men pastga tushdim. Albatta, u menga biror shubha bilan qaragan bo'lishi mumkin, negaki, yo'lning bir tomoni cheksiz qum barxanlari bo'lib, bir tomoni vayronazor, uning chetidan Amu o'tadi. Amuning nari beti Afg'oniston, xorijiy yurt... Yo'ldan chiqib, bukchayib o'sgan jiyda ostiga bordim, chekib bir oz o'tirdim. Qarshimdagi ulkan choldevorlarga, azamat paxsalarga qarab turarkanman, bu makonning tarixi haqida o'qiganlarim, yuragimga o'rnashib, uning bir bo'lagi bo'lib qolgan moziy manzaralari meni o'rab-chirmab olgan edi. Beixtiyor o'rnimdan turib, o'sha vayronalar sari yo'l oldim. Nazarimda, men o'sha yoqqa borib, orqaga qaytmaydiganga o'xshar edim. Ketyapman, choldevorlargacha bir necha gektar yalang maydon yastanib yotibdi, bu yerda yavshan va yantoqlar o'sadi, ular ham yozning jazirasida qovjirab bitgan. Lekin ular tagida yerdan uch-uchlari chiqib turgan, men uchun qadrlil narsalar bor: sopol siniqlari, g'isht parchalari. Bular qadim koshonalar, idishlar qoldig'i. Tarixdan bilishimcha, bu shahardagi gurkiragan hayot mo'g'ul bosqinidan keyin so'ngan. Bir tarixchi do'stimning ta'rificha, ehtimolki mana shu sopol siniqlari, g'isht parchalarida o'sha, non pishirishni bilmayoq odam o'ldirishni o'rgangan mo'g'ul otliqlarining tamg'alari bordir? Maydon metindek isib ketgan ekan, choldevorlarga yetguncha chanqadim. Lekin iloj qancha? Devorlarning ustini, ular orasini ham ko'chma qumlar bosib ketgan. Yurish og'ir. Chetchetdan, sakrab-sakrab, goh tizzadan qum kechib, goh devorlar usti bilan ketaverdim. Bu yerlar ham issiq, atrofimda qanoti sarg'ish afg'on chumchuqlari ko'p, devorlar kovagini in qilgan. Hansirab-halloslab, bu mash'um makondan ham chiqib oldim. Yana yalanglik boshlandi. Shu yerda to'xtab, bu yoqqa nima uchun kelganimni esladim, sababiga tushunolmay turgan edim, olisda — daryo bo'yida ko'tarilib turgan qoramtir tepaga ko'zim tushdi. Hovliqib ketdim: axir bu tepaning ostida ikki ming yil burun qurilgan butparastlarning ibodatxonasi bor! Bu ibodatxona naq Qo'shonlar hukmronligi davrida qurilgan, chunki o'sha vaqtda budda dini bu o'lka uchun ham davlat dini, deb e'lon qilingan. Uch-to'rt yuz yil davomida budad bu yerda hokim din sanalgan. Bu orada Termizning o'zidan butparastlikni targ'ib qiluvchi kohinlar yetishib chiqqan, o'shalar yordamida bu din Xitoyga, undan Yaponiyaga o'tgan. Imperiya inqirozga yuz tutgandan keyin, buddaning ham puturi ketib, o'rnini yerlik xalqlar dini zardushtiylikka yana bo'shatib bergan. «Qora tepa, Qora tepa!» deya ildamlay ketdim. Bunday vaqtda ko'zga yo'l ko'rinadimi! Birpasda tepaning ostiga yetdim, unga zavq-shavq bilan tikildim. Men dinparast emasman, lekin inson zakovati yaratgan hamma narsani hurmat qilaman. Budparastlik esa Qo'shonlar davrida davlat dini deb e'lon qilingach, u hind san'ati-madaniyatining ham O'rta Osiyoga tarqalishida ijobiy rol o'ynagan. Asta-sekin tepaga ko'tarilar ekanman, ko'z oldimda ibodatxonaning qadimgi ko'rinishi namoyon bo'la bordi. Hindistondagi ko'plab ibodatxona g'orlarda qurilgan, bu ibodatxona ham o'shalarga takdidan bino qilingan, lekin ibodatxonaning qurilishidan tortib, rasm-rusumlar, undagi haykallargacha yerlik xalq an'alariga bo'ysundirilgan albatta! Tepaga chiqqan yerimda arxeologlar qazigan ariqqa duch keldim, chetdagi qum bosgan marmar takkursiga ko'zim tushdi. «Tak-kursi!» Shubhasiz bu takkursining ustida azamat kolonnalar — ustunlar ham turgan, u ustunlar albatta Rim, Iskandariya, Afina shaharlaridagi mashhur ustunlarga o'xshagan. Chunki Qo'shonlardan ilgari bu yurti zabt etgan greklar san'ati ta'siri ham qolgan-da!.. Shu ustunlar oralab-oralab greklarnikidan farq qiluvchan kuloh va ularning yopinchig'iga o'xshash kiyim kiygan kishilar yurgan. Ularning bir xili eron tilida, bir xili esa sanskrit tilida gaplashgan. Ko'pchiligi qo'shon tilida so'zlashgan. Qo'shon tili! Tillar ham o'zgarar ekan, hozirgi zamonning manman degan olimlari ham u tilda bitilgan va xuddi shu ibodatxonadan topilgan xatlarni to'liq o'qib chiqa olgani yo'q, ularning alfaviti ham g'alati bo'lgan. Men ariq yoqalab, ibodatxonaga olib tushadigan g'or og'ziga yetdim. Shunda bir oz seskandim, chunki ichkari zax, u yerda issiqdan qochgan ilon-chayonlar ko'p bo'lishi mumkin. Lekin men shu tobda dunyo topgan telbadek hayajonda edim. Bilinar-bilinmas ko'rinib turgan zinaga oyoq bosishim bilan pastga tushib ketdim, zinalarni ham ko'chma qum bosgan ekan. Serrayib turib qoldim. Bir ozdan keyin uzun g'or ichi yorisha boshladi. Yon-verimga qarab, kohinlar sham o'rnatib qo'yadigan

tokchalarni ko'rdim. Ikki qadam bosib, yana to'xtadim. Mendagi seskanish qo'rquvga aylana boshlagan edi. Shunda g'orning to'riga tikilib, uning naryog'dagi teshigidan tushayotgan nurni ko'rdim, hiyla yengil tortdim. Endi shoshmay, ehtiyotkorlik bilan hamda bemalol mulohaza qilib, olg'a jilishim mumkin edi. Jildim. Darvoqe, buddaning haykalidan qolgan o'ng qo'lini professor Masson mana shu yerdan topmaganmi? Ibadatxonaning o'rtasidan topildi, deyildi-ku? Nega qo'lini! Gavdaning boshqa qis-mi qaerda? Bu ibodatxonadagi hayot VII asrlarda so'nib, arablar bosqinidan keyin bu yer tamom ko'mib tashlangan. Shunda bir necha musulmoni komil kirib, haykalni sindirib tashlagan-da. Nima ham bo'lib, qo'li qolgan budda... Nazarimda, hozir oppoq, Rimdan keltirilgan qorishmaga ganch aralashtirib yasalgan budda ro'paramda bir qo'lini oldinga cho'zib turgandek tuyuldi. Xayolan unga tikildim: ha, budla, lekin Hindiston butlaridan farq qiladi, buning chehrasida insoniy ifoda bor, bu insonga yaqin budda! Buni shu yerlik, shu yurtlik ustalar yasagan va unga insoniy qiyofa berishga aqlari yetgan. Men xuddi buddaga tegib ketishdan qo'rqqandek, chetdan o'tdim. Muyulishga yetganda, devorlarning hamon qizg'ish ekaniga e'tibor qildim. Ana, anavi yer chizilgan, o'chirilgan. U kimning surati bo'ldi ekan? Boshida temir qalpoq, qulog'ida sirg'a? Anavi kiyiklar. Bu qanday yozuvlar ekan? Ha-a, bunisi qo'shon yozuvi bo'lsa kerak, harflari kitoblarda ko'rganimdek: bir-biriga ulanib ketgan «o»larga o'xshaydi. Anavi yozuv sanskrit bo'lsa kerak. Unisi arab yozuvi. O'tkinchilar qoldirgan bu yozuvlarni shubhasiz. G'orning bu teshigidan tepaga chiqib oldim. G'alati holda edim, shod bo'lib shod emas, g'amgin bo'lib g'amgin emas... Chamasi, men asrlar davomida taraqqiy qilgan antik san'atimni oqibatda badaviy lashkarlar toptab, yo'q darajaga keltirganini o'ylab, g'ijinar edim. Lekin ayni chokda san'atparast xalqim keyinchalik fotihlarning tazyiqiga ham qaramay o'zi yaratgan koshonalari, tilsiz-zabonsiz geometrik chiziqlar, bo'yoqlar o'yinida o'z qalbini izhor etib qoldirgani ko'nglimga tasalli berardi. Axir Buxoro, Samarqand, Xiva minoralari, ular bezaklarida inson obrazi yo'q deb kim ayta oladi?! Tepaning o'rkachiga chiqib o'tirdim. Kashandalik xumori: chekdim. Amuning nari sohillariga boqdim. Ko'zada suv olib ketayotgan afg'on ayollarini ko'rdim, qumloq sohildagi shahar chegarasiga tikilib, o'sha yurtdagi Hirotni, Navoiy qabrini esladim. U yurtda qolib ketgan millionlab o'zbeklarning hozirgi hayoti haqida o'yladim. Keyin u yoqqa teskari qarab o'tirib oldim: men qarshimdagi mana shu shahar qabristonini, ming yillarning izi qolgan go'shani ko'rmoqchi bo'lib keldim-ku? Garangsib o'tirarkanman, quyoshning botayotganiga ham parvo qilmasdim: qotib o'tirgim kelardi. Nimaga? O'tmish uchun motam tutganimi? Yo... bugun ertalab xafa bo'lganimdanmi? Bilmayman. Shunda birdan oftob botib ketdi-yu, meni hayratga solib, qorong'ilik cho'kdi, birdan osmonda yulduzlar charaqlab ko'rindi. Ha, bu yurtda shunday: quyosh botdimi, qorong'ilik tushadi.

Ketish kerak edi. Turdim. Pastga tushdim. Ketyapman. Lekin bir necha qadam bosgach, nazarimda bu yerni butunlay tashlab ketayotgandek bo'ldim. Dastlab jahlim chiqdi, «yana qaytib kelaman!» dedim. Lekin shu payt tizzamgacha qumga botib, orqa tarafimdan shamol esayotganini payqadim. Sergaklanib ketdim: Afg'on shamoli?! Bunaqangi shamol O'zbekistonning hech bir yerida bo'lmaydi hisob, hatto Qo'qonda ham. Bu shamol turganda, goh bir-ikki kunlab, goho soatlab davom etadi. Termiz osmonini qizil qum buluti bosadi. Odamlar uylari derazalarini bekitib olishadi, shunda ham u tiriqishlardan kirib, tishlar orasida g'ijirlaydi; kuppa-kunduz kuni mashinalar chiroqlarini yoqib, zo'rg'a yuradi. Qum ko'chadi, shafqat bilmaydigan ko'chish boshlanadi. Besh-o'n qadam bosib, yana to'xtadim. Yo'q, o'tkinchi shabada ekan, o'tib ketdi. Lekin uning dahshati ko'nglimda qoldi. Vayronalarga yaqinlashib bordim. Boyqush ko'p ekan. Boyqush ham qush-da deyman. O'zimni ovutaman. Bo'lmadi. Shunda choldevorlar ichi tun hasharotlarining turli-tuman ovozlari to'lib ketdi-yu, tizzalarim titrayotganini sezdim... Bir necha daqiqadan keyin men qochib borardim. Meni, tevarakni qurshagan tun vahmi, o'lik shaharning vahimasi, uni makon qilgan boyqushu hasharotlar, ilonlar-chayonlar orqamdan ta'qib etar... o'tmishim, har satrini kitoblardan ko'zimni to'rt qilib o'qigan iftixorbaxsh o'tmishim meni ta'qib etar, meni vafosizlikda ayblayotgandek bo'lib, orqaga tortayotganga o'xshar edi. Lekin men qochib borar edim. Qaerga qochayotganimni yo'lga chiqib, o'tkinchi taksiga o'tirganimdan keyin sezdim; nimagadir charm o'rindiqqa yastanib, uning yumshoq suyanchiqlarini siladim, nima uchundir nuqul shofyorni galga tutdim: qaerdan kelyapsiz, nima yumush bilan borgan edingiz? Shoymardon Qudratov bu yil ming tonna paxta terarmish, rostmi shu gap? Paxta qalay? Shofyor bo'lsa menga shubhalanib qarar, buni sezib, kulardim. Ko'zim esa oldinga, derazadan ko'rinayotgan Yangi Termiz chiroqlariga tikilgan, ularni sanayapmanmi? Xayolimda bir orzu — tezroq uyimga yetish, oilamni ko'rish, kresloga yonboshlab, televizor tomosha qilish...

Shundan keyin men bu holatim haqida ko'p o'yladim va bir narsani kashf etdim. O'tmish... Men o'tmishga qaytolmayman, lekin undan butkul uzilib ham ketolmayman. Chunki men bugungi kunning odamiman.

TIKAN ORASIDAGI ODAM

Bug‘doypoyada sariq tikanlar mo‘l, ular ochilib turgan allaqanday gullarga o‘xshaydi. Zarg‘aldoqlar «chulu-lu» deb tikan shoxlariga bemalol qo‘nadi, sovuqda junjikkandek hurpayib oladi. Ehtimol, tikanlar ostida inlari bordir, movut parchasi, xas-cho‘pdan yasalgan. Hozir kuz boshlanib qolgan...

Kun choshgoh. Adir ustida quyosh gardishi oqarinqirab nur sochyapti. Bug‘doypoya yoqalab o‘tgan tuproq yo‘lda oq yolini yelpitib, bo‘z ot yo‘rg‘alab kelyapti. Egar-dagi barvasta yigit qizargan ko‘zlarini horg‘inlik bilan ochib, uyoq-buyoqqa qaraydi. Egnida oq, kalta po‘stin. Boshida shapka, uzangiga tiralgan oyoqlarida kirza etik. O‘ng qo‘lidagi qamchi egar yonida osilib turibdi. Chap qo‘li bilan yuganni siltab-siltab qo‘yadi. U yonbag‘irdan ko‘tarilib, g‘uj bo‘lib o‘sgan tikanlar orasida allanechuk g‘ujanak bo‘lib o‘tirgan kishini ko‘rdi. Kishi ham otliqni ko‘rdi-yu, irg‘ib turdi. Afti dard va alamdan tirishdi. Shitob bilan yurib, yo‘lga chikdi. Yigit ham yuganni tortib, unga behol qarab turdi. U kelib, yugan tasmaidan ushladi:

— Qalay? — dedi.

— Nima «qalay?» — to‘ng‘illadi yigit.

— Meni qiynama, uka!

— Bo‘pti. Bo‘lar ish bo‘ldi.

Tikanzordan chiqqan kishi ko‘zi yer chizib, ot o‘mrovidagi xasni chimdib tashladi:

— Meni afv et, uka.

— Qo‘ying, men bir oz dam olay. Bironyasi so‘rasa, Qorabog‘dagi hovuz bo‘yida, deng.

Suhbatdosh shoshdi:

— Yuring bo‘lmasam. U yerda qarindoshim bor, to‘shak opchiqib beraman. Ovqat qilamiz!.. Ketdik!

— Tomoqdan ovqat o‘tadimi!

Haligi kishi boshini xam qildi:

— Xo‘sh... — otliq yuganni silkitdi, qamchi ushlab turgan qo‘li og‘ir tebrandi. Ot yo‘rtib ketdi.

* * *

Quyosh botib, atrofga qorong‘ilik cho‘kkan, bug‘doypoya ortidagi chayla yog‘ochiga ilib qo‘yilgan «Spidola» baqirib ashula aytar, boyagi tikan orasidan chiqqan kishi chayla poyasiga suyanib o‘tirib, pichoq bilan yog‘och yo‘nar edi. Bu odam o‘tgan haftagacha bo‘limning agronomi bo‘lib, takabburligi va manmanligi tufayli ishdan olingan, bunga uning savodsizligi ham sabab bo‘lgan edi. U qattiq xafa bo‘lib: «Amalni ko‘rdim, endi qorovulchilikni berasan!» deb turib oldi, direktor ham uning aftiga bir nafas xo‘mrayib tikilib turgach: «Bo‘pti bo‘lmasa!» — dedi.

Etakdagi so‘qmoqda haligi otliq ko‘rindi. Bu yigit o‘tgan yil institutni bitirgan agronom bo‘lib, bog‘dorchilik brigadasiga boshchilik qilardi. Eski agronom tushgach, kattalar uning o‘rniga shu yigitni ko‘tarib qo‘ya qolishdi.

— Salom, Amirqul aka, hormang!

— O‘zingiz hormang, biz horishdan keyin tug‘ilgan yigit! — deb uni qarshi oldi dala qorovuli.

— Yo‘q, horigan ko‘rinasiz, — dedi yosh agronom. — Etakdan bir xabar oling, shudgor qilib ketibdi yana jayralaringiz!

— Balki, men shudgor qilgandirman, Mirhaydarjon, — semiz, go‘shtdor yuzini silab agronomga tikildi Amirqul aka.

— Yo‘q, siz shudgor qilmaysiz. Siz to‘qsiz-ku, — to‘ng‘iladi Mirhaydar.

Amirqul aka pichog‘ini sholchaga sanchib, irg‘ib turdi:

— Men to‘q?! — dedi va o‘ylanib, kulib yubordi. — Ha, men to‘qman! Yiqqanim yetti pushtimga yetadi. Qo‘sha sigir ham bor, bo‘rdoqiyam bor, matasekl ham bor. Senda... shu amaldan bo‘lak narsa yo‘q, agar undan tushsang, tishingni so‘rib qolasan!

— Bachkanalik qilmang! — dedi Mirhaydar. — Nima bo‘ldi o‘zi? Yo qorovullikniyam eplolmaysizmi? Ayting unda. Nimaga baqrayasiz? Topshirilgan ishni qiling-da! Miltiq qani?

— Menga miltiqning keragi yo‘q.

— Gap munday: men sizni ogohlantiraman, Amirqul aka, men bilan o‘chakishmang. Yaxshi bo‘lmaydi. Mendan alam olaman deb, sovxozga zarar yetkazasiz.

Amirqul aka miyig‘ida jilmayib, bosh chayqadi:

- Sovxozning manfaatini ko‘zlaydigan odam!..
- Ha, men shunday odamman, — dedi Mirhaydar. — Siz ham shunday bo‘lasiz. Agar shunday bo‘lmasangiz...
- O‘! Shu qorovullikniyam ko‘p ko‘ryapsizlarmi hali? Hoy, bola! Mening qitiq parimga tegaverma, bildingmi? Men o‘sha raykomingniyam, direktoringniyam bir chaqaga olmayman! Eshityapsanmi?! Bir chaqaga! Men hammasini ko‘rdim! Bir boshim, ikki qulog‘im bor! Xotin, bola-chaqa — nima u!
- Siz yaqinda odamgarchilikdan ham chiqasiz.
- Xo‘p, uka, — kulimsiradi Amirqul aka. — Sen jo‘jadan shu gaplarni eshitdim-a. Ha, mayli! Xor bo‘ldikda, a? Yo‘-o‘q. Chuchvarani xom sanama, chirog‘im! Bilasanmi, dunyo keng! Bu yer to‘g‘ri kelmasa, boshqa yer bor. Sovet hukumatining yeri ko‘p!
- Mirhaydar otini etakdagi bog‘da qoldirib, shom qorong‘isida qo‘lida ikki miltiq bilan xurjunni ko‘tarib keldi. Miltiklardan birini qorovulning oldiga tashlab, ikkinchisini o‘zi o‘kday boshladi.
- Bu kecha men ham siz bilan qorovullik qilaman.
- O‘, o‘zlariyam kattalarga yoqmay qoldilarmi, deyman. Tayyorgalikmi bu?.. Bu kecha jayra ovlarkansiz-a?!
- Ha, jayra ovlaymiz. Qani, nimangiz bor yegulik? Menda mana bular bor... Siz ichasiz-a?
- Ichamiz ham!
- Yo‘q, bu kecha ichmaymiz.
- Adashib bir-birimizni otib qo‘yishimiz mumkin deysiz-da?
- Shunday... O‘zlari otishni biladilarmi?
- Otishnimi? Kerak bo‘lsa bilamiz!
- Men sizning ovga chiqqaningizni hech ko‘rmaganman.
- Uka, ovga chiqib nima qilaman, nima yetmayapti menga? Hamma narsa bor. Aytmoqchi, sen mening uyimga hech bormagansan-a?
- Boramiz bir kun. Nimaga eplolmayapsiz miltiqni? Unaqa emas. Menga bering, bering! Bilmas ekansiz... Uzating, nimaga anqayapsiz?
- Marhamat!
- Otdan tushsangiz ham egardan tushmaysiz-a?
- A? Yana bir qaytar shu gapni.
- Bilmaysizu o‘zingizni biladigan kishi qilib ko‘rsatasiz, Amirqul aka. Bo‘yningizga oling... Agronomiyani ham yaxshi bilmaysiz, savodingiz yo‘q hisobi. Hozir agronom bo‘lish qiyin. Shunaqa... Sovxozni, rayonni ko‘tarish kerak. Siz buni o‘ylamaysiz ham. Sizda tashabbus ham yo‘q, jon kuydirish ham. O‘zingizni o‘ylaysiz, bir sigirim ikki bo‘lsin deysiz, yangi uchastka solay deysiz. Utgan yili o‘n gektar yerdagi kartoshkani o‘t bosib ketdi. Vaqtida uni o‘tdan tozalash kerak edi. Siz buni o‘ylamadingiz. Buning ikkinchi sababi shundaki, kartoshka bizda endi ekilyapti, uning agrotexnikasini bilmaysiz. Qo‘lingizga ikkita kartoshka bersam, biridan-birini farqlab berolmaysiz, bo‘yningizga oling, Amirqul aka.
- Gapiraver, lekin men sening akang emas... Ik-kita ukam bor edi, ikkalasiniyam topshirganman. Boshqa ukaning keragi yo‘q!
- Yoshingizni hurmat qilaman-da.
- Xo‘sh, yana qanday kamchiliklarimiz bor ekan?
- Bilmaysizmi?.. O‘n olti gektar bog‘dan qancha olma olindi? Esingizda yo‘qmi? Nima uchun?.. Chunki siz olmaning ham agrotexnikasini bilmaysiz. Obrezka nima, tushunmaysiz! Eskichasiga qo‘yib qo‘ygansiz. Qiziq, siz nimangizga uchib, munday kattalik qilasiz-a? Ayting! Yo bir siringiz bormi?.. Yoki odam badavlat bo‘lib ketgandan keyin, katta-kichiknig farqiga bormay qolarkanmi? Hayronman. Rayondagi kattalardan oshna-og‘ayningiz yo‘qki, shunga suyanadi, desam, oblastdayam yo‘q, qiziq!
- Amirqul aka chayla ustuniga suyanganicha bo‘shashib, mung‘ayib qoldi. Qorong‘i tushib qolgan, etak tomondagi kartoshka ekilgan maydon to jar labigacha reza-reza bo‘lib ko‘rinadi. Atrof hasharotlarning nag‘malariga to‘la boshlagan. O‘sha, etakdagi jar tagidanmi baqalar qurillaydi. Uning ortidagi adir havoiy — qora tusda ko‘rinadi. Osmon oqish. Uning adog‘idan qoramtir tog‘ tizmalari ko‘zga yaqqol ko‘rinadi, Mirhaydarning oti bog‘langan Qorabog‘dan tun qushining «hut-hut—hut-hut!» degan sayrashi keladi. Shu bog‘nig orqa tarafidan magnitafon ovozi eshitildi.
- U, uka, sen qaysi urug‘dansen? — so‘rab qoldi qorovul.

- Bilmayman, — dedi Mirhaydar. — Enam tojik, otam to'g'izlardan bo'lsa kerak.
- To'g'izlardan? Ular juda mard keladi!
- Bilaman. Nima, men nomardmanmi?
- Faqat hamiyatni bilmaysan. Yo'q, enang tojik emas. Chin tojik ko'ngli bo'sh bo'ladi. To'g'ri, lo'lilarga xudo bas kelmasa, bandasi bas kelmaydi.
- Siz ham hamiyatni bilmaysiz, Amirqul aka!
- Hm...
- Siz... xo'jayinlik qilishni juda yoqtirasiz-a?
- Nimaga endi... bo'yin egishim kerak? Nimaga? Katta bo'lsa o'ziga! Menga nima!
- Siz «yuz»lardan bo'lsangiz kerak? Amirqul aka kuldi:
- Men ham aniq bilmayman.
- Hammasidan ham miltiq otishni bilmasligingiz yomon ekan.
- Miltiq otishni... Buni sen qaerdan bilasan?
- Ushlaganingizdan. Eplolmadingiz. Muniyam bo'yingizga olmaysiz.
- Uka, odamning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q!
- Miltiq bilan muomala qilish sizning qo'lingizdan kelishi shart, zarur! Axir, siz — qorovulsiz!
- Qorovul...
- Ha, o'zingiz buni so'rab olgansiz.
- Chayla yaqinidagi yero'chokda o't ham so'ndi. Choydardagi choy ham sovidi. Timqorong'i qishloq biqinidan oy ko'tarila boshladi. U qizg'ish qontalash edi. Hasharotlar qo'shig'i avjga mindi. Tun qushi ohista uchib o'tdi, uning qizg'ish ko'zlari ko'rinadi. Qorabog'da ot kishnadi. So'ng, qishloqning u yer-bu yeridan itlarning huriyotgani, eshakning hangrayotgani eshitildi. Dakangxo'roz qichqirib yubordi. Qaerdadir mast kishi ashula aytardi.
- Jayrani ko'rganmisiz, Amirqul aka?
- O'zing ko'rganmisan?
- Men ko'p otganman. Ko'rgan bo'lsangiz kerak-a? -Ha.
- Yo sixini ko'rganmisiz?
- Ko'p valdirayverma! Ko'rganman... Ko'rmagan bo'lsam nima qipti!
- Yomon bo'ladi, Amirqul aka. Jayraning bir odati bor, ustiga borib qolsangiz, butingizga kirib oladi. Soningizni ilma-teshik qilib tashlaydi.
- Bilmadim... — Amirqul aka qornini do'ppaytirib, chalqancha yotar edi, qo'llariga tirab yotgan boshini ko'tarib kuldi. — Sen shu kecha... jayraning ustiga bir bostirib bormaysanmi? Ko'rar edim, keyin ishonardim.
- Mirhaydar kulib qo'ydi.
- Cho'qqilari ochilib, oqara boshlagan tog'dan sovuq shabada esa boshladi. O'choqdagi kul changidi, chaylaning tomiga osilgan tol po'stlog'i shitirlab tebrana bosh-ladi.
- Amirqul aka, uxladingizmi? Hoy, Amirqul aka!
- **Uf...**
- Ko'rdingizmi, sizda mas'uliyat kam. Bo'yingizga olmaysiz. Men qorovullik qilyapman-a, sizning o'ringizga! Mas'uliyat yo'q sizda. Turib o'tiring, Amirqul aka... Besh sotixcha urug'likni yeb ketibdi. Urug'likni! Buning o'rnidan o't o'sib chiqadi endi, tonna-tonna kartoshka yo'q... Ertaga ovchilar soyuzidan qopqon opkelish kerak! Siz opkelishingiz kerak. Eshityapsizmi? Yonboshlamang, yana uxlab qolasiz. Bir soatcha vaqt qoldi. Tongga yaqin chiqadi u.
- Qo'ymading-da, — Amirqul aka turib o'girdi. — Sendan yaxshi qorovul chiqar ekan. Agronomlikni tashlab, o'rnimga bo'lsang-chi?
- Mendan yaxshi agronom ham chiqadi, Amirqul aka. Lekin sizdan yaxshi qorovul chiqmas ekan. O'tgan hafta ogohlantirgan edim-a!
- Uf-f... Odamlar nimaga uylanar ekan? Padariga la'nat! Boshingni olib tog'-toshlarga chiqib ketsang!
- Tog'-toshga chiqib ketsangiz, yasholmaysiz. O'rmonda kattalik ketmaydi, hayvonlarni ham do'q bilan qo'rqitolmaysiz. Sizga cho'l tuzukroqmikin, deyman.
- Bo'ldi.
- Nima?
- Bo'ldi, deyaipman. O'zi, jonimdan to'yib o'tiribman. Shu... bir korihol bo'ladi.

— Hech narsa bo‘lmaydi.

— Eh! Ajab bir zamonlar o‘tib ketgan-da!

— Yomon ko‘rganingni shartta otibmi, o‘ldiribmi ketilaveradigan zamonlarni aytyapsiz-da?

— Ha! Eshitdingmi? Ha!.. Dunyoni suv bossa, to‘pi-g‘imga chiqmaydi, bilasanmi shuni?

— Sekin, bir narsa shitirlayapti!

— Qani?

— Jim.

— E, shamol! Manavi po‘stloq, uying kuygur!

— E-e... Amirqul aka, bir kechayam poylamadingiz-a, hech bo‘lmasa!

— E, menga qolsa... Uka, senga bir gap aytaymi, quloq sol. Bu, davlatning xazinasini kamaymas ekan. Ha, keyin bilib olasan. Hozir o‘zingni mehnatkash qilib ko‘rsatyapsan. Davlat... sovxoz manfaatini ko‘zlayman, deyapsan. Bekor gap! Vaqtinchalik gaplar bu. Ko‘rganimiz, kechirganimiz... Yaqinda uylanding, hali osh-non deydigan bolang yo‘q! Xotining ham sodda, o‘zingga o‘xshab. Hadi uyam qiliq chiqaradi. Topib keling, deydi. Eshiyapsanmi? Shunday. Xotin zotining men degani ham lattaparast bo‘ladi. inim!.. Keyin-keyin o‘zing ham nima uchun ishlayotganingni o‘ylab qolasan. Ana shunda esing kiradi. Ko‘ramiz hali!

— Ko‘ramiz, Amirqul aka.

— Sening qorovullikka chiqib, uyqudan qolib, miltiq ushlab o‘tirishing ham bir soddalik. Agronomga yarashmaydi bu!

— Bo‘ldi. Mana, soat ham to‘rt bo‘pti!.. Amirqul aka, joningizni koyitmay o‘rganib qolgansiz-da. Shuning uchun qip-qizarib semirgansiz! Yurakni yog‘ bosgan, hozir boshingizni qo‘ying, uxlab qolasiz... Amirqul aka!

— Nima?

— Jim... Siz anavi arikdan o‘rmlab borib, hov na‘matak bor-ku, shuning ostiga kirib yotasiz... To‘xtang! Miltiq otishni bilmaysiz-ku!

— Xo‘p, ana bilmaymiz!

— Xayriyat, bo‘yningizga oldingiz. Lekin o‘sha siz aytgan zamon bo‘lganda, manglayingizdan shartta otib tashlar ekanman.

— Sen-a?

— Ha, men.

— Uka, kel, bir otishaylik bo‘lmasa! Shu o‘tar dunyoda bir ish ko‘rsatib qolaylik. Meniyam umrim o‘tdi, yoshim ellikka yetdi. Endi bu yog‘ida nima karomat ko‘rsatar edim. Sen ham yoshsan, hozir dunyo ko‘zingga yaxshi ko‘rinadi. Lekin bu dunyo — ko‘p bema‘ni dunyo, xo‘p de. Hali ko‘zi ochilmagan mushukvachchasan, otishaylik, a? Ke, o‘lsak armonda ketmaymiz. Nima deding? Meniyam yuragim sovur edi! Rost gap, men seni yomon ko‘raman, yomon ko‘raman! Sen keldingu mening tagimga suv ketdi, eshityapsanmi, uka! Sen yo‘q bo‘lganingda, men yana besh-o‘n yil kerrayib yurardim. Ke uka, bir duelga chiqaylik. Duel deydimi shu otishmani?

— Siz aynabsiz, Amirqul aka! Agar otishma haqida gaplashsak, bilib qo‘ying, siz anavi soyning nari betida tursangiz ham shu qorong‘ida uchirib tashlayman. Men ellik metr narida tursam siz o‘qni tekkizolmaysiz. Bilasizmi shuni?! Men ovchiman... Siz miltiq ushlashni bilmaysiz. Shuning uchun bu bema‘ni gapni qo‘yaylik. Keyin dunyodan juda sovigan odam emassiz! Siz yashashni yaxshi ko‘rasiz. Meni aytmaysizmi! E-e! Mening hali niyatlarim ko‘p, aka... U yokda xotinim homilador. Bu yoqda menga ishonib, agronomlikni berib qo‘yishdi. Hosilning boru yo‘g‘iga javobgar odamman. Shu ham borki, kurash tushsangiz, mushtlashsangiz ham men sizni yengib qo‘yaman. Buniyam bo‘yningizga oling. Tojiklarda bir gap bor: zo‘ri behuda miyon meshikand. Bilasizmi, behuda kuchanishdan foyda yo‘q.

— Shunday de?

— Shunday. Yaxshisi, men sizga miltiq otishni o‘rgatay... Tag‘in adashib meni otib qo‘ymang.

— Qani, qani, bir o‘rgatib qo‘y-chi!

— Mana, stvolni ochdim. Mana, o‘q joyladim, bu patronda tulki otadigan o‘q bor. Jayrani o‘ldiradi... Shoshmang... Nafasni ichga yutib yotavering, yaqiningizga kelib qolgandan keyin otasiz. Shundayam sizni sezadi, isingizni oladi-da.

— Mirhaydar uka, agar o‘q adashib senga tegib qolsa-chi?

— Menga tegib qolsa... Men jayramanmi...

— Misol uchun-da.

— Unda meni atay otgan bo'lasiz... O'lmay qolishim ham mumkin, unda men bari bir sizni otib o'ldiraman!
Mening patronimda to'ng'iz o'q.

— To'ng'iz o'q?

— Ha, boshmoldoqdek keladi! Tekkan joyini o'pirib ketadi. To'xtang, avzoyiniz buzuq... hozir.

— O'qni olyapsanmi?

— Ha, sochmadan joylab beraman. Buyam jayrani biryoqli qiloladi.

— Ko'rqyapsanmi?

— Nimangizdan qo'rqaman? Lekin iltimos, jinnilik qilmang, xo'pmi?

Amirqul aka Mirhaydar tepkisini qaytarib bergan miltiqni u aytganday qilib ushlab, ehtiyotkorlik bilan ariq ichidan ketdi. Na'matak oldiga yetib, tizzasiga miltiqni beo'xshov qo'yib, jar tomonga tikildi. Mirhaydar ham miltiqni qo'liga olib, shudgorning nari yonidan egilinqirab borardi. U yo'lakay bir necha joyda to'xtab cho'nqaydi. Nihoyat, jarga yaqinlashib, bir tup yantoq yoniga cho'nqaydi. Narigi betga ko'z tashlab, Amirqul aka tomonga qaradi va uning cho'nqayib o'tirgan gavdasini va botayotgan oy nurida yiltirayotgan miltig'ini aniq ko'rdi. Yon-veridagi kesaklarni nari-beriga surib, uzala tushib yotdi.

Ikkalasi shudgorning ikki tarafida; shudgorning o'rtasi unchalik chuqur bo'lmagan jarlikka yetib tugardi. Jayralar jar ostidan va narigi tomondagi o'yiqlardan chiqib keladi.

Birdan shitir-shitir bo'lib qoldi, lekin Mirhaydar uning qayoqdan kelayotganini bilolmadi. Kunchiqarga ilkis qarab, Zuhro yulduzi atrofidagi mitti yulduzchalar birin-ketin so'nayotganini ko'rdi. Ufq ham bo'zarib kelar, shamol kuchayib, badanni junjiktirardi... Yana shitirlash!

Mirhaydar birdan shudgorning Amirqul aka o'tirgan tomoniga tikilib qoldi. Oy nurida so'nik-so'nik yiltirab, bir narsa hurpayib o'tar edi. U beixtiyor miltiqni unga to'g'riladi-yu, darrov tushirdi: «Amirqul akaga yaqinlashyapti... Qani otsin-chi, bir! Xursand bo'ladi! Keyin miltiqni, ovni yaxshi ko'rib qoladi, keyin o'zi poyloqchilik qiladi. Otsin!»

Jayra ham xuddi Amirqul aka o'qidan o'lishni istaganday unga tomon o'rimalay boshladi.

Mirhaydar endi jar tarafga qaradi: jayra bitta bo'lmaydi-ku, izidan boshqasi chiqib keladi, albatta!.. Yana Amirqul akaga qaradi. U hamon g'ujanak bo'lib o'tirar, jayra bo'lsa unga yaqinlashib qolgan edi.

— Amirqul aka, — shivirlaganini bilmay qoldi Mirhaydar. Biroq yaqinlatib oting, degan o'gitni eslab, tilini tiydi.

Jayra Amirqul akaning yonginasidan o'gib ketdi. Besh-olti qadam nariga borib, shudgorni kavlay boshladi. Mirhaydar tuproq changib ketayotganini ham aniq ko'rdi va alam bilan «Suf-e, senday ovchiga! Uxlab qopti» — dedi. Ariqqa tushib, o'rimalay ketdi...

Shunda Amirqul aka birdan qimirladi. Mirhaydar taqqa to'xtadi:

— Oting! — deb shivirladi.

Amirqul aka cho'kkalab, uyoq-buyoqqa qaradi.

Darhaqiqat, uyqudan uyg'onib ketgan, shitir-shitir tovushni eshtar, lekin shoshganidan ovoz qaerdan kelayotganini bilolmas edi.

Yer changiyotganini ko'rdi-yu, oyoq-qo'li bo'shshib ketdi. Miltiqni qo'liga ola Mirhaydarga ko'z tikdi. Oq po'stinga o'ralgan agronom bola naq jayra bo'lib ko'rindi. «Kattasi bu yokda ekan!» U stvolni o'nglab, tepkini bosdi.

O'q zarbi Mirhaydarni dumalatib yubordi.

Amirqul aka buni aniq ko'rdi va irg'ib turib, o'sha yoqqa otildi. Biroq bir necha qadam yurib, yiqilgan «jayra»ning behad katta ekanini payqadi, endi jayra otganiga ishonmay to'xtagan edi, yigitning ingragan ovozini eshitdi. Yana shitob bilan bir qadam qo'ydi-yu, taqqa to'xtadi. So'ng, Mirhaydar otadigan cho'chqa o'q ko'kragiga tegishini taxminlab, orqasiga burildi. Bir ko'ngli qochmoqchi ham bo'ldi, biroq yigitning o'qi bari bir orqasidan yetishini his qilib, asta-sekin qadam tashladi-da, o'tirsa, o'kdan qutuladigandek bo'lib, birdan cho'nqaydi, sajdaga bosh qo'yayotgandek bo'lib, boshini egdi. Bir, ikki, uch!.. Amirqul aka xo'rliqi kelayotganini sezib, orqasiga qaramoqchi bo'ldi, lekin o'q yuziga tegadigandek, qarashdan qo'rqdi.

...Mirhaydar o'ng oyog'i ham og'irlashayotganini sezib, etigini yechmoqchi bo'ldi. Biroq fikridan qaytib, po'stinni ham kiydi.

— Hov, nima qilib turibsiz? Amirqul aka ilkis qaradi.

— Buyoqqa keling, — behol gapirdi Mirhaydar.

— Yo'... yo'... — dedi Amirqul aka. Agronom yonidan miltig'ini oldi:

— Buyoqqa keling, otib tashlayman bo‘lmasam! Amirqul aka uning oldiga uchib keldi. Mirhaydarning qarshisida cho‘kkalab, boshini egdi.

— He, o‘ling-e!

— Uka, ukajon... uyqusiragan ekanman, — pichirladi qorovul.

— Jayra qani?

— Bilmayman.

— Alanglamang. Ketdi...

— Yomon tegdimi? O‘zingiz bu sochma o‘q deb...

— Turing. Otni opkeling.

— Ot? Ot qaerda... Ha-ha. Hozir!

Amirqul aka xuddi bekinmashoq o‘ynayotgan boladek shudgorni changitib chopib ketdi.

Mirhaydar miltiqni zo‘rg‘a bukib, o‘qni chiqarib oldi, cho‘ntagiga soldi. «Xayriyat, deb o‘yladi u. — Terib tashlasa bo‘ladi. Nimaga qizib ketyapman. O‘q tekanda odam chanqaydi deyishadi. Chanqayapman...»

Amirqul aka otni choptirib kelib, otdan tushdi. Yuganni ushlab turib:

— Mana, mana! — dedi. — Ayilni tortaymi?.. Uka? — Amirqul aka yana tiz cho‘kdi. — Uka... agar chini bilan otgan bo‘lsam, enam... Sen ishonmaysan! Men seni haqiqatan ham yomon ko‘raman. Lekin... uxlab goldim. Men... uyg‘oq o‘tirolmadim.

— Xayriyat, shuni bo‘yningizga olyapsiz... Torting ayilni. Qattiqroq.

— E, padariga la‘nat bunday ishni. Uka, endi o‘zing bilasan. Nima desang haqsan. Birov ishonmaydi menga.

— Albatta hech kim ishonmaydi. Bo‘ldimi?

— Mana, tayyor.

— Keltiring. Uzangini tuting... O‘-o‘, ushlamang qo‘lni! Rahmat.

— Ukajon, endi nima bo‘ladi?

— Nima bo‘lardi. Miltiqlarni oling, chaylaga boring... Choy-poy qilib turing! Yo‘q... balki sizni qamashar. Xo‘p, o‘tgan ishga salovat. Lekin bu kecha ko‘z yummaydiz. Siz qorovulsiz!

— E, uka...

— Yuring. Belbog‘im chaylada qolgan.

— Xurjuningiz ham bor!

— Kechagi choydan qolganmikan?

— Bo‘lsa kerak... Hozir ko‘ramiz-da.

* * *

Tong ham otib qoldi.

Tog‘lar oqardi, adirlar yorishdi, ufq qizardi. Kundalik yumush boshlandi. Amirqul aka ko‘zlari qizargan holda chaylaga suyanib o‘tirar, u holsiz edi. O‘choqqa o‘t qo‘ymoqchi bo‘ldi, hafsalasi kelmadi. Bir-bir bosib, adir tepasiga ko‘tarila boshladi va birdan yig‘lagisi keldi. Lablarini qattiq tishlab, tepaga chiqib bordi. Qarshisida bug‘doypoya yastangan, yer haydalmagan edi. Sariq tikanlar, ko‘p zarg‘aldokdar sayrar. Bu shunday so‘nik, loqayd va g‘arib manzara edi. Qorovul pastroqqa tushib, kesakka o‘tirdi.

So‘qmoqda bo‘z otliq ko‘rindi.

1972

ARPALI QISHLOG'IDA

*Oy Barchinim, yor-yor,
Gul Barchinim, yor-yor,
Ultontozga tekkuncha
O'l Barchinim, yor-yor.
«Alpomish» dostonidan*

Arpali qishlog'i soyning bo'yida. Soyning narigi betida bir zamonlar tevarakdagi supalari odam bilan gavjum bo'lgan hovuz bor. Hovuz lablarida o'sgan gujum, butalar hozir uni o'rab-chirmab tashlagan. Daraxt shohlariga har xil qushlar in qo'ygan. Hovuzni o'rgan pastak devor ortidagi tosh ko'chadan qachon o'tsangiz, changalzordan qushlar chug'urini eshitasiz; hovuzning u tarafidagi supada oq tug'i o'ngib ketgan tanho qabr ko'rinib turadi. Qishlokda xonadonlar ko'p emas, besh-oltita. Hammasining ham sohibi — podachilar, cho'ponlar, yilqichilar. Shuning uchun bu qishloqni «podachi qishloq» deb ham yuritishadi. Shu sababdan qishloq uylarida ham, tor ko'chalari, bog'-chorbog'ida ham, hatto odamlarning kiyinishiyu turish-turmushida ham ularning kasb-korlari muhri bosilgan. Soyning o'rtasidan ikki tegirmon suv oqib yotadi, yozning jazirama kunlarida u qurib ham qoladi.

Arpalining odamlari — o'zbekning to'g'iz urug'idan. Ma'lumki, bu elat bir qadar qaysar va betakalluf bo'ladi; ularning g'am-tashvish, sevgi sarguzashtlari ham o'zlariga xosdir.

* * *

Abray podachining o'g'li Abdurasul institutga kirolmay, qishloqqa qaytib keldi. U otasi singari baland bo'yli, keng yag'rinli; otda ko'p yurgani uchun oyog'ini kerib tashlaydi, ovda ko'p bo'lganidan fikrini qo'l harakati bilan ham tushuntirib gapiradi.

Abdurasul uch kun uyda bo'ldi. Uni ko'rgani olis-yaqindan qarindosh-urug', yor-birodarlari kelishdi. To'rtinchi kun uy mehmondan xoli bo'lib, yigit zerikdi va ishtonini lippa urib, soyga tushdi. U bolalikda yoki Toshkent safari oldidan qoldirgan allaqanday narsalarini topadigandek, soyda uzoq kezdi-izg'idi.

Soyning berigi betiga o'tib, Xo'janazar otaning qabriga qaradi. Uni chakalakzor orasidan zo'rg'a ko'rib: «O', xarob bo'pti-ku», deb qo'ydi. So'ng tor ko'chadan rayonga qatnab o'qigan chog'lari — bu mozarot yonidan o'tayotganda oyog'i uchida yurganlarini esladi. Hozir seskanmagani uchunmi, ichida mamnun bo'lib, yana suv bo'yiga qaytdi. Suvning kechuviga yetib, xarsangtoshga o'tirdi va allaqanday alanglagan ko'z bilan atrofni tomosha qila boshladi.

Shunda orqa tomondan qadam tovushlarini eshitdi. Burilib qarab, Bodomgulni ko'rdi. Abdurasul Bodomgul bilan bir sinfda o'qigan, yoshlikda ikkalasi «beshikkerti» bo'lgan, lekin u qizga beparvo qarar, o'qishga kirsam, o'sha yoqlik bittasiga uylanaman deb yurar edi. «Toshkentdan ko'ngli qolgani» uchunmi, bu umidi barbod bo'lib, hozir Bodomgul ko'ziga o't bo'lib ko'rindi. Darhaqiqat, qiz to'lishgan — qarg'ashoyi keng ko'ylagi ham uning yetilgan sumbatini ko'zdan yashirolmas edi. Oyog'ida uchi qayrilgan shippak, boshida afg'oniy durra. «Bu nima qilayotgan ekan hozir?» deb o'yladi Abdurasul va sekin o'rnidan turib jilmaydi: — Salom berdik, Bodomoy!

Qiz yigitga qarab quvnab kuldi:

— Alik oldik, Rasulboy!

Abdurasul Bodom bilan hech qachon qo'l berib ko'rishmagan edi, shaharning ta'siri — «madaniyatli bo'lganini» hozir ko'rsatgisi keldimi, qo'lini cho'zib, unga peshvoz yurdi. Shunda oyog'iga chag'ir tosh qadalib, hakkalab qoldi, lekin o'zini dardga bardoshli ekanini ko'rsatgisi keldimi, yana tap etkazib, oyog'ini yerga qo'ydi.

Qiz ham unga qo'lini berdi.

Abdurasul Bodomgulning biqqi-bo'liq barmoqlarini o'z kaftida sezmadi go'yo, lekin uning jussasi o'zidan bir qadam narida bo'lsa ham, uni chuqur his qildi.

— Qani, nima qilib yuribsiz?

Bodomgul charslik bilan javob berdi:

— Buning tashvishi sizga tushib qolgani yo'q, Rasulboy! Qani, o'zingiz nima ish qilib yuribsiz bu yerda?

O'qishdan ham guppa yiqilib kelibsiz deb eshitdim.

— E-e, Bodomoy! — dedi Abdurasul siniq jilmayib. — Podachining o'g'li institutga kirmaydigan zamon bo'пти. Ishoning!.. Podachi bo'lsang bo'psan-da, deb «ikki»ni bosdi. Choponni yelkaga tashlab, hayday-berdik buyoqqa.

— Ajab bo'пти! — deb kuldi Bodom. — Vaqtida o'qing edi, sandiraqlab, ov deb, ko'pkari deb yurmasdan. Ayb o'zingizda.

— Endi, ayb bizdami, boshqadami, o'tgan ish o'tdi.

— Xo'sh, nima kasb qilasiz endi?

— Hozircha bekorchilik...

— Podachi bo'ling! Qo'y boqing... Nimasi yomon?

— E, siz ham gapirasiz-da.

— Otdan tushsangiz ham egardan tushmang.

— Bodom.. -Ha.

— Yoshlikda bizni.. beshikkertti qip qo'yishgan-a?

— Esimda yo'q, — deb kuldi qiz.

— Esingizda bo-or, — dedi yigit. — To'g'ri, unda kichkina edik. Leki shunday ish bo'lgan-da!

— Bo'lgan bo'lsa, nima qipti endi?

— Nima qipti deysiz... Mana, yoshimiz ham bir joyga borib qoldi...

Bodom unga o'tkir tikildi:

— Rasulboy, tushingizni manavi suvga ayting, tuzukmi? Meni... boshqa deganim bor... — Shunday deb qiz yo'liga ketdi.

Abdurasul uning ortidan ko'z uzmay turardi.

— Hay, Bodom! — qichqirdi u.

Qiz suv yuzasiga chiqib turgan toshlardan yurib, narigi sohilga o'tgach qaradi.

— Bodom, meni xafa qilma.

— Xafa qilsam, qo'lingdan nima keladi? — dedi qiz.

— Qo'limdanmi... seni olish keladi. Sen... zakunniy qallig'imsan.

— Bekorlarni aytibsan! — qiz ketib qoldi.

* * *

Arpali qishlog'ining davomi soy chiqib kelayotgan daradan ichkariga ham o'tadi, dara yuz qadamlar cho'zilib sohillari yoyilib ketadi, soy esa olisdagi archali tog' etagigacha boradi. Soy bo'yida bir-ikkita yalanglik bor, shunda ham besh-to'rt oila turadi. Biri — Bodomgullar xonadoni. Qizning otasi dala qorovuli. Tur desa turadigan, yur desa yuradigan to'riq oti bor. Shuni minib dala aylanadi. U kishi Abray podachi bilan eski oshna. Bodomgulning onasi bundan besh yil burun ko'z yumgan...

Bodomgul soy yoqalab yalanglikka yetgach, o'tovlari tomon burildi.

Bu vaqtda Abdurasul ham mol qiyi, tappasi ezg'ilanib yotgan tor ko'chadan andak cho'loqlanib ketib borardi. Chorbog'lari devoriga yetib, kentikdan oshib o'tdi. Yo'ng'ichqapoya pushtasidan yurib, ayvonlariga chiqib bordi.

Abray aka shipda osilgan lampochkani teskari bu-rab, chiqarolmay qiynalar edi.

— Muni tiliga tushunasanmi, ulim? Manavi kattakonini qo'yib qo'y, ro'shan bo'p tursin! — dedi.

Abdurasul lampochkani qo'yib, uyga kirdi. Uning avzoyidan xafalikni sezgan ota ham ergashdi. Abdurasul quroq ko'rpachaga o'tirib, chordana qurdi. Abray aka chakmonini yechib, poygakka cho'kka tushdi.

— Ha, Rasulboy?

— Ota... meni uylab qo'ying...

Ota unga zehn solib tikildi-da, sekin turib, eshikdan qaradi, baqirdi:

— Hay, enasi! Berman ke!

Mayram opa, boshidagi po'tasi eshik tepasiga tegmasin uchun ham bo'lib, ichkariga kirdi.

— Ulingdan gap so'ra, nima deyapti bu? Mayram opa eri yoniga cho'nqayib, o'g'liga tikildi:

— Rasuljon?

— So'ra, so'ra, — qistadi ota.

— So‘rayapman-ku. Rasul?..

— Meni uylab qo‘yinglar deyapti uling! — tushuntirdi ota.

Mayram opa miyig‘ida iljayib, kigizga yopishgan guruch donasini olib tashladi, o‘g‘liga mehr bilan boqib:

— Shundaymi, bolam? — dedi.

— Shu... bizni kichkinalikda... — mijg‘ovlandi Abdurasul.

Ona eriga suyanib o‘tirib oldi-da, qo‘llarini siltab keng yengini tirsagiga tushirdi.

— Chol, qo‘lingizdi ko‘taring, ovmin deng! — dedi.

— Endi... — chaynaldi Abray aka.

Abray aka Xo‘janazar otaning mozoridan fayz ketib, hovuz bo‘yi o‘rmonga aylanib qolganidan beri urfu odat yo‘riqlarida o‘ylab fikr aytadigan bo‘lgandi.

— Ko‘taring qo‘lni! — qizishdi Mayram opa. — Bodomgul buniki bo‘lmay, kimniki bo‘ladi. U kutib yotibdi-ku buni!

— Yo‘g‘-a? — dedi podachi ichdan mamnun bo‘lib.

— Ha. Rahmatli enasi o‘lmasdan burun kunora shuning gapini qilgich edi. Sheraliboy ham bir-ikki marta menga quda deb qo‘ydi.

— Ovmin bo‘lmasam, — dedi Abray aka. Mayram opa fotiha o‘qib, irg‘ib turdi:

— Men ertan-mertan ularning yurtiga boraman.

— Men ham katta-kichik bilan maslahat qilay bo‘lmasam.

* * *

Ertasi kuni kechki payt Sheraliboy qizi bilan o‘tovda betma-bet o‘tirar, Bodomgul Mayram opaning bugun kelib ketganini bilar, shuning uchun diqqat, lekin o‘zidan ko‘ngli to‘q edi. Sheraliboy «yangilik»ni qiziga aytolmay, ko‘p andisha qildi, hamsoya kampirni chaqirib, aytirishni ham o‘yladi. Oxiri bu fikridan ham qaytib:

— Qizim, men senga ota emas, enayam bo‘p qolganman, shuning uchun ba‘zi gapni ochiq aytsam, ko‘nglingga og‘ir olma, — dedi.

To‘lib turgan Bodomgul ham shu tarzda javob berdi:

— Bo‘lmasam, ota... men sizga ochig‘ini aytaman.

— Barakallo! — Shunday deb, ota qiziga xavfsirab qaradi: — Nima? Eshitdingmi? Yo‘q... deysanmi?

Qiz qip-qizarib eshikka yuzlandi.

— Ayt, bolam, Ko‘nglingda armon bo‘lib qolmasin.

— O‘ylab qoldim-da, ota, — dedi qiz. — Siz... men tarafda bo‘lmasangiz, unda nima bo‘ladi...

Ota boshini egdi.

— Otang aylansin, o‘zbekning gapi bitta bo‘ladi.

— Unday bo‘lsa, ota, — qiz otasiga qarab oldi, — meniyam gapim bitta.

— Shoshma...

— Aytaberaymi?

— Ayt-chi.

Qiz o‘rnidan turdi, keragaga ro‘para bo‘ldi:

— Ota... men unga tegmayman!

Sheraliboy qiziga angrayib qarab qoldi. So‘ng:

— Yo‘g‘-e, — dedi ovozi titrab. — Bu gaping bekor gap, bolam. Bizning labzimiz bor, jon qizim... Meni sharmanda qilib qo‘yasan... Bir umr ulardan qutulmaymiz keyin...

Bodomgul xo‘rsindi:

— Shu yerga kelganda, ota... siz menga onalik qilolmadingiz. Enam oz bo‘lsayam ra‘yimga qarar edi... Mayli, ikki kun muhlat bering bo‘lmasam.

Ota o‘rnidan turdi:

— O‘ylab ol, o‘ylab ol. Labzidan qaygan qavmidan qaytgan bo‘ladi, bolam.. — deb chiqib ketdi.

* * *

Ertasi kun choshgohlarda rayon yo‘lida yuk mashinasi do‘qillab kelar, undan ko‘tarilgan qizg‘ish chang yo‘l

yoqasidagi quvrab qolgan qo'ziquloqlar ustiga qo'nar edi. Kabinada Eshquvvat bilan Bodomgul.

Eshquvvat ham Abdurasullar bilan bir sinfda o'qigan, u ham Rasul kabi baland bo'yli, keng yelkali, kizg'ish yuzli, bodomqovoq yigit. Burnog'i yil Bodom bilan til topishib, bir-biriga ko'ngil bergan... Bodom beshik-ketti bo'lganiga parvo qilmas, Eshquvvat esa bir kun emas-bir kun bu yo'rig'da gap qo'zg'alishini sezar edi. Qolaversa u Abdurasul bilan tengqur, bir-birining siridan xabardor, o'quvchilik yillari bir-birining uyiga kelib yotib ham ketar edi. Arpaliga bir do'ng qolganda, qiz:

— To'xtating, men piyoda ketaman, — dedi.

— Haydayberaylik, betma-bet gaplashamiz-qo'yamiz-da, — dedi Eshquvvat.

— Toqatim yo'q u bilan gaplashgani, — dedi qiz.

Eshquvvat bosh iring'adi. Qiz tushib, kabina eshigini yopdi. Yigit qizga chang tegmasin uchun mashinani bir oz masofagacha sekinlatib bordi-da, so'ng yana sur'atni oshirdi.

U Arpaliga yetib, soyning kechuvidan o'tdi. Sohil yoqalatib borib, Abdurasullarning chorbog' devori ostida to'xtatdi.

Mayram opa ayvonda kuv pishar edi. U kelguchiga qiziqib qarab, yog'li qo'llarini artib turaverdi. Eshquvvat ayvonga chiqib bordi:

— Salomalaykum, xola.

— A-lekum, bolam! — opa qo'lini yengi ichiga tortib, yigit bilan ko'rishdi va uyga qarab: — Rasul? — deb qo'ydi-da, Eshquvvatdan gina qildi: — Ha, qorangizniyam ko'rsatmaysiz, Eshquvvatboy? Oshnachilik munday bo'lmaydi-da. Bir kunlik yo'ldan odamlar kelib ketishdi... Ha, nasibasi ekan, institutga kirolmapti...

Abdurasul uyda yangi kostyumini kiyib ko'rayotgan edi. Chikdi. Sobiq sinfdoshlar quchokdashib ko'rishishdi.

— Tortinglar. Tortinglar uyga, — dedi uy bekasi.

— Anavi olchani ostiga bir to'shanchi soling, uyga qamalib o'tiramizmi, — dedi Abdurasul.

Lekin Eshquvvat rad etdi:

— Xola, men qaytaman, ishim zaril... Rasulboyni bir ko'ray deb yo'ldan burildim.

— E, allag'aytib bir kepsiz. Borasiz-da, bolam.

* * *

Mayram opa ularga olcha tagiga joy qildi. Ko'rpachalarni to'shab, lo'labolishlarni qo'ydi.

— Yonboshlanglar. Enasi aylansin shunday jo'ralardan! — opa qaytib ketdi.

Yigitlar o'tirib, taomilga ko'ra fotiha o'qigan bo'lishdi. Bir muddat uyoq-buyoqdan gaplashishdi...

— Xo'janazarbobo xarob bo'pti-da.

— Ziyoratchilarning ham esidan chiqib ketdi.

— Yo'ng'ichqa o'roqqa kep qopti-ku?

— Uch-to'rt kun dam olay, oshna. Ish qochib ketmas... Aytmoqchi, otam meni uylab qo'ymoqchi. Yo'q desam ham ko'nmayapti, — deb qoldi Abdurasul.

— Kimga? — so'radi Eshquvvat.

— Hey, Bodom bor-ku. Bodom? O'zimizning sinfdosh! Bizga beshikkerti bo'lgan-da vaqtida, bilasan-ku, endi muhlat yetdi, boshlaringni qovushtirib qo'yaylik deyishyapti bular.. Sen nima deysan?

— O'zingning xushing qalay?

— Xushim endi... Bodom o'lgur ham bo'pti-da, suxsurday qiz bo'pti. Eshquvvat, shuning birov bilan gapi bor deb eshitdim, shu rostmi?

— Bilmayman.

— E, qo'y, bilasan!..

— Bilsam... aytsam, xafa bo'lmaysanmi?

— Nimaga xafa bo'laman. Lekin...

— Endi, oshna, o'zingdan qolar gap yo'q, hammamiz ham maktab ko'rgan, o'qiganmiz... oz bo'lsayam. To'g'rimi? Eskicha urfu odatlar bizga ko'p ham to'g'ri kelmaydi endi.

— To'g'ri-yu, labz bor-da orada! — dedi Abdurasul.

— Labzidan qaytgan nomard! Lekin labz deb, birovni juvonmarg qilish ham insofdan emas-da?

— Gapingning tagida gap borga o'xshaydi. Kim bilan yuradi? Tag'in o'zing yurgich bo'lib chiqma?

— Rost, — dedi Eshquvvat, — peshona ekan... Xafa bo'lma, senga nasib qilgani ham bor, albatta...

— O', shunda xatoga ketding, oshna! Gap peshonada bo'lsa, u tug'ilgan zamoniyiq mening peshonamga bitgan...

— Bu gaping kelishmaydi, Rasul. Biz yoshlikdan jo'ramiz, oramizga sovuqchilik tushmasin. Bir urug'danmiz... aloqalarimiz buzilmasin. Men seni qo'rqitmoqchi emasman. Bu zamonda birov-birovdan qo'rqmaydi. Faqat aytib qo'yayapman...

— Nima, undan kech deysanmi? -Ha.

— Agar... yo'q desam-chi?

— Yo'q desang, aloqalarimiz buzilib ketadi-da.

— Nima qilasan? Obqochib ketasanmi? Yoki... raykomlarga xabar berasanmi?

— Oshna, qo'limdan kelgan ishni qilaman-da. Bodomning o'ziyam tek turmas.

— O'zi bilan kelishdik de?

— Kelishmasak ham bu bo'larli gap.

— Boshqa so'zing yo'qmi?

— Yo'q... O'zingdan gapir, nima bo'ldi, o'qishga kirish qiyinmi shunchalik?

Abdurasul o'rnidan turdi:

— Oshna, bo'lmasa yo'lingdan qolma! — dedi. — Ikkinchidan, sen o'zing ham nomard bola ekansan. Shuni menga atab qo'rganlarini bilar eding. Bilib turib, nomardning ishini qipsan... Men harakat qilaman yana. Ololmasam, unda bizni yuz ko'rmas bo'lib ketdi deb yuraber!

— Uni... mencha yaxshi ko'rmaysan-ku? Uyam seni yaxshi ko'rmaydi.

Abdurasul olcha shoxini sindirib oldi.

— Tur, men kigizni shqipiraman!

* * *

Mayram opa Eshquvvatning vaqtli turganini ko'rib, qolishga ko'p undadi. So'ng: «Oshnangiz ham aytgandir. Yaqinda to'yi bo'ladi. Mashinangiz bilan kelib, bir xizmat qilasiz-da, ulim! Rasulboy ham vaqti kelganda qaytarar», deb qoldi. Eshquvvat: «Xola, biz xizmatdan qochmaymiz. Lekin Abdurasul bilan bir tuzuk-to'rali gaplashib oling», deb ketdi.

Abdurasul onasining savollariga javob bermadi.

* * *

U Bodomgulni soydan suv olayottan yerida topdi. Qiz suvga to'la satilini o't ustiga qo'yib, yulg'un butog'ini o'ynab turgan Abdurasulga qaradi.

— Bodom.. mening Eshquvvatdan nimam kam? — so'radi u nihoyat.

— Seni Eshquvvatdan kam joying yo'qdir, — dedi qiz. — Lekin ortiq joying bo'lgandayam, Rasul, men uni deganman! Shuning uchun o'zingni tort... insofga kel. Bilasanmi, barimiz bir elat bolasimiz... Otalarimiz bir-biri bilan eskitdan oshna. Mozorimiz bir, ko'chamiz bir. Sen bizlarni ajratib yuborma. O'ylab ko'r. Sengayam sochini tarab o'tirgan bir qiz chiqar axir? Ko'rgan ko'zing men bo'lib qoldimmi... Avvallari parvoyam qilmas eding.

— Endi... yaxshi ko'rib qolgan bo'lsam-chi?

— Unda kechikibsan, Rasul. Endi vaqt o'tdi. Tanangga o'ylab ko'r, janjal chiqmasin orada. Eshquvvatning odatini bilasan. Men ikki boshdan qaytmayman o'z gapimdan. Otamga rahmim keladi...

— Meni o'ylamayapsan, men ham ularga aytib qo'ydim, — dedi Abdurasul.

— Gapingni qaytib ol!

— Yo'-o'q, bu menga o'tirishmaydi, Bodom.

— Bo'lmasam, qo'lingdan kelgan yomonlikni qil, Rasul. Lekin mendan ham yaxshilik kutma.

Bodomgul satillarini ko'tarib, hamon shudring ketmagan o'tzorga oraladi. Abdurasul butoqni suvga tashlab, qirg'oq yoqalab iziga qaytdi.

Shu kuni Abdurasul kechgacha daraning o'rkachida miltiq ushlab, chumchuq otib o'tirdi. Keyin uyiga borib, to'shak solib yotdi. Oqshom ota-ona uning atrofini o'rab, gap so'rashdi.

—Labzi yo‘q ekan ularning, ota, — dedi o‘g‘il oqibat.

Ota-ona hayron... Bir mahal ikkalasi ham ayvonga chiqishdi. Mayram opa supa labida cho‘nqayib, Xo‘janazar otaning mozoriga qaragancha xo‘p duoyibad qildi. Abray aka bo‘lsa, Sheraliboyni qidirib ketdi.

Uni xirmondan topdi:

— Nima gap o‘zi?

Sheraliboy yelkasini qisdi. So‘ng podachidan uning o‘g‘li aytgan gaplarni eshitib, o‘ylanib qoldi va:

— Oshna, men ham qizning ko‘ngliga qaramasam bo‘lmas ekan. Meni gapida turumi yo‘q desang ham mayli, — dedi.

* * *

Oradan bir oy mudlat o‘tib, Eshquvvatlar uyidan Bodomgullar yurtiga sovchi keldi. Sheraliboy qizini berishga rozi bo‘ldi. Hafta o‘tib, to‘y boshlandi. To‘yga aytgani Sheraliboyning o‘zi otlanib, Abray podachining uyiga bordi. Biroq, eski oshnasi unga qayrilib ham qaramadi. Mayram opa esa, o‘g‘lining bilagidan tortib, uyga kirib ketdi. To‘y dabdaba, rasm-rusmi bilan o‘tdi.

To‘ydan qaytgan to‘yxo‘rlar to‘yxonadagi sir savdoni muhokama qilib ketishar, ular bu zamonda labzga ehtiyot bo‘lish qiyin ekani, shuning uchun bu yo‘rig‘da zinhor o‘ylab-cho‘ylab ish tutish kerakligi haqida so‘zlashardi.

Abdurasul to‘y kechasi soyda kezib, qudalardan «qaysisining otiga shikast bersam, qaysisining eshagini yorib tashlasam», deb ko‘p o‘yladi. Oxiri qo‘l siltab, rayonga tushib ketdi.

1973

KYeKSA G'IJJAKChI

G'ani aka ishshayib, g'ijjakka tikildi. Kamonni oldi-da, g'iyqillatib chala ketdi. Bu — eski kuy edi. Mashshoq va xonandalar bu kuyga allaqachon tahrir kiritgan, lekin G'ani aka undan voz kechmas, chalar, bu esa eshituvchilarga yoqmas edi. Shuning uchun G'ani aka goho xafa ham bo'lar, o'kinar, lekin yana... o'z bilganidan qolmasdi... U g'iyqillatib chala boshladi. Uning ro'parasida turgan mehmon yigitlar soy tarafga ketishdi; oppoq toshloqdan o'tib, ko'pirib oqayotgan suvga yetishdi. Yechinib, suvga tushishdi va bir-birlariga suv sachratib, cho'mila boshlashdi.

G'ani aka chalar edi. Labida o'sha yumshoq xokisor va allanechuk o'jar tabassum. Silliqliq sochlari manglayiga tushgan. Xrom etikli oyoqlarini uzatib yuborgan. Uning yonida tiniq buloq, undan narida ajriqzor, yulg'unzor... Bu yigitlar shahardan sovxoz direktorining uyiga mehmon bo'lib kelishgan, endi dam olgani chiqib, novvoyxonani ham ko'rishgan va G'ani aka g'ijjakni ko'tarib, ularga ergashib chiqqan edi... G'ani aka bir zamonlar teatrda ishlagan, so'ng shahar havaskorlariga boshliq bo'lgan. Nihoyat, aylanib-aylanib, shu sovxozdan qo'nim topgan; uning ota-bobosi novvoy o'tgani uchun o'zi non yopishga chapdast edi — sovxoz direktori bir gal uning nonidan tatib, o'zining novvoyxonasiga olib kelgandi.

G'ani aka, nihoyat, xo'rsinib, g'ijjakni yotqizib qo'ydi. Xomush bo'lib, mehmonlarga tikildi: yaxshi zamonlar o'tib ketdi! U tushgan davra gullar edi! Ustma-ust kuy chalish, ashula aytishini so'rar edi mehmonlar. Buyam kam: aylangani chiqishganda ham uni bir qadam o'zlaridan ajratmas, mana shunday vaqtlarda mehmonlar cho'zilishib, u kishini xizmatga qo'yishardi: o, u chalish, ashula aytishlar xizmatmidi?

G'ani aka o'rnidan irg'ib turdi-da, ajriqzor yoqasida yotgan korzina boshiga bordi. Ochdi, ichidan araq bilan qovurdoq oldi. Araqdan yarim piyolani quyib, otib oldi-da, yana korzinaga joylab qo'ydi... G'ijjagini ko'tarib, novvoyxonaga qaytdi.

Novvoyxona. Shiftlarini is bosgan, odam bo'yi balandda tandir. Uning pastida uzun peshtaxta. Orqada qop-qop un, chetda yog'och karavot. Unga sholcha va ko'rpacha to'shab qo'yilgan. Lekin yer toza qilib supurilgan. Shipdagi is, un, ko'mir hidiga qaramay, novvoyxona ozoda edi.

G'ani aka g'ijjakni mixga ilib qo'yib, karavotga o'tirdi. Engashib, sochlarini taradi. Chuqur xo'rsinib, yana g'ijjakni oldi-da, tag'in shaxd bilan chala boshladi... G'ani akaning uchta bolasi, xotini bor, ular shaharda. Novvoy har bozor kuni ulardan xabar oladi. Agar ishi rivoj topib, direktor uy bersa, ko'chirtirib kelmoqchi.

— Salom berdik!

G'ani aka eshikda tik bo'lgan novcha, galife shim-kitel kiygan, o'ttiz besh yoshlardagi sovxoz direktorini ko'rdi.

— Vaaleykum assalom, direktor bobo! — deya karavotdan irg'ib tushdi. G'ijjakni yotqizib qo'l qovushtirdi.

Direktor ichkariga kirib, uyoq-buyoqqa qaradi:

— Qani, zerikmay yotibsizmi?

— E, zerikish qayda, og'ajon!

— Bo'lmasam gap munday! Shu haftaning oxirida to'ychig'imiz bor...

— E-e, qulluq bo'lsin!

— Yoz ham o'tib ketyapti. To'yni qilib olmasak bo'lmaydi.

— Umlari uzun bo'lsin!

— Endi bir g'ayrat qilasiz-da, G'ani aka. Bir-ikki yuzta non yopib berasiz!

— Xo'p bo'ladi, jonim bilan! Andak... siyodona kerak bo'ladi. Biron kilo kunjut bo'lsayam zarar qilmasdi. Agar, qizdirilgan yog'dan ham bo'lsa, nonni ko'p chiroyli qiladi, og'ajon!

— Hammasini topib beramiz. Lekin siyodonani... o'zingiz toping. Men pulini beraman.

— Xo'p bo'ladi, xo'p! Qo'shni sovxozga borib kelishga to'g'ri keladi-da. Agar bir ulov bo'lsamidi...

— Kechga tomon mehmonlar ketishadi. Keyin mashinalar bo'shaydi. Ular soydami?

— Soyda...

— Xo'sh... xo'p. Boshqasi haqida keyin gaplashamiz. Direktor chiqib ketdi. G'ani aka karavotga o'tirdi yana. G'ijjakka mung'ayib qaradi va: «Artist ham kerak, — deb o'yladi. — Kimlarni chaqirtirar ekan... E, zamon o'tdi, G'anijon!»

Maslahat oqshomi G'ani aka ayvonda shofyorlar va bo'lim xizmatchilari bilan o'tirar, ichkarida qo'shni sovxoz direktorlari, rayon xodimlari ham bor, ular bemalol kulishib gaplashar, bular esa, bir qadar past ovozda, imkoni boricha ularga xalal bermaslikka tirishar edi.

— Xo‘sh, bizdan maslahat so‘rasangiz, maslahat shu! — dedi bir mahal ichkaridagi mehmonlardan biri. Hamma jimidi. Tashqarida o‘tirganlar ham jimidi: — To‘yni katta qilmaysiz, o‘rtoq direktor! Bilaman, bir marta ham uyingizga mehmon chaqirmagansiz. Hammasining hissasini biryola chiqarmoqchimisiz... Lekin bu har xil gapga sabab bo‘ladi, do‘stim! Tushunyapsizmi? Direktor sovxozni yeb ketdi, shunday to‘y qilyapti, degan gaplar ham chiqadi. Ha-ha! Shofyor dang‘illama to‘y qilsa, uning gapi oz bo‘ladi. Sizniki ko‘p bo‘ladi, do‘stim!.. Bu yog‘ini hisobga olish kerak! So‘ngra, bir iltimos sizdan, artist chaqirmaysiz! Zinhor yodingizda bo‘lsin shu! Pul qistirish, artistga haq to‘lash — bu masalalar ko‘p nozik, do‘stim! Bizgayam gap tegadi... Odamlarni tiyib bo‘ladimi?! Biri bir so‘m qistirsa bo‘ldi, kim osharga aylanib ketishiyam hech gapmas! Xo‘p... agar, juda istasangiz, rayondan havaskorlarni chaqiring! Ular kelib gullatib ketishadi. Domkulturada bor-ku, besh-o‘nta havaskor! Shundan foydalanish kerak... Qarshilik yo‘qmi?

Hech kim qarshilik bildirmadi. Biroq ko‘plar, ayniqsa, tashqaridagilar xomush tortdi. G‘ani aka ham o‘ylanib, bosh chayqab o‘tirdi.

To‘y kechasi G‘ani aka novvoyxonada edi. Peshma-pesh yopilgan nonlar yetmas, dastyor bola non tashib ulgurmasdi... Soat o‘n ikkidan keyin to‘yxona tinchiy boshladi. G‘ani aka dam olgani o‘tirdi va dastyordan so‘radi:

— Bizni unutishmadimi? Biron narsa opkeling, ukam!

— Allaqachon opkelib qo‘yishgan! — dedi dastyor.

Yarim soat ichida novvoyxona to‘yxonaga aylandi.

G‘ani aka shirakayf ko‘zlarini suzib, g‘ijjak torini tortar, xirillab ashula aytar, dastyor bola chirpirak bo‘lib o‘yin tushar, har ikkalasi ham «dod», deb qo‘yishar edi. Bir mahal tashqarida tapir-tupur bo‘ldi va:

— G‘ani aka! — dedi kimdir.

Bo‘lim boshlig‘i ekan:

— Yuring-e! — dedi u. — To‘y emas, bir g‘alati ish bo‘ldi, aka! Havaskorlar gastrolga ketgan ekan. Kelishmadi. Hamma xomush bo‘lib o‘tiribdi. Ashula, o‘yin bo‘lmasa bo‘ladimi! Yuring! Oling!...

G‘ani aka tomog‘ini qirib qo‘zg‘aldi va yana o‘tirdi:

— Ukam, biz eski, asbob ham eski, ashula ham... Qandoq bo‘larkin?

— E, hozir shunisigayam zormiz! Direktor yubordilar meni! Bo‘ling!

G‘ani aka allanechuk qaltirab, qo‘zg‘aldi.

— Sabr, qilasiz endi! — deya, kostyumini yechib tashlab, dastyoriga buyurdi: — Suv quy, uka. Yuvinay.

Yuvinib, artindi. Karavot tagidan eski chamadon chiqarib, yangi oq ko‘ylak olib kiydi, qora galstuk taqdi. Yangi kostyum kiydi va etigini artib, g‘ijjakni qo‘liga oldi.

To‘ng‘illab, diqqati oshib o‘tirgan bo‘lim boshlig‘i yo‘l tortdi.

* * *

G‘ani aka to‘yxonadan soat uchlarda qaytdi. U kayf qilgan, lekin tetik, og‘zi qulog‘ida edi. «E!» deb novvoyxona o‘rtasida to‘xtadi. Asbobni joyiga ilib, karavotga o‘tirdi va boshini quyi solib, nimalar bo‘lganini esladi:

G‘ala-g‘ovur, shovqin-suron. Odamlar turib ketishgan. Supa pastida qur tutib olishgan. O‘ynamagan odam qolmadi. Har maqomda o‘ynashyapti. Ayniqsa, o‘yin bilmaydiganlar ko‘p. G‘ani aka g‘ijjakni qorni ustida tutib olib, muqom bilan chalyapti. To‘xtamaydi: kuylar bir-biriga ulanadi. Odamlar qiyqiradi, rahmat aytadi... Usha eski, eshitishni istamagan kuylarini ham jon deb eshitishgan, o‘sha eski, xonandayu mashshoqlar qaramay qo‘ygan ashulalarga ham jo‘r bo‘lishgan... Direktor qizishib, G‘ani akani o‘padi, bitta katta serkani yetaklab kelib, chilviridan tutqazadi. G‘ani aka uyaladi, qizaradi.

Tong otdi. G‘ani aka boshi og‘rib uyg‘ondi. Kiyim-boshini almashtirib soyga o‘tdi. Suvga tushdi. Qaytdi. Buloq boshida to‘xtadi. Yaqindagi dard-alamlarini esladi. Xomushlandi. Nihoyat... o‘zini baxtiyor sezib, balki umrida birinchi marta to‘la baxtiyor sezib, novvoyxonaga qaytdi. Ehtimol bundan keyin u hech mahal bunchalik baxtli bo‘lolmas — biroq u bu hakda o‘ylamas, kimlardandir o‘ch olganday, kimlargadir o‘zini tanitganday sezar va endi hamma narsaga — har qanday g‘am-hasratga ham rozidek, mamnun ko‘rinardi... G‘ani aka g‘ijjakni joyiga ilib qo‘yib, yenglarini shimardi. Ishga tushdi.

NASIB E TSA

*Nasib etsa kelar Shomu Iroqdin,
Nasib etmasa — ketar qoshu qaboqdin.*

Elyor Bo‘ritosh opasini juda yaxshi ko‘rardi. U madaniyat uyidan qaytib keldimi, atrofida parvona bo‘lib, biron narsa bilan uning ko‘nglini ovlashga harakat qilar, so‘ng yoniga o‘tirib, gap so‘rar edi:

— Uylaring mana shu tog‘ni orqasidami?

— Ha, o‘sha yokda edi... Endi yo‘q.

— Nega yo‘q? Unda ota-onangiz qaerda turadi?

— O‘sha yerda, uy ham o‘z joyida. Lekin men ularga begona bo‘lib qoldim. Endi, Elyorjon, mening uyim ham mana shu — sizlarning uyingiz bo‘ladi.

— Ur-re-e!... Opajon, tog‘ qo‘rqinchlimi?

— Juda. Lekin akang qo‘rqmas yigit... Qo‘rqoq bo‘lganda meni buyoqqa opqochib kelolmas edi.

— Akamni yaxshi ko‘rasizmi? -Ha.

— Meni-chi?

— Seniyam. Sen shunday aqllisan! Katta bo‘lsang, albatta yaxshi odam bo‘lasan. Mard, qo‘rqmas... Haqiqat uchun kurashadigan, haqiqatchi!

— Mayli. Mard, qo‘rqmas...

— Haqiqatchi — rostgo‘y degani. Aytishadi-ku, boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir, deb.

— Bo‘pti... Opa, sizga o‘xshab dutorchi ham bo‘laymi?

— Aylanay sendan. Mayli.

— Tog‘ juda qiziqmi? Meni qachon olib borasiz?

— Nasib etsa.

— Qachon nasib etadi?

— To‘y o‘tsin... Men shu yerda qoladigan bo‘lay. Keyin boramiz. Berdiyora akang, sen, men, momomlar, amakimlar — hammamiz.

— Bo‘ritosh opa, kecha onam akamni chaqirib urishdilar...

— Nimaga?

— Men tushunmadim.

— Endi tushun... Xo‘pmi?

Elyorning chorbog‘i keng. Odokda olchazor, u tig‘iz o‘sib changalzorga o‘xshab qolgan. Devorning bir joyi o‘pirlib tushgan. Elyor ola sigirni o‘sha kentikdan o‘tkazib, podaga qo‘shadi. Podachi mollarni tor ko‘chadan tez haydab, dalaga chiqaradi, u yerda zig‘irpoya bor, chetda yolg‘iz tol, eski chayla, zig‘irdan chetlatib adirga olib o‘tadi.

Bo‘ritosh opaning bo‘yi baland, xipchadan kelgan, bodomqovoq. Gavdasini g‘oz tutib yuradi. Faqat Elyorning otasi Quvondiq aka yo‘lddn kelganida boshini egib, past ovozda so‘zlaydi. Elyorning akasi Berdiyorning bo‘yi ham novcha, o‘zi sariqqa moyil, mallarang qoshlari ostidagi yirik ko‘zlari kulimsirab boqadi.

Elyor bugun oqshom buvisining ham Berdiyora aka bilan qattiq-qattiq gaplashganini eshitib qoldi:

— Nima bo‘lsayam birovning farzandi u! Endi boyoqishni kuydirma... Ayol kishining qarg‘ishi yomon bo‘ladi!

— E qo‘ying! — dedi Berdiyora. — Men unga yur debmanmi. Havaskorlar, o‘yinni bilar ekansiz, deyishgandi, o‘zi ergashib keldi.

— Unda uyiga jo‘nat bo‘lmasam yoki boshqa bir joyga ko‘chir. Sen yoshsan, u yosh qiz... Guzarda gap bo‘lyapti! O‘ziyam chig‘atoylardan ekan, yaxshi ayol... vaqtida dovrug‘i ketgan el. Qo‘lli-oyoqli qiz... Haliyam shundan qolma, bolam.

— E-e!

To‘rt oydirki Elyor Bo‘ritosh opasining yonida yotadi — buvisi tayinlab qo‘ygan. U bir-ikki marta kechasi opaning Berdiyora aka bilan gaplashayotganini eshitib, uyg‘onib ketgan. Momosining nasihatiga amal qilib «Aka, keting. Joyingzga borib yoting!» degan.

— Bo‘ritosh opa-chi... momom ham urishdilar akamni.

Eshik g'iyq etib ochildi. Tomoq qirib, Berdiyori kirdi. Kesaki yonida qaqqaydi.

— Chiroqni yoq mang, — dedi Bo'ritosh.

— Haliyam yoqmayman. Bu... uxladimi?

— Uxlaganim yo'q! — dedi Elyor. — Keting.

— Bir yo'la poyloqchi bo'lib olding-ku! Uf... Bo'ritosh, charchadim. Oblastdan odam keldi. Oblast havaskorlarining festivali bo'lar ekan. Tayyorlaninglar, dedi. Qayokdan ham xalq teatri degan nom berishdi bizga! Tinim yo'q.

Elyor o'rnidan turib o'tirdi:

— Berdiyori aka, to'y laring qachon bo'ladi? Keyin Bo'ritosh opamlar meni toqqa olib bormoqchi. Tog' qo'rqinchli... Siz yurgan yo'llardan yuraman.

— Hamma gapni biladi-ya bu?.. Momom chaqiryapti seni, bor!

— Yolg'on. Gapingiz rost bo'lsa, boraman!

— Rost, rost!

Elyor chiqib ketdi. Momosi:

— Seni aldapti u, — dedi. — Opangni yonidan jilma!

Elyor qaytib eshik tutqichiga qo'l uzatdi-yu, tek qoldi. Ichkaridan ularning so'zlari eshitilar edi.

— Berdiyori aka, men sizni deb keldim-ku, — der edi Bo'ritosh opa. — Bilasiz-ku! Bo'lmasam bu rayonda menga nima bor? Uyoqda, o'z rayonimizdayam madaniyat uyi bor...

— Lekin meni xafa qilyapsiz-da, Bo'ritosh, — to'ng'illadi Berdiyori aka. — Nega meni yoningizga yo'latmaysiz? Yana sevaman deysiz? Ishonmay qoldim, sevgan odam munday bo'lmaydi. O'g'riga o'xshab kiraman, haydab chiqarasiz!

— Men sizga o'ynash bo'laman deb bu yerga kelganim yo'q, Berdiyori aka...

— Harholda... Ungacha... Buyoqda to'y harakati taxt emas. Otam yo'lda... Hatto bir o'ptirganingiz yo'g'-a?

Elyorning xayoli uchdi: «Akam Bo'ritosh opamni o'pmoqchi. Nega o'padi? Hozir...»

Eshik taraqlab ochildi. Berdiyori qaramay, chiqib ketdi.

— Yolg'onchi! — deb qoldi Elyor.

Bo'ritosh uni yoniga yotqizib, peshonasiga tushgan qo'ng'iroq sochlarini siladi:

— Elyorjon, men ketsam, xafa bo'lmasanmi?

— Nega ketasiz? Ketmaysiz... Endi bu uy mening ham uyim bo'ladi dedingiz-ku?! Ketmaysiz!.. To'y qilamiz, ota-onangiz kelishadi. Keyin meni toqqa olib borasiz... Akamga ayting... men siz aytgandek mard, haqiqatchi bo'laman.

— Rahmat... Hali gaping uzilib qoldi: momong akangga nima dedilar?

— Him... Ishqilib, momom sizni maqtadi, akamga qattiq-qattiq gapirdilar.

— Elyorjon, Berdiyori akang mendan boshqa ayol bilan ham gaplashadimi?

— Rostini aytsam, Zumrad opa bilan gaplashadi! Zig'irpoyada ko'rganman.

— Qachon? Hozir ham gaplashadimi?

— Hozir bilmayman.

— Elyorjon, akangni bir kuzatmaysanmi, qani, o'sha opang bilan yana gaplashadimi, yo'qmi ekan? Keyin... meni yaxshi ko'rishingga butkul ishonaman!

— Men sizni yaxshi ko'raman...

Ertasiga Elyor buvisi atrofida o'ralashib, kunni choshgoh qildi: katakdagi tovuq tuxumlarini terdi, buvisi ish tikmoqchi edi, ignasiga ip o'tkazib berdi. Ola sigirning buzog'ini zig'irpoyaga yaqin eltib o'tlatdi. Yarim xalta pechak yulib keldi.

U ko'chaga chiqqanida guzar bolalari chillak o'ynashayotgan ekan. Ergashali so'rab qoldi:

— Bo'ritosh opani nima deb chaqirasan?

— Opa deb.

— Ha-ha. Yanga deb chaqir... Yo'q, kennoyi deb, televizorda aytadi-ku.

— Bekor aytibsan. Xotini emas! Yaqinda to'y bo'ladi. Keyin yanga deyman. Xohlasam, checha deyman...

Bor!

Kechga tomon Bo'ritosh ishdan qaytdi. Elyorni uyga olib kirdi.

— Elyorjon, ko'chaga chiqsang... Akang o'rtoqlari bilan gaplashib qoldi, dorixonaning oldida. Bugun o'sha, sen aytgan opa kelib ketdi! Akangni bir kuzat...

— Xo‘p.

Elyor dorixonaga yetib, akasining sartaroxshonaga kirganini ko‘rib qoldi. Ariqdan hatlab o‘tib bordi. Eshik og‘zida kursi qo‘yib o‘tirgan mo‘ylovli sartarosh unga tikilib qaradi.

— Akam ichkariga kirdi-ya? — so‘radi Elyor.

— Berdiyori sening akang bo‘ladimi? Ha. Kirdi. Elyor kosagullar ochilib yotgan pol pushtasiga cho‘qqaydi:

— Amaki, nimaga hammavaqt shu yerda o‘tirasiz?

— Sen sochingni oldirasanmi?

— Yo‘q. Buzib qo‘ygansiz bir gal, onam urishgan...

— Ana sen ham menga soch oldirmaysan-u, ichkariga kirib o‘tirmaysiz, deysan yana.

Elyor derazadan mo‘ralab qaradi. Sartarosh akasining yuziga atir purkar, Berdiyori iljayganicha aftini tirishtirib boshini qimirlatar edi. Elyor birdan tek qoldi: «Kuzatsam, o‘zimni ko‘rsatmasligim kerak-da!» U tag‘in ko‘chani kesib o‘tib, dorixona oldiga borgandi, ro‘parasiga yuk mashinasi kelib to‘xtadi, undan fufaykasini qo‘ltig‘iga qisgan Quvondiq aka sakrab tushdi.

— Ota!

— E, o‘g‘lim! — ota uning oyog‘ini yerdan uzib, manglaydidan o‘pdi. — Meni kutgani chiqibmiding?

— Yo‘q... Ha.

— Unda uyga ketamiz.

— Ota, men akamni kuzatishim kerak.

— Nima?

— Bo‘ritosh opam iltimos qildilar. Akam Zumrad opa bilan uchrashmasligi kerak, to‘g‘rimi?

Quvondiq aka qoshini uydi:

— Yur, akang bilan o‘zim gaplashaman.

Qoraboy it darvozaga o‘ynokdab chikdi. Quvondiq aka uni erkalab kulib qo‘ydi. It yana oyog‘iga o‘ralashavergan edi, tepib yubordi. Elyor orqada qoldi. U supaga chiqib borganida, boloxonada onasi bilan gaplashayotgan otasining so‘zlari baralla eshitilar edi:

— Ey, qo‘y... Bu oqshom kelsin, qo‘lidan mahkam ushlab o‘tqizaman. Shu haftada to‘y qilib yuboraman. Buning nimasi yomon o‘sha qaqaajondan?! Odobni bilsa, ishni bilsa... bir aybi o‘g‘lingning gapiga uchib kelganimi! E, nomard o‘g‘il!

— Biram yaxshi qiz, choljon, biram achinaman...

— Achinishdan foyda yo‘q, harakatingni qil! Elyor yugurib uyga kirdi.

— Bo‘ritosh opa... akamning qo‘lidan ushlab o‘tqazar ekan. Shu haftada to‘y... Nimaga indamaysiz?

— Elyorjon, bu gapni men ham eshitdim. Akang meni aldagan ekan...

— Aldagan bo‘lsa sirini ochamiz! Men bari bir uni kuzataman. Hozir ko‘chaga chiqaman.

Podaning qaytadigan vaqti bo‘lgan edi. Elyor bog‘ oralab ketdi. Olcha butasidan xivich sindirib olib, kemtikdan o‘tdi. Zig‘irpoyaga yetib to‘xtadi: «E... Akam Zumrad opa bilan anavi yerda turishgan edi. Chayla...»

Tepa bag‘ridan mollarning ma‘ragan ovozlari kela boshladi.

Sigirni haydab kelgan Elyor buzoqni ushlab turib sog‘dirdi. Buzoq dumini likillatib, tumshug‘idan oppoq ko‘pik tomchilar, sigir bo‘lsa, «hr-hr» ovoz chiqarib, buzog‘ining quymuchini yalar, oyoqlarini kerib turib olgan edi. Elyor tovuqlarni ham qaqlatib quvib, katakka qamadi.

Oy chiqib qishloqni yoritganda Elyor zig‘irpoyaga tutash o‘qariqda cho‘nqayib o‘tirar, ko‘zlari yalt-yult qilayotgan Qoraboyning baroq bo‘ynidan quchib olgan edi. Zig‘irning yoqimli, bir oz taxir hidi keladi. Qaerdadir baqa qurillaydi, chigirtkalar sayrashi avjida. O‘qariq nam, botqoq, chirik yaproq hidi keladi.

Ufqni to‘sib turgan tepalik bag‘rida ikkita qora ko‘rindi, ular oqarib turgan so‘qmoqdan o‘tib, chayla ostiga kelishdi. Elyor ularning kulgisidan payqadi: biri akasi, biri tovushi yo‘g‘on Zumrad opa.

U shosha-pisha orqasiga burildi, itning bo‘ynidan quchib tortdi. Shunda ularning gap-so‘zlari qulog‘iga chalina boshladi:

— Voy, suv bosipti bu yerni...

— Ko‘tarib olay.

— Tegmang!.. Anavi tog‘dan optushgan qushchangizni ko‘taring! Sizda hech insof yo‘q! Buydoqsiz... Xo‘p, havaskorlarning rahbari bo‘lsangiz bo‘psiz, uni uyingizda saqlashingiz nimasi?! Meni aldamang... Ana, domkulturaning kattalariga murojaat qilsin, unchalik zarur bo‘lsa... Bo‘lmasam qishlog‘iga ketaversin!

— Yaqinda ketadi, sekinlik bilan. Lekin bitta iltimos...

— Nima?

— Shu... indamay kelib, indamay ketaveradimi? Yo‘q, to‘xtang-to‘xtang! Men uni... yaxshi san‘atchi bo‘ladi, deb o‘ylagandim. Kim biladi deysiz. O‘zidan bilib, ketay demaydi ham.

— Sizga yoqadi! Yoqmay o‘lsin!

Elyor itni torta-torta so‘qmoqqa yetdi. Uyga qarab chopdi. It shing‘illab chaylaga qaradi, hurdi va Elyorga ergashdi.

— Opa... Bo‘ritosh opa, sizni ketsin, dedi. Zumrad opa! Akam ham yaqinda ketadi, dedi... Shunaqa dedi. Yurishipti. Chaylada, zig‘irpoyada...

Bo‘ritosh rangi oqarib karavotda o‘tiradi:

— Rahmat, aylanay. Menga katta yordam qilding, — dedi.

— Endi nima qilasiz?.. A... ayting... Lekin ket-maysiz! Hech qayoqqa ketmaysiz... to‘y bo‘ladi! Chig‘atoydan ota-onangiz keladi. Keyin biz ham boramiz... Opajon, ketmang! Men aytganingizdek bo‘laman, mard, haqiqatchi.

— Men ishondim, ukam.

Ertasi Elyor uyg‘onib, tashqariga chiqqanda, Bo‘ritosh tugunchasi qo‘lida, boloxona tagida turishgan uy egalari bilan xo‘shlashar edi:

— Momojon, rahmat. Onaxon, sizga ham. Otajon, men yengiltaklik qilib, bu kishining so‘zlariga kirgan ekanman...

— Axir bu yolg‘on gap! — baqirib yubordi Berdiyori. — Mana bu shipiyonbachchadan chiqqan bu gap. Hu ko‘zingni...

Elyor supadan tushdi. Yig‘lab, Bo‘ritosh opasining tuguniga yopishdi:

— Opajon, qoling... Aka, nega baqirasiz?! Men haqiqat gapni aytdim! Bo‘ritosh opa, haqiqatni aytganim uchun ketasizmi?!

Bo‘ritoshning ham ko‘ziga yosh to‘lib, bolani quchdi.

— Sen haqiqatchi bo‘lib olding, — dedi entikib. — Endi orqaga qaytmaysan, jonim!.. Haqiqat shunday narsa: u shafqatsiz bo‘ladi, u yig‘latadi. Buning uchun gap eshitishing ham mumkin... Lekin haqiqat hamma narsani joy-joyiga qo‘yadi. Yolg‘onchilik, aldanishga barham beradi...

— Axir...

Bo‘ritosh uy egaloriga tag‘in bir ta‘zim qildi.

1974

FARZAND

O'g'lini yaxshi ko'radi, «yaxshi ko'radi» degan gap o'g'liga bo'lgan muhabbatini ifodalashga o'zlik qiladi. U o'g'lini ko'rganda, yuragi uvishib og'rib, to uni bag'riga bosib yig'latib, o'zidan bezdirmaguncha qo'lidan qo'ymaydi. Muzei direktoriga yordamchi bo'lganidan buyon ular ayniqsa inoqlashib ketishdi; direktorning mashinasi uni olib ketgani har kuni ertalab keladi, u o'g'lini ham bog'chaga ola ketadi, kechqurun yana shu mashinada olib qaytadi.

O'g'il ham otaga shunchalik o'rgandiki, u bilan birga yotadigan bo'ldi.

Islom endi oltiga qadam qo'ygan, xuddi otasi tuqqanga o'xshar, muzeydagilar ham: «O'g'ling yeeni kichkina maketing», deb ta'riflashardi. Mengboy goho o'g'liga tikilib, uning xislatlarida ham o'ziga o'xshashlik topar va behad mamnun bo'lib, o'zidek bitta inson yaratganidan zavqlanar edi.

Bir kuni Sora gap topib keldi:

— Otpuskani yana qishloqda o'tkazamizmi?

— Albatta! Surxon bo'iida — baliq ovida o'tkazamiz, — dedi Mengboy.

— Hamma kurortga, chet elga boradi, bizning nimamiz kam ulardan?

— Bizning hech narsamiz kam emas ulardan, lekin, har kimning ta'bida!

— Men bormayman! O'zingiz baliq ovingizni qilavering!

— Shundaymi?

— Ha, yetti yil bo'ldi turmush qurganimizga, bir yerni ko'rganim yo'q. Hozir ko'rmasa, qachon ko'radi kishi. Kampir bo'lgandan keyin tomoshaning nima keragi bor?

— Hm... — Mengboy xo'mrayib, birpas o'ylanib o'tirdi: «Haqiqatan ham, to'g'ri. Ko'rishi kerak. Uyoqni ko'rgisi kelar ekan, ko'rsin. Mening ko'rgim kelmaydi, men daryo bo'yiga ketay».

— Xo'p, sen borasan! — dedi va... xotining otpuska puliga o'zinikidan ham qo'shib, putyovka izidan tushdi. Naq Sochiga topib keldi. — Mana, xotin! Maza qilib dam ol!.. Keyin ko'ramiz, kim yaxshi dam olganini.

Xotin mamnuniyat bilan yo'llanmani qo'liga oldi:

— Rahmat!

Shu kecha u bolaga yaxshi qarashni, bolani daryoga yaqin olib bormasligi lozimligini eriga xo'p tayinladi.

— Vahima qilma! — deb kuldi Mengboy. Lekin xotining gaplari haqida o'ylab: «To'g'ri, ehtiyot bo'lish kerak!» — dedi o'ziga o'zi.

Xotin samolyotga chiqar ekan, o'g'li yig'ladi. Meng-boyning alami kelib: «Hayronman, qanday qilib bolasini tashlab ketyapti? — deb o'yladi. So'ng yana xotini oqladi: — To'g'ri, u bechora ham dam olishi kerak-da! Bola bo'lsa yig'laydi».

Besh kundan keyin o'zi ham otpuskaga chikdi. Qarmoq, chumchuqpay va eski-tuski kiyimlarni to'pladi. Direktorning mashinasini bir kunga so'rab, qishloqqa otlandi.

Shofyor yonida, o'g'lini tizzasiga o'tqazib, derazadan cheksiz daryolarga, olisdagi qorli tog'larga tikilar ekan, qalbi quvonchga to'lib, hammasini o'ziniki his qilar, shoir Shukrulloning bir bayt she'rini takrorlar edi:

Quchog'im bo'lganda edi bir dunyo

Seni qamrab olardim birdan!

Oldindan salqin shabada esa boshladi, yo'l qishloqning tutzor ko'chasiga kirdi. Bir oz yurganlaridan so'ng chap tomonda yastanib yotgan daryo qirg'og'i ko'rindi.

— To'xtating! — dedi Mengboy.

Shofyor mashinani chetga chiqardi. Mengboy uxlab qolgan o'g'lini orqa o'rindiqqa yotqizib, eshiklarni mahkam bekitdi va ariqchadan hatlab, sholipoya bo'yiga chiqdi. Tizzaga uruvchi sholizorga tikildi. Nazarida hozir bir o'rdak yo bir tustovuq uchib chiqadigandek bo'ldi. So'ng bu faslda bundoq qushlarning mutlaqo uchib chiqmasligini eslab, kulib yubordi va qo'llarini manglayiga soyabon qilib, olisda, tumanlanib, bug'lanib oqayotgan Surxonga qaradi. Qalbida quvonch gupurib, xuddi o'g'lini quchganidagi kabi entikdi. Buning ustiga, bu ajib manzara uning miyasida xayollar uyg'otdi: bolaligi, shu daryo yoqasida turib, qandaydir qiz haqida surgan xayollari yodiga tushdi va chuqur xo'rsinib, birdan xo'mraydi.

— Ketdik! — dedi shofyorga. Ichkariga kirgach, o'g'lini yana tizzasiga oldi va haligina esiga tushgan xayollaridan endi uyalib, bolaning yuzlaridan o'pdi.

Borilayotgan manzil: hamqishloq do'stining uyi, shundoq yo'l yoqasida, o'zi yaqindagi maktabda

o'qituvchi. Mengboy «ona qishloq» deb kelgani bilan akasi yo opasinikiga bormay, oldin shu do'stinikiga qo'nar, goho shuning uyidan qaytib ketar edi. Negaki, akasining xotinini yoqtirmas, opasi esa Mengboy shaharlik qizga uylanganidan xafa edi.

Mengboy yo'l yoqasida mashinadan tushib, o'g'lini ko'tarib oldi. Shofyor lash-lushini orqaladi. Birgalashib, ariq labidagi yolg'izoyoq so'qmoq bilan uy oldiga bordilar. Do'sti G'affor uy biqinida o'ra qaziyotgan ekan. Sochi quloqlari ustiga tushib, yetib keldi.

— Qani, bir ko'rishaylik! — deb quchog'ini ochdi. O'pishib ko'rishdilar. — Sora qani?

— Sorani Sochiga jo'natdik! — xitob qildi Mengboy.

— E, bekor qilibsana-da! Xotin... mana, bizning xotin! — deb uyga ishora qildi u.

— Yo'q, noto'g'ri! — dedi Mengboy. — Ular ham ishlaydi, axir. Bizning katta kamchiligimiz shuki, ko'pincha o'zimizni o'ylaymiz. Xotinlarimizning in-tilishlari, qiziqishlari bilan hisoblashmaymiz.

— Ha, gumanniyliging qolmadi-da, — G'affor uni uyga boshladi. Kirib, Soraning kurortga ketganini aytdi va: — Buning yurishiga qara! — dedi. — Undan ko'ra xotin bo'lib qo'ya qol!

G'afforning xotini kulib kelib bolani oldi. Shofyor bir soatlardan keyin qaytib ketdi va do'stlarning dam olishi... baliqchiligi boshlandi!

— Bolaga ehtiyot bo'ling, kelin. Uyg'ongandan keyin olib boring! — deb tayinladi Mengboy.

— Olib borib nima qiladi, kechqurun kelamiz, — dedi G'affor.

Mengboy rad qildi:

— Yo'q! Buyam baliq tutishni bilishi kerak!

— Bu baliqni biladimi?

— Biladi! Bilmasa, bildiramiz!

Kechki payt ular qarmoqlarni sohilga bog'lab qo'yib, kattagina o'lja bilan qaytdilar. O'ljaning bir qismini qovurib yegach, G'affor qishloqni aylanib kelishga taklif etdi. Ikkalasi qayta kiyinib, boyagi yalangoyoq baliqchilarga o'xshamaydigan chiroyli, xushbichim ziyolilarga aylanishdi.

Endi chiqishmoqchi edi, Islom ergashdi.

— Xo'p bo'ladi! — deb ko'tarib oldi Mengboy. Lekin bu gal G'affor qattiq turib:

— Nima keragi bor muncha suyuqlik qilishning? — dedi. — Bola yig'laydi. Biron yerda yuz gramm-ellik gramm ichib qolsak... esingda bo'lsin, ichishniyam o'rganadi keyin!

«To'g'ri, bu tomoniyam bor! Haqiqatan ham bolani hadeb olib yuraverish yaxshi emas!» deb o'yladi Mengboy va o'g'liga jiddiyat bilan uqtirdi:

— Maketik, qolishing kerak. Biz tezda qaytamiz. Senga morojenoe olib kelaman. Bir soatda qaytib kelaman!

— Yo'q, ikkita morojniy! — dedi bola.

— Xo'p, ikkita!

Bola qoldi. Ikki do'st ko'chaga chiqishi bilan avtobus ko'rindi, ular qo'l ko'tarib to'xtatishdi. Avtobusdayoq Mengboyning tanishlari uchradi va ularni markazga ketaverishda tushirib, manamen deb turgan restoranga olib kirishdi. Restoranda ham Mengboyning tanishlari uchradi, uzoq qolib ketdilar. Chiqqanlarida hammasi shirakayf, ko'ngillari yana ichimlik tusar, hatto ba'zilar shuni taklif ham qilar edi. Lekin Mengboy keyingi ichish hech qachon yaxshilikka olib bormasligini o'z tajribasida sinagani uchun qat'iyat bilan: «Yo'q, bas!» — dedi.

Markazga o'tdilar. Gazsuv ichdilar. Choyxonaga ki-rib chikdilar. Keyin Mengboy allamahol bo'lganini anglab qoldi.

— Endi ketish kerak, o'rtoqlar. Biz dam olgani kelganmiz. Bunaqada charchab qolamiz! Ha, biz... xotin bilan garov bog'laganmiz.

Erta yana uchrashadigan bo'lib xayrlashdilar. Endi avtobusni kutishga asablar chidamadi va G'affor taksi tutdi. Taksida qaytib kelishar ekan, Mengboy oqshom shu yo'ldan kelayotganini esladi va birdan tizzasiga urdi.

— Islom morojenoe degan edi-ku! G'affor, morojenoe topmasak bo'lmaydi.

— E, morojenoe topiladimi hozir. O'g'ling allaqachon uxlab qolgan, — dedi G'affor.

— Yo'q, u uxlamaydi! — xitob qildi Mengboy va shofyordan mashinani to'xtatishni so'radi.

— Lekin aeroportda bo'lishi mumkin, yangi restoran ochilgan, — dedi shofyor.

— Haydang! Ko'ramiz aeroportni ham!

Ular qishlokdan chiqib, sayhon o'rtasida qo'nqayib turgan, oldi oynavand binoga yetib to'xtadilar.

Mengboy chopib ketdi. G'affor shofyorga pul berdi.

Binoning narigi tomoni ham oynavand bo'lib, undan uchishga shaylanayotgan samolyotning qizil chiroqlari ko'rinar, zalda odam siyrak edi. O'rtada alanglab to'xtagan Mengboy dadil yurib, burchakdagi uch oyokdi baland stullar ortiga — bufetga bordi.

— Morojenoe bormi?

— Yo'q, — dedi bufetchi ayol.

— Nahotki?

— Yo'q-da. Ertaga bo'ladi.

Mengboy hayrat bilan do'stiga qaradi. G'affor parvo qilmay, bufetchidan bir shisha suv bilan ellik grammdan konyak so'radi. Mengboy «e» deganicha qoldi, so'ng shiddat bilan stakanni ko'tardi, shokoladdan gazak qilib, zalni tomosha qildi.

— G'affor, yaxshi! Shahardagi aeroportlardan qolishmaydi!

— Bir-ikki yil orasida bu yerda ham shahar bo'ladi.

— Cho'ldan neft chiqdimi?

— Allaqachon.

Mengboy mamnuniyat bilan atrofni yana ko'zdan kechirdi. Keyin, bolasi kutib qolganini aytib, jilmoqchi edi, G'affor:

— Anavi eshikdan chiqayotganga qara! — dedi.

Mengboy qarab, eshikdan chiqib kelayotgan o'rta bo'y, boshida pilotka, formasi kelishgan qomatini quchib turgan qizni ko'rdi. Uning yuzi andak keng bo'lib, qora ko'zlari chaqnab turar, xiyol uzun burni va gavdasining tikligi unga yoqimli, lekin erkak kishini bir qadar hayiqtiradigan mag'rurlik baxsh etar edi. Mengboy gangib qarab turar ekan, qiz to'g'ri bufet oldiga keldi-da, bufetchiga:

— Haligini bering! — dedi.

Bufetchi Mengboyga qarab qo'yib, o'zicha to'ng'illadi, peshtaxta ostidan yaltiroq temir idishda morojenoe chiqarib, qizning oldiga qo'ydi.

Qizning o'zini tutishiyu qiyofasi mahv etgan Mengboy, bufetchi bilan qizning bu munosabatiga tushuna olmadi: bu unga qiziq tuyuldi. Bari bir, u bufetchiga bir o'qraydi-da, qizga o'tkir tikildi. Shunda bir tirsagini peshtaxtaga qo'yib, qoshiqcha bilan morojenoe yeyayotgan qiz ham Mengboyga qarab qo'ydi va beparvolik bilan mashg'ulotini davom ettirdi...

Mengboy xuddi ayb ish ustida qo'lga tushgandek qizarib, o'zini bu qiz oldida ojiz his qildi. G'afforni bir turtdi-da, eshikka yo'naldi.

— Kim u? — dedi og'zi qaqrab Mengboy.

— Shu yerda ishlaydi, — dedi G'affor. — Yaqinda keldi.

— Taniyanmi?

— Kim tanimaydi, shu yerda ishlaydi-ku!

Ular ko'chada. Mengboy xayolga tolib, derazaga qaradi. Qiz deraza orqasida tumanlanib yana ham sirli bo'lib ko'rindi.

— Senga aeroportni, uchrab qolsa bu jononni ham bir ko'rsatay dedim-da... Otpuskadagi odamsan. Yur endi, ketdik!

Mengboy so'zsiz ergashdi. Lekin, yana unga qaradi va bir vaqtlar o'zi orzu qilgan qiz shunga o'xshab ketadiganday tuyuldi. Keyin shu xayol og'ushida rohatlanib uyga ketdi.

Islom uxlamagan edi.

— Morojenoe! — deb chikdi.

— Ertaga... Albatta ertaga bo'ladi! — dedi Mengboy, keyin, Islomni bag'riga bosib, erkalab yotdi.

Ertasi daryo bo'yiga jo'naganlarida ham, kechki payt qaytganlarida ham qiz uning ko'ziga aniq-aniq ko'rinarverdi.

Ovqatdan keyin tag'in ko'chaga otlandilar. Mengboy o'g'liga uchta morojenoe olib kelishga va'da berdi.

Tanish-bilishlari bilan uchrashib, ularga aeroportdagi restoranga borishni taklif qildi. Restorandan chiqishgach, Mengboy, bufet oldiga keldi va konyak bilan suv so'radi. Keyin, restorandan qattiq qog'ozga o'rab chiqqan morojenoeni peshtaxtaga qo'yib:

— Balki bugun morojenoengiz bordir? — dedi.

— Yo'q, — dedi bufetchi.

— Kechirasiz, u go‘zal xonim uchun ham yo‘qmi?

— Yo‘q!

— Juda soz!

Mengboy tanishlarini uzatdi, keyingi mashinada boradigan bo‘lib, yana G‘affor bilan bufetga qaytib kirdi. Kechagi jonon bufetga yaqinlashayotgan ekan.

Kelib:

— Haligini oling! — dedi.

— Yo‘q... erib oqib ketibdi! — dedi bufetchi va Mengboyga xo‘mrayib qaradi.

Qiz chimirildi, endi burilmoqchi edi, Mengboy:

— Kechirasiz, menda bor, berishim mumkin! — dedi. Qiz qaradi. Uning ohu ko‘zlarida na mag‘rurlik, na bir boshqa ma‘no bor edi. — Oling! — dedi Mengboy qo‘li qaltirab.

Bufetchidan tarelka so‘rab, unga soldi va qoshiq bilan qizning oldiga qo‘ydi.

— Rahmat, — dedi.

— Marhamat, oling!

Qiz qoshiqni oldi, yeya boshladi va:

— Kechirasiz, bu morojenoe kimga olingan edi? — deb so‘radi.

— Ug‘limga, — dedi bir narsaga o‘chakishtandek Mengboy. Qiz xijolatli kulimsiradi.

— Chakki bo‘libdi-da, o‘g‘lingizning rizqini qiydim.

— Hechqisi yo‘q, yana topiladi.

— O‘g‘lingizni juda yaxshi ko‘rar ekansiz.

— Juda!

— Onasini-chi?

— Onasini... Sevgi bo‘lishi shartmi? — dedi nima deyishini bilmay.

Qiz qoshini ko‘tarib qo‘ydi.

— Men sevgisiz yashashni tasavvur qilolmayman.

— Chunki siz turmush ko‘rmagansiz, bola nimaligini bilmaysiz!

— Aksincha, — deya Mengboyga qaradi qiz, — erga tekkanman, ikki yil yashaganman ham. Bolam ham bor...

...Ertasi kechqurun ular shu yerda uchrashdilar. Mengboy restoranga taklif qildi. Burchakdagi stol yoniga o‘tirishdi. Mengboy ikki kishiga g‘oyat ortiqchalik qiladigan yeyimlik va ichimliklar buyurdi. Shunda sezib qoldiki, butun restoran ahli bularga qarayapti. Mengboyning achchig‘i chiqib, bir-ikkitasiga o‘qrayib qo‘ydi. Qiz sezib miyig‘ida kulimsiradi. Mengboy ochiq so‘zladi:

— Bizga qarashyapti, to‘g‘rirog‘i, sizga qarashyapti!

— Qarasha qarashaversin, shu yerlikmisiz?

— Bu yerlik edim, shaharlik bo‘ldim.

— Xotiningiz shaharlikmi?

-Ha.

— Nega xotiningizni olib kelmadingiz?

— Kurortga ketdi. Men buyoqqa keldim o‘g‘lim bilan. Biz baliq ovlaymiz!

— Xotiningizni rashk qilmaysizmi?

Mengboy hayratlandi: haqiqatan ham xotinini hech kimdan rashk qilmas, bu to‘g‘rida o‘ylash xayoliga ham kelmas edi.

— Yo‘q. Negadir rashk qilmayman, — dedi.

— Yaxshi ko‘rmas ekansiz xotiningizni! Bilasizmi, mening orzuim shuki, erim meni rashk qilsa! Men hamisha uning yonida bo‘lsam... Qiziq, men ham baliq ovini yaxshi ko‘raman. Kurort nima! Hozir bizlarga yarashmaydi. Qariganda borib dam olsa, durust. Hozir o‘zimizning yurtimizni ko‘rish kerak!

Mengboy hayrat bilan: «Bu xotinimning aksi, xuddi o‘zim istagan qiz», deb o‘yladi.

— Hayronman, men odamlarga ishonishni istayman!.. Xotinimga ham ishonaman...

— Baxtiyor ekansiz. Men yigitlarga ishonmayman, — dedi qiz. — Mana, erimga ishonardim. Ishonchimni oqlamadi. Ko‘p erkaklar ayolning tashqi ko‘rinishiga maftun bo‘ladilar, lekin uning yuragida nima bor, bu bilan ishlari bo‘lmaydi... Erim, erim ham shunaqa edi.

— Eringiz unday bo‘lsa, bolasi...

— Bolamni jonimdan ham yaxshi ko‘raman! Onam bilan ikkimiz tarbiya qilib olamiz.

Mengboy entikib ketdi, nima deganini o‘zi ham bilmay qoldi:

— Men sizday kishining borligiga ishonmas edim. Ishonardim-u, uni ko‘rmayman deb o‘ylar edim! Ismingiz nima?

— Hanifa.

— Juda soz! Hanifa, qishloqni tomosha qilib kelmaymizmi?

— Mayli.

Mengboy hisob-kitob qildi. Tashqariga chiqdilar. Pastda ko‘zini ko‘kartinib, taksi turar edi. Mengboy mashinaga taklif qilishni o‘yladi-yu, olib chiqqan puli tamom bo‘lgani yodiga tushdi. «Zarari yo‘q, yo‘l-yo‘lakay G‘affordan olaman!» — dedi o‘zicha. Mashinaga o‘tirib ketisharkan, Mengboy birdan qiziq taklif aytdi:

— Surxon bo‘yiga boramiz! Daryoni tomosha qilamiz. U bug‘lanadi kechasi. Sirli bo‘ladi!

— Mayli.

Mengboy mashinani G‘afforlar uyi oldida to‘xtatganida ham ruhi lazzat, sirlilikning og‘ushida edi. Ariqdan hatlab o‘tishi bilan: «Islom, Islom», — dedi va alamdan, uyatdan zir titrab ketdi. Ular ichkari uyda televizor ko‘rib o‘tirishgan ekan, Mengboy eshikdan ro‘para bo‘lishi bilan, Islom:

— Dada! — deya yugurdi, kelib uning tizzasidan quchdi. Mengboy ko‘tarib bag‘riga oldi.

— Morojniy qani?

— Morojenoe... opkelaman!

— Men ham boraman morojniyga!

— Hozir... — Mengboy bolani qo‘yib, G‘afforni tashqariga imladi. Burchakka o‘tkazib: — Puldan bormi? Ber picha, — dedi.

— Nima qilasan?

— Ob-bo! Keyin aytaman! Chiqar. Keyin, mening chamadonimdan ol!

G‘affor yigirma so‘m chiqarib berdi. Mengboy pulni olib, burilgan edi... Islom kelib, tag‘in otasining tizzasidan quchdi. Mengboy uni ko‘tarib oldi:

— Besh minutda kelaman, maketik! Besh minut-a! Beshta morojenoe opkelaman! Axir, sen uchun ketyapman!

— Yo‘q, boraman... Boraman. — So‘ng, bola nochor-likdanmi, «opa!» deb yig‘lab yubordi.

— Hoy-hoy, — dedi tomog‘i bo‘g‘ilib Mengboy.

— Bolani yig‘latma, qol, Mengboy! — dedi G‘affor.

— O‘zing hammavaqt bolani qoldir der eding...

— Lekin... bolani qiyna demas edim!

— Sen nimani tushunasan!

Mengboy o‘g‘lini ko‘targanicha mashinaga qarab chopdi. Shartta kirib o‘tirdi. Shofyorga:

— Haydang, daryo bo‘yiga! Pristanga! — dedi va Hanifaga bokdi.

— Mana o‘g‘lim, Hanifaxon. Mening o‘g‘lim!

Hanifa tepadagi chiroqni yokdi. Bolaga tikildi, qo‘liga olmoqchi edi, Islom otasiga yopishib oldi.

— Kechirasiz, qolmadi. Qoldirolmadim, — dedi Mengboy.

— Hechqisi yo‘q...

Daryo sohilida mashinadan tushdilar. Mengboy shofyordan to‘xtab turishni iltimos qilib, o‘g‘lini ko‘targanicha Hanifa bilan sohilga qarab yurdi. Oy daryo ortidagi tuman ichida sarg‘ayib suzar, tuman sarg‘ish, sirli ko‘rinar, daryo bo‘g‘iq ovoz chiqarib, afsonaviy bir maxluqdek kilkillab oqar edi.

— O‘g‘lim, mana shu Surxon! Hanifa, shu Surxon! — dedi Mengboy.

— Ha, — dedi kulimsirab juvon.

Shunda Mengboy titrab-qaqshab o‘z orzusiga, nihoyat yetganini o‘yladi. Shu daryo tumanligi, sirliligi qo‘ynida xuddi shuningdek tumanli va sirli ayol bilan turganini, u bilan uchrashganini his qildi.

Biroq o‘g‘li shabadadan junjikib, bo‘yniga talpinar ekan, o‘rtalarida... boshqa buyuk bir nima turganini qattiq his qildi-yu, mashina sohil bo‘ylab jilar ekan, endi Hanifa bilan vidolashayotganini o‘yladi... haqiqatan ham, aeroport yonida xayrlashayotganda:

— Birga sayr uchun rahmat. Endi ko‘rishmasak kerak, Hanifa, — dedi Mengboy.

— Tushunaman! — dedi juvon va ichkariga chopib kirib ketdi.

Mengboy mashinaga o'tirdi. Uyga kelgandan keyin Islom morojenoeni yodiga soldi. Mengboy javob bermay, uyquga ketdi. Keyin bir hafta azoblanib yurdi va otpuskasi tugamay, shaharga qaytdi.

1975

BAHOR O'TDI

Mastura sho'x, odam bilan kulimsirab gaplashadigan, suhbatdoshiga tezda yoqib qoladigan, suhbatdoshi kim bo'lmasin, unda o'ziga saxiy bir mehr, xayrxohlik uyg'otadigan qiz edi. U ko'p narsani o'ylab, fikr qilib o'tirmasdi. Lekin, o'zining yoqimli ekanini bilar va hamisha yoqimli bo'lib qolishiga ishonar edi. Shuning uchun teng-to'shlariga ham, muallimlariga ham, qo'shnilar va yolg'iz onasiga ham erkalik qilar, ters-ters gapirib ketaverardi.

Ularning yigirma sotix tomorqasi bo'lib, unda otasi ekib ketgan xil-xil mevali daraxtlar ko'p edi. Shu bog'dan keladigan daromad va otasiga to'lanadigan pensiya puliga kun kechirishar edi.

Masturaning otasi qirq uchinchi yilda sillasi qurib, ishlab turgan magazinida o'lib qolgan edi.

Mastura shu magazin oldidan o'tganda otasini eslar va ko'ziga yosh olardi. Qishloq kichkina, shuning uchun qizni hamma tanir va o'tmishi-yu, hozirgi hayotini bilar, yig'layotgan qizning ko'nglidagi g'amni sezib, unga hamdardlik bildirishardi. Mastura battar yig'lar va yig'isi tamom bo'lganidan keyin odamlarning unga ko'rsatgan dildrligini eslab, ichida mamnun bo'lar, xayrxohlik ko'rsatmaganlariga alami kelib, ularni so'kar edi.

Mastura hamma meni suyadi va suyishi kerak deb hisoblar, ularning nega suyishlari haqida o'ylash esa, xayoliga kelmas edi. Odamlar bo'lsa avvalo uning yoqimtoy, erka qiz bo'lgani uchun, so'ngra, uning takdiriga achingani uchun suyishar va ko'nglini cho'ktirmaslikka harakat qilishar edi.

Mastura to'qqizinchi sinfda o'qib yurganida uni o'ninchida o'qiydigan maktab komsomol tashkilotining sekretari Akobir degan yigit yaxshi ko'rib qoldi.

Akobirning ota-onasi u yoshligida o'lib ketgan, u olti yasharligidan yetim bolalar uyida tarbiyalangan, zehni, andishali, bir so'zli va ko'ngli yarim yigit edi. Uning bitta tog'asi bor edi. Tog'a bola-chaqasi bilan qishloqning shimolidagi chorbog'ida turar, uning ovdan qo'li bo'shamas, bo'sh vaqtda choyxonada o'tirib, ov tafsilotlarini ko'pirib hikoya qilardi.

Akobir tog'asi bilan kam muloqotda bo'lar, o'zini mag'rur tutib yurar edi.

Ozg'in, novcha, qirraburun bu yigit Masturani yaxshi ko'rib qoddi. U ilgari ham bir-ikkita qizni yaxshi ko'rgan edi. Ammo Masturani sevib qoldi-yu, unga xiyo-nat qilmadi. Faqat yaxshi ko'rish bilan chegaralanganida, balki vaqti kelib unutar, boshqasiga ko'ngil qo'yib ketaverar edi. Chunki, u yosh edi... Biroq, bu andishali, ko'ngli yarim yigit qizning tarjimai holi bilan tanishdi-yu, unga bog'lanib qoldi. Muhabbatiga achinish hissi ham qo'shildi. Bu ikki tuyg'u bir po-yondozi bo'lib, Masturani uning ko'ngliga olib kirib qo'ydi...

Mastura ham unga mayl bildirdi. Ammo tanishgan kunlaridayoq unga erkalik qildi, ters gapirib ketib qoldi. Akobir o'sha kuniyoq qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artmoqchi bo'ldi, tag'in uning oilasi taqdirini o'ylab: «Yo'q, xafa bo'ladi. Ko'ngli cho'kadi, sag'ir deding-da, deydi», dedi ichida. Bu mulohaza unga keyinchalik ham hamroh bo'lib qoldi. Shuning oqibatida Akobir Masturaning barcha xarxashalarini ko'tara boshladi.

Mastura ham uni yaxshi ko'rib qoldi.

O'ninchini bitirishgach, Akobir Toshkent Davlat universitetining gyoologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Masturani bir necha sinfdoshlari qatorida maktab direktori Qarshiga eltib, muallimlar institutiga joylashtirdi.

Qobiliyatli Akobir yaxshi o'qib ketdi. Bir necha durust-durust qizlar unga ro'para bo'la boshladi, lekin, Akobir ular bilan yurmadi. «Mastura eshitsu, xafa bo'ladi», dedi. Mastura faqat sevgilisining bevafoolidan emas, o'z taqdiridan ham xafa bo'ladi, deb o'yladi.

Mastura o'rtacha o'qiy boshladi. Maktabda muallimlar baho yo'rig'ida ham saxiylik qilishar edi. Bunga o'rgangan Mastura institut domlalarining o'ziga hamma qatori qarashlarini tushunmadi. «Bular qiziq, qarshilik», deb ularni yomonlar edi u. Keyin, kursdoshlari ham unga hamma qatori muomala qilar, Mastura buni ham tushunmas edi. To'g'ri, ba'zi yigitlar uni ko'rganda miyig'ida jilmayib, unga ishora qilar, goho uning bichimi kelishgan qiz ekanini yuziga ham aytar, Mastura bulardan mamnun bo'lar, biroq, shulargina uni qanoatlantirmas edi.

Sevishganlar xat yoza boshladilar.

Akobir Masturaning xatlarida nolish ohanglarini uqa boshladi. Ikki yil badalida stipendiyasini tejab-tergab, bir gal bahorda, bir gal qishda Qarshiga kelib ketdi.

Bu harakat ularni bir-biriga yana ham yaqinlashtirib qo'ydi. Akobirning sevgisi ham, Masturaning muhabbati ham oshib-toshib ketdi. Bu vaqtda Mastura hamma kursdosh qizlar bilan urishgan, muallimlar ham unga sovuq munosabatda bo'lib qolishgan edi. Negaki, Mastura uch-to'rt marta hammaning ko'z oldida

darsdan chiqib ketdi.

Bora-bora Masturaning o'qishdan ko'ngli sovidi. Uning xayoliga nuqul ko'zi shilpiq onasi, katta bog'lari kelar; maktabdagi muallimlari va qo'ni-qo'shnilarining kulimsiragan chehralari namoyon bo'lar; keyin, bular ortida ufqni to'sib, Akobir turar edi. Mastura xohlasa, uni oyog'iga poyonoz qiladi, xohlasa yelkasiga minib uchadi. Akobir uni istagan manziliga eltadi, u hamma yerda hamqishloqlarining mehribon chehralarini ko'rib turadi.

Uchinchi yili Mastura: «men o'qimayman», deb xat yozdi Akobirga. Akobir Baxmaltog'da edi. Xatni sakkizinchi kuni oldi va «bir falokat bo'lgan... Bir shp bo'lgan... Yuzi chidamay ketgan», deb o'ylab ko'ngli Masturani orli, nomusli qiz faxmlab, Qarshiga yetib keldi. Bu vaqtda Mastura qishloqqa ketib qolgan, xatiga Akobirdan tezda javob olmagan uchun undan qattiq xafa bo'lgan edi. Akobir institut ma'muriyati bilan gaplashib, o'zining shubhasi behuda ekaniga ishonadi. Masturaning o'zi o'qishni xohlamay ketganini eshitdi. Biroq: «Yo'q, bu mumkin emas. U o'qishni yaxshi ko'radi. Axir biladi-ku, u o'qishi kerak. Oilasi uchun ham... Qishloqdan o'qiyman deb chiqqan. Keying «o'ngli o'ksik uning. U boshqalardan kam emasligini isbotlash uchun ham o'qishi kerak», deb o'yladi va Qarshida eshitgan gaplariga ishonmay, qishloqqa jo'nadi.

Kelib tushgach: «Agar hozir undan xabar olmasam» battar ranjiydi», deb yetim bolalar uyiga burilmay, to'g'ri ularnikiga ketdi.

Mastura Qarshidan qaytib kelayotganida, bu ishi hamqishloqlari orasida albatta, har xil gumon va mishmishlarga sabab bo'lishini tasavvuriga ham keltirmagan edi. Mashinadan tushgani hamono buni his etdi-yu, fig'oni falakka chikdi.

Kutubxonachi rangpar ayolning: «Bahay? Tinchlikmi?» degan savoliga: «Yo'q, urush bo'ldi, hamma qirilib ketdi», deb javob berdi.

Akobir yuzi oqargan holda chimirilib kirib kelganida, Mastura jonidan to'yib, alamini kimdan olishini bilmay o'tirgan edi.

— Namuncha daragingiz yo'q? — dedi supa labidan turmay. — Xatga ham javob bermaysiz! Yo toshkentlik qizlar qo'lingizni bog'lab qo'yanmi?

Akobir tushunmadi.

— Masturaxon, Toshkentdamasdim, praktikada edim, — dedi atrofga xavfsirab qarab.

— Yuravering edi! Bevafo!

Masturaning ko'ngli to'lib ketdi birdan. Qarshiliklarning muomalalari, hamqishloqlarining munosabatlari yodiga tushib, tomog'ini bo'g'di.

— Men baxtsiz tug'ilganimdan ko'ra o'lsam bo'lmasmidi. Otajon, qaerdasiz? Kelib qizingizni ko'ring! — deb yig'lab yubordi.

Ona chiqib qizini ovutdi.

— Ayb bo'ladi, — dedi. Mastura:

— E!.. — deb urishib berdi. Akobir qo'shildi oraga.

— Qoching siz ham! Siz menga nima qilib beradingiz. Boring, Toshkentdagi oyimchalarigiz oldiga!

Ona yana oraga tushdi. Akobir yupatdi.

Mastura o'ziga keldi. Ko'zlarini artib, boqqa baqrayib qarab o'tirdi.

Bu manzarani kuzatgan begona kishi, albatta, Masturani — shaddod kelin, Akobirni — aybdor kuyov, onani — kelishtiruvchi qaynana deb o'ylar edi.

Akobir kechgacha shu yerda bo'ldi. Qo'shnilariga o'chakishgan erka Mastura unga javob bermadi. Akobir harchand uyalmasin, dam o'tmay tevaragiga qaramasin, bari bir: «Ketsam, yaxshi bo'lmaydi. Gap bor...» deb o'zini tutdi.

Endi, yallachi xotinlardek chapanilik va ishonch bilan o'rik ostidagi ariq labiga yalpayib o'tirib olgan Mastura nihoyat, ko'nglini yordi:

— O'lim bersin o'qishlariga! — dedi yig'lamsirab va to'liqib. — Meni u yerda qiynadilar. Kun bermadilar. Begonasiradilar. Nima, men ko'chada qolganmanmi?

— Men ular bilan gaplashaman. Vijdonsizlar! — dedi Akobir.

— Kerak emas, — dedi Mastura. — Men endi o'qishga bormayman.

Akobir nechog'lik harakat qilmasin, Mastura unamadi.

Akobir oqshom bolalar uyiga ketdi. Mastura tor bog' ko'chada uning orqasidan qarab qoldi.

Shu kecha Mastura xo'rozlar bir qichqirguncha shirin bir hordiq qo'ynida yotdi. Uning ko'ngli allanechuk

to'lib, chehrasi ochilgan edi. Keyin, Akobirning ertaga ketib qolishini esladi-yu, birdan otajak tong unga qorong'i bo'lib tuyuldi. «Ketmaydi! Ketib ham ko'rsin-chi!» dedi.

Akobir yetim ukalari yonida ko'ngli ma'yus bir shirin tuyg'uni tatiganicha Masturaning kelajagi haqida o'ylab yotdi: «Endi nima bo'ladi?»

Mastura ertalaboq bolalar uyiga yo'l oldi. Devor kentigidan oshib, buzoq o'tlatib yurgan «Afandi» laqabli boladan Akobirni so'radi. U chaqirib keldi.

— Rostini ayting, yaxshi ko'rasizmi? — dedi qiz yigitga mug'ombirlik bilan qiya qarab.

— Endi... nima hojati bor, o'zingiz bilasiz-ku? — dedi yigit.

— Agar bilsam, siz ham o'qishga bormaysiz! — dedi Mastura.

Akobir kalovlanib qoldi.

— Mastura, bu qanday gap?

— Shunday gap. Men o'qimayman, siz ham o'qimaysiz. Toshkentga qaytib bormaysiz.

Akobir o'ylanib, xo'mrayib javob berdi:

— Hech bo'lmasa, bittamiz o'qishimiz kerak axir, Mastura.

Masturaning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi:

— Fu! O'qimaganlar ham yashayapti. O'lib borayotgani yo'q.

— To'g'ri, hech kim o'lmaydi, lekin, o'qish kerak...

Akobir Toshkentga ketdi. Bir oydan keyin izidan xat oldi.

«Meni bular uzatishmoqchi. Harakatingiz bormi... Yig'layverib xun bo'lib ketdim», deb yozgan edi Mastura.

Akobir universitetning partkomiga uchrashdi.

— Shunaqa... qishloq joy. Uzatib yuborishlari hech gapmas. O'zingiz tushunasiz... Mana, xati, — deb ko'rsatdi.

Partkom kasaba soyuzining qarorini chiqartirdi. Soyuz raisi: «Bu yerdagi to'yni o'zimiz o'tkazamiz. Fakultetdan pul to'playmiz», deb uyoqdagi xarajatlar uchun pul berdi.

Akobir qishloqqa kelib tushib, yana Masturalarning chorbog'iga o'tib bordi.

Mastura bu vaqtda nihoyatda zerikkan, ko'ngli yana Qarshini, institut quchog'ini qo'msar, lekin, endi u dargohga bora olishi haqida o'ylamas, u, qizga o'lib ketgan otasidek tuyular edi. Qo'ni-qo'shnilardan tamoman ko'ngli sovigan, ko'zi shilpiq onasini qon qilib yashar edi.

U Akobirni ko'rib, turgan yerida ko'ziga yosh oldi. Akobir Masturadan ko'z uzmay kelar ekan, qiz behol burilib, devorlari oqlanmagan uylariga kirib ketdi. Akobir ayvon oldida bir dam serrayib turdi-da, atrofga xavfsirab qarab, uyga mo'raladi. Burchakda o'ziga tikilib, munisgina bo'lib turgan qizni ko'rdi. Ikkilanib ichkariga qadam bosdi.

— Keldingizmi? — dedi Mastura piqillab.

Bu uy va qizning bu holati yigitga ta'sir qilib ketdi. Ko'nglida olijanob hislar qo'zg'alganicha, uning qoshiga bordi.

Mastura egilib, uning ko'ksiga boshini qo'ydi va yelkalaridan ushlab yum-yum yig'lay boshladi. Akobir nima qilishini bilmay, uning kiftini silar ekan, qizning xatidagi so'zlariga bus-butun ishondi. Uning boshiga katta falokat tushgandek, undan faqat o'zi qutqazadigandek bo'lib tuyuldi unga va bag'ridagi qizning to'la, do'mboq gavdasi, o'zining yelkasiga issig'i o'tayotgan uning momiq kaftlarini tuyib, o'zini chindan ham baxtiyor sezdi.

— Nima bo'ldi? Kim?

— Meni bu yerdan olib keting, — dedi Mastura.

— Bilasiz-ku, uyim yo'q, — dedi Akobir. Mastura yigitga yalt etib qaradi. U, bu tomonini o'ylamagan, yoki yuqoridagi gap shunchaki og'zidan chiqib ketgan edi.

— Men yasholmayman, yasholmayman!

— O'qishga opketay bo'lmasam?

— O'qishga? Kerak emas! — Mastura birdan chekindi. — Men shuning uchun sizni chaqirdimmi?

— Bo'lmasam, nima qilamiz? Men tayyor bo'lib keldim. To'y qilamizmi?

— Mayli, — dedi Mastura. — Keyin... siz ketasizmi?

— Men o'qishni bitirishim kerak. Atigi ikki yil qoldi.

— Nima, meniyan Toshkentga olib ketasizmi bo'lma-sam?

— Mayli... Lekin, Mastura, qiynalib qolamizmi...

— Nimaga?

— Men stipendiyaga o'qiyman... Yo siz o'sha yerda biron ishgami, o'qishgami kirasizmi?

Masturaning yuragi siqilib ketdi. Bu gaplar unga yot tuyuldi. Yana yig'lab, Toshkentdan ham qaytib keladigandek his etdi o'zini.

— Yo'q, men bormayman! — dedi.

— Bo'lmasam... Sizni rostdan ham birovga berishmoqchimi?

— Ha, berishmoqchi. Hasan kal deganga, — dedi Mastura.

Mastura bu gapni tavakkal aytgan, Hasan kal degan kishi bor-yo'qligini ham bilmasdi. Akobirning nazarida, Hasan kal puldor, boyvachcha qiyofasida ko'rindi. Taqdirdan nolib, Masturaga chinakamiga rahmi keldi. O'zini qizning birdan-bir panohi kabi sezdi.

— Bo'пти. To'y qilamiz, — dedi. — Keyin, sizga hech kim og'iz ocholmaydigan bo'ladi.

Xatda o'zi chorasizlikdan yozgan bu gap endi Masturaga qiziq tuyuldi, to'y qilgandan keyin hayoti boshqa izga tushadigandek bo'ldi.

— Mayli. Tezroq, — dedi shunga ilhaq bo'lib yurgan kishidek.

Akobir, nihoyat, qo'shni xonada jun titib o'tirgan bo'lajak qaynanasi bilan so'rashdi va to'g'ri bog'ma-bog' yurib, tog'asining uyiga yetib bordi.

Eshqobilov ko'chaga chiqib ketgan ekan. Kutdi. Yangasi kaklik go'shti bosib, sho'rva pishirdi. Kechga tomon tog'a qaytib keldi. Eshqobilov jiyanini ko'rganidan, albatta xursand bo'ldi va choyxonada aytib tugatolmagan ov haqidagi hikoyasini bunga ham aytib, xumordan chiqishni o'yladi.

Hol so'rashdilar.

— Toshkentda o'qib yuripmiz deng?

— Ha, tog'a. Men sizga bitta iltimos bilan kelgan edim.

— Xo'sh?

— Olim magazinchini bilasizmi?

— Olim magazinchi... E, bilaman!

— Shuning bitta qizi bor. Men shunga uylanaman. Sizdan maslahat so'ragani keldim.

— Anavi, o'qib yurardi...

— O'shanga. Taniysiz.

— Taniyman, taniyman, — dedi Eshqobilov burnini jiyirib. — A, qachon?

— Shu haftada. O'qishga qaytib ketishim kerak.

— Hm... Uylanadigan odamning taraddudi bo'lishi kerak edi. Uy-joyi bo'lishi kerak edi... Sen bo'lsang... o'zing student bo'lsang...

— Zarari yo'q. Keyin bo'ladi hammasi. Hozir yonim-da yuz so'm pulim bor...

— Hm... Nimayam derdik... Mayli. Lekin yuz so'm... Mayli, o'zimiz ham qarashib yuboramiz...

— Detdom direktori yordam beradi.

— Yaxshi... Lekin, lekin, jiyan, xafa bo'lma... U Qarshida o'qir edi-ya!

-Ha.

— Bu o'qishni nimaga tashlab kelgan ekan?

— Tog'a, buning ahamiyati yo'q.

— Endi jiyan, sen turmushni bilmaysan...

— Tog'a, uning tarjimai holi meni qiziqitirmaydi. Sirasini aytganda, men o'zim ham unga o'xshayman.

— Qalay? Qizning ko'ngli bormi o'zi senda?

— Bor...

Eshik og'zida suhbatga quloq osib turgan yanga yen-gini qoqib tushirib, cho'nqaydi.

— Kimning gapi? Anavi o'lgan magazinchingiz qizini gapiryapsizlarmi?

— Ha, jiyanim shunga uylanmoqchi, — dedi Eshqobilov.

— Buv-v! Odam quribdiki! Nima, qiz qurib qoldimi? Erta-indin oliy ma'lumotli bo'lasiz, bola!

Akobir idamadi.

— Keyin, o'zining ham oyog'i yengil deydilar. Bekorga Qarshini tashlab kelmagan. O'zi o'larday qaqaqjon... Voy, bilaman men!

Akobir quloq solmadi.

— Tog‘a, o‘zingiz sovchilikka borasiz-da? — dedi.

— Nima qilardik, — deb kuldi Eshqobilov, — u qushcha yuragidan uripti, jiyanimizni, xotin. Bo‘pti. Ishqilib, jiyani, sen tinch bo‘lsang, bizga davlat shu.

Akobir bolalar uyiga borib, o‘zini tarbiyalagan frontovik maktab direktoriga ham voqeani aytdi. Ular ham pul jamg‘ardilar...

Ikki kundan keyin Eshqobilov o‘zining Malik degan ovchi o‘rtog‘i va bolalar uyining direktori bilan Masturalarnikiga bordi. Ko‘zi to‘rt bo‘lib o‘tirgan Mastura beixtiyor ravishda ulardan qochdi. Uy orqasiga o‘tdi-da, baland yong‘oqqa chikdi. Keyin, dumbul bo‘lgan yong‘oqni otib, odamlarni chalg‘itib o‘tirdi...

Mastura to‘yda ham, odamlar ketganida ham o‘zini telba quvonch va qandaydir g‘ashlik qo‘ynida his qildi. Telba quvonchiga sabab shuki, o‘ziga yovqarash qilib yurgan qo‘shni xotinlar, qiz-juvonlar uni quchib tabrikladilar, unga tabassum qidilar, uning aytganini shak-shubhasiz bajo keltirdilar. Mastura o‘zini uch yil burungi Masturadek his etdi. G‘ashligining sababi shuki, u ilgari ko‘rgan to‘ylar dang‘illama bo‘lardi, bu to‘y qandaydir ma‘yusgina bo‘ldi. Mehmonlar ketdi.

— Mastur, biz yaxshi yashab ketamiz, — dedi Akobir.

Mastura ko‘z oldidagi chimildiq pardalari oppoq shohi pardalarga aylandi; kir vassalar uzoqlashib, o‘rnini antiqa bo‘yoq qilingan tekis shift egalladi; yonboshidagi taxmon uzoqlashib, o‘rnida shifoner paydo bo‘ldi. O‘tirgan to‘shagi ko‘tarilib, lo‘labolishlar parqut yostiqlarga aylandi.

— Qachon? — dedi gangib Mastura.

— Men o‘qishni bitirayin, — dedi Akobir. — Geolog bo‘laman... Sizni hech kimga xafa qildirmayman.

Mastura bu gaplarni yaxshi uqmad. Bu mulohazalar unga yot tuyuldi. So‘ng, negadir otasi birdan yodiga tushib ketdi, birdan ta‘sir lanib:

— Bechora otam, — dedi u. — Hozir bo‘lganida edi...

Akobir turib o‘tirdi.

Masturaning ko‘nglidagi g‘ashlik birdan kuchayib, Akobirning yelkasidan quchoqladi. Bu ishlarga, taqdiriga Akobir sababchidek, uni bag‘riga qattiq bosdi va tiz-tiz yosh to‘kdi.

Akobirning ko‘ngli iyib, Masturaning bu harakatlaridan o‘zini olam qadar baxtiyor his etdi. Unga bo‘lgan mehri yuz chandon oshib ketdi.

Ikkinchi kuni ertalab Akobir sochlari to‘zg‘ib, yuztuban uxlab yotar ekan, Mastura yoqimli horg‘inlik og‘ushida shiftga qarab yotar, vujudida shuncha yoshga kirib tatimagan totli bir osoyishtalik va orombaxsh bir parishonlik yoyilgan edi... Endi o‘z uyi — go‘shasini yaqindagi xayolidagidek ko‘rish uning orzusiga aylangan va o‘zining bu yangi holatini ham idrok etgan. Bu holatni va bu orzularni ham hayotida hamishaga tatish va ko‘rish uning xayoliga o‘rnashib qolgan edi.

To‘yning uchinchi kuni Akobir Toshkentga jo‘nab ketdi. Yigitning ham qizdan, qizning ham yigitdan ajralishi og‘ir bo‘ldi.

Hijronli yillar o‘tdi.

Mastura bu yillarni bo‘lajak uy-joy, kelgusi baxt orzusida, Akobir bilan uchrashuv onlari orzusida o‘tkazdi. Bu yillarda uning vujudini to‘y kuni egallagan g‘ashlik ham tark etib ketgan, vujudida o‘shandagi quvonch hokim bo‘lib qolgan edi.

Darhaqiqat, qo‘shnilar va tanish-bilishlarning unga munosabati avvalgidek davom etar, Mastura ularga erkalanar, u yana beixtiyor ravishda hurmat talab va mehr talab bo‘lib qolgan edi va buni hayotda har qadamida ko‘rar edi. U yana o‘z tabiatiga xiyonat qilmagan: odamlar munosabati unga nechuk o‘zgarib qolganini mushohada etmagan, buni tabiiy bir holdek qabul qilgan, ularning yaqindagi munosabatlarini izsiz unutgan edi.

Akobir Toshkentda talashib-tortishib, qishloqlari etagidagi sahroga yo‘llanma oldi. Kelib, neft qidiruv ishlarini boshladi.

Asta-sekin ularning orzulari ro‘yobga chiqa boshladi.

Akobir uch yuz so‘mdan maosh olar va «neft-razvedka»ga zarur bo‘lgan barcha xomashyolar uning ixtiyorida edi.

— Xo‘sh, qaerdan uy quramiz? — dedi bir oqshom Akobir horg‘in.

Bu masalani Akobirdan oldin Mastura onasi bi-lan hal qilgan edi.

— Bu ota yurtni nima qilasan? — dedi ona. — Meni tashlab ketasizlarmi?

— Yo‘q, olib ketamiz, — dedi Mastura.

— Bu hovlini sotasizlarmi?

Bu mulohazalar Mastura uchun yangilik edi. U onasiga diqqat qildi.

— Yo‘q, qizim, — dedi ona ko‘zlarini pirpiratib. — Mening ham besh kunligim bormi, to‘rt kunligim bormi — noma‘lum. Shu joy sizlarga qoladi. Shu yerni obod qilinglar. Har holda, ota yurtning. Otangni arvohi ham shod bo‘ladi.

Mastura uchun ortiqcha gapning hojati yo‘q edi.

Mastura eriga ham shunday dedi.

Akobirning bu borada fikri o‘zgacha edi: bu ko‘ngli yarim bo‘lsa ham, andishali va mag‘rur yigit o‘zicha mustaqil yashashni orzu qilar, qandaydir mulohazalarga borib, o‘zining borligini isbotlamoqchi bo‘lib yurardi. Keyinchalik esa, Masturada ham shunday maqsad bor deb avvalambor uni sevgani, so‘ngra takdiriga achinganidan mamnun bo‘lgan edi.

Masturaning gaplarini eshitgan Akobir unga tikilib qaradi.

— Mastura, sening aytganlaringni qilaman, ammo, rejamiz bo‘lakcha edi-ku?

— O‘ylab ko‘rdim, — dedi Mastura. — Axir, men otamning yurtini tashlab ketolamanmi?

«To‘g‘ri, buning gapi ham to‘g‘ri», deb o‘yladi Akobir va o‘z ota-onasining qabri qaerdaligini hatto bilmasligiga achindi. «Albatta, mening ota-onam bo‘lganida, men ham o‘shalarning yonida bo‘lishni afzal ko‘rardim», dedi o‘ziga.

— Yaxshi, — dedi Akobir va ro‘parasidagi uyga, boqqa yangi bir ko‘z bilan qaradi. Uyni aylanib, bog‘ni kezib chiqdi.

— Asta-sekin geologlarning to‘rt g‘ildirakli mashinasida a‘lo sifatli taxta-yog‘ochmi, tsementmi kela boshladi. Tog‘asi yaxshi ustalardan topib berdi. Ammo u, endi achindi.

— E, jiyan, chakki qilyapsan-da, — dedi. — Ichkuyov kuchuk kuyov deydilar. Turmushni bilmaysan. O‘zingai qafasga solyapsan...

— Tog‘a, u gaplar eskirdi, — dedi Akobir. — Mening uchun farqi yo‘q: bu hovli nima-yu, boshqasi nima.

Biroq, Masturani bir narsa ranjita boshladi. Akobir sahroda ishlar, haftasida bir kecha kelib yotib ketar edi.

— Shu yerda turib ishlasangiz bo‘lmaydimi, axir? — dedi Mastura.

— Bo‘lmaydi, Mastura. Men boshliqman. Ishimiz mas‘uliyatli, — dedi Akobir.

Bu ranjishlar Masturaga boshqa haqiqatlarni ocha boshladi.

— Axir, biz ham odamlarga o‘xshab yashaymizmi o‘zi? — dedi bir kecha. — Hamma erkaklar sakkiz soat ishini qilib uyiga keladi. Xotinining yonida bo‘ladi. Siz bo‘lsa! Nima, yo u yerda bitta-yarimta topganingiz bormi?

Akobir uning mulohazalarini to‘g‘ri deb topdi.

— Mastura, qizishma, — dedi. — Gaping to‘g‘ri. Lekin, nima qilay, ishim shunaqa.

— Qurib ketsin shunaqa ish ham, — ko‘ziga yosh oldi Mastura.

Akobirning ko‘ngli iyib, Masturani: «meni sog‘inadi, yaxshi ko‘radi», deb o‘yladi va chuqur xo‘rsinib:

— Bu tomonini boshda yaxshi o‘ylamapmiz-da, — dedi. — Albatta, sahroga borib sen yashay olmaysan. Uning issig‘iga chidab bo‘lmaydi. Men bunga yo‘l qo‘ymayman. Qiynalib qolasan!

Shundan keyin Akobir kunora kechasi kelib, tong otmasdan ketadigan bo‘ldi. Biroq, juda ozib ketdi. Basharasiga qaragan kishi burnini ko‘radigan bo‘lib qoldi.

Bu orada esa, Masturaning homilador bo‘lgani ma‘lum bo‘ldi. Unda ilgari ko‘rilmagan injikdiklar paydo bo‘ldi.

Bu yokda... uy bitib borardi.

— Tashlaysiz ishingizni, bo‘lmaydi! — dedi Mastura.

Akobir ikki oyga otpuska olib keldi. Uy bitdi. Chorbog‘ yo‘lkalari ham qo‘ldan chiqdi. Akobir bog‘ni o‘rab turgan uvada devorni buzdirib, bir g‘isht qilib qayta devor urdira boshladi.

Mastura endi o‘zi orzu qilgan hayotiga yetgan edi...

Biroq, bu unga hech qiziq tuyulmadi. Asta-sekin bu yangiliklarni unutdi va bularga qadimdan bor narsalardek qaray boshladi.

Akobir esa, o‘z ishidan mag‘rur va mamnun, Masturani ham shunday deb o‘ylar edi.

Bir kuni Mastura ishqom ostida o‘tirdi, o‘tirdi-da:

— Bitta tandir qurib bering, bu isqotida non turmaydi, — dedi.

— Xo‘p, — dedi Akobir. — Bugun kech bo‘ldi. Ertaga tuproq opkelaman.

— Ertaga deb yurasizmi? Erta-indin yana sahroga deb ketib qolasiz.

Akobir yelkasini qisdi. Ikki paqir va ketmon ko'tarib, qishloqning g'arb tomonidagi tepalikka qarab ketdi. Tepaning tuprog'i qizil va pishgan bo'lib, uni tandir qurish va tom suvashga ishlatishar edi.

Akobir borib, chuqur, nam g'orga kirdi. Yo'lakdagi axlatlarni ketmon bilan surib tashladi. G'orda cho'nqayib o'tirib, tuproq qaza boshladi... Bir payt tuproq ichidan bita sopol parchasi chiqdi. Uni paqir labiga urib qoqdi va tomosha qilarkan, sahrodagi ishini esladi. «Bir hafta qopti», deb o'yladi, so'ng xotining «ketasiz» degani yodiga tushib, «endi nima bo'ladi?» — dedi o'ziga-o'zi.

«Mastura yana janjal qiladi. Ishimni tashlashim kerakmi? Uni olib borolmayman... Haftasiga uch marta qatnaydigan bo'lsam, o'lib bo'laman... E, erta-indin ko'zi yorisa! Qiziq bo'ldi-ku?»

Akobir yana ketmon ura boshladi. Ketmon qattiq narsaga tegdi — uning ko'za ekani ma'lum bo'ldi. Ko'zani sindirmaslik uchun atrofini o'yib, tuprog'ini ola boshladi. Oqibat, ko'zaning bir yoni chikdi. Akobir tuproqni irg'itib tashlab, yana ketmon urdi va ustidan bir narsa bosayotgandek, uni tashvish qoplab tepasiga qaradi, boshiga yaqinlashib qolgan tuproq-shiftni ko'rdi. Burila solib, eshikka otildi. Iqilib tushdi va ulkan tuproq uning bo'ynigacha bosib qoldi. Akobir ixtiyorsiz ingradi, butkul ichak-chavog'i bo'g'ziga tiqilgandek bo'ldi. Nafasi bo'g'ildi va ko'zlari otilib chiqqudek bo'lib qoldi. Qimirlamoqchi bo'ldi, nazarida qimirladi ham va «o'lamanmi endi?» dedi-yu, o'zidan ketdi.

Adirda qo'zi boqib yurgan bolalar tuproq olinadigan g'orning qulab tushgan tovupshni eshitib qarashdi, g'or og'zidan yengil chang ko'tarildi. Ular taajjublanib chopishdi va g'or og'ziga tushib, Akobirning tuproqdan chiqib turgan boshini ko'rishdi.

— Akobir aka? — deb baqirdi naychining o'g'li.

— Tuproq bosipti, — dedi juvozchining nevarasi.

— Chaqiringlar... — zaif ovoz chiqardi hushiga kelgan Akobir.

Bolalar atrofga alanglashdi va to'g'ri Masturalarnikiga chopib ketishdi.

— A? Tuproq bosdi? — gangib turib ketdi Mastura. — Do-od! — dedi-da bolalarning izidan yugurdi.

Yetib kelganlarida Akobirning lablari tuproq bo'lib ketgan edi.

— Odam chaqiringlar... — dedi u yana zo'rg'a.

Mastura: «Voy, yordam beringlar!» deb qichqirdi.

Olisda uning izidan chiqib, biri to'xtab turgan, biri ergashib kelayotgan ikki suvchi yigit bularga qarab yugurdilar.

Akobirning ikki oyog'i va beli sinib ketgan edi.

— Qimirlatmanglar, oh! — dedi u.

Suvchi yigitlar kasalxonaga chopib ketishdi... Uni zambilga yotqizib, ko'chaga olib chiqishdi, keyin, u yerda turgan «tez yordam» mashinasiga solib olib ketishdi. Mastura yo'l bo'yi dod solib tizzalariga urib bordi.

— Men o'lay! Nimaga tuproq olishga yubordim! — deb yig'lardi u.

Shu kuni Akobirni shaharga olib ketishdi.

Birga borgan Mastura hovlidagi akatsiya daraxti ostida o'tirib, tug'adigan xotindek kuta boshladi. Bir soatdan keyin hamshira chiqib kelib, imladi.

— Vaqtida opkelishmapti. Zarajenie bo'p ketipti, etidan sopol sinikdari oldik, — dedi doktor.

Mastura dodlab, xuddi doktor ayblidek unga yopishdi.

— Voy, tuzatib berasizlar, tuzatasizlar-ar! — deb baqirdi.

Uni Akobir yotgan xonaga kiritdilar.

Akobir ko'karib ketgan, yuzini tanib bo'lmas, yarim belidan pastki shishib, oq choyshabni ko'tarib turar edi.

— Men o'lay! — deb uning yoniga cho'kkaladi Mastura.

Ko'zlari ichiga cho'kkan Akobir jim yotar, og'zi ochilib, pastki jag'i osilib qolgan edi...

Akobirning qirqi o'tgach, Mastura uni asta-sekin unuta boshladi va uni otasini eslagani singari eslaydigan bo'lib qoldi. Lekin qo'shnilar undan yana yuz o'girishgan edi. Endi tajribali Mastura fikr qildi: «O'zi odamlarning tayini yo'q. Bir kun qarasang, yaxshi ko'radi, bir kun qarasang, yomon ko'radi. Fu! Yana bitta erga tegay, keyin yana kim yaxshi — Masturaxon yaxshi bo'ladi».

QARIYA

Qo'ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qiladi. Xususan, moli yo'qolgan kishilarga asqatadi: «O'zi ola buzoq, bir pochasi qora, ikki yashar! Kimki ushlagan bo'lsa yo ko'rgan bo'lsa, yo bog'lagan bo'lsa, o'ttiz so'm suyunchisi bor-ho-o!» deb baqira boshlaganda ovozi yetti mahalla nariga ketadi. Qo'ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan cho'tal oladi. Biroq hozir bu kasbning omadi ketgan; rayon shaharga aylanayotgani uchun aholi ko'payib, yer tag'in torlik qilib, tomorqalarda mol saqlab bo'lmaydigan darajaga yetyapti. Shuning uchun molini yo'qotib, Qo'ziboy cholga murojaat qiladigan kishilar ham juda oz! Biroq besholti yildan buyon Amudaryo yoqasiga yaqin ko'llar bo'yida guruch yetishtirayotgan koreys o'rtoqlar bozorga serqatnov bo'lib qolishgan. Ular kuzda kelib yotib olishlari bilan toki qishni chiqarmay ketishmaydi! Shundoq bo'lgach, ular qo'shimcha dastyorlarga muhtoj: keltirilgan qop-qop guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak. Vaqti-bevaqt ularga choydandan qarashib turish lozim. Ishning eng qiyin va «sermahsuli» qishga qoladi. Ayniqsa, sahar paytida bozordan baralla ko'rinib turuvchi tog'lardan shundoq izg'irin esadiki, toqat qilib bo'lmaydi. Shunda beva xotin «jon olov, jon er» deganidek, sotuvchi o'rtokdarga kul paqirda keltirilgan lag'cha cho'g' juda ham asqatadi-da! Bu cho'g'ni ularga Qo'ziboy chol qilib beradi.

Bozorda bu qariyadan bo'lak tag'in beshta xizmatchi bor. Biroq chol sotuvchilar bilan toza elakishib, mijoz bo'lib ketgan. So'ngra u boshqalardek ortiqcha to'ng'illamaydi, berganini olib, haqiga mo'l-ko'l duo qiladi. Pishiqchilik mahalida ham Qo'ziboy cholning ishi ko'payib, qo'li-qo'lga tegmay qoladi. Hali qarasangiz, shartta yorib yeb ketiladigan qovun-tarvuz po'choqlarini chelakka yig'ib yuradi. Hali qarasangiz, oyoq osti bo'lgan uzum, pomidor, karam po'choqlarini terib yuradi. Ba'zan qo'shni mol bozoriga o'tib, tezak ham supuradi.

Shu ishi evaziga bozorkomdan maosh oladi, xizmatchilar ro'yxatiga «ishchi» deb yozib qo'yilgan. Maoshdan tashqari, sotuvchilarning himmatiga qarab tushadigan uch-to'rt chaqa pul ham cholning cho'ntagiga kiradi.

Qo'ziboy chol — oriq, oyoqlari chilcho'pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirsa, umrida ko'rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuuq so'rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi.

Darvoqe, ravoch chiqqanda ham qariyaning omadi yurishib qoladi: chunki eshaklarida qop-qop ravoch olib tushgan tog'lik o'rtoqlar ham Qo'ziboy cholning mijozlaridir! Ular rayon markazidagi aholi singari og'ir, «bardoshli»mas. Keltirgan mollarni donalab sotib o'tirgandan ko'ra uni ko'tarasiga sotib, o'zlariga kerakli narsalarni xarid qilib qaytshpgga shoshadilar: tog' uzoq, kechga qolmay qishloqlariga yetib olishlari kerak. Ana shunda Qo'ziboy chol ularning bamisoli hojatbarori bo'ladi. Biroq u bu xil olibsotarligidan kam foyda qiladi. Negaki savdoga qiziqib ketganidan keyin «o'n tiyinga beshtalab» sotayotgan ravochini «o'n tiyinga o'ntalab» sotganini ham bilmay qoladi. Shunga qaramay, bu ishni qo'ymaydi. Ayniqsa, kechasi kinoxona yonida chordani qurib sota boshlaganida o'zi ham juda mamnun bo'lib ketadi, boshqalar ham...

* * *

Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo'q. Shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozorchi'larga qo'shilib, ko'mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan. Qo'y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan. Qo'ziboy chol bola ko'rmagan. Xotini bundan sakkiz yil muqaddam o'zining qo'lida jon bergan. Xotining qabri Qizil Gazada. Uchiga paxta qo'shib o'rilgan qubbali jamalagi bilan kiygichi hamon qariyaning uyida, tokchada...

Shundan beri chol yolg'iz. To'rt yil bo'ldiki, uni o'lim vahimasi chulg'ay boshladi. Ko'zi pishib ketgani uchun o'limdan emas, jonkuyari bo'lmagani uchun o'lganini hech kim bilmay qolishidan qo'rqadi.

O'limligini tayyorlab, tayinli bir kishiga berib qo'yishni o'z burchi deb bildi va bu yillar orasida jamg'argan pulini Qobil qassobga berib qo'ydi. Onda-sonda qassobning do'koniga kirib: «Qalay, zo'rmi?!» deya pulning omon-eson turganiga shama qilib qo'yadi. Qassob ham kalta iyagini qashiyotgan bo'lib: «Xotirjam bo'!» deydi.

...Bu yil kuz barvaqt tushdi. Bargi pastidan to'kilgan daraxtlar uchi qontalash. Chug'urchuqlar serob.

Mezonlar ko‘p — simyog‘och simlarida, daraxt shoxlarida, tom bo‘g‘otidan chiqib turgan yog‘och uchlarida. Chumchuqlar ham sertashvish. Rayon ko‘chalarida odam siyrak. Hamma paxta terimida. Qo‘ziboy chol ham bir hafta terimda bo‘lib keldi. Juda yayradi! Biroq qaytib kelgan kuni kimsasiz bozorga kirib huvillab yotgan rastalarni ichki bir mamnuniyat bilan aylanib ko‘rarkan, bozor odog‘idagi kichkina darcha qattiq itarilib, ochilib ketdi. Ro‘molining uchini og‘ziga tutib olgan to‘lagina ayol qizargan ko‘zlarini yashirib, darvozaga qarab yo‘naldi.

— Bahay? Tinchlikmi? — so‘radi bozor ishchisi.

— O‘, akajon... Otamni berib qo‘ydik. Bilasiz-ku, qandoq odam edi! — kelinchak o‘tib ketdi.

«E, miskar olamdan o‘tibdi-da... Chakki ish bo‘pti. O‘zi rahmat qilsin», — dedi qariya va bu kelinchak haqiqatan ham miskarning kelinimi-yo‘qmi ekanini bilmoqchidek, uning ketidan tushdi.

Kelinchak chorrahadan o‘tib, past ko‘chaga enib ketdi.

Qo‘ziboy chol choyxonaga kirdi. Kimsasiz, zax xo-naga o‘tib, bitta ko‘kech buyurdi-da, chorpoyaga chiqib chordana qurdi. Do‘ppisi ustidan qiyiqcha o‘ragan G‘oziboy choy olib kelgan edi, uni ro‘parasiga o‘tqazib:

— Attang-a... miskar o‘tipti! — dedi. — Dunyo shu ekan-da, birodar!

Choyxonachi shoshib qoldi, surishtira ketdi.

— E, qizishmang, inim, — dedi Qo‘ziboy chol beparvolik bilan. — Ajal vaqtiki kelib, har birimizning ham eshigimizni taqillatadi. Musulmon odam o‘limni bo‘yniga olib qo‘ygani ma‘qul... Meni boshqa bir nima o‘ylatadi, inim! Qodirboy ko‘p mo‘min-musulmon odam edi. Balli... Uning izzat-hurmatini joyiga qo‘yib chiqararmikan bu kelinchak? Shu yog‘i meni o‘ylatadi... Chakki ish bo‘pti-da! Balkim tayyorgarligi yo‘kdir? A?.. Unda qiyin! Inim, o‘lim degani to‘y emas, men sizga aytсам. To‘y degani bamaslahat bo‘ladi, o‘lim tuyqusdan keladi! Buning farqi katta!.. Attang!

Bo‘shashib qolgan choyxonachi Qo‘ziboy qariyaning uzun, oq oralagan echki soqoli, cho‘kik yonoqlariga o‘ychan tikildi.

— Ota, so‘raganning aybi yo‘q. Necha yoshga bordingiz? — so‘radi u.

Chol taltayib har tarafga qarab oldi:

— Nasib bo‘lsa, mening hisobimda... ikki kam yetmishga kirdim! Men bilan o‘sgan mana, Qobil qassob payg‘ambar yoshiga borganiga naq besh yil bo‘ldi. Shu hisobda uyam ikki kam yetmishga chikdi.

Choyxonada odam ko‘paydi. Qo‘ziboy chol ular bilan

so‘rashib, paxtadan olgan taassurotlarini hikoya qilib xiyla o‘tirib qoldi.

— E, bu Shoymardon Quadrat deganingiz toza zo‘r ekan! Desangiz, paykalda paxta oppoq bo‘lib, shu... charv moydek bo‘lib oqib yotibdi! Mashinasi bilan bir oralasa bormi, quruq g‘o‘zasini ko‘rasiz! U zo‘r ekan... Haloli bo‘lsin! Oltita bolasi bor ekan, xo‘sh... bitta qo‘li cho‘loq. O‘zi anavi Sho‘rchidan bo‘ladi. Qo‘ng‘irotdan! Boysun Qo‘ng‘irotdan! Alpomishning urug‘i-da, baraka topsin...

Kechqurun uyga bordi. Qo‘shning echkilari tomor-qaga kirgan ekan, ularni haydab kemtikdan oshirdi-da, o‘ylab turib bostirmaga chiqdi:

— Ho-ho-o! — deb baqirdi. — Biri ola, biri qora echki ko‘rgan bormi? Suyunchisini olib kelaver — ho-o! Qo‘ziboy jarchining makkasini yeb yuripti! Baraka topsin egasi-yo!..

Qo‘shni chiqdi, chol bilan kulishdi. U dahlizga kirayotgan edi, yiroqdan kelayotgan yig‘i tovushini eshitib, turib qoldi. Xafa bo‘ldi. Siyrak, uzun qoshlarini chimirib, ichkari xonaga o‘tdi. Po‘stakday qotib ketgan palos ustida turib, xonaga razm soldi. Tokchadagi jamalakni ko‘rib, qo‘liga oldi-da, tomosha qildi. Yana avaylab joyiga qo‘ydi va qornidan ochiladigan yog‘och sandiq ustidan eski joynamozini olib to‘shadi. Tiz cho‘kib, rosa tilovat qildi. O‘lganlarga jannatdan joy tiladi, tiriklarga insof-adolat... So‘ng pichirlab: «E, rasuli barhaq! Imonimni ber, — dedi. — Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim... Tog‘lik og‘aynilarni ham aldamadim. Ko‘pning duosini oldim... Ha, farzand ko‘rmadim. Senga bir yomonligim o‘tgandir-da... O‘zingga shukur. Qobilboyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko‘msin! E, Qo‘ziboyning hech kimi yo‘q ekan demasin birov!..»

U yengil tortib qo‘zg‘aldi. Biroq tashqariga chiqib, tag‘in yig‘i ovozi eshitdi va tag‘in ta‘bi kir bo‘ldi. Allaqanday vahima yuragiga tushib, tor ko‘chaga chiqdi.

Ko‘channing bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi. Soyning tik qirg‘og‘ida qadimgi qo‘rg‘on vayronalari qaqqayib turar, uning vodiya qarab ochilgan shinaklarini kaptarlar in qilgandi. Qo‘rg‘onning devori ustida ikkita bola ko‘rinar edi. «Xah, shumtakalar! Yiqilib tushsa, kimga qiyin?! Yosh-da,

yosh...»

Shu kecha qattiq shamol bo'ldi, chol bekorchilikda ekib, yaqinda o'rib qo'ygan makkajo'xorilarini har tarafga sochdi. Bostirma eshiga ko'p marta ochilib-yopildi. Allaqayoqda bir it uzoq hurdi, tongga yaqin uvladi.

Qo'ziboy cholning ta'bi battar xira bo'lib uyg'ondi.

Shu kuni uning ishi yurishmadi: kecha shamolda to's-to'poloni chiqqan bozorni supurib, supurindini axlat qutisiga solib qo'ygan edi, bir mashina tisanib to'kib yubordi. Chol bozorkom raisidan dashnom eshitdi. U Qodir miskarning o'limiga ham kechikib bordi...

Kechqurun Qo'ziboy chol gangib, qassobxonaga mo'raladi:

— Hormang, usta? Zo'rmi?

Qassob go'sht sotilmayotganidan kuyinib o'tirgan edi, tumshaydi:

— Bitta xolodilnik bersa, xotini taloq bo'ladimi?! Mana, go'sht buzilib qolsa, nima qilaman?

— E, tashvish chekmang, — dedi Qo'ziboy chol. — Hademay paxtadan odamlar qaytishadi... Buyoqda kun soviyapti!

— Siz ham gapiraverasiz-da!

* * *

Qo'ziboy chol shu oqshom yotib qoldi. Saharda turganda yomg'ir shivalab yog'ar, tevarak tinch, bostirma biqiniga taqab taxlab qo'yilgan sap-sariq jo'xori poyalari ustida chumchuqlar g'ujg'on o'ynashardi. Yomg'irda shalabbo bo'lgan bir it devor tagida iskanib turardi.

— Tur! Yo'qol! — Qo'ziboy chol unga kesak otdi. It kemptikdan o'tib ketdi.

Chol odati bo'yicha soyga yuvinishga tushdi-yu, qaytishga madori yetmay qoldi. A'zoyi badani uvishib og'rir, shundoq toza havo ham unga yetishmayotgandek edi. Uyga zo'rg'a yetib kelib, ko'rpachaga cho'zilgan edi, ko'zi ilinib, tush ko'rdi. Marhuma xotini emish. «Yuring, yuring!» deb qo'ldan tortayotgan emish. Chol uyg'onib, bu tushning ta'birini yomon tomonga yo'ydi. Bozorga borishga ham hafsalasi bo'lmadi. Ayvondagi dekchanning tagiga to'rta qurigan yog'ochni tiqib, ichiga bir kosa suv, kartoshka bilan ikkita sabzi solib, miltillatib qo'yishni o'yladi-yu, erindi. Ovqatga ishtahasi yo'q edi...

Shu bo'yi yotib qoldi. Xayriyat, ertasiga qo'shnisi Jamol aka tag'in buyoqqa tushgan echkilarini haydagani kirganida uni ko'rib qolib, uyidan bir kosa achchiqqina sho'rva chiqardi. Qariyaning ichi ilib, sal madorlandi.

— Bahay, olamda nima gap? — so'radi u. — Men... bozorga chiqolmadim, Jamolboy! Andak tobim aynib yotib qoldim deng... Shamol tegdimi, bilolmadim. Xo'sh?

— Yangilik shulki, rayon odamga to'lib qoldi, — dedi qo'shni. — Paxadan qaytishgan, bozoringiz ham gavjum... Ko'chaga chiqing, yaxshi bo'ladi.

— To'g'ri aytasiz. Yotishdan foyda yo'q!

Qo'ziboy chol shundoq degani bilan tushgacha ko'chaga chiqolmadi. Kechga tomon umrida birinchi marta hasa tayanib chikdi. Rayon markaziga oralaganda, uning kayfi xiyla chog' bo'lib ketdi... E! Chol haqiqatan ham yolg'iz emas! O'g'li bo'lmasa, o'g'lidek izzat qiladigan yoshlar bor... Ana, o'zi tengi qariyalar ham unga izzat-ikrom ko'rsatadi.. Shu koreys o'rtoqlar ham eski mijozlarini asti unutishmaydi-da; paxtaga ketayotgan xalq chalg'imasin, deb ularga ham guruch sotish man etilgan edi, yana mollarini olib chiqishibdi. Hammasi xursand! Qo'ziboy chol ular bilan so'rashib, choyxonaga kirdi.

G'oziboy uning oldiga bir choynak choy qo'yib, aftiga tikildi:

— Nima bo'ldi, ota?

— E, issiq jon... Olloyim sevgan quliga kasal berar ekan, inim. O'limni unutmasin, meni eslab tursin deb. Shundoqki, biz ham andak yotib oldik!

U ko'chaga chiqqanida sovun, tuz xarid qilish uchun tog'dan tushgan tojik oshnalariga yo'liqdi. Ular g'oyat so'zamollik bilan choldan ahvol so'rashdi.

— Akun in sol ham chukuri mo'l meshad! — deyishdi ular. — Sizga rahmat... Bo bizdi esdan chig'ormang, baxudo xapa bo'lamez. Mana, bir yuzu oltmish panj kundan so'ngra chukuri chiqadu!

— Ha, o'limga sabr bersin, hammasi bo'ladi, — dedi qariya.

U uyiga qaytar chog'i qassobxonaga yonidan o'tarkan, dili andak og'ridi. Do'stining xabar olmagani endi yodiga tushdi...

— Xo'sh, tani sihatlikmi? — dedi u ichkariga qarab. Yo'g'on, baquvvat qassob unga o'tkir tikildi:

— O'zingizni oldirib qo'yibsiz?..

— Shunchaki...

— Mana, ish ham ko'payib qoldi, qo'l qo'lga tegmayapti.

Chol yo'lda o'zini ovutdi: «U ishli odam... O'zidan ortib borolmayapti. Hozir birovdan gina qiladigan vaqtmi?»

* * *

Qo'ziboy chol o'nglanmadi. Tag'in uch kun yotib, ko'zlari do'layib, olti oylik kasaldek bo'lib qoldi. Yarim kechada tag'in tush ko'rib uygondi va xotinini eslab o'tirgandi, tashqarida jo'xorilar qattiq shitirlab, it g'ingshidi. So'ng cho'zib uvladi, chol dang qotdi.

«He, endi vaqt yetipti, — deb o'yladi u to'shakda chordana qurib, engashib o'tirarkan. — Kun to'lipti endi... Rahmatli kampirim ham sezipti. Ana, it ham... Bekorga uvlamaydi-ku? Ovqatdan ham qoldim... Rizq-nasiba uzilyapti. Endi tayyorgarlik ko'rish kerak».

Ertalab u xotirjam bir holatda hovliga chikdi. Odamlardan rozi-rizolik olish, qo'shnilarning uyiga mo'ralash, keyin bozorga borib, tanish-bilishlar bilan ham xo'shlashish, Qobilboyga uchrab, xotining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham biryo'la o'tkazib yuborishni tayinlash, so'ngra bozorkomga yo'liqib, u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...

Odamlar ham qiziq-da!.. Qo'ziboy chol bilan vidolashib, undan rozi ekanlari, bemalol oyog'ini uzatib o'laverishi mumkin ekanini aytish o'rniga nuqul kuliydi. Hatto bir-ikkitasi «vos-vos bo'psiz, o'qiting o'zingizni», deb hazil ham qildi. Yoshlar esa, dangaliga: «Qo'ying-e! Bo'ydoq odam ham shunday deydimi? Avval uylaning, bola-chaqa ko'ring, keyin bir gap bo'lar-da!» deyishdi. Lekin cholning bukchayib, behol qadam tashlab ketishini orqadan kuzatgan ba'zi bi-rovlar achinib xo'rsinishdi ham.

Albatta Qo'ziboy chol ko'plarning gapi, kulgisidan mamnun bo'ldi. Bu narsa o'limning avval sezilmay kelgan hayajonini ham bosdi...

Nihoyat, yoshlik do'sti Qobil qassobning do'koniga kirdi.

— E, gapirmang-e! — dedi u.

— Xo'p deyvering, do'stim! — dedi Qo'ziboy chol kursida qo'zg'alib qo'yib. — Menga ayon bo'ldi...

Yo'g'on yong'oq to'nkasi ustidagi go'sht parchalari, suyak siniqlarini sidirib terib olayotgan qassob unga tikilib qoldi va birdan xo'rsinib, skameykaga o'tirib qoldi.

Bu baquvvat, barvasta, sog'lom odamga — Qo'ziboy avvallari ham oriqligi, qotmaligi uchun kasaldek ko'rinar, ming so'm pulni keltirib sanab berganida, «shu o'ladi-yov» deb ko'nglidan o'tkazgan edi. Hozir uning botib ketgan ko'zlari, za'faron yuzi, qo'lidagi dag'al hassasiga tikilib: «Ha, o'ladi», deb o'yladi.

— Shuning uchun, do'stim, — davom etdi qariya, — men avvalambor, sizdan rozilik olmoqchiman. So'ngra... andak vasiyatim bor.

— Vasiyat?!

Qassob Qo'ziboy cholning pulini o'shandayoq ishlatib yuborgan va bu odamning hech kimi yo'qligi, o'zi xudojo'y hamda urish-janjaldan nari yurishini bilgani uchun o'shandayoq quvonib: «Bu o'zimmiki bo'ldi», deb qo'yan edi.

— Ha, esim borida vasiyat qilib qo'yay, do'stim. Bir haftadan beri mazam yo'q! Siz ish bilan ovorasiz... Inchunin, o'lib o'qolganimni bilmay qolishingiz ham mumkin, labbay? Shuning uchun har uch kunda anavi dastyoringizni yuborib, mendan ahvol so'ratsangiz, haqiga o'sha puldan bir so'mdan bering...

Qassob piyolasidagi choyni to'kib tashlab, peshtaxtani tushira boshladi. Xona qorong'i bo'lib qoldi. — Tashqariga chiqaylik.

— Xo'p bo'ladi... Yo siz ham menga ishonmayapsizmi? Undog' bo'lmasin...

* * *

Yarim soatdan keyin Qobil qassob darvozaga qarab borar, bozor xizmatchilarining yordami bilan rasta taxtasiga chiqib olgan Qo'ziboy chol ko'zidan shashqator yosh oqizib, atrofga xira ovozda jar solar edi:

— Eshitmadim demanglar! Suyunchisi bor... Qobil qassob past odam ekan. Men o'limligim deb ming so'm berib qo'yan edim, tondi! Xaloyiq! U pul sizlarning pullaringiz edi. Mening halol mehnatim uchun so'mlab,

tiyinlab bergan edingiz. Ana shu odamga berib, o'limimga yarat deb edim... Tondi. Yeb ketadi endi... Odamlar, Qobil qassob haromxo'r! Odamning haqini yeydi bu... Xudodan tilagim shuki, o'ligi ko'chada qolsin, bekafan bo'lsin, xaloyiq... Meni bekafan qildi, odamlar!

Qobil qassob darvozadan chiqqan joyida orqaga qarab chopdi. U yetib kelganida yoshlar, qariyalar uning yo'lini to'sishdi. Cholni himoya qilishdi. Ishga militsionar aralashdi. Qassob bilan Qo'ziboyni bozorkomning idorasiga kiritib, so'roq qildi.

— Bunda pul bo'ladimi, o'zi o'n tiyinga zor-ku?! — baqirdi qassob. — Jinni bo'пти bu... Olibsotar! Guvohing bormi? Asti birovga yaxshilik qilma ekan... Hech kimi yo'q deb do'konga chaqirardim, choy quyib berardim! Mana, tovon to'la, deb turipti... Ketmaydi! Haqiqat bor!

Oraga bozorkom raisi ham qo'shildi. Natija chiq-madi. Qassob qutulib ketdi. Qo'ziboy tashqariga chiqib, gujum ostiga o'tirdi.

Janjalni uzokdan kuzatib turgan — baland bo'yli, qozoqbashara, o'rta yashar Mirg'ozzi qassob kelib, cholning tirsagidan ko'tardi.

— Ota, xafa bo'lmang... O'limni o'ylamang... Siz bekor g'avg'o ko'tardingiz, shu hasa bilan boshiga solishingiz kerak edi.

— O', bolam...

Mirg'ozzi Qo'ziboy cholni uyiga eltib qo'ydi. Qo'shnilariga choldan xabar olib turishni tayinlab qaytdi.

* * *

U jimjit uyda, palos ustida cho'zilib yotib, shu fikrga keldi: «Bu ahvolda men qandog qilib o'laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O'limlik qilishim kerak... Undan keyin o'lsam, boshqa gap...»

U qo'shni chiqargan ovqatni zo'rlab yedi. Yarim kechada turib, go'sht qovurdi. Sahar uyg'onib, soyga tushdi. Yuvindi. Tetiklanib, ko'chaga yo'l oldi...

Qo'ziboy chol avvalgidek bo'lib ketdi.

1975

ODAM

Falsafiy hikoya

Rahima endi chelagini suvga botirgan edi, orqasidan birov chaqirdi.

Rahima chelagini suv bo'yiga qo'yib, o'tov oldida turgan Xosiyat opaning yoniga bordi.

—Buyoqqa kir, bir nimani ko'rsataman. Shahardan opchiqishihti!

Rahima uning ortidan o'tovga kirdi-yu, taxmon qoshida tik turgan yigitni ko'rib, ketiga tislandi. Xosiyat opa uning yo'lini to'sdi:

— Satilingni opqo'yaman, bermayman!

— Qoching!

Rahima uni itarib yuborib, tashqariga otildi. Chelagingning suvini yarim qilib, sohilga chiqib oldi va soy bo'yidagi o'tovga nafrat bilan qaradi.

Shu kecha uning onasi qazo qildi, o'lim oldida nevara-chevarasigacha yoniga chaqirib, ulardan rozi-rizolik oldi. «Mendan yaxshilik o'tgan bo'lsa, unutmanglar. Yomonlik o'tgan bo'lsa, esdan chiqaringlar. Rostgo'y, mard, halol bo'linglar!» — dedi. So'ng Rahimaga tikilib:

— Bolam, Shodmon shahardan kelgan, — deya entikdi. — Seni deb kelgan. Xosiyat opangni uyiga qo'ngan. Ota-onasiz yetim bola. O'zimizdan. Seni o'shanga bermoqchiydim.

Keyin, yil o'tgach, Rahimani Shodmon polvonga uza-tishni katta qizlariga tayinlab, ko'z yumdi.

... Yil o'tib, Rahima Shodmon polvonga xotin bo'ldi, uni shaharga tushirib ketdilar.

Shodmon sho'x, charmgarning beva kelini bilan bordi-keldisi bor ekan. Rahima buni qo'shni ayoldan eshitib, bir oqshom poyladi va eri devordan oshayotganda, oyog'idan tortib yiqitdi. Polvon uni bir urib, shaytonlatib qo'ydi. Shunda Rahimaning chap qo'li sindi. Lekin keyin Shodmon ham bu yurishlarini bas qildi.

Oradan to'rt yil o'tdi. «Inqilob bo'larmish, bek-bekzodalar yo'q bo'larmish» degan xabarlar tarqala boshladi. Shodmon o'shanda yurtdosh polvonlar bilan Afg'onistonga ketgan edi. Bir haftadan keyin uyokda yiqitgan polvonlari haqqi — bir tuya mol bilan qaytib keldi va uch kun yotib, tirnoqlari ko'kardi, tog'day odam mushtdek bo'lib tirishib qoldi, o'ldi.

Rahima kelin... beva qoldi.

Ikki yildan keyin bozorning farroshi unga odam qo'ydi. Rahima: «Polvon meni qulflab ketgan, kaliti o'zida», deb sovchilarni qaytardi. Ular tag'in kelishgan edi, ariq ichida yotgan kaltakni olib boshiga ko'tardi: «Tinch qo'yanlarmi, yo'qmi? Qo'y, uchta yetimchani boqay!»

Shodmon polvondan uchta farzand qolgan, kattasi bilan kenjasi qiz, o'rtanchasi o'g'il edi.

Bir kuni guzarda «qizillar kelyapti» degan ovoza tarqalib, odamlar tog'larga qocha boshlashdi. Rahima ham bolalarini olib, yo'lga tushdi: xurjunning bir ko'zida non, sapcha, tut mayiz, tolqon. Ikkinchi ko'zida kenja qizi Tursunoy.

Tog'da qochqinlikda bir yil yashadi, o'sha yili qish qattiq kelib, chap oyog'ini sovuqqa oldirdi — shishib ketdi. Bahorda yana shahardan yangi xabarlar kela boshladi: «Qizillar» ham o'zimiznikilar ekan. Musulmonobodlik bo'пти... Omonlik-omonlik!»

Rahima jonidan to'yib yurgan edi, shaharga jo'nagan birinchilar qatorida yo'lga chikdi.

...Shahar vayron bo'lgan, chet-chetdagi gumbazlar yi-qilgan, devorlar qulagan, lekin tinch, sokin edi. Bodomlar gullab turardi.

Uch oy o'tib, kolxoz tuzildi.

Rahima el qatori kolxozga kirdi va uning faol a'zosiga aylandi. G'alla o'rimi mahallarida Adolat bilan Abdurahimni ham olib chiqar, ular mashoq terishar edi.

Kenjasi tog'da... ochlikdan o'lib ketgan.

Bu vaqtda Adolat maktabga qatnar, Abdurahim ham dastyor bo'lib qolgan edi.

Yillar o'tdi... Rahima endi o'tgan kunlarini, qizligi, shaharga tushgani, eri, uni poylaganlarini tushdagidek eslar, endi o'sha kunlar ham unga qiziq, ajib ko'rinar edi.

Urush! Urush!..

Adolatni raykomga ishga olishdi, Abdurahim frontga ketdi. Uning ayoli bilan ikkita farzandi qoldi.

Bir yil o'tib Abdurahimdan qoraxat keldi, saldan so'ng uning yosh xotini ikki bolasini ham Rahima opaga tashlab, chiqib ketdi. Endi Adolat ham bitta o'g'lini uyda qoldirib, dashtma-dasht yurar, erkaklarning ishini qilardi.

Urush tugadi, yana tinchlik, omonlik bo'ldi.

Endi Rahima buvi urush yillaridagi kunlarni xotirlar, u kunlar ko'z oldidan tushdek o'tar ekan, kelinini olti oy o'tirmay er qilib ketgani uchun hamon kechira olmas, o'shanda kunlariga yaragan ola sigirni o'kinch bilan eslardi, sigir sutdan qolgach, so'yishgandi.

Tag'in yillar o'tdi. Uch nevaradan biri institutni bitirib, agronom bo'lib qaytdi. Biri novvoy, biri olis shaharda uylanib qoldi.

Rahima kampir endi nevaralariga qarar, ularga o'tmishidan ertaklar aytib berar, uning butun hayoti ham g'alati bir ertakka o'xshar edi.

Rahima buvi to'qsonga yaqinlashib qoldi. Adolat opa ham davlat pensiyasiga chiqdi. Uning eri Qurbon bobo — kolxoz bog'boni. Chorbog' torlik qilgani uchun agronom nevara boshqa joydan uy solib chiqib ketdi.

...Kampir ikki yilcha tinch, xotirjam yashadi. Nevaralarini suyar, shular bilan ovunar, endilikda o'choqboshiga ham yaqin bormas, ro'zg'or yumushlari ham Adolat opaning qo'liga o'tgan edi.

Keyin-keyin Rahima buvi esdan chiqaradigan odat paydo qildi. Bir narsani bir joyga qo'yib, keyin topolmay yurar, shunda ko'ngli bo'shab yig'lab ham olardi. Keyinchalik chevaralari bilan jiqillashadigan, tortishadigan bo'ldi.

Ezmalik... Rahima buvida ana shu xislat ham paydo bo'ldi. Kattalar uning gapini eshitmasa, go'daklarni yoniga o'tqazib qo'yib gapirar, nuqul tarixdan tushar va shunday aniq qilib so'zlardiki, o'sha voqealarni hozir ko'rib turgandek taassurot qoldirardi kishida.

Bu hol bir necha oy davom etdi.

Agar uning gapini diqqat bilan eshitib, o'zicha tahlil qiladigan kishi bo'lsa, antiqa bir holni sezardi: u dastlab kechagi tarixdan so'zlardi — urushdan keyingi yillar, o'zining chopib-chopqillab ro'zg'or ishlarida yurgani. So'ng nuqul urush davrida boshidan kechirganlarini hikoya qiladigan bo'ldi. So'ng urushdan avvalgi yillarga o'tib oldi: kolxoz tuzilishi, quloqlar, kechasi bittasining: «Kolxozga ishga chiqma, so'yilasan!» — deb qo'rqitgani, o'zining: «Yetimlarimni boq bo'lmasa!» deya faryod qilgani... Keyin, bir-ikki kun o'ziga sovchi bo'lib kelganlarni qarg'adi-yu, eri Shodmon polvon tilidan tushmay qoldi: «Tog'dek yigit edi. Tirishma degani vabomi? Afg'onda bor ekan...»

Bir kuni Rahima kampir yosh qizalokdek quvonib, uy atrofida timirskilani yurdi. So'ng narvonga tirmashib, tomga chiqib oldi va pastga tusha olmay, yig'ilab o'tirdi. Kuyovi kelib, bir amallab pastga tushirdi.

Shunda qiziq ish bo'ldi, kampir kuyoviga birdan yot nazar bilan qarab qayoqqadir qochmoqchi bo'ldi va hassasini ham tashlab, emaklab uyga kirdi. Eshikni zichlab yopdi.

U dag'-dag' titrar edi. Xonaning shiftlariga hayrat bilan boqdi, eshikka yaqin borgandi, eshik birdan tortildi. Rahima buvi: «Voy!» deya cheqindi. Ostonada qizi Adolat opa turardi.

— Xosiyat? Xosiyat opa! — pichirladi kampir. — Qo'yvor meni... Nimaga uyga qamab qo'yding? Bari bir qochib ketaman. Satilimni ber!

Adolat opa bir qadam ichkariga bosdi:

— Enajon, sizga nima bo'ldi? Jonim enam?

— Haligi erkak qani, yo'q-ku?

Shu kuni kechgacha Rahima kampir mana shunday, bamisoli o'n besh yashar qizlik davri bilan yashadi: ona-sini esladi, soyni. Onaning vasiyatlarini.

Adolat opa bilan Qurbon bobo uning xonasida o'tirishardi. Ular chiqib ketgach, Rahima buvi birdan xayolga tolib qoldi va... ko'z oldidan allaqanday baland minoralar, paranji yopingan ayollar o'tdi. Keyin o'zini allaqanday ariq labida ko'rdi: birov devorga tirmashyapti. Kim u? Eri-ku? Oyog'idan tort!.. So'ng kampir o'zicha iljayib, xonada keza boshladi, shirdan osilgan lampochka tagida taqqa to'xtadi. Boshi aylanib, ko'zi tindi, so'ng ko'zi yumiq bo'lsa-da, aniq ko'ra boshladi: dara, katta gulxan yonyapti. Atrofida otlar, eshaklar. Shoshilib u yoqdan-bu yoqqa o'tayotgan odamlar... Shunda u xudai sovqotayotgandek junjikib ketdi. Beixtiyor yerga o'tirib, chap oyog'ini uqaladi. So'ng ko'z oldiga lop etib kirza botinka va fufayka kiygan o'g'li Abdurahim keldi. «O, bolam, dushmanga qiron kelsin!» — shivirladi u... Keyin chayqalib o'tirarkan, sap-sariq bug'doyzorda yurgandek his etdi o'zini. Shunda Rahima buvi birdan hushyor tortib ketdi va nevaralarining nomini tutib chaqira boshladi, keyin o'z-o'zidan xijolat tortdi: nega nevaralarini chaqiryapti u? Ular bu atrofda yo'q-ku? Chevaralarini chaqirmoqchiydi shekilli.

...Adolat qani? Qizi? X,aligina shu yerda edi chog'i? Kimlar chiqib ketdi boya?

Rahima kampir ertasi kuni bir necha odamga o'xshab, har xil qiyofada yashadi: goh Rahima qiz bo'ladi,

goh Rahima kelin. Birdan Rahima onaga aylanadi. Keyin Rahima buviga... So'ng yana Rahima qizga.

— Enajon, bizni qo'rqitmang, enajon, — dedi Adolat opa kechqurun tag'in uning uyiga kirib. — Bu ovqatni yeng... Mana, choy! Kecha meni yomon qo'rqitdingiz.

— Nima? Nima dedim? — so'radi u parishon bo'lib.

— Axir meni tanimay qoldingiz-ku? Sizni uyga qamab qo'ygan emishman. Meni Xosiyat dedingiz... Bunaqa qilmang, enajon? Siz yosh bola emassiz-ku? Eshityapsizmi? Yosh bola emassiz... Sochlaringiz qayta qoraya boshladi, tishlarirgiz qaytadan chiqyapti. Piri badavlatsiz, enajon?

— Mening enam qani?.. U kutib qoldi-ku? Nimalar deyapsan?

— Jon ena...

— Satilimni opqo'ydingmi?

— Uf...

— Enam kasal edi, o'ladigan bo'lib yotipti... U o'ladi! Ketaman uyimizga.

Adolat opa yig'ladi. Chiqib eriga yolvord:

— Choljon, qanday kunga qoldim? Enam yosh bola bo'lib qopti. Choljon... nahotki odam oxir-oqibatda shunday bo'lib qolsa-ya? Bu dahshat emasmi?.. Boyoqish enam! Yomon ayolmas edi. Bizni deb yashadi, umri o'tdi. Endi hech narsani bilmay, eslolmay o'tiripti. Bilgani, eslagani — bolaligi!.. Men qo'rqib ketyapman, choljon? Menga qarang, nimani o'ylayapsiz?

— Kampir... odam bola bo'lib o'lmaydi.

— Yo'q, yo'q! Bunda bir sir bor... Xo'p deng. Men nakdini ham eshitganman. Topishmoq borku: to'rt oyoqli bo'lib tug'ilarmish, keyin uch oyoqli bo'larmish...

— Keyin ikki oyokdi.

— To'g'ri-da, odam tug'ilganda o'rmalab yuradi, keyin bir nimaga suyanib yura boshlaydi, uch oyokdi bo'ladi. Keyin ikki oyokdi, a?

— So'ng qo'lga hassa oladi, tag'in uch oyoqli bo'ladi. Keyin...

— Yana turt oyoqli bola... Bola! Choljon, haqiqatdan ham enam bola bo'lib qoldi-ku? Erta-indin hassaga tayanib ham yurolmay qoladi. Rostkamiga bola bo'ladi... Nimaga ishonmaysiz?

— Kampir... odamzod bola bo'lib o'lmaydi. Unda yashashida ma'no bo'lmas edi.

— Men ana shundan qo'rqyapman-da?

— Hovliqma, kampir... Sabr qil.

* * *

Uch kundan keyin Rahima kampir birdan o'ziga keldi. Unga qaragan, gapini eshitgan kishi kuni kecha qilgan ishlariga sira ishonmas edi.

Momo qizini chaqirdi, unga ma'yus tikilib, yig'ladi:

— Konsert ko'rsatdimmi? Nimalar dedim... Eslolmayman.

— Hozir tuzukmisiz, enajon?

— Xudoga shukur... Bolam, taraddudingni ko'r, men ketaman endi.

— Enajon?

— Xo'p de, yolg'izim. Sezib turibman... Qil ustida turganga o'xshayman... Bolaga o'xshab qoldimmi?

— Sal...

— Sal emas. Rahmatli enam ham shunaqa bo'lgan edi. Keyin o'lar chog'ida aytgan ediki...

— Nima degandilar?

— Odamzod hayoti oxirida... so'nish oldidagi shamga o'xshar emish. Odam o'lim ostonasida birdan kuch yig'adi ekan. Sham ham so'nish oldida birdan alanga olib yonadi-ku? Keyin so'nadi...

— Enajon.

— Men xiyla aljib qoldim-a? Esim bor... Keyin juda bo'shashib ketdim, jin urdi-qo'ydi. Xayriyat, hozir es-hushim joyida, bolalarni chaqir, vasiyat qilay.

* * *

— Bolalarim, mendan rozi bo'linglar. Yaxshiligim o'tgan bo'lsa, unutmanglar. Yomonligim o'tgan bo'lsa...

esdan chiqaringlar. Men hayotimdan roziman, sizlardan roziman. Mendan ham rozi bo'linglar.

1975

QAYTISH

Qumrixon opa yetmish yoshdan oshib qoldi. U davladan pensiya oladi, epizodik rollarda chiqib turgani uchun teatr ham oylik to'laydi.

Umriining qirq ikki yili shu teatr dargohida kechdi. Bir zamonlar opa o'rta bo'y, to'lagina, gajak qo'yan qizcha edi. O'sha kezlarda dong'i Dog'istonga ketib, shu kishi o'ynagani uchun ham teatrga tomoshabin yopirilib kelgan paytlar ko'p bo'lgan. Ayniqsa urush yillarida juda mashhur bo'lib ketgan edi.

Mana, yillar o'tdi. Aktrisa qaridi. Yoshlar yetishib chiqdi. Bir zamonlar u o'ynagan rollarni boshqalar o'ynay boshladi. Opa endi onda-sonda kampirlar rolida chiqadi, shunda ham kampirlar ishtirok etadigan pesa bo'lsa. Boshqa vaqtlarda opa odati bo'yicha har kuni soat o'nda teatrga keladi. Qorovuldan tortib bosh rejissyorgacha oldiga borib so'rashadi.

Qumrixon opani teatring yosh aktyorlari hurmat qilishadi. Ehtimol, uni hurmat qilmaydiganlar ham bordir. Lekin teatrning yozilmagan qonun va axloq kodeksiga binoan opa bilan quyuc so'rashadilar. Albatta, opaga achinib qaraydiganlar ham yo'q emas, lekin ular ham bu holni bildirishmaydi unga.

Bir kun opa o'sha kenggina zalda o'tirgan edi, ro'parasida har xil mavzularda chug'urlashayotgan artistlar orasida teatrning yosh rejissyori Botirxon Zokirxonov paydo bo'ldi-da:

— Hozir chitka bo'ladi... Sen, sen, siz, siz ham chitalniy zalga kiringlar! — dedi.

Opaning qulog'i ding bo'ldi. Qanaqa pesani o'qisharkan? Unga ham bironta rol chiqib qolarmikan?

Botirxon eshikdan mo'raladi, tag'in kimnidir chaqirdi-da, shoshilinch sigareta tutatdi va burchakda o'rnidan turib, poldan sumkachasini olayotgan opaga qaradi:

— Siz ham boring!

Qumrixon ayaning yuragi gurs-gurs urib ketdi: men ham boraman ekan...

U kishi jilmayib, rejissyorga yaqinlashdi. Lekin Botirxon sigaretani burqsitib, yo'lakka kirdi. Opa yo'lak eshigiga yetganda, rejissyor chap tomondagi zinaning yarmisiga chiqib borgan edi. Qumrixon opa ham alpangtalpang yo'lakka o'tdi. Yon tomondagi baland toshoyna oldida to'xtab, yonveriga zimdan qarab olgach, ro'molini tuzatdi. Qulog'iga osilib tushgan oppoq soch tolalarini ro'mol tagiga tiqib, qaddini allanechuk rostladi.

Opa pesalar o'qiladigan zalga kirganida, rejissyor to'rdagi duxoba sirilgan to'garak stol boshida oyoqlarini chalishtirib o'tirar, uning yonida tepakal yoshgina bir yigit ham bor edi. «Dramaturg o'sha bo'lsa kerak», deb o'yladi Qumrixon opa va o'tirgani joy izladi. Stullar band edi, opaning hurmati uchun ikkita yigitcha o'rnidan turdi. Shunda opa Botirxonning ovozi eshitib qoldi:

— Opa, buyoqqa o'ting!

Shunday deb u irg'ib turdi. Pianino yonida o'tirgan qizga egilib shivirladi: «Pastga o'ting. Opaning qulog'i og'ir, pesani yaxshi eshitishi kerak». Qiz turdi. Qumrixon opa kelib, qizga rahmat aytdi. Yuragi hamon gup-gup urgani ko'yi stulga cho'kdi.

Rejissyor o'rnidan turdi:

— Yangipesa o'qiyimiz. Mana, yozuvchimiz... Bizga yaxshi pesa olib kelganlar. Buning uchun rahmat. Xo'sh, sirasini aytganda, bu asar o'zimizning teatrdagi yetilgan. Diqqat bilan eshitaylik... Opa, yaqinroq o'tiring!

Yosh rejissyorning Qumrixon opaga ortiqcha e'tibor qilayotgani o'zga artistlar nazaridan chetda qolmadi, albatta. Ularning aksariyati, «opaga rol beradi» deb o'ylashdi.

Odatda rejissyorlar rollar taqsimotini sir tutishadi.

Pesa o'qildi... Unda Ulug' Vatan urushi yillaridagi bitta o'zbek oilasida kechgan voqealar hikoya qilinadi, eri harbiyga ketib, qoraxat olgan kelinchak qaynonasining qistovlariga ham qaramay, uydan ketmay o'tirar, oqibat — eri kirib kelar, ana shu jarayonda qahrmonlar dunyosi ochilib qolar edi.

Asar Qumrixon opaga u qadar yangilik bo'lib tuyulmadi.

Uning o'zi asardagi qaynonaga o'xshab ketar, ittifoqo, o'zining o'g'lidan ham qoraxat kelgan edi. Farqi — Qumrixon opaning o'g'li urushdan qaytmagan, kelini ham undan izn kutmay ketib qolgan edi.

— Xo'p, qalay endi? Kim gapiradi? — dedi Botirxon. — Bemalol. Asar hali yana ishlanadi. Maslahatlaring foydasiz ketmas. Kim so'zlaydi?

Besh, oltita yoshi ulug' artistlar o'z fikrlarini bildirishdi Dramaturg bilan rejissyor ba'zi fikrlarni daftarga yozib olishdi.

— Xo'sh, endi rollar taqsimotini o'qiyimiz. — Botirxon bir nafas sukut qildi-da, chiqib, o'rta yashar, oqsoch

bosh rejissyorni boshlab keldi. — So‘z Qobil akamizga!

Qobil Qodirqulov jilmaygancha qo‘ynidan ikki varaq qog‘oz chiqarib, tavoze bilan rollar kimlarga berilganini o‘qiy boshladi:

— Qaynona... Qumrixon A‘loevaga...

Shundan keyin Qumrixon opa nimalar deyilganini eshitmadi. Yuragi to‘xtab qolgandek, o‘zi parishon edi.

U besh yildan buyon yangi rol o‘ynamagan edi! Besh yildan buyon armonda ediki, bu alam-o‘kinch opani tobora qaritib bormoqda edi.

Aktyorlarga javob berildi. Zal bo‘shay boshladi. Rejissyor Qumrixon opaning yoniga keldi:

— Xo‘sh, opa, rolingiz qalay?

Qumrixon opa o‘rnidan kalovlanib turib ketdi. Xuddi shoh huzuriga kirib qolgan kanizakday qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib:

— Rahmat, bolam, rahmat, — dedi va qo‘llari birdan qaltiradi, ko‘zlari yiltiradi. — Bolam! — U titrab-qaqshab rejissyorning yelkasini siladi. Rejissyor engashdi. Opa uning peshonasidan o‘pdi. — Mingga kiring, bolam!

Botirxon opaning dardini yaxshi bilardi.

— Hechqisi yo‘q... buyog‘i o‘zingizga! — dedi. — Ertadan repetitsiya!

— Xo‘p, bolam, xo‘p.

Ertasi Qumrixon opa to‘qqizda teatrga yetib keldi. X,ali rahbarlar ham kelishmagan, darvozaxonada qorovuldan bo‘lak kishi yo‘q edi.

— Assalom alaykum, — dedi opa.

— E, keling, opa! — dedi qorovul. — Choy qaynayapti.

— Rahma-at.

Opa ichkariga kirib, gaz plita yonidagi kursiga cho‘kdi. Qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, ochiq derazadan tashqariga razm soldi. Gulzordagi atirgullar barq urib ochilib turar, naridagi ishkondan tok barglari uchib tushar edi.

Qumrixon opa uchun teatrning mana shu qorovulxonasi ham aziz! U kishi vaqt-bevaqt tengqur aktyorlari bilan shu yerga kirib o‘tiradi. Qari qorovul tayyorlagan ko‘kchoydan ichadi.

— O‘tiring, opa.

— Hozir kelaman.

Opa tashqariga chiqdi. Teatrning hovlisi keng. Odoqda bog‘. O‘ng tomonda teatr binosi, uning kichkina eshigi. Qumrixon opa ichkariga kirdi. Dimog‘iga o‘ta tanish hidlar — jihozlarga o‘rnashib qolgan grim hidi, yog‘och hidi urildi. Opa yo‘lakka o‘tdi. Yo‘lakka qarab ochiladigan eshikdan supurib qo‘yilgan aylana sahna va pastdagi keng zalu undaga behisob stullar yarqirab ko‘rinar edi.

Opa yo‘lakning u boshiga borib keldi. Bu boshiga qarab yurdi, direktor kabinetini eshigini ochmoqchi bo‘ldi — hali berk ekan.

Opa tashqariga chikdi. Teatrning yosh direktori yangi «Jiguli» mashinasidan tushmoqda edi. Ayni chokda rejissyorlik qiladigan bu yigit teatr dargohida katta bo‘lgan, opaning shogirdlaridan.

Ular ko‘rishishdi.

Qumrixon opa tag‘in qorovulxonaga bordi va bir ko‘ngli o‘ziga yangi rol berilganini aytgasi keldi. Biroq tomoshalarni ko‘raverib, aktyorlar o‘yiniyu spektakl mazmuniga baho berishda manman degan teatrshunos darajasida bo‘lgan keksa qorovulga bu to‘g‘rida og‘iz ochmadi.

Sal o‘tmay, teatr hovlisi, yo‘laklar gavjum bo‘lib qoldi. Ko‘rishishlar, quvnoq chehralar va albatta tashvishli shivir-shivir, allakimdan nolishlar...

— Asar mazmuni sizlarga ma‘lum, — dedi Botirxon o‘ynovchilarni pesalar o‘qiladigan va ko‘pda repetitsiyalar o‘tkaziladigan kichkina xonaga boshlab kirgach. — Jim, o‘rtoqlar! Jim! Vaqtimiz ziq... Pesani pishiramiz deb ko‘p vaqtni o‘tkazib yubordik. Qumrixon opa, — opaga murojaat qildi u. — Yukning ko‘pi sizga tushadi. Bildingizmi?

Qumrixon opa kecha uyiga borgandan keyin ham qo‘yilajak asar mazmuni va o‘z roli ustida ko‘p o‘ylagan, lekin asarga munosabati o‘zgarmay qolgan — asar o‘ziga tanish, o‘z rolini o‘ynash o‘zidan ko‘p mehnat talab qilmaydigandek edi.

— Ha, bolam. Juda mas‘uliyatli rol, — dedi Qumrixon opa.

— Sobirjon, rollar tayyormi? Olib keling! Menga quloq solinglar! Asarning mazmunini aytib beraman,

yana... Keyin har bitta obrazda to'xtalamiz. Bilasizlar-a? Ish printsipli har galgiday. Kimki mashg'ulotga kechikadigan bo'lsa, aytilgan ishni vaqtida qila olmasa, hozir aytib qo'ya qolsin. Keyin janjallashib yurishga vaqtimiz bo'lmaydi! Qo'lidan rolni olib qo'ya qolamiz!

Aktyor zoti borki, kuni teatrda kechar ekan, sahnaga chiqishni, rejissyor rol berishini istaydi!

Teatrda borganingizda, bironta xafaqon artistni uchratib qolsangaz, surishtiring, uning dardi rol ustida bo'ladi — yo rejissyordan noliydi, rejissyor o'zini xushlamasligani aytadi, yoki teatr ma'muriya-tidan norozi, hech bo'lmasa, o'z partnyoridan.

Rejissyorning so'nggi gapidan keyin artistlar hushyor tortishdi, qiyshiqroq o'tirganlari ham unga o'nnglanib yuzlariga jidli tus berishdi.

— Opa! — Rejissyor asar mazmunini qisqacha qilib aytib bergach, tag'in Qumrixon opaga murojaat qildi.

— Ko'rib turibsizki, rolingaz og'ir... a?

Endi Qumrixon opa o'z roli haqida gap ko'payib ketganidanmi, sezilarli xavotirga tushgan edi. Ko'zlarini pirpiratdi:

— Ha, ha, bolam.

— Uning mohiyati shundaki, opa, — Botirxon stuldan turib, pianino qoshida nari-beri yura boshladi, — bunda siz Ulug' Vatan urishi yillari front orqasida qolgan o'zbek ayollari siymosini yaratasiz! Mas'uliyati shunda... Buning ustiga, siz haqiqiy ona va haqiqiy qaynona siymosini yaratib berishingiz kerak. Bu asardagi voqealar sizga tanish bo'lsa kerak? Urush yillarini eslang-chi?

Artistlar duv o'girilib, Qumrixon opaga qarashdi. Opa negadir quti o'chib ro'molchasi bilan lablarini artdi.

— Juda tanish-da, bolam. Juda tanish, — dedi.

— Ana! Bu yaxshi... Demak, rol chiqadi. Lekin, — u yana stol qoshiga qaytdi, — siz juda irodali, bardoshli inson obrazini yaratishingiz kerak? Ana shu yog'iyam muhim!

Opa bosh irg'adi.

Rejissyor yordamchisi Sobirjon kirib, ayrim-ayrim ko'chirilgan rollarni egalariga taqsim qildi. Aktyorlar quvonishib olib, Botirxonni ham bir zum unutkan holda, oppoq qog'ozga mashinkada yozilgan so'zlarga diqqat qilishdi.

Rejissyor ularni tag'in o'ziga qaratdi:

— Gapni kelindan boshlaymiz! — dedi va Sobirjonga choy buyurdi. So'ng charm portfelidan arablarning shippagiga o'xshash jez kuldon, «Rostov» sigaretasini chiqarib stolga qo'ydi. Kostyumini yechib, stul suyanchig'iga ildi. O'nashib o'tirib oldi. — Siz! — deya kelin rolini ijro etadigan aktrisaga qaradi. — Siz... rolni qo'ying! Hozir o'qimang!.. Kerak emas... Avval tushunib olishingiz kerak...

Har bir rejissyorning o'ziga xos yo'li bo'ladi, ya'ni xoh asarni bo'lsin, xoh rolni bo'lsin, o'ziga xos tushuntirish usuli bor. Biroq hammasiga xos bitta jihat shundaki, ular voqeani bo'rttirib hikoya qilishadi. Maqsad — aktyorlar yuragiga cho'g' solish, ularning tuyg'ularini uyg'otib yuborish, pirovardida, butun kollektivni asar atrofiga uyushtirish, bitta maqsad sari yo'naltirish bo'ladi.

Botirxon asar mazmuni va mohiyati to'g'risida yana bir bor izoh bergach, kelin obraziga o'tib, uni tushuntira ketdi:

— Mana! — Qumrixon opani unga ko'rsatdi u. — Bu kishi sizning jondan sevgan qaynonangiz... Aytaylik, bunday! Yo'q-yo'q. Shunday! Qaynonam deb biling... Qarabsizki, eringiz o'libdi! Ha, sevimli eringiz o'libdi, uni fashistlar chavaqlab tashlashibdi.

Artistlar kulimsirab kelin rolini o'ynovchi artistga qarashdi. Botirxonning jahli chiqdi:

— Jim, jim! Opa, siz ham gaplarimni eshityapsiz-a? Yaxshi... Kelin, quloq, soling! Siz shundan keyin to'rt yil kutdingiz. To'rt yil! Urush tamom bo'ldi... Tamom! Eringiz yo'q! — U allanechuk bo'lib, Qumrixon opaga qaradi.

Opa endi obrazini tushunayotgani uchunmi yo o'g'li esiga tushib ketdimi, ko'zlarini artib piqillamoqda edi.

Botirxonga bu holat ma'qul bo'ldi va opaning bu kayfiyati kelinga ham yuqishini taxmin qilgani uchun voqeani yanayam bo'rttirib hikoya qila boshladi.

— Ana shunda... Tinchlik davrida, kelin, bitta g'arib kimsa sizga oshiq bo'ldi. Oshiq bo'ldi... Opani ham u odam juda hurmat qiladi. Opa ham uni izzatlaydi! Lekin siz unga tegishni istamaysiz. Ana shunda opa... qaynona nima qiladi. Sizga yolvoradi: shunga teg, deydi... Eshityapsizmi?

Botirxon shu mazmunda yana ko'p gapirdi, har bitta so'zini turli misollar bilan rosa chaynab gapirdi. Nihoyat, kelinga bir nafas tikilib turdi-da, yangi sigareta tutatib olib, opaga yuzlandi:

— Opa, gaplarim sizga yetdimi?

— Yetdi, bolam, — piqilladi Qumrixon opa.

— Yetgan bo'lsa, juda soz! Yig'lang... Mayli, yig'lang. O'rtoqlar, xalaqit bermanglar... Yig'layvering. Lekin mening so'zlarimga quloq soling. Xo'sh, gap bunday: sizning yagona o'g'lingiz bor edi. Uni ne-ne umidlarda urushga jo'natdingiz. Ne-ne umidlarda kutyapsiz! To'y qilmoqchisiz u kelsa! Siz nevara ko'rishni orzu qilasiz... Ana shunaqa! Shunda birdan qoraxat kelib qoldi... Shunda nima bo'lasiz! Butun dunyo siz uchun qorong'i bo'lib qoladi, a? Tamom! Bu sizning oxirgi umidlaringizni barbod qildi. Sizni ko'madigan kishingiz yo'q... Shunday! Bu narsa siz uchun bitta udar! Tushundingiz-a? Davom etamiz. Lekin siz mardona ayolsiz. Ha-ha, — iziga qaytib, stolning u boshiga o'tib oldi: — Siz juda chidamli ayolsiz! Yig'lab-siqtab o'tirganingiz bilan hech narsa bitmaydi, opa! Buyoqda ishlar oshib-toshib yotibdi. Qurilish ketyapti!

Kimdir bir nima degan edi, Botirxon eng zarur uchta aktyorni olib qolib, boshqalarga javob berdi:

— Chiqib turinglar... Ketib qolmanglar... bitta-bitta chaqiraman. Xullas, opa, ana endi siz o'zingizni ko'rsatishingiz kerak! Axir, sizga o'xshagan — bolasidan ayrilgan onalar kammi? Buni sizning obrazingiz yaxshi tushunadi... Shunday qilib, kunlar o'tyapti deylik!

Shunda Botirxonning yana jaxdi chiqqan boshladi. Chun-ki opa mudom ko'zyoshlarini tiya olmas edi.

— Bas, bas! Buyog'ini eshiting, opa... Shunda sizga yana bitta udar tushadi! Kelingiz... o'g'lingizning o'rnida qolgan qizingizni endi uzatish payti keldi! U — inson, hayotdan, bola ko'rishdan umidvor inson. To'g'rimi? Buni yaxshi bilasiz... Shunisi qiziqki, u sizni tashlab ketishni istamaydi... Siz esa, uni majbur qilasiz! Buning uchun kishiga qancha kuch, qancha iroda kerak? To'g'rimi? Inson sinaladigan daqiqalar bu.

Qumrixon opa endi o'ziga keldi. Botirxon yana so'zida davom etdi va: «Endi rolning o'qishingiz mumkin. Sizga javob!» dedi.

Opa chikdi. Hovliga chiqdi. Ko'chaga chikdi. Atrof jimjit. Bu, ro'paradagi yo'lda mashinalar ham kam-qatnov.

Qumrixon opa uyiga yo'l oldi.

U mamnun edi: u katta rol o'ynaydi! Juda muhim rolning ijro etadi! Spektaklning yutug'i ko'proq ana shu rol ijrosiga bog'liq bo'ladi.

Rolning tushunib yetgan edi. U o'ynashiga ishonadi: o'sha voqealar naq o'zining boshidan kechgan-ku! Bunaqa paytda qaysi aktyor «huzur» qilib o'ynamaydi? Qo'shimcha detallar, ishontiruvchi belgi topish uchun izlanmaydi ham. Bari o'zida bor. O'z yuragiga nazar tashlasa, kifoya!

Biroq obrazdagi bitta nuqta uni andak parishon qildi: u qaynona juda mardona ekan! Kelingiz o'zi javob beribdi. O'g'lidan qoraxat kelgach, kuyipti-ku, lekin... o'tirib qolmapti.

Qumrixon opa o'shanda o'g'lining nobud bo'lgani haqidagi xabarni olib, o'zidan ketib qolgan, uch-to'rt oy davomida ham o'zini o'nglay olmagan edi. Buning ustiga, kelini undan so'roqsiz, o'tkinchi yigitga qo'shilib uydan chiqib ketgan...

Obrazning kelimga qiladigan murojaatlari qandoq chiqar ekan?

Odatda, manman degan aktyor ham rejissyorga suyanadi, nafsilamri, aktyor rejissyor belgilagan yo'ldan boradi, uning qarashlarini ifodalaydi, faqat... o'zini qilib yetkazadi — ko'nglidan o'tkazgani uchun u narsalar jonli va mustaqil bo'lib maydonga chiqadi.

Shuning uchunmi, opa rolning davomi haqida ko'p ham bosh qotirmadi. Buning yana bir sababi shundaki, ba'zida rejissyor asar tayyor bo'lgan paytdayam dramaturgga aytib, bitta sahna yozdiradi-da, shunga qarab, boshqa obrazlar talqinini ham o'zgartirib yuboradi.

Kunlar o'tdi.

...Opaning obrazi uch bera boshladi. Anavi, o'g'lidan, qoraxat kelish sahnalarini opa yaxshi ijro etar, uning tevaragida kichkina xonani to'ldirib o'tirgan aktyorlar hali bu aktrisaning «hayot ekani, ko'p ishlarga qodir ekaniga» imon keltirishardi. Qumrixon opa yangitdan ijodkorga aylanayotgandek edi.

Biroq opa anchayin gapgayam yig'lab olar, anchagina o'zini bosa olmas ediki, bu hol yosh rejissyorning goh jahlini chiqarsa, goho quvontirar edi.

Bir kuni u:

— Yo'q, opa! Endi yig'ini bas qilasiz! — dedi. Qumrixon opa Botirxonga mo'ltirab qaradi:

— Axir, yaxshi bo'lmaydimi?

— Yo'q, — dedi rejissyor. — Kechirasizlar, — u bitta chekib olib, opaning yoniga keldi. Stulini yoniga surib, o'tirib oldi. — Yaxshi bo'lmaydi, opa... Chunki qoraxat kelganda munchalik yig'lasangiz, kelinni

chiqarayotganda nima qilasiz? Unda gap-so'zsiz qolishingiz kerak bo'ladi. Siz esa, o'g'lingiz armiyaga ketayotgani uchunoq shunaqayam ko'z yoshi to'kyapsizki, yo'q, opa... Siz juda kuchli, mardona onasiz! Shuni unutmang... Siz eng zo'r irodali ayollardan birisiz! Esdan chiqarmang, opa... Yig'loqilik ketmaydi! Men obrazga kirib oling deb indamay yurdim... Endi, yig'ini bas qiling.

Qumrixon opa rejissyorning o'gitlarini tushundi. Lekin, lekin... o'sha-o'sha!

O'zini tuta olmaydi! Ko'zidan duv-duv yosh qo'yilaveradi.

Nega o'zini tuta olmaydi! Axir, o'shanda — o'g'li urushga ketgandayam bunchalik yig'lamagandir? Nima bo'lyapti o'zi?

Bir kuni Botirxon opaga ancha-muncha nasihat qilgach, unga o'ychan tikilib xo'rsindi:

— Opa, meni xafa qilmang.

— Voy, nahotki...

— Mening odatimni bilasiz-a?

— Ha, endi...

— Asar siz bilan tirik! — U irg'ib turdi. — Men yig'loqi kampirni sahnaga chiqara olmayman.

Qumrixon opa anqayib qoldi. Atrofdagi artistlar boshlarini egishdi. Botirxon bo'g'ilib, obraz mohiyati va asar mazmunini opaga qayta boshdan tushuntira boshladi.

— Ukdingizmi? — dedi. — Endi sizga bitta sirni aytaman: menga qolsa, siz yig'lamay o'ynang! Ha-ha, — stolga qo'llarini tirab engashib oldi u. — Yig'lamang... Yig'lash oson, yig'lamaslik qiyin! Kishi o'zini tutishi qiyin... — U odaticha nari-beri yurib, bir misol keltirdi: — Bitta og'aynimning otasi o'ldi. Ular aka-uka edi. Ukasi otasini yoqtirmas, darbadar, piyonista edi. Darvozadan kirib, shunday ho'ngradiki, yig'lagan ham yig'ladi, yig'lamagan ham. Keyin u nima qildi? Ko'chaga chiqib ketdi. O'sha kuni bitta tanishini to'yiga bordi. — Aktyorlar shivir-shivir qilishdi. Rejissyor qo'lini ko'tarib qo'ydi. — Anavi akasi-chi! U otasining vafotini eshitiboq, tildan qoldi. Hovlida jim yurdi. Odamlar nima deb ketdi? «E, kattasi bemehr ekan, ko'zidan yosh chiqmadi-ya!» deyishdi. Kichkinasini, piyonistani rosa maqtashdi... Hm, davomini aytaymi? Keyin «bemehr» o'g'il oilaga bosh bo'lib qoldi. Otasining barcha marosimlarini o'sha o'tkazdi. Kichkinasi qorasini ko'rsatmadi. Aytmoqchimanki, yig'lash-siqdash hali kishining bir narsadan qattiq kuyganini anglatmaydi!

Qumrixon opa bu so'zlarni mulohaza qilib, ichida qo'shilgan esa-da, jilmayib qo'ydi.

Rejissyorning fig'oni chikdi:

— Opa, men sizga sirayam yig'lamang deyayotganim yo'q. Lekin me'yorida bo'lsin deyapman! Siz o'zingizni... obrazning mohiyatini unutyapsiz!

Qumrixon opa asta o'rnidan turdi:

— Meni afv eting, ko'nglim bo'sh, bolam... Endi undoq qilmayman, — dedi.

Haqiqatan ham keyingi kunlarda opada o'zgarish bo'ldi: u yig'ini kamaytirdi, kamaytirdi-yu, obrazini buza boshladi — obrazdagi haqiqat yo'qola bordi.

Rejissyor uchun bundan ortiq dahshat yo'q edi.

— Opa, sizni oxirgi marta ogohlantiraman, — dedi u navbatdagi mashg'ulotda. — Menga qarang, nahotki, yig'ini tiyish, jindek og'irroq bo'lish uchun o'zingizda kuch-qudrat sezmasangiz? Axir, asardagidek qaynonalar, ayollar bo'lganmi, yo'qmi? Yoki butun o'zbek xotin-qizlari erlari o'lgach, hayotini yig'i-sig'i bilan o'tkazganmi?

— Yo'g'-e, bolam.

Qumrixon opa shu kuni uyga borgach, rol ustida yana uzoq o'yladi va obrazini rejissyor aytganidek yarata olmasligiga iqrar bo'ldi: buning uchun opada allanarsa yetishmas, uning nima ekanini o'zi ham bilmas edi.

Aktyor shundoq odamki, u rolga sira-sira yaramasligini bilsa ham, rejissyorga: «Men bu rolni eplolmayman», demaydi.

Bunga avvalambor, g'ururi yo'l qo'ymaydi, so'ngra, axir shuning uchun teatrga keladi, bu yerda kunini o'tkazadi, pirovardida, aktyor degan nomi borki, u hech qachon rejissyorga «o'ynolmayman» demaydi.

Bundoq deyishi — uning uchun fojia.

Qumrixon opa ana shunday fojiani ochishga shaylanib teatrga kelgan edi. Hayhot, buni Botirxonning o'zi aytib qo'ydi:

— Opa, men sizdan rolni olishga majburman! — dedi. So'ng burilib deraza yoniga bordi. Chekib, bir oz turdi. Yana shart o'girildi: — Siz ishonsangiz, bu rolni sizga mo'ljallab yozdirgan edim. Buni o'ynash uchun sizda quvvat bor deb o'ylagan edim... Yo'q ekan. Sizga javob!

Qumrixon opa o‘zi oshkor aytmoqchi bo‘lgan fojiani o‘zi tushunib yetmagan ekan shekilli, hozir tushundi-yu... endi teatrda ortiqcha bo‘lib qolganiga ishondi-qo‘ydi.

Opaning ruhi tushdi, u rejissyorga bir so‘z demay, xonadan chikdi. Hovliga chikdi. Ko‘chaga chiqdi... va yig‘lab yubordi. Bu tamom boshqacha yig‘i edi. Opa, shunda xavotirlanib, yon-veriga qaradi-da, ariq yoqasidagi chinor panasiga o‘tdi. Unga suyanib, bir nafas tek qotdi.

U qotib turar ekan, ko‘p narsani his qilardi: orqasida baland imorat bor, u teatr! Unda opaning yoshligi qoldi, hayoti qoldi. Opa, ehtimolki, shu dargohga kelib qatnab yurgani uchun ham hayot edi! Endi bu yerdan ketadi... Qaerga?

Uning uchun yo‘l ham, go‘sha ham yo‘q, uning bori-borlig‘i shu yerda edi.

Aktyor bo‘lsin, rejissyor bo‘lsin — bu ijodkor xalqning ruhini tushunish qiyin. Qiyinligi shundaki, ular ko‘p fikr qiladi — ko‘pincha o‘z qilmishlari, holatlari haqida o‘y suradi, uni tahlil qiladi, kimlarningdir holatlariga solishtirib, bularning barchasidan bitta ma‘no topmoqchi bo‘ladi.

Shunisi qiziqki, ijodkor bu narsalar ustida o‘y surayotganida undan: «Nimani o‘yladingiz?» — deb so‘rang, javob bera olmaydi. Buni keyin... uning navbatdagi xatti-harakatidan tushunib olasiz, zeroki, o‘zi ham keyin tushunib yetadi.

* * *

Qumrixon opa teatrqa qaytib borganida hovlida artistlar gaplashib turishar, bir chetda teatrning yosh direktori, ikki yonida ikkita yoshi ulug‘ aktyor — chamasi, ular Qumrixon opa to‘g‘risida suhbatlashar edilar. Eshikda ko‘ringan bosh rejissyor baqirdi:

— Botirxon!

Botirxon qorovulxona derazasi tagidagi skameykada choy ichib o‘tirardi. U turishi bilan darvozadan kirib to‘xtagan Qumrixon opani ko‘rdi. Unga o‘qrayib tikildi. Opa bir-bir bosib, rejissyorga yaqinlashdi va g‘ayritabiiy bir mardona ovoz bilan:

— O‘g‘lim, o‘zimni yana bir sinasam bo‘ladimi? — dedi.

Botirxon unga tikilib qoldi. U hozir opaning holatini tasavvur qilib o‘tirar, nazarida, opa o‘tkinchi mashinaga o‘tirib, uyiga yetgan va yotib qolgan edi. Chunki u... Qumrixon opaning qandoq artist ekanini bilar, uning uchun teatrdan ketishdan ortiqroq jazo, fojia, baxtiqarolik yo‘kligini yaxshi tushunar edi.

— Xo‘pmi, bolam? Ruxsat eting!

Botirxon allanechuk tamshandi va qarshisida... mardona bir ayolni ko‘rdi.

1976

BAXTLI BO'LINGLAR

Tashqarida lopillab laylakqor yog'ardi. Zebo buvisining tanchasida mudrab o'tirar, uning ko'z oldidan qachonlardir kitoblarda o'qigani yoxud odamlar tilidan eshitgani bir manzara o'tar edi: derazalar!

Deraza oynalari lampochkalar nuriga yo'g'rib ko'rinadi. Ichkaridagi noz-ne'matlarga to'la stol atrofida tik turgan odamlar qo'llaridagi qadahlarini cho'qishtirib, bir-biriga shirin orzu-tilaklar bildirishyapti.

Zebo xayolan o'shalar davrasiga tushib qoldi: ana, bittasi Zeboning ham qo'liga qadah tutib, peshonasidan o'pdi. Zebo qarasa, u akasi emish. Ana, yangasi ham uni quchib o'pdi: «Senga baxt tilayman, Zebo! Yangi yil bilan!» — dedi.

Qiz cho'chib boshini ko'tardi. Yon-veriga qaradi va shaxt bilan tanchadan turib ketdi. Ayvonga chikdi.

Ayvondan to'g'riga, o'z uylariga qarab ketgan yo'lka oppoq, undagi yolg'iz odam qoldirgan izni ham qor ko'mib boryapti.

Zebo kalishini kiyib, ayvondan tushdi. Qordagi izlarni tavakkal bosib pildirab ketdi. Chorpoyna ostidan chiqqan it ham cho'zilib kerishdi-da, qizning ortidan chopdi. Undan oldinga o'tib, ro'paradagi uy ayvoniga chiqib bordi.

Zebo nam tortib ketgan dahlizda kalishini yechib, o'ng qo'ldagi xonaga kirdi. Yuziga bo'g'riqqan issiq havoy urildi. Cho'yan pechning kulxonasini tozalayotgan onasi qoshida to'xtadi.

— Ena, shaharga ketaman. Akamni ko'rib kelaman!

Ona unga hayron bo'lib qaradi.

— Hozirmi? Bayram o'tsin. Keyin borib kelasan. Biznikiga ham bitta-yarimta mehmonlar keladi. Men yolg'izlik qilib qolaman.

— Boraman! — dedi Zebo onasining gapini eshitmaganday. — Hozir ketaman! Nima berasiz, tayyor qiling hozir!

— Otangdan so'ra bo'lmasam. Hali-zamon kelib qoladi.

— Otam rozi bo'ladilar. Menga pul bering! Sandiqni oching...

Ota-ona yolg'iz qizlari bilan qolgan. Ular Zeboning so'zini ikki qilishmasdi.

Zebo dahlizga qaytib chikdi. Narigi xonaga kirdi. Devorlarga ko'z tashlab, to'rdagi shkafni ochdi. Tugundan atlas ko'ylagini, qoziqdan paltosini oldi. U bir-pasda kiyinib ham bo'ldi.

Palto unga uzunlik qilar, guldrr shol ro'mol uni katta qilib ko'rsatar, ichi mo'ynali etikchasining qo'nji keng, qizga yarashmas edi.

Ona kirdi, chiqdi. Zeboning qoshida to'xtadi. Nimadir deb to'ng'illadi. Oxiri:

— Borasan dedim-ku! — dedi.

Oradan bir soatlar vaqt o'tdi chamasi. Zebo shaharga qatnaydigan avtobusda o'tirar, avtobus qorga burkangan qishloqdan chiqib biyday dala yo'liga tushgan, yo'lning odoqlari oqarib, tumanlanib ko'rinar, go'yo avtobus allaqancha odamlarni olib noma'lum, sirli tomonga ketmoqda edi.

Lekin yo'lovchilar mamnun, derazalardan olislarga ko'z tashlashadi, bir-biriga qishning yaxshi kelgani, qor ham ayni vaqtida yog'ayotganini aytishadi.

— Ha, qor bo'lmasa Yangi yil bayrami bo'ladimi! — deb qo'ydi Zebo ham.

U suhbatga qo'shilmagani uchunmi, gapiga hech kim parvo qilmadi, zero qiz ham ularga parvo qilmadi. Asta-sekin uning xayolidagi manzara — onasining «ertagayoq orqangga qayt!» deya yelkasini silagani, otasining avtobus shoferiga ortiqcha pul berib: «Akasining uyiga yaqin oborib tashlang», deya iltimos qilib Zeboni ko'rsatgani, yo'l yoqasida cho'nqayib o'tirgan ola-parning allaqanday siniq tovushda hurib qo'ygani — uning xayolidan ko'tarilib, avtobus oldinga jilgani sari qizning fikri-yodini tag'in o'ziga tanish, aziz manzara egallab olar edi.

Odatda avtobus shaharga kechki soat beshga qolmay yetib borardi. Bugun esa olti yarimda yetdi.

Tanish ko'cha. Io'l yoqasida o'sha novcha daraxtlar! Qiziq, shaharda yo'llarga qor tushgani qo'yishmay-diya? Yer supurgich mashinalar va yana allaqanday kichkina avtobuschalar uyoqdan-buyoqqa o'tib, asfaltni tozalab ketishyapti. Qor esa bunga o'chakishganday.

Mana, besh qavatli baland imorat. Uning yuqori qavati ko'rinmaydi! Bulut pasayib qolganday.

Zebo allaqanday ichki hayajonda yo'lni kesib o'tdi. U yo'lkaga tushmayoq avtobus ham iziga qaytib ketdi.

Mana, yosh-yosh chinorlar! Barglari to'kilmapti. Shoxlarini qor bosgan. Ana, archalar. Shu shaharliklar qiziq! Tog'dan archa keltirib, uylari yoniga o'tqazishadi. Shularga qarab zavqlanishsa kerak, yoki o'zlarini

tog‘da yashayotganday his qilishadimi?

Ana, akasi bilan yangasi turadigan imorat.

Bu imorat Zeboga yaqin, aziz ko‘rinib ketdi. Xuddi o‘z uyiga yetganday mamnun bo‘lib bir to‘xtadi, chap qo‘lidagi og‘irgina chamadonni o‘ng qo‘liga oldi.

Zinalar. Eshik. Zebo oppoq tugmachani bosdi. Ichkarida qo‘ng‘iroq jiringladi. Ship-ship qadam tovushlari keldi. Nihoyat, nimadir qitir etdi va eshik ochildi.

— E, Zebo! — baqirib yubordi akasi.

U yaxshi kiyinib olgan, egnida qora kostyum, bo‘ynida qizil galstuk, oyog‘ida yaltiroq tufli.

Aka singlisining peshonasidan o‘pdi. Yo‘lakka qarab qo‘yib, eshikni bekitdi.

— Yangam uydami, aka?

— Uyda... kiyinyapti! Sharifa! Zebo keldi! — Oqiljon Zeboga kulib boqdi: — To‘g‘ri qishloqdan kelyapsanmi?

— Ha, — dedi Zebo ham kulimsirab. — Yangi yilni ko‘rgani keldim. Maylimi?

— E! — dedi aka. — Zo‘r ish qilibsan-da, singlim! Enam qalay? Boboy tuzukmi? Paltoyingni yech! Etikni ham. Ana shunday. Endi menga ber! Mana bu yerga ilib qo‘yamiz. Sovqotibsan-a? Ichkariga o‘t!

Oqiljon hovuchiga yo‘talib qo‘yib, unga zalni ko‘rsatdi. O‘zi chap qo‘ldagi yo‘lak bilan borib, yotoqqa kirdi. Eshikni zichlab, xotiniga shivirladi:

— Zebo keldi.

Sharifa siniq kulimsiradi.

— Ayamlar yuborishibdimi?

— Yangi yilni o‘tkazgani kepti.

Ayol eriga ma‘noli tikildi. Er chimirilib, burnini qashib qo‘ydi.

— Parvo qilma. Zebo uyda o‘tiradi, — dedi.

— Yolg‘iz... Qanaqa bo‘larkan?

— Him, bilmadim endi... o‘tirishga oborib bo‘lmaydi. Umarni bilasan, odamlarni saralab chaqirgan. Keyin, umuman, Zebo u davraga to‘g‘ri kelmaydi.

— Bari bir... nimadir qilish kerak. U yolg‘iz o‘zi o‘tirmaydi-ku, Yangi yilni kutaman deb kelgan bo‘lsa?

— Him-m, qo‘shnilarning ham u tengi qizlari yo‘q, — Oqiljon keskin qo‘l siltadi. — Bir yo‘li topilar. Aytmoqchi, biz vaqtlı qaytamiz-ku? Ikkiga qolmay yetib kelamiz... — U quvonib ketdi. — Umarning esi bo‘lsa bir soat o‘tirmay turib, «aylanamiz!» deb qoladi. O‘tgan yili o‘zimiznikida o‘tirgandayam shunday bo‘lgandi.

— Ha-ya. Unday bo‘lishi ham mumkin. To‘xtang, unga o‘zingiz tushuntirib ayting, men aytolmayman.

— Yaxshi. Kiyin tezroq. Oqiljon qaytib zalga bordi.

— Hozir yangang keladi... Kiyinyapti. O‘tir!

Zebo xona o‘rtasida qotib turar, burchakdagi odam bo‘yi archaga tikilib qolgan, archa bamisoli qo‘g‘irchoqdek bezatilgan edi.

— Zebo?

Qiz akasiga kulib qaradi.

— Archani yaxshi bezatibsizlar!

— Ha, endi... O‘zim yaxshi ko‘raman archa bezatishni! Yangang ikkalamiz bezadik. E, bugun uch soat vaqt shunga ketdi, — Oqiljon allaqanday ma‘yuslanib kresloga cho‘kdi. — Endi, bu ishning ham bir gashti bor-da...

Zebo akasining hurmati uchun so‘ziga bosh irg‘ab, stulga o‘tirdi.

Yangasi keldi.

Bir soatdan keyin Zebo xonada yolg‘iz qoldi.

...Akasi bilan yangasi juda qadrdon bir o‘rtoqlari uyiga aytib qo‘ygani, o‘tgan yili bu yerga kelishgani, bormasalar bo‘lmasligi, lekin uzoq o‘tirmay qaytib kelishlari va Zebo bilan birga Yangi yil bayramini shu yerda davom ettirishlarini aytib, Zebodan qayta-qayta uzr so‘ragan bo‘lishdi.

Zebo ularning so‘zini eshitib turdi-da:

— Yo‘q-yo‘q, meni o‘ylamanglar, akajon. Rahmat, — dedi. — Bilaman. Men ham dugonalarim uyiga chaqirsa, sizlarni boshlab bormayman-ku. Yangajon, boraveringlar. Men uyda o‘tiraman. Zeriksam ko‘chalarni aylanib kelaman.

— Yoki... Sharifa, shu yerda qittak-qittak qilamizmi? Kelinglar! — U chap qanot devor ostida turgan stol boshiga bordi. Ikkilandi. — Hozirdan-a, Sharifa?

— Ixtiyoringiz, — dedi xotini.

Zebo akasi bu ishni o'zi uchun qilayotganini fahmladi.

— Akajon, qo'ying. Vaqtida ichganingiz yaxshi. Kechikib qolasizlar, boringlar!

Xayrlashayotib Oqiljon singlisining peshonasidan yana o'pdi. Sharifa ham uning yelkasidan quchib qo'ydi.

Akasi bilan yangasining ketib qolishgani Zeboga og'ir botmadi. Qaytaga uyda yolg'iz qolgani unga yokdi. Qiziqib, yana archa qoshiga bordi. Butoq tanasiga yopishib turgan tulkiga tikilib: «O'lmabsiz!» dedi. Burniga chertmoqchi bo'ldi. Lekin archa ustiga tashlab qo'yilgan yaltiroq qog'oz shildirab ketib, archa titradi. Qiz tezgina qo'lini tortib oldi.

So'ng archani o'rab olgan mitti lampochkalarini yoqmoqchi bo'ldi. Hali akasi yoqib ko'rsatgan edi. U izlanib televizor qoshiga bordi. Polda yotgan shtepselni olib, tokka tiqqan edi, qorayib-yashillanib turgan archa lop etib qizardi. Uning shoxlari, butokdar, barglari orasiga yashiringan lampochkalar bodrab yondi.

Zebo hayajonga tushib, archa qoshiga qaytdi. Undan ko'z uzolmay qoldi: muncha chiroyli!

«Odamlar biladi-ya? Hamma narsani chiroyli qilishadi», deb o'yladi u.

Yarim soatdan keyin Zebo uy chiroqlarini o'chirib, eshikni qulfladi. Zinalarni bir-bir bosib, pastga tushdi. O! Ro'paradagi derazalarda chiroqlar yonibdi-ku! Hammasida archa bordir-a? Anavi deraza — qora. Egasi o'tirishga ketgan. Anavi uydayam odam yo'q. Ular ham yangi yilni o'tkazib qaytishadi hali.

U ko'chada qancha vaqt aylanib yurganini bilmaydi.

Bo'ralab yog'ayotgan qor tagida junjikib xiyobonda ketarkan, yo'l yoqasida qo'nqayib turgan faner uycha oldida to'xtab qoldi. Uychaning bitta devoriga archa ko'tarib ketayotgan ayiqcha surati solingan. Ikkinchi tomonida quyuncha bilan qo'l ushlab turgan Qorqiz! Uchinchi tomonida kattakon Qorbobo!

«Shu yerda archa sotishgan, — o'yladi qiz. — Odamlar olib ketishgan!» U xo'rsindi — tog'da o'z boshiga o'sib yotadigan archalarning bu yerda tanqisligi qizga juda yoqib ketdi.

U joyidan jilgan ham edi, ro'paradan kelayotgan yigit unga urilib ketayozdi. Uning ham qo'lida... archa. Kichkina archa. Ha, birovning uyiga boryapti. Shoshganini qarang! Vaqtida harakat qilish kerak edi. Hali buni bezatish kerak. Beparvo ekan.

Ana, qo'lida zont tutgan ayol shoshib ketyapti.

Zebo ko'chada odamlar siyraklashib qolganini ko'rib, qattiq hayajonga tushdi: Yangi yil o'tib ketmadimi?

Orqaga qaytdi. Yo'li qayoqda? Akasining uyi qayoqda? Qani, shu xiyobon bilan boraversin-chi.

U tez yurib borar, etikcha ichidagi oyoqlari sovqotayotgani endi bilinar, qo'lini og'ziga tutib kuhlar, lekin jilmayar va antiqa bir joyga borayotgandek shoshar edi.

Qiz shu hovliqishda tanish imoratga yetdi. Zinalar. Eshik. Ichkariga kirib, eshikni yopdi-yu, zalga kirib yig'lab yuborayozdi. Archaga o'rnatilgan mitti chi-rokdarni o'chirmay ketgan ekan.

Xona qizarib, juda sirli, juda ham go'zal bo'lib turibdi. Buning ustiga, issiqqina.

Zebo shosha-pisha yechindi. Kiyim-boshini boya akasi qo'yan joyga ohista osib qo'ydi. Etikchasini ham yechdi-yu, yangasining oq tufllisiga ko'zi tushdi. Shunda uning hali chiqayotganida qora, laklangan tufllini qog'ozga o'rab sumkaga solayotgani yodiga tushdi. Kulimsirab va zavqlanib, tufllini kiydi.

O'ziga o'zi zehn solib, shohona qadam bilan zalga qarab yurdi. Uning ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketgan edi.

Beixtiyor deraza yoniga bordi.

Qor sekinlagani uchunmi, qarshi tarafdagi uylar derazasi yaqin bo'lib ko'rinar, bir necha deraza ortida chiroyli kiyingan erkak-ayollar bor edi. Ana, bittasi qattiq kulib, boshini yigiti orqasiga yashirdi. Anavi uyda yorug' ko'p. Qandilini qarang! O'ntalab lampochka yonib turibdi.

I-ya, anavi odamlar nega to'zib qolishdi? Qo'llari-da qadah. Bir-biriga uzatishyapti? Hozir ichishadi... Yangi yil!

Zebo yalt etib televizorga qaradi, oqarib turgan ekranda qop-qora soatning millari «12» raqami us-tiga borib qolgan edi.

A-a, ana u strelka sekundni ko'rsatyapti. Sekund... Uyam «12» ga yaqinlashib boryapti!

Hozir boradi... So'ng asta o'tadi... Yangi yil ham kiradi... Eski yil o'tadi!

Qizning yana yig'lagisi kelib ketdi. Hiqillab yana derazaga qaradi.

U nega qarab turibdi? Nimani kutyapti? Axir, o'zi ham nimadir qilishi kerak-ku? Nima? Kiyinishi kerakmi? Kiyimi ustida, yomon emas. To'g'ri, ko'ylak etaklari yangasinikiga o'xshab kaltamas. Lekin tuzuk. Sochi... turmaklab olsa bo'larkan. Mayli, endi vaqt o'tdi.

Nimadir qilishi kerak!

Chiroqni yoqsinmi? Unda... ular ham Zeboni ko'rishadi. Yolg'iz ekan deyishadi. Bu ishi to'g'rimas!

Axir, u mana shu manzarani — Yangi yil kutish daqiqalarini, odamlarning quvonib qadah cho'qishtirishlari, tabrik qilishlarini ko'rmoqchi edi-ku!

Yana-tag'in... bu manzarani shaharda allaqanday deraza ortida turib ko'rmoqchi edi. Shu orzusiga yetdimi hozir?

Lekin o'zi ham bularga qo'shilishi kerak-ku?!

U shoshib stol yoniga bordi. Ha-a! Ana, ichimlik! Ana idishchalar. Unga mana shu narsa yetmayotgan ekan. Yo'q, u icholmaydi. Ichib ko'rmagan. Nafasi bo'g'ilib qolmasin tag'in. Yoki mast bo'lib qolsa, sharmandalik! Akasi nima deydi.

Yaxshi emas.

U stoldan oppoq chinni piyolani olgani, oshxonaga o'tgani, chiroqni yoqib, vodoprovoddan piyolaga suv qu yib olgani, tag'in deraza yonida paydo bo'lganini sezmay qoldi.

...Ana, odamlar uyokda...

Zebo qo'lidagi qadahni oldinga uzatdi:

— Baxtli bo'linglar! — dedi. Ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. — Omon bo'linglar, — shivirladi u va garangsigan ko'yi so'z aytishda davom etdi: — Siz ham, siz ham... Akajon, siz ham! Yangajon, siz ham omon bo'ling! Ena! — beixtiyor allaqayoqlarga qarab oldi. — Otajon siz ham.

U baxtiyor edi. Uning qo'llari qaltirar edi. Piyolani sekin labiga eltdi-da, muzdek suvni ichib yubordi.

Tashqarida qor yog'ar, har bir uy, har bir go'shada bayram. Zeboning akasiyam do'stlari davrasida, yangasi ham o'sha yerda. Yirokda... qishlokda ota-onasi ham bayram shodiyonasida. Zebo bu yerda, lekin u hozir o'zini qizg'ish mitti chiroqlar yonib turgan nimqorong'i uydama, o'shalarining davrasida, yo'q, anavi notanish odamlarning, butun shahar, butun qishloq uylarida, chehrasida Yangi yil, yangi baxt zavqi gupurgan odamlar orasida his etib, ularning g'ala-g'ovuri ichida gangib o'tirar, o'zigina ularga baxt-saodat tilab qolmay, ularning ham o'ziga baxt-saodat tilayotgan so'zlarini eshitar, butun vujudi, fikri-zikri, borlig'i bilan bayram, Yangi yil quvonchiga chulg'anib qolgan edi.

Haqiqatan ham kechasi soat ikkidan keyin eshik ortidan qadam tovushlari keldi. Yangasi va akasi boshchiligida bir qancha erkak va ayollar gul-gul ochilib kirishdi.

Bayram davom etdi!

Ertalab Zebo qishloqqa qaytdi. Tanish bekat. Avtobus. Tanish yo'l. Dovon. Biyday cho'l. Qishloq. Uylari. Otasi. Onasi. Buvisi.

Tancha. Tashqarida qor gupillab yog'moqda. Zebo tancha yonida mudrab o'tiribdi. Uning xayolida kitoblarda o'qigani yoxud odamlardan eshitgani boshqa manzaralar...

1976

SHUDRING TUSHGAN BEDAZOR

(Ikki injiq haqida hikoya)

«Men yomon odam bo'lsam kerag-u, buni o'zim bilmasam kerak...» Keyingi vaqtda Ikromjonning yaxshi ko'rib aytadigan gapi shu bo'lib qoldi. Shu gapni aytsa, ko'ngli allaqanday tasalli topar, turmushdagi ko'p mayda-chuydalarga munosabati o'zgalarnikidan harchand farq qilmasin, «men shunaqa ekanman-da», deganday ko'ngli joyiga tushib, ortiq ezilmas edi.

Lekin ayoli Tursunoyga munosabatda... bu hikmatli so'zning ham «qo'li kaltaklik» qilib qolardi.

Qanday chiroyli, beozor damlari o'tib ketdi! Tursunoyni ilk marta qaerda, qaysi ko'cha, qaysi bog'da ko'rgani esida yo'q, biroq shu to'g'rida o'ylasa, ko'z oldida ajib bir yo'ng'ichqazor namoyon bo'ladi. Shudring ko'tarilmagan namxush yo'ng'ichqazor. Naq odamning be-liga uradi. Ba'zi yo'ng'ichqalar och-pushti bo'lib gullay boshlagan. O'shandoq joylari ayniqsa baland va g'ovlab ketgan. Past o'sgan joylari ham bir ajoyib! Unda to'q binafsharang chuchmomalar bo'y cho'zib turadi. Bog' chuchmomalari o'zi aslida baland o'sadi. Poyalari sip-silliq va oq. Juda go'zal-e! Anavi g'ovlab ketgan joylarda ham shunga o'xshash gullar bor. Aniqrog'i, ular gul emas, bog'piyozning boshlari. Tus piyoladek keladi. To'q-qizil yo jigarrang. Badbo'yiligini aytmasa, ular ham go'zal!

Ha, Tursunoy bilan ilk uchrashgan damlarini xotirlamoqchi bo'lsa, xuddi shu manzara ko'z oldiga keladi Ikromjonning. Nechuk, a? Bilmaydi. Balki bu manzarani o'zlarining chorbog'ida ko'rgandir? Ha, o'sha yerda ko'rgan. Shunisi qiziqki, bu manzaraning Tursunoy bilan sira aloqasi yo'q. Aloqasi bo'lsa, hayotning biron burchagida sumbatini ko'rsatar edi-ku!

Yo'q, gap shundaki, Tursunoy uning eng aziz xotiralari, quvnoq o'tgan damlari, orzuli va armonli chog'lari bilan qo'shib, omuxta bo'lib ketgan.

Balki Tursunoy u ilgaritdan ko'rib va allaqachon sezib yurgandir-u, nuqul o'shandoq to'lg'oqli damlarida eslagandir? Balki o'sha yo'ng'ichqazor jiyagida turib, uning shu yerda jamol ko'rsatishini istagan yo uni shu yerda, deb tasavvur qilgandir?

Kim bilsin odam yuragini!

Turmushning o'z izmi bor... Bu izm Ikromjonni Tursunoy bilan tutashtirdi. Tursunoylarning dang'illama hovlisiga Ikromjonning yolg'iz onasi qiz so'rab bordi. Qizning otasi «farzandi»ga havola qilganini aytdi. Farzand bilan ichki xonada gaplashib chiqqan Ulug'oy opa tabassum qilib, Ikromjonning onasi qoshiga keldi.

Tursunoylar Qassob guzaridan, otasi chalasavod, lekin toparmon edi. Onasi xat tanimas, lekin turmushning ko'p sir-asroriga aqli yetadigan, mulohazali ayol. Tursunoy — yolg'iz qiz. Uchta sherday akasi bor. Savdo sohasida ishlashadi.

To'yning xarajatini asosan qiz taraf ko'tardi.

Hozir yashab turganlari kichkina bog'chani olishda ham o'shalar bosh bo'ldi. Ikromjon to'qqiz oy deganda qarzdand uzildi. Onasining tog'dagi Berdi cho'ponga berib qo'ygan olti bosh qo'yi ham shu yo'lda ketdi. Ikromjon go'dakligida rahmatli otasi ariq bo'yiga niyat qilib ekan o'ttiz tup terak kesilib, eski hovlining imoratlarini yangilashga ishlatildi. Turmushlari izga tushdi.

Ular hech narsadan nolimasa ham bo'ladi. Kunlari el qatori o'tib turibdi. Oilalarida ba'zan shunday inoqlik, mehr-muhabbat paydo bo'ladi, olti yillik er-xotinni kecha topishgan Tohir-Zuhra deysiz.

Lekin, ba'zan...

Ikromjon shunday «ba'zan» paytlarda shirin o'tgan damlari, Tursunoy bilan kabutarlar kabi g'udillashib gaplashganlari, piqir-piqir kulishganlari va shirin-shirin xayol surib yotganlarini eslash bilan ko'ngliga taskin beradi.

O'shandoq damlar!

—Yo'q-yo'q, men sizni hech qachon sevgan emasman! — deydi Tursunoy. — O'zingiz shilqimlik qilib oldingiz meni... Uyoqqa o'tsam ham — tikilasiz, buyoqqa o'tsam ham — tikilasiz! Ko'zingiz bilan yeb qo'yingiz-ku?... Nima? Koshki jimgina tikilib yurgan bo'lsangiz? Volibol maydonchasida To'raqulni urgan kim? Toning-a!.. Bekor gap. Men uchun urdingiz. «O'yna», deb o'zi chiqib turdi, bechora. Aybi shu. Siz bo'lsa, kelgan to'pni setkadan oshirmay, uni «tushit» qilasiz!

— Hadeb bechora deyavermang. Rahmingiz kelyapti chog'i, — to'ng'illaydi Ikromjon.

— Rahmim kelsa, nima qilasiz?

—Obbo! Keling, yaxshi-yaxshi gaplardan gaplashaylik... Kecha lesxozda qorovulni haydashdi!

— Yana lesxoz!

— Yo‘, o‘zi qallob ekan-da, soqoling to‘kilgur! Quyunchilik fermasi tashkil etganmiz-ku. Shundan o‘n bitta quyonni yo‘q qilgan ekan. O‘zimiz ham soni kamayib ketayotganini sezar edik. Lekin, o‘lgur chol, «er ostiga in qazib kirib ketgan, chiqqanida kelinglar, shu soqolim bilan yolg‘on gapiramanmi», der edi. Direktor qatiq ichgani kapasiga kirib qopti. Burchakdan kadini tortsa, orqasida bir bo‘xcha bormish. Yaxshiyamki, chetidan birterining siyrog‘i chiqib turgan ekan. Ochib qarapti. O‘n bitta teri! O‘zimizning quyonlarning terisi... Haydab yubordi.

Ikromjon qishloq xo‘jalik texnikumini bitirgan, o‘rmon xo‘jaligida yordamchi injener bo‘lib ishlaydi. Ishi yomonmas. Vazifasini vijdonan ado etadi. Bitta qusuri — maoshi kam. Qishloq xo‘jaligi sohasida ishlayotgan yordamchi agronomlarnikidan ancha kam. Yuz so‘mning nari-berisida. Lekin tabiat muhofazasi, o‘rmon xo‘jaliklari to‘g‘risida ko‘p yaxshi qarorlar chikdi. Shoyad ularning maoshi ham oshib qolsa. Umuman, o‘rmon xo‘jaligining ishchilari kam maosh oladi. Qurilishda ishlaydiganlarnikidan ikki-uch baravar oz. Shuning uchun o‘rmon xo‘jaligida ishchi «chidamaydi». Burnidan oshiq gap bo‘lsa, qurilishga ketib qoladi. G‘isht terib, tsement qorib ham oyiga uch yuz so‘m topadi.

Ikromjon esa... bu yerdan ketishni akdiga sig‘dirolmaydi. Unga o‘rtoqlari bir necha marta: «Sovxozga o‘t, ishlab chiqarishning boshida bo‘lasan. Uyingga bir qop piyoz, bir qop kartoshka bepul kelsayam harna-da», deyishdi. Ikromjon qizarib ketib: «Rahmat. Meni o‘zimga qo‘yinglar», — dedi.

U qaerdadir eshitgani shu hikmatni mahkam ushlagan: «Kishi ovqat yeyish uchun yashamaydi, yashash uchun ovqat yeydi».

Ikromjonni bu fikridan qaytarish ham mushkul.

Er-xotinning suhbat davom etadi.

— Tursunoy, Galaqo‘tonda zira pishipty!

— Zira pishipty... Pishipty demay, shu topilmagurdan bir kilo-yarim kilo olib keling! Zig‘irchasini yigirma tiyiga olaman bozordan!

— Yo‘q, yarim kilo demang-u, yuz gramm-ellik gramm... Shoshmang! Kelasi bozor chiqsak-chi, o‘sha yoqqa? Ana, eshak bor! Minasiz! Men yoningizda piyoda... A? Xo‘p deng!

— Uf, siz haliyam yosh bolasiz! Men eshak minib yurar emishman! Gaplarini qarang!

— Ha, minmaganmisiz?

— Mingan bo‘lsam, vaqtida mingandirman.

— Bilasizmi, nima...

— Bilmayman!

Lekin Ikromjon shunday damlarda, ya‘ni shu suh-batlardan keyin xotini ko‘nglidan kechgan o‘ylarni bilar, his qilar edi. Har gal Tursunoy Ikromjonning shu kabi har gapiga ters javob bersa-da, keyin xayol-chan bo‘lib qolar, ne bir intilish bilan goho uning pinjiga tiqilar va oralarida o‘sha suhbatlarning tamom aksi bo‘lar edi.

Endi Tursunoy qizchaligida o‘rtancha akasi bilan pilla qurtiga deb mingbosh o‘rgani chiqqanlarini eslar, allakimning nortuyasi quturgani, og‘zidan oppoq ko‘pikli xalta quldirab tushgani, so‘ng uni yana qanday qilib liq-liq yutganini xotirlab kular edi... So‘ng turmush qurganlarining ikkinchi yilimidi, Ikromjon uni eshakka mingashtirib toqqa, Berdi cho‘ponning ovuliga olib borganini erinmay qaytadan hikoya qilar, o‘shanda yegan qurutlarini yana tatib ko‘rayotgandek tamshanar va oqibat orada inoqlik qaror topar edi.

— Adasi, sizni... Siz sal kech qolsangiz, o‘zimni qo‘yishga joy topolmay qolaman, ishoning! Erkalik qilaman-da! Ayol kishiga yoqadi bu! — Yana davom etardi: — Onangizga xo‘p deganimni bilmay qolganman... Qiziq! Sizni qachon yaxshi ko‘rganman, bilsam xudo ursin! Ishoning... Menga sizning zirangiz ham, katta maosh olishingiz ham kerak emas! Ishoning...

Tursunoy shu gaplarni aytar ekan, Ikromjon uning so‘zlariga shak-shubhasiz ishonar, illo ishonmaslikka zarra asosi yo‘q edi.

Agar Tursunoy Ikromjonni sevmaganida, agar o‘ziga to‘q, beli baquvvat oilada esini tanigan qiz turmushning mana shu jihatlariga qiziqqan bo‘lganida yolg‘iz onasi bilan bir nav kun ko‘radigan yigitga daf‘atan «xo‘p» dermidi!

Tursunoy ham Ikromjonni undan kam sevmas edi!

Darhaqiqat, ba‘zida ular, ayniqsa o‘sha — xotiraga aylanib borayotgan vaqtlarni eslaganda bamisoli endi topishgan Tohir-Zuhra edilar.

Keyinchalik... Tursunoydagi qaysarlik, cho‘rtkesarlik kuchaygandan-kuchayib bordi. Ikromjon esa unga sari

past tushar, ezilar, o'ylarga cho'mar edi.

Nihoyat, oilada bo'ladigan tanqischilik ham o'rtaga tushadigan bo'p qoldi. Tursunoy o'shanda «tuzukroq yigitga chiqmaganini» bir-ikki marta armon bilan aytdi. Ikromjon tamom bo'ldi...

Lekin, ajabo, ba'zida Tursunoy tag'in o'zligiga — o'sha Tursunoyga aylanar, shunda Ikromjon xursand bo'lib ketar, oradan hech narsa o'tmagandek bir vaziyat vujudga kelar edi.

Lekin bu vaziyat vaqtinchalik esgan ko'klam shamoliga o'xshar edi. Ketidan qish zahrini olib izg'irin, goho olamni ostin-ustun qilgulik dovul qo'zg'alar edi.

Ikromjon xotinidan yurak oldirib qoldi... Ammo u shu xilda qolavermadi. Erkak odam bunday paytlarda o'z hamjinslariga intilib, ulardan tasalli topgisi kelar edi. Hasratini faqat «o'z qavmi»ga aytar ekan. Suhbatni tinglaydigandayam tinglaydigan bor. Bir gal ishdan qaytayotib yuragi o'z-o'zidan gup-gup ura boshladi. O'rmon xo'jaligi yo'lagida yam-yashil bo'lib turgan qarag'aylardan uchtasi qurib qolgan ekan. Buxgalterni xotini to'kkan mag'zava shu qarag'aylar ostiga singlar ekan. Shuning mashmashasi bilan kech chiqqan edi... Somsaxona oldidan o'tayotib sinfdosh o'rtoqlaridan Shodi cho'tirni qo'rib qoldi. U shofyor, shaharda yashar edi. Ikromjon to'xtadi. Shodi turib, yo'l bo'yiga chikdi. Ular quchoqlashib ko'rishishdi. So'ng Shodi uning qo'ltig'idan olib, o'tirgan stoli yoniga boshladi. Ikromjon, «besh minutdan keyin turaman!» deb, o'tirdi... Besh minut o'n minutga cho'zildi.

Ikromjon ichmasdi emas, ichib turar edi. Lekin: «Uyga vaqtli borish kerak... Tursunoy kutib qolmasin? Ertaga ish... Ko'zim qizarib borsam odamlarga qanday qarayman?» — deb me'yorida ichardi.

Shu kuni nima jin urdi uni, qancha o'tirganini ham bilmay qoldi, qancha ichganini ham, o'rnidan tursa, dovdirab ketyapti.

«Bo'ldi! Baloga qoldim!» — deya kalovlanib yo'lga tushdi. Yo'lni qisqa qilish uchun jinko'chaga kirdi. Ko'cha o'nqir-cho'nqir, ko'p joylariga suv toshgan ekan. Tiyg'anib yiqildi. Ust-boshi shalabbo bo'ldi... Keyin devorga suyanib, yo'dla davom etdi. Paxsadevorga tirsagi va biqini suykalib borar edi.

— Voy, nima bo'ldi? Kim urdi? — Ayvonga chiqqan Tursunoy qo'qqisdan yig'lagudek bo'lib, pastga tushdi. — Voy, sho'rim! Endi nima qilaman? Hoy, bolalar, buyoqqa chiqinglar!.. — Tursunoy erining yoqasidan ushlab yuziga tikildi-yu, burni jiyirilib, afti burishib, birdan tislandi. — Mast! — dedi yig'lamsirab. — Piyonista bo'pti! Shunisi kam edi... Voy-do-od, qaerga boray? — U yana otilib erining oldiga bordi. — Pulni qaerdan topding? — U senladi va senlab davom qildi: — Ayt deyaqman!.. Hali o'zingni oppoq qilib ko'rsatarsan, hali davlatning odamiman, deysan! Qaerdan topding pulni?

— Ichirishdi, — dedi Ikromjon. — Kechir...

— Xo'p, kechiraman! Hozir kechiraman! Tursunoy bolalarni nari-beriga surib, dahlizga kirdi.

— Allo! Allo! — degan tovush eshitildi. — Melisani ol! Melisadaqa melisa-da!

Tursunoydagi o'zgarishlarning boisi nimada? Nahotki, mol-pulga xuruj qo'yish yoxud uy-joyim birovlaridan kam bo'lmasin deb, yoxud vaqtida toparmonroq yigitga tegmaganidan afsuslanish uning o'zgarishiga sabab bo'lsa?

U qizligida o'ziga yarasha erka edi. Bundan tashqari, eriga erkalik qilish, unga qandaydir azob berish ham unga yoqardi: buni o'z og'zi bilan ham aytardi.

Balki uning tobora badjahl va shafqatsiz bo'lib borayotganiga shu hol sababdir?

Bir narsa deyish qiyyin.

Balki bularning hammasi qo'shilgandir?

Ammo... Tursunoy erini hamon sevadi! O'sha g'alati «ko'z boylag'ich» sevgisi bilan sevadi! Biroq yillar — yosh ham o'z ta'sirini o'tkazganmi, endi uning qoshida ko'p ham yoqimli xayollarga tolavermaydi. Ikromjonning qalbiga malham bo'lg'usi aziz xotiralarni hikoya qilmaydi.

Hikoya qilmaydi?.. Ichida hikoya qiladi.

Oradan yarim soat vaqt o'tar-o'tmas Ikromjonning maktabdoshi, o'z mahallalarida uchastkavoy, girdig'um, baquvvat Qayum kirib keldi. G'o'dayib va yo'talib, atrofqa qaradi. Pastga tushgan Tursunoy yum-yum yig'lab, hasrat qildi:

— Bunday odati yo'q edi... Buni yo'ldan qaytaringlar, jon aka! Piyonista bo'p qolsa nima qilaman? Elu yurt, otam, akalarim yuziga qanday qarayman... O'zing pishirgan osh, deyishmaydimi ular? Sho'rginam qursin!.. Jon aka, qo'rqib ketyapman. Mastlarning kimligi o'zingizga ma'lum-ku!..

Ikromjon ayvon pastidagi supada g'ujanak bo'lib yotar, bularning gap-so'zlari zo'rg'a qulog'iga kirar, ammo boshini ko'taray desa, yeru osmon aylanar, gapiray desa, tili aylanmas edi.

Shu asnoda bir-ikki marta o'rnidan irg'ib turgisi, nimadir kutilmagan ishlar qilgisi kelib ketdi.

— Tur o'ringdan, Ikrom!

— Olib ketasizmi? — Tursunoy kutilmaganda qo'rqib so'radi. — Qamaysizmi?

— Hechqisi yo'q, — Tursunoyga ko'zini qisdk Qayum uchastkavoy. — Bir kecha yotsa, esi joyiga tushadi... Xavotir olmang, kelin! Bu kecha o'zim navbatchiman!

U Ikromjonni suyab turg'azib, qo'ltig'iga kirdi. So'ng lipillatib ko'tarib ketdi. Yo'lakning yarmisiga yetganda Tursunoy halloslab yetib bordi.

— Jon aka, shu yerda bir-ikki og'iz gapirib qo'ya qoling.

— Kelin! — Tursunoyga jo'rttaga jahli chiqqandek ma'noli tikildi u. — Menga ishonmaysizmi?

...Tursunoy shu kecha yig'lab-yig'lab yotdi. Melisa chaqirgani uchun o'zini qarg'adi. «Vahimachi bo'lmay o'lay, erkak odam ichadi-da! — dedi. — Bu gap birovlarining qulog'iga yetsa, nima degan odam bo'laman! Erini qamatgan... Koshki meni urgan bo'lsa! Beozorgina, «kechir» dedi... Boyoqish... Shunday mayin, mo'mingina... Mening xarxashalarimga chidab kelyapti. Ikki dunyoda bunday erkak topilmaydi... O'zim aybdorman... Uydagi sirni ko'chaga chiqargan xotin xotinmi?»

Shundan keyin u o'pkasini bosib oldi... Keyin shirin xayollarga toldi. Nima uchundir daf'atan yodiga Ikromjonning eng dilkash o'tirishlarda hikoya qiladigan manzarasi tushdi. «Yo'ng'ichqazor... Shudringi ko'tarilmagan...»

Ikromjon shu to'g'rida ko'p gapirgan, Tursunoy ko'p marta eshitgan, biroq u manzara o'zidan uzoqligi uchunmi, eslayolmas edi. Hozir o'shani eslaganidan anchagacha hayron bo'lib, nihoyat, ko'zini yumdi.

Ikromjon... ertasi ishdan vaqtida chiqib, uyga keldi. Tursunoy uning siniqqan rang, botiq ko'zlariga razm solib, undan gap kutdi: «Hozir kechirim so'raydi... Hamma gapni aytib beradi!» Lekin Ikromjon unga qay til bilan gap qotsin?

U hatto xotining yuziga boqishga ham botinolmas edi. Yuragi dir-dir titrar, nojo'ya qadam tashlab yubormaslik uchun o'ta hushyor, ayni chog'da Tursunoyga ko'zi tushsa, u bobillab beradigandek edi.

Yo'q, yaxshisi, jim bo'lgani tuzuk.

Jim, jim, jim... Balki Tursunoy Ikromning «jim»ligini ichdan azob chekishga yo'yar?

Axir, ko'rib turibdi-ku?!

Ammo-lekin o'zi ahmoqlik qildi!

Sharmandali ish bo'ldi!

Tursunoy... undan gap, uzr kuta-kuta toqati toq bo'lib ketdi. Ikrom kostyumini yechib, eski shimini kiyib chiqib, oshxonaga kirib ketar ekan, Tursunoy baqirib qoldi:

— Ho', ichadigan yigit! Endi qadamingizni bilib bosing! Xo'pmi?.. Men o'zimni oyoq osti qildirib qo'ymayman! Mana shu uyga o't qo'yaman-u, ikki bolamni olib otamnikiga ketaman... Ular meni boshiga ko'tarishadi... Yolg'iz qizlariman! Kunim o'tadi. Bu yerdagidek... o'tmasa, bundan yomonroq bo'lib o'tar, axir!

Ikromjon boshini ushladi. «Dod!» deb yuborishiga oz qoldi.

— Xo'p, — dedi asta burilib. — Ayb menda, Tursunoy.

— Albatta!

— Meni avf eting.

— Mayli... Ikki bola hurmati, bu gal kechirdim... Lekin yana shunday bo'lib kelsangiz, mendan o'pkalamang! Naq o'n besh sutka berdiraman... Sharmandangiz chiqadi! Ishxonangizga yozishadi... Obro'yingiz bir pul bo'ladi!

Ikromjon bosh irg'adi.

«Tursunoy haq... Ayb menda, — dedi nimqorong'i o'tinxonaga kirib. — Men uning qadriga yetmayapman... Uni kaftimda ko'tarib yursam arziydi... Axir, u meni o'ylab shu gaplarni aytyapti!»

Tursunoy esa, uyga qaytib kirib, ichida biram xursand bo'ldi... Keyin Ikromjonning munislik bilan: «meni avf eting», deganini o'ylab, tomog'i bo'g'ildi. Yig'lab yubormaslik uchun lablarini tishladi.

So'ng... labida og'riq sezib, buning uchun ham Ikromjonni ichida aybdor sanadi...

Haftalar, oylar o'tdi... Turmush yana eski iziga tushdi. Ba'zan inoqlik, mehr-muhabbat, shirin suhbat... Ba'zan telba-teskari gaplar, xafagarchilik.

Lekin endi Tursunoyning shevasiga Ikromjon uchun yana bir asos qo'shilgan edi: ichib kelgani!

Ikromjon — hamon o'sha Ikromjon. Biroq endi unda ancha asabiyat paydo bo'lgan, garchi Tursunoyning oldida o'zini tutib tura olsa-da, ishxonasida goho bo'lar-bo'lmasga jahli chiqib ketadi. Direktorga ham ters

gapirib yuboradi. Uchastka boshliqlari bilan qo‘pol gaplashadi. Yuragi goho shunday bir to‘liqish sezadiki, nimalarnidir urib-yanchib tashlagisi, qayoqlargadir, olis-olis tog‘ oralariga chopa-chopa qochib ketgisi keladi. Shunday paytlarda alamini ishdan oladi. O‘ziga ajratilgan oriq bo‘z otni minib, tog‘dagi bodomzor, yong‘oqzor yoxud na‘matak maydonlarini ko‘rgani chiqib ketadi.

Goho haftalab tog‘da qolib ketadi. So‘ng Tursunoyga intiq-intizor bo‘lib, uni uzoq yolg‘iz qoldirib ketgani uchun o‘zini so‘kib, xotinidan ming-ming uzr so‘rashga shaylanib, qaytib keladi.

Tursunoy ayvonga chiqadi... Ichida erini sog‘ingan! Uni sog‘-omon ko‘rib, boshi osmonga yetadi. Tunlar ko‘rgan yomon tushlarini unutadi. «O‘zingga shukur!» — deydi. Ammo tilida:

—Ha, muncha qopketdingiz? Bittasini topdingizmi deymen? Tog‘ qizlari chiroyli bo‘ladi deb eshitaman... Yashang! Bolalaringiz ham esingizga kelmaydi-ya! Qoyilman... Xo‘p erkak chikdingiz-a, umringiz uzoq bo‘lsin!

Ikromjonning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushadi. Uning hamma gaplarini asosli deb tan oladi ichida. Va ortiq javramasin uchun gapni qisqa qiladi:

— Uzr endi... Shunday bo‘p qoldi, Tursunoy.

— Xo‘p yaxshi gapni o‘rganib olgansiz-a?

Ikromjon munislik bilan bosh irg‘aydi.

So‘ng... so‘ng ular orasida yana inoqlik...

O‘rmon xo‘jaligi xodimlari ham May bayrami namoyishiga chiqishga qaror qilishdi. Ikromjon ishlamasdan burun ham ular namoyishga chiqishgan, biroq shunchaki o‘zlari... go‘yo safni to‘ldirish, raykom, ijroqo‘m rahbarlariga ko‘rinish berish uchun yoki shunchaki vaqtichog‘lik uchun... Bu gal o‘zlarining mahsulotlari bilan chiqishga kelishishdi. Ya‘ni tagi bilan qo‘porib olingan bir tup archani kuzovining qanotlari tushirilgan mashinaga o‘tqazib qo‘yiladi. Uning yonida tag‘in na‘matak nihollari va turli ko‘chatlar ham bo‘ladi. Mashina kabinasi ayni o‘rmon xo‘jaligida yetishgan atirgullar bilan bezatiladi... Bu to‘g‘rida raykomning tashviqot-targ‘ibot bo‘limi mudiri o‘rtoq Oqboevga xabar berilgan edi, u kishi juda ma‘qulladi, hatto tabrikladi.

Ikromjon Tursunoyga: «Boramanu kelaman! Keyin birga chiqamiz», deb saharlab o‘rmon xo‘jaligiga jo‘nadi. Xo‘jalikning idorasi, jumladan, bog‘i ham rayonning chetida. Ikromjon yetib borguncha yarim soatcha vaqt ketdi. Qarasa, mashinaga orilayotgan archa — tog‘ archasi! Paqqos kesib kelingan... Bir hisobda tog‘ archasini ildizi bilan qo‘porib olish ham o‘zi mumkin emas, ildizi chuqur ketadi va o‘zga archalar tomiriga tutash bo‘ladi. Umuman, tog‘ archalarining deyarli hammasining ildizi bir desa bo‘ladi.

Ikrom lov etib olov oldi. Direktorni topib:

—Sizning farmoyishingizmi bu? — dedi. — Ana, bog‘da qancha archa bor!.. Buni nima qilamiz namoyishdan keyin? O‘tin qilib yoqamizmi? Bultur yangi yilga deb bog‘chaning odamlari so‘roqsiz archa kesgani uchun o‘zingiz nima gaplar qilib edingiz? Hayf-e! Ana, o‘risi archadan olsak, qaytib keltirib tag‘in o‘tqazib qo‘yardik!..

Direktor Boboqulov unga do‘ng peshanasi tagidan vazmin qarab turardi.

—Xo‘p. Shunga shunchami! — dedi. — Qoraboy aka bizga yaxshilik qilaman deb shu archani kesipti.

— Xushomadga deng!

—Juda jizzaki bo‘p boryapsiz, ukam... Erkak odam og‘ir bo‘ladi rasmi.

— E, men og‘ir bo‘lmadim.

—Xo‘p, shunday ulug‘ayam kunda... a? Bechora kesgan ekan. Kechasi bilan yo‘l yurib, hali yetkazib keldi... Qo‘ying, inim, keyin gaplashamiz.

Ikromjon, darhaqiqat, shunday shodiyona kunda bunday qizishgani, ha demasa, birovlarning dilini qora qilishi mumkinligi, demak, jilla bo‘lsa-da, nohaqligini sezib turardi-yu, lekin o‘zini bosolmasdi. To‘ng‘illay-to‘ng‘illay chikdi. Keyin yog‘och quti toptirib, archani o‘tqazdirdi. Kishi bilmaydigan qilib, atrofiga tuproq uydirdi. Bu ish tag‘in o‘ziga yoqmay, o‘zini ko‘zbo‘yamachi kabi his etib, namoyishga xotini bilan yetib borishini aytib, yo‘lga tushdi. Kelguncha yana vaqt o‘tdi. Kelsa... darvoza qulflog‘!

«E, bor-e!» — deb ko‘chaga chiqib ketdi. Odam gavjum. Ikromjonning hovri bosildi. Keyin xotin-qizlar orasiga ko‘z solib, Tursunoyni izlay boshladi. Topolmadi. Bu orada kolonnaga o‘rmon xo‘jalik xodimlari ham dovdaskagi bilan kelib qo‘shildi. Ikromjon ular safida katta ko‘cha bo‘ylab Poygashboshi adiriga yo‘l oldi.

Tumonat odam!.. Osmon tiniq. Salqin. Oyoq ostida baxmaldek ajriq.

Bu yerdayam qaysi joyda ayollar to‘p bo‘lsa, Ikrom-jon ularga ko‘z solib yurdi.

Tursunoy... U ham shu yerda edi. Uch-to‘rt marta Ikromjoniga ko‘rinarli joyga chikdi. Baxtga qarshi,

Ikromjon uni ko‘rmadi. So‘ng Tursunoy unga razm solib, erining nuqul ayollarga tikilayotganini payqadi. Beixtiyor u o‘zini izlayotganini bildi. Bildi-yu, zardasi qaynab ketdi. «Kim biladi erkak zotining ko‘nglini!»

Ikromjon namoyishdan keyin horib va tag‘in Tursunoy bilan uchrashganda undan gap eshitishni kutib, uyiga bordi. Haqiqatan ham Tursunoy tishini qayrab turgan edi.

Oldi erini! Oldi!

Ikromjon:

— Bo‘ldi. Bo‘ldi-i-i! — deb ko‘chaga chiqib ketdi.

To‘g‘ri restoranga kirib bordi... Kimlar yo‘q bu kunda restoranda? Kimlar ulfatga ilhaq emas? Ikromjonni yoniga taklif etmaydigan yigit bormi?

«Bayram! May! Bugun hamma narsa kechirarli!.. O‘yna, kul! Shu bugun xomush bo‘lma! G‘amni yig‘ishtir! O‘ylama hech narsani... Olamning ishlari qachon bitib edi-ki!..»

Ichib o‘rganmagan odam ko‘p ichmasin ekan.

Ikromjon... darvozaga suyanganini va «yomon bo‘ldi!» deganini biladi. So‘ng qandaydir sayoq itni siladi chog‘i. So‘ng ko‘ziga ayvon shiftida osilib turgan lampochka ko‘rindi... Esida... Tursunoy nimalardir dedi...

Boshqa hech narsani eslolmaydi! O‘b-bo‘, yomon bo‘ldi-ku! Kimlarni so‘kdi? Kimni xafa qildi? Tursunoyni yana... Voy-voy!.. Ayb o‘zida! Kecha nega hovlidan chiqib ketdi? Nega Tursunoyga o‘tgan gap-so‘zlarni yotig‘i bilan tushuntirmadi-ya? Bo‘lardi-ku! Io‘q, o‘rmon xo‘jaligida... direktorning kabinetida telefon bor edi-ku, uyiga telefon qilsa, olam guliston edi.

Ulug‘ ayyom kunida-ya!..

Ikromjon qop-qorong‘i kamerada turib o‘tirib, shu tarzda o‘ylar, bir yoqdan boshi zirqirab og‘rir, o‘yu bosh og‘riqqa chidolmay, o‘zini osib qo‘yish darajasida edi.

Shunda qattiq chanqaganini sezdi. Suv! Suv qani? Nega suv yo‘q? E! Ikromjon melisaxonada-ku? Qamoqda-ku?! Kim uni olib keldi? Qayummi?

«E, Ikrom, odam bo‘lmading-bo‘lmading-da!.. Senga ish ham hayf, xotin ham!

Bolalaring... Ana, bolam bor demaysan! Qaysi kuni Tursunoy rost aytdi: «Bolangiz ham esingizga kelmaydi!» deb... Sen ota nomiga isnod keltirasan!»

Ikromjon turib, paypaslab eshikni topdi. Shunda badaniga sovuq, zax o‘tib ketganini sezdi. Endi birdan tishi takillab, eshikni qoqa boshladi.

Birpasdan keyin naq eshik ortida divan g‘ijirladi. Birov tomoq qirdi. So‘ng eshikka kalit solindi. Eshik ochildi.

Qayum! Ko‘zlari shishib turibdi. Uyam uxlagan ekan.

— E, Ikrom bo‘lmay ket! — dedi uchastkavoy to‘ng‘illab. — Suvsadingmi?

— Ha. Chiqsam maylimi?

— Chiq. — Qayum kameraga ko‘z solib, iziga qaytdi. — Yerda yotibsan. Senga ko‘rpacha solib bergan edim... E, qurib ket! Sig‘sa ichgin-da!.. O‘zing tuppa-tuzuk yigitsan!.. E! Hamrohing qarg‘a bo‘lsa, yeganing axlat bo‘ladi...

— O‘zim ichdim, — dedi Ikromjon.

Xonaning yarmisi to eshikkacha yog‘och to‘siq bilan to‘silgan, uning ortida, stodda lampa yonib turar edi. O‘sha yoqqa o‘tgan Qayum alyumin krujkada suv keltirib tutdi. Ikromjon yutoqib icha boshladi. Suv muzdek! Lekin ichgan sari ichging kelar edi. Nihoyat, tag‘in suvsab qolsa ichadigandek krujkada qolgan suvni to‘kmay va uni Qayumga qaytarmay, yo‘lakdagi divanni ko‘rsatdi.

— O‘tirsam...

— O‘tir, o‘tir.

Ikromjonning hamon boshi og‘rib turar, yuragi-da ola-to‘fon, lekin vujudida g‘alati bir g‘ayritabiiy shijoat paydo bo‘lgan edi. Bu o‘sha... qayoqqadir bosh olib chiqib ketishga undovchi tuyg‘uning yangitdan jumbishi ediki, bunda mazkur damdagi holati, pushmoni, uyati va o‘ziga nisbatan g‘azab-nafrati ham bor edi.

— Kecha nima qilib qo‘ydim? Qayum aka, ayting!.. Nojo‘ya ish qilgan bo‘lsam, javob beraman... Xudo haqqi, tayyorman! — Shunda deraza tokchasida turgan telefon jiringladi. Qayum telefonni oldi. Ikromjon to‘ng‘illab jimidi. — Ochig‘ini aytsangiz...

Qayum kim bilandir uzoq, asabiy gaplashdi. So‘ng qomatini rostlab gimnastyorka ko‘ylagi tugmalarini o‘tkazdi-da, Ikromjonga bir muddat ensasi qotib tikildi.

Ikromjon... uyaldi! Yer yorilsaki, kirib ketsa! «E, bo‘ldi, ko‘p qarama, Qayum! Undan ko‘ra belingdagi

qayishingni yechib, ur!..»

—Yana shunday bo‘lib qo‘limga tushsang, yoki xotiningni shikoyat qilganini eshitsam, olti oy berdirmagandayam, o‘n besh kun supurtiraman!.. Tur! Jo‘na! Hujjatlaring uyingda! Bor, ko‘zimga ko‘rinma... Sekin chiqib ket, birov bilmasin. E, seni qara-yu... Rangingni ko‘r, qusging keladi.

Ikromjon kalovlanib va u yer-bu yerini qoqishga shaylanib, eshik og‘ziga bordi. Tashqariga mo‘ralab qaradi. So‘ng Qayumga boqdi.

— Rahmat, Qayum aka, — dedi. — Lekin nima qilganimni... a?

— Nima qilganingni xotiningdan so‘ra! — Qayum chimirilib, trubkani ko‘tardi. Nomer terar ekan, to‘ng‘illadi: — Shunday xotinni xafa qilib bo‘ladimi?.. Seni o‘lgudek yaxshi ko‘rar ekan. O‘rnida boshqa xotin bo‘lsa, ko‘rarding kuningni... Bor, ketaver endi! — u apparat richagini bosdi. — Boshog‘riq qilaman deb yurma... Piyonistalikning boshi — bosh og‘riq qilish!

— Rahmat sizga.

Ikromjon ko‘chaga chikdi. Jimjit. Hali qushlar ham uyg‘onmagan. Yo‘l bo‘yidagi daraxtlarning serbutoq shoxlari orasidan lampochkalar xira nur sochadi.

Ikromjonning qadam tovushi olislarga taralib, kimlarnidir bezovta qilayotgandek bo‘ladi.

Bir payt u ko‘chani qoq o‘rtasida turib qoldi. Ho‘ngrab yig‘lab yuborgisi keldi.

«Nega bunday bo‘lyapti o‘zi? Sen chindan ham yomonmisan, Ikrom? O‘zingni vijdonli, halol yigit deb bilasan. Ishingda nuqson yo‘q. Xo‘p, keyingi paytda sal asabiy bo‘psan. Nima qipti shunga?.. Ish-xizmatchilik. Bo‘ladi-da.

Tursunoy... «Seni o‘lgudek yaxshi ko‘rar ekan». Nahot shu gap rost bo‘lsa? Nega endi «nahot»? U meni sevmasa tegarmidi? Boshqa zo‘r yigitlar qurib ketganmidi unga?.. Sevadi! Bunga shubha yo‘q... Lekin, nega unaga?»

«Qanaqa?» Ikromjon bu savolga javob berolmadi-yu: «Ayb o‘zimda... Faqat menda! Qayum aka rost gapni aytdi», — dedi. So‘ng butun-butun ayblari... uchun xotinidan yer o‘pib uzr so‘rashga qasd qilib, ildamlay ketdi.

Ikromjon o‘zlarining ko‘chasiga kirganda yana yuragi gupillab ura boshladi. Lekin battar jadalladi. Hovlisida chiroq bormikin? Yo‘q, o‘chirib yotishgan bo‘lsa kerak... Darvozani taqillatadimi? Qo‘shnilar eshitadi-ku... Qanday sharmandalik! Qamoqdan chiqib kelyapti-ya? Xayriyat, Qayum maktabdoshi...

«E, hovlida chiroq yoniq-ku? Ayvon chirog‘i yoniq!»

— Rahmat senga, Tursunoy!

— Kiring uyga! Yoting, — dedi ayvonda qaqqayib turgan Tursunoy. — Siz bilan ertaga gaplashaman!

— Meni avf etolsang...

Tursunoy chapdagi eshikdan yotoqqa kirib ketdi. Ikromjon shu yerda yechinmoqchi edi, Tursunoyni tag‘in bezovta qilmaslik uchun asta ayvon chirog‘ini o‘chirdi. So‘ng eshikdan kirgan yerda ust-boshini yechib, tuflisini oyog‘iga ildi-da, bir-bir yurib, supadan tushdi. O‘tinxona biqinidagi vodoprovod krani yoniga bordi.

Shunda bog‘ adog‘ida eshak pishqirdi, tepindi. Arqoni olmaga o‘ralib qolgan qo‘zi bo‘g‘iq ma‘radi.

Ikromjon shosha-pisha vodoprovodni ochib yuvinar ekan, nazarida, mollar ham uni yomon ko‘rib qolgandek, undan o‘pkagina qilayotgandek bo‘ldi. Ich-ichidan ezilib: «Endi araqni og‘zimga olsam o‘lay!» — deya vodoprovodni bекitdi. Sovukda diydurab ayvonga qaytdi. Dordan sochiqni olib, naridan-beri artindi.

Mehmonxona derazasiga qalin parda tutilgan, shuning uchun hamon tong otmagandek tuyuldimi, Ikromjon ertasiga kun yoyilib ketganda uyg‘ondi. Keyin, kechagi voqealarni esida qolgani bo‘yicha eslab va hali katta janjal oldinda ekanini o‘ylab, yuzini yana yostiqqa bosdi: hech kimni ko‘rmasa, shu bo‘yi nimadir bo‘lsa!

«Oh! Qaniydi kechagi kun yo‘q bo‘lsa, ha, yo‘q — yo‘q bo‘lsa! Kechagi voqealar ham yo‘q bo‘lsa-da... Bo‘ldi. Tur, Ikrom! Qilg‘ilikni qildingmi, buyog‘iga ham turib ber endi!»

Ikromjon kiyinib, tashqariga chiqdi. «Oh! Bahor!.. Muncha chiroyli bu bahor! Olmalar qiyg‘os gullab qolgan! Asalarilar! Ikromboy, shuncha kundan beri qaerda eding? Olamning go‘zalligi o‘z hovlingda-ku? Yo‘q, anavi uychada... Tursunda! O‘sha... o‘sha tufayli dunyo ko‘zingga go‘zal ko‘ringan! U bor — go‘zallik bor, bahor bor! Sen baxtli yigitsan!»

— Hoy, ko‘p serraymay, buyoqqa kiring! Ikromjon birdan bo‘shashib ketdi. «Boshlandi!» — deb o‘yladi va butun vujudiga titroq kirdi... Ha, u qachondir, nimalarnidir urib-yanchishi kerak!

Ikromjon ayvon chetidagi choygumni engashtirib, bet-qo‘lini yuvgan bo‘ldi-da, ichkariga kirdi. Dasturxon yoziq. Choynak, piyola. Non, oqqand, yog‘... Xona iliqqina. Bunda tunuka pech bor. Tursunoy bugun ham yoqibdi.

Ikromjon to'rga o'tib, pechga yaqin ko'rpachaga cho'k tushdi. Oldidagi piyolani olib, choyidan bir ho'pladi.
— Qulog'im senda, — dedi. — Gapir!

Tursunoy jimib, dasturxonga ko'z tikdi... So'ng birdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Ikromjon qotib qoldi. O'rmalab uning yoniga bordi. Yelkasini ikkilanib siladi.

— Tursunoy... Jonim, menga qara... bo'ldi endi! Qasam ichaman! Boshqa bo'lmaydi.

Kecha Ikromjon qay ahvolda kelganini o'zi bilmaydi. Lekin Tursunoy biladi... Shunisi qiziqki, kecha chindan ham uning jahli chikdi. Ikromjonga achinmadi ham. Faqat Qayum bitta sherigi bilan Ikromjonni olib ketayotganida: «Jon aka, birov bilmasin... Uyatga o'laman! O'ziga kelsa nasihat qilib jo'nating!» — deb qoldi, xolos... Lekin, hozir yig'lab yubordi.

Qiziq, Ikromjon uni silab-siypagani, totli

so'zlar aytgani sari battar yig'lagisi kelar, o'zini to'xtatolmas edi.

— Tursunoy?..

— Biz ajrashamiz... Men bu turmushga toqat qilolmayman! — Tursunoy irg'ib turib ketdi. — Aftingizni ko'rmayin deymen! Ha-ha. Rost... Men sizni hech qachon sevmaganman... Sizga rahmim kelib tekkanman. Siz!.. Meni oyoqosti qilyapsiz endi... Xotinli bo'ldingiz-da! Bolali, uy-joyli bo'ldingiz-da, a?

Ikromjon karaxt bo'lib o'tirar, uning yuragi ham to'xtab qolgandek edi.

— Rosti bilan-a? — dedi sekin.

— Rost! Rost! — Tursunoy shunday deb burchakka, sandiq qoshiga bordiyu daf'atan hushyor tortib, uning nima qilishini kutdi. So'ng birdan qo'rqib ketdi: «Ketib qolsa-ya!.. O'zimni o'ldiraman! Men bu ikki ergashma bilan qayoqqa boraman? Otamnikigami?.. Io'q, yo'q... Axir men bu yigit o'lgurni yaxshi ko'raman-ku? Nega shuni bilmaydi? Nuqul meni xafa qiladi... Menga o'chakishgani-o'chakishgan... Miq etmaydi! Ichimdan top!.. Ichishni o'rgandi... Ichganiyam mayli. Kecha ko'zimning oldida ketib qoldi-ya. Avzoyi buzuq uning!.. Yo bittasini topganmi? Yo'g'-e, o'ldimi? Menga qiliq ko'rsatyapti... Ko'rsatib bo'psan! Odamingni topibsan-ku!..»

Ikromjon hamon karaxt edi. «Ha-a. Gap buyokda ekan... Rost, menga shafqat qilib tekkan bo'lishi ham mumkin... Mumkin! — deb o'yladi. — O'zi aytdi-ku?.. Bunaqa gap tilidan birinchi chiqishi... E, galvars Ikrom!»

U o'rnidan turdi. Nima qilishini bilmas, lekin turishi kerak edi. Buni ko'rib, Tursunoy yugurib eshik oldiga bordi. Eshikni to'sib oldi.

— Qayoqqa?

— Qoch yo'ldan.

— A? Hali menga do'q qiladigan bo'ldingmi? Hoy, kimsan o'zing? Sizdan so'rayapman... Dadasi, nimaga o'zgarib qoldingiz-a? Nima bo'ldi sizga? Biron kishi aytyaptimi, a? Rostini ayting... Mayli, unday bo'lsa, men o'zim uyni bo'shatib chiqib ketaman...

— Qoch deyapman! — Ikromjon ikki qo'llab boshini ushladi. — Xudo xayringni bersin, ezma meni!

— Men-a?

— Sen...

— Voy tavba! Hali bunday tuhmingiz ham bormi-di? Astag'firullo... Voy, qudratingdan!.. Men aybdor emishman! Men?? — Tursunoyning yuragi tagida sirli bir ovoz: «Bas qil» Bo'ldi endi. O'zingni bos!» deb tursa-da, battar xuruj qildi: hali Tursunoy aybdor bo'lib qoldimi? Ana! Tuhmat balongdan saqla xudoyim! — To'xta! — baqirib yubordi Tursunoy. — Kecha seni... bo'shatib yuboring, deb Abdiqayum akadan iltimos qilganim uchun bo'shatdi! Shuning uchun kelding bir mahalda. Yo'q! Men endi toqat qilolmayman!.. — Tursunoy eshikni lang ochib chikdi. Yana ortiga burildi. — Hozir dod solaymi? A? Tuhmat qilish qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaymi? A?.. Hoy, kecha nima ish qilganingiz yodingizdami?

Ikromjonning fikri tiniqlashib, daf'atan unga samimiy nazar bilan boqdi.

— Yo'q, balki aytib berarsan?

— Aytib beraman... Meni urding! Ha... Guvohim bor! Guvohim — bolalaring!.. Boshimga mushtlading. Tepding!.. Onangni deb so'kding, tiling kesilsin! — Tursunoy turgan yerida chayqalib ketdi. — Voydod, qaerga boray? Kim eshitadi ohimni!.. Dunyo bedarvoza bo'lib qoldi! Voydod!..

Rangi qum o'chib, lablari pirpirab qolgan Ikrom-jon bir qadam bosib, ostonada tiz cho'kdi.

— Avf et! — dedi va ko'zidan tirqirab yosh oqib ketdi. — Avf etgin, Tursunoy... Bolalarimiz haqi, meni kechir! Kechirmasang, qamat meni!

— Kerak bo'lsa, qamataman ham!

— Rost... Shunday qil! O'zim ham to'yib ketdim... UZR, men odam bo'lolmayman chog'i...

— Hali o'zingizni odam deb... Astag'firullo... Turing o'rningizdan! Erkakka o'xshang munday!.. He, mijgov bo'lmay keting!

Ikromjon o'rnidan irg'ib turdi.

— Nima qilay? — dedi. — Buyur!

Tursunoy burnini tortib, ko'zlarini yumdi. So'ng eriga, «hozir kelaman», deganday qattiq qarab olib, mehmonxonaga kirib ketdi. Nimyorug' xonaga kirgach, tag'in yig'lagisi keldi. Endi chindan yig'lashni istar edi.

Axir, Tursunoy unga, «urding, tepding!» deb mutlaqo yolg'on gapirdi. Ikromjon bo'lsa tiz cho'kib, uzr so'radi... «Qiziq! Tiz cho'ktirish mumkin ekan-a? Boya nima deyayotgan edi? Yo'limni to'sma! A-a!.. Shunday bo'ladi... Xohlasam, maymun qilib o'ynataman sizni... Leqin bechora qiynaldi chindan ham... Buyur, deb turibdi... «Senga rahmim kelib tegib edim» degan gapimni ham esidan chiqarib qo'ydi! Qo'rqib ketdi shekilli!».

Shunaqa! Erkakni jilovlab olaman desang, qo'rqitib ol ekan! Endi Tursunoy nima qilishini yaxshi biladi!

Lekin... Ikromjon qo'rqimasayam bo'lmaydi... Axir, Tursunoy yaxshi biladi-ku, Ikromjon o'z ishini qanchalik sevadi!.. Tilidan o'rmon, tabiat tushmaydi! Undan haydalgan kuni cho'lda qoladi. Axir, Tursunoy da'vo qilsa, haydalib ketishiyam hech gapmas!..

E xudo! Shuncha yil!..

— Gapiring. Talqon yutdingizmi?

Ikromjon o'zida bor kuch-qudratni ishga sola oldi. O'zini bosa oldi. Ha, bu tarzda — arosat bir ahvolda ketib qolish — nomardlik! Tursunoy ilgariyam achchiq ustida telba-teskari gaplarni aytib yuboraverar edi!

—Tursunoy, bir gapni so'rayman... Men so'ramasimdan burunoq o'zingiz javob berib qo'ydingiz... Lekin yana so'rayman... Iltimos, o'ylab javob bering!

Tursunoy yuragi po'killab olg'a jildi.

— Xo'sh, — dedi. — Qanaqa savol ekan?

«Meni zarracha pisand qilmaydi» dilidan o'tkazdi Ikromjon va o'sha savolini berishga yana jur'at topdi:

— Meni chindan ham sevmaysizmi?

Tursunoy unga anqayib qarab turdi-da, qah-qah otib kulib yubordi. So'ng burilib, tizzalariga shapatiladi. Ikromjonning og'zi bir zum ochilib qoldi. Keyin asta burilib, zinadan tushdi. Bir, ikki, uch, to'rt... Beshinchi qadamda o'tinxonaga yetdi. Hozir orqasidan chopib keladi! Hozir... Balki Tursunoyning o'zi endi tiz cho'kadi?.. Ikromjon ajab bir titroq kayfiyatda shuni istab, oltinchi qadamni bosdi. Yo'q, yi-qilish nima! Shunchaki chaqirsin!

— Yo'l bo'lsin? Ikromjon shart qayrildi.

— Qayoqqa?

— Men savol bergan edim, — dedi Ikromjon, javobingiz o'shami?

Tursunoy... Tursunoy... «Javobingiz o'shami?» Ikromjon bu gapni nima uchun aytdi? Aytmasa bo'lardi...

Axir, u asta jilar ekan, Tursunoyning o'zi chopib ortidan bormoqchi edi-ku?

— Sizga yoqib tushdimi o'sha javobim?

«Endi bas! Bachkanalik yetar!»

Ikromjon tezgina burilib, darvozaga yetdi. Yana eshakning pishqirgani, qo'zining ma'raganini eshitgandek bo'ldi. Nazarida, uy-joy, olmalari, devorlaru yo'ng'ichqapoyasi ham unga allaqanday xayrlashuv nazari bilan qarayotgandek tuyuldi.

— Hoy!

Ikromjon yana harchand qaramoqchi bo'lmasin, qaray olmadi.

Tursunoy turib qoldi ayvonda... U qalt-qalt titrar: «Ketdimi? Butunlay ketdimi? — deb o'ylar edi. — E xudo! Endi nima qilaman? Eri tashlab ketipti degan gapni qanday ko'tarib yuraman... Meni tashlab ketadi? Ikromjon-a? Xomtama bo'lma! Tursunoy burningni yerga ishqaydi. Tashlab ketar emish! — Tursunoyning alami kelib, yana ko'ziga yosh oldi. — Nimalar bo'lyapti o'zi?.. Shoshma! Hali qo'rqibgina turgan edi... «Buyuring!» deb turgan edi... Nega birdan?.. Yo'q, u menga o'zini ko'rsatmoqchi! Ko'ramiz... Hali shunday yalintirayki! Qarshimda «buyuring!» deb turgin!.. Lekin o'sha gapni chakki aytdim... Qaydan kallamga keldi o'sha gap?.. Rahm qilib emish! Tavba! Hayronman... Chakki bo'ldi... Hechqisi yo'q!»

Ikromjon katta ko'cha tomon ketib borar ekan, yuragi bo'm-bo'sh va loqayd, shu ketishda tag'in restorangami, somsaxona yonidagi bufetgami borishini his qildi-yu: «Chindan piyonista bo'laman!» — deb

o‘yladi. Xo‘sh, qayoqqa borish kerak?

Toqqa, toqqa-da!.. O‘rmonga!

U ko‘chaga chiqqach, burilib, o‘rmon xo‘jaligiga yo‘l oldi. Somsaxona yonidan shoshib o‘tib ketdi. Unda odam gavjum!

Bayram davom etmoqda!.. May!.. Hamma yasan-tusan-da! Hamma shodu xurram!.. Tavba! Hayot qiziq... Aytmoqchi, Ikromjon bunday garangsib qadam bosmasligi kerak... Abduqayum ko‘rsa, «yana ichibdi» deb o‘ylaydi... Odamlar ham e‘tibor qiladi. Bironyasi to‘xtatib: «Nima bo‘ldi?» — desa, nima javob qiladi?

Oilasidan nolib, birovlarning ham kayfiyatini buzadimi? Keragi yo‘q! Shoshma! Xo‘sh, toqqa ham chiqib ketdi. Keyin, bari bir qaytadi-ku rayonga?

Shunda Ikromjon ba‘zi tanishlarning o‘ziga qarab o‘tayotganiga diqqat qildi-yu, shart chetga chiqdi. Tog‘ tomonga ketguvchi toshloq yo‘lga tushdi. Bu yo‘lda ham odam ko‘p... «Muncha ko‘p! Kecha bayram edi! Bugun yana ko‘chaga toshib chiqishibdi... Bekorchi bo‘lgandan keyin shu-da... Yo‘q. Axir, nima uchun uyda o‘tirishlari kerak? Ikromjon, nohaqsan! Qo‘y, kim nimani istasa, shuni qilaversin!.. Lekin sen chetroqda yur!»

Ikromjon yo‘lning so‘l yog‘idagi endi asfalt to‘shalgan xiyobonga chiqdi-yu, bu xiyobon tugagan joydan ajriqli so‘qmoq boshlanishi, so‘qmoq to‘g‘ri Yakkatol chashmasi bo‘yiga borishini esladi... E, o‘sha Yakkatol taglarida bolalar bilan koptok o‘ynardi bir vaqtlar!

Yakkatol — qari tol. Jarlik bo‘yida. Tanasi kovak bo‘lib ketgan. Jarlikning buyog‘ida havo stantsiyasiga qarashli oppoq imorat bor, bir tomoni sovxozning olmozori.

Ikromjon so‘qmoq bilan yurib, jarga kirdi. Sohllari past, yemirilib ketgan. Betlarini qariqiz o‘tlari bosgan. Oyoq osti nam. Lekin Ikromjon xursand!

Bu yerda hech kim yo‘q!..

Ikromjon so‘qmoq bilan jarlikning havo stantsiyasi tomondagi tekis maydonga ko‘tarildi-yu, bir entikdi... Keyin oyoq-qo‘li bo‘shashib, butun vujudidan madori ketib, turib qoldi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, maydonga yo‘ng‘ichqa sepilgan ekan, yo‘ng‘ichqazor naq tizzaga uradi. Shudringi ham ko‘tarilib ketgan bo‘lsa kerak... Chuchmomasi-chi? Bog‘piyozi-chi? Ikrom gangib parishonhol ko‘zlari bilan yo‘ng‘ichqazorga tikilar, oyog‘i ham o‘ziga bo‘ysunmay, o‘tirib qoladigandek bo‘lardi... U asta cho‘nqaydi... Bir tup yo‘ng‘ichqani olib tikildi. Hali gullamagan. Yosh ekan. Shundoq bo‘lsa-da, uni hidladi. Og‘ir, sof, toza bir hidni tuydi... Yigitning tag‘in yig‘lagisi kelar, lekin ko‘zidan yosh chiqmay, faqat qisqa-qisqa entikar edi.

U birdan o‘zini yerga otdi. Ancha yo‘ng‘ichqani bosib tushdi. Qulochini kerib, yuzini ho‘l tuproqqa bosdi.

«Oh! Qanday yaxshi!.. Alvido endi, yo‘ng‘ichqazor!.. Yo‘q-yo‘q, men o‘lmayman. Lekin endi sen men uchun yo‘qsan... Tursunoy yo‘q — sen ham yo‘q!»

Ikromjon ancha vaqt shu alfozda yotdi... Keyin: «Bu jinnilik. Ahmoqlik, — deb turib o‘tirdi. — Er-xotin o‘rtasida gap qochadi-da... Shunda bir-birining og‘zidan nima gaplar chiqib ketmaydi! Nahotki Tursunoy bilan shuncha yil yashab!.. Xo‘sh, uydan chiqib ketganim bilan nima topaman?.. Bekor gap! Hechqursa bolalarim hurmati — yashashim kerak. Mayli, Tursunoy sevmasin meni... Nachora! Hayotda aldangan erkak yo ayol yo‘qmi? Men ham aldangan ekanman... Baxtim shu ekan... Qiziq! O‘sha yo‘ng‘ichqazor qaerda? Bilmayman... Tursunoyni qachon sevib edim? Bilmayman... U-chi?.. U yolg‘on-chi... Mayli! Noma‘lum narsalar yo‘q bo‘ldi. Ma‘lumi shu: bizning oilamiz bor. Yashamoq kerak! Ishim, sevgan ishim bor: ishlamoq kerak...»

Ikromjon uyga qaytdi. Tavba! Nahot ketgan bo‘lsa Tursunoy? Eshik yana qulflog‘!

Shu payt muyulishda mototsiklning ovozi eshitildi. Ikromjon burilib qarab, o‘tirg‘ichda Qayum uchastkavoyini ko‘rdi. Jilmaydi. U shu tomonga kelmoqda edi.

— Assalom alaykum.

Qayum salomiga alik olmay mototsiklni chiyillatib, shu yerdan orqaga burib oldi.

— Chiq! O‘tir! — dedi. Ikromjon yana jilmaydi.

— Tinchlikmi?

— Tinchlik.

Ikromjon mototsikl kajavasiga o‘tirib oldi. Qayumga yana bir jilmaydi-yu, allaqanday bo‘lib ketdi: «Nima gap? Tag‘in Tursunoy... Yo‘g‘-e... Axir... E, Ikrom! Ikrom! Bolasan!.. U seni qutqargan edi-ku! U qamatishi mumkin yana!.. Galvars!» Ikromjon shunday o‘ylagan esa-da, bari bir ishonmadi o‘z o‘ylariga. Ammo nima uchun Qayum uni olib ketyapti? Uni izlab yurgani aniq! Ko‘rgach, mototsiklni burib oldi. Ikkilanmay: «Chiq! O‘tir!» — dedi.

Katta ko‘cha. Qayum mototsiklni tez haydab borar ekan, Ikromjon endi vahimaga tusha boshladi: «Yana

o'sha kamerami?.. Qorong'i xona! Qayum kechirmayman deb edi... Tursunoyning qadriga yetmayapsan deb edi. Lekin u seni o'lgudek yaxshi ko'radi» degandi ham... Kulgili gap! Bo'пти... Peshanada borini ko'ramanda... Umuman, men yomon odam bo'lsam kerag-u, buni o'zim bilmasam kerak... Lekin Tursunoy ham meni aldad...»

Ikromjon birdan o'ylariga barham berdi: «O'ydanda foyda yo'q... Rost... Melisaxonaga boryapmiz! Ana, ana... Endi tamom! — yana o'ylay boshladi Ikromjon. — Ishxonagayam xat yozishadi...»

Mototsikl daraxtlar tagiga burilib, xiyobonga kirdi. To'xtadi. Ro'parada katta, qizil, temir darvoza... undan chap tomonda navbatchilar xonasi bor... Unda telefon, divan... To'rida eshik. Eshik orqasida...

— Kir, kir!

Ikromjon bir qadam bosib, divanning nari chetida boshini egib o'tirgan Tursunoyni ko'rdi. So'ng divanning bu chetida omonatgina o'tirib, hayratlangan ko'zlari bilan to'siq ortiga, unda ikkita stulda qomatlarini tik tutib o'tirishgan tanish militsionerlarga qaradi.

Qayum shahd bilan stol yoniga o'tib, unda ochiq yotgan qog'ozga o'tkir tikildi. So'ng Ikromjonga o'qraydida, shart tortmasini tortib, ikki varaq oq qog'oz oldi. Stolga qo'yib, ustiga taq etkazib avtoruchkani qo'ydi.

— Kel, — dedi Ikromjonga. — Kecha nima voqea yuz bergan bo'lsa, yoz! Esimda yo'q deb tentaklik qilma!.. Har qanday mast odam ham u-bu narsani eslaydi!

Ikromjon o'rnidan turdi.

— Lekin mening esimda qolgani sizga hech narsani anglatmaydi, Qayum aka.

— Bari bir!

— Rost aytyapman!

— Bo'lmasam, Tursunoy nimani yozib bergan bo'lsa, shunga qo'shilasanmi?

— Albatta! — dedi Ikromjon. — Bu kishi biladilar... Him, bu kishi nimani yozgan bo'lsalar, shu gap to'g'ri... Chunki shunday bo'p qolgan ekan...

Qayum stoldagi qog'ozni olib tikildi. Bir oz ming'illab, o'qib boshladi:

— ... Xo'sh, «Boshimga urdi... Him, oyog'i bilan tepdi... Otam-onamni haqorat qildi... Bezori! Ichib keladi... Halol ishlashiga ishonmayman...» — Qayum Ikromjonga qaradi. — To'g'rimi? Mana, o'qib ko'rishing mumkin! — U qog'ozni uzatdi. — To'g'ri bo'lsa, to'g'ri deb imzo chek!

Ikromjon qog'ozni oldi. Xotining xatini tanidi. Yuragi allaqanday bo'lib to'lg'anib ketdi... «Endi nima bo'ladi?» — deb o'yladi va o'zini dahshat qo'ynida his qildi.

So'ng Tursunoyga qaragisi, undan nimanidir iltijo qilgisi keldi. Shunga barobar Yakkatol yaqinida, yo'ng'ichqazorda o'ylagan qarorini aytish fikri tug'ildi.

Ikromjon, qara! Qara unga!.. Tursunoy shunga ilhaq edi! Ha-ha! U erining «tumshug'ini yerga ishqamoqchi» bo'lib keldi. Jahl va ko'zyoshi bilan arznoma yozdi. Biroq endi uning o'ziga qarashini... ko'zlarini ko'rishni istar edi!..

— Bo'ldimi? Ruchkang bormi?

— Bor-bor! — «Imzo cheksam, bari ayblarimni bo'ynimga olgan bo'laman, — o'yladi Ikromjon ichida. — Erim qitmir emas ekan deydi keyin... Imzo chekmasam, yuzimga tupuradi!.. E, qarab turibdi menga! Tezroq qo'l qo'ysang-chi!» Ikromjon kissalarini timirskilab, ruchka topolmadi. Qayumga siniq jilmayib, ruchkasiga ishora qildi. Ruchkani olib: «Shunda yozilgan so'zlar to'g'ri! Aybimga iqorman», deb yozdi-da, katta qilib imzo chekdi. — Marhamat!

Qayum olib, tikildi. So'ng tortmasini shart ochib solib qo'ydi-da:

— Tursunoy singlim, sizga javob! Sizga rahmat, — dedi. — Eringiz qoladi!

Tursunoy o'rnidan turdi. Juda vaqti xush kishidek ro'molini tuzatdi. Asta yo'talib oldi. So'ng:

— Sudga kelamanmi endi? — dedi.

-Ha.

Tursunoyning labi pirpiradi.

— Qachon bo'lar ekan?

— Bo'ladi-bo'ladi.

— Rahmat, akajon... Shu odamni bir jazosini beringlar! Hukumatimizning qonunlaridan aylanay! Rahmat sizlarga... — Tursunoy eshikka yetdi.

«Voy, nimalar bo'ladi? Buni kesib yuboradimi? — o'yladi-yu, iyaklari titradi. Labini qimtididi. — Axir...»

Nima uchun? To'g'ri, buning aybi bor... Ammo mendan uzr so'radi-ku! Yo'q, — yana qaysarligi tutdi. — Uydan chiqib ketdi bu! Shu bo'yi uyga qaytib kelmas edi... Endi qo'linga tushdi!»

— Rahmat, akalar, — dedi Tursunoy va qo'qqisdan Ikromjonga qarab baqirib yubordi. — Gung bo'p qoldingizmi? Nimaga gapirmaysiz? Chiqib, qaergacha bordingiz?! He sizni!.. Ko'ryapsizlarmi bu odamning kesakday bo'lib o'tirishini! Shunaqa-da! Nomard... Bevafo! Bir adabini yesin!..

«Bevafo!» — Ikromjonning miyasiga nina sanchilgandek bo'lib ketdi. — «Bevafo» dedimi? Men-a!.. Voy-voy! Tursunoy naqadar haq! O'sha ketganimda

haqiqatan ham bevafo bo'lardim. Rost... Lekin men boshqa qarorga kelib uyga qaytgan edim-ku?»

— Kechirasiz, Tursunoy, — Ikromjon tilga kirdi. — Ha-ha... Qariyb bevafoqil qilgan edim... Lekin hozir fikrim o'zgardi...

— Hozirmi?

— Yo'q, hozir emas... Yakkatolda... O'yladim... Siz meni sevmasangiz ham bari bir yashashimiz kerak... Men shu fikrga keldim. Rozi bo'lsangiz, him...

— Rozi bo'lsangiz?!

— Ha-da! — Ikromjon turib ketdi. — Xo'p deng, Tursunoy... O'rtoq melisalar, bizni kechiringlar... Bu oilaviy gap...

— Gapir, gapir, — dedi Qayum. — Sizlarning gap-so'zlaringiz oiladan tashqariga chiqdi... Endi u oilaviy gap bo'lmay qoldi. Yana gaping bormi?

Tursunoy uning yana gapirishini, iltijo qilishini, qandaydir va'dalar berishini kutardi... «Gapir, Ikrom! Bo'l tezroq!» Ikromjon Tursunoyga qaradi-yu, uni qaytadan tanigandek bo'ldi: «O'sha Tursunoy bu! Menga shafqat yuzasidan tekkan...»

Ikromjon bir daqiqaga bugun darvozadan chiqib ketayotgandagi holatiga tushdi.

«Bas endi! — der edi ichidan bir ovoz Tursunoyga. — Bo'ldi qil! Shikoyat xatingni ol! Yirtib tashla!.. Axir, bu Ikromjonning-ku? Tag'in ish chappasiga ketib qolmasin... Yo'q, nega chappasiga ketadi? — dedi Tursunoy hushyor tortib ketib. — Agar melisalar yomonlikka oladigan bo'lsa, achchikdan yozib edim, deyman... Ikromjon hech narsani bilmay — man nima desam, shu to'g'ri, deb turadi... Qutqarib olib ketaman! Shu bilan bir umr o'zimmiki bo'lib qoladi...»

— Qo'ying, Qayum aka! — deb yubordi Tursunoy. — Bu odamning shu gaplariyam yolg'on.

Ikromjon shu tobda hech narsani o'ylayotgani yo'q edi. Lekin o'rnidan sapchib turdi.

— Xayr bo'lmasam, — dedi Tursunoyga. — Lekin bilib qo'ying, men hammavaqt sizga rost gapirib kelganman!.. Ba'zi gaplarni gapirolmay qolgan bo'lsam, kim biladi, sababi bordir...

Tursunoy yana turib qoldi.

— Kecha urganlaringiz, so'kkanlaringiz-chi? Nega esimda yo'q deysiz? — Tursunoy eriga battar tikildi. Yana lablari titradi. — A, yolg'on gapryapsiz-ku? — «E tavba, nimalar deyapman? — ko'nglidan o'tdi Tursunoyning. — Tuhmat-ku bu!.. — Qaerdan miyamga singib qoldi bu gap?.. Hali bu gapni yolg'onga chiqarishim kerak-ku?» — Xo'sh?.. Ana, shunaqasiz! — Bu gap ham og'zidan chiqib ketdi. — Tilingiz yo'q gapirgani!

Ikromjon havo yetishmayotgandek entikib nafas oldi. Qo'llari qaltirab:

— Nega tilim yo'q? — dedi. — Urdimmi — urdim!.. So'kdimmi — so'kdim! Ana, xatgayam imzo chekdim-ku?

Tursunoy qandaydir zavqlanib:

— Ana endi o'zingizga keldingiz, — dedi.

— Voy!.. — Ikromjon o'zini idora qilolmay qoldi. — Abduqayumaka!.. Jon Tursunoy! Urdim! So'kdim! — birdan ko'z oldi tumanlashib qichqirib yubordi: — Urdim! So'kdim! Tepdim!.. Xotirjam bo'ling! Suddayam shu gapni aytaman. Til tortmay o'layki — aytaman!

Ikromjon divanga o'tirib qoldi. Tursunoyning zavqi zim-g'oyib bo'ldi. — «Nima dedi bu? Suddayam aytadi?.. Qanaqasiga? Bekor gap! Jinni bo'p qoldi bu... o'l, Tursunoy! Nimalar qilib qo'yding?.. Ol xatni, yirt, uloqtir! Yashayman dedi-ku? Yashaydi... Bu yolg'on gapirmaydi! Meni sevmaysiz emish... Sevaman! Sensiz menga hayot harom... Bir kun ham yasholmayman sensiz!.. Otingdan o'rgilay! Mening butun hayotim sensan-ku!»

Tursunoy Qayumga qo'lini cho'zdi.

— Xatni bering. Qayum unga o'qraydi.

— Nega?

— Bering deyapman!

— Berilmaydi.

— Unda yozilgan bari gap yolg'on!

Ikromjon Tursunoyga yalt etib qaradi va xuddi dahshatli bir narsaga ko'zi tushgandek tez surilib, divanning u chetiga borib o'tirdi.

— Ikrom, xatdagi gaplar yolg'onmi? — so'radi Qayum.

— Qanaqasiga! Hammasi rost!

— O'ylab gapir!

— Rost-rost!

Tursunoy Ikromjonga burildi.

— Ikrom aka!

Ikrom kamera eshigiga qaradi.

— Ikrom aka deyapman!

— Rost!

Qayum o'rnidan turdi.

— Tursunoy, bu yerda baqirish mumkin emas... Boring! Uyingizga boring! Vaqti kelganda, chaqiramiz!..

— Kelmayman!.. Ey, yo'q, kelaman... Yo'q, menga qarang, bu xat, axir?..

— Sizga javob!

Tursunoy tashqariga chikdi. Telbalanib, deraza pastidagi skameykaga o'tirmoqchi edi, ortidan chiqqan militsionerni ko'rib, darvozaga yo'naldi.

Ko'cha. «Nima qilib qo'ydim? Voy, Ikrom! Ikromjon!.. Tursunoying o'lsin!.. Voy, nima qilay? Qaytayinmi? Yo'q!.. Haydashdi-ku? Kiritishmaydi endi...»

Qayum chuqur xo'rsinib, sigareta tutatdi. Xatni tortmadan olib, yana bir ko'z yugurtirdi. Keyin ensasi qotgandek yana joyiga soldi-da, yonidagi militsionerga buyurdi:

— Opchiqing!

Ikromjon Qayumga xayollanib qaradi.

— Bu kamera-chi?

— Bunda bir sutkaliklar yotadi.

...Shunday qilib, Ikromjon ikki yilga kesildi. Tursunoy: «Mendan kechdi endi», deb otasining uyiga ko'chib ketdi.

1976

CHO'LOQ TURNA

Cho'loq turna tuxumdan kech chikdi. Chiqqanidan keyin ham o'ng oyog'ini ololmay ancha yotdi, tipirchiladi, tukdan iborat qanotchalarini qoqdi. O'zini paydo qilgan tuxum po'chog'iga tizzasidan past yopishib qolgan edi. Nihoyat, undan xalos bo'ldi-yu, o'ng tomonga mayishib, atrofiga mayda shag'al toshlar terib qo'yilgan, qumga qattiqroq bosilgan tuya izidek uyasida bir-ikki aylandi. So'ng ma'yus, ojiz ovoz chiqarib, boshini zo'rg'a ko'tarib, anchagacha qaltirab turdi.

U nafas olar — yangi olam havosidan nafas olar, badaniga yangi olamning — iliq bahor quyoshining nurlari singar, shuning uchun qaltirar, hali bu hayotga ko'nikmagan edi.

Bir payt yon tomondagi qalin shuvoqlar ortidan qattiq va dahshatli «qaq-qaq» etgan tovush eshitildi. Turnacha qattiq qimirlab, yana shikastlangan oyog'i yoqqa yiqildi. Yana ancha tipirchilab yotdi. Endi, bu tipirchilashida o'zini o'nqlab olishdan ko'ra qandaydir sirli xavfdan yashirinishga intilish bor, chunki jajji turnacha onasining ovozidan buni his etgan edi.

Haqiqatan ham Ona-turna qalin shuvoqlar ortida uchta jo'jasini ergashtirib, yerda sochilgan o't-o'lanlar urug'ini terib yeb yurar ekan, olisda makkor tulkini ko'rib, shunday shovqinli ovoz chiqargan edi.

Tulki cho'loq turnachaning isini olib yaqinlashgan, Ona-turna buning uchun emas, yo'q, — u endi tuxumdagi naslidan voz kechgan, — yonidagi jo'jalari va o'zini o'ylab shovqin ko'targandi.

Tulki dumini xoda qilib qochib qoldi. Ona-turna bolalarini ergashtirib, tag'in uyasi yonidan, g'oyat ustalik bilan «yasagan» uyasi yonidan o'tarkan, uyoqqa beixtiyor qarab, Cho'loq turnachani ko'rdi. Bo'ynini g'oz cho'zib, ko'ksidagi echki soqoldek osilgan qora patlarini sel-killatib, uning qoshiga keldi. Tumshug'i bilan turtgan bo'ldi. Ixcham, ingichka oyokdarini ildam ko'tarib, ustidan o'tdi. So'ng bo'ynini gajak qilib, bolasiga birpas tepadan qarab turdi-da, tag'in uning ustidan hatlab, narida alang-jalang bo'lib, har tarafga talpinayotgan sog' jo'jalari yoniga ketdi.

Cho'loq turna daf'atan ustida paydo bo'lgan soyadan najot kutib unga intilganicha qolaverdi.

Bu holni kuzatgan inson hayron qoladi: Ona-turnani shafqatsizlik qildi, deb o'ylaydi. Aslida bunday emas: illo, bu tur qushlarning ham o'ziga yarasha mehr-shafqati bo'ladi. Bo'ladi-yu, lekin o'zga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu — yashamoq qonuni, zurriyot qoldirish va uning sog'lom kamol topib, o'zining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga bo'lgan tabiiy va tug'ma ehtiyoj qonunidir. Shuning uchun ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi og'ir bo'lgan farzandlaridan osongina voz kechishadi.

Cho'loq turnaning mayda shag'al toshchalar ustidan o'tishi ham mashaqqatli bo'ldi. Shundan keyin ham anchagacha yoniga ag'anab yotdi. Nihoyat, o'zini o'nqlab, ne bir his-sezgi bilan quruq yerga tumshug'ini urdi.

U ovqatga muhtoj — yangi olamda xo'rak topish shu tarzda sodir bo'lishini tuyg'u bilan tuygan edi.

Ona-turna bolalarini hamon ergashtirib, ba'zan g'ut-g'ut ovoz chiqarib don yeyishga undar, ular donlashar ekan, u benihoya uzun bo'ynini cho'zib, atrof-tevarakka qarab turardi. Nihoyat, olislarga chigirtka va kamyob o't barglarini izlab ketgan Ota-turna ham uchib keldi. Keng qanotlarini yoniga tap-tap urib, uzun oyoqlarini cho'zib yerga qo'ndi. U qo'nishi bilan Ona-turna parvoz qildi. Ota-turna esa bolalari o'rtasiga kirib, g'ut-g'ut deya yerga qusdi. Turnachalar ota jig'ildonida hazm bo'lmagan, ho'l, yutumli xo'rakni cho'qib-cho'qib yemoqqa tutindilar.

Nihoyat, u jo'jalarni ergashtirib, atrofiga toshchalar terilgan uyasiga keldi va Cho'loq turnachani ko'rib, bo'ynini cho'zdi. Keyin, uni oyog'ida turtib ko'rgan bo'ldi. Keyin, parvo qilmay, uyaga o'tdi-da, qanotlarini yoyib, asta pasaya boshladi. Turnachalar chiychiylashib, otaning issiq patlari ostiga kirib olishdi.

Cho'loq turna otasi sharpasidan ham o'ziga yaqinlik, boshpana hissini tuygan, aka va opalari ovozidan ham asti hayiqmagan edi. U ham ne bir issiq talpinish ila uyaga intildi. Bir amallab toshchalardan o'tdi. Va dumalab-turib, issiq qanot tagiga suqildi.

Ehtimol, Cho'loq turna uyaga kirolmaganda, Ota-turna unga parvosiz qolaverar edi. Biroq, endi uning harakatda ekanini sezib, qanoti ostiga kirishga qarshilik qilmadi.

Otaning bag'ri — tashqaridagi iliq oftobdan ham yoqimli edi. Eng muhimi — Cho'loq turnachaning qaltirashi bosilgan, uning vujudiga bir bexavotirlik va ishonch kirgan edi.

Ona-turna kelganda, Ota-turna tag'in bolalarini qanoti ostidan chiqardi. Cho'loq turnacha onasi jig'ildonidan tushgan xo'rakni ko'rib, unga intildi. Aka-opalari qatori yeb oldi. Keyin, albatta, qorni to'ymay, uzoq chiychiyladi. Keyin onasining ham bag'riga kirdi.

Ona-turna ham boya e'tibor etmagan jo'jasini endi e'tibor bilan yumshoq patlari ila bekitib oldi.

Kun botishi oldidan Ona-turna yana oyoqqa turdi. Yana bolalarini yantoqzor ortiga boshladi. Endi Cho'loq turnacha ham ulardan ortda qolmay ergashdi. Endi Ona-turna ikki marta to'xtab, uning yetib kelishini kutdi. Nihoyat, Cho'loq turnacha ham onasi g'utg'utlab chaqirgan yerdan don terib yedi.

So'ng Ona-turna kattakon yovshanning kungay tomo-niga yonboshlab, yumshoq, iliqqina qum-tuproqni qanotlari va oyoqlari ila tita boshladi, keyin unga bag'rini berib yotdi. Cho'loq turnacha ham aka va opalariga o'xshab qum-tuproqqa yotdi. Tuproq iliq, yoqimli — bunda quyosh tafti-yu ona-ota bag'ridagi haroratdan ham ziyodroq bir nima bor edi.

Ota-turna tevarakda mag'rur kezib, atrof-olislarga ko'z tashlab yurar, goho o'z-o'zicha «qaq-qaq» etib yangroq tovush chiqarib qo'yar edi. U har tovush chiqarganda Ona-turna boshini bir ko'tarib qarar, so'ng yana xotirjam bo'lardi.

Turnalar bir xil tovush chiqargani bilan ma'nosi ko'p bo'ladi, zero ularning inson qulog'iga bir xil bo'lib eshitaladigan ovozlari turfa ohanglar bor.

Yovshan va yantoqlar to'p-to'p bo'lib o'sgan, ulardan xoli maydonlar tap-taqir bo'lgan bu keng makonda ko'p marta quyosh chiqib, ko'p marta botdi. Havo tobora isib, o't-o'lanlar sarg'aydi. Yerlar tors-tors yorildi.

Bu turnalar bola ochib, kuz shamollari esa boshlaguncha turishadigan makon edi. Zero bunda Cho'loq turnachaning ota-onasi va aka-opalaridan ham o'zga turnalar oilasi ko'p va ularning har biriga tegishli, o'zlariga xos tug'ma qonunlariga ko'ra chegaralangan yerlari bor edi. Bu makonda albatta ularning g'animlari, kushanda va do'stlari ham bor edi. Masalan, eng ashaddiy dushmanlari tulki ila shaqol. Lekin bu ajoyib qushlar yashash uchun shunday kurash tarziga bo'ysunar edilarki, ular g'animlariga qarshi o'z qurollari bilan kurashishni ham bilishar edi. Birgina «qaq-qaq» etgan tovush manman degan tulkinging esxonasini chiqarib yuboradi. Shaqol ham toqat qilolmaydi bu tovushga va bu yirtqichlarning har ikkisi ham bu ovozlarning egasi g'oyatda nozik, mutlaqo beozor qushlar ekanini sira aqlga «sig'dirolmaydi», chunki bu yirtqichlarni qadim-qadimdan xuddi mana shunday tovushlar dahshatga solib kelgan, bu tovushlar chiqqan joydan qochish — ular uchun yashash uchun kurash edi.

Tabiat naqadar dono!

Turnalarning uyalari nima uchun bu qadar sodda-ibtidoiy: qumga qattiq bosilgan tuya izining o'zi. Tag'in ochiq yerga qo'yishadi. Atrofi nega kichik toshlar

bilan qurshaladi? Bu uyalarda yana bir g'aroyibotni ko'rish mumkin: qaysi turna tuxum qo'ysa, tuxumlari bilan yonma-yon ikki-uchta ot tezagini ham keltirib qo'yadi. Ular nega kerak?

Turna o't-o'lan orasiga in qo'ysa — dahshat! Chunki aksar yirtqichlar o'zlariga yemishni o'sha o't-o'lanlar orasidan izlashadi. Xolis, tekis yerdan-chi? Yo'q. Lekin birda-yarim yo'lakay turna uyasi ustidan o'tib qolishi mumkin. Shunda ular Ona-turnalar qo'ygan tuxumlarni ko'radimi? Ko'radi. Lekin nega chaqib yeb ketishmaydi? Chunki tuxumlarning rangi ot tezagidan farq qilmaydi. Ot tezagida nima bor ularga! Uya atrofidagi toshchalar nega kerak? Cho'l shamollari tuxumlarni dumalatib ketmasligi uchun kerak.

Yashash sharoitining o'zi jonli-jonivorlarni ham qanday yashamoqni o'rganib yaratgan.

Kuz shamollari...

Turnalar bezovta bo'lib yig'ila boshladi. Olis-olislardagi turnalar oilalari ham sayhonlik ustida parvoz qila-qila pastda ko'ringan bu to'plarga kelib qo'shilar edi. So'ng qanotlarini tap-tap urib yugurishgan, bir-birini quvlashgan, oyoqlarini ko'tarib, qanotlarini silkitishgan.

Yosh turnachalar ham ularga taqlid qilishadi. Lekin ular ko'proq uchishadi, illo ularni ko'proq uchishga otonalari majbur etishadi: yerda uzoq qolishsa, ayamay cho'qishadi. Goho bu sahro turnalarning «qaq-qaq» ovozlari larzaga keladi. Ovozlar uzoq-uzoqlarga ketadi va kunora yiroqlardan yangi-yangi turnalar oilasi kelib qo'shiladi.

Goho bu olatasir to'p ufqlar ortiga — olis Janubga, ulargina sezishi mumkin bo'lgan iliq taft kelayotgan yokdarga qarab turishadi. Shunda shimoldan esadigan shamol ularning yollari, soqollari va qanotlarini hurpaytiradi.

Bir safar turnalar galasi taqir maydonda uzoq yo'rg'alab qaqqillashdi. So'ngra shunday tapir-tupur qanot qoqib havoga ko'tarilishdiki, taqir yer changib, yovshanu shuvoqlar boshi shamol esgandek egildi. Tala-to'pda yerga talay patlar uchib tushdi. So'ng qushlar havoda «gilamcha» bo'lib aylana-aylana ko'tarila bosh-ladi. Osmoni falakka chiqqanda ham aylanishar, bu aziz sahro ustida parvona bo'lgandek aylanishar, endi ularning ovozlari tamom o'zgacha: qandaydir mungli va porloq, endi ovozlari bir-biriga jo'r bo'lib chiqar edi: qur-ey, qur-ey.

Ovozlar elas-elas eshitila, turnalar nuqtalar misol ko‘rina boshladi. Keyin birpas parokanda bo‘lishdi-da, uzun saf tortishdi va asta Janubga qayrilishdi.

Cho‘zilgan ipga tizilgandek bo‘lib, sahro osmonidan uzokdashib ketishdi.

Turnalar!...

Ularning yaralishlari, yashash tarzlaridan kelib chiqqan alohida uchishlar bor: yerga qo‘nish yoki yerdan ko‘tarilish paytida «gilamcha» bo‘lishadi, olislarga parvozda «arg‘amchi»ga aylanishadi.

Zero olis parvoz paytlarida ipga tizilgandek uchishmasa, ming-ming chaqirim yiroqdagi manzillariga emas, uning yuzdan biriga ham yetishlari gumon, ular yo‘llarda qolib yoxud nomaqbul joylarga qo‘nib, halok bo‘lishar edi. Holbuki unday bo‘lmaydi hech: tabiatning o‘zi ularni shunday uzoq masofalarga uchishga qodir qilib, qanotlarini katta va qamrovli, a‘zolarini g‘oyat kichkina va yengil qilib yaratgani ustiga uchish tarzlarini ham shunga xos holda ijod etgan.

Turnalarda ham, albatta, yo‘lboshchi bo‘ladi. Biroq u ham olis safarda hammavaqt safning oldida bora olmaydi. Chunki ro‘paradan esuvchi shamol, dovullar, hatto havoning muallaq holati qarshiligi ham uning kuchini kesib qo‘yadi. Shuning uchun yo‘lboshchi turna ham yo‘lakay «dam oladi», ya‘ni ortidagi turnaga o‘rnini bo‘shatib, eng orqaga o‘tib turadi. Bu tur uchishda hikmat bor: ro‘paradan esgan shamolu havo oqimi safda eng ko‘p oldingi turnaga ta‘sir etadi. Orqadagilar... bu qarshilikni juda oz sezib, go‘yo havo qarshiligi «yo‘q» bo‘lgan bir bo‘sh quvurda ketayotgandek bo‘lishadi. Turnalarning olislarga ucha olishlari siri shunda.

So‘ngra ularning uzun, ingichka tumshuqlari ham havo oqimini kesish va uning ta‘sirini kamaytirishga qo‘l keladi. Ingichka oyokdari dumlari tomonga cho‘zilib, go‘yo bir juft dum patiga aylanib qoladi.

Pastga tushayotganda bu xil uchmoqqa hojat qolmaydi.

U ancha ochko‘z, ammo bari bir zaif bo‘lib o‘sdi. Aka-opalari parvoz mashqini olayotganda, u ham albatta safga qo‘shilar, lekin, birlamchi, tez charchar, so‘ngra yerga qo‘nish ham uning uchun xiyla azob edi: qiyshayib qolgan oyoq yerga to‘g‘ri tushmay, Cho‘loq goho yiqilib ketar, parvoz oldidan ham tez yugurib olishda shu oyoq xalal beradiki, shuning uchun u ko‘pincha yerda bo‘lishni afzal ko‘rardi. Shuning uchun o‘zga turnalardan zaifu ularga qaraganda xiyla etli bo‘lib o‘sdi. Biroq «qabilasi» udumi, yashash sharoiti talabi bilan ular xulqida paydo bo‘ladigan o‘zgarishlarni bexato o‘zlashtirdi. Unda barcha turnalardek bo‘lguvchi tug‘ma hislar kamol topdi: u ham tulki uchraydimi, shaqol uchraydimi, dahshatli «qaq-qaq» tovush bilan ura qochiradigan bo‘ldi; olis ko‘llarga borib suv ichib kelish va foydali o‘tlarni ota-onasi yordamida topishni o‘rgandi, ba‘zan o‘zi ham ichki — tabiiy hissi bilan topib yedi.

Ba‘zan safdan ortda qolgan paytlarida — qorong‘i tushgan, yulduzli kechalarda ham o‘z qarorgohlarini adashmay topib kelardi. Bu xususda u o‘tkir edi, eng yaqin yo‘llarni kashf etar edi.

Mana, u ham Janub sari, xuddi ohanrabodek o‘ziga tortayotgan sirli manzil sari «qabilasi» safida uchib bormoqda. Oldindagi turnalarning yon-veridan esayotgan shamol unga ham oz-moz ta‘sir etadi, qanotlarini yalab o‘tadi. Pastlik!.. U hech qachon bunchalar» balandda parvoz etmagan edi. Lekin bu uchishning gashti bo‘lak ekan... Buning ustiga, olisda sirli makon bor. O‘shanga yetishlari kerak.

U makonning juda ham azizligini hozkroq sezmoqda!

Shu alfozda borar ekan, o‘ngu so‘lidan oppoq bulutlarning suzib o‘tayotganini ko‘rdi. Bulutlar unga tanish edi. Bahor chog‘laridan tanish... Biroq o‘shanda ular yuksaklikdan patlarni yumshatib ho‘l qiladigan yomg‘ir yog‘dirib o‘tishgan edi. Cho‘loq turna aka-opalari bilan qo‘nishib, ularni pastdan kuzatishgan, so‘ng oftob charaqlab chiqqanda, patlarini uzoq titib-to‘zg‘itgan edi. Ular goho suvdoqqa borib cho‘milgandan keyin ham iliq qumloqda turib, patlarini shu xilda quritishar edi. Endi esa Cho‘loq turna o‘z safdoshlari bilan o‘sha bulutlar ichidan suzib o‘tmoqda. Lekin u bundan vahimaga tushayotgani yo‘q, aksincha — bu g‘aroyib makonda erkin-erkin quloch otmoqda.

Bir payt yaydoq, bulutsiz, niliy bo‘shliqqa chiqib olishdi. Turnalar kiftiga iliq oftob nurlari tegdi. Ammo olg‘a uchganlari sari Cho‘loq turna havoning keskin sovib borayotganini payqadi. Pastda... pastlikda oppoq tog‘lar ko‘rinar, ular ham Cho‘loqqa tanish edi: bir vaqtlar ularni yonlab uchgan, lekin o‘shanda hech ham bunchalik sovuqni sezmagandi. Havo sovigandan-sovidi. Turnalar esa tobora tezroq uchishar, chamasi mana shu tez harakat ularni sovqotishdan saqlamoqda, ba‘zilarining qanotlariga qirov ham qo‘ngan edi.

Havo tag‘in asta-sekin ilidi. Tog‘lar orqada qoldi.

Shu tarzda borishar ekan, Cho‘loq turna safning ancha oldiga o‘tib qolgan edi. Endi shamolning ta‘siri kuchaya boshladi. Chunki yo‘lboshchi turnagina emas, uning ketidagi bir necha turnalar ham «yo‘lboshchilik» vazifalarini ado etib, hordiq uchun safning quyrug‘iga o‘tishgan, shunga ko‘ra Cho‘loq turna karvonning

o'rtasidan oshib qolgan edi.

Cho'loq pastlikda qandaydir tanish yirik qushlarni ko'rdi. Ular o'z sahrolarida ham ba'zan uchrab qolar, biroq makonlariga yaqin yo'lamas edi. Yo'lamas edi-yu, Cho'loqning o'zi ham bu qushlardan ehtiyot bo'lishni tuyar edi.

Ular — burgutlar edi.

Karvon tag'in yuksala boshladi. Cho'loq turna bir necha marta quyiga qaradi. Ne bir tuyg'u ila safdan ajralgisi ham keldi-yu, xuddi safga ko'zga ko'rinmas zanjir bilan bog'langandek, uchishda davom etdi.

U uchishi kerak edi. U uchishi kerak!

Faqat olg'a uchishi! Sirli, ohanrabo manzil tomon uchishi kerak! Nima bo'lmasin, qanday to'siqlar uchramasin, bari bir uchishi shart! Uchishi...

Etakda daraxtzor qishloqlar ko'zga tashlana bosh-ladi va bir mahal Cho'loq turna shundoq biqinlarida gala-gala qaldirg'ochlarning ham parvoz etib borayotganlarini ko'rib qoldi. Keyin esa bir necha qaldirg'och lip-lip eta olg'a o'tdi-da, g'oyib bo'ldi.

Cho'loq turna tag'in ham safning oldiga chiqib qoldi.

Qaldirg'ochlar ham yashash qonunlari, avlodlari udumi hukmida ayni shu pallada janub sari yo'lga chiqishgan edi. Turnalar karvoni oldiga o'tib olgan uch-to'rtta qaldirg'och esa dam olmoqchi, ya'ni karvonboshilar kiftiga qo'nishgan, shu sabab ular tezroq charchab orqaga o'tishgan edi.

Qishloqlar ham ortda qolib ketdi. Cho'loq turna endi safning boshida uchmoqda. Oldindan shovullab esayotgan shamol daf'atan ta'sir etib, uning bor quvvatini so'rib olmoqda edi. Cho'loqning ko'zlari tinib keta boshladi. Lekin uchmoqda. Qaerga... O'sha sirli makonga! Cho'loq turna u aziz makonni umrida ko'rmagan esa-da, uni biladi: u oldinda!

Karvon bir maromda ketayotgan edi. Cho'loqning parvozi susaygani sari orqadagi turnalar bir-biriga juda yaqin kelib qola boshladi. O'rtadan yo'l boshchi turnaning «quvq» etgan tovushi Cho'loqqa yetib, u ixtiyorsiz bir tarzda o'rnini ketidagi turnaga bo'shatdi-da, chetlanib, safning orqasiga o'tdi. Saf yana olg'a intildi. Cho'loq dumda turib uchar edi endi...

Ular shu alfozda uchib, tunni ham o'tkazishdi.

Cho'loq turna karaxt bo'lib qolgan, u bir necha marta karvonning boshiga chiqib, shu zahotiy oq orqaga o'tib olgan, bu orada yo'l boshchi turna bir necha marta «quvq-quvq» deb ovoz chiqargan, endi bu xil ovoz o'zga turnalardan ham eshitila boshlagan edi.

Cho'loq orqada... orqada qola boshladi. U bor kuch-quvvati ila qanot qoqadi. Lekin tobora orqada qoladi.

Karvon olg'a ketmoqda! Turnalar karvonining qonuni qat'iy: ular ortga burilishmaydi: ular ortda qolayotgan safdoshlariga yordam ko'rsatisholmaydi ham — bu hol ularga shunchalar aniqki, hayot tarzlariga ay-lanib ketgan.

Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermog'i kerak. Lekin o'jar, qaysar Cho'loq buni his etsa-da, o'zini dahshat qo'yniga — yolg'izlik qo'yniga tashlagisi kelmaydi: butun bori-borlig'i bunga qarshilik qiladi. Ammo kuch-quvvat bunga imkon bermaydi: Cho'loq turna bu holidan hayratlangan kabi tag'in qanot qoqadi.

Karvon olislab ketdi. Cho'loq yolg'iz qoldi. Endi uning oldida havo qarshiligini kesguvchi kuch yo'q, hozirgi mo'tadil havo oqimi ham unga kuchli dovuldek ta'sir etar edi. Cho'loqning tezligi battar kesilib, pastlay boshladi. U nolali ovoz chiqarar, karvon esa uzoqlashgani ustiga, tag'in balandlab uchmoqda edi.

Cho'loq pastlab borayotgan esa-da, o'sha sirli yurtga qarab uchardi. Pastlab-pastlab ham uchaverdi. Lekin kuch-quvvat uni tark eta borishi, shamol uni orqaga suraverishi oqibatida u deyarli harakatsiz bir holga tushdi.

Unda yashashga intilish hissi o'zga bir tarzda junbishga keldi. U qo'nishi kerak. Qandaydir sahroga o'xshash yerga, yovshan-yantoqlar o'sgan yerga qo'nishi kerak... Lekin oldindagi vatan!.. O'sha vatan uning uchun hayot edi: asl hayot o'shanda edi!.. Endi esa u hayot Cho'loqni inkor etdi. Cho'loq boshqa hayotga ko'nikishi kerak. U qo'nishi kerak, qo'nishi... Cho'loq turna endi temirqanot bo'lgan palapondek hamon olg'a intilib, past-past yashil daraxtlar ustidan uchib o'tdi. Keng o'tloqlar ham ketinda qoldi. Yiroqda taqir bir maydon ko'rindi. Turna unga intilib borarkan, qarshisida saf tortgan teraklarga yetganda, tag'in o'z-o'zidan pasayib ketdi-yu, ularga shatir-shutur etib urildi. Qanoti qiyshayib, xazonlar ustiga tushdi. Yana o'ng tomoniga yiqilib, shu bo'ii tek qoldi.

Bir mahal uning tingan ko'zlari atrofni ko'rdi. Turna apil-tapil qanotini o'nglab oldi va atrof manzarasidan dahshatga kelib, «qaq-qaq!» deb ovoz chiqardi.

U endi o'zga hayot qo'ynida edi...

OTA YURT (Bo'lgan voqea)

I

Mansur degan jiyanim bor. Novchadan kelgan, qotma, o'zimga o'xshagan qirraburun yigit. Sovxozda agronom bo'lib ishlaydi. Ishi yaxshi. Lekin qaysi kuni shikoyat qilib qoldi:

— Ariq ustidagi Quadrat boboni bilasizmi? O'shani o'nta echkisi bor. Tokzorga yaqin turadi. Devorning orqasi — uning uyi. Shu bahorda tokzorni aylangan edim. Qarasam, bir tarafi ko'karib qolibdiyu bir tarafi qip-qizil, sovuq urib ketganday. Buni nima jin urdi, deb tekshirgan bo'ldim. Sovuq-povuq urgan emas — mol yeb ketibdi! «O'laman sattor, mol kirgani yo'q!» deydi. Axir, ko'rib turibman, mol qiyratgan. U yer-bu yerga belgi qo'ydim. Ertasiga borsam, yana uch tup tokning sho'rasini yeb ketibdi. Ishga o'tgan yilim shu toklarni ekdirgan edim. Mehnating singsa, daraxt ham bolangga o'xshab qolar ekan. Keyingi kuni yarim kechada ot minib bordim. Bilaman, qorovul go'rso'xta uxlab qolgan. Devordan qarasam, o'ntacha mayda mol toklarni kirtillati-ib yeb yuribdi. Bedapoya marzasida birov orqa o'girib o'tiribdi. Asta otdan tushdim. Uni butaga bog'lab, devordan oshib tushdim. Sekin-asta yoniga bor-sam, o'sha — Quadrat bobo! Ol-a! O'tirgan joyida uxlayotgan ekan. Yonginasiga o'tirdim. Echkiyar tokni qiyratyapti. Bu kishi uyquni uryaptilar! Baraka topmagur pensioner. Pensionerni so'kma, dersiz. Qo'ying, shunaqalari borki, bizda ishlangiz bilasiz. Oxiri chiday olmadim. Axir, sovxozning tokini yeyapti-ya! O'tini ham emas! Bu cholni na sovxoz, na xalq qiziqtiradi, o'lay agar! Yo'g'asam, shunday qiladimi? Tikilib turdim-da, shappa bo'g'ib yerga bosdim. Elovsiyab qoldi. Rosti, so'kdim. Keyin qo'yvordim. Anchadan keyin o'ziga keldi. «Turing, milisaga boramiz!» dedim. Yig'laydi, siqtaydi deng. Ko'nglim bo'sh-da. Javobini berdim. Ammo shu toklarni o'stirib berasiz, deb shart qo'ydim. Tokni o'stirilmadi-yu, bir tsentner mayiz keltirib topshirdi. Harna-da. Hozir meni ko'chada ko'rsa, otda bo'lsam ham bukilib salom beradi. «Salomalaykum, Rahmon polvonning o'g'li. Yaxshi yuribsizmi?» — deb qo'yadi.

...Mansurning otasi, ya'ni tog'am haqiqatan ham polvon o'tgan. U kishining otasi — bobom ham vaqtda bekning polvoni bo'lgan, hatto Afg'onistonga borib, u tarafning polvonlari bilan bellashib kelarkan. Inqilob oldida qoqsholdan o'lgan. Zuryod bo'lib onam bilan tog'am qolgan.

II

Mansurjonning hamma ishi joyida-yu, lekin ko'nglida kishi bilmas bir dardi bor. Tog'am urushga ketib, «bedarak yo'qoldi» degan xabar kelgan edi. Boyaqish momom: «Kafan kiygan kelmaydi, kepata kiygan keladi», deb tog'amning yo'liga ko'z tuta-tuta dunyodan o'tdi. Onam ham yaqin yillargacha yolg'iz ukasining omon qaytishini kutardi. Tog'amni ikki-uch yil kutgach, yangamiz er qilgan. Lekin yolchimagan. Undan chiqib, hozir ukasining uyida yashaydi. Gap-gurung ustida u ham tog'amning qachon bo'lmasin kirib kelishini kutayotganini sezar edim.

«Bedarak yo'qoldi». Juda mavhum gap-da!

Xullas, jiyanimning dardi ham shu edi. Bir kuni men:

— Mansurjon, bir so'ratib ko'rmaysizmi? O'sha xat kelganiga o'ttiz yildan oshdi. Bedarak ketganlarning ko'plaridan darak chiqdi, — dedim.

— Yo'q-yo'q. Kerakmas, — dedi. So'ng munglanib, aybdordek jilmaydi. — Asir tushib ketgan bo'lsa-chi? Yo'q. Bu isnodga chidolmayman.

Bobomizning Farmon degan ukasi ham yelkasi yer iskamagan polvonlardan ekan. Lekin bekning polvonlari safiga qo'shilmagan, temirchiligini qilib yuravergan. «Unday mag'rur odam urug'imizdan chiqqanmas», derdi rahmatli momom.

U kishini o'sha mag'rurligi olib ketgan. Bir kuni temirchilikda o'tirsa: «Rais janoblari kelyapti!» deb ovoza bo'libdi. Rais — qozi huzuridagi bir mansabdor, asosan savdo-tijorat ahlining arziini tinglab, ajrim qiladigan kishi. U bozorga ot o'ynatib kirganda, savdogaru xaridor rastalardan tushib, ikki bukilib qarshi olarkan. Hamma pastga tushibdi-yu, Farmon polvon do'koni supasida qaqqayib turaveribdi. Kimdir uning etagidan tortib: «Polvon, pastga tushing. Bir baloni orttirmang», debdi ham. Polvon parvo qilmabdi. Rais o'ziga qarashli yasovul va navkarlar bilan bozorga kiribdi. Odamlar bilan so'rashib, ahvollashib o'taveribdi. Farmon polvonga yetganda to'xtab, hayron bo'lib so'rabdi: «Nega pastga tushmaysiz, polvon?» «E, taqsir, — deb javob beribdi

temirchi, — siz ham xudoning bandasi, men ham xudoning bandasi. Bandasi bandasiga ta'zim qilsa, farqimiz qaerda qoldi?» Rais navkarlariga: «Ushlanglar. Bandixonaga olib ketinglar!» debdi. Polvon zindonda yotaveribdi. Akasi, qarindosh-urug'lari, muxlislari ham bekka borib yolvorishibdi, xunini so'rashibdi. Bek bir kuni: «Buni rais janoblaridan so'rangiz. U kishi afv etsa, polvon hozir chiqib ketadi», debdi. Ular raisga borishibdi. Rais uzoq mulohazadan so'ng: «Farmon polvonni bozorjoyga olib chiqamiz. Mening xoki poyimni o'pib tavba qilsin. Toki bu ish fuqaroga ibrat bo'lgay, minba'd ulug'lar sha'niga dog' tushirguvchi gumroh ana shunday jazoga tortilajagini tushunib olurlar», debdi. Naql qiladilarki, polvon shartga rozi bo'lmagan. Ikki oydan keyin uni zindonda joynamozga muk tushib, o'lib yotgan yeridan olib kelgan ekanlar...

Mansur: «Otam asir tushgan bo'lsa... bu isnodga qanday chidayman», deganida shu voqeani esladim. U odamlarning fe'li-atvori menda yo'q. Lekin mana shu jiyanimda bor chog'i.

III

Bultur hayotimda katta bir o'zgarish bo'ldi. O'ttiz to'rt yildan beri birinchi marta ota yurtimga bordim.

Otam qo'shni oblastning cho'ldagi Bulg'ur degan qishlog'idan. Buyoqqa kelishidan avval u Bulg'urda maorif mudiri ekan. O'sha kezlar qandaydir anglashilmovchiliklar orasida, ba'zi bema'ni odamlarning tuhmati bilan, otamga o'xshash bir necha ziyolining hayoti xavf ostida qolgan ekan. Otam vaziyatni sezib, Toshkentga jo'nabdi. U yerda bir yilcha yashagach, do'stlarining maslahati bilan bu tarafga, onamning yurtiga kelibdi. Ozigina muddat rayon gazetasida ishlagan. Tag'in o'shanaqa gaplar qo'zg'alib, otam... ketganida men ikki yashar bola ekanman.

Otam bilan birga ketganlar qaytib, onamga: «Bandalik ekan, u kishini o'z qo'limiz bilan yerga qo'ydik», deyishgan.

Shuni aytishim kerakki, onam tekkan kishi uyimizga kelib yurgan chog'laridayoq unga mehr qo'yib qolgan edim. U kishi bizni nuqul o'z qishlog'iga ko'chib ketishga undar, goho otga mindirib olib ham borar, lekin onam: «Yo'q, men bu joyni tashlab ketolmayman. Bu yerda ota-bobolarim o'tgan. Xilxonamiz shu yerda», der edi. Nihoyat, u kishining o'zi biznikiga ko'chib keldi. Yil o'tmay, men uni ota deb ketdim.

Chog'imda, tez bunday deb ketishimning bir sababi — u kishini juda yaxshi ko'rib qolganim bo'lsa, so'ngra — bizning oilada, men tushunmaydigan sabablarga ko'ra, o'z otamning nomi tilga kam olinar edi.

Yillar o'tdi.

Men o'z otamni, uning yurti Bulg'urni tez-tez es-laydigan bo'lib qoldim. Lekin buni o'gay otamdan yashirardim, sezdirsam, u kishi xafa bo'ladi: «O'gay o'gayligini qiladi-da, bari bir menga farzand bo'lmadi», deb o'ylaydi, der edim.

Dam olish bahonasida bola-chaqamni olib borganimda, bir kech ziyofatdan sarxushroq bo'lib qaytdim. Nima deganimni eslolmayman, bir vaqt hushyor tortib ketdim. Qarasam, otam boshimni silab:

— O'g'lim, to'g'ri o'ylabsan. Ota o'g'il shunday bo'ladi. Puling bo'lmasa pul beray, ota yurtingni borib ko'r, — deb turibdi.

Negadir yig'lab yubordim. Nazarimda, shu damdan boshlab bu mehribon odam bilan oramizda bir choh paydo bo'lgandek edi.

Bulg'urga bordim. Urug'larim, ammalar, amakivachchalar shod bo'lib qolishdi. «Seni ko'p o'yalar edik. O'sha yokda bir tirnog'imiz qolgan, deb armonda yurar edik. Amakilaring ham urushga ketib, qaytmadi. Buyokda qo'limiz kaltalik qilib, seni izlab borolmadik. Bizni kechir», deb yig'laganlar ham bo'ldi.

IV

Bulg'urdan qaytib kelgan kunim Mansurjon ham uyimizda ekan. Dasturxon atrofiga yig'ilganimizda, bo'lgan ish bo'ldi endi, deb Bulg'urga borganim va ko'rgan-bilganlarimni aytib berdim. Otam birpas xayolga toldi-da:

— Ajab qilibsana, o'g'lim. Mening ham yuragimda armon qolmaydigan bo'ddi. Shu bola ichida ko'p o'ksinar, deb o'yalar edim, — dedi.

Otamning gaplari qulog'imga kirmadi. Ko'proq o'z tuyg'ularimga quloq solar, ularni tahlil qilar edim. Oqibat, hayron bo'ldim: otam bilan oramizda endi hech qanday choh yo'q edi!

Mansur dasturxon boshidan turib ketdi. Biror yoqqa chiqdi, deb o'yladim. Ammo kelavermadi. Uyoq-

buyoqqa qaradim — yo‘q. Momomning chorbog‘imiz etagidagi bir uy, bir dahlizli bo‘sh kulbasi derazasida chiroq shulasi ko‘rindi.

— Ena, momomning uyida kim bor?

— Hech kim, — dedi onam. — Bo‘sh. I-e! Chiroq yonyaptimi?

— Siz qimirlamang. O‘zim borib kelaman, — dedim.

Haqiqatan ham momom qazo qilgandan beri uyida birov yashamas, Mansur bir-ikki oy ayvonda yotib turib, uylangach, joy qilib ketgan edi.

Bu uylar keyin qurilgan. Asl uyimiz o‘sha! Onam ham, tog‘am ham o‘sha uyda tug‘ilgan. Keyinchalik u yerda momom bilan Mansur yashadi, goho men ham borib yotardim.

Ko‘nglim g‘alati bo‘lib, har xil xotiralar yodimga tushib, uyga yaqinlashdim. Bir necha yildirki, bu uychaga kirganimni bilmayman. Biroq hozir qaerda tosh turtib chiqib turibdi, qaer chuqurcha — ixtiyorsiz bir tarzda bilib, shunga mos qadam tashlab borardim.

Mana, supa. Tarnovdan oqqan suv supaning lablarini yemirib yuborgan edi. Hamon shunday bo‘lsa kerak. Ana, yog‘och karavot. Men ham shu karavotda, momomning yonida yotardim. U dam Mansurning, dam mening boshimni silab, hangomalar aytib uxlatar edi.

Ana, ayvon boshida o‘choq. Unda bobomdan qolgan mis choydisha choy qaynatilardi. Momom choynakka choy damlagach, cho‘qqa qo‘yar, jo‘mragidan pirqillab suv tosha boshlasa, qozonsochiq bilan tagini artib, dasturxonga keltirar edi. Dasturxonda turshak, olmaqoqi, shaftoliqoqi, yong‘oq, patir bo‘lardi. Biz nonni choyga bo‘ktirib yer edik.

Momojon! Xotira mulkim! Eng aziz, go‘zal daqiqalarim siz bilan o‘tgan. Hayotni sizning ko‘zingiz bilan ko‘rganman! Sizdan bir umr minnatdorman, momoginam.

Derazadan qarasam, Mansur palosda o‘tiribdi. Oldida qandaydir surat. Bir qo‘lini yerga, birini beliga tirab, suratga tikiladi. Sekin eshikni tortdim.

— Kim u? — deya bo‘g‘ilib baqirdi u.

— Men, men, — dedim. Eshikni ochib kirdim. Tanish hidlar dimog‘imga urildi. — Nima qilyapsiz, Mansur?

U menga loqayd nazar tashlab, suratga ishora qildi. Egilib qarasam — tog‘am! Qora choponda, ko‘kragi ochiq. Sochi olingan. Kichkina murti bor. Tog‘am bu suratni urushga ketishdan bir kun oldin oldirgan ekan. Momom borligida deraza bilan eshik o‘rtasida, devorga osig‘liq turardi.

Tavba! Nega ilgari tuzukroq qaramagan ekanman! Bu odam mening tog‘am-ku! Hozir hayot bo‘lganida meni jiyanim deb suyardi. Tog‘ajon, biz ko‘p narsalarni o‘z vaqtida emas, keyin suyamiz shekilli... Ko‘kragi ochiq.

Qandaydir chapandinamo. Lekin mardligi, yigitligi mana men deb turibdi! Urush yedi bu odamni.

Mansurga qaradim. Daf‘atan uning yuragidagi pinxoniy dard yodimga tushdi. Endi yomon ta’sirlanib ketdim. Mansurga yana tikilib qaradim. Chehrasida alamzadalik ifodasi namoyon edi.

— Mansur! — dedim. — Bu o‘tirish yarashmaydi sizga! Men tog‘amning asir tushib kettaniga ishonmayman. To‘g‘ri, yarador bo‘lib, o‘zi bilmay asir tushib qolganlar bor, albatta...

— Io‘q! — dedi u. — Erkak odam asir tushmaydi!

— Shu tobda o‘z darajangizga munosib fikr qilmayapsiz.

— Men o‘z fikrimni aytyapman.

— Bo‘lmasa, nimadan qo‘rqasiz? So‘rang, surishtiring.

U suratni olib o‘rnidan turdi. Joyiga ilib qo‘ydi.

— Ketdik.

Mansur tanchada yonib turgan, — momomdan qolgan, — yettinchi lampani tepasidan puflab o‘chirdi. Chikdik. Atrof zim-ziyo, pastga tushib, o‘ngga burildi. Uyimiz esa ro‘parada.

— Qayoqqa? — dedim.

— Men bir... — U chaynalib turgach, nihoyat aytdi: — Shu... opamni bir ko‘rib kelay...

U yangamiz er qilib ketgani sababli hamon uni yoqtirmas, yangam o‘rtaga odam qo‘yib, necha marta «yarashtiringlar», degan, onam ham Mansurga ko‘p marta: «Qo‘y endi, jigarim. Onangdayam ayb yo‘q. Taqdir ekan, yarash», degan, lekin Mansur u kishi bilan hatto gaplashishni ham istamas edi.

— Shunday qiling, Mansurjon. Hayotda hamma narsa bo‘ladi. Urush aybdor, — dedim.

U yerga tikildi. Shu bo‘yi burilib, bog‘ oralab ketdi.

V

May bayramini Toshkentda bola-chaqam bilan o'tkazib, tug'ilgan yurtimga jo'nadim. Buyokda yana bayramlar ko'p. Yo'lakay Bulg'urga ham tushdim. Ammalar, amakivachchalar — barchalari xursand bo'lib ketishdi. Endi ular: «Yo bizni ham o'sha yoqqa olib bor, yo ularni bizga ola kel. Bordi-keldi qilaylik», deb qolishdi.

Bulg'urdan chiqayotib, ko'nglim ko'tarilib, bag'rim kengayib ketganini his qildim. Bu ko'nglimga ona yurt ham, ota yurt ham sig'ar ekan. Sig'ibgina qolmay bag'ringni kengaytirib yuborar ekan.

— Mansur qalay? — dedim onam bilan so'rashar-so'rashmas. — Ota, Mansurning kayfiyati qalay?

Ular bir-birlariga qarab, so'ng bir-birlariga gap bermay:

— Choshgohda bir ko'rindi. Kayfi bor edi chog'i... Yana chiqib ketdi. Lekin onasi bilan yarashgani yaxshi bo'ldi-da. Momongning uyiga ko'chirib kelmoqchi. Nasib bo'lsa, balki o'z uyiga ko'chirib ketar... Kayfiyati tuzug-u, biz bilan yaxshi gaplashmadi, — deyishdi.

Yangamiz bilan yarashgani yaxshi. Ammo... Choy-poy ichib, dam olgan bo'ldim-da, ko'chaga chikdim. Toshkentdan yilda bir kelgan tanishi yo sinfdoshini ko'rganlar nima qiladi? Buning ustiga, bugun 9 may — G'alaba kuni!

Restorandan chiqib, istirohat bog'iga o'tdik. Ko'chada maktab tomon ketayotsak, taxta ombori oldida odam gavjum! Qandaydir haykalning ustidan surp chodirni tushirishyapti. Atrofida pionerlar ko'p. Ko'pining qo'lida lolaqizg'aldoq.

Qaerda bo'lmay, Mansurni surishtirdim. Idorasiga, bo'limlarga telefon qilib, uni qidirib ham kelishdi. Mansur hech qaerda yo'q edi.

Do'stlarim meni kuzatib qo'yishdi. Darvozaxonada ham bir oz gaplashib turdik.

— Haykal yaxshi bo'пти, — dedi Bo'ronbek degan sinfdoshim. — Faqat bir jihati menga uncha yotishmadi. Noma'lum soldat deyilgan, bu to'g'ri-yu, shu... haykal o'zimizning tog'lik yigitlarga o'xshamabdi-da.

Har kim har xil fikr aytdi. Oqibat — qishloqda haykal o'rnatilishining o'zi yaxshi gap, deb xayrlashdik.

Mansurdan ko'nglim alag'daligi uchunmi, uyda uzoq o'tirolmasligimni sezardim.

— Ena, Mansurdan darak bormi? Darak yo'q? — Momoning uyiga yo'l oldim. Nazarimda, Mansur uyda yotgandek tuyuldi. Chiroqni o'chirib yotgandir, deb o'ylab supaga chikdim. Derazadan qaradim. Eshikni ochdim. Gugurt chakdim. Uy bo'm-bo'sh.

Aytganimdek, uyda o'tirolmadim. Yana ko'chaga chiqib ketdim.

VI

Qaytib kelayotsam, birov salom beradi. Qarasam, Qudrat bobo!

— E, salom! — dedim. — Rahmon polvonning o'g'lini ko'rmadingizmi?

— He, — deya chol kulib qo'ydi. So'ng hovlikdi: — Nima edi?

— Yo'q, ko'rdingizmi bugun?

— Shu... qaerdayam... Qizilning boshida ko'rdim shekilli. Otliq edilar. Gilamday ochilgan lolaqizg'aldoq ichida turgan ekanlar. Men bilan yaxshi so'rashdilar...

— Boboy, u menga jiyan bo'ladi, bilasiz.

— Albatta, albatta.

— Shuni menga topib berasiz endi.

Tong qorong'isi ekan. Birov chaqirdi. Boloxonadan chiqsam, darvoza tarafda o'sha Qudrat bobo. Qo'li bilan meni imladi. Kiyindim, tushib bordim.

— Ha?

— Mana buni ko'ring.

Bir surat berdi. Tikildim. Qandaydir marmar ustun, atrofida o'zbeklarga o'xshamaydigan kampir, chollar, yosh bolalar.

— Nima bu?

— Yaxshiroq qarang.

Qaytib boloxonaga chikdim. Lampochkani yokdim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, marmar ustun — halok bo‘lgan askarlarga qo‘yilgan yodgorlik bo‘lib, unda oltita ism yozilgan, to‘rtinchisi — «O‘rmonov Rahmon» edi. «1943 yil, 3 oktyabr». Atrofda yodgorlikka ta‘zim qilib turgan kampir, chol va bolalar — ruslar.

(Keyin bilsam, Mansur otasini harbiy komissar-lik orqali surishtirgan, natijada Rostovdan xat bilan birga shu surat ham kelgan ekan. Komissarlikdagilar atay G‘alaba kuni berishibdi.)

Chopib pastta tushdim.

— Buni qaerdan topdingiz?

— Yonida yotgan ekan.

— O‘zi qaerda?

— Hozir ko‘rasiz.

Qudrat boboga ergashdim. Ko‘chaga chikdik. Chol meni maktabga boradigan yo‘lga boshladi. Yog‘och omborga yetmayoq:

— Ana, ana! — dedi.

Mansur soldat haykali tagida, marmar zinada bo-shini haykalning poyiga qo‘ygancha yotar, yonida bog‘lanmagan bir dasta lolaqizg‘aldoq bor edi...

1978

OLAM TORTILISH QONUNI

Husan akani mahallada katta-kichik hurmat qilar, zero, uning o'zi ham goho xasdan past, tuproqdan xokisor bo'lib ketardi. Yo'lda kim uchrasa salom berar, lekin o'sha odam alik oladimi, yo'qmi, bu bilan ishi bo'lmas, o'z vazifasini astoydil ado etgandek, yo'liga keta berardi. Oilada ham shunday edi. Olti qizining eng kichkinasi bilan ham sizlashib gaplashar, ammo ular o'zini nechog'lik hurmat qiladi, bu bilan ham ishi bo'lmas edi. U go'yo odamlarni hurmat qilish, lekin ulardan buning evaziga bir nima talab etmaslik uchun tug'ilgandek edi.

Bunday odamlarni har qancha maqtasa kamlik qiladi. Biroq u kishining yana bir jihati bor ediki, uni kuzatgan odam ba'zan g'ashlanardi ham. Masalan, o'zidan amalda sal balandroq kishiga yo'liqsa titrab-qaqshab turar, go'yo u odam Husan akaning qismatini shu damdayoq hal etib qo'yadigandek tuyulardi. Lekin undan ham o'ziga biron bir iltifot kutmas edi.

Hovlida tok kesib yurar edim, Husan aka ochiq darvozani ehtiyotkorlik bilan taqillatib kirdi. Ming yillik qadronini da'atan topgandek shodiyonalik bilan ko'rishib:

— Sizni muborakbod etgali keldim, — dedi.

— E, — dedim men. — Nima bilan?

— Jiyanli bo'ldingiz, og'ajon!

— Q-qanaqa jiyanli?

— Shu... men o'g'il ko'rdim. Bilasiz-ku... Shunga xursand bo'lganimdan... kelar hafta tug'ruqxonadan chiqadi yangangiz... Shunga chillasi chiqmasayam mayli, bir ziyofat qilmoqchi edik. Shunga aytib keldim. Yo'q demaysiz endi. Bilaman, ishli odamsiz. Komandirovkangiz ko'p. Shunga... Iltimos-da. Xo'pmi? Yo'q demang.

Husan akaning mana shunday suyilib, hatto chuchmal bo'lib ketishi menga yoqmasdi. Shunchalar qatorlatib gapirib tashladiki, uni tabriklashni ham esdan chiqarib qo'ydim.

— Shu deng... nozik do'stlardan ham aytganmiz. Ular albatta kelishadi. Shunga...

— Xo'p, xo'p. Bir og'iz so'zingiz, Husan aka.

— Qulluq, qulluq. Boshim osmonga yetdi, jon uka. Yanagi shanba. Soat oltalarda. Soat oltalarda. Ishdan chiqadigan paytingizga to'g'ri bo'ldi.

— Tushundim.

— Xo'p, menga javob.

— O'tirsangiz...

— Rahmat. Minnatdorman.

Husan aka ketdi. Men, darvozani yopib, ichkariga kirdim. Negadir xit edim. «Odam ham shuncha suyilib, xokisor bo'lib ketar ekanmi? Nega shunaqa ekan-a!» Borib, yana tok kesa boshladim. Xayolim tag'in u kishida. O'zi shahardan chetda, bobosidan qolgan yerda yoz oylari dehqonchilik qiladi. Vaqtida agronomlik kursini ham bitirgan, bir necha muddat o'z kasbi bo'yicha ishlagan ham. Keyin nima ham bo'lib, feldsherlik o'qishiga kirgan.

O'sha yillarda u kishi bilna tanishgan edim. O'pkam qattiq shamollab kasalxonaga tushdim. Nafas olishim og'ir edi. Xayriyat, o'sha kuni Husan aka navbatchi ekan. Yonimdan jilmadi. Lekin meni sal bopladi ham. Nafas olishim og'irlashgan sari ukol qila berdi. Nima balo, o'zim qo'pol bo'lsam ham, terim yupqa ekanmi, ukol aks ta'sir qilib, badanimga qizilcha toshib ketdi. Bir hafta qashib, bo'lganimcha bo'ldim. Lekin Husan akaga bari bir rahmat aytdim. Nima dey? Shunday qilib, tanishib qolgan edik. Uyiga ham boradigan bo'ldim. Domino o'naymiz. U kishi goho agronomlik qilgan paytlaridan gapirib qolar, ayniqsa, qovun urug'larining asl navlari yo'qolib ketganidan shikoyat qilar, kolxozda ishlab yurgan chog'larida nuqul «amiri» navidan ekdirgani, lekin tarozi bosmasligi, brigadaning qovun planini sira bajarmaganidan, oxiri, tanqid eshita-eshita ishdan ketganini so'zlar edi.

Fahmimcha, bu kishining ichida birovga aytmaydigan gap ham bor edi. Dilida orzulari ko'p bo'lgan. Shubhasiz, bu odam kattakon bir rahbar, arbob bo'lishni orzu qilgan... Lekin buning uchun nima qilish kerakligiga aqli yetmagan. Arboblik zinasidan ko'tarilmoq uchun zarur bo'lgan ichki qobiliyat yetishmagan unga. Oqibat, u kishi o'zidan sal amali katta odamlarga sirli bir nimaga qaraganday qaraydigan bo'lgan va bu narsa qon-qoniga singib kelgan. Endi u kishi nuqul o'shandoq odamlar davrasida bo'lishni istar, davrasiga kira olmasa, o'zi ularni biron-bir bahonada chaqi-rib, o'tirishni istar edi. Mana, hali meni ziyofatga aytib ketdi. Men aminman, ziyofatda oddiy, o'zi qatori (o'zi o'ta hurmat qiladigan) odamlarga nisbatan, o'zidan «yuqori»

odamlar ko'p bo'ladi.

Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Shanba kuni borsam, darvoza og'zi turli markali, turfa mashinalarga to'lib ketgan. Hovlida bamisoli to'y bo'lyapti. Kirdim. Ziyofat ko'ngilxushlik bilan o'tdi. El qatori chikdim. Uyga kelib, xotinimga gapirib berdim.

— Qiziq odam, — dedi ayolim. — Yana kimlar bor edi?

— Faqat sen yo'q eding... Uchta sovxoz direktori, beshta brigadir. Ikkita bo'lim boshlig'i. Oltita vrach... Mahalla oqsoqoli, magazin direktori...

— Yana?

— E, qo'yaber. O'ziyam bo'lganicha bo'ldi deyman. Endi bir oy nonga ham pulni hisoblab sarflaydigan bo'ddi!

— O'ziga ziyon.

— Men ham shuni aytyapman-da.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Husan aka bunaqa ziyofatlaridan keyin xiyla vaqt ko'rinmay ketardi. Ko'rinmay ketdi. Men ham ish deb, komandirovka deb shaharma-shahar yurdim.

Yil deganingiz ham hash-pash deguncha o'tadigan bo'lib qolgan. Tug'ilgan jiyanimiz Sodiqbekning bir yoshga to'lgani ma'lum bo'ldi. Husan aka erta kuz kunlarining birida uyga kelib, meni ziyofatga taklif etdi:

— Iltimos endi... yo'q demasangiz... Nozik mehmonlar kelishadi, albatta. Yo'q demaysiz, jon inim... Ishondim... Shanba kuni. Soat oltida... Naq ishdan chiqib kelasiz... Kutaman-a?

Men odatdagidek ko'ngil g'ashlik bilan gapni qisqa qildim. Borishga so'z berdim. Lekin daf'atan bora olmadim. Qo'qonda edim. O'sha kuni shaharga yetib kela olmadim. Ertasi Husan aka erinmay uyga keldi.

— Uka, sizdan umidimiz bul emas edi-ku, jon uka? Rosa kutdik-da, og'ajon... Ko'chaga chiqib qarayman deng. Qani ko'rinsangiz... Barcha mehmonlar kelishdi... Sovxoz direktorlari... Vrachlar... Brigadir, bo'lim mudirlari... faqat siz yo'qsiz-da... Shunday bo'lmapti-da... O'zingizning jiyaningiz... Tug'ilgan kuni...

Men Sodiqbekning tug'ilgan kunlari hali ko'p bo'lishi, Husan akam qo'li ochiq, mehmondo'st ekanini aytib, o'shandoq ziyofatlarga jon deb borishga so'z berdim.

Falokat oyoq ostida deydilar. Kelasi yil ham o'shandoq tug'ilgan kuniga bora olmay qoldim. Husan aka tag'in ertasi kelib, ko'p ranjib gapirdilar. Bu gal u kishiga juda rahmim kelib: «Shu dahmazalar juda shartmi!» degim keldi. Lekin nachora. U kishi shunaqa odam. Bir hisobda bunaqa odatning nima yomon tomoni bor? U kishi bundan zavq oladi. Tamom.

Bu gal ham Husan aka ketgach, men u kishi to'g'risida xayol surib qoldim. «Har qalay omadsiz odam deb bo'lmaydi... Yo omadsizmi? — deb o'yladim. — Qiziq-da... Bo'lmasam, ularni chaqirib, bor budini sarf qilib nima topadi? Bu odamni xushomadgo'y deb ham bo'lmaydi... Siniq, orzumand odam... Uning dilidagini bilib bo'lsaydi?!»

Dunyoda nima ko'p, o'lim ko'p. Ajal degan yoshu qarini saralab o'tirmas ekan. Sodiqbek qattiq shamollab qolibdi. Kasalxonaga olib boribdilar. Husan aka uning boshidan jilmabdi. Rosa ukol qipti. Yaxshi so'zlar bilan ovutmoqchi bo'libdi. Lekin foydasiz.

— Shunaqa bo'p qoldi, inim, — dedi u kishi oqshom mahali, endi Termizdan kelib o'tirgan edim. — Ha, uka, ollo ko'p ko'rdi Sodiqbekni... Qarang-a... Nachora, umri qisqa ekan. Bir ko'rsatib, diydoriga to'ydirmayoq oldi-qo'ydi... Quruq jasadim yuribdi, og'a...

Men dong qotib turardim. Husan aka haqiqatan ham cho'kib qolgan. Titraydi, qaltiraydi. Rangida rang yo'q. Boyoqish! Shunda bildimki, bu ota haqiqatan ham Sodiqbekni tilab olgan ekan! Axir, olti qiz ko'rgandan keyin o'g'il topgan edi-ya! Nomard falak.

U kishining ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldim:

— Sodiqbekning umrini boshqa farzandlaringizga ulashib bergan bo'lsin, Husan aka... Hali yana farzand ko'rasiz, ishona bering. Rasmi, o'zi shunday bo'ladi. Meniyam bir qarindoshim ketma-ket sakkiz qiz ko'rgandan keyin yana ketma-ket to'rt o'g'illi bo'lgan edi.

U kishi jimgina, yumshoq, do'mpaygan qorni ustiga baquvvat, semiz qo'llarini qo'yib, munis turar edi.

Birdan miyamga bir nima urdi: «Nega turibdilar? Biron narsa kerakmikan? Qanday aytsam bo'ladi?»

— Xo'sh, Husan aka, uyga kiraylik.

— Yo'q, yo'q. Ertaga ertalab chiqaramiz Sodiqbekni. Shunga sizni aytgali kelib edim.

— Obbo, — deb yubordim. — Shunga ham aytadimi? Oyog'im bor, o'zim boraman-da. Quloq bor, eshitdik... Yaxshi emas, Husan aka. Uyga boring. Bu yurish sizga yarashmaydi.

—Boring, — dedi u kishi darvozadan chiqar ekan. — Shunga... do'st-yoronlar keladi... Nozik mehmonlar... Shunga bir kecha saklab turmoqchi bo'ldik...

Yuragim siqilib ketdi. Negadir bu odam shu topda ko'zimga... ko'rinib ketdi. Tezgina izimga burildim.

Buyam oz ekan. Ertalab soat beshlarmidi, to'rt yarimlarmidi, telefon jiringlab qoldi. Rahbarimiz. «Soat oltiga yaqin samolyot keladi! Mehmonlar bor. Siz kutib olishingiz kerak. Agar bu yerda qolishni istashmasa, to'g'ri Xorazmga uchasiz!» Obbo, buyog'i qandoq bo'ldi endi?

Uyqu qochdi. Tosh yog'sayam saharlab Husan akanikiga o'taman, deb o'yladim. Lekin yigirma minut o'tar-o'tmas, ko'chada «Volga» signal berdi. Chiqsam, o'zimizning shofer.

— Ha?

—Keldim, — dedi u. — Xo'jayin aytdilarki, soat oltiga qolmay kelishi ham mumkin ekan.

— E, shu ishniyam...

Soatga qarasam, o'n minuti kam olti. Kiyim-boshga ham qaramay mashinaga o'tirdim. Samolyotlar ba'zan qandoq kelishi o'zingizga ma'lum. Olti yarim, yetti yarim bo'ldi. Sakkizdan oshganda keldi. Mehmonlar to'rt kishi edi. Yuklarini olish uchun ham yarim soat ovora bo'ldim. Mehmonxonaga olib kelganimizda, soat to'qqiz edi.

To'qqiz! To'qqizgacha murdani saqlab o'tiradimi! Aslida kecha ko'milishi kerak edi!

— Xo'sh, tamaddi qilamizmi? — deb so'radim mehmonlardan.

— Ha, choy ichsak bo'ladi, — dedi kattasi. — Keyin to'g'ri Xorazmga. Vaqt o'tmasin, do'stim!

Soat o'n birlarga yaqin ularni olib vokzalga chikdim. Endi orqaga qaytgim kelmadi. Tuzuk kiyinmagan bo'lsam-da, uyga bir telefon qildim-u, mehmonlar bilan «Samarqand — Urganch» poezdiga o'tirdim. Ketdim.

To'rt kun deganda qaytib keldim. Hamon kayfiyatim yaxshi emas edi.

— Xotin, setkani ol. Men Husan akaning uyiga chiqib kelay.

— Shunaqa qiling, — dedi ayolim. — O'zlari ikki marta chikdilar. Ishonmaysizmi?!

— Nima deb?

— Qaydan bilay.

Uchrashuvni qarang!

Endi ko'chaga chiqib edim, mung'ayibgina kelayotgan Husan akani ko'rdim.

— E, — dedi Husan aka. — Him...

— Uzr, shu... — deb chaynaldim. — Ish degani... Yaqinda bo'shamoqchiman...

Husan aka mung'ayib bosh irg'atdi. So'ng o'zicha ming'illab gapira ketdi:

— Ko'p kutdik. Ko'chaga chiqib qaradim... Yo'qsiz... Nozik mehmonlar kelishdi. Ikkita sovxoz direktori. Uchta vrach... To'rtta agronom... Rahmat ularga... Sizni deb marhumni bir oz kuttirdim ham... Faqat siz... uka...

Men quruq surat bo'lib, u kishiga qarab turardim.

Husan aka tag'in shu ohangda ancha gapirdi-da, meni daf'atan unutmidek bo'lib, o'tib ketdi. Nima qildim endi? Udum. Sekin u kishining uyiga bordim. G'amboda bo'lib o'tirgan qariya qarshi oldi. Ta'ziya bildirib chikdim. Endi men Husan aka bilan baqamti o'tirib gaplashishni istardim. Lekin u kishi odamovi bo'lib qolgan, ba'zan meni ko'rmagandek o'tib ketardi.

Shunda... «Husan aka og'ir yotibdi», degan gapni eshitib qoldim. Borsam, sob bo'p qolgan. Ko'zlarida nur yo'q. Doktorlar bilan gaplashdim. «Shol, — deyishdi. — Tanasi ishlamay qoldi. Yordam berib bo'ldik. Endi parhezgayam hojat yo'q. Nima istasa yesin, nima gapirsa gapirsin».

Husan akaning yonida biron soat o'tirdim. U kishi bir og'iz ham gapirmadi, bir nima yemoqchi ekanini aytmedi ham. Tasodifni qarangki, joni uzilayotganida ham u kishining boshida edim.

Yolg'onchi qilmasin, u kishining uyida ko'rganim ko'pgina rahbar shaxslar o'sha sovxoz direktorlarini vrachlar, bo'lim boshliqlari ham shu yerda, bu xokisor, mehmonnavoz odamning qazosi yaqinligini eshitib kelishgan ekan.

Lekin Husan akaning tabiatidagi eng dahshatla narsa shu ediki, na menga, na-da anavilarga parvo qilmas, onda-sonda ayoli bilan, qizlari bilan so'zlashar, ularga tegishli gap qilar edi.

Falon kishidan qarzi bor ekan, uzgani yaxshi bo'пти. Katta qizi o'g'lini tabibga ko'rsatishi kerak. Ko'z og'rig'i bor. O'zi o'lsa, katta amakisi qabri yoniga qo'yishsin. Shuni aytishim kerakki, Husan aka tamomila hushyor edi. Meni ham, mehmonlarni ham tanib turar edi. Biz — u kishidan hammavaqt iliq-issiq so'zlar eshitib o'rgangan edik! U odamning mana shular bilan o'tirishdan olam-olam zavq olishini ham yaxshi bilardim! Bu — uning ushalmagan orzulari, armonlari haqqi ko'ngliga malham bo'lishini ham tushunib yetgan

edim. Hozir yana hammamiz uning qoshida edig-u, lekin shu topda uning uchun yo‘q edik.

Men u kishining oxirgi so‘zini eshitib qoldim.

— Bolam Sodiqbek, meni tashlab ketding-a... Sensiz... Yoningga boryapman... Yolg‘iz eding... Men ham yolg‘iz... — Shunday deb yuzini chetga burdi.

Nazarimda bizdan — mendan va anavi mehmonlaridan yuzini burdi. Sezdimki, biz bu odamga hech mahal kerak bo‘lmaganmiz! Yo‘q, aniqrog‘i, kerak emas edig-u, buni endi sezgandi.

— Sodiqjon... — dedi u yana.

Ha, biz unga kerak emas edik.

Uning uchun eng kerakli, bor narsalar — farzandlari, oilasi, eng tabiiy-insoniy tashvishlar edi.

1978

QUSH TILI

*«Tangrim, bolalar bilan hayvonlarni o‘z panohingda asra».
Amerikalik rejissyor Kramer yaratgan filmning nomi*

Jahongir bir tavaqali eshikdan tashqari chiqdi. Ro‘parada katta bog‘. Ulkan-ulkan daraxtlar. Osmon ham katta, shishadek tiniq. Tepadan gala-gala qora qushlar uchib o‘tyapti. Havodan turfa ko‘katlarning hidi keladi. Har yokda turli hasharot ovozlari vizillaydi, dizillaydi.

Bola uy biqinidan esayotgan bosiq shov-shuvni eshitdi-da, o‘sha yoqqa o‘tdi. Uzun ariq bo‘yida ham azim daraxtlar. Tapa shoxlari osmonga tekkudek. Quyi shoxlari yerga egilgan. Yaproqlari katta-katta, shapaloq-shapaloq.

U daraxt shoxlarida o‘ynoqlab yurgan chipor qushlarga hayajon bilan qararkan, bir yerdan qiyq-qiyq etgan ojiz tovush kledi. Jahongir alanglab qaradi. Ariqning u betidagi qalin xazonlar ustida bir qush yalpayib yotar, bir qanoti dumi tomon surilib qolgan, sarg‘ish tumshug‘ini ochib qig‘illar edi. Jahongir uyoqqa ikki qadam bosgan edi, qushcha jonholatda «qiyq-qiyq» etdi-yu tepadan bir balo yog‘ildi: barcha chipor qushlar quyilib, Jahongirning ustida charx urib aylana boshladi. Shamollari tyogadi bolaning yuziga! Jahongir ko‘zlari ola-kula bo‘lib, burila solib qochdi, yo‘lakka kirdi.

— Ada! — deb baqirdi.

Eshik ochilib, birovning tepakal boshi ko‘rindi.

— Ada! Anuv yerda bir qush yotibdi! Ucholmaydi! Qanoti mamundoq bo‘lib qolgan. Obering menga!

Dadasi ichkariga qarab qo‘yib, eshikni yopdi.

— Yur. Hovliqma... Dam olgani kelgan odam shoshmaydi.

Tashqariga chiqishdi. Jahongir otasining qo‘lidan tortib, ariq bo‘yiga olib borar ekan, qushlar yana chug‘urlashib, endi ota-bola ustida qyun bo‘lib ucha boshladi: ular go‘yo bularni qo‘rqitmoqchi, orqaga qaytarmoqchi bo‘lishardi.

Qamariddin xazon ustidagi qushni ko‘rib:

— Mayna-ku! E-e, — dedi. So‘ng arikdan hatlab o‘tib, qushni ko‘tardi. Qushcha jonholatda xazonlarga yopishgan ekan, ikki-uch bargni gajak tirnoqlarida changallab tipirchiladi. Qamariddin uning osilgan qanotini tortib ko‘rdi. Biqin patlariga puflab qaradi. — O‘q yegan... Birov otibdi buni... Paq etkazib otibdi! Shu yerga kelib yiqilganga o‘xshaydi.

— Menga bering!

— Yo‘q. Buni davolash kerak.

— Nimaga otibdi?

— Yomon odam-da. Yaxshi odam qushlarga ozor bermaydi.

— Bu o‘lmaydimi?

— Nega o‘lar ekan? Lekin bu yerda yotaverganda o‘lar edi. Yo mushukka yem bo‘lardi.

— Uyga opketamiz-a?

— Opketamiz... tuzalsa. Ammo mayna odamga o‘rganadi. Yur... Hamma qushlar ham odamga o‘rganadi. Nima uchun buning nomini mayna deydilar, bilasanmi?

— Yo‘q.

— Hali aytib beraman.

Divanda «Vokrug sveta» jurnalini varaqlab o‘tirgan Ikroma o‘rnidan sapchib turdi.

— Nima u?

— Mayna. Yoding bormi?

— Qaydam... Doka bor.

— Ozigina ber.

— Menga bering maynani!

— Qo‘lingni cho‘qiydi, o‘g‘lim. Qara, og‘zini ochyapti... Yur, bir yerga borib kelamiz.

Uzun, qizil gilam to‘shalgan yo‘lak televizor ko‘riladigan zalga eltadi. Qamariddin dermantin qoplangan eshikni tiq-tiq urdi. Xalat kiygan Oqila opa chiqdi.

— Voy, mayna-ku?

— Yarador. Ariq bo‘yida yotgan ekan. O‘g‘ilchamiz ko‘rib qopti.

Oqila opa Qamariddinning gapini bo'lib, boqqa chiqiladigan ikki tabaqali eshikka qarab oldi-da:

— Kattaning o'g'li qilgan, — dedi. — Miltig'i bor! Har kuni otadi.

— Qanaqa kattaning?

— E, anavi dachada kim turadi?

Ariq bo'yidan o'tgan devor orqasida bir ministrlikka qarashli dacha bor. U yerda, odatda, odam kam bo'lardi. Temir darvozasi og'zida o'qtin-o'qtin «Volga»lar tizilib ketadi.

— Ha-a, — dedi Qamariddin. — Yosh bola! Gaplashib qo'yamiz u bilan... otasi bilan!

Oqila opa boshini sarkak-sarak qildi.

— Hamma shunday deydi. Bittasiyam yurak yutib bormaydi.

— Biz boramiz! Bizning qo'rqadigan joyimiz yo'q... Yod bormi?

— Hozir. — Oqila opa xonaga kirib, qornidagi yozuvli joyi tirnoqda ko'chirilgan shisha idishcha chiqarib berdi. — Ozigina qolgan ekan.

— Rahmat, Oqila opa! Ota-bola orqaga qaytishdi.

— Ada, bitta ushlab ko'ray.

— Sabr qil.

— Nega mayna deydilar buni?

— Ko'p usta qush bu, o'g'lim. Har qanday jonivorning ovozigina taqlid qiloladi. Xohlasa, mupguk bo'lib miyovlaydi. Xohlasa, it bo'lib hurishi mumkin... Bulbulga o'xshab sayrab ham qo'ya oladi. Ana shuning uchun buni mayna deb ataganlar: boshqa qushlarni, hayvonlarni mazaxu mayna qilgani uchun.

— Odamniyam mayna qiladimi?

— Buning uchun uni o'rgatish kerak. — Qamariddin birdan mamnun kuldi. — Buni gapirishgayam o'rgatsa bo'ladi. Hozir aytib beraman.

Qamariddin xonada qushni qag'illatib qanoti va biqiniga paxtaga shimdirilgan yod bosib, doka bilan bog'laguncha, «aytib berdi».

— Rahmatli momomizning bir xolasi bo'lar ekan. Befarzand ekan. Eri bir kelishida cho'loq mayna olib keladi. O'shanda bizning yurtda mayna bo'lmagan. Xo'p de, Ikroma! Mayna keyingi yillarda paydo bo'lib ko'payib ketdi. Xullas, momomizning xolasi cho'loq maynaga mehr qo'yib, parvarish qiladi. Keyin tilga o'rgatadi!.. Ulug'oy degan qo'shnisi bo'larkan. O'sha devordan mo'ralasa, mayna darhol: «Uluq, Uluq!», deb qichqirarkan. Shunaqa. Keyin mayna o'lib qoladi. Uni yarim gaz bo'zga o'rab ko'mishadi. Go'ri ustida o'sha xolamiz ko'p yig'lagan ekanlar... Shundoqki, bu taqlidchini gapga o'rgatish mumkin!.. So'ngra, bu jonivor go'shtni yaxshi ko'radi.

— Go'sht bor-a, opa?

— Kolbasa bor, — dedi Ikroma. — Adasi, endi buningiz shu uyda turadimi?

— Bo'lmasa qaerda turadi? Shkafga solib qo'yamiz.

— Kechirasiz, va'dangizni bajaring. Bizga alohida xona berishsin... Tutuningizga toqatim yo'q. Buning ovozinini ham o'zingiz maza qilib eshitib yotasiz.

— E, xotinboy!.. Bo'pti. Va'da berishdi-ku! — Qamariddin ro'paradagi derazadan ko'rinib turgan beton devorga ishora qildi. — Anu yokda bitta amaldor yashaydi. O'g'li otgan emish buni. Hali u arzanda bilan o'zim gaplashib qo'yaman!

— Xudo xayringizni bersin, shu yerga tinch keldik, tinchgina ketaylik. Shunaqa qilsangiz, jo'navoraman. O'zim uydan xavotirdaman. Salimlarning eshigini buzishgandan beri...

— Ularning eshigi chiroyli edi, shuning uchun buzishgan. Biznikiga birov qaramaydi.

— Ada, menga bering!

— Xo'p. Mana... Ikki qo'llab ushla. Tirnog'i o'tkir! Ana shunday. Qo'rqma!

Jahongir ikkinchi qanoti ham qo'shib bog'langan qushni o'zidan olisroq tutib tikildi. Kafti ham sezyaptiki qushning biqini qappayib puchayadi. Dokadan issig'i o'tadi.

— Boqqa chiqaylik!

— E-e! Bu yotishi kerak!.. O'zimiz boqqa chiqamiz. Bunga xo'rak olib kelamiz. Chigirtka teramiz. Mayna chigirtkani juda yaxshi ko'radi.

Qamariddin shkafni ochdi, quyi tortmasini tor-tib, ichiga qushni qo'ydi. Mayna yotib oldi, so'ng dik-dik sakrab, tortmaning to'riga qochdi.

— Yuringlar!

Ikroma jurnalni yopib, shippagini kiydi. Jahongir xavotirlanib derazaga qaradi-yu, ko'zlari kattayib ketdi: devor boshida bir necha mayna tizilib o'irishar, qig'-qig' degan ovoz chiqarib, buyoqqa qarashar edi. Qamariddin kuldi.

— Buning sheriklari!.. Yod qo'yayotganimizda, ovozini eshitib kelishgan. Yuringlar, qaytib ketishadi... Qushlar ham taqdirga tan beradi, o'g'lim.

Jahongir shkafni yana bir ochib qarab, qayta yopdi. Boqqa chiqishdi. Ikroma ko'rinmadi. Ota-bola beixtiyor uy biqiniga o'tishdi. Ana xolos! Boya mayna yalpayib yotgan xazon ustida bir baroq mushuk cho'nqayib o'tirar, qo'lini yalar edi.

— Maynangning baxti bor ekan! — dedi Qamariddin. — Sal kechiksang bormi!..

— Mushuk yomon-a, ada?

— Uni yaxshi ko'radigan odamlar ham bor, o'g'lim. damzodning fe'li o'zi g'alati. Bir nima deb bo'lmaydi... Bilasanmi, biz — odamlar ham qaysidir hayvonga, qaysidir qushga yoqamiz. Qay birlari bizni yomon ko'rishadi... Xo'sh, o'z tillarida bizni muhokama qilishadi...

— Nima?

— Ularning ham o'zlari tushunadigan tillari bor. E, bu olamda hamma jonli narsalarda til bor! Biz uni tushunmaymiz, xolos!

— Nimaga?

— Bilmasam... Ana, bilmas ekanman! Balki shunisiyam yaxshidir? Har jonzot o'z sir-asrori bilan yashagani qiziq emasmi?

Ular imorat oldiga o'tib, to'g'ri ketgan tekis yo'lkaga chikdilar. Ikroma teraklar soyasida jurnal o'qiyotgan ekan, bularga qo'shildi. Bog' adog'iga tushib, o't-o'lanlar orasidan chigirtka, qo'ng'iz izladilar. Havo issiq, o't-o'lanning hidi og'irlashib qolgan edi. Asta-sekin ota-bolaning mashg'ulotiga Ikroma ham qizikdi. Bir soatlar chamasi izg'ishib, talay chigirtka, bitta qo'ng'iz, ikkita jigarrang kapalak tutishdi.

— Zerikaman deyyotgan eding, senga ham ish topildi, — dedi Qamaridin Ikromaga.

— Terlab ketdim!.. Maynangiz ham bor bo'lsin! Lekin uning chirqillashiga men chidolmayman.

— Xo'p!.. Biz chidaymiz-da! Nasib bo'lsa, ishga bir sho'ng'iylik, Kamoliddinning qo'shig'iyam quloqqa kirmaydi keyin.

Qamariddin — texnikumda «Qadimgi dunyo tarixi» o'qituvchisi. Gazetalarga tarixiy mavzularda maqolalar ham yozib turadi. Maqolalari, albatta, mavsumiy bo'ladi. Bu galgi maqolasi «Toshkent — Qo'shon imperiyasining shimoliy chegara shahri» degan sarlavha ostida yozilgan esa-da, bu haqiqatni shubha ostiga oladigan olimlar ham yo'q emas. Masalan, O'rta Osiyo antik tarixining bilimdoni professor Masson bu masalaga bir oz shubha bilan qaraydi.

Holbuki, u kishining rafiqasi — antik san'at bilimdoni Galina Anatolevna Pugachenkova bu masalaga zarracha shubha qilmaydi... Qamariddin maqolaning bosilishiga ham ishonadi: chunki Toshkent shahrining 2000 yoshga to'lishi respublikada keng nishonlanadi, demak, u to'g'rida maqolalar ko'plab e'lon qilinadi.

Uyga yaqinlashganda, Jahongir o'zib ketdi. Xonaga kirib, shkafni ochdi. Mayna shay bo'lib turgan ekan, dikonglab to'rga qochdi.

— Mayna, mayna! Senga chigirtka opkeldim, — dedi Jahongir.

Qamariddin maynani olib, qog'oz chetini ochdi. Ariqdan topilgan yolg'iz chuvalchang o'rmalab chiqayotgan ekan. Mayna bo'ynini ichiga tortib unga tikildi-yu, shu zahoti chiq etkazib chuvalchangni cho'qidi. Ko'z ochib-yumguncha yutib yubordi.

— Ada, yedi!

— Yeydi, yeydi!.. Bu go'sht-ku!

— Menga bering! O'zim beraman!

— Qo'lga ehtiyot bo'l.

Mayna yomon xo'ra ekan, yo juda ochiqqandi. Bular bir soatda tergan luqmani hash-pash deguncha yo'q qil-di, «yana ber!» degandek sap-sariq og'zini ochdi.

— Yosh ekan, — dedi Qamariddin. — Bu yil tuxumdan chiqqanga o'xshaydi... gapga o'rganishi oson.

— Gapiyadi, a?

— Bilishimcha, bunga bir xil so'zni takrorlayve-rish kerak. Masalan, «Jahongir!»... Yo'q, bu bo'lmaydi. Boshqa so'z kerak. O'sha xolamizning maynasi «Uluq» degan-ku! Shunga o'xshash so'z topaylik. Uluq, buluq... Baliq... E, jiyanim bor-ku, Xoliq!.. Xoliq de. Bo'ldi. O'rganadi.

— Xoliq, Xoliq, — dedi Jahongir. Mayna «qiyq», deb qo‘ydi.

— Ada, Xoliq, dedi!

— Aldama.

— Xoliq, Xoliq...

— Men juda qiynalib ketyapman, — dedi Ikroma.

— E, tirik jonmiz-da! — deb kuldi Qamariddin, so‘ng maynani silab, jiddiy tortdi. — Ana shu tirik jon ekanimiz bizni tabiatga bog‘lab, o‘rtada kontakt o‘rnatib turadi. Bir vaqtlar o‘zimcha tasavvur qilganman. Ko‘z oldingga keltir. Tog‘ bag‘ri! O‘rmon, unda qush-hayvonlar bor deylik. Odam ham bor. O‘sha yerga tushib qoldim. Nima qilaman? Turgan gap: birinchi galda «bu yerda odam bormi?» deb o‘ylayman, uni izlayman. Odam zoti yo‘qligiga ishonsam, albatta, qushlar yoki hayvonlardan do‘st topishga intilaman. Robinzon Kruzodek! Qushlar ham, hayvonlar ham bo‘lmasa-chi? Unda, shak-shubhasiz, bir yashil daraxtni ko‘nglimga yaqin olaman. Chunki daraxt — tirik! Tomirida hayot bor!.. Ko‘karib turgan shu daraxt ham bo‘lmasa-chi? Menimcha, qoq yalang‘och qoyalar orasida mendek yolg‘iz, g‘arib kimsa bo‘lmaydi...

Eshik taqillab, oq xalatli Oqila opa ko‘rindi. Ikroma:

— Keling, opa — deb shoshib qoldi.

— Bir minutga kirdim, — dedi Oqila opa. Eshikni yopib, yopganiga ishonmagandek yana qarab qo‘ydi. — Qamarjon uka, bir narsani eslatib qo‘yay... Direktorimiz Oloviddinxo‘ja injiq odam, o‘zingiz ham sezgandirsiz... Vannaxonaning oldida, shiftga bir juft qaldirtoch in solgan edi. Vijir-vijirini eshitsak, quvonib ketardik. Bir kuni Oloviddinxo‘ja: — «Yo‘qotinglar buni!» deb qoldi. Men bilmas ekanman, shiftdan axlati to‘kilar ekan. Klava supurib tashlar ekan. Oloviddinga: «Beziyon-ku, u-bu», degan edim, o‘zi shvabra bilan inni buzib tashladi. Jonivorlar yana in qura boshlagan edi, Oloviddin vannaxona oldidagi derazani yopib, orqasidan mixlab qo‘ydi. Qaldirg‘ochlar ikki kun deraza orqasida uchib vijirlashdi. Keyin ketishdi... Demoqchimanki, maynaga ehtiyot bo‘linglar. Endi, Qamarjon uka, ko‘pchilik keladigan joy-da bu. Qush ovozi yoqtirmaydiganlar ham uchraydi...

— Bizning Ikromaga o‘xshab!

— Hazilmas. — Oqila opa Jahongirning boshini siladi. — Xo‘pmi, yigitcha?

— Rahmat, opa! — dedi Qamariddin.

— Sizlarga yana bitta xona kerak-a?.. Ochib qo‘ydim. Devor ortidagi xonani. Yig‘ishtiryapti.

Oqila opa chiqib ketdi. Qamariddin sigareta oldi. Tutatishga ikkilanib:

— Ajoyib ayol! — dedi. So‘ng o‘g‘lini bag‘riga tortdi. — Odamzod ana shunday, mulla Jahongir! Bu hayot kutilmagan ziddiyatlarga to‘la!

— Falsafangizni ertaga qoldiring, — dedi Ikroma. — Men nimalarni olay? Jahon mening yonimda yotadi. Mayna... siz bilan.

— Ho-ho-ho!

— Men mayna bilan... — deb yig‘lamsiradi Jahongir.

Ota uni ovutdi:

— Ana, shkafda turadi. Uyoqda bo‘lsa, opang qo‘yvoradi. Bu yerda bexavotir... Ko‘rging kelsa, bemalol kiraverasan. Ana, direktor ham qushlarni yomon ko‘rar ekan.

— Yomon odam, a?

— Yaxshi emas, menimcha.

Ikroma chamadonni ochdi. Jahongir shkafning oldida cho‘nqayib o‘tirdi.

— Ada, qanoti og‘riyapti-ya?

— Ha-a! Albatta!.. — U endi bemalol sigaretani tutatdi. — Daraxtlarni kesganda, ularning ham joni og‘rir ekan. Daraxt suvsiz qolsa, ingragan ovoz chiqararkan. Fan aniqlagan!.. Faqat biz — odamlar buni sezmaymiz!

— Buni dadasi, opasi bor, a?

— Ha! — Qamariddin ta‘sirlanib, derazaga qaradi. Endi devor boshida ikki mayna qolgan, biri hurpayib turar, biri panjalari orasidagi allanarsani cho‘qib yer edi. — Balki anavilardir? Aka-ukasiyam bor buning!... Yasha, o‘g‘lim. Ana shunaqa o‘yla! Bu yaxshi odat.

— Ular yig‘layaptimi?

— Ey, sen geniy bo‘lasan! — deya xitob qildi Qamariddin. Keyin past tushdi. — Yo‘q, sen tarixchi bo‘lasan. Tarix juda qiziq! Qadimgi davrlar qiziq... E, o‘shanda ko‘p narsalar boshqacha bo‘lgan. — Qamariddin xotini chamadondan olib qo‘ygan kitoblarni ko‘zdan kechirar ekan, shoshib qoldi: —

Pugachenkova qani?

— Hammasi shu yerda.

— Pugachenkova! Buyuk ayol!... E, mana-ku!.. Ammo lekin, o'g'lim, qushga qarash, uni davolash ham ko'p zavqli! Nima deding? Umuman olganda, hayotning har qanday ko'rinishi ham qiziq, g'aroyib!.. Tushunyapsanmi?

— Chigirtka opkelamizmi yana?

— Albatta!.. Bir donishmand aytgan ekan: «Inson hamma narsadan baxtsiz bo'lganda ham, bari bir shukur qilishi kerak. Tug'ilganiga — yorug' dunyoni ko'rganiga shukur qilishi kerak. Chunki shuni ham ko'rmasligi mumkin edi». Zo'r gap-a! Tushunyapsanmi?.. Ochma dedim-ku! Jindek yotsin boyaqish!

Qamariddinning ilhomi qo'zib turgan edi, bo'g'ildi. Qaniydi, o'g'li yosh emas, uncha-buncha narsaga aqli yetadigan bo'lsa! Shu tobda unga bu zo'r hikmatni Buddha aytgani, Buddha dini bundan ikki ming yil muqaddam O'rta Osiyo tuprog'ida yoyilgani, naq Toshkentning Oqtepasidan buddaparastlarning ibodatxonasi topilgani, bunday ibodatxona Farg'onaning Quvasidan ham chiqqanini so'zlab, mana shu faktlar ham Qo'shon imperiyasining shimoliy chegara shahri Toshkent ekanini isbotlashini aytsa!

Tushdan keyin sayrga chiqishdi. Qamariddin tanishlarini uchratdi. Ikroma bilan Jahongirni ularga tanishtirdi. Ob-havo, kuz haqidagi gaplar aylanib, qo'shni dachada miltiq paqillatib yuradigan «arzanda»ga taqaldi.

— Bo'riboy tezroq kelsin-da! — dedi bir pensioner. — Hassasini do'qillatib o'tib turardi Bo'riboy qaysar!

Moskvaga — televideniening «Hayvonot olami» redaksiyasiga xat yozishni ham kimdir maslahat berdi.

— Kerak bo'lsa yozamiz! — dedi Qamariddin va Ikromaga qarab olgach, injiqlanayotgan o'g'lini turtdi: — Nima deysan?

— Biz ovqat yedik-ku? Maynayam...

Qamariddin asta-sekin ishga sho'ng'iy boshladi. Ikroma ham bu yerga xiyla o'rganib qoldi. Uy tashvishi yodidan chiqdi. Ona-bolaga ermak ham topilgan edi: zerikdilar, bog' adog'iga izg'ib ketishadi. Hasharotlar terib kelishadi.

Maynaning yarasi bitib, qanotini osiltirib yuradigan bo'lib qoldi. Jahongir hamon uni qo'liga oldimi: «Xoliq, Xoliq!» deydi. Mayna tutilgan xo'rakni ko'rdim demaydi-yu, nuqul «qiyq-qiyq», deb ovoz chiqaradi.

Jahongir Oloviddinxo'jani yaxshi tanib olgan. Unga yov ko'z bilan qaraydi. «Yomon odam», deb o'ylaydi va uni ko'rishi hamono yodiga kulrang, baroq mushuk tushadi.

Goho mayna bilan «gurung» qiladi:

— Xoliq, sen gapimni tushunyapsan. Yashirma... Dadang bilan opang ham ketib qolishdi-ya! Sog'inasanmi ularni? Boqqa opchiqaymi? Bilasanmi, direktor yomon odam... Bir kun boqqa opchiqaman. Sheriklaring bilan o'z tilingda gaplashasan. Xoliq, de. Xoliq...

Bir kuni u yo'lakda, xolodilnik oldida atrofga alanglab kelayotgan Oloviddinxo'jaga to'qnashdi.

— Mayna yo'q. Yo'q! — dedi shosha-pisha.

— Nima?

Jahongir unga birpas baqrayib qarab turdi-da, xonaga chopib kirdi.

Qamariddin ishga berilib ketdi. Xonada dik-dik sakrab, goho pir-pir qanot qoqib yuradigan maynaga endi parvo qilmaydi. Juda joniga tegsa, «kisht», deb qo'l siltaydi. Yoki devorni mushtlab: «Jahon! Bunga qara!» — deb baqiradi.

Mayna qo'shnilariga ham yoqib qolgan. Qushni ko'rganlar «arzanda bola» haqida gapirishadi, uning miltiq otishini kutayotganlarini so'zlashadi, so'ng Jahongirga Oloviddinxo'jadan ehtiyot bo'lishni uqtirishadi: bir juft qaldirg'ochning ini buzilgani ko'pchilikni xafa qilgandi.

Bir kuni ona, bola, ota xonada gaplashib o'tiri-shar, Qamariddinning kayfi chog', gapdon bo'lib qolgan edi:

— Maqola yarmidan oshdi!.. E, ishlash kerak! Rosti, boshda xatoga yo'l qo'rganman. Na chora! Endi boriga bozor deb ko'nikishga majburman... Ba'zan hayron bo'laman-da. Biz — juda loqaydmiz, xotin! Yoki o'tmishimizda ulug' allomalarimiz shu qadar ko'p bo'lgan, tariximizda porloq odamlar shu qadar behisobki, biz ularga beparvo qarashga o'rganib qolganmiz... Chalg'ib ketdim... Lekin, xotin, men o'zimga tasalli berayotganim yo'q.

— Faraz qilamiz.

— Kim biladi deysan...

— Bilasizmi, siz tabiatshunos yoki tsirkchi bo'lganingizda, shu maynani allaqachon to'tiqushga aylantirib

yuborardingiz.

— Ana! Men bog‘dan kelsam, bu tog‘dan keladi.

— Gap uqtirishdan tolmaysiz, demoqchiman.

— A-a! Ammo sen ham noshukur banda. Kecha o‘zing: «Tuxum bosgan bu adang», deb yurgan eding.

— Gapimni egri tushundingiz. Qushni aytyapman. Jahongirning o‘rnida bo‘lganingizda, unga allaqachon «falsafa, tarix» degan so‘zlarni ham o‘rgatib qo‘ydingiz... O‘g‘lingiz esa, nihoyati... Jahon, maynani chaqir!

Jahongir kaftida qisib turgan kapalakni tutib ko‘rsatdi. Stol lampasi tagida turgan mayna bir cho‘qishda uni yutib yuborib, yana og‘zini ochdi.

— Xoliq, Xoliq, — dedi Jahongir. Maynaning ochiq og‘zidan tovush chiqdi:

— Xoliq, xoliq...

Qamariddin yuragi gursillab urib, qushga tikildi.

— Ey, men nima degandim! — dedi baqirib. Yana qushga tikildi. Qush ko‘zini asta yumdi. — Qiziq! — dedi u. — Insonning otini aytdi bu! Lekin beparvo!... Nima deganini bilmaydi! Buyoqda biz quvonyapmiz...

— Kecha aytgan edi, — dedi Ikroma. — Sizni chalg‘itmaylik dedik. Bugun Jahongir chidamadi.

— Jahon, yana bitta «Xoliq», de.

— Xoliq, Xoliq!

Qush ko‘zini ochmasdan takrorladi:

— Xoliq, xoliq...

— Tag‘in bitta ayt, o‘g‘lim!.. Men toza xursand qilding-ku! Tavba! Qushlar ham ajoyib jonzot-da! Lekin, o‘g‘lim, sen bu so‘zni mayna uchun refleksiga aylantirasan endi. Tushunyapsanmi? «Xoliq», deb chaqir. Oldingga kelmaguncha xo‘rak berma. Keyin, bir chaqirim joydan ham «Xoliq!» deb baqirsang, uchib boradi. Xo‘rak berar ekan-da, deydi... Umuman, bu boshqa narsalarniyam o‘ylashi mumkin.

Bir kech Qamariddin maqolaning ba‘zi olimlarga malol keladigan joylarini yumshatish haqida o‘ylab o‘tirarkan, xona tutunga to‘lib ketganini ko‘rdi. Tura solib, eshikni ochdi. Shu zahoti alangladi. Mayna... bo‘lsa chiqardi. U joyiga qaytib o‘tirdi. Nihoyat, de-raza tepasidagi darchadan yelvizak esa boshladi. Qama-riddin o‘rnidan turdi-da, yo‘lakdan pir etib uchib o‘tgan qushni ko‘zi ilg‘ab qoldi. Shkafni shart ochib, tortmaga qaradi: mayna yo‘q... Shunda yo‘lak adog‘idan kelayotgan shovqin diqqatini tortdi:

— Nima gap bu? — deya zo‘riqib gapirardi Oloviddinxo‘ja. — Klava, o‘lganmisan? Eshikni nega ochib qo‘yding? Vey-ve-ey! Gilam rasvo bo‘ldi... Shvabra qani? Hayda uni!... Bultur nima degan edim senlarga?!

Qamariddin yo‘lakka chikdi. Shunda xolodilnik us-tiga kelib qolgan mayna burila solib, xonaga kirdi. Qamariddin eshikni yopib, qo‘l qovushtirdi.

— Bir qoshiq qonimizdan kechasiz, — dedi u Oloviddinga.

— Siznikimidi?

— Ha... Qo‘shni bola otgan ekan. Davolab oldik. O‘g‘ilchaga o‘rganib qoldi.

Oloviddinxo‘ja boshini tez-tez silkitdi-da:

— Mumkinmi? — dedi. Qamariddin eshikni ochdi. Oloviddin kirib, stol lampasi qoshida qanotini tumshug‘i bilan titkilayotgan qushga qovog‘i ostidan tikildi. So‘ng: — Hidi o‘rnashib qopti. Sizga bilinmas ekan-da, — deya enkayib karavot va stol ostiga qaradi. O‘tirib qo‘yipti jonivor. Oppoqqina qilib... — So‘ng qomatini rostlab tomog‘ini qirdi. — O‘qigan, mulla odamsiz, domla. Bilmadim, o‘z o‘rningizni bu ahvolga solib qo‘ymas edingiz, deyman. O‘ylash kerak ekan-da. — U yana tez-tez bosh chayqab chiqib ketdi.

Qamariddin eshikni tepib yopdi. Xo‘rsinib, xonada nari-beriga yurdi. Maynani shap ushlab, tortmaga soldi. Boqqa chiqib, xotini bilan o‘g‘lini topdi.

— Ha, adasi?

— Chatoq bo‘ldi.

— Nima gap?

— Sezmay qopman, mayna koridorga chiqipti... Oloviddin olovimni chiqardi. — Keyin jahli tutib ketdi. — Bir kun xonangda tursa, bir nima bo‘p qolmasding! Mening xayolim joyida emas! Oxirgi abzatsni ishlayotgan edim.

— Bir nima qildimi u?

— E-e... Sen ham ko‘p javdirama! Maynang shkafda! Bor, ol. U menga kerak emas, senga kerak!

Jahongir chopib ketdi. Yo‘lakdan o‘tayotib, Oloviddinxo‘jaga to‘qnashdi. Birdan to‘xtadi-da:

— Siz yomon odamsiz! Yomonsiz! — dedi.

Oloviddinxo‘ja uning... cho‘g‘dek gilamga tushgan izlariga qarab qoldi. So‘ng eshikdan chiqib, marmar zinadagi nam to‘shamaga tikildi. Jahongirning oyog‘i albatta unga tegmagan edi. Oloviddin ro‘paradan kelayotgan Qamariddin va Ikromani ko‘rdi-da, burilib, devor yoqalab ketdi.

— Ketvoraylik! — dedi Ikroma. — Shuning qovog‘iga qarashimiz qolganmidi!

— Mening ishim chalaroq.

— E, sizdan olim chiqmaydi!

— Senga quloq solsam, tarixchiyam chiqmas edi mendan.

Qamariddinning maqolasi bitdi. Endi uni Toshkentga yuboradigan bo‘lsa, qaysi gazeta tezroq bosib chiqarishini o‘ylar edi. Ikroma tag‘in uy qayg‘usiga tushgan, kunora shaharga qo‘ng‘iroq qilib, uyim tinchmi, deb qo‘shnilardan so‘raydi.

Jahongir esa «Xoliq»ni shaharga olib ketganda, qachon balkonga chiqarish, qachon qo‘yvorish va chaqirib olishni o‘ylaydi.

Bularning safari qarib qolganidan xabardor qo‘shnilar xonaga serqatnov: maynani — ermakni ko‘rib, jilmayishadi; uni shaharda qanday boqish xususida Jahongirga maslahatlar berishadi.

Kechki payt. Bog‘ adog‘idagi anhor. Qamariddin: «Ketar jafosiga», deb yechindi, suvga tushdi.

— Oh-oh! Ikroma, sen ham yuvin!

— Odamlar bor-e... Jahon, sen cho‘mil!

Jahongir o‘t-o‘lanlar orasidan chigirtka ovlayotgandi, birdan baqirib yubordi:

— Muni qarang! G‘ij-g‘ij chigirtka!

Ikroma o‘g‘lining yoniga bordi. Chindan ham sarimsog‘i kavlab olingan jo‘yakka anhordan suv toshgan, jo‘yak pushtalari, xas-cho‘p aralash oppoq ko‘piklar ustida chigirtkalar g‘ujg‘on, uyoq-buyoqqa pitillab uchishar, suvga botib «suzishar» edi.

Qamariddin cho‘milib chiqquncha ona-bola bir do‘ppi chigirtka terishdi.

— Dadasi, shu chigirtkalgayam odamning rahmi keladi-ya!

— O! Ana tabiatning kuchi! — deb xitob qildi Qamariddin. — Faylasufsan, xotin!

— Jahon! Bo‘ldi qil, ketamiz. Ovqat mahal bo‘p qoldi. Bu qurg‘urning shirasi bo‘lar ekan-a! Nega qoni chiqmaydi muning? Ushlasang, oyog‘ini tashlab uchib ketaveradi.

— Tabiat shunaqa. Shunaqa, xotin!... Bilasanmi, nima uchun tabiatni yaxshi ko‘raman? Bunda bepoyon bir mangulik bor!.. Mana, juda xafasan, deylik. Yoki tarixda yuz bergan bir xatolikdan qalbing yara. Yoki juda xursandsan. Sababsiz xursandsan, deylik. Ana shunda tabiat qo‘yniga chiq — birdan xotirjam bo‘lib qolasan, birdan! Dunyoning asli haqiqati mana shunda, deysan, xotin.

Shimining tizzalarigacha loy bo‘lgan Jahongir hansirardi.

— Adavoy, shaharda chigirtka yo‘g‘-a?

— Juda oz. Boshqa narsa berasan-da. Masalan, go‘sht.

— Kolbasa.

— Ammo-lekin, Jahongirboy, sizniyam bu yerga kelganingiz zo‘r ish bo‘ldi!

Biroq xonada ularni xunuk fojia kutayotgan ekan.

— Xolik! Xoliq!

Mayna javob bermadi.

Shunda Qamariddin bilan Ikroma ham xonaga kirishdi.

— Ada, Xoliq yo‘q!

— Eshik ochiq ekanmi?

— Salgina... ochiq ekan! Topib bering! Siz chiqargansiz!

— Jinni! — Qamariddin shkafni ochdi. Divan, stol, karavot tagiga qaradi. Isitgich batareyalari orasiga boqdi. Burilib, eshikni ochdi-yu, itarib yopdi. Eshik zichlanib qoldi. — Mana, eshik yopildi!.. Qattiq itargan bo‘lsam, ochilib qoldimikan, deb o‘yladim. — U xotiniga tikildi. — Oloviddinning ishi!.. — Yana tashqariga chiqdi. Ikkita qo‘shni tashvishlanib turar edi. — Mayna yo‘q.

— Biz ham yaqinda keldik... Yo‘qmi?

— Yo‘q. — Qamariddin vannaxona tomon ketdi. Derazaga qaradi: berk.

Shunda yo‘lak adog‘ida Oloviddinxo‘ja ko‘rindi. Ham-ma unga tikilib qoldi. Jahongir yig‘lab yubordi:

— Shu kishi o‘ldirib qo‘ygan!.. Otgan! Oloviddin ko‘zlari pirpirab:

— Nima gap? — dedi.

— Tinchlik, — dedi Qamariddin. — Mayna yo‘q, xolos. Yerga kirganmi, ko‘kka uchganmi — yo‘q. — So‘ng birdan kinoyali jilmaydi. — O‘zlari bir balo qildilarmi-yov? Aytavering... Biz o‘lib qolmaymiz. Faqat bolaga qiyin bo‘ladi-da.

Oloviddin qo‘llarini yozdi.

— O‘qigan odamsiz, domla. O‘shanda bu to‘g‘rida gaplashgan edik. Sal achchiq qilib chiqdim. Shunchalik ham deymaymi? Siz mehmonsiz, ketadigan odam...

Topib be-er! Topib bering maynamni! — Jahongir qancha ko‘p yig‘lasa, mayna shuncha tez topiladigandek yer tepina boshladi.

Qamariddin:

— O‘chir! — deb tashqariga chiqdi. Uy biqiniga o‘tdi. Jahongir ham chiqib, ariq bo‘yidagi xazonlarga tikildi. Yana chinqirdi. — Yig‘idan nima foyda! — deya baqirib yubordi Qamariddin. — Chaqirsang-chi! — So‘ng qo‘shnilarga qarab, «faylasufona», mung‘aydi: — Bir narsaga mehning tushmasin. Tushgandan keyin yo‘qolib qolsa, yomon kuyasan-da.

— Xoliq, Xoliq!

Birdan devor ustidan ovoz eshitildi:

— Xolq, xolq...

— Ana! Xoli-iq!

Shu payt ariq bo‘yidagi chinor ayrisidan otilib chiq-qan baroq mushuk qanotini endi yozgan maynani shart tishlab, pastga tushib ketdi. Ariq yoqalab ura qochdi.

— Mushuk!

— Hoy!

— Choping, adasi!

— Dada-a!.. Xoli-iq!

Mushuk chinorlar ortida ko‘zdan pana bo‘ldi. Lekin maynaning nolasi baralla eshitilardi:

— Xolq, xolq...

Mushuk maynaning belidan tishlaganча piyozpoyaga qochdi.

Qamariddin simga chalinib yiqildi. Jahongir dadasidan oshib, ariq bo‘yiga borib qoldi. Yana yig‘lab, kesaklar ustiga o‘tirib oldi. Qamariddin ariqdan hatlab o‘tdi.

U bog‘ oxirida keza-keza horib qaytdi. Jahongir ariq bo‘yida o‘tirgancha hiqillar edi.

— Yo‘q, o‘g‘lim. Nachora. Birniki o‘tdan, birniki suvdan deganday...

— Yo‘-o‘q!

Ikroma o‘g‘lining bilagidan tortdi.

— Bo‘ldi. Bas endi!

— Xoliq, dedi, opa! Bizni chaqirdi.

— Men ham eshitdim... Bas endi! Yana bitta mayna topamiz...

— Yo‘q. Menga Xoliq kerak.

...Qamariddin ovqatga zo‘rg‘a chiqdi. Xayoli chalg‘iganini sezib: «Unutish kerak endi, — deb uqtirdi o‘ziga-o‘zi. — Vassalom. E, bu olamga nimalar kelib ketmaydi. — Bu-ku bir mayna ekan... Odam o‘ladi! Butun-butun xalqlar qirilib ketishi mumkin...»

Ikroma ham ovqatdan nomiga tatigan bo‘ldi. Oqila opa stol qirrasiga qo‘lini tirab:

— Men aytgan edim-ku, aytgandim-a! — dedi.

— Iloyo, uning bolasiyam shunday...

— Unda bola yo‘q.

Nihoyat, Ikroma ham Oloviddinni ichida qarg‘ay-qarg‘ay, erini urisha-urisha hovridan tushdi.

Ketadigan kunlari Jahongir yana ariq bo‘yiga bordi.

«Xoliqning adasi bilan opasiyam yig‘lagan. Bolalarini mushuk opqochganini bilgan». U ariq yoqalab jildi. Piyozpoyada to‘xtab qoldi. Yana Xoliqni topib olgan joylariga keldi.

Tepasida chinor shoxlari, qushlar chug‘urlashar, nozik hiddar kelar, biroq Jahongir bularni his etmas, yurakkinasi bo‘m-bo‘sh edi.

Shunda tepadan uchib o‘tgan maynalarga diqqati og‘di. Nazarida, Xoliq o‘sha kuni mana shu devor ustiga qo‘nib turganda, sheriklariga o‘z tilida ancha-muncha gapirgandek tuyuldi. Albatta, «men Xoliq», degan. Bular bir-birining so‘zini tushunadi-ku! Meniyam aytgan... «Chigirtka terib berdi», degan. «Oloviddin yomon»,

degan. «Haydab chiqarib, derazani bekitib qo'ydi», degan...

— Xoliq, Xoliq!

— Qiyq-qiyq!

Maynalarning ovozi endi Jahongirga «Xoliq» bo'lib eshitildi. Keyin: «Albatta-da, — dedi yana. — Xoliq deyishyapti... Yaxshi o'rganmagan-da bular. Ular-gayam ko'p-ko'p «Xoliq» desa, o'rganib olishadi. Lekin ular bilishadi: xoliq — yaxshi degani. Sizlar — Xoliq. Men — Xoliq».

— Xoliq, Xoliq!

— Qiyq-qiyq!

Qo'shnilar ularni avtobusga kuzatib qo'yishdi. Ular uylariga yetmasdan Qamariddin Toshkentga tushib-chiqishga ahd qildi.

— Bozorga kirib o'taylik. Uy qoq-quruq, — dedi Ikroma.

Jahongir derazadan olislarga boqar, olislarda... xoliqlar uchib yurar, o'zaro gaplashishar, Jahongir ularning so'zlarini tushunar edi.

1982

YANGI ZOT

Do'stim Izzatilla Qahhor o'g'liga

Denov bozori. Surxonda eng gavjum bozor. Bu yerda, eshitganimiz, unda-bunda tarixda o'qiganimiz va tasavvurimizda shakl topgan qadim Sharq bozorlarini esga soluvchi bir nimalar bor.

Mitti yaprokdari gezarib, chang qoplagan yolg'iz akatsiya daraxti tagida alyuminiy stol yonida kabob pishishini kutib, chekib o'tirar edim. Yon-verimdagi stollar atrofida odamlar ovqatlanishyapti. Mening stolim qoshida — bir o'zim. O'zga stul ham yo'q.

— Aka, mumkinmi?

Tepamda rangi oqargan — qoni yo'q, ammo o'zi qoramag'iz, o'rta bo'y bir yigit turibdi. Egnida yengi kalta, oldi tugmali, yerrang kitel, boshidagi och-sariq shlyapaning gardishi ustidan aylantirilgan tasmasi terdan qorayib-sho'ralab ketgan. Uni, daf'atan qaragan kishi yo dala brigadiri, yo hisobchi, deb o'ylashi mumkin edi.

Ammo uning suyanchig'i qiyshiq stulning oyokdarini yerga tegizib-tegizmay turgan holda: «Mumkinmi?» deb so'rashi...

— Bemalol, — dedim.

U stulni qo'yib, narida kabob tutuni burqsiyotgan tomonga qarab:

— Uka, biz shu yerdamiz! — dedi-da stolga ko'z solib, turib ketdi. Odamlar oralab yurib, bir juft chapati non olib keldi. — Issiq ekan. — U nondan birini ushatdi. — Oling.

«Uni biron yerda ko'rganmanmi?» — deb yuziga zehn soldim: tanimas ekanman. Bir piyola choy uzatdim.

— Rahmat, aka!.. Kun ham rosa isidi-ya?

— Yozning kuni-da, — dedim. — Salqinroq tomondanmisiz, deyman?

U siniq jilmaydi. Labining ikki cheti tirishdi. Soqolini ikki kundan beri olmagani aniq edi.

— Ha, tog'dan, — dedi. — Uyoq salqin.

— Men ham supotropik bog'ni ko'rgani kelib edim, — dedim. — Tamaddi qilib olay deb, shu yerga o'tirdim.

— Go'shti sal dimiqqanga o'xshaydi, — u tutun kelayotgan yoqqa qarab qo'ydi.

— Chorvaga aloqangiz bormi?

U yana jilmaydi. Shunda ko'zlariga e'tibor berdim: tiniq, uyatchan, faqat bola nigohiga xos bir ifo-dalar bor edi.

— Ha, ha, — deya boshini ko'tarmasdan silkitdi. So'ng menga qaradi. — Bu yerning odamiga o'xshamaysiz?

— Termizdan keldim.

— A-a. — U xo'rsinib, yana boshini liqillatdi. — Chorvaga aloqamiz bor.

— Ferma mudirimi? U kulib qo'ydi.

— Io'q... Cho'ponmiz, aka, cho'ponmiz.

— Cho'pon emassiz.

— E, nima farqi bor... — U yana turib ketdi. Choynak, piyola ko'tarib keldi. Choyni qaytarar ekan, darvoza tarafga ikki-uch qarab qo'ydi-da, stulini bu tomonga o'tkazib, darvozaga orqa qilib o'tirdi va menga tag'in iliq jilmaydi.

— Nima gap? — dedim, odatda, bunaqa vaqtlarda tanishingning o'zi gap aytmaganucha unga savol berish odobdan emasligiga aqlim yetsa-da...

— E! — dedi u yana va chap qo'lini silkitgan kabi ko'tarib qo'ydi. So'ng tirsaklarini stolga, barmoqlarini bir-biriga chalishtirib iyagiga tiragan ko'yi kabobpazga ko'z tikdi.

Men yana bozorni tomosha qilish umidida uyoqqa qaradim.

— Ko'p ish qilish kerak, ko'p ish... — U stoldagi yozuv-chizuvlarga tikildi. — Ko'p ish... — So'ngra menga samimiy kulib bokdi. — So'raganning aybi yo'q: kasbingiz nima?

— Muxbirlik...

— A-a! Bo'ldi-bo'ldi! — dedi u va menga bosh-oyoq qarab chiqdi. — Yaxshi... Har qanday kasb ham yaxshi. Chorvadorlik ham. Chorvachilikda, eng muhimi, aka, menimcha... — U birdan sovuq tus oldi. Ko'zlarida bola nigohi yo'q: jiddiy, vazmin, hatto qattiqqo'l kishining ko'zlarini ko'rib turardim endi. — Zotni yaxshilash kerak! — dedi u.

—A, bu zo‘r gap! — dedim. — Mana, sizday kishilarning qo‘lidan keladi-da, bu ish... Unda yozish-chizish uchun bizgayam gap topiladi... To‘g‘rimi?

U menga «jo‘r» bo‘lib ohista kuldi.

— Aka, menga yokdingiz... ichasizmi?

— O, yo‘q!

— Men o‘zim ham ichmaydigan odamman!

— Unday bo‘lsa, nega...

— Bilmayman! — dedi u va yana stolga tikildi. — Aytaymi?

— Bemalol bo‘lsa...

— E!

— Qulog‘im sizda.

Bozor. G‘ala-g‘ovur.

...Bu yigitning ismi — Islom. Islom Oqbo‘taev. Tog‘dagi rayonda — sovxozda bosh zootexnik bo‘lib ishlar ekan. Bu yil Frunze shahrida qishloq xo‘jalik fanlari kandidati unvonini olish uchun dissertatsiya yoqlarkan.

Mavzusi...

Uning hikoyasi davomida men quyidagi narsalarni o‘zimcha tasavvur qildim.

Tap-taqir yer. Loysuvoq qilingan kulba, kulba ol-dida yero‘choq, qumg‘on. Kun tig‘ida so‘fito‘rg‘aylar uchadi. Suvi qurigan ariq bo‘yidagi yulg‘unlar soyasiga o‘zini uradi.

...Kulbadan oq xalat kiygan yigit chiqadi. U yuz qadamlar yiroqda, atrofi uch paxsa devor bilan o‘ralgan qo‘ra-og‘ilga yo‘l oladi.

Qo‘rada ajabtovur maxluqlar: shoxi yo‘q, oyoqlari kalta-kalta, semiz va ola-bula buqachalar, tanachalar.

Oq xalatli yigit baland darvozadan kirishi bi-lan ular — ajabtovur hayvonlar past-past ovozda bo‘kirishib, yigitni o‘rab olishadi. Yigit ularning manglayini silaydi. Erkalab, qo‘raning u chetidagi tevaragi uzun-qisqa xodalar bilan to‘silgan yo‘laksimon «qafas»ga yo‘l oladi. Qafasning ichida tarozi bor. Nari tomonda to‘rtburchak, baland stol. Unda qalin daftar, mol doktorida bo‘ladigan har xil asboblar.

Yigit bir payt qo‘radan qaytib chiqadi. Ajabtovur mollar past-past tovushda ma‘rab, darvoza tirqishidan qarab qolishadi.

...Bu mollar og‘ilda ham, olamda ham yo‘q mahal. Bu yigit sovxoz qoramollarini ko‘zdan kechirib yurib, archali tog‘ ostida haybatli, semirib ketgan bir buqani ko‘rib qoladi.

— Nima balo u?

— Aberdin Angus... Chet eldan sotib olingan. Zotli buqa... Yovvoyi bo‘p ketdi.

— Nega sotib olingan edi?

— O‘zimizning jaydari sigirlarni bilasiz... Sutiyam kam, go‘shiyam. Ularni shu bilan qo‘shsa, yangi bir zot chiqarmi, deb o‘ylashgan-da...

— Keyin?

— Shu ko‘rib turganingiz... Mutaxassis bo‘lmagandan keyin bu ishni kim qiladi.

— Ilgarigi mutaxassislar-chi?

— Ha, qiziqish bo‘lishi kerak-da.

...Uch kundan keyin haligi yovvoyi buqa... anavi og‘ilga olib kelinadi.

Uch yildan keyin ajabtovur mollardan bir poda paydo bo‘ladi.

Yosh zootexnikning o‘zi «yaratadi» bu zotni.

Bu orada aspiranturaga kiradi.

To‘rt yillik tajriba o‘z natijasini beradi: zot «o‘zgarishsiz» qoladi... Kandidatlik tayyor, refarat bosmadan chiqadi...

— Haliyam o‘sha kulbada yashayapsizmi? — deb so‘radim. -Ha.

— Ota-onalaringiz rayonda?

— Markazda.

— Nega darvozaga muncha qaraysiz? UZR...

— E!

— Xo‘sh, bu yerga — Denovga nima ish bilan keldingiz?

Islom iljaydi.

...Ajabtovur zotga u «Eng yangi zot» deb nom qo‘yadi. Illo, yangi qoramol zoti Qirg‘izistonda,

Qozog‘iston-da, Tojikistonda ham yaratilgani holda, O‘zbekistonda hanuz yaratilmagan edi.

Utgan kuni Islomni sovxoz direktori kabinetiga chaqiradi.

— Xo‘sh, endi «Eng yangi zot» buqachalarni nima qilasiz?

U gangib qoladi.

— Nima? — dedi va uning fikrini tushunadi: «Bir podada ko‘pi bilan besh-o‘n buqacha qolsa, bas. Boshqasi... go‘sh-tga!»

Bugun... uch mashinaga ortib jo‘natdik. — Islom stoldan ko‘z uzmasdi. — Podachi bor. Ikkita. — U ko‘zi g‘ilq yoshga to‘lib, kabobpazga tikildi. — Ko‘nglim buzildi, aka... Mehr qo‘ygan ekanman, shekilli, jonivorlar... Mashinaga... bortga men chiqqandan keyin chiqishdi, taxtadan yurib... Menga onasiga qaraganday qaraydi — U ko‘zini artib, tiniq jilmaydi. — Qiziq-a? Yo‘q, siz meni ko‘ngli bo‘sh haligiday demang. Otam ham chorvador...

— Tushunaman, — dedim.

U lablarini qimtib, yana ko‘zlarini artdi.

— Aka, ichaylik!

— Hozir... Shunday qilib, go‘sh-tga topshirib kel-dingizmi?

— U boy punkti, kushxonamiz shu yerda... Darvozadan mashinalar kirdi... Men tushasolib qochdim. — U yana kuldi. — Qiziq-a?

— Hm...

Shunda u yana darvoza yoqqa qaradiyu:

— Obbo! — deya stolga «qoplanib», boshini egdi.

G‘ujg‘on odamlar orasidan chiqqan oriq, shamol bo‘lsa sollanadigan tog‘-terakni eslatuvchi novcha yigit oyog‘idan bir narsa orqasiga tortayotganday surilib-tortilib bosib, stolimiz qoshiga keldi.

Islomning ikki kiftiga ikki kaftini qo‘yib, unga yondan qiyshayib tikildi.

— Ha-ha-ha!

— Nima, ha-ha? — Islom kiftini silkitib, unga olaydi.

Keluvchi qaddini rostlab, burnini tortdi.

— Jo‘ra, bormasangiz bo‘lmaydi!.. Hammayoqning to‘s-to‘poloni chikdi. Biriya tuttirmaydi o‘zini. Kushxonani boshiga ko‘tarib bo‘kirishadi... Qonning isi ta‘sir qilganmi, kim bilsin. G‘olib ham sizni qidirib yuripti...

— Bormayman! — dedi Islom. — Jo‘na! Meni ko‘rganing yo‘q.

— A, ular nima qilsin, bechoralar? Kushxonaning bari kattasi yig‘ilgan...

— Sen aytgansan-da, Islom bo‘lishi kerak deb!

— Men aytmam ham, o‘zlari sezishdi... Siz darvozadan chiqishingiz bilan orqangizdan yugurishdi ma‘rashib jonivorlar... Sezdingiz-ku o‘zingiz?

Islom menga tag‘in jilmaydi... Jilmayishmi bu? Titrab ketdim: uning holati menga ham yukdi.

— Nima qil deysiz, aka? — deb so‘radi u.

Men yelkamni qisdim.

— Bugun so‘yilishi kerakmi?

— Ha-da.

— Siz so‘yiladigan xonaga kirsangiz, bas, — dedi novcha yigit. — Ular izingizdan kiradi...

— Uf.

— Tushunib turibman, sizga qiyin, — dedim.

— Munday bo‘lishini bilganimda... shu ishga qo‘l urmas edim.

— Bari bir shunday bo‘lishi kerak edi. Hamma narsa inson uchun deyishadi-ku.

— Rost-rost.

Novcha «ish pishdi» degan ma‘noda yengil tortib chetlandi. Islom o‘rnidan turdi-da, qabobpazga baqirdi:

— Uka, keyinroq kelaman!.. — Menga qaradi. — Men tez qaytaman.

— Xo‘p, — dedim. — Kushxona uzoqmasmi?

Bu yigitning xatti-harakatlari meni qiziqtirar edi.

— Men ham saldan keyin kelaman, — dedim kabobpazga.

G‘ala-g‘ovur bozordan chikdik... Ko‘cha. To‘rt qavatli imoratlar. Mashinalar... Eshitganimiz va unda-bunda tarix kitoblarida o‘qib, rassomlar asarlarida ko‘rganimiz qadim Sharq bozorlarini eslatuvchi «narsalar» bozorda

qoldi.

Asfalt yo'lka. Chetida manzarali butalar.

— Bu orada qiynalgan bo'lsangiz kerak, Islom?

— A-a, oson bo'lmadi, aka... Sen sovxozning ishini qilasanmi, ilm qilasanmi, degan o'rtoqlar ham chiqdi. Karerist degan ta'nalarni ham eshitdik. Chidadik. Keyin tushunishdi... Ishning qaltis tomoni ham bor edi: yangi zot yaralmay, yo otasi yo onasiga tortib ketishi, yoki uch-to'rt yildan keyin aynishi mumkin edi... Ilmdayam bir oz tavakkalchilik kerak ekan. Jur'at deymizmi...

— Bularsiz yozish ham qiyin.

U kulib qo'ydi.

— Podaxona qoshiga ko'chib kelganimni ko'rib, ayrimlar: «Islomga bir balo bo'пти», deyishdi... Iloj qancha. Markazdagi issiqqina kvartirada o'tirsang, o'tiraverasan.

— Kandidatlik yokdash ham osonmas, shekilli?

E, turgan-bitgani g'alva ekan... Lekin meni kandidatlik diplomi qiziqtirmaydi. Zotni rasmiylash-tirish zarurda.

— Endi o'sha mollarning qismati nima bo'ladi?

— Buyam bir masala. Ularni ko'paytirish kerak, xolos. Alohida cho'pon, alohida poda... Chorva ishi paxta ishidan ham nozik, aka: dehqon bir yilda hosil olsa, chorvador — qirq yidd, deydilar.

— Bu yigit kim?

— E, maktabda birga o'qiganmiz. Podachilardan bit-tasi... Menga yaxshi yordamchi kerak edi. Shu podani boq, deb iltimos qilib edim... Bu o'lgurning diydasini qattiq.

— Qo'ysangiz-chi, — dedi podachi. — Meniyam rahmim kelyapti jonivorlarga.

Islom menga yondashib, yana tiniq iljaydi.

— Odamzot qiziq-a?

— Delfinlar ham poda-poda baliqlarni haydab yurarkan. Qorinlari ochganda yer ekan...

— Ha-ha-ha!.. Lekin ular achinarmikan o'sha baliqlarga!

Men unga qaradim.

— Bilmadim... Ular buni tabiiy hol deb bilsalar kerak.

...Shu qisqa, yo'lakay aytilgan gap-so'z Islomga tasalli berishi, balki uni bu holga ko'nikishga majbur etishi kerakday edi.

Biroq, u kushxona darvozasi oldida xalat kiyib, ichkariga kirarkan, ko'zlari yana g'ilq yoshga to'ldi. Otilib kirib ketdi. Men darvoza biqinidagi eshikcha og'zida turib qoldim. Ola-bula, oyoqlari kalta-kalta, shoxsiz mollar Islomni qanday qilib tanishdi? Oldin biri, so'ng ikkisi, so'ng hammasi bo'kirib, unga tashlanishdi. Ular Islomning qo'llarini yalar, xalatini yamlar, ko'zlari kattarib ketgan, pishqirishar edi: aqlari yetsa... Islomni bu yerdan olib chiqib ketishsa!

Islom ham ularni silar, ba'zisining tumshug'ini ushlar va sahn o'rtasiga asta-asta jilar edi.

— Buyoqqa, buyoqqa!

Islom oldinga bosdi... Mollar ham tipirchilab ergashib borardi. Islom to'xtab, ularga qaradi-da, so'ng biz tomonga o'girildi. Keyin bir narsasini unutgandek qo'l siltab, buyoqqa yo'naldi. Mollar ham tag'in unga ergashishdi. U tez-tez qadam otib kelar, kaftlarini bir-biriga ishqar, xuddi qo'lini yuvadigan yo suv ichadiganga o'xshardi — qaqroq lablarini yalardi.

Eshikka yetdi-da, menga iljaydi. So'ng... olim yi-git, zootexnik yigit... Otilib yo'lakka o'tdi. So'ng, ko'chaga. So'ng... mollarning nafasini sezib, buyoqqa qaragam ular tiqilishib kelib qolgan, surilishyapti. Qochmasa yo o'zimni chetga olmasam, meni bosib ketadigan. Men birdan eshikni ular yuziga yopib, zanjirini ildirdim. Nega bunday qildim — bilmayman. Ehtimol, shunday qilishim kerak edi.

Nihoyat, men ham ko'chaga chiqdim.

Mening (yoqtirib qolgan) tanishim... Islom yo'q edi.

...Oradan bir yilcha vaqt o'tgach, Beshtepaga borib qoldim. Yaylovda yoyilib yurgan oyoqlari kalta-kalta, biqqa semiz, shoxsiz mollarga ko'zim tushdi: «O'sha zot!» Quvonib ketdim: bu qoramollar menga ham suyumli bo'lib qolgan edi.

— Bularning egasini... «ixtirochisi»ni taniyman,— dedim.

— U hozir chorva sohasidan ketgan. Qurilishda ishlaydi. O'qtin-o'qtin bu yergayam kepturadi, ko'rgani... — dedi hamrohim.

Men uni negadir yanayam yaxshi ko‘rib ketdim.

1982

KIMSASIZ HOVLI

— Oy borib, omon kel, bolam. Sendan boshqa suyanchig‘im yo‘q... — Umar aka o‘g‘li Ummatning ko‘ksiga peshanasini ishqab-ishqab yig‘lar, Hosila opa uning yelkalarini silab-siypar edi.

— Ena! Ota deymen! Urushga ketayotganim yo‘q-ku, kelaman! — derdi Ummat g‘ashlanib va allanechuk quvonib.

— O, bolam, meni!..

— Tez-tez xat yoz!

Mashinalarga chiqishga buyruq berildi. Ota-onaning gaplari ado bo‘lmay og‘izlarida qoldi. Ummat ularning bag‘ridan chiqib, mashina kuzoviga intildi. Askar yigitlar allaqachon o‘tirib olishgan edi. Mashina ham Ummatning chiqishini kutib turgandek jildi.

Umar aka bilan Hosila opa ham boshqa ota-onalar qatori orqaga qaytishdi. Umar aka shalog‘i chiqqan «Volga»siga kirib o‘tirdi. Hosila opa ham joylashgach, sekin, qo‘llari qaltiragan holda haydab ketdi.

Shu kuni ular ishga chiqmadilar. Ummatjon harbiyga ketmas bo‘lsa, turgan gapki, magazinda bo‘lishardi. Er-xotin dam olish kuni nimaligini bilmasdi: birlamchi, ishni sevganlaridan. Ikkilamchi, omborda, magazin ortidagi omborda qancha mol bor! Uni Barbosga ham ishonib bo‘lmaydi. Nima, bir itni bir narsa berib o‘ldirish qiyinmi?

Qorovul Qadambek piyonista bo‘lsayam sergak, lekin bari bir... ichuvchiga ishonib bo‘lar eqanmi!

Xullas, bugun Umar aka bilan Hosila opaning necha-necha yillar davomida birinchi marta dam olishga chiqqan kuni edi. Ummatjonning ketishi kerak bo‘lib qoldi-da. Yo‘g‘asam-ku...

Ular hovliga yetishdi. Hosila opa temir darvozani ochib kirdi. Ichkaridan o‘tib, g‘ishtin garaj eshigini ochdi. Umar aka mashinani ichkariga qo‘yib chiqdi. Hovlidagi g‘arq pishib turgan bir tup xurmo tagiga — eski chipta kresloga o‘tirib, boshini egdi.

Hosila opa garajni yopib, erining qarshisida turgan boshqa kresloga xo‘rsinib cho‘kkan ham edi, ancha narida — Ummatjon bilan Qadambek yasagan yog‘och katak oldida cho‘zilib, o‘zlariga loqayd tikilib yotgan Jekka ko‘zi tushdi-yu:

— Voy-voy! — deb chayqaldi, — Siz-da, o‘zingiz-da! — dedi eriga. — Shuni opqolsa bo‘lardi...

— E, aljima, — dedi Umar aka ijirg‘anib. — Haliyam aqling kirmadi-kirmadi-da. Raykom sekretarining o‘g‘li ketayotganda, hazilmi senga...

— Hoy! — Hosila opa kreslo suyanchig‘iga musht urdi. — Nega meni nuqul aqlsiz deysiz? A! Axir, o‘ylab ko‘ring o‘zingiz...

— Uf! Yana o‘sha gap... E, men o‘lay!.. — Umar aka o‘rnidan turib ketdi.

— Sizniyam topganingiz shu.

— Bo‘ldi-bo‘ldi-i! Hozir shu gaplarning vaqtimi? Hosila opa jimidi. Yana ko‘zi Jekka tushdi.

— Uni yotishini ko‘ring! Voy...

Umar aka itga gangib tikildi. So‘ng qoshiga borib

398

cho‘nqaydi. Boshini siladi. It tumshug‘ini yerga cho‘zib ko‘zlarini xiyol yumdi.

— Shuyam xafa-ya! — dedi Umar aka.

— Xafa bo‘ladi-da! Egasi ketdi!

— Bunga bir nima berish kerak... Tashvish bilan bo‘lib, itni och qoldirdik.

— E-e... O‘zingiz bering.

Umar aka ko‘ksini uqalab o‘rnidan turdi.

— Unday dema, xotin. Zamon tinch. Hosila opa tag‘in yig‘lay boshladi:

— Bari bir-da...

Umar aka, nihoyat, qaddini rost tutib, temir panjarali derazalar tagidan eshik tomon ketdi. Yo‘l-yo‘lakay axlat paqir ichida tikka turgan supurgini olib, yotqizib qo‘ydi. Uvalangan raxlari chaplab yamalgan tsement zinadan ko‘tarilib, yomg‘ir suvidan bo‘yog‘i ko‘chib ketgan eshikni qo‘sh kalitda ochib kirdi.

Yo‘lakda o‘zini ancha bardam sezdi. Qandil chirog‘i yoqig‘li qolgan ekan. Yon devorlarning zarhal rangda tovlanishi, to‘rdagi eshikka tutilgan yapon ajdahosi og‘zini ochib turgan harir pardaning jimjimalari, poldagi cho‘g‘dek gilam uning ko‘ngliga allaqanday tasalli bergan bo‘ldi.

Keyin, u nimaga kirganini eslagandek, shoshib tuflisini yechdi-da, devorga o‘rnatilgan qizil telefon

apparatini ko'tarib, tagidan bir juft kalit oldi. To'rdagi eshikka yaqin chap eshikni ochdi.

Birpasdan keyin u parqu to'shakda, chetlari chetlariga moslab buklangan yashil, silliq, yaltiroq ellik so'mlikdan bir talayini kaftida silab o'tirar, lekin ko'zlari yoshli edi.

Allanarsani taqir-tuqir tushirib-tepib, Hosila opa kirib keldi.

— Utiribsiz.

Umar aka behol bosh irg'adi. Hosila opa erining qo'lidagi yashil pullarni ko'rib, tilla tishlarini shimib o'ylandi.

— Shu pul tuzuk, — dedi. — O'ntaliklaringiz yaramaydi. O'tgan oqshom sandiqni ochsam, ichida mita yuripti. Kim biladi hali...

Umar aka xotiniga olayib tikildi.

— Rostmi? — dedi asta.

— Ko'ring o'zingiz!!

— Uf-f.

Pullarda mitti-mitti hashoratdek dog'lar ko'ri-nar, ular juda bezordek edi. Umar aka sandiqqa engashdi-yu, xotiniga ma'noli qarab: «Bor!» dedi. Hosila opa tashqariga chiqdi. G'uborli osmonga, temir darvozaga tutash devorga qo'shilib o'sgan tolning sap-sariq barglariga ko'zlari qadalib o'tganicha, shippagini oyog'iga ilib-ilmay yo'lkaga tushdi.

Xonaga qaytib kirib:

— Hech kim yo'q, — dedi. — Lekin shu tolni kesish kerak. Ko'chadan bir sakrasa, qo'li yetadi kishining...

Umar akaning qulog'iga gap kirmas edi: u yumshoq tumbada — oyoqlari orasida uyulgan dasta-dasta pulga termilib o'tirardi.

— Shular, bir qarasang, oddiy qog'oz-a. Gugurt chaqsang, yonib ketadi, — dedi, nihoyat.

— Aljimang. Aljib qopsiz.

— He-e, xotin! — Umar aka qo'llarini tizzasiga tiradi. — Ha, aytmoqchi...

— Nima, «aytmoqchi?»

— Bir nima demoqchi edim.

— It! — deb yubordi Hosila opa. — Shuning boriga shukr.

— Ha... Vey, nimaga ovqat bermayapsan haliyam? Yana esli deydi o'zini.

— Xo'p, bularni... — Hosila opa pul uyumiga tikildi-da, birdan titkilay ketdi: pachkalarini olib, o'ngi so'liga qaraydi. Negadir hidlab ham ko'radi. Ba'zi dog'li, ezilganlariga ko'zi tushsa, burnini jiyiradi. — Bari bir, — dedi keyin, — elliktalikka aylantirish kerak.

— Ahmoq, o'ntalikda gap ko'p! — dedi Umar aka. — Bor. Itga qara.

— Sob qo'ying joyiga.

Umar aka bosh irg'ab, tag'in engashib oldi.

Bu pullar unga... ularga osonlik bilan kelmagan.

Rdamlarni aldashingning o'zi bo'lmaydi, har daqiqada yuragingni hovuchlab turasan; OBXSS bor, militsiya, jurnalist degan bir balolariyam bor... To'g'ri, ayrimining tomog'iga tashlasang, labini yalab chiqib ketadi. Lekin shundayam qo'rqib turasan: ko'nglida nima bor — kim biladi.

Oddiy xaridorlarning ichidayam olasi uchrab turadi.

Bu pullar o'z-o'zidan kelmagan, shuni deb er-xotinning umri sovrildi hisob...

Qurib ketgur ayrim baza boshliqlari yomon-da!

E-e, hammasining og'ziga bir narsa tutishingga to'g'ri keladi, hatto yuk ortuvchisi ham umidvor.

— Hoy, Jek ovqat yemayapti.

— Nimaga?

— Men qaydan bilay! — Hosila opa shunday deb, yana ko'ziga yosh oldi. — Ummatjon bo'lsa...

Umar aka shosha-pisha pullarni sandiqqa tashladi.

— Shubangni ol! — dedi jahl bilan. — O'shani chiqarganing uchun bunga haligilar tushgan!

— Qish kelyapti deb...

— Bari bir kiymaysan-ku?

— Uyda kiyaman!

Umar aka miyig'ida iljayib, chiqib ketdi. Hosila opa yoshligida o'yinchi bo'lgan. O'shanda rosa kiyinib yurardi. Umar akayam uni o'sha kezlar rosa o'ynatgan o'z doyrasiga...

O'shanda u kishi... yosh yigit — doyrachi edi. Odam boshda tutgan kasbini unutilmas ekan. Hosila opa ba'zan xushi kelganda, ya'niki, mo'may pul qo'lga kirganda: «Bitta cherting-e, yigit!» deb qoladi. Umar aka childirman tizzasiga tirab qo'yib, bilagidan chiqqancha qotib qolgan qiyshiq qo'li bilan chaladi.

Otasi doyra chalib, onasi o'yin tushganda Ummat-jon yotib-yotib kulardi. Bular xafa bo'lishmasdi. Ummatjonning kulgisi beg'ubor edi. Uning kulgisi sabab bularning zavqi oshardi. «Cherting-e, yigit!» — derdi Hosila opa battar avjlanib.

Jek hamon tumshug'ini cho'zib, ko'zlari mo'ltirab yotar, oldidagi sirli kosada turgan kolbasa kesimlariga qaramasdi. Umar aka tag'in uning boshini siladi. It quloqlarini bo'yni tomon pasaytirib, ko'zlarini xiyol yumdi, xolos.

— Tavba! — Umar aka inqillab o'rnidan turdi. — E, xotin! Qorni ochsa, yeydi.

— Ha, men ham shuni o'ylab turibman.

Yo'q, Jek boshqa qaytib ovqat yemadi. Hafta oxirida o'ldi.

Umar aka bilan Hosila opa Jekning o'limidan qattiq qayg'urishdi. Ummatjon Jekni yaxshi ko'rardi.

Ketar oldidan iti bilan rosa yalashib-yulqashgan, hattoki katagini ham yangilab bergan edi.

Bu fojiani unga sirayam bildirmasliklari kerak: xafa bo'ladi, tag'in xafachilikda biror ishkal chiqarmasin.

Har qalay, bu ahvolning ham tabiiy chorasi topildi: magazin omboridagi Barbosning bir bola-sini Qadambek orqali topib keltirdilar. Ajab! U Barbosdan ham ko'ra Jekka ko'proq o'xshab ketardi.

Hosila opa hovli devori ustini aylantirib tikanli sim bilan o'ratdi. Bu ancha xunuk edi; nimasi bilandir qamoqxona devorlarini eslatardi.

Biroq... olam hodis, bir nima deb bo'lmaydi.

Ichkarida ancha mol bor...

Sandikdagi pullar — ularning bir ulushy.

...Endi bular tarixidan ikki shingil so'zlash ham mumkindi. Umar aka o'n olti yoshida otasini poezd bosib ketgach, undan meros qolgan doyrachilikni kasb qilgan — rayondagi xalq teatrida biroz ishlab, ke-yin sayoq otarchilarga qo'shilib ketgan edi. Ko'p yurdi, ko'p topdi, topganini sovurdi. Albatta, u pullar suyuq ayollar yo'liga ketdi.

Bu orada Farhod kanali qurilishida ham bo'ldi. U yerda do'konchilik qilib yurganida, bor molini bir kavkazlik oshnasi urib ketib, o'zi u sovg'a qilgan bir papog'u bir xanjar bilan qoldi. Xayriyat, sog' chikdi.

Keyin yana doyrachilik...

Ittifoqo bir qish muzda sirg'alib yiqilib, qo'li bilagidan chiqib ketdi. Tabibga soldirgan edi, qiyshiq bitdi. Keyin to'g'rilataman deb nogiron qilib qo'ydi.

Bu uning uchun fojia bo'ldi: doyrani ilgarigidek zo'r chalolmas edi...

O'shanda bir o'yinchi qizga ko'ngil berib, u — «tegarman», bu — «olarman» bo'lib yurgan edi. Uyinchini topish osonmi! To'y ko'p mahali edi. Izlab-izlab ma'shuqasi xizmat qiladigan otarchilarni topdi. Lekin qiz ketib qolgan ekan.

Tavakkal qilib, uyiga borgan edi, bir po'rim bi-lan o'tirgan ekan. Uni «erim» deb tanishtirdi. Umar indamay chiqib ketdi.

Tentirab yurib, shu rayonga kelib qoldi-da, ochning ko'ngli holvaga ketibdi degandek, qo'g'irchoqlar do'koniga kirib qoldi.

Qarasa, mudira ko'ziga tanishday. Bir zamonlar o'z doyrasiga o'ynatib yurgan Hosilaxon...

So'rashdilar. Umar unga ahvolini aytdi. U do'kon ichkarisiga kiritib, oldiga ul-bul qo'ydi. Ishdan keyin, bir oz-bir ozdan ichishdi. Keyin Hosila dangaliga shunday dedi:

— Menga uylanasanmi? Umar o'ylandi:

— Odaming yo'qmi?

— Aftimga qara.

Ertasiga Umar unga uylanar bo'lib shart qo'ydi:

— Oyog'ingni qiyshiq bossang o'lasan!.. Keyin, meni «siz»laysan.

Hosila yiqqan bisotini sarflab ancha tuzuk to'y qildi. Umar uning bir xolasidan qolgan hovliga «yig'ilib» bordi. Keyin, Hosila to'yda bosh bo'lgan magazin direktoridan iltimos qilib, erini ham qo'shni non do'koniga ishga oldirdi.

Umar savdo ishidan xabardor edi, eplab ketdi.

Oydan oy, kundan kun o'tib, bular bir magazinda ishlay boshladilar.

...Ummatjon besh yoshga kirganda, Hosilaga hozir ishlayotgan magazin direktorligi tegdi. Saldan keyin direktorlikni erining nomiga o'tkazib, boshqa hamma ishni o'z qo'liga oldi. Magazin katta. Uchta bo'limi bor: birida mebel sotiladi, birida — gazmol, yana birida — ro'zg'or buyumlari.

Qo'llarida o'zlaridan bo'lak yana uchta qizcha ishlaydi.

To'g'ri, bu magazinni olish oson bo'lmadi. Hosila bultur urilib ketgan shahar savdo boshlig'iga ko'p narsa va'da qilgan edi: uni uzguncha bo'lari bo'ldi.

Lekin, keyin...

Ular ishga pishiq-puxta edilar: ikki savdo xodimining tili bir bo'lsa, ko'p ish qilsa bo'larkan.

...Qisqasi, ularning imoni ham, umrlari ma'nosi ham pul bo'lib qoldi. Planni bajarish — bi-rinchi o'rinda, albatta. Biroq magazinga borishdan maqsad — bugun nima tushadi, degan talabni qondirish, xolos.

Biroq ular kamtar, ko'rinishda kamsuqum, ko'pchilik o'rtasida ko'zga tashlanmasdi ham.

Qadambekni aldab-suldab hayhotdek hovlisini sotib olishgach, endi orzu-havas ko'yiga tushdilar: pishiq reja bilan imorat boshlashdi. Darhol uning atrofi xom g'isht bilan o'ralib, ichki tomon tsement suvoq qilindi. Imorat bitgach, derazalariga ichkaridan temir panjaralar o'rnatildi.

Bunga ancha xarajatga tushdilar.

...Bu yokda Ummatjon o'sib kelardi.

Endi ular boshlashdi.

Pul, pul, pul...

Uning yo'lida vijdon, andisha, odamiylik — sariq chaqa.

Agar ularning moli tekshirilsa, shu rayonda emas, qo'shni rayonlarda ham «yomonotliq» bo'lib, bir «Jiguli»ni varillatib yurgan manman degan olifta magazinichining molidan o'n chandon ko'p chiqadi.

Lekin bular kamtar — faqir: xaridorlar bilan yetimchadek muomala qiladilar.

Ular kulgini yaxshi ko'rishadi. Kunduzlari ishlab, tunlari totli suhbat asnosida, kimni qanday «tushirganlari», kimga chap berganlarini aytib, xaridorlarning ustidan kulishadi. O'zlari dono, aqli. Chunki ular pul topish yo'lini bilishadi. Ularning pullari bor!

Keyin... istiqbol haqida shirin xayol surish boshlanadi.

Ummatjon! Ummatjon!..

Mana, Ummatjon harbiyga ketdi. Uning iti ham o'ldi. O'rniga keltirilgan kichik Jek gurillab o'syapti... Er-xotin esa magazinda: xaridorlarni aldashyapti, ular ustidan kulishyapti... o'zlariga ola qaragan bitta-yarimta shubhali «xit»ning ko'nglini ham ovlab, keyin shubhalari qiynog'ida ham qolishyapti. Endi ularning ashaddiy dushmanlari — OBXSS odamlari yo militsionerlar yoki jurnalist, yoki shubhali shaxslargina emas...

Ular hammadan qo'rqishadi.

...Ummatjon ketgandan beri bir yil o'tdi. Undan xat kelib turipti. Xizmati chegarada. «Sizlarni so-g'inaman. Lekin bu yerda qolib ketishim ham mumkin», deb yozadi. Keyin, albatta: «Mahallaga salom, Qadambek boboga salom... Jekka salom!» deydi.

Umar aka bilan Hosila opaning quvonchlarini!.. Keyin uning «qolib ketishim ham mumkin» degan gapidan g'oyat hayron bo'lishib, bir-biriga tikilib qolishadi.

Holbuki, Ummatjon bolalikdan ota-onasini hayron qoldirishni yaxshi ko'rardi. Ba'zan shkafga kirib olib, ularni kunlar sarson qilari, keyin chiqib, qah-qah urib kulardi.

E'tirof etish kerak: u sodld, qing'irlikdan yiroq yigit edi.

Bular kabi ota-onaning bolasi unday bo'lmaydi, deb o'ylash mumkin. Lekin gap shundaki, Umar aka bilan Hosila opa ko'pchilikda qoldirib yurgan «yaxshi» taassurotlarini o'g'illariga qoldirishni istamaganlaridanmi, o'z qing'irliklarini Ummatjondan zinhor yashirishar, bolaning nazarida, ota-onasi sutdek oq, musichadek beozor edi.

Ha, ular qanday kamtar, kamsuqum.

Ishdan boshqa narsani bilishmaydi...

Bir kuni kechqurun «subbotnik»dan qaytib, barg yozib qolgan xurmo tagida, kreslolarda horg'inlikdan mast bo'lib o'tirishar, Hosila opaning ovqat qilishga hushi yo'q, o'rtadagi uchoyoqli stolchada taomning «qurug'i»dan kolbasa, yaxna go'sht, ikra bor edi.

— Qarang, shu xurmo «odam» bo'ldi-ya!

— E! Hozir Toshkentdayam o'syapti.

— Yeng endi!

...Taomlardan cho‘qinib, qorinlarini «aldashgach», iliq ko‘klam oftobida mizg‘igilari kelib turarkan, o‘rtada beozor suhbat davom etdi:

—Bahor ham o‘tib ketyapti!.. Biz magazinga qamalib yotibmiz.

Umar aka javob bermadi: u temir darvoza tagida qulog‘ini ding qilib yotgan Kichik Jekni ko‘rsatkich barmog‘i bilan imlardi. Nihoyat, amr ohangida;

—Je-ek! — degan edi, avlodi bo‘rilardan aynigan, biroq egasiga binihoya sodiq ovcharka uchib keldi va Umar akaning tizzasiga suykilib, unga porlab turgan ko‘zlarini bir muddat tikdi-da, asta yerga bag‘rini berib yotdi. Umar aka uni silab-siypadi. — Xotin, xuddi Katta Jekning o‘zi-ya! Yo qudratingdan!

— Ummatjon kelsa taniyolmaydi, — dedi Hosila opa.

— Lekin o‘tpuskaga kelsa, bari bir biladi...

— Unda mayli!

— A-a... ungacha buyam to‘pposday bo‘lib qolar.

— Eshshakday bo‘ladi, deng... Vey-vey hoziroq... aftiga qarang. Undan ham ziyrak!

— Barbosdan tarbiya olgan-da.

...Bundan to‘rt oycha muqaddam Qadambekning masla-hati bilan Barbosni o‘n kun kunduzi uyga keltirib qo‘yib, undan go‘yo hadis oddirishgan edi: Barbos hovli sahniga qo‘ngan musichani ham qo‘ymas, nari ko‘chadan bir sharpa eshitilsa ham darvoza tagiga borib pisib yotardi.

O‘zi, ajoyib hayvon-da, bu zot! Itni o‘zimizda odamlar hurksin, hovlini qo‘risin, ovozi chiqsa, o‘g‘ri ham gochadi, deb saqlashadi ko‘pincha.

Bu jnivor esa — xuddi bo‘rining o‘zi: na huradi, na odamni qo‘rqitadi. Indamay yotsa-da, vajohatini ko‘rgan odamning imoni qirq gaz uchadi.

— Hoy, siz bir narsani o‘ylaysizmi hech?— so‘rab qoldi Hosila opa. — Ummatjon armiyadan kelsa...

— Nimani o‘ylashim kerak? — dedi Umar aka. — Kelishi sharofatiga restoranda ziyofat qilib berasiz...

— Restoranda?

— Res-toran-da! — uqtirdi Umar aka. — Hali hammani shu yerda to‘playmiz, deb ham qolarsiz?

— Yo‘g‘-e...

— Sen menga shuni ayt, uni qaysi o‘qishga joylab qo‘yishimiz kerak? O‘g‘ling ancha sodda...

— A-a, uni bilaman.

...Ummatjonning soddaligi mahalla odamlariga ham besh qo‘lday ayon, uni ko‘plar maqtashar edi. O‘zi ham katta-kichik demas, bemalol aralashib ketaverardi.

Ummatjon Qadambekka ham yoqardi. Yigitcha unga uylaridan gazak o‘g‘irlab oborib berar, uning alkash-chalkash gurunlarini g‘oyat qiziqish bilan tinglardi.

Umar aka irg‘ib turdi.

— O‘zi kelsin!.. Diydoriga bir to‘yay! Bas... Keyin aytganini qilamiz! Borimiz o‘shaniki-da!

— O‘shaniki!

— Ey, uch-to‘rt yildan keyin magazinni topshirsak...

— Unday demang! — dedi Hosila opa ko‘zlari ola-kula bo‘lib. — Keyin nima qilamiz?

— Aqlliman deysanu o‘ylamaysan...

— Xo‘sh?

Umar aka turdi-turdi-da, kulib yubordi.

— O‘zim ham bilmayman.

...Shundan keyin ular bugungi hashar haqida, rayon prokurorining nemischa mebel kerak, deb iltimos qilgani, unday mebdan bir emas, bir nechtasi do‘kon ortidagi omborda turgani holda, unga «yo‘q» deganlari va unday mebel kelishi hamon u kishining uyiga telefon qilishlarini aytganlarini. Eslashib kulib o‘tirishdi.

— Lekin o‘zi yaxshi odam-a, — deb qoldi Hosila opa.

Umar aka xotiniga ola qaradi:

— Ha, yoshgina yigit...

— Tavba! Qarisangiz ham quyilmaysiz-da!

— Yo‘q, o‘zingizga boqing...

— Xo‘p. U yomon odam!

— Bu boshqa gap.

— Bir kelib qolgandi-da.

Umar aka itni yana bir oz siladi-da, chuqur xo'rsindi.

— Odamning-ku, yaxshisiyam ko'p, — dedi asta. — Lekin sen, men shunday joydamizki..

— Tushunaman-e!

— O'gmishimizni esla...

Hosila opa erining gapini o'zicha tushundi:

— Yana boshlayapsizmi?

— Obbo! — Umar aka yana kulib yubordi. — Hali aytdim-ku, ishdan chiqsak deb...

— Xo'sh?

U miyig'idi kuldi.

— Ilgarigidek... yashab ketaolamizmi? — Keyin darhol xotiniga qaradi. — Yo'q, — dedi. — Hozir, shukur, obro'yimiz ham bor. He, ilgariyam...

— Ko'ryapsizmi, davlatning, xalqning savdosini deb, yeyish-ichishimizda halovat yo'q dedim, Xushbekovga.

— Sen boplaysan ammo-lekin!..

...Oradan yana bir yil o'tdi. Umar aka bilan Hosila opaning yurish-turishida ilgari ko'rilmagan bir shoshqaloqlik paydo bo'lgan, bunga faqat Ummatjonning kelish muddati yaqinlashgani sabab, deb bo'lmas, undan kattaroq pinhoniylar ham borga o'xshardi.

To'g'ri, Ummatjon chegarada xizmat qilayotgani uchunmi, yo'l uzoq, bir yo'la bitirib boraman, deb o'tpuskaga kemadi. Shu bois Umar aka bilan Hosila opa toza diqqat bo'lishdi, sal narsaga bir-biri bilan aytishib qolgan paytlari ham bo'ldi. Bu — bir. Keyin buyog'i — savdoning ham mazasi qochdi. Mol ko'p, xaridor ko'p, lekin kimdan olaringni bilmaysan. Tekshir-tekshir... Xaridorlarning ham tilginasi chiqib qolgan, bir tiyinning ustida ming marta o'lib-tiriladi. Savdoda ikki xil baraka bor, biri — davlatu xalqniki, ikkinchisi — eplagan sotuvchining. Shu ikkinchisiga putur yetdi-yu, vahimasi ham er-xotinni tentirib, asabiy qilib qo'ydi. Endi uncha-muncha tanishga ham «aka-uka» deb o'tirishmas, mabodo magazinga tumonli kirib qolsa, ikkisi bir og'izdan «talab berishardi».

— Gap bormi? Ayting... Yo'q, biz siz o'ylaganlardan emas!.. Ishonmasang, ana OBXSSga bor, melisaga bor!.. Bizlar bir oylikxo'r odamlarmiz! Savdodan yomonlar, ustiga qo'yib sotarlar chiqqan bo'lsa, chiqqan! Bizga nima!..

— Mana, bizning turish-turmush!..

Haligi odam bunday gapni eshitgandan keyin izza bo'lib chiqib ketardi.

Er-xotin esa, shu asno o'zlarini yanada dono va udda-burro sezishardi. Aqchalari ko'paygandan ko'paymoqda: o'ntalik qizil pullar yashil ellikliklarga aylangan, endi o'n qator dasta bilan bir qator dastaning bo'yi tenglashib qolgan edi.

Er-xotinning pulga mukkalari bilan ketishiga sabablardan yana biri — vaqtning ziqligi, harna, ularni bu yerga bog'lab qo'yishgani yo'q, bir kunmas-bir kun ishdan ketishlari tayin. Boshqa sabablarini bilgich odamlar bunday ta'riflashdi: pul — baloyi azimki, domiga tushgan kimsa o'zini to'xtatolmaydi.

...Bir kuz kechasi. Yo'laklarda daraxtlardan to'kilgan yaproqlar shildirab yugurishar, esayotgan shabada juda yoqimli edi. Kichkina shahar ahli uyquga ketib qolgan. Faqat ko'cha soqchilari, mast-alastlar hamda vokzallardagi avtobus va poezd kutayotgan yo'lovchilar uyg'oq.

Toshkent poezdidan bir necha askar bolalar ham tushishdi. Aksarini kutgani chiqqanlar bor ekan — ular to'xtab qolishdi-yu, bir yigit chamadonini yengil silkitib, perronga chiqdi.

Atrofga qaradi. Bekatga bordi. Odam ko'p. Xiyobon oralab piyoda ketdi.

U rayondagi eng yirik magazin oldidan o'tayotib to'xtadi-da, gulzor chetida, cho'tkachilarning boshpanasiga o'xshab turgan yog'och uychaga qaradi. Unda chiroq bor edi.

U ildam o'tib bordi.

— Qadambek bobo!

Buklama karavotda engashgan ko'yi uxlayotgan qariya cho'chib boshini ko'tardi. Qo'li yonboshida yotqizib qo'yilgan miltiqqa yugurdi.

— Tanimayapsizmi? Ummatjonman-ku, men! — dedi yigit. — E, yashang-e! Toza mast bo'psiz... Bermayman endi! Sizga deb «Pertsovka» olib edim.

Chol turib, ko'ziga yosh oldi.

— Afv et, bo'talog'im! — U qattiq intilib, Ummatjonni quchdi. U beti, bu betidan o'pdi. — O'tir, o'tir,

bo'taloq... — O'zi o'tira solib, gap boshladi. — Seni sog'inar edim! Meni hurmat qilarding, bilaman...

— Albatta hurmat qilaman!

— Kam bo'lma! — Chol shunday deb, boshini egib bir zum jim qoldi-yu, birdan xurrak torta boshladi.

...Ummatjon birpas jilmayib turdi. Keyin tislana-tislana uzokdashdi.

Ummat yaxshi xizmat qilib, ko'p narsani ko'rib, yetilib, ko'p narsaga fahmi yetar bo'lib qolgandi-ku, biroq haligacha soddalik, beg'uborlik va bolalarcha sho'xlik uni tark etmagan edi...

U uylariga yetib, darvoza tirqishidan qaradi. Hech narsa ko'rinmadi. Ota-onasi yo darvozada tirqish ham qoldirishmagan, yoki hovli chirog'i o'chiqligi uchun shunday «ko'rindi».

«Nima qilay? — deb o'yladi. Qo'li elektr qo'ng'iroqqa cho'zildi-yu, ortga tortildi. — Syurpriz qilaman!»

So'ng darvoza tagiga engashib qaragan edi, nimaningdir pish-pish etgani eshitilib, yuragi qinidan chiqqudek bo'lib ketdi.

— Jek, Jek! — dedi.

Darvoza g'alati tirnaldi-yu, jimidi.

—E, Jek og'ayni! — dedi-da, devordan oshib tushish uchun tislani qaradi. Ko'cha chirog'i nurida harbiylikdan tanish tikanli sim ko'rindi. — Obbo!..

Otam ham, onam ham qiziq-da! — dedi-da, qo'ng'iroq tugmachasini bosdi.

Bolalikdan tanish qo'ng'iroq ohista jiringladi. U kuta boshladi; boshqa sas eshitilmadi.

«Qattiq uxlashipti-da», dedi-yu, hayrat bilan es-ladi: oldin ham bir necha shunday ovora bo'lgan edi.

Umar aka bilan Hosila opa kechasi eshik ochishni allaqachon tark etishgan edi.

...Ummatjon yana devor boshlariga qaray ketdi-yu, birdan ko'zi tolga tushdi. «O'-o'!» deb yubordi. So'ng o'ylanib, chamadonini garaj ustiga otdi: hali oladi. Olmasa... bir hisobda olmagani ham tuzuk. «O'g'ri tunadi», deydi, ularni bir oz qo'rqitadi, keyin...

Qah-qah otib kuladi.

U shahd bilan tolga tirmashdi-ku, lekin bo'lmadi — etiklari tiyg'ondi. So'ng yugurib kelib, bir sakradi-da, shoxga osilib oldi.

U devor ustida!

Ana, hammayoq barala ko'rinyapti.

...U pastga qaradi; hovlilari. Sekin simdan o'tib, bir qo'li tol butog'idan tutdi-da, pastga sakradi. Shu... bir balo gardanidan bosdi.. Tipirchilab ag'darilgan edi, bo'yniga yopishdi.

Hosila opa, odatda, vaqtli uyg'onib, hovlini bir kezib chiqar, keyin, choy qo'yib, Umar akani uyg'otardi.

Bugun ham barvaqt tashqariga chikdi-yu, hovli yuzida yotgan, chaynalgan askarcha shapkani ko'rib qoldi. Gangib borib, egilmoqchi bo'lib turganida, xuddi birov unga: «U yoqqa qara!» deganday bo'ldi.

Qarab...

...Xotinining bo'g'iq ovozidan uyg'onib ketgan Umar aka ham shoshib tashqariga chiqdi. Zinadan tushganda, ko'zi uyqudan arimagan edi.

Nihoyat u ham...

— O, bolam!.. O, men!.. — deya oldi.

Kichik Jek, zo'r ish qilganu egasidan siylov-siyपालash va yana allanimalardan umidvordek xurmo tagida cho'nqayib o'tirardi. U Umar akaning ham yiqilganini ko'rib, qo'zg'aldi. Asta yurib kelib u kishini, so'ng Hosila opani hidlab ko'rdi.

Keyin, tol tagiga qarab qo'yib, yana xurmo ostiga bordi-da, cho'nqayib o'tirdi.

1984

BODOM QISHDA GULLADI

Men burchakda, karavotimda chalqancha yotardim, behol. Ko'kragimda Stendalning «Qizil va qora» romani. Eshikdan oq xalatli, semiz Polina, uning ketidan pakana, qora patli xalatining etagi yerga tegib turgan bir yigitcha kirdi. Uning iyagi oldinga turtib chiqqan, ko'zi chuqur, peshanasi botiq edi.

— Sizlarga yangi mehmon olib keldim, — dedi Polina hammamizga tegishli qilib. So'ng men tomonda yotgan jo'raboshimiz Ziganshinga qaradi: — Qabul qiling, o'rtoq starosta. Bu kishining ismi... — U yigitchadan so'radi: — Ismingiz nimaydi?

— Nosir, Nosirjon! — dedi mehmon hozirjavoblik bilan.

— Ana, Nosirjon ekan, — dedi Polina. — Palataning tartib-qoidasini o'rgating. — So'ng elektr choynak qoshida turgan kursini unga ko'rsatdi: — O'tiring, Nosirjon. Men hozir kelaman.

Nosirjon onasi ish buyurgan yosh boladek kursiga o'tirib, kalta qo'llarini tizzasiga qo'ydi. So'ng birdan irg'ib turib, dam u, dam bu tomonga qarab:

— Assalomalaykum, assalomalaykum! — dedi.

— Vaalaykum, — dedi Ziganshin. — Endi tanishib olamiz-da. Qani, o'zlari nima ish qiladilar?

— Kurer, — dedi Nosirjon o'rnidan turib.

— O'tiring... Kurer? Qaerda?

— Aptobus parkida.

— A, nima bo'lib... siz ham jigar kasalmi?

— Jigar! — Nosirjon o'ng biqiniga kaftini bosib qo'ydi. — Hech munaqa kasalim yo'q edi. Ertalab parkka kelsam, bitta tanish shopir: «Ko'zing sarg'ayipti,, medpunktga kir», deb qoldi. Medpunktga kirsam, jigar kasali, deb aytishdi. Keyin «skoriy pomosh»ga o'tqazib, buyoqqa yuborishdi. Pastda tekshirishdi. Cho'miltirib, mana bularni kiydirishdi. Keyin bu yerga... o'zingiz nima ish qilasiz, aka?

Ziganshin g'urur bilan kuldi:

— Karavotsozlik fabrikasida injenerman!

Nosirjon juda ulug' odamga duch kelganday o'rnidan turib ketayozdi. So'ng boshqa bemorlarga ham hurmat va sezilarli qo'rquv bilan bir-bir qaradi.

— Bu yerda yotgan boshqalar ham... chakana odamlarmas! — dedi Ziganshin. — Anavi odam yozuvchi! — deb meni ko'rsatdi.

Nosirjon menga tikildi. Men unga «shunaqa aybim bor», degandek siniq iljaydim. Lekin uning ko'zlari katta ochilib ketgan edi. Jo'raboshimizning so'zi davomiga quloq solmay:

— Men shoir Rafiqiyni ko'rganman! — dedi u hayajon bilan. — Apisha zakaz qilish uchun bosmaxonaga boramiz-da! He, ko'cha devorlariga, avtobuslarga yopishtiriladi-ku apisha? O'sha uchun... O'shanda ko'rganman. Oq sochli kishy ekan.

Dam hajviyanamo, dam qasidanamo she'rdar yozib yuradigan, qalam ahli orasida obro'siz, menga yoqmaydigan bir tizmakash edi Rafiqiy. Men horg'in bosh irg'agan bo'lib:

— Taniyman... Yaxshi, — dedim.

Ziganshin hamxonalarini tanishtirishda davom etdi: bu kishi — tilshunos, institutning ilmiy xodimi; bu kishi — mashhur montyor, ushbu kasalxonaga ikkinchi bor tushishlari: u kishi — Qodir etikdo'z, ammo zo'r kitobxon; anavi yigit — buxorolik. Gazli zilzilalarini ko'rgan, xolalarining uyiga kelganda shu kasalga yo'liqib, bu yerga tushib qolganlar; narigi kishi — militsiya kapitani, yoshliklarida lo'li qizga oshiq bo'lganlar...

Polina kirdi. Qo'ltig'idagi choyshab va adyollarni burchakdagi bo'sh karavot uetiga qo'yib, birin-ketin yozdi. Qappaytirilgan oppoq yostiqlarning yon-veriga tap-tap urib, sochiqni karavot boshiga tashladi. Tumbani ochib, bir pachka qog'ozni g'ijimlab oldi-da,. Nosirga jilmayb, ta'zim qildi:

- Marhamat, Nosirjon!

Nosir sakrab turdi. U ham beo'xshov ta'zim qilgan bo'ldi.

— Shumi mening karavotim, shumi? — deya tumba qoshiga o'tdi.

— Shu, shu! — dedi Polina faxr bilan.

Nosirni bir men emas, boshqalar ham kuzatib yotishardi. U jilmaygancho oppoq choyshabni silab ko'rdi.

Yestiqqa qo'l tegizdi. So'ng to'shak chetini qatlab, karavot qirg'og'iga o'tirdi. Polina kulib:

— Xo'p. Tezroq tuzalib keting. Tartib-intizomga rioya qiling... Ko'p harakat qilmang. Hoziroq yoting! — deb chiqib ketdi.

Nosir shosha-pisha xalatini yechdi. Qidirinib, eshik yaqinidagi ilgichga ildi. Keyin zimdan bizning qanday yotganimizni ko'zdan kechirib, asta adyolni ko'tardi. Tovoni qiyshayib ketgan eski tuflisidan kichkina oyoqlarini chiqarib, karavotga tizzalab chikdi. Asta cho'zildi. Adyolni ko'ksigacha tortdi.

— Xo'p, gurung bering endi, Nosirjon! — dedi Ziganshin.

Chindan ham palatada aytilmagan gap kam qolgan, ko'p latifalar ikki-uch marotalab aytilgan, kimning nima to'g'risida gapirishi ham taxminan ma'lum edi.

Bunday vaqtda kishi ermakka muhtoj bo'ladi.

Nosirjon Ziganshinga o'xshab karavotining boshi tomon surilib o'tirdi.

— Shu bizning ishimiz qiziq-da, — dedi.

— Nimasi qiziq?

— Deylik, o'zim... — Nosir bu tomonga o'ngarilib oldi. Birdan hayajonlanib: — Odamlarga hayronman! — deb xitob qildi. — O'zlari aptovusga chiqadigan bekatning nomini bilishmaydi, aka! Uni bilsa, narigi bekatni bilishmaydi. Uni bilsa, qanday aptovuslar to'xtab o'tishini bilishmaydi!

— O'shalarni bilish juda shartmi?

— E, qiziq ekansiz-ku, siz ham! Bilmasa adashadi-da!.. Adashadi! — deb ta'kidladi u zo'r qanoat bilan. So'ng o'zicha maza qilib davom etdi: — Desangiz, bizga... menga har oy bepul abonement qog'oz berishadi. Bo'sh vaqtim bo'ldimi, duch kelgan aptovusga tushaman. Shaharni aylanaman... Misol uchun, aptovusda ketyapman. Ko'rib qolamanki, bekatda bir chol alanglab turipti. Sezaman: yo'lni bilmaydi, adashgan... Shartta aptovusdan tushaman. «Salomalaykum, otaxon! Yo'l bo'lsin?» «E, bolam, adashib qoldim. Falon joyga bormoqchi edim». Men darrov u kishiga tushuntiraman: shundoq aptovus keladi, o'shanga o'tirib, falon bekatda tushasiz... Vassalom. Chol bizni duo qiladi. Men yana aptovuzga tushib ketaveraman. Yana bir bekatda...

— O', siz juda olijanob ekansiz! — dedi tilshunos qo'shnim ovozida sezilarli kinoya va quvlik bilan.

Nosirjon yayrab ketdi.

— E, unchalik emas, aka!

— Nosirjon, uylanganmisiz? — deya yotgan joyidan turib o'tirarkan, so'radi Eshim montyor.

Hamma kulib yubordi: Eshim ayollar haqida, nuqul o'shalar haqida suhbatni yoqtiradi va o'zi ham shundan so'zlab charchamaydi. Bu borada behayo gaplarni ham aytib yuboraveradi.

Nosir Eshimga tikilib qoldi-da, duv qizardi.

— E, qo'ying-e! — dedi yosh boladek.

— Iya, nega qo'yar ekanman! - deya avj qila boshladi montyor. — Hayot — o'shalar bilan hayot, uka! Bizni bor qiladigan ham, yo'q qiladigan ham o'shalar, sizga aytsam! Masalan, o'zim! Uylanganman. Ikkita bolam bor... — U davomini aytishdan o'zini tiyib, Nosirga tikildi. — Hali... yaxshi ko'rganingiz ham yo'qmi?

Nosirjon battar qizarib, boshini egdi. So'ng qandaydir titrab...

— Odamdan kulmang-da, aka, — dedi.

— Nega kular ekan? Siz yigit kishisiz! — deya luqma tashladi buxorolik Aminjon.

Nosirjon o'zining yigit kishi ekanini ilk bor eshitgandek, Aminjonga hayrat, aralash o'qraydi. Keyin o'zicha jiddiy tortyib, bemalol shiftga bokdi. O'ylandi.

— Yo'q, — dedi.

Uning jiddiyati ham kulgili, ham yoqimli edi.

— A, bolapaqir-a! — deya xitob qildi Ziganshin. — Dunyoning lazzatidan benasib yurgan ekansan-ku, uka! O, muhabbat! — Yana bir parda ko'tarildi: — San'atsiz turmush — vahshiylik, deymiz. Lekin muhabbatsiz turmush-chi?!

Nosir «Rosti bilanmi?» degandek jo'raboshiga uzoq tikilib qoldi-da, so'ng birdan menga qaradi. O'rnidan qo'zg'almoqchi ham bo'ldi. Polinaning gapini esladi shekilli, yana yotdi.

Men bunday sodda yigitni ko'rmagan edim.

Osma ukollarni olib kelishdi. Odam boshiga bittadan. Sepoya ustiga shisha idish o'rnatilgan, idishning biqinida — qizil rezina ichak. Ichak uchida — igna. Shu igna bilak tomiriga sanchib qo'yiladi. Idishdagi qonni tozalovchi suyuqlik shu orqali tomirga o'tadi. Qon suyulib, badan sovib ketadi.

Navbat Nosirjonga yetganda Polinaning ishi o'ngidan kelmadi. Palatamizga qarovchi vrach — Qobil doktorni chaqirdi. Qobil doktor, odatdagicha — labida sigaret, Nosirning boshida xo'b kuymandi. Oxiri:

— Siz dorili suv ichasiz. Stakanga qo'yib bering, Polina! — dedi-da, mening yonimga keldi. — Qalaysiz, shoir? — U qo'llarini xalati kissalarini yirtgudek qilib tirab, menga tikildi. Yonboshimdan Stendalning kitobini

oldi. — A, — dedi. — Buyam she'r yozganmi?

— Men she'r yozmayman, — dedim.

— Bari bir, — dedi u. — Eski zamonda hammalaringni, shoir deb atashgan.

U tabobatdan ham o'sha zamonlar muolajasini ko'proq tan oladi. Ota-bobosi tabib o'tgan.

— Bu gashgagiz to'g'ri, doktor, — dedim.

— Oqshom bir she'r olib kiraman. Ko'rib berasiz.

U nuqul Usmon Nosirning she'rlaridan ko'chirib kelib, menga ko'rsatadi. Men unga «Yaxshi she'r yozibsiz», deyman. U: «Men bari bir shoir bo'lmayman. Shunchaki ko'ngil uchun...» deb qo'yadi. O'zining ahvoli-ku, ma'lum, mening yolg'on gapirishimni ham bilsa kerak. Mayli-da. Vaqtni ayamay bir shoirdan she'r ko'chiribdimi... yaxshi ko'rganidan ko'chirgan. Rafiqiyga o'xshash da'vogarlardan shular tuzuk-da.

— Nosirga... ichishni buyurdingizmi?.. — deb so'radim.

— Tomiri et orasida qolib ketgan. Yoshligida raxit bo'lgan. Nichevo, — dedi u. Keyin sigaretini bemalol buruqsatib chiqib ketdi. Polina havoda suzayotgan pag'a-pag'a tutunni sochiq bilan yelpigan bo'lib, zorlandi:

— Qobil aka hammani hayron qiladi, tavba!

— Lekin qo'llari yengil-a? — dedi montyor.

Polina ko'zlarini katta ochib:

— Voy, asta so'ramang! ToshMIgayam chaqirib turishadi! — dedi.

Idishdagi suyuqlikning kamayishi, tamom bo'lishini kutib yotish kerak. Kishi zerikadi. Qo'l uvishadi.

Polina chiqib ketgach, Nosirjon tumba ustiga olib qo'yilgan idishdagi suyuqlikni birpasda ichib bo'ldi. Keyin, o'ziga favqulodda bir yengillik berilganu, biz bechoralar atay mashaqqatga solingandek, mamnuniyat bilan jilmayib karavoti qoshida bir oz turdi. So'ng qo'shnisi — Aminjonning yoniga asta o'tdi. Engashib uning bilagiga qaradi.

— O', qon chiqyapti-ku, yana!

— Bor ekan, chiqadi-da, — dedi Aminjon. Nosirjon bosh chayqab kuldi.

— Mening tomirimni topisholmadi, — dedi quvonch bilan. — Ilgariyam topisholmagan. Keyin oyog'imga ukol qilishgan.

Bemorlar tomirlaridan igna chiqib ketmasligi uchun ohista kulishdi. Nosirjon har bir bemor yonida bir to'xtab, mening qoshimga yetib keldi. Stulni olib o'tirganida Ziganshin toqat qilib turolmadi:

— Mulla yigit, hamshira nima dedi sizga?.. Nega yuribsiz? Jigar kasal deydilar buni! Jimgina yotish kerak!

— Rost, — dedim men ham. — Sizni bu ahvolda ko'rsa, urishadi.

Nosirjon sapchib stuldan turdi-yu, nochorlik bilan eshikka qarab, bir zum tek qoldi. Keyin:

— Sizdan bir-ikkita gap so'rayman, — deb shivirladi menga...

Polina sepoyalarni ikkitadan-uchtadan qilib ko'tarib chiqib ketgach, eshikdan Qobil doktor ko'rindi. Menga ko'z qisib, xotinim kelganini, hozir kirishini aytdi.

Uyga qishlokdagi bir do'stimdan xat kelgan ekan. Sadaf shuni olib kelibdi. Xatga bir baxshi shoirning to'rt qator she'ri ham qistirilgan ekan. Menga yoqdi. Shoir osmondan turnalar karvoni o'tayotgani, allaqaerdan sumalak hidi kelayotgani, havolar ipakdek mayin bo'layotganini aytib: «Enajon, bilmadim, navro'z keldimi», deb she'rni yakunlaydi. Ayniqsa, shu satri yokdi.

— «Enajon, bilmadim, navro'z keldimi...» Yaxshi-ya? — dedim xotinimga.

U ham yig'lamsirab, ham kulimsirab:

— Tashqarida esa qish! — dedi.

— Qor qalinmi?

— Hammayoqni qoplab yotibdi. Sirpanchiq... Anavi vrach yaxshi. Meni kiritvordi.

— Yaxshi. Bo'пти. Jigar kasal ham yuqumli. Qaytaver endi.

Nosirjon karavot qoshiga kelib turgan ekan.

— Assalomalaykum, kennoyi! — dedi.

Sadaf alik oldi.

— Tuzalyapsizlarmi? Tezroq tuzalib chiqing-lar-e.

— E, hademay otday bo'lib ketamiz! — dedi quvonib Nosir. — Bu yerning sharoiti!.. Jannatda topilmaydi! Qarang, kennoyi, hammayoq oshyuq, ozoda... Hozir osma ukol qilishdi! Shu deng, men dorini ichdim. Bari bir foydasi bo'lar ekan!

Turgan gap, Sadafga uning xunuk qiyofasi yoqmadi. Lekin u andishali ayol — bildirmadi:

— Doktorlar tanishingiz bo'lsa kerak-da, — deya kulib qo'ydi.

Hamisha hammaning gapiga qulog'i ding Eshim montyor gap otdi:

— Bu ukamiz ustasi farang ekan, kelin!

Tushlik ovqatni ahvoli og'irroq bemorlar to'shagida o'tirib yeydi. Bu yerga oldinroq tushganlar, ya'ni tuzalib qolayozganlar esa o'rtadagi stolda tamaddi qilishadi. Kastryul va boshqa idishlar qalangan aravachani ham ko'pincha Polining o'zi g'ildiratib kiradi.

Polina asli yahudiy bo'lsa ham, juda o'zbeklashib ketgan, nuqul «O'zimizning o'zbeklar-da...», deb gap boshlaydi. Kasallarga mehribon. Ichida Qobil doktorni yaxshi ko'rsa kerak. Ayniqsa, zond yutgan paytlarimizda unga suyanib qolamiz. Zond — yarim gazdan oshadigan rezina ichak. Bir uchidan asta-sekin yuta boshlaysan. Tomog'ing qichimsirab ketaveradi. O'qchisang, bo'g'ilib qolasan. Polina dalda berib: «Oz qoldi. Yigitsiz-ku! Ha, bo'ling!» deb turadi. Zondni sug'urib olish o'zingning qo'lingdan kelmaydi. Boyoqish hamshira ikkinchi uchidan sochiq bilan ushlaydiyu ko'z ochib yumguncha chiqarib oladi. Juda yengil tortib ketasan.

Tushki ovqatdan keyin bir muddat gangir-gungur suhbat; so'ng uyqu elitadi. Jigari og'rigan bemorlar juda zaif, madorsiz bo'larkan. Ovqatning ham mazasi yo'q. Kuchli taomni esa doktorlar yo'latmaydi.

Tush ko'ribman shu kuni. Tomda turgan emishman. Ko'kdan turnalar karvoni o'tayotganmish. Osmonning u yer-bu yerida pag'a-pag'a, quchoq-quchoq oppoq bulutlar. Yosh bola emishman. «Enajon, navro'z keldi!» deb baqirarmishman.

Biz uyg'onganda Nosirjon uxlab yotardi. Uning g'iy-bati boshlandi. Tilshunos qo'shnim yonboshlab:

— Kechirasizu men shu yigitchani... maymunga o'xshatdim, — dedi.

Men kulib qo'ydim. Tilshunos shivirlab gapirgan bo'lsa ham, qo'shni — Qodir ztikdo'z eshitgan ekan.

— Abdulla Qahhorning «Sinchalagi»da Eshon bor-ku, xuddi o'shaning o'zi! — dedi.

Aminjon ham uni Eshonga o'xshatgan ekan. Jo'raboshimiz Ziganshin:

— Kelinglar, uni Eshon deb ataymiz! — dedi.

Militsiya kapitani jilmayib:

— Har qaysilaringning bittadan-ikkitadan bolalaring boru o'zlaring bolaga o'xshaysizlar-a! — dedi.

Oshpaz uyg'ur yigit:

— E tangrim, o'zing kechir, — deb qo'ydi.

Bu yigit ellik beshinchi yillarda Qashqardan buyoqqa o'tgan, ko'p xudojo'y, ko'p kuygan banda edi.

— Jim! Qimirladi! — Eshim montyorning shu gapidan keyin g'iybat to'xtadi.

Nosirjon uyg'onib, birdan turib o'tirdi. Bir daqiqa bizga begona nazar bilan qaragach, oppoq pishiqlik tishlarini ko'rsatib jilmaydi:

— Yaxshi uxlab turdilaringmi, akalar?

— O'zingizdan so'rasak? — dedi Ziganshin.

Nosirjon jilmayib, tizzasidagi adyolni ikki tomonga qaratib siladi. Oppoq devorlarga quvonch bilan boqdi.

Uning ancha faqir oilada o'sgani ko'rinib turardi. U jilmayishini qo'ymay birpas o'tirdi-da, karavotdan tushdi.

Sochiqni olib:

— Betni yuvish kerak, betni yuvish kerak, — deb chiqib ketdi.

— Ichimizda yolg'iz musulmonimiz shu ekan! — deb xitob qildi uyg'ur yigit.

Uning gapida jon bor: uyqudan keyin istaganlar chiqib bet-qo'lini chayib kelar, istamaganlar turiboq turpmi, olmami kavshashga tushar edi. Sirasi, hadeb yo'lakka chiqaverishimizni vrachlar, hamshiralalar ham xushlamasdi. Ayniqsa, endi tushgan kasallarning chiqishini... Shu kuni Nosirning qili-g'imi, oshpazning gapimi ta'sir qilib, hammamiz yuvinib keldik.

Nosir mening yonimga keldi.

— Aka, muhabbat nima?

Men horg'in kulimsiradim.

— Uni boshidan kechirmagan odam bilmaydi... U yurakka sodir bo'ladi, Nosirboy. Uni ko'rsatib ham bo'lmaydi. Jahlingiz chiqqanda, birovni urasiz. Quvonganda — suyasiz... Muhabbat ham shunga o'xshash narsa... Lekin u nodir his. Boyagi hislar ham, kezi kelganda, unga bo'ysunadi, ukam. — «Qizil va qora»ni qo'lga oldim. — Mana shu kitobni yozgan odam, hayotning asl ma'nosi muhabbatda, deydi...

— O'-o'!

Men ham zerikkan edim, shunday mavzularda uzoqroq gapirishni istardimu, lekin hamxonalarning diqqatini

ortiqcha jalb etish, ularga mahmadana bo‘lib ko‘rinishdan cho‘chirdim.

— Shunaqa, — deb qo‘ya qoldim. — Ha, siz chindan ham biron qizni...

— Qo‘ysangiz-chi, aka.

— Ota-onangiz bordir, Nosirjon?

— Otamiz hayot...

— Aka-ukalar?

— Yo‘q. Yolg‘iz farzandmiz.

— Nechanchi sinfni bitirgansiz?

— E! — dedi u kulib. — Beshinchidan o‘qishni tashlab ketganmiz, aka! — So‘ng shod-xurramlik bilan davom etdi: — Sho‘x bo‘lganmiz-da, yoshlikda! Lekin bir bola uzun temirni boshi ustida aylantiraman deb bizning boshni yorib qo‘ygan. Shunda o‘zimdanda ketib qolgan ekanman... Olti oy kasalxonada yotdim. Tuzalishga tuzaldim-u, harfni tanimay qoldim, aka. Keyin javob berishdi. Lekin «o‘qima», deyishadi. Bu qanaqasi, dedim. Maktabga chopdim. Sinfga kirib o‘tirdim. Lekin, aka, doktorlar rost aytgan ekan, salga boshim og‘rib qolaverdi. Boshim og‘risa muallimga aytaman. U kishi menga javob beradi. Oxiri: «Boshing og‘risa, bemalol chiqib ketaver», dedilar. Keyin, istagan paytimda darsga kirib, istamaganimda chiqib yuraverdim. Bolalarning menga havasi kelardi... Bitta fizika o‘qituvchimiz bor edi. He, yettinchiga o‘tganda! Yettigacha maktabga qatnadim-da. — Nosirjon qah-qah otib kuldi. — Lekin meni sinf jurnaliga yozishmagan ekan. Beshinchi sinfda qolavergan ekanman... O‘sha fizika o‘qituvchimizni yaxshi ko‘rardim... Ba‘zan o‘zlari: «Endi bor!» der edilar. Men chiqib, boqchadan u kishining bolasini uylariga oborardim. Hovlisida ishlardim. Gul kesardim, meva terardim...

Polina kirdi. Nosirjon karavotiga qochib bordi. Hamshira bizga bittadan harorat o‘lchagich berib, Nosirga barmog‘i bilan po‘pisa qildi-da, tag‘in chiqib ketdi.

Jigar kasalining tuzalayotgani haroratda ham ko‘rinadi. Biroq, eng ishonchli belgisi — ko‘z bilan badandan sariqning ketishi, kishi o‘zini tetik tuta boshlashi. Yana biri — jigardagi shishning pasayishi, yo‘qolishi. Nihoyat, qonning tozalanishi.

Oldinroq tushgan kasallar jigarining usti qichiy boshlasa, shish qaytyapti, deb quvnrishardi.

Shu kuni harorat o‘lchagichni olgani qaytib kirgan Polina shivirlab, militsiya kapitaniga ikki kundan keyin javob berilishini aytdi. Hammamiz quvonib ketdik, u kishiga havas bilan boqdik.

Kechki ovqatga bir oz vaqt bor, har kim o‘z ishi bilan mashg‘ul. Birov kavshanadi, uyg‘ur o‘rtog‘imiz karavoti tagiga yashirib qo‘ygan bankadagi baliqqa tikilib o‘tiradi. Aminjonning ikki ko‘zi derazadan tashqarida. Men «Qizil va qora»ni o‘qiyman. Ziganshin bilan Eshim o‘zaro shivirlashib, piq-piq kuladi. Men onda-sonda ularga qarab qo‘yaman. Aniq esimda: Nosirjon karavotda qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, jiddiy, allanarsani o‘ylab yotardi.

Xubbijamol kirib keldi. Xonamiz to‘lib, go‘yo hammamiz tuzalib qolganday bo‘ldik. U TashMIning to‘rtinchi kurs studenti. Bizning nomi xunuk kasalxonamizda praktikasini o‘tar, haftada ikki-uch kun navbatchilik ham qilar edi. Uni hali vrach deb bo‘lmasdi, albatta. Biroq, ko‘zlari xiyol qiyiq, xipchagina bu qizda kishining ruhini daf‘atan ko‘taradigan, uni olis kengliklarga undaydigan va yaxshi kunlarini yodga soladigan bir o‘ktamlilik, hayotbaxshlik bor edi.

— Assalomu alaykum, akajonlar!

Nosir o‘rnidan turib ketib, hammamizdan oldin alik oldi:

— Vaalaykum. Keling, opa!

Xubbijamol Nosirga qiziqish bilan tikildi. Chehrasida kinoya ham, istehzo ham, yigitchaning maymunga o‘xshash qiyofasidan hayronlik alomati ham ko‘rinmadi. Ichimda qizdan minnatdor bo‘ldim.

— Siz... qachon keldingiz? — deb so‘radi qiz.

— Bugun, bugun! — dedi Nosirjon hovliqib. — Hali... tushdan oldin. Shu deng, opa, hech munaqa kasalim yo‘q edi. Ertalab garajga kelsam, bitta shopir: «Ko‘zing sarg‘ayipti, medpunktga kir», deb qoldi. Medpunktga kirsam, sen «jeltuxa» deb, mana... — U mung‘ayib yelkasini qisdi. — Hozir...

Xubbijamol allaqanday suyib yigitchaning kiftiga qoqdi.

— O‘tiring. Yoting... Ismingiz nima?

— Nosirjon! — dedi Ziganshin.

— Yo‘q. Eshon... Eshonjon! — dedi Qodir etikdo‘z.

Eshim ham kulib, uning so‘zini ma‘qulladi.

- Yo tavba. Qulog‘iga azon aytib qo‘yilgan oti bor-ku! — deya xitob qildi uyg‘ur yigit.
Xubbijamol qah-qah otib kulib, Nosirga:
— Qaysi ism yoqadi sizga? — dedi.
— Menga.. o‘zimmiki-da! Bizda eshon o‘tmagan, — dedi Nosirjon.
— Bo‘pti. Bo‘lmasa, sizni Nosir eshon deymiz. Yoqadimi?
Nosirjon «Bu kishiga nima deyin?» deganday, biz tomonga ko‘zlarini kattartirib qaradi.
— Rozi bo‘lmaysanmi? Rozi bo‘l! Shunday qiz... seni eshon deb tursa-ya! E, Xubbijamol, menga aytmayisizmi, haqingizga duo qilardim!
Nosirjon endi Xubbijamolga qaradi.
— Ixtiyor o‘zingizda, — dedi qiz.
— Yo‘q. Mayli! — dedi Nosirjon birdan hayajon bilan. — Xohlasangiz, Nosir eshon deyavering, opa! Mayli!
— Hah, yoqmay qolsin, — deya qiyqirib kuldi Eshim.
Xubbijamol ham kulib:
— Bo‘pti! — dedi. — Siz bugundan e‘tiboran — Nosir eshonsiz!
— Ura! — dedi etikdo‘z.
Xona kulgiga to‘ldi.
— Bo‘lmasa, Nosir eshonim, siz ham bu akalaringizga o‘xshab yotasiz! — dedi Xubbijamol va nihoyat biz tomon burildi. Biroq uning «eshonim» degani yangidan kulgi uyg‘otgan edi. Har kim Nosirga har yoqdan gap otadi. Eshim esa, hammaning so‘zidan xulosa chiqargandek, men tomon kelayotgan Xubbijamolga sirli ovozda:
— Bu, juda g‘alati bo‘ldi-ku! — dedi. — A, singlim? Eshonim dedilar... Hoy, Nosirboy, nima balo qilib qo‘ydingiz hozir? Xubbijamolning so‘zini eshitdingizmi?
— Nimani eshitdim? — dedi Nosirjon gap nimadaligini uqolmay.
— Axir, sizni «eshonim» deb, o‘zlariniki qilib gapirdilar-ku?
Nosirjon yalt etib, hatto ko‘zlari olayib qizga qaradi. Xubbijamol kula-qula:
— Ha, nega endi o‘zimmiki qilib gapirmas ekanman! — dedi. — Balki...
Xona yana qiyqiriqqa to‘ldi.
— Balki... balki-ya! — deb oh chekdi Eshim. — O‘, eshon! Baxting bor ekan, uka! Yoki bo‘lmasa... o‘lgudek uxajur ekansan, uka! Birpasda shunday qizning boshini aylantirib tashlading-a!
Nosirjon qo‘rqib, ammo ishshaygancha dam unga, dam bunga boqar edi. Xubbijamol karavotim oldiga kelib, uni to‘sib qo‘ydi. Qiz shu kungacha bizning har birimizni o‘rganib bo‘lgan, har birimizga tegishli gapni allaqanday ichki sezgi bilan his qilib aytar edi.
— Kitob... Haliyam kitob! Zerikmaganingizga hayronman! — dedi menga. — Kennoyimning o‘rnida bo‘lga-nimda, kitobdan boshqa narsalar ham bor, der edim...
— Xuddi xotinimning gapini aytdingiz, singlim, — dedim.
Qurmag‘ur yigitlar shu gapdan ham qiyiq topib kulishdi.
Xubbijamol tilshunosga uning tuzalib qolgani, vrachlar nima uchun javob berishmayotganiga hayron ekanini aytdi: holbuki, uning ko‘zidan hali sarig‘i ketmagan edi. Montyorga:
— Kasalxona sizga yoqipti. Bu gal ham chiqqandan keyin tuxumdan ko‘proq yeng. O‘zimiz opkelamiz! — deb hazillashdi.
Yana qiyqiriq, yana kulgi bo‘ldi. Eshimboy o‘tgan gal tuzalib chiqqach, xotiniga bozordan o‘nta tuxum keltirib, o‘novini ham paqqos yutib, ertasi kechga qolmay yana kasalxonaga kelib tushgan ekan.
Xubbijamol Ziganshinga kasalxonadan chiqqach, ko‘proq ichishni «maslahat» berib, Aminjondan:
— Gazlini sog‘inmayapsizmi? — deb so‘radi. So‘ng shunday barvasta yigitga kasal bo‘lib yotish yarashmasligini aytib, kapitan bilan so‘rashdi. Oshpazga yetganda karavot tagiga qarab olib: — Rahmingiz kelsin-a? — dedi.
Yana Nosirjonning yoniga qaytib, unga qandaydir ham achinish, ham mehr bilan bokdi. So‘ng yana hammamizga tegishli qilib:
— Akajonlar, bugundan boshlab yana xizimatingizdamiz! — deb chiqib ketdi.
Nosirjonning Xubbijamol bilan uchrashuvi shunday bo‘lgan edi. Buning davomi... Davomini kim o‘ylabdi deysiz!
O‘sha kuni Xubbijamolning Nosirga «eshonim» deganini eslatib, men ham qandaydir ilmoqli gaplar qildim.

Eshim-ku tinmadi. Hatto militsiya kapitani ham Nosirjonga: «Sizga juda boshqacha qaradi», — dedi. Keyin, qizning xonaga kiriboq Nosirga qiziqqani yana ancha gap bo‘ldi...

Oqibatda Nosirjon o‘ylanib qoldi. Odamzod qiziq-da: uning jiddiy o‘ylanishi ham yoqimli, qiziq; ham kulgibop, ermakbop edi. Agar bu gap-so‘zlar oqibati Nosirni qanday ko‘ylarga solishini ilganimizda... Yo‘q. Aksincha, unga hazil qilish, qizni eslatish bizga yoqar, bunga sari Nosirjonning Xubbijamolga qiziqishi ortar edi. Buni ko‘rib, biz xudai yolg‘on-yashiq gaplar bilan bir muhim natijaga erishayotgandek tuyardik o‘zimizni.

Bular — keyingi gaplar. Lekin o‘sha kunning er-tasi Xubbijamol Polina bilan xonaga kirganda Eshim:

— Singlim, eshoningiz tuni bilan kiprik qoqmay chiqdi! Oshiqi beqaror bo‘lib qolganga o‘xshaydi! — dedi.

Qiz qah-qah otib, ukasining yelkasini silagandek, Nosirjondan:

— Shundaymi? — deb so‘radi engashib.

Nosirjon, ko‘zlari katta ochilib, asta karavotdan

tusha boshlagan edi, qiz uning tizzasiga shap-shap urib: «Yoting, qimirlamay yoting!» — dedi. Nosirjon yotdi-yu, lekin qizdan ko‘z uzmadi.

Ha, Xubbijamol o‘ziga xos go‘zal, barno qiz edi. Bo‘yi Nosirjondan bir yarim qarichcha baland.

— Agar shu gap rost bo‘lsa, bo‘ldi! — dedi Xubbijamol qaddini ko‘tarib. — G‘animlar kuysin! To‘g‘rimi, eshonim?

— Sevgilim, dengda-e! — dedi Eshim.

Qiz qo‘llarini orqasiga qilib, qaddini ko‘tardi.

— Sevgilim, desam, nima qipti!

— Ura! — dedi Qodir etikdo‘z.

— Ura-a! — dedi Ziganshin.

— Aytmovdimmi, siz... zo‘r yigitsiz! — dedi Aminjon.

Nosirjon bir uning og‘ziga, bir buning og‘ziga qarar, ko‘zlari yana ham kattarib ketgan, ko‘rinib turibdi, ichidan qattiq hayajonlanar edi. Polina, odatdagicha, yana bittadan harorat o‘lchagich ulashdi. Harorat o‘lchagichni qo‘ltig‘imizga qisib, uyoq-buyoqdan gaplashib yotdik: tashqari qor... O‘zga xonalardagi kasallar. Kimdir Polinadan: «Qobil doktor qaerda?» deb tagdor qilib so‘radi. U qizarib ketib: «Eng yomon palata, shu, Jamol... Tag‘in siz shu xonaga kirasiz-a!» — dedi. Bu gap yana yigitlarning jag‘ini ochib yubordi.

— Nega kirmasinar? Bu yerda sevikli eshonlari yotipti-ku!

— Obbo eshon-e! Usta ekansiz, pirim!

— Ura!..

Yarim soatlardan keyin Qobil doktor sigaret tutatib kirdi. Har bir bemorning qornini ochib, ji-gari ustini chertib ko‘rdi. Tiliga, ko‘ziga tikildi. U aytgan gaplarni, odatdagicha, Polina yozib oldi. Chiqa turib:

— Shoir, kecha ish chiqib qoldi, bugun kiraman, — dedi menga.

Ovqatlandik. Gurung. Kimlardir uxladi. Men ham bir oz mizg‘ib, kitobni qo‘lga olgan edim, Nosirjon bir-bir bosib qoshimga keldi.

Tumba oldidagi stulga o‘tirdi. U ancha horkin edi. Kulgim qistadi.

— Kecha yaxshi uxlamaganingiz rostmi? — deb so‘radim.

— Men? Yo‘q... Uxladim, — dedi u nimadandir hayiqqandek. So‘ng eshikka qarab oldi-da, qizarib, asta shivirladi: — O‘zlari chiroyli-ya opaning?

Tilshunos eshitib yotgan ekan:

— Nega opa deysiz? Nega? — dedi birdan do‘q qilib. Uyg‘oqlar kulib yuborishdi. Nosirjon endi oqarib:

— Opa-da! U kishi mendan katta! — dedi.

— Vey-vey, o‘laman! — deb nido qildi Eshim montyor. — Shu kattami? Xo‘p, katta bo‘lsa bo‘pti-da... Mening xotinim ham o‘zimdan besh yosh katta. Bo‘yi ikki qarich baland!

Yana kulgi bo‘ldi. Uyg‘ur yigit:

— Yo oblo! Buzildinglar, jo‘ralar! — dedi. Kapitan ham uni quvvatladi:

— Bularning gapiga ishonmang, Nosirjon. Nosirjon menga tikilib turdi-turdi-da:

— Shundaymi, aka? — dedi.

U mening «Shunday emas», deyishimni kutardi. «Nega buning ko‘nglini cho‘ktiray?» deb o‘yladim-da:

— Kim biladi, — deya yelka qisgan bo‘ldim. Nosirjonning chiroyi ochildi. Tag‘in eshikka qarab qo‘ydi. Shunda men bir adib sifatida... odamda bo‘layotgan o‘zgarishni ko‘rdim; uni kuzatish ahdim bo‘lib qoldi. Yozuvchilik kasbi ba‘zan shafqatsizlikni talab etadi. Deylik, aybdorni so‘roq qilishyapti. Uning qarindoshlari

yig'layapti, tomoshabinlar hayratda. Tergovchi esa pinak buzmaydi. Yozuvchi ham ba'zan shunday holga tushadi. Biroq, sizni ishontirib aytaman, uning tergovchidan farqi bor — u qiynalib, o'rtanib kuzatadi, «suroq qiladi». Ammo, tabiiy, buni sirtiga chiqarmaydi. To'g'ri, u ham odam, ba'zan sirtiga tepib ham qoladi.

— Rahmat, rahmat, aka, — deb shivirladi Nosirjon va joyiga qaytib ketdi.

Yana osma ukol kirdi. Nosirjon shisha idishdagi dorili suvni stakanga quyib yana ichib oldi. Keyin lablarini yalab:

— Menga yokdi. Men tuzalyapman, akalar! — dedi.

Polina sepoyalarni yig'ib chiqarkan, Nesirjon unga bir nima demoqchi bo'lib ko'p shaylandi. Nihoyat uning orqasidan chiqdi. Eshim montyorning ham ketishiga sanoqli kunlar qolgan, qoni tozalanayotgan edi. Endi o'ziga ehtiyotkor bo'lib qolgan. Shunga qaramay, karavotdan shoshib tushib, eshikdan mo'raladi. Anchadan keyin qornini ushlagancha qaytib joyiga keldi. Piq-piq kulib:

— Priyomniy pokoygacha bordi, — dedi. — Qobil quvib soldi... Xubbijamolni so'ramoqchi edi!

Kulga ko'tarildi. Nosirjon shumshayib kirib, joyiga o'tdi.

— Bor ekanmi? Gaplashdingizmi? — dedi Eshim.

— Kim? — deya talmovsiradi Nosir.

— Kim bo'lardi, jonon-da. Nosirjon sovuq o'qraydi. Menga qarab:

— Aka, jonon degani yaxshimi, yomon? — dedi.

— Qanday aytilishiga bog'liq, — dedim men. — Menimcha, Eshim akangiz beg'araz...

Nosirjon Eshimga ishonchsizlik bilan qarab qo'ydi. Keyin to'shagiga chiqib yotdi. Shu bo'yi tushki ovqatgacha gap qotmadi. Turib-turib mening unga rahmim kelar, lekin uni ko'nglida kechayotgan xayollaridan ayi-rishga ko'zim qiymas edi. Buning ustiga, bu holatlarning davomi menga qiziq tuyular, nazarimda, shunchaki o'yin bo'lyapti-yu, Nosirjon buni payqagach, kulib yuboradigandek... edi!

Ovqatdan keyin ham Xubbijamol ko'rinmadi. Kechki uyqudan uyg'onsam, u eshik og'zida qo'llarini qovushtirib turibdi. Hamma uyg'oq. Chamasi, men kitobga berilib, kech uxlagan edim.

— Mening qadrimga yetmadinglar, endi ketaman... — deya yotgan ekan u. Ovozidan shirin bir sho'xlikni, beozorlikni uqdim. Ilgarilari ham ketayotganida, chamasi, shunday der edi. — Yo'q, imtihonlarimiz boshlanib qoldi, — deya davom etdi Ziganshinga qarab. So'ng yonida tik turgan Nosirjonga uqtirdi: — Har imtihonni topshirgandan keyin kelib sizni... mana bularni ko'rib ketaman!

— Voy-voy, chidolmayman! — deb baqirdi Eshim. — Sizni... dedingiz-a, Xubbijamol?!

Xona yana kulgiga to'ldi. Bir qarashda, shirinsuxan hamshiralalar bilan bunday hazil-huzul o'zga xonalarda ham bo'lishi mumkin edi. Lekin ulardan farqi... bizning xonadagi hazil «cheti»da titrab-qaltirab Nosirjon turar, chamasi, Xubbijamolning ketayotganidan u qattiq iztirobda edi.

— Xo'p, eshonim, hozircha xayrlashamiz, — dedi qiz nihoyat. Keyin bizlarga ham bir-bir qarab, bir og'iz-yarim og'iz gap otib, yana Nosirjonga boqdi. Unga qattiq tikildi-da, kulib yubordi. Kulgisida qandaydir achinishni aniq sezdim. — Nega mundoq turibsiz? — dedi. — O'tiring!.. Yoting. Ha-ha, yoting, darrov yoting! Xafa bo'laman!

Nosirjon «Rosti bilanmi?» deganday, unga xo'mrayib boqdi-da, shosha-pisha karavotiga chiqib o'tirib oldi. Xubbijamol qo'lini orqasiga qilib xiyol egildi.

— Muvvaffaqiyat! Faqat «besh» bo'lsin! «Besh», — deya tilak tiladi yigitlar.

— Lekin, — dedi qiz birdan qovoq solib, — men «besh» olib kelganimda, sizlar ham bemalol yuradigan bo'lmasalaring, bilasizlarmi, xafa qilaman!

U eshikdan chiqar ekan, Nosirjonga tag'in iliq, xayrxoh tabassum hadya qildi.

Men Nosirjonni kuzatar edim. U bir nafas qotgancha o'tirdi. Keyin qovog'ini uyib karavotdan tushdi. Tuflisini oyog'iga ilib, kichkinagina bo'lib, eshikdan chikdi. U chiqqan zahoti Qobilning shovqini eshitildi. Nosirjon qochib kirib, shu bo'yi yotib oldi.

Keyin Qobil kirib:

— Nima ish qilsang, qil, lekin hozir yotishing kerak, bola! — dedi... — Qadimdayam tabiblar yotqizib davolagan!.. O'zing dori ichib yotibsan. Tomirlaring... haligiday! Koridorda nima bor?!

— Nima, nima... yo'qmi? — deya to'ng'illadi Nosirjon.

— A?

Nosirjon teskari qarab yotdi. Qobil shoshilmay kelib, karavotim yonidagi stulga o'tirdi. Katak daftar varag'iga yozilgan she'rni uzatdi. Ilk jumlasini o'qib, kulimsiradim. Bu ham Usmon Nosirning she'ri edi.

*Sevgi, Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan...*

Uning hurmati uchun she'rni oxirigacha o'qidim, ichimda maza qilib o'qidim. U bemalol sigaret tutatar, mening hukmimni kutar edi.

— A'lo she'r! — dedim.

— Shunaqa. Bo'sh vaqtda yozamiz, — dedi u. — Men bostirishga qiziqmayman... Sizda qolishi mumkin.

— Rahmat! — dedim. U chiqib ketdi. Tilshunos qo'shnim varaqni so'rab olib, bir oz tikildi-da, baland ovozda o'qiy boshladi:

*Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan...*

Men bu she'rni ilk marta o'qigan chog'larimni, erta bahor sobiq omborxonani darsxonaga aylantirib, lampachiroq shu'lasida o'tirgan kezlarimni eslab, ko'zimni yumdim.

Yigitlar she'rni o'zlaricha muhokama qilishdi, qo'ldan-qo'lga o'tkazib o'qishdi. Qattiq kulgidan ko'zimni ochdim. Varaq Nosirjonning qo'lida, u titrabgina turardi. «Ajabo, yigitlar uni aldayapti-ku! — deb o'yladim. — Chakki bo'ldi, Xubbijamol ham uni aldadi. Yoki hazillashdi, balki ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi... Umuman, u har birimizga ham shu taxlit hazillar qilishi mumkin...»

— Nimaga kulasizlar? — dedi Nosirjon. — O'qishni bilmayman, vassalom... ana, yozuvchi domlaga aytdim, yoshlikda kasal bo'lganman. Odamdan kuladi bular! — U karavotga tappa o'tirdi-da, Aminjonga favqulodda hayajon bilan so'zlay ketdi: — Lekin kinoapishalarni birov o'qisa, darrov yodimda qoladi...

Aminjon xo'rsindi.

— Ishqilib, kurerlikdan xursandmisiz, uka?

— Juda! — dedi Nosirjon ishonch bilan. Garajni shunday yaxshi ko'raman! Bir kun bormasam, benzin hidigacha sog'inib qolaman. — U yana yayrab hikoya qila boshladi: — Meni butun shopirlar taniydi... Ish buyuradi. O'zinikiday... Direktorga bozordan somsa opkelishga chiqsam, ulargayam opkelaman.

Hayotda kim nochor kimsalarni ko'rib, ularga achin-magan? Ha, achinish mumkin, xolos... Biroq Nosirjon achinishdan «baland» yigit edi. U o'z ishini yaxshi ko'rardi, unda odamiylik ham mo'l-ko'l edi. Eng muhi-mi — soddadillik, ishonuvchanlik...

Bunday kishini hurmat qilmay bo'ladimi? Lekin bunday mo'rt kishilarni har ko'yga solish ham odamlarning qo'lida. Ayniqsa, zerikkan, ermakka zor kimsalar qo'lga tushsa...

— Xullas, bu she'r siz uchun bitilgan, Nosirjon eshon! — dedi Eshim.

Nosirjon bu gapdan xayron bo'lib, varaqqa qarab oldi. Keyin yana asta yurib, qoshimga keldi. Varaqni uzatib, iltimos qildi:

— O'qib bering, aka.

— Yedlaysizmi? — dedim.

— Ha! — dedi u hayajonlanib. — Mening xotiram yaxshi!

— Mayli... — she'rni o'qimoqchi bo'ldimu undagi Otello, Shekspir, Dezdemona kabi nomlarni Nosirjonga qanday tushuntirsam ekan deya o'yladim. Keyin, bu she'r faqat sevgi haqida ham emas, zero unda:

...Qanday qabohat,

Ki odamning o'ziginamas,

*Hissini ham xarob qilsa davr! —
degan gaplar bor.*

— Nosirboy, siz shu qatorni yaxshi bilib, tushunib olsangiz yetar, — dedim. — Shoir bu satrlarda: «Sevgi zahmatini chekmagan, sevgi uchun qonlar yutmagan odam bormi?» deyapti... Menimcha, shoir o'zi bilgan odamlarni ko'zda tutyapti. Holbuki, sevgi nimaligini bilmay o'tib ketadiganlar ham bo'ladi...

— Sevgi nima? — deya shivirladi Nosirjon yana.

— Kecha aytdim, shekilli.

— Sevgi... sizning Xubbijamolga bo'lgan munosabatingiz! — deya uqtirib qoldi tilshunos. — Bildingizmi? Uni ko'rgingiz kelyaptimi? Rostini ayting!..

— Ayting-da, endi! — dedi Eshim ham,

— O', ko'rgisi kelganda qandoq! — dedi Zyganshin.

— Ana o'sha his — sevgi... sevgining boshi! — deb xulosa yasadi tilshunos.

Uyalib, qimtinib turgan Nosirjon ko'zlarini yirib menga tikildi. So'ng varaqni olib o'rnidan turdi.

— Menda tursin-a? — dedi. Keyin bir-bir bosib kelib, qulog‘imga shipshidi: — U kishiga beraman... opaga. Men kulib:

— Mayli, — dedim. — Lekin opa demang-da.

— A, shundaymi?

— Uyat bo‘lar.

— Ha, rost aytasiz.

Nosirjon karavotiga borib yotgach, varaqqa uzoq tikildi. Allanarsalar deb pichirladi. Chog‘imda, o‘sha ikki satrni takrorladi.

Kechki ovqatdan keyin yana suhbat boshlandi. Aminjon bilan kapitan qarta o‘ynamoqqa tushdi. Uyg‘ur o‘rtog‘imiz karavot tagidan baliqli bankani oldi. Eshim Ziganshinga o‘zining ishqiy sarguzashtlaridan hikoya qila ketdi. Nosirjon dam yo‘lakka chiqadi, dam xonaga kirib, polga to‘kilgan tarvuz urug‘larini teradi; kapitanning kichkina qo‘l priyomnigini qulog‘iga tutib, qo‘shiq eshitadi, dam mening yonimga kelib, sevgi haqida bir nimani so‘raydi.

Polina kirib, yana haroratimizni o‘lchadi.

Men «Qizil va qora»ni o‘qishda davom etdim: Sadaf bilan qanday tanishganimiz, sovuq qish kezlari kimsasiz, qor bosgan istirohat bog‘ida yurgan chog‘larimiz bir-bir ko‘z oldimdan o‘tdi.

Chiroq o‘chirilgach, Eshim montyor kapitandan lo‘li qiz bilan yana qanday sarguzashtlar bo‘lganini so‘radi. Kapitan:

— Ertaga ketaman, uka, — dedi. — Unaqa gaplarni erkak odam ko‘p eslamasligi kerak. Tajribadan-da, bu... Xotinning oldidayam og‘izdan chiqib ketsa bormi, barcha toat-ibodat bir pul bo‘ladi!

Aminjon uning gapini ma‘qullab, Gazlida tanishgan qizini mast holda xotining nomi bilan chaqir-ganini aytib berdi. Ziganshin qaysidir yoz kuni ikki o‘rtog‘i bilan butun boshli bir tovuqni yeb qo‘yganlarini hikoya qildi. Uyg‘ur yigit xo‘rsinib Qashqarni esladi...

Kechasi shamol turib, derazalarni zirillatdi. Men bu ko‘klam shamoli bo‘lgani uchun qorlarni tezda eritib yuborishi, havo mayin tbrtib qolishini o‘yladim. Tilimga xotinim keltirgan xatdagi satr tushdi: «Enajon, bilmadim, navro‘z keldimi...»

Nazarimda, Nosirjonning o‘zgarishi asosan shu kunning ertasidan boshlandi. U ruhan tetik bo‘lib uyg‘ondi. Ha, kasalga sira o‘xshamasdi. Shisha idishdagi dorili suvni ichib bo‘lgach, sepoyalarni olib chiqishda Polinaga ko‘maklashdi. U harchand do‘q qilib, yotishni buyurmasin, Nosirjon bilganidan qolmadi. Polina ikki-uch sepoya ko‘tarib ketishi hamon yana bittasini yo‘lakka chiqarib qo‘ydi.

Tushki ovqat mahali Polina taqsimchani qo‘limga berarkan:

— Domla, Nosirga nima bo‘ldi? — deb shivirladi. — Nuqul Xubbini so‘raydi. Telefon qilsalar, salom ayting, deydi.

Men yelka qisib qo‘ydim:

— Parvo qilmang, opa... Balki sevib qolgandir? Bo‘lishi mumkin-ku?

— Hay-hay, unday demang-a!.. Xubbinig bir yigiti bor, havasingiz keladi!

Buni bilmas edim.

— A-a? — dedim. — Unga arzisa, yaxshi.

— Bir-biriga munosib!

Shu kuni tushdan keyin militsiya kapitaniga javob berildi. Biz u kishini havas bilan kuzatib qoldik. Boshqa joylarda, salomatlikda uchrashaylik, dedik, niyat qildik. Ko‘pincha bir xonada yotgan bemorlar, sog‘ayib chiqqach, tez-tez uchrashib turaylik, deb bir-birlariga adres beradilar. Ammo keyin juda ozchiligi bordi-keldi qiladi.

Kapitan Nosirjon bilan xo‘shlashayotib:

— Nosir eshon, bularning gagshga ishonmang, inim. Amakingiz lo‘li qizning gapiga ishonib lo‘li bo‘lib ketishiga oz qolgan, — dedi.

Nosirjon kulib, zavqlanib xayrlashdi: kapitanning gapi unga, chamasi hech narsa bermadi.

Tungi shamol ko‘klam shamoli esa-da, qish qishligini qildi. Kechga tomon qor yog‘a boshladi. Qor derazamiz ko‘ziga shitirlab uriladi. Xonamiz iliqqina. Men «Qizil va qora»ni yarimdan oshirib qo‘ydim. Unda mashhur youvchining hayot qatlamlarini naqadar mahorat bilan bera olgani haqida o‘ylayman. Xayolim o‘z asarlarimga og‘adi; ministrilar, davlat arboblari haqida asar yozishni istayman. Istaymanu bari bir yoza olmasligim, ular qalbini ochadigan kalitim yo‘qligiga iqror bo‘laman.

Kunlar tez o'tar edi. Men ham vujudim bir yengillik sezadigan, yo'lakka chiqib chekib keladigan bo'ldim. Ana shunday kunlarning birida Eshim montyor, ham xonani tark etdi. U bilan ajralish ancha og'ir bo'ldi. U ketgach, ikki-uch kun aziz bir narsamizni yo'qotgandek bo'lib yurdik.

Eshim har birimiz bilan o'pishib xo'shlashdi. Nosirjonni o'par ekan:

— Xubbiga aytib qo'y, rashk qilmasin. Ha-ha-ha! — deb kuldi. Keyin uning kiftidan quchib: — Hazil», hazil, — dedi. — Hazilni tushunasana-ku, uka!

Eshim bu gapi bilan nimani ko'zda tutganini tasmollash mumkin. Biroq, Nosirjon bu gapni ham o'zicha tushundi:

— E, nega rashk qilar ekan! — deb qo'ydi.

Nosirjon Xubbijamol haqida xuddi bir-biri bilan allaqachon oila qurishni ham kelishib qo'ygandek, gapirar, o'qtin-o'qtin uning bo'yi balandligini aytib, «ko'chada uyalsalar kerak», der edi. Ba'zan shaharda kvartira olishning mashaqqatlariga qiziqar, lekin shu ondayoq o'zining ko'pincha garajda — buzuq avtobusda yotib qolishini zavq-shavq bilan hikoya qilar edi: «Qorovul menga ishonib qolgan. Shuning uchun u kishi uyga ketsalar, o'zim qorovullik qilaman... E, menga hamma ishonadi, aka... Ammo-lekin garajni sog'indim. Benzinning hidini bilasizmi! O'!..» Ba'zan Xubbijamolning qiyofasini o'zicha tahlil qilib ketadi: «Chiroyli, a?..»

Unga faqat uyg'ur oshpaz dakki berar, qizni eslamaslikka undar edi. Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bo'lgach: «Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!..» deb yo'lakka chiqib ketar edi.

Asta-sekin biz Nosirjonning Xubbijamol haqidagi gaplariga parvo qilmaydigan bo'lib qoldik. Bu holga ko'nikdik. Shundoq gapirar ediki, ular chindan ham bir-biri bilan oshiq-ma'shuq... Nosirjon kasalxonadan chiqqach, Xubbijamol uni kutib oladi... Keyin u Xubbijamolga uylanadi. Ha, darvoqe, u yaqinda imtihonlarini topshirib bo'lib, qaytib keladi. Lekin Xubbijamol imtihonlarining bir-ikkitasini allaqachon topshirib bo'lganiga shubhamiz yo'q edi, shunga qaramay, kelmayotgani uchun parvo ham qilmas edik.

Qiziq bo'ldi: bir kuni hammamizdan qon olishdi. Ertasi natijasini bilsak, Nosirjonning qoni top-toza chiqdi! Uni Qobil doktor ham tabrikladi. Polina quvonib: «Hammadan oldin siz ketadigan bo'ldingiz!» — dedi. Nosirjon o'sha kuni talay vaqt hech kimga gap qotmadi.

Aminjonga javob berildi. Bu novcha, qirraburun, yosh esa-da, ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirgan yigit bizni Buxoroga chin dildan taklif etdi. Adresini qoldirdi. Nosirjon bilan xo'shlashar ekan, unga negadir o'ychan boqib:

— Siz havas qilsa arziydigan yigitsiz. Biz... bo'lgancha bo'lganmiz, uka, — dedi.

Ziganshundan keyin Qodir etikdo'z bilan uyg'ur oshpaz ham ketdi. Xonada tilshunos, Nosirjon va men qoldik. Xona, bizlar chiqqach remont qilinishi kerak edi, shuning uchun odam qo'yilmadi. Xonamiz huvillab qoldi. Ko'p karavotlar bo'sh. To'shaklari buklanib qoshiga suyab qo'yilgan. Xonaning issig'i ham odamlarning tafti bilan ekan. Isitgich batareyalar kechayu kunduz qizib tursa-da, endi sovuq tuyular edi.

Polina kirib, men bilan tilshunosga harorat o'lchagich berdi-da, Nosirjonning yoniga borib:

— O'ynang, o'ynab bering, eshonim! Keyin bir gap aytaman! — dedi.

Nosirjon hayajonlanib, hatto sal qo'rqib:

— Nima gap? — dedi.

Shu tobda u nimani o'yladi, kim biladi. Otasiyu qarindosh-urug'ini o'yladi, ular hayotida biron-bir yangilik sodir bo'lganini gumon qildi, deyish qiyin: shu paytgacha uni so'roqlab birov kelmagan edi. Nosirjonning o'zi ham birov kelishini, chamasi kutmas, shunga qaramay o'sha birovlar haqida yaxshi so'zlar edi. Nojoiz bo'lsa-da, aytib qo'yish lozim: jigar kasaliga doktorlar, ayniqsa, ho'l meva va sabzavot yeyishni buyurishadi. Albatta, bunda yotib ketgan yigitlarga shunday yemaklardan kelib turardi. O'z-o'zidan ma'lum, qishda bunday tarnevalarni topish mahol... Biz, albatta, o'zimizga kelgan mevadan Nosirjonga ham berardik. Dastlab men: «Olmas, uyalar», deb o'ylagan edim. Yo'q, u ikkilanmay, biroq siniq jilmayib oldi. Keyinchalik kim qog'oz xalta ko'tarib kelsa, u kirishi hamono o'rnidan dast turib borib, xaltani qo'lidan olar, eltib tegishli yigitning tumbasi ustiga qo'yar, kelgan kishiga kursi qo'yib berar edi. Albatta, uning bu harakatlarini kuzatish kishini allaqanday azoblaydi. Biroq, o'ylab qaralsa... bunga ham ko'nikish mumkin. Xullas, Polina harorat o'lchagichni orqasiga qilib: «O'ynab bering, bir gap aytaman», deganda Nosirjon nima uchun qo'rqdi, nima uchun qattiq hayajonlandi — bilmayman. Faqat, g'ira-shira tasmol qilish mumkin: bunda Xubbijamolga aloqador bir nima bo'lishi kerak.

— Nima u? Oldin ayting. Ayta qoling! — deb birdan yig'lamsiradi Nosirjon.

— Xubbijamol sizga salom aytdi!

— Menga?

— Sizga... «Eshonimga, sevgilimga!» dedi.

Xiyol enkayib turgan Nosirjonning qo‘l-oyog‘i titrab ketganini tilshunos ham ko‘rgan ekan. Tilshunos:

— Hoy, Polinaxon, yotig‘i bilan ayting-da. O‘zini tashlavordi-ku! — dedi.

Nosir tilshunosga yeb qo‘ygudek bo‘lib qarab:

— Ishingiz bo‘lmasin! — dedi. So‘ng Polinaga yaltoqlandi. — Salom dedilarmi?

-Ha.

— A, eshonimga... yana... hm...

— Ha-ha.

— O‘ynab beraymi?

Polina bizga qaradi. Chehrasida ayanch bor edi. Boshini sarak-sarak qildi-da:

— Keyin, keyin, — deya harorat o‘lchagichni berib chiqib ketdi.

Ajoyib ayol bu Polina!

Nosirjon karavot chetiga o‘tirdi. So‘ng tura solib yostiqni ko‘tardi. Tumbani ochib qaradi. Hamxonalar bergan mevalarni u tumbaga solib, asrab yer edi. Barini chiqarib qo‘yib, tortmaning to‘ridan bir qog‘oz oldi. Ko‘ziga tutib qaradi. Tanidim. Usmon Nosirning she‘ri bitilgan o‘sha qog‘oz. U birdan shoshib lapanglab mening qoshimga keldi. Qog‘ozni ko‘rsatib kuldi.

— Qarang, — dedi. — Salom aytiptilar.

— Sevgilimga salom ayting, deptilar, — deya qo‘shimcha qildi tilshunos.

Nosirjon unga yana o‘qraydi-da:

— Ha, — dedi. — Alam qilsin!

— Obbo!

U yana menga yuzlandi.

— Qiziq-a?

Mening unga bo‘lgan butun achinishim, u haqdagi o‘ylarim, ikkilanishlarim — bari bir zumda qaytadan yangilandi. Unga aytgan gaplarimizning bari yolg‘onligi, buning esa o‘ta ishonuvchanligi yana miyamga sanchildi. Shu tobda o‘zimizni ham, ishonimga, Nosirjonni ham bir zumga yomon ko‘rib ketdim. Keyin xayolim Xubbijamolga og‘di... O‘ylanib qoldim: unda nima ayb? Ehtimol, Nosirjonning tez tuzalib ketishiga uning o‘sha hazillari sabab bo‘lgandir? Biroq, bu... Nosirjonning hozirgi qiliqlari... g‘ashni keltiradi-da.

O‘zimni bir amallab bosib, ichimda: «Mayli, quvonsin. Uyam quvonsin, deb salom aytgan-ku», dedim-da:

— Ha, qiziq, — deb uni ma‘qullagan bo‘ldim.

— Muhabbat haqiqatan qiziq bo‘larkan! — deya davom etdi Nosirjon hayajon bilan. — Men, men... tez-tez tush ko‘raman, aka... siz yozuvchi, bilasiz-ku? Tushimda hu bola paytlarimni ko‘raman. Uyimiz oldi-da chuchmomalar o‘vardi. Biz ularni bo‘tako‘z deb terar edik. Qo‘ziqorinning sigirquyruq degani bo‘ladi. Oppoq!..

— U tilshunosga qarab olib, gapdan qoldi.

Xonaga gurs-gurs yurib kirgan Qobil doktor:

— Nosir eshon, veshmeshokni hozirlang, ketasiz! — dedi. — Haliyam biz gumonsirab sizni besh kun tutib turdik.

Nosir sekin o‘rnidan turdi.

— Qaerga?

— Qaerga?.. Uy bormi, uy?

— Uy... bor.

— Ana o‘sha uyga-da! — U Nosirjonni chetga surib, stulga cho‘kdi. — Qalaysiz, shoir?

Men o‘rtadagi vaziyatni yumshatish uchun:

— Haliyam meni shoir deysiz-a? — dedim.

— Bari bir. Mana... yana bitta yozgan edim. Bu Polinaga bag‘ishlanadi.

— O‘, zo‘r-ku! — Uning qo‘lidan o‘shandoq katak daftar varag‘iga bitilgan she‘rni oldim. — Polinani, a?

— Sevamiz-da, — dedi Qobil doktor.

Men varaqqa ko‘z yugurtirdim:

Yaxshi qol,

Oq dengiz, yaxshi qol,

To'lqinlar, qo'ynimga qizdek kirdingiz...

Bu ham Usmon Nosirning navbatdagi she'ri edi.

— Nima, siz ham biron yoqqa ketmoqchimisiz? — dedim.

— Ha, ilmiy-tekshirish institutiga chaqirishyapti. O'qing... Qalay?

She'rni o'qib chiqdim: xayolimda oppoq ko'piklangan to'lqinlar o'rmlayotgan dengiz jonlandi. Bu orada Nosirjonning tashqariga chiqib ketganini payqaganu, lekin o'zimni payqamaganga solgan edim. She'rni maqtab, tilshunosga uzatdim.

— Shunaqa, — deb o'rnidan turdi Qobil doktor. — Yozib turamiz... Bu bola qaerga ketdi? O'zi ul-buli bormi? — U tumbochkani ochib qarayotganda Nosirjon kirdi. Aftiga qarab hayron bo'ldim. Rangida rang yo'q, boshi sochiq bilan bog'langan. Og'zini qo'li bilan to'sganicha karavotga hansirab o'tirdi-da, birdan turib, o'rtadagi stol tagidan korsonni oldi. Engashib og'zini ochishi bilan yarim paqircha suv otildi... Bu yerdan ketgisi yo'q. Shuning uchun vodoprovoddan suv ichib kelgan. O'zini kasallikka solmoqchi.

Haqiqatan ham u qusib bo'lgach, Qobil doktorga qaramay karavotiga borib cho'zildi. Ustiga adyolni tortdi. So'ng qizargan ko'zlarini katta ochib:

— Men hali tuzalغانim yo'q! - dedi.

— E! E! — Qobil doktor kelib, korsonga tikildi. Hidlab ko'rdi. — Suv-ku bu!

— Suv bo'lsa, suv! — dedi Nosir.

— Tavba! Ha, bu yer yoqib qoldimi?

— Yoqib qoldi!

— Hey, bola... odamlar bu yerdan tezroq ketishni istaydi. Sen bo'lsang...

— Men kasal!

Qobil doktor shoshilmay sigaret tutatdi. Bizga qarab yelkasini qisdi. Chiqib ketdi. U chiqishi bilan Nosirjon o'rnidan turib o'tirdi. Ovozi hirillab:

— Akalar, men qolishim kerak!.. Xubbijamol keladilar. U kishini ko'rishim kerak! — dedi va bo'g'ilib davom etdi: — Axir, o'ylab ko'ringlar, men qanday qilib ketaman? Uyat bo'ladi-ku? Mana, salom aytiptilar... Keladilar. Sevgilimga, deptilar! Axir, men ham yigit kishiman! Axir, muhabbat nimaligini bilasizlar... Ko'nglimda orzularim bor... Men u kishini o'shandan beri kutaman, axir! Kecha-kunduz kutaman!..

Polina kirdi.

— Eshonim?

— Yo'q, opa! Men ketmayman! — dedi Nosirjon va tag'in yotib oldi. — Ko'rib turibsiz, yotibman. Kasalman. Ana, qusdim!..

Polina turib-turib xo'rsindi.

— Xubbijamolni chaqiraymi?

Nosirjon boshini ko'tardi. So'ng yarim turib o'tirdi. Qo'llarini oldida qovushtirib:

— Jon opa, jon Polina opa!.. — dedi. — Men, vaqti kelsa, ishingizni qilaman. Adresingizni ayting. Bog'changiz bormi? Mening qo'limdan ul-bulni tuzatish ham keladi, opa...

Tushdan keyin tilshunosga ham javob bo'ldi. Men uni «tilshunos» deb atadim. O'zining gapi bu. Ammo uning o'z sohasi to'g'risida bir og'iz ham eshitganim yo'q. Onda-sonda uzr so'rab, bir og'iz-yarim og'iz qitmir gap qilardi, xolos. Menga o'zining adresini yozib berib, Nosirjonga:

— Do'stim, jo'raboshimiz Ziganshin bir yaxshi gap aytgan edi... Bizdan o'tgan bo'lsa, uzr. Ko'nglimizda tirnoqcha g'ayirlik yo'q. Men sizni hurmat qilaman, — dedi.

Bir necha marta do'q qilgan, yovuz ko'z bilan qaragan Nosirjon juda xijolat chekkandek karavotdan tushib, unga qo'l berdi.

— Siz kechiring, aka. Biz yosh, biz yosh, — dedi.

Ha, Nosirjon kekni bilmaydigan yigit edi.

Nosirjon bilan ikkimiz qoldik. Xona nihoyatda kengayib ketgandek tuyuldi. Mening ham erta-indin ketishim aniq; ikki tekshirishda ham qonim toza chiqdi. Nosirjonning esa bu yerda yolg'iz qolishini tasavvur qilolmayman. Nazarimda, Xubbijamol kelsa, ular o'zaro nimadir deb gaplashishadi-da, keyin Nosirjon ham takdirga tan berib, avtobus parkiga yo'l oladi...

Tushki ovqatdan keyin deyarli uxlamadim. Nosirjon karavotda mushtdek bo'lib o'tirar, o'qtin-o'qtin yostig'i orasidan Usmon Nosirning she'rini olib qarab qo'yar va menga kutilmagan savollar berar, o'zicha jiddiy mulohazalar yuritir edi.

— Aka, bir yaxshi ishlar qilgim kelyapti! — deb qoldi endi ko‘zim ilinganda. — O‘sha kishi uchun!.. — deya so‘lg‘in davom etdi. — U kishi bir joyda adashib qolgan bo‘lsalaru men aptovusdan tushib ko‘rsam-da, kulib, yo‘lga solsam... — U birdan quv nab, hatto jilmayib menga tikildi. — A, yaxshi-ya! — dedi hayajonlanib. — Men bilaman, u kishiyam shaharning hamma yo‘llarini bilmaydilar... Hech kim bilmaydi, menchalik! E, qancha odamlarni...

Yo‘lakdan do‘q-do‘q qadam tovushlari eshitildi. Nosirjon dong qotdi. Qadam tovushlari o‘tib ketdi.

— Ammo-lekin havo iliyapti, — deya Nosirjon karavotdan tushdi. Yaxlit oynali deraza qoshiga bordi. Deraza baland. Oyog‘i uchida ko‘tarilib pastga qaradi. — Iya, gulzor bor ekan, aka! Ana, u yer-bu yeridan qor ketipti! Qarang-a, ko‘rmagan ekanman!... Aka deyman, shu o‘zimizning pushti gul bor-ku, o‘sha so‘liy boshlaganda tagini kovlab shamollatish kerak ekan. Mana shu barmoqday-barmoqday qurt tushar ekan-da, tomirini yer ekan... Ko‘rganman...

Nosirjon mening yonimga hali yetib kelmagan edi, eshik ishonch bilan tortilib, ochildi. Bir jonon kirdi. Egnida belgiya paltosi. Yoqasida oppoq mo‘yna. Oyog‘ida poshnasi baland qizil etik. Qo‘lida tasmasi uzun sumka. Men Xubbijamolni faqat oq xalatda va shippakda ko‘rar edim. Bu parizodning, ziyoli ko‘ri-nishli qizning o‘sha Xubbijamol ekaniga daf‘atan ishonmadim. Lekin bu kulcha yuzli, yonoklari xiyol chiqiq, ko‘zlari xiyol qisiq, oppoqqina, chehrasida sho‘xlik va hayotbaxsh bir nur yog‘ilib turgan qiz Xubbijamol edi.

— Vey, nima bo‘ldi sizlarga? Yo, bu xonaga kasal kirmasin, deb ketishdimi yigitlar? Huvillab qopti-ku! — Xubbijamol tez-tez gapirar, biroq ichdan hayajonlanayotgani sezilib turar edi.

— Ha, yigitlar nomardlik qilib bizni tashlab ketishdi, — dedim.

— Yo‘q! Sizlar nomardlik qilib yotibsizlar! — dedi u. So‘ng Nosirjonga bokdi. — Eshonim, sizni allaqachon tuzalib ketdi, deyishgan edi.

— Men tuzalдим... Men... allaqachon tuzalib ketdim! — dedi Nosirjon hapriqib.

— Bo‘lmasam...

— Siz bilan...

— Xayrlashay deb yotibsiz? — U qah-qah otib kuldi. — Hurmatli yozuvchi, mana, eshonimdan o‘rnak olinglar! Sadoqatni qarang! Rahmat sizga, Nosirjon... — So‘ng ovozdagi hayajon bosilmagani holda, qandaydir hisob berayotgandek davom etdi: — Imtihonlar og‘ir... So‘nggi imtihonlar... Qiyin bo‘ldi! — U yana kuldi. — Lekin telefonda so‘rab turdim... Hammangizni... Voy-voy! — Xubbijamol uning yelkasini silamoqchidek ikki qadam bosdi-yu, ikkilanib to‘xtadi. — Albatta so‘rayman-da! — dedi. — Busiz bo‘ladimi? Ammo-lekin xursandman. Hammalaring otday bo‘lib ketibsizlar... Yozuvchi aka, siz ham ertaga chiqarkansiz!

— Shunday gap bor.

— Kennoyimga telefon qilib qo‘yaymi?

— O‘zim...

Xubbijamol taraddudlanib, soatiga qaradi. Unga bu chiroyli ust-boshigina emas, shu holatda soatiga qarash ham yarashardi.

— Bo‘lmasa, eshonim, qo‘lni bering, — deb u Nosirjonning qoshiga dadil keldi. Nosirjon kalovlanib, qo‘lini uzatdi, so‘ng darhol tortib, kaftigsira-di, yana uzatdi. Xubbijamol o‘zining barmoqdari uzun, oppoq qo‘liga Nosirjonning barmoqlari kalta-kalta, biqqigina qo‘lini olib silkitdi. — Omon bo‘ling, Nosirjon... Bir-birimizdan sira xafa bo‘lmasligimiz kerak. Bir-birimizni tushunishimiz kerak. Biz tabib edik, siz bemor edingiz. To‘g‘rimi? Sizning vazifangiz bo‘lak edi, bizning vazifamiz bo‘lak. To‘g‘rimi?

— Ha. Albatta! Sizdan minnatdormiz, — dedi Nosirjon. So‘ng xayolidan chalg‘idi. — O‘rtoqlar ham keta turib, sizga rahmat aytishni tayinlashdi. A, domla! Menga aytishdi...

— Salomat bo‘lishsin! — Xubbijamol shunday deb qo‘lini tortdi. Men tomon ikki qadam bosib: — Yotib o‘qish — ziyon, — dedi. — Siz hali ko‘p o‘qishingiz kerak-ku, ko‘z jonivor kerak bo‘ladi... — Tabassum qildi. — Xayr.

Men o‘rnimdan turdimu qo‘l uzatmadim, uning ham qo‘l berishiga harakat ko‘rsatmadim.

— Rahmat, — dedim.

Xubbijamol shoshib sumkasidan charm qo‘lqop oldi. Bittasini kiya-kiya eshikka yo‘naldi. Yetganda burilib, Nosirjonga tikildi.

— Nosirjon, ortiqcha hazil-huzul qilgan bo‘lsam, ko‘ngilga olmaysiz, — dedi. — Maylimi?

Nosirjon hovliqib:

— E, nega?! — dedi. — Rahmat, opa!

Xubbijamol tez burilib chiqdi. Eshikni zichlab yopdi. Nosirjon eshikka tikilgancha bir on turdi. Keyin «nega unday?» degan kabi menga hayrat bilan boqdi. So‘ng oshig‘ich eshikka bordi. Lang ochib, qaradi-da, darrov boshini tortdi. Qobil doktorni ko‘rdi, shekilli. Birpas turgach, yana ochib qaradi. Yana yopdi. So‘ng shoshib deraza qoshiga keldi. Men endi bu yerda chekish mumkin deb o‘yladimmi, sigaret chiqardim. Tutatib, Nosirjon qatori derazadan qaradim. Biz uchinchi qavatda edik. Pastga qarayapmiz. Past — oppoq. Gulzordagi qorga ko‘milgan ba‘zi gullarning yuzi ochiq — qori yo erigan, yo shamol uchirgan. Yiroqda baland darvoza — kasalxona darvozasi. Undan berirokda «Tez yordam» mashinasi turibdi. Orqasidan tutun chiqyapti. Nosirjon deraza rafiga qo‘lini tirab, o‘sha tomonlarga ham bir-ikki qaradi-da, yana chopib eshik og‘ziga bordi.

— Nosirjon, nima gap? — dedim.

— E, qiziqmisiz! — dedi u va ilgichdan patli xalatini olmoqchi bo‘ldi-yu, chiqara olmadi. Oq ko‘ylak, oq lozimda yo‘lakka chiqdi. Men borib, ortidan qaradim. Boshyalang, «Priyomniy pokoy» tomon ketib borardi. O‘sha yerdagi oq parda bilan to‘silgan joyda kimgadir duch keldi. Gaplashdi. So‘ng burila solib, zinadan pastlab ketdi. Izimga qaytdim. Deraza oldiga keldim. Xona chindan ham huvillab qolgan, nazdimda. o‘zim yolg‘iz bo‘lib qoladigandek edim.

Derazadan pastga qarab turardim. Qora paltoli... Xubbijamolni ko‘rdim. U mashina tomon borayotgan, mashina oldida esa novcha, timqora qunduz telpak kiygan yigit turar edi. Xubbijamol unga yetay deganda sal toygan edi, yigit chaqqonlik bilan uni bilagidan tutib qoldi. Shunda Xubbijamolning ortidan xuddi kasalxonadan qochgan jinnidek oq ko‘ylak, oq lozimda oppoq qor kechib borayotgan Nosirjonga ko‘zim tushdi. Derazaga intildim. Nosirjon kaltabaqay qo‘lini qimirlatib nimadir der edi. Xubbijamol to‘xtadi. Nosirjon qizga yetib oldi. Qizning oldida u yosh boladek edi. Shunda bu yokdan ularga qarab lapanglab borayotgan Polinani ko‘rdim. Nosirjon Xubbijamolga allanimalar dedi. Xubbijamol kuldi, chog‘i. Keyin, u Nosirjonning kiftiga qo‘l qo‘yib, bu yoqqa qaratdi. Polina yetib borib, Nosirjonning bilagidan ushlab tortdi. Qunduz telpakli yigit Xubbijamolning tirsagidan olib mashina tomon jildi. Nosirjon Polinaning qo‘lidan chiqib chetlandi. Ular orqasidan qaradi. Polina tag‘in uni sudradi. Telpakli yigit mashina kabinasini ochdi. Xubbijamol Nosirjonga qarab qo‘l silkitdi-da, ichkariga kirdi. Ortidan yigit ham kirdi. Tutun taratib turgan mashina jildi. Darvoza qiya ochiq edi, katta ochildi. Mashina chiqib ketdi.

Polina hamon Nosirjonning qo‘lidan tortar, u tisanib chiranar edi. Nihoyat, unga bo‘ysungandek yurdi-da, gulzor yoqasida qaqqaygan bir tup daraxtdan ancha o‘tganda to‘xtab qoldi. Yana Polinaning qo‘lidan chiqib, daraxt tagiga bordi. Qori supu-ilmagan skameykaga o‘tirdi. Daraxt shoxlariga qaradi.

Bu manzara mening yodimdan chiqmas bo‘lib qoldi.

Nosirjonni olib kelishgach, uni o‘rab yotqizishdi. U hech kimga qarshilik ko‘rsatmadi. Qobil doktorning do‘q-po‘pisalariga ham miq etmadi. Ular chiqib ketishgach, yoniga bordim. U bug‘riqib ketgan, naq yonar edi. Menga siniq iljayib:

— Ketdilar, — dedi. — Meni, eshonim, dedilar. Hamisha eshonim bo‘lib qolasiz, dedilar. Lekin bir yigit bilan ketdilar...

— Hayot shunaqa, do‘stim, — dedim men.

— Hayot... — deya o‘yga cho‘mdi u. — Qiziq... Ammo-lekin muhabbat ham qiziq ekan!

— Siz uni chindan ham...

— E, g‘alatisiz, domla! Siz o‘zingiz kennoyimni sevganmisiz?..

U jiddiy gapirar, biroq rangi qizarib bormoqda, peshanasiga, chakkasiga parcha-parcha jigarrang dog‘ tushgan edi. Badanim uvishib, yo‘lakka chiqdim.

Nosirjonning darhol issig‘i chiqdi. Alahsiray boshladi... Bir amallab tunni o‘tkazdim. Hamxonalarning bu sodda yigitchaga qilgan muomalalarini eslab, juda-juda o‘kindim. O‘zimni ham so‘kdim. Biroq, tag‘in nimadir menga tasalli berar, nimaligini bilmas edim.

Ertalab tursam, Nosirjon olti oylik kasaldek. Ko‘zlari sap-sariq, bir holatda. Lekin u menga jilmaydi.

— Aka, muhabbat qiziq... Muhabbatni bilmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz... Ha! — U qandaydir ichki faxr bilan qimirlab qo‘ydi. — Men buni... garajga borsam, aytib beraman. Direktorgayam aytaman!.. — U siniq jilmaydi. — Otam yo‘q... Aldagan edim sizlarni. Bo‘ladi-ku! U kishiyam qazo qilganlar. Lekin hovli-joyimiz bor! — deya hayajonlanib davom etdi. — Gulzorimiz bor! — So‘ng bir zum ko‘zlarini yumib qoldi-da, yana charaqlatib ochdi. — Pastdagi daraxt bodom ekan! Gullapti! — O‘rnidan turmoqchi bo‘ldi. — Ana, qarang! Ana... Gullapti... — So‘ng bo‘shashdi. — Lekin sovuq uradi.

— Ha, bevaqt gullagan daraxtni sovuq uradi, — dedim. Dedimu bu gapimdan ramziy bir ma‘no chiqmasligi

uchun, demakki, Nosirjonni chalg'itish uchun deraza yoniga borib qaradim. Bodom gullari menga ko'rinmadi.

Tushga yaqin menga ham javob berildi. Uyga telefon qilib, xonaga qaytdim. Polina kiyim-boshimni chiqarib berdi. Kiyinib, xotinimning kelishini kuta boshladim.

Nosirjon uxlab yotar, biroq hamon ahyon-ahyonda baqirar, alahlar edi.

Polina ohista kirib, Nosirjonga qaradi. Boshini sarak-sarak qildi. Labini qimtib kelib:

— Tushavering endi, — dedi.

— Rahmat, Qobiljon shu yerdami?

— Institutga ketdilar. Shoshilinch chaqirishdi. U kishini bilasiz-ku, zig'ircha odamgarchiligi yo'q.

— Unday emas. Sizni... yaxshi ko'radi.

— E-e!

Men Nosirjonning tepasiga bordim. U terga botib yotardi. O'zi odatda shunday bo'ladi: ba'zan uxlab yotganingda ustingga birov kelsa, darhol sezasan. Nosirjon ham sezdimi, bir qimirlab ko'zini ochdi. Menga yovuzlarcha tikildi. Keyin shosha-pisha tagiga qo'l suqdi. G'ijimlangan she'rni oldi. Varaqqa bir qaradi-da:

— Unutibman. Bermoqchiydim, qarang. Mang, — deb menga uzatdi.

— Qolaversin. Sizga, — dedim.

U g'amgin jilmayib, qog'ozni o'ziga qaratdi. Shunda men bir mo'jizani ko'rdim... Uning ko'zlari qinidan chiqqudek bo'lib ketdi. Ko'kragi ko'tarilib tushadi. Lablari pichirlaydi. Birdan menga boqdi. Xudli men — men emas, o'zi ham — o'zi emasdek boqdi. Yana qog'ozga tikildi. Lablari pichirlaydi. Tag'in menga tikildi-da:

— Aka, — dedi behollik bilan. — Men o'qiyapman-ku... O'qiyapman. Mana, qarang... «Sevgi, sening shirin tilingdan...» O'qiyapman! — U bo'g'iq, yovvoyi ovozda chinqirib yubordi-da, yuzini yostiqqa bosib ho'ngradi. So'ng o'rnidan turmoqchi bo'ldi, madori yetmadi. Men hayron edim: ha, u harfni tanimay qolgan ekan... Ajab! Nahot bu kutilmagan to'lg'oq uning ongi-da o'zgarish yasadi! Eshitganman: qo'rquv yo hayajon asnosi tildan qolganlarning, tag'in qattiq qo'rquv ta'sirida tilga kirganlarini... Ammo bu holni... Endi men Nosirjonni tanimagandek unga tikildim.

— Unday bo'lsa, juda yaxshi.

U shart burildi.

— Yaxshi-da, yaxshi-da!.. Men ham odam... Yarimtaman deb yurardim. Muni qarang, aka... Mana, mana... «Tilingdan... kim o'pma...» O'qiyapman, Polina opa!

Polina yig'lar edi.

— Men juda xursandman, — dedi va «to'g'ri gapirdimmi?» degandek menga qarab qo'ydi: u Nosirjonning o'tmishini bilmasdi. Men «to'g'ri» deganday bosh irg'adim.

Keyin sezdimki... juda xursandman. Xursand ekan-man! Sezdimki, o'sha yigitlarning sho'xligi, o'zlari bilib-bilmay ermak qilganlari... o'shalardan ham xursandman. Boringki, «Olijanob bo'laman», deb buni yo'ldan qaytarishga urinmaganim uchun o'zimdan ham xursandman... To'g'ri aytadilar: hayotning har bir ko'rinishi o'z natijasini beradi. Uni sun'iy ravishda buzmaslik kerak.

Deraza pastida taksi signal berdi.

— Nosirjon, endi men ham ketaman, — dedim.

— Rahmat... — Nosir qo'llariga tiralib o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Polina uni bosib yotqizdi. — Ha-ha, yotishim kerak, — deya boshini yostiqqa qo'ydi. So'ng qo'lini uzatdi. Qisdim. Barmoqlari lov-lov yonardi. — Aka, qarang, o'qidim... O'! — U behol kuldi. — O'sha... haligining kuchida buyam?

— Rost aytasiz, — dedim. Nimaga ishora qilgany, chamasi, Polinaga ham tushunarli edi. — Endi tezroq tuzalish payida bo'ling.

— E, men tuzalaman! — dedi u. — Albatta... — Keyin menga yana siniq tikildi. — Ketdilar-a?

— Ketdilar.

— Ha-ha... o'zim ham... Ha, mayli! Lekin, — deb jilmaydi u, — men unutmaman... U kishiyam aytdilar. «Eshonim, sizni unutmaman», dedilar...

— Men ham sizni unutmaman.

— Kennoyimni so'rang...

Shundan keyin men Nosirjonni ko'rmadim. Qaysidir kuni avtobus bekatida ko'zlari yoshli bolakay bilan cho'nqayib turib gaplashayotgan yigitchaga ko'zim tushdi. Mashinada edim. U Nosirjonmida, boshqamida — bilolmay qoldim.